

Рисунки и гравюры  
Л. С. Сидорова

M. A. SHOLOXOV



ТИНГ  
ДОН

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart


Ilgarigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

--	--

27

H.

30





821  
Sh 76

5.0

Rus adabiyoti durdonalari

# MIXAIL ALEKSANDROVICH SHOLOXOV



UMCAD

# TINGH DON

TO'RT KITOBLI ROMAN

UCHINCHI KITOB

TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2021

7.44


UO'K 821.161.1-31

KBK 84(2Ros-Rus)

Sh 76

*Rus tilidan ODİL SHAROPOV tarjimasi*

«Tinch Don» romanining uchinchi kitobida Dondagi fuqarolar urushi – 1919-yil mart oyida Don viloyatining shimoliy qismida ro'y bergan Don kazaklari qo'zg'oloni tasvirlanadi.



ISBN 978-9943-7144-1-0

© M.A. Sholoxov, 2021

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



*Naqadar shuhratlisan ulug' daryoyi azim,  
Bizning Don Ivanovich, otaxon tinch oqar Don,  
Mehr-u saxovat bilan to'liq daryoyi azim,  
Bizga suv, non, jon bergan mehribon tinch oqar Don.  
Bir vaqtlar tez oqqansan, tez oqqan mahali ham  
Igna tushsa topgudek suvlaring tiniq bo'lgan.  
O'sha yetuk ta'rifing tilda qolib, hali ham  
Atrof dong-u dovrug'ing, ovozing bilan to'lgan.  
Endi-chi, Don, endi sen burungi shashting qaytib  
Tinch oqasan, suvlaring loyqab ketib bo'tana.  
Shuhratli tinch oqar Don so'ylaydi javob aytib:  
«Axir, nega loyqamay, loyqamay ilojim na,  
Shunqorlarim ketdilar, yolg'iz qoldim huvullab,  
Yolg'iz qoldim ayrilib Don kazagi – erlardan.  
Ularsiz qirg'oqlarim o'prilar-da, shuvullab  
Sariq qumlar to'kilar, suv kemirgan yerlarda».*

(Qadimiy kazak qo'shig'i)

## OLTINCHI QISM

### I

1918-yilning apreliga kelib Don kazaklari uzil-kesil ikki guruhga bo'lindi: shimol tomondagi Xopyor, Ust-Medveditskiy va qisman yuqori Don okruglaridagi front ko'rgan kazaklar chekinayotgan qizil askarlarga qo'shilib ketishdi: quyi okruglarning kazaklari ularni quvib, to viloyat chegaralariga dovrur surib bordilar.

Xopyorliklarning qariyb hammasi ustmedveditsaliklarning yarmi, yuqori donliklarning ozchilik qismi qizillar bilan ketdi.

Faqat 1918-yildagina yuqori va quyi donliklar uzil-kesil ajralib ketishdi. Shunday bo'lishi qadim zamonlardayoq sezilgan, bundan necha asr ilgari ora buzilishga kelgan edi, chunki shimol tomonda yashov-

chi kazaklar unchalik o'ziga to'q emasdi: ular Azov bo'yining serhosil yerlaridan, tokzorlaridan, ovchilik va baliqchilik daromadidan mahrum edilar; ora-sira payt topib, Cherkasskdan chiqishar, velikoroslar yashagan joylarga bostirib kirishardi; bular Stepan Razindan tortib Sekachgacha, hamma isyonchilarning suyangan tog'i edi.

Hatto, yaqin zamonlarda ham, hokimi mutlaq zulmidan ezilgan butun lashkar orasida norozilik tug'ilgan paytlarda yuqori Don kazaklari o'z atamanlarining rahbarligida oshkora qo'zg'alib, podshoh hukumati negiziga bolta urardi: tojdorning askarlari bilan qirg'in jang qilib, Dondan o'tgan karvonlarni talashardi, Volga tomonlarga dovur borib, yengilgan Zaporojyeni isyon ko'tarishga undashardi.

Aprel oyining oxirlarida qizil askarlar Donning uchdan ikki qismini tashlab chiqib ketishdi. Viloyat uchun yangi hukumat tuzib olish zarurati aniq sezilgandan keyin, janubda kurashayotgan jangovar qismlarning rahbarlari Kengash chaqirishni taklif etdilar. 28-aprelda Novocherkassk shahrida Don Muvaqqat hukumati a'zolarining hamda stanitsa va harbiy qism delegatlarining yig'ilishini chaqirish mo'ljallandi.

Vyoshenskaya atamanidan Tatarsk qishlog'iga kelgan xatda Harbiy kengashga vakil saylash uchun ushbu oyning 22-kuni Vyoshenskaya stanitsasida yig'ilish chaqirilganligi yozilgan edi.

Miron Grigoryevich Korshunov yig'inda shu xatni o'qib eshittirdi. Qishloq ahli uni, Bogatiryov boboni va Panteley Prokofyevich Melexovni Vyoshenskayaga yubordi.

Stanitsa yig'ilishida boshqalar qatori Panteley Prokofyevich ham kengashga vakil bo'lib saylandi. U o'sha kuniyoq Vyoshenskayadan qishloqqa qaytdi va ertasiga barvaqtroq Novocherkasskka yetib olish uchun, Millerovogacha qudasining aravasida ketishga qaror qildi (Miron Grigoryevich Millerovodan kerosin, sovun va shuning singari mayda-chuyda narsalar olmoqchi, bir yo'la Moxovning tegirmoni uchun elak, babbitt ola kelib, foydasiga sotmoqchi edi).

Tong yorishganda yo'lga chiqdilar. Miron Grigoryevichning zulukday qora otlari aravani ildam sudrab borardi. Qudalar bejama guldor o'rindiqda yonma-yon o'tirib olishgan. Arava tepalikka chiqqandan so'ng ikki quda gapga tushib ketdi; Millerovoda nemislar borligi uchun Miron Grigoryevich xavotirlanib so'radi:



— Germanlar ishimizni pachava qilmasmikin, quda? Ular judayam bemaza odamlar, bo‘yning uzilgurlar!

— Yo‘g‘-e, — deb tasalli berdi unga Panteley Prokofyevich. — U kuni Matvey Kashulin o‘sha yerga borgan ekan: «Nemislar yurak oldirib qo‘yibdi», deydi... Kazaklarga tegishga qo‘rqisharmish!

— E, gapingni qara-yu! — soqoli sariq tulkinging tukiga o‘xshash Miron Grigoryevich miyig‘ida kuldi-da, qo‘lidagi olchadan qilingan qamchi dastasini qimirlatib qo‘ydi, aftidan, ko‘ngli joyiga tushdi shekilli, gapni boshqa tomonga burdi: — Qanaqa hukumat qurishni o‘ylab ko‘rdingmi, quda?

— Ataman saylaymiz. O‘zimiznikilardan qo‘yamiz! Kazakdan!

— Ilohim, shundoq bo‘lsin! Eng yaxshisini saylanglar! Generallar-ni rosa tekshirib chiqinglar, lo‘li otni qanday sinchiklab tekshirsa, siz ham shunday sinchiklab tekshiring. Hech illati bo‘lmasin.

— Yaxshisini topib saylaymiz. Donda esi butun odamning urug‘i qurib ketgani yo‘q.

— Shunday-ku-ya, quda... Aqli odamniyam, ahmoqniyam urug‘i bo‘lmaydi, o‘zidan o‘zi ko‘payaveradi. — Miron Grigoryevich ko‘zini qisdi, sepkil yuzida ma‘yuslik alomati paydo bo‘ldi. — Men Mitkam-ni odam qilmoqchiydim, ofitserlikka o‘qitmoqchi edim, lekin bolasi tushmagur ibtidoiy maktabniyam bitirmay, ikkinchi yiliyoq maktab-dan qochib ketdi.

Ikki chol bolsheviklar ketidan quvib ketgan o‘g‘illarini yodlab, bir-pas jimib qolishdi. Qatqaloq yo‘lda arava sakrab-sakrab ketar, o‘ng tomondagi qora arg‘umoq yangi taqasini taraqlatib dam-badam qo-qilib tushardi; o‘rindiqda yonma-yon o‘tirgan ikki quda tebranishib qo‘tondagi qo‘yday bir-biriga suykanishardi.

— Kazaklarimiz qayerlarda yurgan ekan? — deb uh tortib qo‘ydi Panteley Prokofyevich.

— Xopyordan o‘tishgan emish. Fedotka Qalmoq Qumiljen stani-tasidan qaytib kelibdi, oti nobud bo‘libdi. «Tishanskaya stanitsasi to-monga qarab jo‘nashgan bo‘lsa kerak», — deydi.

Yana jim qolishdi. Orqadan muzday shamol urardi. Orqa tomonda, Donning nariyoqlarida o‘rmonlar, o‘tloqlar, ko‘llar, dala-yu dasht tong-gi alvon shafaqqa g‘arq bo‘lgan edi. Katta qum tepa qizarib ko‘rinadi, o‘rkachsimon barخانlar bronza rangiga kirgan.

Bahor. O'rmonlarning och ko'k tusi allaqachon o'zgarib, daraxtlar yashil barg chiqargan, dasht gulzorga aylangan, pastlik joylardagi son-sanoqsiz yiltiroq ko'lobchalardan tashqari, hech yerda yog'in suvlari-dan asar qolmagan, biroq shunga qaramay, jar va o'ralardagi qorlar hali erib ketmagan, ilma-teshik bo'lib ketsa ham tuproqqa tarmashib olgan.

Qudalar ikkinchi kuni kechqurun Millerovoga yetdilar va elevatorning yonginasida istiqomat qiluvchi ukrain og'aynilarining uyida tunadilar. Ertalab nonushtadan so'ng Miron Grigoryevich arava qo'shib, do'konga jo'nadi. Temiryo'lni kesib o'tadigan joy-dan omon-eson o'tib oldi, umrida birinchi marta nemisni shu yerda ko'rdi. Uchta landshturmchi uning yo'lini to'sib kelaverdi. Quloq'igacha malla soqol bosib ketgan pakanarog'i qo'li bilan imlab chaqirdi.

Miron Grigoryevich xavotirlanib tizginni tortdi, sarosimalikdan tamshanib turaverdi. Nemislar yaqin keldi. Novcha bo'yli, semiz prus-sak<sup>1</sup> tishining oqini ko'rsatib iljaydi-da, o'rtog'iga:

— Asl kazakka yo'liqibmiz-ku! — dedi. — Buni qara, ust-boshi ham kazakcha! Buning o'g'illari bizga qarshi urushgan bo'lishi kerak. Tiriklayin Berlinga jo'natmaymizmi? Antiqa tomosha bo'lardi-da!

— Bizga uning oti kerak, o'zini boshimizga uramizmi? — dedi ha-ligi mallasoqol kulmasdan.

U qo'rqa-pisa olisdan otni aylanib o'tdi-da, arava yoniga keldi.

— Qani tush, chol. Bizga sening otlaring kerak, manavi tegirmon-dan un ortib, vokzalga olib boramiz. Qani bo'l, tush deyapman senga! Otlaringni komendaturadan olasan, — nemis ko'zi bilan imlab tegir-monni ko'rsatdi va e'tiroz bildirishga yo'l qo'ymaydigan ishora bilan aravadan tushishini talab etdi.

Qolgan ikki nemis orqasiga ora-chora qarab, kula-kula tegirmon tomonga burildi. Miron Grigoryevich qizarib-bo'zarib ketdi. Tizginni o'tirg'ich chetiga o'radi-da, aravadan dadil sakrab tushib, otlarning ol-diga o'tib oldi.

«Aksiga qudam yo'q, — degan fikr miyasiga bir kelib ketdi. — Ot-lardan ayriladigan bo'ldim! Xah, kasofat-ey! Meni bu yoqqa shayton boshlab kelgan ekan-a!»

---

<sup>1</sup> Prussiyalik. (Tarj.)

Nemis lablarini chirt yumib, Miron Grigoryevichning yengidan ushladi va imo-ishora bilan tegirmon tomonga yurishni buyurdi.

— Qo'vyor! — Miron Grigoryevich yulqindi, rangi o'chib ketdi. — Harom qo'lingni urma! Otni bermayman!

Uning nima deganini nemis ovozidan tushundi. Birdaniga g'azabdan ko'zlarining paxtasi chiqib, tishlarini g'ijirlatdi va ovozi boricha, chinqirib do'q qila boshladi. Nemis miltig'ining dastasiga tarmashib, yelkasidan olmoqchi bo'lganda, Miron Grigoryevich yigitlik chog'ini eslab turib, askarcha zarb bilan jag'iga solib qoldi. Zarbning qattiqligidan nemisning bo'yni qayrilib, engak ostidagi kaska tasmasi uzildi. U chalqanchasiga quladi va o'rnidan turmoqchi bo'lib qimirlaganda og'zidan laxta-laxta qon keldi. Miron Grigoryevich yana bir marta ensasiga musht soldi-da, u yoq-bu yoqqa ko'z tashlab turib engashdi-yu, nemisning miltig'ini shartta tortib oldi. O'sha asnoda uning aqli niho-yatda tez va aniq ishladi, chol otlarni ketiga burarkan, nemis ketidan o'q uzolmasligini yaxshi bilar, lekin temiryo'l devori orqasidagi yoki yo'l yoqasidagi qorovullarning ko'rib qolishidan qo'rqqar edi.

Qora arg'umoqlar poygada ham bu qadar quturib tez chopmagan edi! Hatto to'ylarda ham arava g'ildiraklari bunchalik taraqlamagan edi! «Xudoyo, o'zing asra! Qo'lga tushirma, xudo! Bahaqqi ruhi muqaddas!..» degan so'zlar Miron Grigoryevichning og'zidan tushmas, qo'li otga qamchi bosishdan bo'shamas edi. Sal bo'lsa, ochko'zligi boshiga yetay dedi. U qo'ngan uyida qolgan sholchasini ola ketmoqchi bo'ldi-yu, biroq oqibati nima bo'lishiga aqli yetib, aravani chetga burdi. «Orexovo slobodasiga dovur yigirma chaqirim yo'lni aravada chopgandan ham tez bosib o'tibman», — deb gapirib yurdi keyinchalik u. Orexovoda ukrain tanishinikiga hovliqib kirdi, joni halqumiga kelib, bo'lgan voqeani uy egasiga gapirib berdi, otlarini va o'zini biron joyga yashirishini so'radi. Ukrain yashirishga rozi bo'ldi-yu, biroq:

— Mayli, yashiray, lekin Grigoriy, bilib qo'y, meni qattiq qiynaydigan bo'lishsa, aytib beraman, — deb pisanda qildi u, — boshimni baloga qo'yib nima qilaman! Uyimga o't qo'yishadi, qolaversa, o'zimniyam dorga osishadi.

Miron Grigoryevich aravasini bostirma ostiga tortib kirgizar ekan:

— Meni yashirmasang bo'lmaydi, jon birodar! Men seni quruq qo'ymayman, nima desang beraman! Faqat o'limdan qutqarsang bas,

bir ilojini qil, bir qo'ra qo'y beraman! O'nta bo'rdoqi qo'y sendan ay-lansin! — deb yalinib va'dalar qilardi.

Chol ketidan nemislar quvib kelishidan balo- qazodan qo'rqqanday qo'rqardi. Kech kirguncha ukrainning hovlisida bo'ldi-da, qorong'i tushishi bilan jo'nab qoldi. Orexovodan chiqqach, haydab qoldi. Ot-lar terga botib, o'ng-so'lga ko'pik sachratar, arava taraqlab o'qday uchar, tegarchiklari birlashib ketganday ko'rinardi. Nijne-Yablonovo-ga yaqinlashgandagina chol es-hushini yig'ib oldi. Qishloqqa kirave-rishda o'tirg'ich ostidan o'lja miltiqni olib, tasma-sining ters tomoniga, ko'k qalam bilan yozilgan xatlariga qarab chiqdi-da, yengil tin oldi:

— Qalay, quvib yetdinglarmi, shaytondan tarqaganlar? Hali yosh-lik qilasiz!

Ukrainga va'da qilingan qo'ylarni paqqos yeb ketdi. Kuzakda yo'li tushib unikiga kelganda, joniga oro kirgan odamning savol tarzida ti-kilib turganini ko'rib:

— Qo'ylarimiz qirilib ketdi. Qo'y masalasi chatoq, — deb qutul-di. — Lekin yaxshiliging uchun senga o'z bog'imda yetilgan nok-lardan obkeldim! — yo'lda zax yegan noklardan ikki chelakchasini aravadan olib berdi va behayo ko'zlarini olib qochib: — O'ziyam juda alomat nok-da, hil-hil pishgan... — dedi-yu, xayr-ma'zur qilib jo'nab qoldi.

Miron Grigoryevich Millerovodan qochgan mahalda qudasi vok-zalda edi. Yoshgina nemis ofitseri Panteley Prokofyevichga propusk yozib berdi, tarjimon orqali bir-ikki og'iz gap so'radi, so'ngra arzon-baho sigarasini tutatib, jonkuyar odamdek nasihat qildi:

— Mayli, boring, lekin sizlar uchun dono hukumat kerakligini unutmang. Mayli, prezident saylang, poshsho saylang, kim bo'lsa bo'lsin, ishqilib, davlat miqyosida aql-idrokka ega bo'lgan kishi-ni, Germaniya hukumatiga nisbatan do'stona siyosat yurgizadigan odamni saylang.

Panteley Prokofyevich nemisga yovqarash qilib qarab-qarab qo'ydi. Uning bilan gaplashib o'tirishga ra'yi yo'q edi, propusk qo'liga tekkani hamon, poyezdga bilet olgani chiqib ketdi.

Novocherkasskda yosh-yosh ofitserlarning ko'pligi uni hayratda qoldirdi: ular gala-gala bo'lib ko'chalarda daydisher, restoranlarda o'tirishar, qizlar bilan sayr etishardi, atamanning saroyi oldida ham-

da Kengash ochiladigan sud mahkamasining binosi atrofida sang'ib yurishardi.

Delegatlar yotoqxonasida Panteley Prokofyevich stanitsalardan kelgan odamlarni va ular orasida Yelan stanitsasida turadigan tanishini uchratdi. Delegatlarning ko'pchiligini kazaklar tashkil etardi, ofitserlar oz, stanitsa ziyolilarining vakillari hammasi bo'lib o'ttiz-qirqtadan oshmasdi. Muzofot hukumatiga odam saylash masalasida delegatlar orasida har xil mish-mish gaplar ko'paygan edi. Ammo ataman saylash kerak degan fikr ro'yirost olg'a surilardi. Mashhur kazak generallarining nomlari tilga olinar, nomzodlar muhokama qilindi.

Kelgan kuni kechqurun, choydan keyin Panteley Prokofyevich o'z hujrasiga kirib, uyidan olib kelgan taomlaridan tamaddi qilmoqchi bo'ldi. U qoqlangan sazanni oldiga olib qo'ydi, nondan kesdi. Ikkita migulinlik uning yoniga kelib o'tirdi, yana bir necha kishi qo'shildi. Gap frontdagi ahvoldan boshlanib, sekin-asta hukumat saylash masalasiga o'tdi.

— Rahmatli Kaledinday odam topilmaydi! — deb xo'rsindi kulrang soqolli shumilinlik kazak.

— Rost aytasan, — deb qo'shildi yelanlik.

Gapga quloq solib turgan pod'esaul qizishib ketdi. U Bessergen stanitsasidan kelgan delegat edi:

— Nega munosib odam topilmas ekan? Nima deyapsiz, janoblar? General Krasnov-chi?

— Qaysi Krasnov?

— Iye, tag'in qaysi deyishadi-ya! So'rashga qanday tilingiz boradi, janoblar! Mashhur general, Uchinchi suvoriy korpusning komandiri, Georgiy ordeni kavaleri, aqlli, talantli lashkarboshi.

Pod'esaulning og'zini ko'pirtirib, entikib gapirishi frontning allaqaysi bir qismidan kelgan delegatni g'azablantirdi:

— Lekin men sizga gapning po'stkallasini aytsam: uning talanti qanaqaligini bilamiz. Noshud bir general! German urushida uncha-muncha ish ko'rsatgan. Agar inqilob bo'lmaganda, brigada generalligicha qolib ketardi.

— Hoy, birodar, general Krasnovni tanimay turib gapiraverasizmi? Hamma hurmat qilgan bir general sha'niga bu xilda gap aytishga

nima haqingiz bor-a? Yoki anchayin bir kazak ekanligingizni unutdingizmi?

Pod'esaul dag'dag'a qilib, jerkib gapirar, har bir so'zi kazakni yer bilan yakson qilguday bo'lardi; bechora kazak dovdirab qoldi, shaxtadan tushib chuldiray boshladi:

— Janobi oliy, men axir, o'sha kishining qo'l ostida xizmat qilganman... Avstriya frontida bizning polkimizni tikanli simga ro'para qilgan o'sha kishi bo'ladi! Shuning uchun biz uni noshud odam deb hisoblaymiz... Tag'in kim biladi, deysiz... Balki buning tamomila ak-sidir...

— Noshud bo'lsa, unga Georgiy kresti berisharmidi? Hey, ahmoq! — Panteley Prokofyevichning tomog'iga baliq qiltanog'i tiqilib qoldi, yo'talib bo'lgach, frontchi kazakka yopisha ketdi: — Ahmoqona xayollarga berilib, hammani badnom qilishga ustasizlar, sizlarga qolsa hamma yomon. Xo'p g'alati rasm chiqaribsizlar. Kamroq gap sotsanglar-ku, bunchalik xarobgarchilik bo'lmasdi. Aqllaring oshib-toshib ketganga o'xshaydi. Safsatabozlar!

Cherkasskliklar bilan quyi tomonning odamlari yoppasiga Krasnovni yoqlab chiqdi. Georgiy kavaleri bo'lgan bu general qariyalarning ko'ngliga nihoyatda ma'qul bo'ldi; chunki ko'plari u bilan rus-yapon urushida qatnashgan edilar. Ofitserlar Krasnovning o'tmishdagi ishlariga mahliyo bo'lib qolishgan edi. Axir u gvardiyachi, saroy ahllaridan, ma'lumotli general bo'lgan, saroyda, imperator hazrat oliylari huzurida xizmat qilgan edi-da. Liberal ziyolilarga ma'qul bo'lgan narsa Krasnovning yolg'iz generallik tomoni yoki o'taketgan harbiylardan ekanigina emas, balki yozuvchi degan nomi edi; uning «Niva» jurnalida bosilgan ofitserlar hayotiga oid hikoyalarini bir vaqtlar maza qilib o'qishar edi; modomiki yozuvchimi u, madaniyatli kishi bo'ladi.

Yotoqxonalarda Krasnovni yoqlab kuchli tashviqot yurgizilardi. Uning ism-sharifi oldida boshqa generallarning nomlari bir pul bo'lib qolardi. General Afrikan Bogayevskiy to'g'risida, Krasnov tarafdori bo'lgan ofitserlar: «Denikin bilan Bogayevskiy hamtovoq, mabodo Bogayevskiy ataman saylanadigan bo'lsa, bolsheviklar yengilib, Moskva olingandan keyin kazaklarga berilgan imtiyoz ham, avtonomiya ham zer-zabun bo'ladi» degan mish-mish gap tarqatishardi.

Krasnovning raqiblari ham bor edi. Bir o'qituvchi — delegat general nomini yerga urmoqchi bo'lib, ko'p urindi-yu, biroq natija chiqmadi. U delegatlar turgan hujralarga kirib, kazaklarning serjun quloqlariga g'ing'illab, zaharli gaplar aytib ko'rdi:

— Krasnov-chi. Rasvo general, noshud bir yozuvchi: bir pulga olgan ham o'g'ri, sotgan ham. Bilgani — ikki bukilib ta'zim qilish, saroy ahlining tovonini yalash! Uning maqsadi: ham milliy sarmoya egasi bo'lish, ham demokratik iffatni saqlab qolish. Mana ko'rasiz, birinchi uchragan xaridorga Donni ko'tarasiga sotadi, bor baraka qiladi-qo'yadi! Past odam! Siyosat masalasida alifni kaltak deyolmaydi. Ageyevni saylash kerak! U tamoman boshqacha odam.

Biroq o'qituvchining gaplariga hech kim quloq solmadi. Kengash ochilishining uchinchi kuni — 1-mayda delegatlar orasidan:

- General Krasnov taklif etilsin!
- Bajon-u dil...
- Bosh ustiga...
- So'raymiz!
- Shonli generalimiz!
- Marhamat qilsin, bizlarga turmush masalasini gapirib bersin! — deb kattakon zalda g'ala-g'ovur ko'tarildi.

Ofitserlar qasir-qusur qarsak chaldilar, ularga qarab kazaklar ham bilar-bilmas, sekin-asta kaftni kaftga ura boshladilar. Ishda iylanaverib qorayib ketgan qo'llardan jiq-jiq etgan xunuk qars, quloqqa yoqmaydigan g'alati sado ko'tarilardi — bu galereya va yo'laklarga tiqilishgan qizlar va xonimlarning, ofitser va o'quvchilarning lo'ppi qo'llaridan chiqayotgan mayin qarsaklar musiqasining tamoman teskarisi edi.

Nihoyat, mundir kiygan, ko'ksi to'la krest-u medal, epolet va generallik shop-shaloplari taqqan, yoshi qaytgan bo'lsa ham, hali chiroyli, novcha va xushbichim general paradga chiqqanday shaxdam qadam tashlab sahnaga chiqqanda zalni qasir-qusur chapak bilan qiyqiriq bosib ketdi. Qarsaklar bora-bora gulduros olqishga aylandi. Zal shodlanib ketgan delegatlarning qiy-chuviga to'ldi. Sahnada hayajonlanib, ko'ngli erib, suratday qotib turgan bu generalni ko'rib, ko'p odamlar imperiya sobiq qudratining soyasini ko'rganday bo'ldilar.

Panteley Prokofyevichning ko'zi yoshlandi, furajkasining ichidan qizil ro'molchasini olib, anchagacha burnini qoqish bilan ovora bo'ldi.

«General deb mana buni aytadilar! Asl odam ekani ko‘rinib turibdi! Imperatorning naq o‘zginasi, salobati undan ham oshib tushadi. Vajohatidan xuddi rahmatli Aleksandrğa o‘xshaydi-ya!» — degan xayollar ichida chol, minbar yonida turgan Krasnovni ko‘ngli iyib tomosha qilardi.

«Donni halokatdan asraydigan kengash» deb atalgan kengash shoshilmay majlis olib borardi. Majlis raisi yasovul Yanovning taklifi bilan, harbiylarga berilgan pogon va daraja belgilarini taqib yurish to‘g‘risida qaror chiqarildi. Krasnov nihoyatda ustomonlik bilan dabdabali nutq so‘zladi. U zo‘r hayajon bilan «Bolsheviklar xo‘rlagan Rossiya» haqida, uning «qadimgi kuch-qudrati» va Donning taqdiri to‘g‘risida gapirdi. Hozirgi sharoitni tasvirlab bo‘lgandan keyin, nemis okkupatsiyasiga qisqacha to‘xtalib o‘tdi. Nutqining oxirida, bolsheviklar yengilgandan keyin Don muzofoti o‘z boshiga mustaqil bo‘lishini shavq-zavq bilan gapirganda, bu fikr hammaga ma‘qul tushib, zalda g‘ovur-g‘uvur ko‘tarildi.

— Don muzofotini Davlat Harbiy kengashi idora qiladigan bo‘ladi! Bizning inqilobimiz xalos etgan kazaklar o‘lkasi — kazaklar hayotidagi qadimgi go‘zal an‘analarni, ajoyib rasm-rusumlarni qaytadan tiklaydi, o‘shanda biz ota-bobolarimiz singari, qadimgi ohangdor, qudratli ovoqimiz bilan: «Granit Moskvada oq poshsho davr sursin, tinch Donda biz, kazaklar!» — degaymiz.

3-may kechki majlisda bir yuz yetmish ovoz bilan general-mayor Krasnov lashkar atamani qilib saylandi; o‘ttiz kishi qarshi chiqdi, o‘nta odam betaraf qoldi.

Krasnov shart qo‘yib, lashkar yasovulidan atamanlik cho‘qmorini olmadi: oldin kengashga o‘zi taklif etgan asosiy qonunlarning tasdiqlanishini va o‘ziga to‘la atamanlik huquqi berilishini talab qildi.

— Mamlakatimiz yemirilish arafasida turibdi! Atamanga batamom ishonilgan taqdirdagina men cho‘qmorni olaman. Hozirgi sharoit, zimmadagi mas‘uliyatini ado etishda ishonch va mamnuniyat bilan ish boshlashni talab etadi, shuning uchun Don xohishini ifodalovchi oliy hakamning — ushbu Kengashning menga batamom inonganini bilishim lozim, ana o‘shandagina bolshevistik anarxiya bilan beboshlikka, buzg‘unchilikka xotima berilib, mustahkam huquq normalari joriy qilinadi.



Krasnov taqdim etgan qonunlar pala-partish qayta tuzilgan, u yoq-bu yog'i tuzatilgan sobiq imperiya qonunlarining o'zginasi edi. Shunday qonunlarni Kengash qabul qilmasinmi! Mamnuniyat bilan qabul qilishdi. Tamomiy narsa, hatto naridan beri o'zgartirilgan bayroq ham: uzunasiga tikilgan ko'k, qizil va sariq yo'llar (kazaklar, o'zga yerliklar va qalmoqlar) eski davrni eslatardi, yolg'iz davlat gerbi, kazaklarning ra'yiga muvofiq tubdan o'zgartirildi: endi gerbga ikki boshliq qonxo'r burgut o'rniga papax kiygan, qilich-u, miltiq va aslaha taqqan yalang'och kazakning vino bochkasiga minib o'tirgan surati solingan edi.

Laganbardor va sodda mug'ambir delegatlardan bittasi yaltoqlanib savol berdi:

— Asosan, qabul qilingan qonunlarga, balki janobi oliylari biror o'zgarish yoki tuzatish kiritishni taklif qilurlar! Marhamat, gapirsinlar.

Krasnov iltifot bilan kulimsirab, kezi kelganda, ikki og'iz hazil-toifa gap qistirib ketishni lozim topdi. U kengash a'zolariga ma'noli nazar tashlab chiqdi-da, ko'pchilikning e'tiborini o'ziga jalb etib o'rgangan tantiq odam singari javob qaytardi:

— Mayli, qonunning qirq sakkiz, qirq to'qqiz va elliginchi moddalaridagi bayroq, gerb va madhiya haqida taklif kiritmoqchiman. Sizlar menga qizil rangli bayroqdan tashqari, istagan bayroqni, besh qirralik yahudiy yulduzi yoki biror masonlik belgisidan tashqari — istagan gerbni, «Internatsional»dan tashqari — istagan madhiyani taklif etishingiz mumkin, men qabul qilaveraman.

Kengashdagilar kula-kula qonunlarni tasdiqladi. Atamanning askiyasi anchaga dovur odamlar og'zidan tushmadi.

5-mayda Kengash tarqadi. So'nggi nutqlar sadosi so'ndi. Janubiy grupp qo'mondoni, Krasnovning o'ng qo'li — polkovnik Denisov eng yaqin fursat ichida bolsheviklar fitnasini tag-tomiri bilan quritishga va'da berdi. Kengash a'zolari bopta ataman saylanganidan va frontdagi ahvol svodkalaridan suyunishib, xotirjam uylariga jo'nadilar.

Panteley Prokofyevich qattiq ta'sirlanib, xursandligidan terisiga sig'may Don poytaxtidan jo'nab ketdi. U, atamanlik cho'qmori ishonchli kishining qo'liga tekkaniga, bolsheviklar yaqin orada tormor keltirilishiga va o'g'lonlari qaytib, xo'jalikni tebratishiga qattiq inongandi. Chol vagon derazasidida stolchaga suyanib o'tirardi; quloq-

laridan Don madhiyasining xayrlashuv sadolari hali ham ketmas, dalda beruvchi soʻzlari miya-miyalarigacha singib ketgan va nazarida, chindan ham «pravoslav Tinch Don» qoʻzgʻalganday, jumbushga kelganday tuyulardi.

Lekin Novocherkasskdan bir necha kilometr uzoqlashmasdanoq, Panteley Prokofyevich derazadan bavariya otliq askarlarining avanpostini koʻrib qoldi. Bir toʻda otliq nemis temiryoʻl chetidagi yoʻldan poyezd tomon kelardi. Bukchaygan suvoriylar egarda bemalol oʻtirishardi, semiz sagʻrisi keng otlar choʻltoq dumlarini likillatishib, quyoshning oʻtkir nurida tovlanardi. Panteley Prokofyevich engashib, alamidan parishonhol qoshini chimirib, derazaga tikilardi, kazaklar yerini gʻolibona tepkilayotgan nemis otlarini koʻzdan kechirardi; soʻngra u, orqasini derazaga oʻgirib oldi-da, ancha vaqtgacha pishillab, gavdasini koʻtara olmay bukchayib qoldi.

## II

Bugʻdoy uni, tuxum, yogʻ va qoramol ortgan qator-qator qizil vagonlar Dondan Ukraina orqali Germaniyaga ketma-ket joʻnatilardi. Koziryoksiz furajka, kulrang kurtka kiygan, miltiq uchlariga nayza qadab olgan nemislar hamma maydonlarni egalagan edilar. Puxta, sariq charmdan tikilgan nemis etiklarining metinday nagʻal poshnalari Don koʻchalarini shibbalar, Bavariya suvoriylari esa Donda bemalol otini sugʻorar edi... Ukraina chegarasida boʻlsa, Persianovkada taʼlim olib yaqindagina bayroq ostiga toʻplangan yosh kazaklar petlyurachilar bilan jang qilishardi. Qaytadan tuzilgan 12-Don kazaklar polkining qariyb yarmi — Ukraina yerlarining bir boʻlagini Don muzofotiga qoʻshib olaman deb, Starobelsk shahri yonida qirilib ketdi.

Shimolda esa, Ust-Medveditsa stanitsasi qoʻldan qoʻlga oʻtib turardi: bir yoqdan uni Glazunovo, Novo-Aleksandrovo, Kumiljen, Skurishen qishloqlaridan va boshqa stanitsalardan toʻplangan qizil kazaklar otryadi ishgʻol qilsa, oradan bir soat oʻtmay, ofitser Alekseyevning oq partizan otryadi ularni surib chiqarardi, bunday paytda koʻcha-koʻyni oqlarning asosiy qismini tashkil etgan shinelli gimnazistlar, realistlar, seminaristlar bosib ketardi.

Shimol yoqda yuqori Don kazaklari stanitsadan stanitsaga duv-duv ko'chib yurishardi. Qizillar Saratov guberniyasining chegarasiga chekinmoqda edilar. Ular Xopyor okrugini deyarli butunlay tashlab ketgandilar. Miltiq ko'tarishga layoqatli yosh-yalang, qari-qartang kazaklardan tuzilgan Don armiyasi yoz oxirida chegaraga kelib o'rnamshdi. Novocherkasskdan kelgan ofitserlar bilan to'ldirilgan bu armiya yo'l-yo'lakay qaytadan tiklanib, haqiqiy armiya tusiga kirmoqda, stanitsalar yuborgan mayda drujinalar unga qo'shilmoqda edi; Germaniya urushida omon qolgan odamlarni to'plab qadimgi muntazam polklarni tiklashga kirishildi; polklardan diviziyalar tuzildi; shtablarda xorunjiylar o'rmini tullak polkovniklar egallab oldilar; boshliqlar tarkibi ham asta-sekin o'zgara boshladi.

Yoz oxirida Migulin, Meshkov, Kazan va Shumilin stanitsalarining kazak sotnyalaridan tashkil topgan jangovar qismlar, general-mayor Alferovning buyrug'iga binoan Don muzofotining chegarasidan chiqdilar va Voronej guberniyasiga qarashli dastlabki slobodalardan biri — Donetskoyeni ishg'ol etib, uyezd shahri Bogucharni qamal qildilar.

To'rt kecha-yu to'rt kunduzdan beri Petro Melexov komandasi ostidagi tatarskiylik kazaklar qishloqma-qishloq, stanitsama-stanitsa yo'l bosishib, Ust-Medveditsa okrugining shimol tomoniga siljishardi. Ulardan sal o'ngroqda qizillar shoshilinch ravishda temiryo'l yaqiniga jangsiz chekinmoqda edilar. Shu davr ichida tatarskiylik kazaklar biron marta ham qizillarni uchratmadi. Petro va umuman hamma kazaklar o'lishga shoshmoqning nafi yo'q, deb o'zaro bir qarorga kelishgani uchun manzil oralarini o'ttiz chaqirimdan uzaytirishmasdi.

Beshinchi kuni Kumiljen stanitsasiga yetdilar. Dundukovo qishlog'i yonida Xopyor daryosidan o'tdilar. Dasht ustida doka parda singari chivinlar buluti jimirlashardi. G'ing'illagan ingichka titroq sado tobora kuchayardi. Lak-lak chivin atrofda g'ujg'on o'ynab, g'ij-g'ij bo'lib yopirilib ot va odamlarning ko'z-u, quloq, burunlariga kirdi. Otlar tipirchilar, pishqirishardi, kazaklar qo'l siltab yelpinishar, tamaki tutatib ularni qochirishardi.

Xristonya yengi bilan yoshlangan ko'zini artayotib:

- Ana maynabozlik, voy, tuxuming qurg'ur-ey? — deb g'udrandi.
- Bir balo bo'ldimi? — deb kuldi Grigoriy.

— Ko‘zimni achishtirvordi. La‘nati zaharli ekan!

Xristonya qizil qovog‘ini ag‘darib, g‘adir-budur panjasi bilan ko‘z soqqasini siladi, labini cho‘chchaytirib olib, qo‘lining orqasi bilan an-chagacha ko‘zini ishqalab qoldi.

Grigoriy u bilan yonma-yon borardi yo‘lga chiqilgan kundan boshlab ikkisi topishib olgan edi. So‘ngra ularga Anikushka qo‘shildi; keyingi vaqtlarda u yana ham semirib ketgan va shuning uchun aft-basharasi battar hezalaknamo bo‘lib qolgan edi.

Otryaddagi odam soni yuzga to‘lmasdi. Petroning yordamchisi — Tatarsk qishlog‘idan qiz olgan Latishev ismli vaxmistr edi. Grigoriy vzvod komandiri edi. Uning vzvodidagi aksariyat kazaklar, qishloqning pastki mahallasidan bo‘lib, bular: Xristonya, Anikushka, Fedot Bodovskov, Martin Shamil, Ivan Tomilin, qaqqaygan Borshyov bilan ayiqqa o‘xshab lapanglab yuradigan Zaxar Korolyov, Proxor Zikov, lo‘livachcha laqabli Merkulov, Yepifan Maksayev, Yegor Sinilin va yana o‘n besh chog‘li tengqur yosh-yalang yigitlar edilar.

Ikkinchi vzvodning komandiri Nikolay Koshevoy, uchinchiniki Yakov Koloveydin edi, to‘rtinchi vzvodga esa, Podtelkov qatl qilingandan keyin general Alferov tomonidan shoshilinch sur‘atda starshiy uryadnik darajasiga ko‘tarilgan Mitka Korshunov komandirlik qilardi.

Kazaklar dashtda otlarini yo‘rttirib borishardi. Yo‘l suv bosgan joylarni aylanib o‘tar, goh mayda tol va qiyoq o‘sgan jarlarga tushib ketar, goh pichanzor orasida ilon izi bo‘lib ko‘rinib qolardi.

Orqa qatorda Yakov taqachining beso‘naqay hoholagani va unga qo‘shilib ingichka tovush bilan piqirlagan Andrey Kashulinning kul-gisi eshitalardi, u ham Podtelkov safdoshlarining qonini to‘kib, uryad-niklik nishoni olgan edi.

Petro Melexov Latishev bilan saflar yonboshida kelmoqda edi. Ikkisi allanima to‘g‘risida pichirlashardi. Latishev qilichining yangi bog‘ini o‘ynardi, Petro chap qo‘li bilan otini silardi, quloqlarining or-qasini qashlardi. Latishevning lo‘ppigina yuzlari bilinar-bilinmas ta-bassumdan jilmayar, tamakidan sarg‘aygan va cho‘kirtak bo‘lib qol-gan tishlari siyrak mo‘ylovi orasidan qorayib ko‘rinardi.

Hammadan ortda Antip Avdeyevich oqsoq ola baytalini yo‘rttirib kelardi; bu o‘sha Lofchining o‘g‘li bo‘lgani uchun kazaklar uni Antip Lofchiyevich deb chaqirishar edi.

Ba'zi kazaklar o'zaro hangamaga tushib ketishgan, ba'zilari safni buzib, besh kishidan qator bo'lib olishgan edi, qolganlari bu notanish yerlarni, pichanzorlar orasida ola-chavkar bo'lib jimirlagan qo'llarni, qator-qator yashil-ko'k tol-u teraklarni tomosha qilishardi. Aslah-anjomlaridan kazaklarning uzoq safarga chiqqani ko'rinib turardi: xaltalari qappaygan, xurjunlari ul-bulga to'la, shinellari bo'ktarmaga mahkam tang'ilgan edi. Egar-jabduqlar ham buni tasdiqlardi: hammasi tikilgan, yirtiq-yamog'i batamom qo'ldan chiqqan edi. Bundan bir oygina muqaddam urush bo'lmaydi, deb inongan kazaklar hozir: «qon to'kilmay iloj yo'q» degan g'amgin xayollar ichida taqdirga bo'ysunib, yo'l bosishardi. «Bugun tirikman, ertaga kim biladi, o'ligimni jang maydonida qarg'a-quzg'un cho'qiydimi», — deb o'ylardi har kim.

Krepsi qishlog'idan o'tdilar. Tomi qamish bilan yopilgan yakkam-dukkam uylar o'ng qo'lda qolib ketdi. Anikushka chalvari cho'ntagidan bo'g'irsoq oldi-da, og'zini och bo'riday ochib, mayda tishlari bilan yarmini tishladi va quyonday shosha-pisha chaynay boshladi. Xristonya xo'mrayib unga qaradi:

— Yutoqib ketdingmi?

— Bo'lmasam-chi... Xotinim pishirib bergan.

— Yiling ovqatmi deyman-a! Qorningda to'ng'izning qornidagi-daqa gijja bo'lsa kerak. — U Grigoriy tomonga yuzini o'girib, jahl bilan, noligansimon so'zida davom etdi. — Shunaqangi mechkayki, hech to'ymaydi! Shuncha ovqat qatiga sig'arkan? Shu kunlarda unga razm solib yuribman, yegan ovqatini ko'rsam meni yahm bosadi: o'zi kichkinagina odam-u, ammo qurdum daryoga o'xshaydi, qancha ovqat bo'lsa ko'rdim demaydi.

— Yeb qolganing g'animat. Kechqurun bitta qo'yni paqqos urib ol-sang, ertalab qarabsanki, qorning yana quldurab turibdi-da. Biz nima to'g'ri kelsa, yeyaveramiz, ishqilib, tomoqdan o'tgani foyda.


Anikushka hoholab kular va irganib tupurayotgan Xristonyani Gri-goriyga imlab ko'rsatar edi.

— Petro Panteleich, qayerda tunaymiz? Buni qara, otlar charchadi, axir! — deb qichqirdi Tomilin.

Merkulov ham unga qo'shildi:

— Qo'nadigan vaqt bo'ldi. Kun botyapti. Petro qanqin sikkasi

— Klyuchida tunaymiz. Balki Kumilijangayam yetib olarmiz.



Qop-qora jingalak soqolli Merkulov miyig'ida kulib, Tomilinning qulog'iga shivirladi:

— Alferovga yaxshi ko'rinmoqchi, bu olifta! Shoshilishini ko'r...

Allaqaysi bir hazilkash Merkulovning soqolini tuzatmoqchi bo'lib, chiroyli, jingalak soqolni jo'rttaga kalta va qiyshiq kesib qo'ygan edi. Bu taxlit soqoldan Merkulovning tasqarasi chiqib, sheriklari uni har qadamda mazax qilishardi. Bu gal ham Tomilin hazilini qo'ymadi:

— O'zing ham yaxshi ko'rinish payida yuribsan-ku!

— Men nima qilibman?

— Soqolingni generalga taqlid qilib kestirganing-chi. Balki: «Generalnikiga o'xshatib soqol qo'ysam, menga diviziya berishadi» deb o'ylagandirsan-a? Shimildiriqni berishadi, tushundingmi?

— Ahmoq, shayton! Men jiddiy gapirsam, askiya qiladi.

Gangir-gungur gaplashib, kulishib Klyuchi qishlog'iga kirib keldilar. Joy tayyorlab turish uchun oldinroq jo'natilgan Andrey Kashulin eng chetki qo'ra yonida sotnyani kutib oldi.

— Bizning vzvod, orqamdan yuring! Birinchi vzvodga — mana bu uch hovli, ikkinchiniki — chap tomonda, uchinchiniki — huv anavi quduqlik hovli, qatorasiga tushgan to'rt uy ham o'shaniki.

Petro uning oldiga keldi.

— Hech gap yo'qmi? Surishtirib ko'rdingmi?

— Bu yerda ularning qorasiyam yo'q. Ammo, lekin asalning koni shunda ekan, og'ayni. Bir kampirnikida uch yuz yashigini ko'rdim. Kechasi, albatta, bittasini sindirib dabdala qilamiz!

— Hay-hay, ahmoqlik qilma! Tag'in o'zingni dabdala qilmay! — Petro qovog'ini solib, otiga qamchi bosdi.

Hammasi joylashdi. Otlarni bog'ladilar. Qorong'i tushdi. Uy egalari kazaklarga kechki taom qo'ydilar. Darvoza oldida, xodalar ustida harbiy kazaklar bilan qishloq kazaklari tizilishib o'tirdilar. Undan, bundan hangama qilishib, uxlagani tarqaldilar.

Ertalab qishloqdan chiqib ketishdi. Kumiljenga yetay deb qolganlarida sotnyaning ketidan chopar quvib keldi. Petro paketni ochib, xatni oldi va egarda chayqala-chayqala qo'lidagi bir varaq qog'ozni, bamisoli og'ir yuk ko'targan odamday kuchanib-qiynalib anchagacha o'qidi. Grigoriy uning oldiga keldi.

— Buyruqmi?

— Ha.

— Nima gap?

— Ishlari qursin... Sotnyani topshir deyishibdi. Mening yoshimdagi hamma kazakni chaqirishibdi, Kazankada yigirma sakkizinchi polk tuzishmoqchimish. To'pchilarni ham, pulemyotchilarni ham chaqirishibdi.

— Qolganlar qayoqqa boradi?

— Qayoqqaligi mana bunda yozilgan: «Qolganlar Arjenovga, Yigirma ikkinchi polk komandirining ixtiyoriga yetib borsinlar. Shoshilinch suratda yo'lga chiqilsin». Gapini qara-ya! «Shoshilinch suratda» emish!

Latishev yetib kelib, Petroning qo'lidan buyruqni oldi. U, qalin lablarini qimirlatib, qoshini chimirib, o'qiy boshladi.

— Chu, de! — deb buyurdi Petro.

Sotnya qo'zg'aldi, otlar sekin-asta yurib ketdi. Kazaklar o'girilib Petroga astoydil tikilishar, uning fikrini bilmoqchi bo'lishardi. Kumiljenga yetgandan keyin Petro buyruqni o'qib eshittirdi. Yoshi katta kazaklar orqaga qaytish taraddudiga tushib qoldilar. Stanitsada tunab ertasi tong otgach, ikki yozda bo'linishga qaror qildilar. Kuni bo'yi ukasi bilan gaplashmoq uchun payt poylab yurgan Petro Grigoriy tushgan uyga keldi.

— Yur, maydonga chiqaylik.

Grigoriy indamay darvozadan chiqdi. Mitka Korshunov ham ergashgan edi, biroq Petro sovuqqina to'xtatdi uni:

— Sen qol, Mitka. Ukam bilan xoli gaplashmoqchiman.

— Xo'p, m-mayli. — Mitka tushunganday qilib iljaydi-da, joyida qolaverdi.

Petroga ko'z qirini tashlab kelayotgan Grigoriy, akasining allaqanday bir muhim narsani gapirishga chog'langanini payqadi. Shunday bo'lsa ham, payqaganligini sezdirmaslik uchun jo'rttaga gapni boshqa tomonga burdi:

— Qizig'-a, uydan yuz chaqirim uzoqlashdik, lekin bu yoqning odamini tanib bo'lmaydi. Tili ham boshqacha, sira biznikiga o'xshamaydi, imoratlari ham boshqacha, poliponlarnikiga o'xshab ketadi. Darvozalarini qara, hammasining usti taxta bilan yopilgan, xuddi mezanaga o'xshaydi. Bizda bunaqa emas. Anavini ko'r, — Grigoriy yonidagi

hashamatli uyni ko'rsatdi, — poydevor atrofi ham taxta bilan o'rab chiqilgan, yog'ochi chirimasin deb shunday qilinganmikin?

— Qo'ysang-chi, bu gaplarni... — Petro qovog'ini osiltirdi. — Muddaoni gapirmayapsan, uka... To'xta, chetan devor yoniga o'tib olaylik, odamlar qarayapti.

Maydondan kelayotgan xotin-xalaj va kazaklar qiziqsinib ularga tikilishardi. Belida belbog', egnida ko'k ko'ylak va eskirgan pushti gardishli kazakcha furajka kiygan chol to'xtadi.

— Dam olyapsizmi?

— Ha, dam olmoqchimiz.

— Yemlaring bormi?

— Oz-moz bor, — dedi Petro.

— Kerak bo'lsa, menikiga kiringlar, bir-ikki chelak suli beraman.

— Imoningni bersin, bobo!

— Xudo xalloq... Bemalol kiraver. Huv, ana mening uyim, ko'k tunuka tomli.

Grigoriy sabrsizlanib, qovog'ini osiltirib:

— Xo'sh, nima gaping bor? — deb so'radi.

— Gapim ko'p... — Petro gunohkor odamdek qiynalib, zo'r-bazo'r iljaydi, labining bir cheti bilan mallarang mo'ylovini tishladi. — Zamon yomon, Grishatka, balki ko'risholmasmiz...

Grigoriyning qalbida akasiga nisbatan ongsiz ravishda uyg'ongan dushmanlik hissi bir xuruj qildi-yu, lekin Petroning shu xilda ojizona kulimsirab turgani va yoshlik chog'idagi kabi «Grishatka» so'zini tilga olgani uchun darhol so'ndi. Petro ukasiga javdirab termular, hali ham, boyagidek iljayib turar edi. Nihoyat, labini qimirlatib, iljayishini qo'ydi, afti o'zgarib, qovog'i solindi.

— Buni qara, xalqni ikkiga ajratib tashladi bu ablahlar! Xuddi o'rta-sidan omoch solib o'tganday — yarmi u yoqda, yarmi bu yoqda qoldi. Turmush emas bu, it kunidan battar bir kunga qoldik, zamon ham nozik! Odam odamni tanimaydi... Masalan, sen, — deb qo'qqisdan gap boshladi Petro, — sen tug'ishgan ukamsan-u, biroq qanaqaligingni sira tushunmayman! Borgan sari mendan uzoqlashayotganingni sezaman... Gapim rost emasmi? — deb savol berib, javobini ham o'zi aytdi: — Rost! Qiynoqqa tushgansan, uka... Qizillarga qo'shilib ketmasang deb xavotirdaman... Sen hali, Grishatka, o'z yo'lingni topib ololganing yo'q.



— Sen topdingmi? — deb so‘radi Grigoriy; uning ko‘zlari Xopyor daryosining narigi tomonidagi noaniq ufqlarga, bo‘r tog‘ining orqasiga botayotgan quyoshga, lovullab yongan shafaqqa va laxtak-laxtak bo‘lib, o‘sha yoqdan kelayotgan qora bulutlarga tikilgan edi.

— Topdim. Men o‘z yo‘limni topganman. Bu yo‘ldan meni hech kim ozdirmaydi! Men senga o‘xshab, Grishka, boshim oqqan tomonga ketavermayman.

— Ho? — Grigoriy jahl bilan kulimsiradi.

— Ha, shunday!.. — Petro zarda bilan mo‘ylovini buradi, ko‘zi qamashgan odamday hadeb ko‘zlarini pirpiratib alanglay boshladi. — Bo‘ynimdan bog‘lab sudrashsa ham, men qizillarga qo‘shilmayman. Kazaklar qizillarga qarshimi, demak, men ham qarshiman. Ko‘pchilikning yuziga oyoq qo‘ymayman va qo‘ymoqchi ham emasman! Sirasini aytganda... Ularga qo‘shilishimning hojati yo‘q, maqsadlari menga to‘g‘ri kelmaydi.

— Bu gaplarni qo‘y, — deb iltimos qildi Grigoriy horg‘in ovozda. Grigoriy oldinroq qo‘zg‘aldi, bir-bir bosib, bukchayinqiragan kiftini qimirlatib, uyi tomonga yurdi.

Petro darvoza oldida qadamini sekinlatib so‘radi:

— Gapirsang-chi, axir, men bilayin... gapir, Grishka, ular tomonga qochib o‘tmaysanmi?

— Qaydam... Bilmadim.

Grigoriy bo‘shashibroq istar-istamas javob berdi. Petro uh tortdi, lekin qayta savol bermadi. U hayajonlangan, rangi so‘lgan holda iziga qaytdi. Ikkisining orasiga sovuqchilik tushgani, to shu damgacha birga yurgan, birga bosgan yo‘llariga falokat oralagani, ko‘ngillarini bog‘lab kelgan ipning uzilgani unga ham, Grigoriyga ham ravshan bo‘ldi. Go‘yoki, echki tuyoqlaridan tushgan yon bag‘irdagi ilon izi yo‘l singari borib-borib, to‘satdan burildi-yu, jar tagiga yetganda cho‘rt uzildi-qoldi — u yog‘ida chakalak bo‘lib yotgan burganzor ko‘rinadi, xolos, yo‘l yo‘q.

... Ertasi kuni Petro sotnyaning yarmini olib Vyoshenskayaga qaytdi. Qolgan yosh kazaklar Grigoriyning komandirligi ostida Arjenovkaga jo‘nadilar.

Ertalabdan oq oftob ayamay kuydira boshladi. Dasht do‘zaxday yonar, ustida qo‘ng‘ir sarob jimirlar edi. Xopyor atrofidagi tog‘larning

binafshasimon etaklari orqa yoqda ko'karib ko'rinar, za'faron tusda tovlangan qumlar yotardi. Otlar terlab-pishib, bir me'yorda qadam tashlardi. Kazaklarning yuzlari bo'zargan, oftob urgan edi. Egar ko'rpachalari, uzangilar, yuganlarning azbaroyi qizib ketganidan qo'l tekkizib bo'lmasdi. Hatto, o'rmon ham salqin emas, havo nihoyatda dim, yomg'ir hidi kelar edi.

Diqqatpazlik axiri Grigoriyni yengdi. Kun bo'yi u egarda chayqalib, kelajagi nima bo'lishini o'ylab, poyma-poy xayollarga borib keldi; Petro aytgan so'zlarni tasbehning shisha munchog'ini o'girganday birma-bir miyasidan o'tkazar, battar yuragi siqilardi. Taxir shuvoq hidi lablarni achitar, yo'l esa, issiqdan bo'rsillardi. Quyoshning ayovsiz tig'i ostida sariq, qoramtir cho'l yastanib yotar edi. Garmsel esib yo'llarni titar, qovjiragan o'tlarni silkitar, qum-u, changlarni to'zitar edi.

Kechga tomon quyosh yuzini ko'kimtir bulut qopladi. Havo bo'zarib, aynib qoldi. G'arb tomonda bahaybat bulut paydo bo'lib, jimjimador ufq chizig'i ustiga juldur etaklarini yoyganicha, havoda muallaq qotib qoldi. Nihoyat, shamol uni qo'zg'atdi: qoramtir dumi sudraldi, ust tomoni oqarib-yarqirab ketdi va shu alpozda vahima solib ko'kda suza boshladi.

Otryad ikkinchi da'fa Kumilga daryosini kechib o'tdi-da, qalin terakzor ichiga kirib ketdi. Shamolda terak barglari o'ng-ters buralib o'yin tushar, goh yashil, goh sutday tovlanib ko'zni qamashtirar, bir-biriga jo'r bo'lib shildirardi. Rang-barang kamalak belbog' bog'lagan yaltiroq oq bulut etaklaridan, Xopyorning narigi betidagi allaqaysi joyga qiyalama yomg'ir aralash do'l quyib, yerni savalay boshladi.

Kazaklar huvullab yotgan kichkina bir qishloqqa qo'ndilar. Grigoriy otini bog'ladi, egarini olib qo'ydi-da, asalari yashiklari turgan joyga bordi. Uy egasi soch-soqoli jingalak, keksa bir kazak edi; u soqoli orasiga kirib qolgan arini olayotib, Grigoriyga bezovtalanib gapira boshladi:

— Mana bu yashikni yaqinda sotib oldim. Uyga olib kelayotganimda, negadir, hamma bolachasi o'lib qolibdi. Ko'rdingmi, o'ligini tashishyapti, — chol yashik oldida to'xtab, kichkina taxta supachani ko'rsatdi: arilar o'lik bolachalarini sudrab, teshikdan ketma-ket chiqar va g'ing'illagancha ularni ko'tarib uchardi.

Xo'jayin achinib, qizargan ko'zlarini suzar, pushaymon yegan bo'lib, lablarini chapillatardi. U qo'llarini salanglatib, tez-tez u yoqdan bu yoqqa yurardi. Gavdasi beso'naqayligiga qaramay, birpas ham tek turmas, bezovtalanib tipirchilar, hamjihat bo'lib bir maromda sekin-asta qimirlayotgan va o'z ishini pishiq-puxta bajarayotgan son-sanoqsiz arilar makonida bu chol ortiqchadek ko'rinardi. Unga Grigoriy nafratlanib qarab turardi. Chunki tinib-tinchimagan mana shu keng yag'rinli keksa kazakning vajohati beixtiyor ko'ngilni g'ash qilardi; u xirillab, tez-tez gapirardi:

— Bu yil ko'p asal oldim. Isiriq qiyg'os gulladi, arilar shunga yopirilishdi. Yashikka rom qo'ysang — daromadi ko'proq bo'larkan. Ishqilib, tirikchilik...

Grigoriy quyuq va yelimday yopishqoq bol bilan choy ichardi. Asaldan isiriq, yalpiz va yana allaqanday gullarning hidi kelardi. Choyni xo'jayinning qizi — baland bo'yli, chiroyli juvon quyar edi. Kuyovi qizillarga qo'shilib ketganidan qo'rqib, chol noiloj mehmondo'stlik qilar, tishini tishiga qo'yib jimgina o'tirardi. Qizi yupqa lablarini qisib, kiprik ostidan Grigoriyga tez-tez qaraganini chol sezmasdi. Juvon qo'lini choynakka uzatganda, uning qo'ltig'idagi qop-qora jingalak junlarga Grigoriyning ko'zi tushardi. U bir necha marta juvon sinchkov nazar tashlab, qo'yniga qo'l solayotganday tasmollab tikilganini ko'rdi. Hatto ko'zi ko'ziga tushganda, nazarida yosh kazak qizning yuzlari qizarib ketganday, kulgisi labining burchida o'ynab turganday bo'lardi.

— Sizga mehmonxonaga joy solib qo'yaman, — dedi choydan keyin juvon. U yostiq, sholcha ko'tarib Grigoriyning yonidan o'tayotganda, suqatoy ko'zlari bilan o'tday o'rtab, ro'yirot unga tikildi. Yostiqni to'g'rilayotib, shunchaki, o'zicha gapirayotganday shosha-pisha: — Men bostirma tagida yotaman... Uy juda dim, burga talab, bezor qiladi... — deb qo'ydi.

Chol xurрак ota boshlagandan keyin Grigoriy etigini yechdi-da, bostirma tagiga ketdi. Oldingi g'ildiraklari olib tashlangan arava ustida yotgan juvon unga yonidan joy berdi, barra po'stinni ustiga tortib yopdi va oyoqlarini Grigoriyga tekkizib, jim yotdi. Uning qovjiragan lablaridan piyoz isi bilan allaqanday hidlar kelardi. Grigoriy uning ingichka va qoramag'iz qo'llariga bosh qo'yganicha tong ottirdi. Ju-

von uni erkalatib to‘ymas, zo‘rlab bag‘riga tortar va hazillashib, kulib turib lablarini tishlardi, bo‘ynini, ko‘ksini, kiftlarini so‘rib-o‘paverib, ko‘kartirib yubordi, mayda-mayda o‘tkir tishlarining izini qoldirdi. Xo‘roz uch chaqirgach, Grigoriy mehmonxonaga kirib yotmoqchi bo‘lgan edi, biroq u ketkizmadi.

Qora mo‘ylovi osilib qolgan Grigoriy, miyig‘ida kulimsirab, sekin-asta uning qo‘ynidan chiqib ketmoqchi bo‘lib:

— Qo‘yvor, jonim, qo‘yvor, erkatoyim! — deb yalinib ko‘rdi.

— Yana birpas yot... Birpasgina!

— Ko‘rib qolishadi, axir! Qara, tong o‘taday deb qoldi!

— Mayli, hechqisi yo‘q!

— Dadangdan qo‘rqmaysanmi!

— Dadam biladi.

— Qanaqa qilib biladi? — Grigoriy hayron bo‘lib, qoshlari pirillab ketdi.

— Biladi-da...

— Ana, xolos! Qayoqdan biladi, axir?

— Bilasanmi, u... o‘zi kecha menga: «Agar ofitser qistasa indamay qo‘yniga kiraver, yo‘qsa, Gerasimning kasriga otlarimizni olib ketishadi yo bir baloga giriftor qilishadi», degan edi... Erim Gerasim qizilarga qo‘shilib ketgan...

— Shunday degin! — Grigoriy istehzoli qilib iljaydi, biroq ko‘ngli ancha ranjigan edi.

Lekin unga juvonning o‘zi tasalli berdi. Uning qo‘llarini oshiqona silab turib:

— Erimga ko‘nglim yo‘q, u senday emas... — dedi titrab-qaqshab.

Grigoriy uyqusi qochgan ko‘zlarini oqarib kelayotgan osmonga tikkanicha:

— Xo‘sh, qanaqa? — deb qiziqsinib so‘radi.

— Asti so‘rama... lattadan battar... — dedi-da, Grigoriyga erkanib suykandi, uning ovoizidan ko‘ziga yosh kelgani sezilib turardi. Unga tegib rohat ko‘rmadim... Xotinga tobi yo‘q...

Shabnam suvini shimib ochilgan gul kabi, sodda ko‘ngil begona odamga yorildi-qo‘ydi. Bu gapdan Grigoriy erib ketib, biroz rahmi keldi. Grigoriy tasodifan yo‘liqqan bu juvonga achinib, uning to‘zgan sochlarini silar, charchagan ko‘zlarini yumardi.

Bostirmaning qamish tomlari orasidan soʻnayotgan oy nuri gʻira-shira tushib turardi. Birdaniga yulduz uchib, ufq tomonga shoʻngʻigancha ketdi, kulrang osmonda-yiltirab soʻnayotgan izi qoldi. Hovuz tomonda moda oʻrdak gʻagʻilladi, xirildoq ovoz bilan oshiqi unga javob qaytardi.

Horgʻin vujudi orom olib, aʻzoyi badani yengillashgan Grigoriy mehmonxonaga qaytdi. Joyiga yotarkan, juvon lablarining shoʻrtang mazasi labida qolganligini sezgan hamda uning erkalashga oʻch badanini, badanidan anqigan har xil boʻylarni: isiriq hidi kelib turgan asalning, harorat aralash chiqqan terning hidlarini eslab uyquga ketdi.

Ikki soatdan keyin uni kazaklar uygʻotishdi. Proxor Zikov uning otini egarlab, darvozaga olib chiqdi. Grigoriy uy egasining qovogʻidan qor yoqqaniga, yovdan battar xoʻmrayib tikilganiga bardosh berib xayrlashdi-da, uy tomonga oʻtib ketayotgan xoʻjayin qiziga ham bosh qimirlatib «xayr» deganday imo qildi. Juvon boshini quyi soldi, bilinar-bilinmas qilib boʻyalgan yupqa lablari bilan kulimsirab, armonda qolganligini bildirib qoʻydi.

Grigoriy tor koʻchada alanglab borar edi. Tor koʻcha ham xuddi oʻsha hovlini aylanib oʻtardi; Grigoriy kechasi toʻshiga tortgan juvonning chetan devor orasidan qarab, oftobda qoraygan kichkina kaftini soyabon qilib tikilib qolganini koʻrdi. Bexosdan yuragi jizillab, gʻamgin burilib qaradi, juvonning chehrasini, qaddi-qomatini koʻz oldiga keltirmoqchi boʻlib, koʻp urindi, biroq eslay oʻlmadi. Faqat oq roʻmol oʻragan boshning sekin-asta burilayotganini koʻrdi, xolos. Bu xuddi kungaboqar boshining quyosh yurgan tomonga muntazir boʻlib oʻgirilishiga oʻxshardi.

\* \* \*

Mixail Koshevoyni Vyoshenskayadan etapma-etap haydab, frontga joʻnatishgan edi. Fedoseyev stanitsasiga yetganda, stanitsa atamani uni bir kun ushlab turdi-da, ertasi konvoy bilan yana Vyoshenskayaga qaytardi.

— Nega orqaga qaytaryapsiz? — deb soʻradi Mixail stanitsa mirzasidan.

— Vyoshkindan shunday buyruq olindi, — deb istar-istamas javob berdi mirza.

Ma'lum bo'lishicha, Mixailning onasi qishloq yig'inida, qariyalar oldida tiz cho'kib, yalinib-yolvorib ko'z yoshi qilgan, shunda keksalar oilani Mixail Koshevoydan boshqa boqadigan hech kim yo'q, shuning uchun uni yilqiboqar qilib tayinlashni so'raymiz deb arznoma yozishgan ekan. Miron Grigoryevich arznomani olib, o'zi Vyoshenskaya atamaning oldiga borgan va uni ko'ndirgan ekan.

Stanitsa idorasida ataman, askarchasiga qotib turgan Mishkani so'kdi, so'ngra shaxtidan tushib, zarda bilan:

— Bolsheviklar Donni mudofaa qilishiga biz ishonmaymiz! Yaylovga jo'naysan, yilqi boqasan, u yog'ini keyin ko'ramiz. Ko'zingni kattaroq och, itvachcha! Onangga rahmim keladi, bo'lmasa-ku... Bor!

Mishka endi konvoysiz qizib yotgan ko'chalarda piyoda yurib keldi. O'rog'liq shineli yelkasini qiyardi. Yuz ellik chaqirim yo'l bosib charchagan oyoqlari chalishib ketar edi. U qosh qorayganda zo'rg'a qishlog'iga yetdi, onaning ko'z yoshi-yu, erkalashlariga qondi, biroq onasining yuzi halitdan bujmayganini, sochida bir tola oq paydo bo'lganini birinchi marta payqadi va uning siymosini xotirida mahkam saqlab, ertasi kuni yaylovga jo'nadi.

Kargin stanitsasining janubida, uzunasi yigirma sakkiz va eni olti chaqirim keladigan bo'z yer — qadim zamonlardan beri haydovsiz yotgan daxlsiz dasht bor edi. Necha ming botmon keladigan ulkan bir qo'riq stanitsadagi ayg'irlarni o'tlatish uchun atayin ajratib qo'yilgan va shu sababdan bu yer yaylov deb atalar edi. Har yili Yegorev kuni-da<sup>1</sup>-yilqichilar Vyoshenskaya otxonalarida qishi bilan boquvda turgan ayg'irlarni haydab, yaylovga jo'nashardi. Yaylov joyning qoq o'rtasiga stanitsa puliga o'n sakkiz oxurlik ochiq bostirma, uning yoniga yilqiboqarlar hamda nazoratchi bilan veterinar feldsher uchun yog'ochdan kazarma solingan edi. Vyoshenskaya okrugining kazaklari qochiradigan biyalarini shu yerga haydab kelishardi, feldsher bilan nazoratchi biyalarining bo'yi ikki gazdan, yoshi to'rtadan kam bo'lmasligini tekshirib qabul qilishardi. Sog'lomlarini ajratib, qirqtasini bir uyur qilishardi.

---

<sup>1</sup> Qaldirg'ochlar keladigan payt, 23-aprel. (Tarj.)

Har bir ayg'ir o'z uyurini dashtga boshlab, biyalarni jon-jahdi bilan qo'rib yurardi.

Mishka peshonasiga bitgan yakka-yu yagona biyani minib yo'lga chiqdi. Onasi uni kuzatayotganda, ko'z yoshlarini etagiga surtib tayinladi:

— Balki, biya qochib qolar... Uni ehtiyot qil, ko'p minaverma. Yana bitta ot judayam kerak!

Tush payti Mishka soy ustida jimirlashgan sarobning narigi tomonidagi tunuka tomli kazarmani, otxonaning yog'ingarchilikdan o'ngib ketgan taxta tomini, g'ovlarni ko'rdi. U biyani tezroq yurgizdi: do'ngga chiqilgandan keyin imoratlar va uning ortidan ko'kalamzor aniq ko'rindi. Dashtning kun chiqish tomonida, quyunday uchib borayotgan bir uyur – yilqining qorasi ko'zga tashlanardi, ularning yonida yilqiboqar ot choptirib otlarni sug'organi hovuzga haydab borardi. U uzoqdan qo'g'irchoqdek kichkina, xuddi o'yinchoq ot minib ketayotgandek bo'lib ko'rinardi.

Mishka qo'raga kirib, otdan tushdi va biyani zinapoya oldiga bog'ladi-da, uyga kirdi. Kenggina yo'lakda yuziga sepkil toshgan o'rta bo'yli yilkiboqar kazakka duch keldi.

Kazak Mishkaga boshdan oyoq razm solib chiqdi.

— Kim kerak? — deb so'radi u zarda bilan.

— Nazoratchiga uchrashmoqchi edim.

— Strukovgami? U yo'q, chiqib ketgan. Sazonov bor, yordamchisi, anavi uyda. Chap qo'ldagi ikkinchi eshik... Nima ishing tushdi? Qayerdan kelding?

— Yilqi boqishga keldim.

— Duch kelgan odamni yuborgverarkanlar-da...

U ming'illab, eshik tomonga yurdi. Yelkasiga tashlangan arqonning uchi yerda sudralib borardi. Eshikni ochdi va Mishkaga teskari turib olib qamchisini bir siltadi-da, shaxtidan tushib, muloyim so'zlay boshladi:

— Bizda, uka, xizmat judayam og'ir. Gohida ikki sutkalab otdan tushmaymiz.

Mishka uning bukchaygan yelkasini va tarvaygan egri oyoqlarini tomosha qilardi. Kazakning beso'naqay gavdasidagi har bir chiziq eshikdan tushib turgan yorug'da ravshan va bo'rtib ko'rinardi. Uning to'g'inday egri oyoqlarini ko'rib, Mishkaning kulgisi qistardi. U «qirq

yil qimirlamay, bochka ustida o'tirgan odamga o'xshaydi», — deb o'zicha iljayar va qo'li bilan eshikning tutqichini qidirardi.

Sazonov yangi kelgan-yilqiboqarni dabdabali sur'atda, mamnuniyat bilan qabul qildi.

Sal orada barvasta bir kazak, Ataman polkining vaxmistri, nazoratchi Afanasiy Strukov ham allaqayoqdan yetib keldi. U Koshevoyini ham ovqatga qo'shib qo'yish to'g'risida buyruq berdi-da, u bilan birga oftobda yongan peshayvonga chiqdi.

— Xom otlarni o'rgata olasanmi? Minib ko'rganmisan?

— Shu ishdan xabarim yo'q, — deb chinini aytdi qo'ydi Mishka, lekin o'sha zahotiy oq nazoratchining issiqdan so'ligan horg'in chehrasi birdaniga jonlanganini, yuzida norozilik alomati paydo bo'lganini payqadi.

Nazoratchi qiyshayib, terlagan orqasini, ikki kuragingining orasini qashlar, baqrayganча Mishkaning peshonasiga tikilardi.

— Arqon tashlashni bilasanmi?

— Bilaman.

— Otga yuraging achiydimi?

— Achiydi.

— Otlar ham odamga o'xshagan bir maxluq, faqat tili yo'q. Otni ayagin, — deb buyurdi va o'zidan o'zi tutaqib baqirdi. — Ayash kerak, ularga ozor berma!

Birpasda yuziga qon yugurib, g'ayrati qo'ziganday jiddiy tusga kirdi, lekin o'sha zahotiy oq hafsalasi pir bo'lib, beparvolik alomati yuzida zohir bo'ldi.

— Uylanganmisan?

— Yo'q.

— Voy ahmoq! Uylansang bo'lardi, — deb kuldi nazoratchi.

U nimagadir, taraddudlanib, jimib qoldi, ko'ksini kerib yotgan keng dalaga birpas tikilib turdi-da, esnab uyga kirib ketdi. Mishka yilqiboqar bo'lib yurgan bir oylik xizmati davomida nazoratchidan shundan boshqa bir og'iz ham so'z eshitmadi.

Yaylovda hammasi bo'lib ellik beshta ayg'ir bor edi. Har bir yilqiboqarga ikkitadan, uchtadan uyur to'g'ri kelardi. Baxar nomli haybatli keksa ayg'ir boshlab yurgan kattakon uyurni hamda Banal nomli ayg'irga qarashli yigirmatacha biya to'plangan kichikroq bir uyurni



Mishkaga topshirdilar. Nazoratchi-yilqiboqarlar orasida eng chaqqon va eng dovyurak hisoblangan Ilya Soldatovni qoshiga chaqirib:

— Mana bu Tatarsk qishlog'idan kelgan yangi yilqiboqar, Koshevoy Mixail. Banal bilan Baxarning uyurlarini ko'rsatib qo'y, qo'lga arqon ber, sening kapangda turadi. Bilmaganini o'rgatasan. Boringlar, — deb tayinladi.

Soldatov indamay papirosini tutatdi-da, Mishkaga imladi:

— Ketdik.

Peshayvonda ko'zi bilan ishora qilib, oftobda shalpayib turgan Mishkaning biyasini ko'rsatdi.

— Senikimi? — deb so'radi.

— Meniki.

— Bo'g'ozmi?

— Yo'q.

— Baxardan qochirgin, zotli ayg'ir, Korolyov zavodidan olib kelganmiz, ona tomoni ingliz zotidan tarqagan. Unaqa uchqur ot qayda!.. Qani, min.

Ikkisi yonma-yon borishardi. Otlar tizza bo'yi o't orasida sekin-asta yurardi. Kazarma bilan otxona ancha olisda, ortda qolib ketdi. Oldinda esa, eng nozik va nafis havorang pardaga burkangan azim dala jimjit yotardi. Quyosh qoq tepada intizor bo'lib, bir parcha siyrak bulut orqasidan mo'ralardi. Qizigan ko'katlardan ko'tarilgan muattar hid hamma yoqni bosib ketgan edi. O'ng tomonda, g'ira-shira ko'zga chalingan jarning narigi yog'ida Jirov hovuzining suvi jimirlar edi. Chor atrof, ko'z ilg'amas joygacha cho'zilgan yam-yashil poyonsiz dala va tushki jazirama issiqda kuyib yotgan ko'hna dasht ustida sarob jimirlaydi, ufqda esa bahaybat bulut afsonaviy qo'rg'onga o'xshab ko'rinadi.

Ko'katlarning past tomoni qalinligidan tim yashil bo'lib ko'rinar, uchi quyosh nurida ko'kimtir-sarg'ish tusda tovlanar edi. Hali pishmagan popukli bo'z o't hurpayib turar, zaripechak ilon singari unga chirmashib olgan edi. Yovvoyi bug'doy donga to'lgan boshog'ini azot ko'tarib, quyosh tomonga talpinardi. Unda-bunda yerga tarmashib olgan pakana bo'yli qo'ziquloq, ora-sira unga aralashib o'sgan cho'l yalpizlar ko'rinadi, qolgan hamma yerni bo'zo't bosib ketgan, goh bo'zo't, goh rang-barang gulga kirgan: yovvoyi suli, sariq to'zg'oq,

sutko'kat hamda boshqa o'tlarga kun bermaydigan zo'ravon chingiz-beda uchraydi.

Ikki kazak ot ustida jimgina borishar edi. Mishka ko'pdan beri ko'rmagan orombaxsh manzaraning gashtini surardi. Dashtning jimjiti-ligi, ulug'vorligi uni butunlay maftun etgan edi. Hamrohi bo'lsa, xuddi ibodat mahalida qo'l qovushtirgan odam singari, sepkildor qo'llarini egar qoshiga qo'yib, ot yoliga engashganicha, bemalol uxlar edi.

Oyog'i ostidan par etib churрак ko'tarildi va oppoq patlarini oftob-da yiltiratib jar usti bilan ketdi. Chamasi, Azov dengizida izg'ib yurgan shamol ertalabdan boshlab janub tomondan asta-sekin esib, ko'katlar qaddini buka boshladi.

Yarim soatdan keyin, Ari hovuz yonida o'tlab yurgan uyurga duch keldilar. Soldatov uyg'ondi, egar ustida kerishib oldi-da, erinchoqlik bilan:

— Panteley Lomakinning uyuri, — deb tushuntirdi. — O'zi qaysi go'rdaykin, ko'rinmaydi.

Mishka Don zotli bo'ydor samanga zavq bilan tikilib:

— Ayg'irining oti nima? — deb so'radi.

— Frazer! Judayam asov, badbaxt! Ko'z olaytirishini qara! Ana qo'zg'aldi!

Ayg'ir chetga burildi, biyalar yoppasiga unga ergashdi.

Mishka o'ziga belgilangan uyurni qabul qilib oldi, ashqol-dashqo-lini kapaga kirgizib qo'ydi. Ungacha kapada uch kishi: Soldatov bilan Lomakin va yollanib ishlovchi, ancha yoshga borgan Turoverov degan kamgap bir kazak turardi. Soldatov bularning kattasi edi. U Mishkani bajariladigan vazifalar bilan bajon-u dil tanishtirib chiqdi; ertasi kuni har qaysi ayg'irning qilig'i va fe'li-huyini birma-bir so'zlab berdi, so'ngra iljayib turib, shunday maslahat berdi:

— Qoidaga qaraganda sen o'z biyangni minib yurishing kerak, biroq uzzukun minaversang, sulaytirib qo'lasan. Sen biyangni uyur-ga qo'yib yubor, boshqa birovnikini egarlab min, tez-tez almashtirib tur.

Mishkaning ko'z oldida u, biyalardan birini uyurdan ayirdi-da, otda quvib borib ephillik bilan unga arqon tashladi. Unga Mishkaning egarini urdi va qalt-qalt titrab orqa oyoqlarini bukib tixirlik qilayotgan biyani uning oldiga yetaklab keldi.

— Min. Egar ko‘rmagan bo‘lsa kerak, o‘lguday asov ekan! — U o‘ng qo‘li bilan jilovni mahkam tortib, chap qo‘li bilan pishqirayotgan biyaning tumshug‘ini yopar ekan, jekirdi: — Minsang-chi! Otlarni ayab mingin. Ayg‘irga otxonada baqirishing mumkin: «Chet-ga» desang bas, bir chetga siqilib turaveradi, ammo bu yerda hazillasha ko‘rma! Ayniqsa Baxarga hushyor bo‘l, yaqiniga bora ko‘rma, abjag‘ingni chiqaradi, — dedi u bir qo‘li bilan uzangini ushlab va bir qo‘li bilan tipirchilab turgan biyaning qora atlasday silliq va to‘liq yelinini silab.

### III

Kun bo‘yi otdan tushmasa ham, bir hafta ichida Mishka yaxshigina dam oldi. Dasht uni maftun qildi, bu yerda u ibtidoiy odamlar singari kun kechirishga, duch kelgan narsa bilan qornini to‘yg‘azishga majbur bo‘ldi. Uyur nariroqda o‘tlab yurar, Mishka esa yo egarda mudrar, yo bo‘lmasa ko‘kalamzorga ag‘nab, osmonda shamol o‘tlatib yurganday ko‘ringan oppoq barra bulutlar uyurini loqayd tomosha qilardi. Dastlabki kunlari bu xildagi yolg‘izlik unga xush kelgan, el ko‘zidan yiroqda, yaylovda yashashlik unga juda yoqqan edi. Biroq haftaning oxiriga kelib, yangi sharoit bilan yaxshigina tanishib olgandan keyin ko‘nglida allaqanday noaniq vahm paydo bo‘ldi. Uning ko‘zi ochila boshladi: «U yoqda men tengi odamlar o‘zining va o‘zgalarning taqdirini hal qilishyapti-yu, men bo‘lsam bu yerda biya boqib yuribman. Bu nima degan gap? Tezroq ketish kerak, yo‘qsa rasvo bo‘laman», — deb o‘ylardi u. Biroq ko‘nglida: «O‘sha yoqda urushaversinlar, u yoqda har qadamda o‘lim xavfi, bu yoqda ajoyib osmon, ko‘kalamzor dasht — jonning rohati. U yer adovatning koni, bu yer tinchlik makoni. Boshqalar bilan nima ishim bor?..» — degan fikr ham yo‘q emasdi. Mishkaning xayoliga har xil fikr kelib, uni bezovta qila boshladi. Shuning uchun u yolg‘iz turolmaydigan, hadeb odamlar yoniga borgisi keladigan bo‘lib qoldi; dastlabki kunlarga qaraganda u hozir, Dudarev hovuzi atrofida uyurini o‘tlatib yurgan Soldatov bilan tez-tez uchra-shishni, uning bilan oshna bo‘lishni ko‘proq istar edi.

Soldatov bo‘lsa, aftidan, yolg‘izlik nimaligini bilmasdi. U kapada kamdan kam yotar, ko‘pincha uyurning boshida yoki hovuz bo‘yida

yotib qolaverardi. U bo'ri singari yashardi, o'z ovqatini o'zi topib yerd, bu sohada shu qadar uddaburon ediki, umr bo'yi shu kasb-kor bilan shug'ullangan bo'lsa kerak, deb gumon qilish mumkin edi. Bir kuni Mishka Soldatovning qildan to'r to'qiyotganini ko'rib qoldi. Qiziqsinib, savol berdi:

— Nima tutmoqchisan?

— Baliq.

— Qayerda bor?

— Hovuzda. Tovonbaliq.

— Chuvolchang bilan tutasanmi?

— Nonmi, qurtmi, bo'laveradi.

— Pishirasanmi?

Soldatov:

— Oftobda quritib, yeyaveraman, — deb chalvarining cho'ntagidan bir dona qoq baliq oldi-da, samimiyat bilan: — Ma! — deb Mishkaga uzatdi.

Bir kuni Mishka uyur orqasidan borayotib, tuzoqqa ilingan bazg'aldoqning ustidan chiqib qoldi. O'sha yerga ustalik bilan qotirilgan bazg'aldoq jasadi qo'yilgan edi, tuzoqlar qoziqqa bog'lanib o't orasiga yaxshilab yashirilgan edi. O'sha kuni kechqurun Soldatov bazg'aldoqni qo'rga ko'mib pishirdi. Mishkani ham kechki ovqatga taklif etdi. Xushbo'y etni to'g'rayotib iltimos qildi:

— Minba'd tuzoqqa qo'l tekkizma, butun ovimni rasvo qilasan.

— Bu yerga qanday kelib qolgansan? — deb so'radi Mishka.

— Butun boshli bir oilani men boqishim kerak. Soldatov jim bo'ldi va birdaniga:

— Menga qara, odamlar seni qizil bo'lgan deyishadi, rostmi shu? — deb so'radi.

Bunday savolni kutmagan Koshevoy xijolat bo'ldi.

— Yo'q... Hm, nima desamikin... Ha, men ularga qo'shilgan edim... Keyin tutib olishdi.

— Nega qo'shilgansan? Nima qidirding? — deb ko'zlarini o'qraytirib savol berdi Soldatov va sekin-sekin kavshana boshladi.

Ikkisi tunda jar tepasidagi do'ngda, gulxan yonida o'tirar edilar. Tezak burqsab, kul tagida cho'g' yalt-yult etardi. So'lgan shuvoq hidi dimoqlariga urilardi. Qoramtir osmon qo'ynida yulduzlar uchardi.

Uchgan yulduz ketidan paxmoq yo‘l tushib, anchagacha yiltirab turar, bu chiziq xuddi otga qamchi bosganda sag‘risida qolgan izga o‘xshardi.

Mishka hadixsirab, Soldatovning gulxan shu‘lasi tushib yallig‘lab turgan yuzlariga tikildi-da, javob berdi:

— Men haqiqat qidirib borgan edim.

— Kim uchun? — sapchib tushdi Soldatov.

— Xalq uchun.

— U qanday haqiqat ekan? Gapirib ber-chi. Soldatovning ovozi o‘zgarib, tilyog‘lamalik qilayotgani sezila boshladi. Mishka bir lahza taraddudlanib qoldi: «Soldatov hadigini yashirish va yuzini ko‘rsatmaslik uchun jo‘rttaga olovga tezak qalayapti», — degan xayolga ham bordi. Lekin gapiraverishga qaror qildi:

— Hamma teng huquqqa ega bo‘lishi kerak, bildingmi! Anavi pan, manavi xizmatkor degan ayirmachilik bo‘lmasligi lozim. Tushundingmi? Bu ishga barham beriladi hali.

— Kadetlar yengolmaydi deb o‘ylaysanmi?

— Yengolmaydi.

— Demak, hali shunaqa niyatlarim bor degin... — Soldatov nafasini rostlab, shartta o‘rnidan turdi. — Sen, itdan tarqagan, hali kazaklarni juhudlarga qul qilib bermoqchimisan?! — deb baqirdi tutaqishib. — Sen... Sening tumshug‘ingga tushirish kerak, ham-mang ham shunaqasan, payimizni qirqmoqchisan?! Ho-o, shundaymi hali?.. Butun dashtni juhudlar fabrikasi bosib ketsinmi? Yerlarimizni tortib olishsa, hammamizni ko‘chirishsa ham maylimi?

Mishka hayron qolib, sekin-asta o‘rnidan turdi. Nazarida, Soldatov urmoqqa chog‘lanayotganday bo‘lib ko‘rindi. Darhol o‘zini chetga oldi, Soldatov qo‘rqib tislanyapti deb o‘ylab musht soldi. Biroq Mishka uning qo‘lidan tutib qoldi; bilagini mahkam siqib, do‘q aralash nasihat qildi:

— Sen bunaqa qilig‘ingni qo‘y, amaki, xuddi ab-jag‘ingni chiqarib qo‘yaman-a! Nega g‘avg‘o ko‘tarasan?

Ikkisi qorong‘ida betma-bet turardi. Gulxan oyoqlar ostida toptalib so‘ndi, faqat dumalab chekkaga chiqib qolgan yolg‘iz tappining bir cheti qizarib tutar edi. Soldatov chap qo‘li bilan Mishkaning yoqasidan chagallab bo‘g‘ar, turtkilab o‘ng qo‘lini bo‘shatmoqchi bo‘lib urinardi.

Mishka baquvvat bo‘ynini burib:

— Yoqani ushlama! — deb xirillardi.— Yoqani qo‘yvor, deyapman senga! Solvoraman, xuddi?..

— Yo‘-o‘-o‘q, o‘zingni... solvoraman... shoshmay tur hali! — deb halloslardi Soldatov.

Mishka bir amallab uning qo‘lidan bo‘shalib oldi-da, kuchining boricha Soldatovni itarib yubordi, uni urgisi, yiqitib olib, qo‘lining qichig‘i qonguncha do‘pposlagisi kelib turganiga qaramay, qaltirab, ko‘ylagini tuzata boshladi.

Soldatov uning yaqiniga borolmasdi. Tishlarini g‘ijirlatib, haqorat aralash baqirar edi:

— Siringni oshkor qilaman!.. Hozir nazoratchiga borib aytaman! Sharmandangni chiqaraman!.. Gazanda! Badbax!.. Bolshevik!.. Podtelkovga o‘xshatib, seniyam osish kerak! Dorga osish kerak! Bo‘yningga chilvir solish kerak!

«Borib aytadi... Yolg‘on-yashiqdan toymaydi bu... Turmaga qamashadi endi... O‘la qolsa ham frontga yuborishmaydi — demak, qizillar oldiga qochishning ham iloji yo‘q. Rasvo bo‘ldim!» degan xayollar ichida Mishkaning a‘zoyi badani uvushib ketdi, bu mushkul ahvoldan qanday qilib qutulsam ekan deb, aqli shoshib, gangib qoldi. «O‘ldirish kerak! Xippa bo‘g‘aman-qo‘yaman... Boshqa iloj yo‘q...» To‘satdan miyaga kelgan bu qarorga u endi tamoman bo‘ysunib: «O‘zi meni urmoqchi bo‘lib yopishdi... Qo‘lim halqumiga tushib qolgan ekan... Qiziq ustida, bexosdan... Falokat-da...», — deb qutulaman degan vaj ham topib qo‘ygan edi.

Mishka qaltirab, Soldatov tomonga yurdi, lekin u haliyam baqirib so‘kinardi, agarda u shu mahal qochganda qon to‘kilishi muqarrar edi. Mishka turib-turib bo‘shashib qoldi, oyoqlari qaltiray boshladi, orqasidan, qo‘ltiqlaridan muzday ter chiqdi.

— Shoshmasang-chi, axir... Gapga quloq sol avval, Soldatov, sabr qil. G‘alva qilmasang-chi. Axir, oldin o‘zing boshlading-ku...

Mishka obro‘sini yerga urib yalinib-yolvora boshladi. Uning jag‘lari titrar, ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketgan edi.

— Do‘st bo‘lgandan keyin orada har xil gap o‘tadi-da... Senga qo‘limni ham tekkizganim yo‘q.. Sen bo‘lsang yoqaga yopishasan... Men senga biron qaltis gap aytdimmi? Isbot qilishni ham o‘ylagin-da, axir... Agar seni xafa qilgan bo‘lsam, kechirgin... Xudo haqi, kechir! Bo‘ldimi?

Soldatov hovuridan tushdi, sal bo'shshdi va nihoyat ovozi o'chdi. Birpasdan keyin u yuzini o'girib, qo'lini Koshevoyning muzday terlagan qo'lidan sug'urib oldi-da:

— Darrov dumingni likillatibsan-a, gazanda! — dedi, — ha, mayli, aytmayman. Nodonsan, shunga rahmim keladi, xolos... Minba'd ko'zimga ko'rinma, diydoringni ko'rishga tobim qolmadi! Ablah ekan-san! Juhudlarga sotilibsan, men pulga sotiladigan odam bilan noni qatiq yemayman.

Mishka xokisor bo'lib nochor jilmayardi, lekin Soldatov qorong'ida uning yuzini, borgan sari to'lishayotgan zilday mushtlarini ko'rmasdi.

Ikkisi churq etmay tarqaldi. Koshevoy o'z uyurini axtarar, otini ayamay qamchilab, shamolday uchirardi. Sharq tomonda yalt-yult chaqmoq chaqar, ustma-ust momaqaldiroq guldurardi.

O'sha kechasi yaylov ustini qop-qora bulut bosdi. Yarim kechaga borganda quturgan shamol pishqirib, hushtak chalib, to's-to'polon bilan bostirib keldi, uning ketidan muzday shabada esib, osmon baravar chang-u to'zon ko'tarildi.

Havo dimiqib, rosa aynidi. O'rkach-o'rkach qora-qura bulutlar bag'rini chaqmoq yondamasiga tilimlar, jimlik cho'kib, nihoyat, juda olislarda gulduragan momaqaldiroqning ovozi kelardi. Dona-dona qilib sepalagan yomg'ir tomchisi o'tlarning qaddini buka boshladi. Ikkinchi marta chaqmoq chaqib, chor atrofga gir aylana shu'la sochganda Koshevoy, yer bilan osmon o'rtasida muallaq to'xtab qolgan, chetlari qop-qora, vahimali qo'ng'ir bulutni va uning ostida yastanib yotgan yerda g'uj bo'lib turgan mitti otlarni ko'rdi. Olamga dahshat solib momaqaldiroq qarsilladi, chaqmoq shiddat bilan yerga sho'ng'idi. Momaqaldiroq yana bir qarsillagandan keyin bulutlar ko'ksini chok etib, jala quya boshladi, dashtni shatir-shutur bosib ketdi, Koshevoy boshidagi ivigan furajkani quyun uchirib yuborib, o'zini egar qoshiga qapishtirib qo'ydi. Bir lahza sukunatdan keyin osmon-falakda yana chaqmoq yaltirab, zim-ziyo qorong'ilikni yoritdi, keyin yana hamma yoqni battarroq zulmat bosdi. Shundan keyingi momaqaldiroq shu qadar kuchli qarsilladi-ki, Koshevoyning ostidagi ot cho'kkalab qoldi, so'ngra o'zini o'nglab olib, osmonga sapchidi. Uyurdagi yilqilar tapirtupur qilib, tipirchilab qolishdi. Koshevoy kuchi boricha jilovni tortdi va uyurni tinchitmoqchi bo'lib:

— Tak-ey!.. Drrr!.. — deb baqirdi.

Chaqmoq yarq etib bulutlar sirtini ilang-bilang qilib yoritganda Koshevoy, butun uyur o'ziga tomon bostirib kelayotganini ko'rib qoldi. Otlar yaltillagan tumshuqlarini yer bag'irlatib, quturib chopardi. Burun kataklari kengayib, pishqirib nafas olar, taqasiz tuyoqlari nam tuproqda tap-tap qilardi. Eng oldinda quyunday uchib Baxar kelmoqda edi. Koshevoy otini shartta chetga burdi-yu, arang jon saqlab qoldi. Otlar uning yonidan o'tib, nariroqqa borib taqqa to'xtadi. Momaqaldiroqdan hurkib, zo'rg'a turgan uyur Koshevoyning baqirganidan battar quturib, ovoz kelgan tomonga jon-jahdi bilan yugurganda Mishka buni tushunmay, yana qattiqroq qichqirdi:

— To'xta! Tak-tak!

Bu safar Misha, zim-ziyo zulmat ichida boyagidan ham battar ustiga baloday yopirilib kelayotgan olatasir tuyoqlar tovushini eshitdi. Jon holatda biyaning ikki ko'zi orasiga qamchi bosib, «chu-chu»ladi-yu, biroq chetga o'tib olishga ulgurmad. Allaqanday hovliqqan ot biyaning qoq sag'risiga ko'kragi bilan kelib urilganda, Koshevoy egardan chalpakday uchib tushdi. Haytovur, unga hech nima qilmadi: uyurning asosiy qismi o'ngroqdan o'tganligi uchun, u omon qoldi, faqat allaqanday bir biya o'ng qo'lini salgina bosib, loyga botirib ketgani bo'lmasa, boshqa hech narsa ro'y bergani yo'q. Mishka o'rnidan turdi va sharpa chiqarmaslik uchun ohista-ohista yurib bir chetga chiqdi. U endi uyur shu yerda kutib turganini, ovozini chiqarsa, yana quturib jon-jahdi bilan unga tashlanishini bilar hamda Baxarning o'ziga xos, o'ziga mos ovoz bilan pishqirishini aniq eshitar edi.

Koshevoy tongotar mahalda kapaga qaytib keldi.

#### IV

15-mayda Don muzofoti Umum lashkarining atamani Krasnov oqsoqollar soveti raisi, xorijiy ishlar bo'limining boshlig'i general-mayor Afrikan Bogayevskiy, Don armiyasining general-kvartirmeysteri polkovnik Kislov hamda kubanlik ataman Filimonovlar bilan birga paroxodda Manich stanitsasiga keldi.

Don va Kuban yerlarining xo'jayinlari palubadan kemaning prista-tanga kelib to'xtashini, matroslarning chop-chopini, zinapoya atrofi-



dagi loyqa to'liqinni zerikkansimon tomosha qilishardi. Nihoyat, ke-  
madan tushib qirg'oqqa chiqishdi, pristanga to'plangan olomon ularga  
ko'z tikib qarab qoldi.

Yer-u ko'k, ufq — hamma yoq ko'kimtir tusga kirgan. Hatto Don  
ham bu gal ko'kimtir bo'lib ko'rinar, oppoq bulutlar tip-tiniq suvda,  
oykada aks etganday aks etardi.

Lovullagan oftob, qaqragan sho'rtuproq va mog'orlagan bulturgi  
pichan hidini shamol uchirib yubordi. Olomon orasida pichir-pichir  
gap. Mahalliy hukumat tomonidan kutib olingan generallar maydon  
sari jo'nadilar.

Bir soatdan keyin stanitsa atamanining uyida Don muzofot  
hukumati hamda ko'ngilli armiya vakillarining majlisi boshlan-  
di. Ko'ngilli armiyadan general Denikin bilan general Alekseyev  
hamda uning shtab boshlig'i general Romanovski, polkovnik  
Ryasnyanskiy va polkovnik Evald ham kelgan edilar.

Majlis juda sovuq o'tdi. Krasnov nuqul obro' saqlashga intilar-  
di. Alekseyev majlis ahli bilan ko'rishib chiqqach, stol qoshiga bo-  
rib o'tirdi; oppoq kaftlarini salqigan betlariga tirab oldi-da, bemalol  
ko'zlarini yumdi. Avtomobilda yo'l yurib, shalog'i chiqqan edi. Qari-  
lik va boshiga tushgan tashvishlar uni adoyi tamom qilganga o'xshardi.  
Qaqragan og'zining ikki cheti bujmayib, lab-dahani osilib tushgan, to-  
mir bosib ketgan qovoqlari shishinqiragan va salqigan edi. Bir talay  
mayda ajin ikki chakkasini yelpig'ich singari qoplagandi. Burishgan  
betiga mahkam tiralgan panjalarining uchi sarg'aygan kalta sochining  
orasiga kirib turardi. Polkovnik Ryasnyanskiy stol ustiga avaylab qarta  
yoya boshladi, Kislov unga yordamlashdi. Romanovski stol yonida  
qartaning chetini jimjilog'i bilan bosib turdi. Bogayevskiy pastak de-  
razaga suyanib oldi-da, ichi achishib, Alekseyevning benihoya horg'in  
yuziga tikila boshladi. Uning afti gipsdan yasalgan maskaga o'xshardi.  
«Qarib ketibdi-ya! Judayam qaribdi sho'rlik!» — deb Bogayevskiy  
xayol surar, yoshlangan bodom ko'zlarini Alekseyevdan uzolmasdi.  
Ahli majlisning stol atrofiga joylashib o'tirib olishini ham kutmay, De-  
nikin Krasnovga qarata hovliqib, achitib gapira ketdi:

— Majlisni ochishdan oldin men sizga quyidagilarni ma'lum qili-  
shim kerak: Bataysk shahrini ishg'ol etish to'g'risida bergan dispozi-  
tsiyangizda siz, o'ng tomondagi kolonnada nemis batalyoni va to'plari

qatnashadi deb ko'rsatgansiz; bu narsa bizni g'oyatda taajjublantiradi. Ochig'ini aytsam, ular bilan bu xilda hamkorlik qilish men uchun nihoyatda g'alati tuyuldi... Menga shuni gapirib berishingizni iltimos qilardim: vatan dushmanlari — eng xoin dushmanlar bilan siz nima maqsadda aloqa bog'laganingizni, ulardan nechuk yordam olganingizni bilishim mumkinmi? Har holda siz, ittifoqchilar bizga yordam berishga tayyor ekanini yaxshi bilarsiz? Ko'ngilli armiya nemislar bilan hamkorlik qilishni Rossiyani qaytadan tiklash maqsadiga xiyonat qilish deb hisoblaydi. Don hukumatining xatti-harakatlariga keng ittifoqchi doiralar ham shunday baho bermoqdalar. Izoh berishingizni iltimos qilaman.

Denikin jahl bilan qoshlarini chimirib, javob kutardi.

Krasnov faqat o'zini tuta bilishi va aristokratcha fe'l-atvori tufayliga sir boy bermay, xotirjam o'tirardi, biroq baribir g'azabi yuziga tepdi: asabi qo'ziganidan qop-qora mo'ylov ostlari pir-pir uchib, og'zi qiyyshaya boshladi. U zo'r ehtirom bilan, qizishmasdan javob berardi:

— Tamomiy ishimiznng taqdiri hal bo'layotgan bir paytda, sobiq dushmanlar yordami ham asqotadi. So'ngra, umuman aytganda Don hukumati hech kimga qaram emas, ya'ni besh million suveren xalq us-tidan turgan hukumatning ixtiyori o'zida, uning zimmasiga kazaklarni himoya qilish vazifasi yuklangan, shuning uchun kazaklar manfaatiga munosib, o'z bilgicha harakat etishga haqi bor.

Gap shu yerga yetganda Alekseyev ko'zini ochdi, aftidan, astoydil zehn qo'yib eshitmoqchi bo'ldi. Krasnov, asabi qo'zib shopday mo'ylovini burayotgan Bogayevskiyga ko'z tashlab oldi-da, so'zida davom etdi:

— Sizning mulohazalaringizda, janob oliylari, masalaning etika tomonlariga ko'proq e'tibor berilmoqda. Bizning sha'nimizga qarata siz aytgan nozik iboralarga qaraganda, go'yoki biz Rossiyaga ham, ittifoqchilarga ham xiyonat qilayotgan bo'lib chiqayotirmiz... Lekin mening bilishimcha, ko'ngilli armiya bizdan olgan to'p o'qlari aslida nemislardan sotib olinganligi janoblariga ma'lum bo'lsa kerak.

— Iltimos qilaman, mutlaqo aloqasi yo'q bir masalani hozirgi ishga aralash-tirmang! Nemislardan qaysi yo'l bilan o'q-dori olishingizning menga hech qanday aloqasi yo'q, biroq ularning askariga suyanib ish qilishlik!.. — Denikin achchiqlanib kiftini qisdi.

Krasnov nutqini tamomlayotib, Denikinga qat'iyon bildirib qo'yish maqsadida, u endi avstro-germaniya frontida Denikin ko'rgan qadimgi brigada generali emasligini gap orasida ustalik bilan qistirib ketdi.

Krasnov nutqidan keyin oraga tushgan noqulay jimlikka Denikin xotima berib, ustomonlik bilan Ko'ngilli va Don armiyalarini birlashtirish hamda birlashgan qo'mondonlik joriy qilish masalasiga gapni burib yubordi. Biroq orada o'tgan haligi qattiq-qurum gaplar ko'pdan beri keskinlashib kelayotgan munosabatlarning yanada keskinlanishiga sababchi bo'ldi, keyinchalik Krasnov hukumat tepasidan ketar oldida oralaridagi aloqa butunlay uzildi.

Krasnov ayyorlik qilib, to'g'ri javob berish o'rniga, Saritsinga birgalikda hujum boshlashni taklif etdi, buning bilan avvalo, eng katta strategik markaz egallanishini va ikkinchidan, uni qo'lga olinsa, ural kazaklari bilan birikish mumkin bo'lishini aytdi.

Bundan keyingi suhbat shu yo'sinda davom etdi:

— ...Saritsinning ahamiyati biz uchun naqadar katta ekanligini sizga gapirib o'tirmasam ham bo'ladi.

— Ko'ngilli armiya nemislar bilan uchrashishi mumkin. Men Saritsinga bormayman. Avvalo men kubanliklarni ozod etishim lozim.

— To'g'ri, lekin qanday bo'lmasin, Saritsinni qo'lga kiritish eng muhim vazifadir. Don Umumlashkar hukumati siz janobi oliylaridan shu to'g'rida iltimos qilishlikni menga topshirgan edi.

— Takror aytaman: kubanliklarni tashlab ketishim sira mumkin emas.

— Faqat Saritsinga hujum boshlashga rozi bo'lingandagina birlashgan qo'mondonlik to'g'risida gaplashmog'imiz mumkin.

Alekseyev bunga rozi bo'lolmay, tamshanib oldi.

— Mumkin bo'lmagan narsa! Kubanliklar o'z viloyatidan tashqari chiqmaydi, hali Kuban bolsheviklardan batamom tozalangani yo'q. Ko'ngilli armiyada ikki yarim ming askar bor, xolos, shu niyam uchdan bir qismi safga yaroqsiz — yarador va kasallardan iborat.

Oddiygina tushki taom tepasida hammasining hafsalasi sovub, bir-biriga bo'lar-bo'lmas gap otishardi. Xullas, bitimga kelish mumkin emasligi ochiq-oydin ma'lum bo'lgan edi. Polkovnik Ryasnyanskiy allaqanday bir markovlikning yarmi latifaga, yarmi chinga o'xshagan kul-

gili sarguzashtini soʻzlab berdi, tushlik ovqatga qiziq hikoya qoʻshilib, ikkisining taʼsiri orqasida oradagi jiddiyat sekin-asta yoʻqoldi. Biroq ovqatdan keyin, hamma oʻz holiga mehmonxonaga tarqalib, papiros cheka boshlaganda, Denikin Romanovskiyning yelkasiga turti va koʻz qisib Krasnovni koʻrsatib:

— Viloyat miqyosidagi Napoleon... Bemaʼni odam ekan, — deb shivirladi.

Romanovskiylar kulimsirab, darhol javob qildi:

— Kenaslikni qoʻmsab qolibdi... Shoʻrluk brigada generali podsholik kayfini surmoqchi. Menimcha, hazil-huzul gaplardan chiqib qolganiga oʻxshaydi...

Har ikki tomonning bir-biriga adovati va dushmanligi ortib shu ahvolda tarqaldilar. Shu kundan eʼtiboran Koʻngilli armiya bilan Don hukumati orasidagi munosabat keskin tus oldi, soʻngra Krasnovning Germaniya imperatori Vilgelmga yozgan xatining mazmuni Koʻngilli armiya qoʻmondonligiga maʼlum boʻlgach, oralari butunlay buzildi. Novocherkasskda yotgan yarador koʻngilli askarlar Krasnovning avtonom boʻlishga intilishini hamda kazaklar turmushini qadimgi iziga solishga ojiz ekanini soʻzlab mazax qilishar, uni yerga urish uchun «xuzyain» deb atashardi, buning ustiga, Don Umumlashkariga «umummasxara» degan laqab toʻqishgan edi. Bunga javoban donlik avtonomparastlar ularni «Sayyora sozandalar», «yurti yoʻq hokimlar» deb masxara qilishardi. Koʻngilli armiya «ulugʻlaridan» allaqaysisi Don hukumati shaʼniga: «Nemislar qoʻyniga kirib kun kechirayotgan fohisha» degan xunuk gap qilibdi. General Denisov bunga darhol: «Don hukumati fohisha boʻlsa, Koʻngilli armiya fohishaning mablagʻiga yashaydigan loʻtti» deb javob qaytaribdi.

Bu javobda, Germaniyada Don hukumati uchun yuborilgan oʻq-dorining bir qismi Koʻngilli armiyaga berilayotganiga shama qilingan edi.

Rostov bilan Novocherkassk Koʻngilli armiyaning suyangan shaharlari boʻlib, gʻuj-gʻuj ofitserga toʻlgan. Ming-ming ofitserlar chayqovchilik qilishar, son-sanoqsiz harbiy idoralarda xizmat qilishar, qavm-qarindosh va tanish-bilishlarnikida kun koʻrishar, soxta hujjat bilan yaradorlar qatori gospitallarda yotishardi... Yuragida oʻti bor mardlar jangda halok boʻlmoqda, tif bilan ogʻrib qirilmogʻda, jarohati

tuzalмай o'lmoqda edilar, qolganlari bo'lsa inqilob yillari davomida vijdon-u, nomusini yo'qotib, jo'shqin daryo betidagi go'ng singari, axlat kabi suzib yurishardi. Bular unchalik ish ko'rmagan, boquvdan endigina chiqqan ofitser kadrlar edi, bir vaqtlar Rossiyani mudofaa qilishga da'vat etib Chernetsov koyigan, sharmandasini chiqqan ofitserlar xuddi shular edi. Bularning aksariyati «fikir yurituvchi ziyolilar» deb atalgan toifaning aynigan eng yomon xili — harbiy mundir kiyib olganlar bo'lib, bolsheviklardan qochib, oqlarga qo'shilolmay bir nav kun kechirishar, Rossiyaning taqdiri to'g'risida o'zaro bahslashar, bola-chaqaning g'amini yeyishar va urushning tamom bo'lishini intizorlik bilan kutishardi.

Ular uchun mamlakatni kim idora qilsa baribir — Krasnovmi, nemismi, bolshevikmi, ishqilib, urush tugasa bo'lgani.

Ammo kundan kunga vahimali hodisalar yuz bermoqda edi. Sibir — chexoslovaklar qo'zg'olon ko'targan, Ukrainada — Maxno kuchga kirib nemislarga qarshi urush boshlagan edi. Kavkaz, Murmansk, Arxangelsk... Butun Rossiya olov iskanjasida... Butun Rossiya ulug' o'zgarishlar to'lg'og'ida...

Iyun oyida chexoslovaklar nemis askarlariga qarshi hujum boshlash uchun Volga bo'ylab Sharqiy front tuzish maqsadida Saratov, Saritsin va Astraxan shaharlarini ishg'ol etarmish, degan mish-mish gap shamol singari Donga duv tarqaldi. Ko'ngilli armiyaga qo'shilmoqchi bo'lib, Rossiyadan kelayotgan ofitserlarni Ukrainadagi nemislar osonlikcha o'tkazmay qo'ydilar.

«Sharqiy front» tuzilibdi, degan ovozalardan vahimaga tushgan nemis qo'mondonligi o'z vakillarini Donga yubordi. 10-iyun kuni Novocherkasskka german armiyasining mayorlari — fon Kokenxauzen, fon Stefani va fon Shleynits kelishdi.

O'sha kuniyoq ataman Krasnov general Bogayevskiy ishtirokida, ularni saroyda qabul qildi.

Bolsheviklar bilan kurashda va muzofot chegarasini qaytadan tiklash masalasida nemis qo'mondonligi Don Umumlashkariga har jihatdan yordam berganini, hattoki qurol kuchi bilan aralashganini mayor Kokenxauzen eslatib o'tdi-da: «Agar chexoslovaklar nemislarga qarshi urush boshlasa, Don hukumati nima qilmoqchi?» degan savol berdi. Krasnov, kazaklar betaraflikka qattiq rioya qilishini, o'z yerlarini

mutlaqo urush maydoniga aylantirishga yo‘l qo‘ymasligini aytib uni ishontirdi. Mayor fon Stefani: «Atamanning bu javobi qog‘ozda o‘z ifodasini topsa yaxshi bo‘lardi», degan xohish bildirdi.

Shuning bilan qabul marosimi tugadi, ertasi kuni Krasnov Germaniya imperatoriga quyidagi xatni yozdi:

«Janobi imperator va qirol hazrat oliylari! Menkim, Don atamandirman, ushbu maktubni topshirguvchi shaxsni, ya’ni Don Umumlashkar qarorgohining imperator hazrat oliylari qasridagi elchisini hamda uning hamrohlarini, ulug‘ Germaniyaning eng qudratli podshosi siz janobi imperator hazrat oliylarini tabrik etmoqqa hamda quyidagilarni sizga bildirmoqqa o‘z tomonimdan vakil etdim:

Shavkatli Don kazaklari ikki oydan beri o‘z vatanining ozodligi yo‘lida shu qadar mardonavor jang qilmoqdalarki, xuddi german xalqiga qon-qarindosh bo‘lgan burlarning yaqindagina inglizlarga qarshi olib borgan kurashi singari, bu kurashda biz mamlakatimizning hamma frontlarida ham to‘la g‘alaba qozondik va hozir Don Umumlashkar hukumatiga qarashli yerlarning o‘ndan to‘qqiz qismini vahshiy qizil gvardiyachilardan ozod etdik. Mamlakat ichida davlat tartibi mustahkamlandi hamda to‘la ravishda qonuniyat o‘rnatildi. Siz, imperator hazrat oliylarining askarlari tomonidan bizga ko‘rsatilgan do‘stona yordamlari tufayli muzofotimizning janubiy chegarasida tinchlik va osoyishtalik barpo qilindi, hozir men mamlakat ichkarisida tartib saqlash va dushmanlarning sirtidan bo‘ladigan hujumiga qarshi qo‘yish maqsadida bir korpus kazaklarni tayyorlab qo‘ydim. Yosh davlatning yolg‘iz o‘zi yashay olishi juda qiyin, shuning uchun hali yosh bo‘lgan Don Umumlashkar hukumati Ashtarxon va Kuban qo‘shinlarining boshliqlari — polkovnik knyaz Tundutov hamda polkovnik Filimonov bilan mustahkam ittifoq tuzdiki, Ashtarxon yerlari va Kuban viloyati bolsheviklardan tozalangandan keyin, federatsiya asosida mustahkam bir davlat tuzish ko‘zda tutiladi, bu federatsiyaga Don Umumlashkari, Ashtarxon qo‘shini bilan Stavropol qalmoqlari, Kuban qo‘shini hamda Shimoliy Kavkaz xalqlari kiradi. Mazkur hukumatlar bu haqda rozilik bildirdilar; shunday qilib, yangidan tashkil etiladigan davlat, Don Umumlashkari bilan bir fikrga kelib, o‘z yerlarining qonli to‘qinishlar maydoniga aylanishi uchun yo‘l qo‘ymaslikni hamda betaraflik siyosatiga qattiq rioya

qilishni o'z zimmasiga oldi. Janobi imperator hazrat oliylarining huzurlaridagi bizning elchimizga quyidagi masalalar yuzasidan men tomondan vakolat berilgandir:

Don Umumlashkari mustaqil yashamoqlikka haqli ekanini, so'ngra Kuban, Ashtarxon, Terek qo'shinlariga va Shimoliy Kavkazga qarashli yerlar ham ozod etilishi bilan — o'z holiga yashash hamda Don-Kavkaz ittifoqi nomi ostida federatsiya tuzish huquqini inobatga olmog'ingizni siz, imperator hazrat oliylaridan iltimos etishlik.

Siz, imperator hazrat oliylaridan Don Umumlashkariga qarashli yerlar chegarasini qadimgi geografik va etnografik miqyosda tanishga rozi bo'lishni iltimos qilish bilan birga, Ukraina bilan Don o'rtasidagi nizoli Taganrog masalasini Don lashkari foydasiga hal etishda yordam qilishingizni so'raymiz, chunki Taganrog okrugi 500-yildan buyon Don qo'l ostida bo'lib, biz uni Tmutarakanning bir qismi deb hisoblaymiz, Don lashkari esa aslida shu Tmutarakanda vujudga kelgandir.

Strategik mulohazalarga ko'ra, Saratov guberniyasining Kamishin va Saritsin shaharlarini, Voronej shahri bilan Liski va Povorino stansiyalarini Donga qo'shish masalasida yordamlashishni hamda qarorgohimizda saqlangan qartaga muvofiq, Don yerlarining chegarasini belgilab berishni siz, hazrat oliylaridan so'rashlik.

Siz, hazrat oliylaridan Moskvadagi Sovet hukumatiga tazyiq qilishingizni, uni Don yerlaridagi hamda kelgusida Don-Kavkaz ittifoqiga kiradigan boshqa o'lkalardagi Qizil Armiya talonchi otryadlarini olib chiqib ketish to'g'risida buyruq berishga majbur etishingizni so'ragayki, shundagina Moskva bilan Don o'rtasida mo'tadil, tinch aloqa o'rnatish imkoniyati tug'iladi. Bolsheviklar bosqinchiligi natijasida Don aholisi hamda uning savdo va sanoati ko'rgan hamma zararlarni Sovet Rossiyasi to'lamog'i lozim.

Bizning hali yosh hukumatimizga zambarak, miltiq, o'q-dori va injenerlik anjomlaridan yordam qilinishi va agar siz ma'qul topsangiz, Don Lashkariga qarashli yerlarda zambarak va miltiq zavodlari, to'p o'qi va miltiq o'qi yasaydigan zavodlar qurishni siz, imperator hazrat oliylaridan so'rashlik.

Don Umumlashkari hamda Don-Kavkaz ittifoqiga kiradigan boshqa davlatlar german xalqining do'stona xizmatlarini aslo unutmajak, chunki qadimdagi O'ttiz yillik urush davomida ham Don polklari

Vallenshteyn qo‘shinida german askarlari bilan birlikda jang qilishgan, 1807–1813-yillarda esa, Don kazaklari o‘z atamani graf Platov qo‘l ostida Germaniya ozodligi uchun kurashganlar, endilikda bo‘lsa, Prus-siya, Galitsiya, Bukovina va Polshada qariyb uch yarim yildan beri davom etgan qonli urush maydonida kazaklar va germanlar o‘z askar-larining matonat va qahramonligini hurmat etishga o‘rgandilar va ho-zir ikki olijanob botir jangchi bir-biriga qo‘l berib, aziz Don yurtining ozodligi uchun baravar kurashmoqda.

Don Umumlashkari janobi imperator hazrat oliylarining xizmatlari evaziga, butun jahon xalqlar kurashi davomida betaraflikka qattiq rioya qilishni hamda german xalqiga dushman bo‘lgan qurolli kuchlarni o‘z chegarasiga yo‘latmaslikni zimmasiga oladi; bu haqda Ashtarxon qo‘shinlarining atamani knyaz Tundutov va Kuban hukumati rozilik berdilar, Don-Kavkaz ittifoqining boshqa a‘zolari ham birlashgandan keyin, albatta, rozi bo‘lurlar.

Don Umumlashkari o‘z ehtiyojidan ortgan mollarni, chunonchi, don, un, charm mahsuloti, xom teri, jun va baliq mahsuloti, o‘simlik va hayvonot moyi hamda shulardan tayyorlangan oziq-ovqat, tama-ki, qoramol, ot va uzum vinosi, bog‘dorchilik hamda dehqonchilik mahsulotlarini olishda Germaniya imperiyasiga alohida keng huquq beradi, buning evaziga Germaniya imperiyasi: qishloq xo‘jalik ma-shinalari, kimyo mahsuloti va teri oshlaydigan ekstrakt, qog‘oz chi-qarish davlat ekspeditsiyasi uchun uskuna yetkazib beradi va uni ke-rakli materiallar bilan ta‘min etadi, movut va ip-gazlama fabrikalari uchun hamda ko‘n, kimyo, qand va boshqa zavodlar uchun uskunalar elektrotexnika asboblari yuboradi.

Bundan tashqari, Don Umumlashkari hukumati Dondagi sanoat korxonalariga va savdo-sotiqqa, ayniqsa, suv yo‘llarini va boshqa yo‘llarni tartibga solish hamda undan foydalanish ishlarida german sanoatining mablag‘ini ishga solish uchun unga alohida imtiyozlar beradi.

Bu muhim shartnoma har ikkala tomon uchun bab-baravar foy-da keltirgusi, jangovar german va kazak xalqlari jang maydonlarida to‘kkan qonlari bilan sug‘orilgan do‘stligimiz chambarchas bo‘lg‘usi va barcha dushmanlarimizga qarshi kurashimizda eng qudratli kuchga aylangusidir.



Siz, imperator hazrat oliylariga ushbu xat bilan murojaat etuvchi diplomat yoki xalqaro huquqlar bobida o‘tkir huquqshunos emas, balki xolisona jangda german qurolini hurmat qilishga o‘rgangan bir soldatdir, shuning uchun hech qanday zeb bermasdan, ochiq ko‘ngil bilan dangalini yozganim uchun meni kechirmog‘ingizni, dilim sof va hislarim samimiy ekaniga inonmog‘ingizni so‘rayman.

Sizga hurmat bilan

*Pyotr Krasnov, Don atamani, general-mayor.*

\* \* \*

15-iyulda bu xat oqsoqollar sovetida ko‘rib chiqildi, lekin hammaning sukutga ketganiga, hatto Bogayevskiy bilan yana bir necha hukumat a‘zolari ro‘yirost qarshi chiqqaniga qaramay, Krasnov xatni qarorgohining Berlindagi elchisi gersog Lixtenbergskiy qo‘liga topshirdi, gersog Kiyevgacha Krasnovga hamroh bo‘lib bordi va u yerdan general Cheryachukin bilan Germaniyaga jo‘nadi.

Bogayevskiyning ko‘rsatmasiga muvofiq xat jo‘natilmasdan burun xorijiy bo‘limda mashinkada bostirilib nusxasi olib qolindi, shunday qilib xatning nusxalari qo‘lma-qo‘l o‘tib, hammaga tarqaldi, yoniga qo‘shilgan izohlar bilan uning mazmunini kazak qismlarda va stantsalarda bilmagan odam qolmadi. Bu xat eng kuchli tashviqot quroliga aylandi. Odamlar: «Krasnov nemislarga sotildi» — deb dangaliga aytadigan bo‘lishdi. Frontlarda g‘alayonlar ko‘tarildi.

Ayni shu mahalda g‘alabalardan ruhlangan nemislar, rus generali Cheryachukinni Parij yaqiniga olib borgan edilar, u ham nemis general shtabining xodimlari bilan birga, Krupp zavodidan chiqqan og‘ir artilleriyaning vahima solishini, ingliz-fransuz askarlarining qirilishini tomosha qilmoqda edi.

## V

Muzli poxod<sup>1</sup> vaqtida Yevgeniy Listnitskiy ikki joyidan: birinchi marta — Ust-Labin stanitsasini ishg‘ol etishdagi jangda, ikkinchi mar-

<sup>1</sup> Kornilovchilar Rostovdan Kubanga chekinishlariga «muzli poxod» deb nom qo‘yishgan edi. (Muallif.)

ta — Yekaterinodarga hujum paytida yarador bo'lgan edi. Ikki marta ham jarohati unchalik og'ir bo'lmay, safga yana qaytib kelgan edi. Biroq may oyida Ko'ngilli armiya qisqa muddatli dam olish uchun Novocherkasskda to'xtagan edi, Listnitskiy mazasi qochganligini sezdi-da, harakat qilib ikki haftalik ta'til oldi. Nechog'lik uyga borgisi kelib tursa ham, yo'lda ancha vaqti bekor ketishini o'ylab Novocherkasskda dam olishga qaror qildi.

Uning bilan birga hamvzvod o'rtog'i, rotmistr Gorchakov ham ta'tilga chiqqan edi. Gorchakov uni o'z uyiga taklif etdi:

— Bola-chaqa yo'q, uy tinch, xotinim qaytaga xursand bo'ladi. Seni u biladi axir, xatlarimda sen to'g'ringda yozgan edim-ku.

Jazirama tushki paytda ikkisi vokzal atrofidagi ko'chalarning biri-da qiyshaygan imorat oldida to'xtadilar.

Qora mo'ylov, laylakoyoq Gorchakov tipirchilab qoldi va Listnitskiyga burilib:

— Qadimda men mana shu kulbada turardim, — deb ko'rsatdi.

Uning qop-qora ko'zlari hayajon va sevinchdan yoshlanar, greklarnikidek sergo'sht burni jilmayganda osilib tushar edi. U katta-katta qadam qo'yib, kulrang shimining qaytarma pochalarini shitirlatib ichkariga kirdi, shu zahoti uy ichini soldatlarda bo'ladigan achchiq va qo'lansa hid bosib ketdi.

— Olya qani? — Gorchakov oshxonadan shosha-pisha chiqib kelayotgan xizmatkordan: — Olga Nikolayevna qani? — deb so'radi. — Bog'dami. Yur, boqqa chiqamiz.

Bog'da, olma daraxtlari ostiga tanga-tanga ola-chipor soya tushgan, yaqin orada asalari uyalari borligi seziladi, qaqragan tuproq hidi keladi. Listnitskiyning pensnesi oynasiga quyosh shu'lasi tushib o'tday uchqunlanadi, jimirlab ko'zni qamashtiradi. Yo'lda allaqaysi bir izda turgan parovozning ustma-ust bo'kirgani eshutiladi, Gorchakov parovozning bir ohangda qichqirayotgan tovushini bo'lib baqirib-chaqiradi:

— Olya! Olya! Qayoqdasan, axir?

Shu payt yonboshdagi xiyobon tomonda, na'matak orqasida allakimning qorasi ko'rindi-yu, sarg'ish ko'ylak kiygan bir xotin lip etib chiqib keldi.

U cho'chiganday bo'lib, bir lahza ikki qo'li bilan ko'ksini bosib suratday qotib qoldi, so'ngra qo'llarini cho'zib chinqirganicha, ular

tomonga yugurdi. U shu qadar tez chopdiki, Listnitskiy faqat etaklari ichida pildiragan tizzalarining dumaloq kosalarini, tuflilarining uchli tumshug'ini va boshi ustida olovday tovlanib, to'zib ketgan tillarang sochlarinigina ajrata oldi.

Xotin oyoq uchida cho'zilib, oftobdan qizargan yalang'och qo'llarini erining bo'yniga tashladi-da, uning chang bosgan yuz-u ko'z, burun va lablaridan, quyosh va shamol qoraytirgan bo'ynidan o'pa boshladi.

Listnitskiy atrofini o'ragan muattar chinnigul hidini iskab, pen-snesini artar, mutlaqo yarashmaganini o'zi sezib tursa ham, majburan iljayardi.

Goh pasayib, goh avjiga chiqqan shodlik hayajoni nihoyat bosilgandan keyin Gorchakov, bo'yniga chirmashib olgan xotining qo'llarini ozor bermasdan shartta ajratdi-da, uni kiftidan tutib astagina yonga burdi.

— Olya... do'stim Listnitskiy.

— Ha, Listnitskiymi! G'oyat mamnunman! Erim menga har xatida sizni... — Xotin entikar va kulib turgan baxtli ko'zlari bilan unga shunchaki qarardi.

Uchovi yonma-yon borishardi. Gorchakovning tirnog'i o'sgan, terisi yorilgan serjun qo'li xotining nozik beliga chirmashib olgan edi. Listnitskiy quyosh haroratida xotin kishi badanidan anqigan bo'ylar aralash chinnigul hidini iskab borar va har qadamda do'stining qo'liga ko'z qirini tashlab qo'yardi, u xuddi yosh bola singari, o'zini juda-juda baxtsiz sezar, allakim bekindan bekorga qattiq ranjitganday kuyinardi. U ustiga tillarang soch tolalari tushib turgan kichkina quloqchanning nimrang solinchog'iga tikilar, qo'l cho'zsa yetadigan yuzining ipakday mayin terisini tomosha qilardi; ko'zlari kaltakesak ko'zlaridek javdirab, ko'ksining ochiq joyiga tikilib turardi. Olga ahyon-ahyonda havorang ko'zlarini unga bir tashlab qo'yardi, boqishlari ham nihoyatda yoqimli, do'stona edi, biroq ana shu ko'zlar Gorchakovning qoramag'iz yuzlariga tikilib, tamoman o'zgacha charaqlaganini ko'rgan sari, Listnitskiyning yuragi ezilar, allaqanday bir narsa ichini tatalaganday bo'lardi..

Listnitskiy faqat ovqat mahalidagina uy bekasini to'la-to'kis ko'rib chiqdi. Uning kelishgan qad-qomatida ham, yuzlarida ham o'ttiz yil

umr ko'rgani, go'zalligi so'na boshlagani ko'rinib turardi. Lekin kulib turgan beparvo ko'zlarida, har bir harakatida hali yoshlik g'ururi barq urib yashar edi. Unchalik benuqson bo'lmasa ham, lekin jozibador, yoqimtoy yuzi chiroyli edi. Yolg'iz birgina narsa ko'zga da'atan g'alati ko'rinardi, u ham bo'lsa, janubda o'sgan qorasoch juvonlarnikiga o'xshash la'lddek yupqa lablarining to'q qizilligi-yu, yonoq po'stlarining pushtiligi bilan qoshlarining novvotrangligi edi. U kulishga ishqiboz edi va kulganida marvaridday tizilgan mayda tishlari ko'rinib ketardi, biroq kulgisi jo'rttaga kulayotganday sun'iyroq ko'rinardi. Ovozi sust, xiraroq, rang-barang ohanglardan benasib edi. Ikki oydan beri, kir bosgan tibbiy hamshiralardan bo'lak xotin betini ko'rmagan Listnitskiyga bu juvon haddan ziyoda sohibjamol ko'rinib ketgandi. U Olga Nikolaevnaning turmaklangan sochlariga, mag'rur ko'tarib turgan boshiga tikilar, gaplariga poyma-poy javob berardi, nihoyat, charchaganligini bahona qilib, uning uchun tayyorlab qo'yilgan xonaga chiqib ketdi.

...Shunday qilib ham rohatda, ham diqqatpazlikda kunlar o'taverdi. Listnitskiy keyinchalik o'sha damlarni hurmat ila birma-bir yodiga oladigan bo'ldi, lekin o'sha kunlari u yosh boladan battar o'zini qiy-noqqa solgan, bekorchi telba xayollarga borgan edi. Er-u xotin Gorchakovlar bir juft kabutar singari xoli bo'lib olishgan, undan qochishar edi. Yotoq bo'lmasiga tutash xonada turgan Listnitskiyini «xonani remont qilamiz» degan bahona bilan burchakdagi uyga ko'chirdilar, Gorchakov mo'ylov uchini tishlab turib, bu gapni aytayotganda soqoli olinib xiyla yashargan yuzi kulib tursa ham, o'zini jiddiy tutib sir boy bermagan edi. Listnitskiy do'stiga malol kelayotganini bilsa ham, negadir, biror tanishinikiga ko'chib o'tishni xohlamasdi. Kun bo'yi olma tagida, soya-salqinda yotar, eng rasvo o'rama qog'ozga pala-partish bosilgan gazetalarni o'qib vaqt o'tkazar, uxlar edi-yu, lekin charchog'i yozilmasdi. Obdan ichi qizib, yuragi siqilgan Listnitskiyga chiroyli olachipor iskovich it doimo hamdard edi. Er-u xotin topishib olganiga bu tilsiz maxluq rashk qilar va Listnitskiyning oldiga borib, xo'rsinaxo'rsina, yonginasiga cho'zilardi, Listnitskiy uni silar va hayajonlanib shivirlardi.

*Bir nuqtada qotib qolib xira sarg'ish ko'zlaring,  
Uy sursang-da, surmasang-da, baribir foydasi yo'q...*

U esida qolgan Bunin she'rlarining shirali satrlarini ishtiyoq bilan birma-bir takrorlab chiqib, yana uyquga ketardi...

Olga Nikolayevna, faqat ayollardagina bo'ladigan ziyrakligi tufayli, uning qanday ahvolga va nima xayolda qiynalayotganini fahmlab oldi. Ilgari o'zini jiddiy tutib yurgan xotin, endi uning bilan muomalada birato'la sipogarchilik tomoniga o'tib oldi. Bir kuni kechqurun shaharning istirohat bog'idan qaytayotganlarida ikkisi xoli qoldi (Gorchakovni markovlik hampolk tanishlari darvoza oldida gapga tutib qolgan edilar); Listnitskiy Olga Nikolayevnaning qo'ltig'idan tutib, tirsagini biqiniga qattiq bosib uni bezovta qilar edi.

— Odamga buncha tikilasiz? — deb so'radi ayol kulimsirab.

U ovozini pasaytib gapirganini Listnitskiy: qochirim qilyapti, demak, ko'ngli bor ekan, deb fahmladi. Shuning uchun ham hazin bir baytni o'qib berishga jur'at etdi (shu kunlarda u poeziyaga, birovlarining dardmandligini kuylagan baytlarga ishqiboz edi).

U kulimsirab boshini egdi va shivirlab o'qiy boshladi:

*Asiri bedor bo'lib tanda toqat toq,  
Mushtoq bo'lib boqaman ko'z uzmay sira.  
Sehr etuvchi uzoqlik va uzoq qirg'oq,  
Qora parda ichidan ko'rinar xira.*

Ayol sekingina qo'lini tortib oldi-da, xushchaqchaqlik bilan unga:

— Yevgeniy Nikolayevich, — dedi, — men yosh bola emasman... Ko'nglingizda nima borligini bilib ko'rib turibman... Uyalmaysizmi? Shoshmang, shoshmang, axir! Men sizni biroz boshqacharoq... tasavvur etgan edim... Keling endi, bu ishga barham beraylik. Oramiz ochiq bo'lgani yaxshi, yo'qsa, insofdan chiqib ketiladi... Bunaqangi qaltis tajribalaringiz uchun men namuna bo'lolmayman. Vaqtichog'lik qilgingiz kelyaptimi?.. Yaxshisi, oradagi do'stona aloqa uzilmasin, bema'ni xayollarni boshingizdan chiqarib tashlang. Axir, men «notanish jilvagarlardan» emasman. Tushudingizmi? Shunday bo'lsin-a? Qani, qo'lni bering!

Listnitskiy artistlik qilib, chindan achchiqlanganday, o'zini oqlashga tutindi, biroq bu nayrangini oxiriga yetkazolmadi, unga qo'shib hoholab kulib yubordi. Gorchakov ketlaridan yetib kelgach, Olga Nikolayevna jonlanib ketdi, xursandligi yana ham osh-

di, biroq Listnitskiyning dami ichiga tushib, uyga yetguncha o'zini o'zi rosa koyidi.

Olga Nikolayevna ziyrakligi bilan: «Shu tanbehdan keyin ikkimiz do'st bo'lib ketamiz», deb astoydil ishonardi. Listnitskiy uning ishonchini mustahkamlash uchun sirtini silab, sir bermasa ham, ichdan unga nafratlanish darajasiga yetgan edi, orada bir necha kun o'tar-o'tmas, Olganing fe'l-atvoridan, aft-angor va qad-qomatidan biror nuqson topmoqchi bo'lib, o'zini o'zi qiynayotganini payqab qoldi-yu, ko'nglida haqiqiy, ulkan bir hissiyot uyg'otganini o'shandagina tushundi.

Ta'til kunlari ham g'ir etib o'tdi ketdi, qaytaga ko'ngli xijil bo'lgani qoldi. Damini olgan va yangi kuch bilan to'latilgan Ko'ngilli armiya jangga tayyorlanmoqda edi; Kuban uni ohangrabodek o'ziga tortardi. Sal o'tmay, Gorchakov bilan Listnitskiy Novocherkasskdan jo'nab ketdilar.

Olga ularni kuzatgani chiqdi. Egnidagi qora shoyi ko'ylak uning so'niq husniga mos tushgan edi, o'zi yig'lab tursa ham, ko'zlari kulardi, lablari beo'xshov cho'chchayib ketganidan, yuzi bolalarnikiday hayajonli va ta'sirli ko'rinardi. Uning shu taxlit surati Listnitskiyning xotiriga o'rnashib qoldi. U qon kechib, jang qilganida, nojo'ya ishlari to'g'risidagi xotiralari orasida bu porloq so'nmas obrazni zo'r mehr bilan yodida saqladi, ancha vaqtgacha unga sig'inib, uni farishtalar darajasiga ko'tarib yurdi.

Iyun oyida Ko'ngilli armiya jangga kirib ketdi. Birinchi jangdayoq uch dyuymalik to'p o'qining parchasi rotmistr Gorchakovning ichakchavog'ini ag'darib yubordi. Uni safdan sudrab olib chiqdilar. Oradan bir soat o'tgach, aravada qon-u peshobiga bulanib yotgan joyida Listnitskiyga shunday dedi:

— Men ajalim yetdi, demayman... Mana hozir operatsiya qilishadi... Xloroform yo'q deyishyapti... O'lish kerak emas. Sen nima deysan?.. Lekin har ehtimolga qarshi... Es-hushim joyidaligida senga aytib qo'yay... Yevgeniy, Lelyani yolg'iz qoldirma... Ikkovimizning hech kimimiz yo'q. Sen halol va yaxshi odamsan. Unga uylan... Istamaysanmi?

U Listnitskiyga nafrat aralash iltijo qilib tikilar, soqoli olinmay ko'kargan betlari titrardi. Qon-u tuproqqa belangan kaftlarini yorilgan qorniga avaylab bosar va lablaridagi pushtirang terni yalab gapirardi:

— So‘z berasanmi? Tirik bo‘lsang... Lelyani unutm... agar seni-yam... xumpar rus soldatlari shu ko‘yga solmasa... So‘z berasanmi? Nega indamaysan! U yaxshi xotin, — dedi-yu, changak bo‘lib qoldi. — Turgenev aytgan xotinlar xilidan... Hozir unaqasi topilmaydi... Nega indamaysan?

— So‘z beraman.

— Bor endi, qorangni o‘chir!.. Xayr!..

U kaftlari qaltirab Listnitskiyning qo‘lini changalladi, so‘ngra jon-jahdi bilan siltab, uni o‘ziga tortdi va kuchanganidan battar rangi o‘chib, ho‘l boshini ko‘tardi-yu, porsillagan lablari bilan uning qo‘lidan o‘pdi. — So‘ngra, shinel etagini boshiga tortib, shosha-pisha yuzini o‘girib oldi, lekin qattiq ta’sirlangan Listnitskiy uning lablarini qaltiroq bosganini, bo‘zargan betlarini sovuq ter qoplaganini ko‘rib qoldi.

Ikki kundan keyin Gorchakov o‘ldi. Oradan yana bir kun o‘tgach chap qo‘li va sonidan og‘ir yaralangan Listnitskiy Tixoretskayaga jo‘natdilar.

Karenovskaya yonida keti tugamas shiddatli jang boshlangan edi. Listnitskiy o‘z polki bilan ikki daf‘a atakaga va kontratakaga o‘tdi. Uchinchi martasida uning batalyoni saf-saf tizilib oyoqqa turdi. Rota komandirining «Yotmanglar!», «Burgutlar, olg‘a!», «Kornilov uchun, olg‘a!» degan qiyqiriqlaridan qizishgan Listnitskiy, o‘rilmagan bug‘doypoya ichidan judayam hovliqmay yugurdi; miltig‘ini o‘ng qo‘lida changallab, chap qo‘li bilan sapyorcha kurakni boshiga qalqon qilib olgan edi. Bir o‘q kurak temirini jaranglatib yalab o‘tdi, Listnitskiy kurak dastasini o‘nglayotib: «Haytovur tegmadi!» deb suyunib ketdi. Shundan keyin qaqshatqich qisqa zarbdan qo‘li shartta qayrilib tushdi. Kurak qo‘lidan uchib ketdi, Listnitskiy jon achchig‘ida boshi ochiq holda yana o‘n sarjin joygacha chopib bordi. Miltiqni o‘nglab ushla-moqchi bo‘ldi-yu, biroq qo‘lini ko‘tara olmadi. Og‘zidan qo‘rg‘oshin quyilganday, tomir-tomirigacha og‘riq yugurdi. Uvatga yonboshladi va toqat qilolmay, ikki-uch marta chinqirib yubordi. Buning ustiga, yotgan joyida sonidan ham o‘q yeb, sekin-asta hushidan ketdi.

Tixoretskayada majruh qo‘lini kesib, sonidan qolgan siniq suyak parchani olib tashladilar. Ikki haftagacha og‘riqqa, diqqinapaslikka chidab, nochor ahvolda yotdi. So‘ngra uni Novocherkasskka ko‘chirdilar.

Yana o'ttiz kun xunobgarchilikda gospitalda yotdi. Jarohatini har kuni qaytadan bog'lashardi, yod bilan karbolkaning achchiq hidlari, hamshira va doktorlarning basharalari joniga tekkan edi. Ora-sira Olga Nikolayevna kelib ketardi. Uning rangi sarg'aygan edi. Motam kiyimining qoraligidan, kimsasiz dasht singari huvullab qolgan, yig'lab to'yagan g'amgin ko'zlari yanada kirtayib qolganga o'xshardi. Listnitskiy uning kirtaygan nursiz ko'zlariga uzoq tikilar, gapirishga jur'at etolmas, uyalganidan qo'lsiz yengini ko'rpa ichiga berkitardi. Olga, shunchaki so'raganday qilib, erining qanday halok bo'lganligini surishtirar, parishonhol quloq solar, ko'zlari alanglab karavotdan karavotga qaranaverardi. Listnitskiy lazoretidan chiqib to'g'ri unikiga bordi. Olga uni zinapoya yonida kutib oldi. Listnitskiy oqish qalin sochlari kalta qilib qirqilgan boshini ezib uning qo'lini o'payotganda juvon yuzini teskari o'girib turdi.

Listnitskiy soqol-mo'ylovlarini yaxshilab oldirgan, ko'kimtir olifta french egniga qadimgiday yarashgan edi, faqat shalvillagan bo'sh yeng g'ashiga tegardi, bint bog'langan to'mtoq qo'lli yeng ichida likillab, tinchimasdi.

Uyga kirishdi. Listnitskiy o'tirmay, gap boshladi:

— Boris o'limi oldidan menga iltimos qilib... sizni yolg'iz qoldirmaslik uchun mendan va'da oldi...

— Bilaman.

— Qayoqdan?

— So'nggi xatidan...

— Ikkimizning birga bo'lishimizni orzu qilgan edi... Albatta, buning uchun avvalo sizning xohishingiz, nogiron odam bilan turmush qurishga roziligingiz kerak... Gapimga ishonsangiz... Hozir hissiyot to'g'risida og'iz ochishlik... Lekin men chin qalbidan sizga baxt-saodat tilayman.

Listnitskiyning xijolat tortib, hayajonlanib aytgan uzuq-yuluq gaplari unga ta'sir etdi.

— Men buni o'ylab chiqdim... Roziman.

— Dadamning imeniyesiga jo'nab ketamiz.

— Yaxshi.

— Rasmiyat tomonlari keyinroq to'g'rilansa maylimi?

— Mayli.



Listnitskiy labi uchida uning oppoq qo'lidan izzat-u ikrom bilan o'pdi-da, boshini ko'tarib, jilmayib qo'rganini ko'rdi.

Ishq bilan shahvoniy hissiyot Listnitskiyni Olganikiga sudrar edi. U har kuni unikiga keladigan bo'ldi. Urushdan charchagan ko'ngli orom olgisi, ishq ertagining kayfini surgisi kelardi. Xoli joyga kirib olib, klassik roman qahramoni singari, o'zi bilan o'zi gaplashar, o'zida yo'q, hech qachon va hech kimga nisbatan ko'rilmagan allaqanday ulug'vor, pok hissiyotlarni endi topmoqchi bo'lib erinmay qidirardi, buning bilan, balki u, anchayin ishkibozlikka berilganligini xaspo'shlamoqchi, uni chiroyli qilib ko'rsatmoqchi bo'lsa ham ajab emasdi. Ammo ertakning bir uchi haqiqatga taqalgan edi: tasodifan yo'lda uchragan bu xotinga uni yolg'iz shahvoniy havasgina emas, yana allaqandan anglab bo'lmaydigan boshqa bir narsa ham jalb etardi. Boshiga nima savdo tushganini, ko'ngli nega beqarorligini tuzukroq ajratolmasdi, lekin: «Nogiron bo'lganim, safdan chiqqanim uchun mening yo'lim ochiq» deb qattiq ishongan va bu nojo'ya, bema'ni hissiyotga qadimgisidan battar qul bo'lgan edi. Hattoki u, Olganing judolik o'tida bag'ri o'rtanib, motam tutib yurgan azalik kunlarida ham uning yoniga borgisi, qo'yniga kirgisi kelar, o'lgan Gorchakovga rashk qilar edi... Hayot girdob singari ko'pirar edi. O'q hidini iskagan va xilma-xil hodisalardan ko'r-u, kar bo'lgan odamlar endi bir kun bo'lsa ham yashab qolishga, yeb-ichib to'yib olishga intilishar, har bir daqiqani g'animat bilishardi, Yevgeniy Nikolayevichning o'z hayotini Olga bilan mustahkam bog'lashga shoshganligi, balki shuning uchun bo'lsa ham ajab emasdi, chunki ajal sari borg'izgan qadimgi maqsadining muqarrar barbod bo'lishiga aqli yeta boshlagan edi.

U mufassal xat yozib, uylanishini va yaqinda xotini bilan Yagodnoyega borishini otasiga ma'lum qildi.

«...Men endi ishlarimni bas qildim. Bir qo'lim bilan ham bu fitnachi ablahlarni tor-mor etishga qurbim kelardi, shu badbaxt «xalq» uchun Rossiya ziyolilarining o'n yillab ko'z yoshi va so'lak oqizganiga achinaman, lekin chinini aytсам, hozir menim uchun bu narsa eng xunuk, puch xayolga o'xshab qoldi... Krasnov Denikin bilan chiqishmaydi; har ikki tomonda ham fisq-fujur, buzuqilik, sharmandabozlik, bir-birining payini qirqishdan boshqa gap yo'q. Ba'zan o'ylasam

yuragim orqasiga tortib ketadi. Oqibat nima bo'lishi mumkin? Men endi sog' qolgan yolg'iz qo'lim bilan sizni quchish, sizning yonginangizda bo'lish va kurashni chetdan turib tomosha qilish orzusida uyga qaytaman. Soldatlik joyim qolmadi dada, endi men jismoniy va ruhiy bir majruhman, xolos. Men charchadim, taslimman. Mening uylanishga qaror qilganim va «tinch yashash» yo'lini izlaganimning boisi ham, ehtimol, shundandir», — u xatini shunday qayg'uli, kesatliq jumla bilan tamomlagandi.

Bir haftadan keyin Novocherkasskdan jo'nashga qaror qilingan edi. Jo'nashdan bir necha kun avval Listnitskiy Gorchakovanikiga butunlay ko'chib o'tdi. Ikkisi qovushgan tundan keyin Olga o'zini xiyla oldirib qo'ydi; rang-ro'yi ham bir holat bo'lib qoldi. Har gal Listnitskiy xiralik qilaverib, axiri yengardi, lekin Olga o'z ahvolidan qattiq iztirob chekar — qalbi oyoqosti bo'lganini sezardi. «Ikki kishini bir-biriga bog'lagan muhabbatning o'lchovi ikki xil, lekin nafratniki — bitta», degan haqiqatni Listnitskiy yo bilmas, yo bilgisi kelmasdi.

Yevgeniy jo'namasdan ilgari Aksinyani ora-chora esga olsa olar, olmasa yo'q edi. Uning to'g'risida o'ylashni istamas, xayolan o'zini olib qochaverardi. Lekin shunchalik qilsa ham, oralarida o'tgan aloqa, borgan sari esiga tushadigan, cho'ldagi chiroq singari lip etib, beixtiyor xayolini chalg'itadigan bo'lib qoldi. Bir kuni u: «Aksinya bilan aloqani uzmayman. Albatta ko'nadi», — degan xayolga ham borgan edi. Lekin insofga kelib bu ra'yidan qaytdi, — Yagodnoyega borganidan keyin gaplashib, iloji topilsa, u bilan orani ochdi qilishga qaror qildi.

To'rtinchi kuni kechga tomon Yagodnoyega yetdilar. Keksa pan qo'rg'ondan bir chaqirim narida ularni kutib oldi. Otasi oyog'ini zo'rg'a qimirlatib, poyga aravadan tushganini, shapkasini qo'lga olganini Yevgeniy olisidan ko'rib borardi.

— Aziz mehmonlarni kutib olgani chiqdik. Qani, beriroq keling, yaxshilab ko'rayin... — dedi chol kelinini no'noqlik bilan quchoqlab, tamakidan sarg'aygan mo'ylovi bilan betlarini qitiqlab.

— Dada, bizning yonimizga chiqib oling! Aravakash, hayda! Ha, Sashka bobo, salom! Tirikmisiz? Mening o'rnimga o'tiring, dada. Men aravakash yoniga joylasha qolay.

Chol Olganing yoniga o'tirdi-da, dastro'molini olib mo'ylovini artdi va sipogarchilik bilan o'g'liga mardonavor qiyofada qarab qo'ydi.

- Xo'sh, qalay, do'stim?
- Sizdan nihoyatda xursandman, dada!
- Nogironman, degin?
- Iloj qancha? Nogironman.

Chol jo'rttaga qovog'ini solgan bo'lib o'g'liga dam-badam boqar, yuziga jiddiy tus berib, ichi achishganini sezdirmaslikka, kamarga qistirilgan ko'k mundirning qo'lsiz yengiga qaramaslikka harakat qilardi.

- Zarari yo'q, o'rganib qoldim, — dedi Yevgeniy kiftini qimirlatib.
- Boshga tushgach, o'rganasan, — dedi shosha-pisha chol, — ishqilib, bosh omon bo'lsin. G'olib qaytibsan-ku? Yo undaymasmi? G'olib qaytibsan, deyman. Hatto eng go'zal asirani o'lja qilib olib kelibsan, a?

Yevgeniy otasining nozik, biroz eskicha hazil gaplaridan zavqlanib ko'zi bilan Olgaga: «Xo'sh, chol qalay ekan?» — deb savol berdi. Uning chehrasi ochilib yuz-ko'zlari yashnab kulib turganidan otasi unga yoqqanini so'zsizoz tushundi.

Haydama bo'z otlar qiya yo'lda izvoshni qushday uchirib ketdi. Do'ngdan imoratlar, chorbog'dagi ko'm-ko'k daraxtlar, devorlari oqlangan uy, derazalarni to'sib turgan sadalar ko'rindi.

- Bunchayam chiroyli-ya! Oh, qanday soz! — deb, zavqlanardi Olga.

Bir gala qora tozilar qo'ra tomondan tikkasiga uchib kelaverdi. Itlar izvoshni o'rab oldi. Sashka bobo aravaga irg'iyotgan bittasini qamchi bilan solib qoldi-da:

- G'ildirak tagida qolasan, badba-a-axt! Qoch! — deb tutaqib baqirdi.

Yevgeniy izvosh oldida teskari o'tirib olgan edi; otlar o'qtin-o'qtin pishqirar, shamol ko'pik zarralarini keyinga uchirib, Yevgeniyning bo'yniga sachratardi.

U goh otasiga, goh Olgaga kulib boqar, boshoqlar to'kilgan yo'lni, yiroqlardagi tepa bilan ufqni to'sib turgan yon bag'ir do'ngni tomosha qilardi.

— Qanday ovloq joy-a! Hamma yoq jimjit... Olga kulimsirar va yo‘l ustidan sharpasiz uchib o‘tgan zog‘chalarni, ortda qolayotgan qashqarbada va shuvoqlarni kuzatar edi.

— Bizni kutib olgani chiqishibdi, — dedi pan ko‘zini qisib.

— Kim?

— Xizmatkorlar.

Yevgeniy alanglab qaradi, istiqboliga chiqqan odamlarning yuzini ajratolmasa ham, turgan xotinlardan biri Aksinya ekanini sezdi-yu, qizarib ketdi. U Aksinyaning tusi o‘zgarib, hayajonlanishini kutgan edi, biroq izvosh g‘izillagancha borib, darvoza oldida to‘xtaganda yuragini hovuchlab o‘ngga burilib qarab, Aksinyaning odob bilan kulib turganini ko‘rib, hayron qoldi. Ustidan tog‘ ag‘darilganday bo‘lib, ko‘ngli joyiga tushdi va uning salomiga bosh qimirlatib qo‘ydi.

— Shu qadar beibo husnni endi ko‘rganim! Kim bu!.. Manaman deb turibdi-ya, shunday emasmi? — Olga maftun ko‘zlari bilan imlab, Aksinyani ko‘rsatdi.

Lekin Yevgeniy o‘zini bosib olganligi uchun xotirjam va sovuqqina uning fikriga qo‘shildi:

— Rost, chiroyli xotin. Uy ishi shuning qo‘lida.

\* \* \*

Olganing kelishi uy ichidagilarning hammasiga ta‘sir eta boshladi. Ilgari kun bo‘yi uyda yolg‘iz ichki ko‘ylak va jun ishton bilan yurib o‘rgangan kekxa pan endi naftalin sepilib tashlab qo‘yilgan syurtugini va generalcha shimini sandiqdan olishga buyurdi. Ilgari ust-boshining isqirtligiga mutlaqo e‘tibor bermaydigan bu odam, endi dazmollangan kiyimida qittay g‘ijimlangan joyni ko‘rsa Aksinyaga baqiradigan, ertalab etigini tozalamay olib kelgani uchun o‘qrayadigan bo‘lib qoldi. U soqolini muntazam olib turganidan yuzlari-yiltirab, o‘g‘lining ko‘ziga kundan kunga yaxshi ko‘rinardi.

Aksinya, biror yomon ish yuz berishini sezganday, yosh bekaga manzur bo‘lishga harakat qilar, uning xushomadi uchun parvona singari atrofida gir aylanib, bajon-u dil xizmatini qilardi. Lukerya esa, ovqatim mazali bo‘lsin deb jonini jabborga berar, ta‘mi laziz qayla-yu, qiyomlar pishirishda ajoyib hunarini ko‘rsatardi. Yagodnoyeda ro‘y

bergan o'zgarishlarning ta'siri hatto, nihoyatda qarigan irkit Sashka boboga ham urdi. Bir kuni zinapoya oldida pan unga ro'para kelib, boshdan oyog'igacha razm solib chiqdi-da, vahimador qilib barmog'i bilan imladi.

— Bu nima yurish, itvachcha? — pan yeb qo'yguday bo'lib, ko'zlarini o'qraytirdi. — Ishtoningni qara, ko'ryapsanmi?

— Nima qilibdi? — deb dag'al javob qildi Sashka bobo, biroq xo'jayinda hech ko'rilmagan bunaqa tergovdan va ovozi qaltirab chiqqanidan biroz xijolat bo'ldi.

— Uyimizda yosh xotin bor axir, sen yuzsiz meni sharmanda qilmoqchimisani? Shimingni nega tugmalab olmayсан, qo'tir echki? Xo'sh?

Sashka bobo kir panjalari bilan shim tugmalarini sanaganday birma-bir silab chiqdi. U yana qo'rslik qilib, gap qaytarmoqchi edi, biroq xo'jayinning yoshligidagi g'ayrati qo'zib, shu qadar g'azab bilan yer tepindiki, eski bichimda tikilgan tumshug'i ingichka etigining charmi ko'chib ketdi.

— Otxonaga yo'qol! Marsh! Lukeryaga tayinlab, ustingdan qaynoq suv quydiraman xuddi! Kiringni tozala, qirchang'i! — deb baqirdi pan.

Yevgeniy kun bo'yi dam olar, miltiq bilan dashtga chiqar, o'rilgan tariqpoya yoniga borib, kaklik otardi. Lekin Aksinya masalasi tog'day yuk bo'lib, doim ko'ksini ezardi. Bir kuni kechqurun otasi Yevgeniy-ni qoshiga chaqirdi; chol hadiksiraganday dam-badam eshikka boqib, ko'zini uning ko'zidan olib qochib, gap boshladi:

— Bilasanmi men... Sening shaxsiy ishlaringga aralashganim uchun meni kechirasan. Lekin bilishim kerak. Aksinya masalasini nima qilmoqchisan?

Yevgeniy shosha-pisha papiros tortayotib sirini bildirib qo'ydi. U, xuddi kelgan kunidagi singari, tag'in qizisha boshladi va yuzi qizarganligini sezib, battar qizarib ketdi.

— Bilmayman... Aqlim yetmay qoldi... — deb chin ko'ngildan iqror bo'ldi.

Chol keskin qilib:

— Men bilaman, — dedi. — Hozir borib u bilan gaplashgin. Pul va'da qilib ko'r, haq-mahriga, — chol miyig'ida kulib qo'ydi, — iltimos qil, ketsin. Biz boshqa biron-tasini toparmiz.

Yevgeniy o'sha zahotiy oq xizmatkorlar turgan uyga bordi.

Aksinya eshikka teskari turib, xamir qormoqda edi. Ikki kift orasi tarnovga o'xshar, ikki kuragining qimirlagani bilinib turardi. Yengi shimarilgan qoramag'iz qo'llarining biqqa etlari selkillardi. Yevgeniy uning bo'yniga, halqa-halqa bo'lib tushgan jingalak sochlariga qaradi va:

— Aksinya, bir daqiqaga bu yoqqa chiqa olasizmi? — dedi.

Aksinya darhol burilib qaradi va yuziga qon yugurganini bildirgisi kelmay, o'zini beparvolikka solib turaverdi. Lekin yengini tushirayotganda qo'llari qaltiraganini Yevgeniy payqadi.

— Men hozir... — Aksinya qo'rqa-pisa oshpaz xotinga ko'z tashladi va sevinchini ichiga sig'dirolmay, beorlik bilan kulib o'ynab uning yoniga bordi.

Zinapoyaga chiqishganda Yevgeniy unga:

— Boqqa kiraylik. Gapim bor, — dedi.

— Xo'p bo'ladi, — deb bajon-u dil ko'na qoldi Aksinya, «qadimgi aloqa yana boshlanadi» degan xayolga borib.

Yo'lda Yevgeniy shivirlab so'radi.

— Bilasanmi, men seni nega chaqirdim?

Aksinya qorong'ida kulimsirab uning qo'lidan tutdi, biroq u qo'lini shartta tortib oldi, shunda Aksinya hamma gapga tushunib to'xtab qoldi.

— Nima demoqchi edingiz, Yevgeniy Nikolayevich? Bundan nari-ga bormayman.

— Mayli. Shu yerda gaplashsak ham bo'ladi. Hech kim eshitmaydi... — Yevgeniy oshiqar, gapidan adashib hovliqar edi. — Ahvolim nozikligini tushunishing kerak. Endi sen bilan qadimgiday yurolmayman... Senga o'ynash bo'lolmayman... Tushudingmi? Hozir uylanganman, men axir pokiza, halol odamman, yomon yo'lga yurishim aslo mumkin emas... Vijdonim qabul qilmaydi... — derdi u va bu qadar dabdabali gaplardan o'zi yerga kirib ketguday bo'lib uyarlardi.

Qoraygan sharqdan tun endigina to'nini yopinib kelgan.

Janub osmonining bir bo'lagi qip-qizil cho'g'day yaltirardi. Xirmonda chiroq yoqib, «havo g'animat» qabilida don yanchishardi, o'sha yerda ishchilar qistalangi bilan zo'r berib ishlayotgan molotilkaning taqira-tuquri eshitalardi; mechkay mashina og'ziga to'xtovsiz

xashak tashlab turgan ishchining: «Ha, bo‘l tezroq! Bo‘shash-maaa!» degan xushchaqchaq, xirilloq ovozi kelardi. Bog‘ jimjit: Qichitqio‘t bilan bug‘doy hidi, shabnam isi anqirdi.

Aksinya churq etmasdi.

— Sen nima deysan! Nega indamaysan, Aksinya?

— Nimasini gapiraman?

— Men senga pul beraman. Bu yerdan ketishing kerak. Menimcha, rozi bo‘larsan... Ko‘z oldimda bo‘lishing menga juda og‘ir.

— Bir hafta ishlasam bir oy bo‘ladi. Shungacha tura tursam maylimi!

— Albatta, albatta!

Aksinya jim bo‘ldi, so‘ngra, zada bo‘lgan odamday, yoni bilan, qo‘rqa-pisa Yevgeniyga yaqinroq bordi.

— Ha, mayli, ketaman... Ketish jafosiga oxirgi marta xursand qilmaysanmi? Turmush meni shunaqa behayo qilib qo‘ygan... Yolg‘izlik yomon ekan... Aybga qo‘shma, Jenya.

Uning tomog‘i qaqrab, ovozi jaranglab chiqar edi. Yevgeniy, gapi chin yo hazil ekanini ajratolmay:

— Nima istaysan? — deb so‘radi va ensasi qotib yo‘taldi.

Aksinya yana uning qo‘lidan ushlamoqchi bo‘lib timirskilayotganini birdaniga sezib qoldi...

Besh daqiqadan so‘ng u, shudring bosgan xushbo‘y qorag‘at butasi tagidan chiqib keldi va panjara yoniga borib, papiros yorug‘ida, shi-mining tizzalariga yuqqan ko‘kat dog‘larini anchagacha dastro‘moli bilan tozaladi.

Zinapoyaga chiqayotib, ketiga qaradi. Xizmatkorlar turadigan uyda, derazadan tushgan sarg‘ish chiroq shu‘lasida Aksinyaning kelishgan qad-qomati ko‘rinar: u qo‘lini orqasiga qilib, sochlarini tuzatar, chiroqqa qarab iljayar edi...

## VI

Bo‘zo‘t ham pishib yetildi. Kumushrang libos kiygan dasht shamolda olislarga dovur chayqalib yotardi. Shamol ko‘katlarni yerga egar, izg‘ib kelib alg‘ov-dalg‘ov qilar, hurpaytirar, goh janub, goh g‘arbga tomon yugurib, ketida dengiz to‘lqiniga o‘xshash ko‘kmak

simobday iz qoldirardi. Shamol qaysi tomonga og'sa, bo'zo't o'sha yoqqa bukilib salom qilar, kumushrang boshhoqlari uzra qoraygan yo'l tushib, anchagacha tarqalmasdi.

Xilma-xil ko'katlar gulini to'kkan. Do'ngda o'sgan shuvoq, umri xazon bo'lganiga afsus yeganday, boshini ko'tarolmasdi. Tunlar qisqarib, birpasda tong otardi. Qorakuyaday zim-ziyo osmonda kechalari son-sanoqsiz yulduz chaqnardi; tugay deb qolgan o'roq nusxa oy bir cheti bilangina g'ira-shira yoritardi; poyonsiz Somon yo'li boshqa yulduzlar turkumiga aralashib ketgandi. Garmsel turgan, havo og'irlashgan, hamma yoqdan taxir shuvoq hidi kelardi; yer ham ana shu kasofat shuvoqning achchiq isidan zaharlanib, muzday shabada-ga zor edi. Osmon to'la yulduz-chiroqlar lip-lip qilardi; qoratuproqday qoraygan osmon dalalariga sochilgan bug'doy-yulduzlar unib-o'smay, xazon bo'lardi; o'ning rangi battar o'chardi; dala-yu dasht qaqrab yotar, qovjiragan ko'katzor ichida bedananing sayrashi-yu, chigirtkalarining chirillashi eshitilardi...

Kunduzlari bo'lsa, jazirama issiq, dim havo, yallig'langan yerning hovuri. Bo'zargan osmonda quyosh o't sochadi, bir parchayam bulut yo'q; yolg'iz bir kalxatgina jigarrang temir qanotlarini yoyib, suzib yuradi. Dashtda — ko'z qamashtirguday bo'lib yiltiragan bo'zo't va somonday sarg'ayib o'rtanib yotgan ko'katzor; osmonda — qiyalamasiga uchib yurgan kalxat, yerda bo'lsa, ko'katlar ustida sharpasiz suzib yurgan uning kattakon soyasi.

Yumronqoziqlar jon-jahdi bilan chiyillashadi. Sariq tuproq uyulgan inlar yonida mudragan sug'urlar ko'rinadi. Dasht qaynaydi, lekin jonsiz, tevarak-atrofdagi tamomiy narsa shishaday-yiltiraydi-yu, qimir etmaydi. Hattoki, ko'z ilg'ar joyda turgan qo'rg'on ham xayoliy, afsonaviy imoratga, tushdagiga o'xshab tuyuladi...

Jonajon dasht! Uyurdagi ayg'ir va biyalarning yolini yalovchi achchiq shamol! Shamolda pishqiraverganidan otlarning tomog'i qaqraydi, shuning uchun ham arg'umoq achchiq va sho'rtang hid dimog'iga urganda ipakday lablarini yalaydi va unda shamol bilan oftob ta'mi borligini sezib kishnaydi. Pastakkina osmon ostida barq urgan qadrdon Don dashti yastanib yotibdi! Adir va qirlarning, jar-u, soylarning go'zalligi, poyonsiz pichanzor orasidagi ot tuyoqlarining chuqurcha hosil qilgan izlari, yer ostida yotgan ka-



zaklar shuhratini qo‘riqlab donishmandlar singari sukutga ketgan qo‘rg‘onlar... Senga farzandlarcha bukilib ta‘zim qilaman, muqaddas kazak qoni bilan sug‘orilgan tuprog‘ingni ko‘zimga to‘tiyo qilib surtaman, ey, aziz Don dashti!

\* \* \*

Uning kallasi kichkina, xuddi ilonning boshiga o‘xshaydi. Qu-loqlari kalta-kalta, chimirilgan, to‘shi bo‘liq, nihoyatda yetilgan. Oyoqlari ingichka, baquvvat sag‘risi tirsillagan, tuyoqlari soy toshiday silliq. Quymuch tomoni sal-pal osilinqiragan, dumi yo‘g‘on, chiroyli. Bu, Don zotidan — asl zot ayg‘ir. Anchayin asl zotgina emas, eng borib turgani: tomirida bir tomchi begona qon yo‘q, asl zotligi hamma joyidan bilinib turibdi. Uning oti Malburk.

Bir kuni suvloqqa tushganda, o‘z biyasini himoya qilmoqchi bo‘lib, o‘zidan xiyla kuchli, tullak ayg‘ir bilan olishgan va o‘shanda raqibi taqasi olingan bo‘lsa ham, tepib oldingi chap oyog‘ini mayib qilgan edi. Ikkisi tik turib, bir-birini g‘ajishgan, oldingi oyoqlari bilan tepishgan, terilarini tishlab yulishgan edi...

Aksiga yilqichi yo‘q edi, u oftobga orqasini berib, chang bosib qizib ketgan etikdagi oyoqlarini kerib, dashtda uxlardi. Raqibi Malburkni yiqitdi, keyin juda olis joyga quvib bordi-da, qonga bo‘yalgan jonivorni o‘sha yoqda qoldirib, ikki uyurni o‘zi egallab oldi-da, Bilqildoqjar yoqasi bilan haydab ketdi.

Yarador Malburkni otxonaga bog‘ladilar, feldsher uning mayib oyog‘ini davolab tuzatdi. Oradan olti kun o‘tganda, nazoratchiga hisobot bergani kelgan Mishka Koshevoy, ajoyib hodisaning ustidan chiqdi: biyalarga bosh bo‘lib o‘rgangan Malburk qamoqqa chidolmay, no‘xtasini g‘ajib uzib, otxonadan o‘qday chiqdi-da, kazarma yonida tushovda o‘tlab yurgan nazoratchi, feldsher va yilqichilar minadigan biyalarni oldiga solib, dashtga haydadi, — oldin yelishga soldi, keyin, ortda qolganlarini tishlab, qistalang qilib, rosa yugurtirdi. Yilqichilar bilan nazoratchi kazarmadan chopib chiqishib, faqat biyalarning tushov ipi chirt-chirt uzilishinigina eshitdilar.

— Harom o'lgur, bizlarni yayov qo'ydi-ya!

Nazoratchi so'kindi, biroq ichida xursand bo'lib, uzoqlashgan otlar ketidan qarab qoldi.

Tush payti Malburk otlarni suvloqqa boshlab keldi. Yayov qolgan yilqichilar biyalarini ajratib oldilar, o'zini bo'lsa, Mishka egarlab mindi-da, dashtga olib chiqib ilgarigi uyuriga qo'yib yubordi.

Ikki oy yilqiboqarlik xizmati davomida Koshevoy, yaylovdagi otlarning fe'l-huyi, odatlarini yaxshi bilib olgan edi, shundan keyin u, yilqi jinsining aql-hushiga, tantiligiga zo'r hurmat bilan qaraydigan bo'ldi. U ko'pincha biyaga ayg'ir chopganini ko'rardi; lekin ibtidoiy sharoitda ro'y beradigan bu azaliy hodisa shu qadar tabiiy va oddiy ko'rinardiki, Koshevoy o'ylab turib, beixtiyor insonlardan xafa bo'lardi. Lekin otlar ham, odamlar ham ko'p jihatdan bir-biriga o'xshaydi. Masalan, yoshi qaytgan, o'lguday asov, biyalarga azob beradigan berahm ayg'ir Baxar, yulduzqashqa, ko'zlari chaqnaq turadigan to'rt yashar chiroyli biyaga boshqacha e'tibor berishini Mishka payqab yurardi. Baxar o'sha biyaning yonidan ketmas, doim bezovtalanib, tipirchilab hushyor turar, doim uni boshqacha bir kayfiyatda iskab, g'alati-g'alati pishqirib qo'yardi. Uyur dam olayotgan paytlarda u, vahimali boshini ma'shuqasining orqasiga qo'yar va shu alpozda anchagacha mudrar edi. Mishka bir chetdan turib, uni tomosha qilar, qo'ltiq tagidagi bezlarining bilinar-bilinmas dirillaganini ko'rar va xayolan: Baxar keksalarga xos g'amginlik bilan bu biyaga cheksiz muhabbat qo'ygan bo'lsa kerak, deb o'ylardi.

Koshevoy o'z vazifasini yaxshi bajarardi. Uning ishga ixlos qo'yganligi to'g'risidagi xabar stanitsa atamanining qulog'iga yetdi, shekilli, nazoratchi avgust oyining dastlabki kunlarida, Koshevoy stanitsa idorasi ixtiyoriga yuborilsin, degan buyruq oldi.

Mishka birpasda yo'lga tayyor bo'ldi, poshsholik xazinasidan berilgan anjomlarni topshirib, o'sha kuni kechga tomon uyiga jo'nadi. U yo'l-yo'lakay biyasini chuchulab, ko'z ochgani qo'ymadi. Kunbotar chog'da Kargindan o'tib, do'ng ustida, Vyoshenskaya tomonga ketayotgan aravaga yetib oldi.

Ukrain aravakash charchagan semiz otlarni tez haydab bormoqda edi. Ressorli aravaning ketida shaharcha pidjak kiygan, ko'k tivit shlapasini bostirib olgan, qad-qomati kelishgan, chorpahil bir odam

yonboshlab yotardi. Mishka shlapali odamning yo‘lining notekisligidan dirillagan solinqi kiftlarini, chang bosgan yoqasini ortdan tomosha qilib, arava ketidan boraverdi. Passajirning oyog‘i yonidagi charm sakvoyaj bilan qopchiq ustiga o‘rog‘liq palto tashlab qo‘yilgan edi. Mishkaning dimog‘iga allaqanday sigaraning o‘tkir hidi urib, g‘ashini keltirdi. «Stanitsaga borayotgan biron amaldor bo‘lsa kerak», — deb gumon qildi Mishka biyasini arava yoniga burib. U ko‘z qirida shlapa ostiga qaradi-yu, qo‘rquv va taajjubdan og‘zini ochgancha anqayib qoldi, eti jimirlab ketdi: aravada yonboshlab yotgan odam — Stepan Astaxov edi; u tip-tiniq o‘ynoqi ko‘zlarini qisib, og‘zidagi qora sigara qoldig‘ini toqatsizlanib kavshardi. Mishka o‘z ko‘ziga ishongisi kelmay, bunchalik o‘zgarib ketgan hamqishlog‘ining tanish basharasiga yana qaradi va aravada chayqalib kelayotgan odam Stepanning xuddi o‘zi ekaniga ishonchi komil bo‘lgandan keyin, hayajonidan terlab-pishib, yo‘talib:

— Kechirasiz, janob, siz Astaxov emasiz? — deb so‘radi.

Aravadagi odam bosh qimirlatib, shlapasini peshonasiga qo‘ndirib oldi; so‘ngra burilib, Mishkaga tikildi.

— Ha, Astaxovman. Nimaydi? Siz meni... Shoshma, sen o‘zing Koshevoymasmisan? — U gavdasini ko‘tarib, qirqilgan malla mo‘ylovi ostidagi lablarining bir cheti bilangina kulimsiradi, solqigan yuzini tamoman jiddiylikka solib, ham ikkilanib, ham suyunib qo‘lini cho‘zdi: — Koshevoy? Mixail! Uchrashganimizni qara-ya!.. Judayam xursandman...

— Yo, tavba! Bu qanday bo‘ldi? — Mishka jilovni qo‘yvorib, hayronlikdan qo‘llarini yoydi. — Seni halok bo‘ldi deb gap tarqatishgan edi... Qarasam: Astaxov...

Mishkaning og‘zi qulog‘igacha iljaydi, egarda o‘tirolmay, tipirchilab qoldi, biroq Stepanning sirtqi ko‘rinishi, gapi silliqligi uni taajublantirdi, oralarida, qandaydir, noaniq tafovut borligini sezganday, yotsiray boshladi; shuning uchun sansirashini qo‘yib, keyingi muomalalarida uni «sizlab» gapirdi,

Ikkisi gapga tushib ketdi. Otlar shoshmay qadam tashlardi. G‘arb ufqi loladay qizardi, zangori bulutlar tun qo‘yniga kirib bormoqda edi. Yo‘l yonboshidagi tariqpoya ichida bedana patpaloq otardi, kunduzgi shov-shuv, to‘polon, tashvishlardan qutulgan dasht jimjit edi. Yo‘l

Chukaringa va Krujilinga ayriladigan joyda sirensimon osmon fonda qaqqayib turgan mezana ko‘rinardi; uning qoq tepasiga to‘plangan qora-qo‘ng‘ir bulutlar muallaq osilib turardi.

— Qayoqdan paydo bo‘ldingiz, Stepan Andreyevich? — suyunib surishtirishga tushdi Mishka.

— Germaniyadan. Mana endi vatanimga qaytdim.

— Nega bo‘lmasa, hamqishloq kazaklar: «Stepan ko‘z oldimizda o‘ldi» degan gap tarqatishdi?

Stepan sipolik bilan, savollar malol kelayotganday, silliq javob berardi:

— Ikki joyimdan o‘q yedim, kazaklar bo‘lsa... Kazaklar odammi? Meni tashlab ketishaverdi... Asir tushdim... Nemislar davolab tuzatishdi, ishga yuborishdi...

— Chamamda, bironta xat ham kelmadi, shekilli...

— Kingayam yozardim. — Stepan sigara qoldig‘ini tashlab, o‘sha zahoti boshqasini olib chekdi.

— Xotiningiz-chi? Juftingiz sog‘-salomat yuribdi.

— Men u bilan birga turmasdim-ku, bilsang kerak.

Stepanning gaplari quruq chiqar, unda sirayam iliq ohang yo‘q edi. Xotini tilga olinganda ham u pinagini buzmadi.

— Qalay, begona yurtda zerikmadingizmi? — Mishka egar qoshi-ga engashib olib, savol berishini qo‘ymasdi.

— Avvaliga zerikdim, keyinchalik o‘rganib ketdim. Turmushim yaxshi edi. — Biroz jimib turdi-da, yana davom etdi: — Birato‘lasi Germaniyada qolib, nemis fuqaroligiga o‘tmoqchi ham bo‘lgan edim. Biroq uyni sog‘ingan ekanman, hamma narsadan kechib, kela-verdim.

Stepan endi qovog‘ini ochib, birinchi marta kulimsiradi.

— Bizning bu yerlarda nima bo‘layotganidan xabaringiz bordir?.. O‘zaro solishyapmiz.

— Ha-a-a... eshitdim.

— Siz qaysi yo‘l bilan kelyapsiz?

— Fransiyadan, kemada Marseldan chiqib, — shunaqa shahar bor, — to‘g‘ri Novorossiyskka keldim.

— Sizni ham mobilizatsiya qilishar?

— Ehtimol... Qishloqda nima yangiliklar bor?

- Yangilik ko‘p. Aytgan bilan ado bo‘larmidi?
- Uyim qulagani yo‘qmi?
- Hozircha yo‘q, lekin qulay deb turibdi...
- Qo‘shnilar-chi? Melexovning o‘g‘illari tirikmi?
- Tirik.
- Bizzi xotindan nima xabar bor?
- Qadimgi joyida, Yagodnoyeda yuribdi.
- Haliyam... Grigoriy bilanmi?
- Yo‘q, Grigoriy hozir qonuniysi bilan. Aksinyangiz bilan ajrashgan...

— Shunday degin... Eshitmagan ekanman.

Birpas jimib qolishdi, Koshevoy Astaxovdan ko‘zini ololmasdi. U ehtirom bilan uni maqtay boshladi:

— Turmushingiz yaxshi o‘tgani ko‘rinib turibdi, Stepan Andreyevich. Ust-boshlaringiz joyida, boylarnikidan qolishmaydi.

— U yoqda hamma ozoda kiyinadi. — Stepan qovog‘ini solib, aravakashning kiftiga qoqdi: — Qani, chu de.

Aravakash qamchisini astagina qimirlatib qo‘ydi, charchagan otlar oldinma-ketin yulqindi. G‘ildiraklar taqirlab o‘nqir-cho‘nqir joylarda aravani chayqata boshladi, Stepan ham gapni tamomlash niyatida, Mishkaga teskari o‘g‘irilib oldi-da:

— Qishloqqa ketyapsanmi? — deb so‘radi. — Yo‘q, stanitsaga.

Ayrilishda Mishka otni chapga burdi va uzangida tikkayib:

— Ko‘rishguncha xayr, Stepan Andreyevich! — dedi. Stepan chang bosgan shlapasining chetiga besh panjasini qilib, ajnabiylar singari har bir so‘zini chertib, sovuqqina:

— Salomat bo‘ling! — deb qo‘ya qoldi.

## VII

Filonovo bilan Povarino orasidagi front chizig‘i to‘g‘rilana boshlagan edi. Qizillar kuchlarini bir yerga to‘plab, zarba berish uchun yeng shimargandilar. Kazaklar hujumni susaytirib yuborishgan edi; o‘q-dori tangligini sezib, viloyat chegarasidan nari o‘tishga harakat qilishmasdi. Filonovo frontidagi janglarda goh u tomonning, goh bu tomonning qo‘li baland kelardi. Avgust oyi qisman jimjit o‘tdi, frontdan qisqa

muddatli ta'vilga kelgan kazaklar, kuzda yarash bo'lishi to'g'risida gap yuritishardi.

Ayni shu kezlari stanitsa va qishloqlarda g'alla o'rimi qizigan edi. Odam yetishmasdi. Yolg'iz xotin-xalaj bilan chollarning qo'li qo'liga tegmas, ishni uddalolmay qiynalishar edi, buning ustiga, frontga o'q-dori, oziq-ovqat tashish uchun doim: «Arava ber, odam ber»lar jonlariga tekkan edi.

Naryad bo'yicha Tatarsk qishlog'idan qariyb har kuni Vyoshenskaya besh-olti arava yuborilardi, bu yerda aravalarga patron va to'p o'qlari solingan yashiklarni ortishib, Andropovo qishlog'idagi taqsimlovchi punktga jo'natishar, ba'zan arava yetishmasa, to Xopyor bo'yidagi qishloqqa dovur eltib berishga majbur qilishar edi.

Qishloq alg'ov-dalg'ov, notinch edi. Hammaning xayoli olisda, frontda edi, yuraklari ezilib o'z kazaklarini o'ylashar, vahima ichida har kuni qora xat kutishardi. Stepan Astaxovning kelishi butun qishloqni hayajonlantirdi: har uyda, har bir xirmon boshida faqat shuni gapirishardi. O'ldiga chiqqan, hammaning yodidan ko'tarilgan, kampirlar «xudo rahmat qilsin» deb allaqachon poplarga duo o'qitgan kazak qo'qqisdan lop etib kirib kelsa-ya! Bu mo'jiza emasmi?

Stepan Anikushkaning xotininikiga tushdi, mayda-chuydalarini uyga kirgizib qo'ydi-da, uy bekasi ovqat tayyorlab bo'lguncha, hovlisiga bordi. Oppoq oy nuriga cho'mgan qo'rani odimlab o'lchayotganday, anchagacha aylandi, qulay deb qolgan bostirmalar tagiga kirib chiqdi, uyiga razm solib qaradi, chetan qoziqlarini qimirlatib ko'rdi... Anikushkaning xotini pishirgan quymoq sovib qolgan, biroq Stepan o't bosib ketgan qo'rasini ko'zdan kechirardi, barmoqlarini qirsillatib, du-duq odamga o'xshab, o'zidan o'zi g'o'ldirardi.

Kazaklar o'sha kuni kechqurunoq hol-ahvol so'ragani, asirlik hayotini surishtirgani uning oldiga kelishdi. Anikushkaning mehmonxonasi xotin-xalaj va bolalarga liq to'lgan edi. Ular zich turib, anqayganicha Stepanning gaplarini tinglar edilar. Stepan, ra'yi kelmayroq hikoya qilardilar, qartaygan yuzi tund edi. Biron marta chiroyi ochilmadi. Turmush uni birato'la bukib qo'ygan, u juda o'zgarib ketgan edi.

Ertasi kuni azonda, Stepan mehmonxonada uxlab yotganida, Pan-teley Prokofyevich keldi. U o'ho'-o'ho'lab hovuchiga yo'talar va mehmonning uyg'onishini kutardi. Mehmonxona ichidan muzday salqinda

zax yer, achchiq tamaki va uzoq yo'l bosgan odamning bijigan hidi kelardi.

Stepan uyg'ondi: uning gugurt chaqib, tamaki chekkani eshitildi.

— Kirsak maylimi? — deb so'radi Panteley Prokofyevich, amaldor huzuriga kirayotgan odamday, Ilinichna zo'rlab kiygizgan yangi ko'ylagining g'ijimlarini shosha-pisha to'g'rilab.

— Kiring.

Stepan sigarasini so'rib, tutundan ko'zlarini qisib, kiyinmoqda edi. Panteley Prokofyevich qo'rqa-pisa ostonadan hatlab o'tdi-yu, Stepanning yuzi bunchalik o'zgarganini, ipak yelkabog'ining yiltiroq to'qalarini ko'rib, qop-qora qo'lini uzatgancha qotib qoldi.

— Salom, hamsoya! O'Imagan qulni...

— Salom!

Stepan zabardast kiftlaridan yelkabog'ni o'tkazdi-da, yelkasini uchirdi, so'ngra, sipolik bilan qo'lini cholning g'adir-budur kaftiga qo'ydi. Ikkisi bir-birini naridan beri qarab chiqdi. Stepanning ko'kimtir ko'zlarida dushmanlik o'ti uchqunlanardi, Melexovning chaqchaygan g'ilay ko'zlarida izzat-u ikrom bilan biroz masxara aralash hayronlik alomati ko'rinardi.

— Qarib qolibsan, Styopa... ancha qartayibsan, bolaxon.

— Ha, qarib qoldim.

— Hamma seni «o'ldiga» chiqaruvdi, Grishkaning arvohighayam fotiha o'qib qo'yuvdik... — Bemahalda o'g'lini tilga olganidan dami ichiga tushib, xatosini xaspo'shlashga urindi: — Xudoga shukur, sog'-salomat qaytib keldi... Xudoyim o'zi mehribon! Grishatkaniam «o'ldiga» chiqarib, xudoyisini qilib yursak, hazrati Lazarday, tirik yurgan ekan. Hozir ikki bolalik bo'ldi, xotini Natalya ham, xudoga shukur, tuzalib ketdi. Yaxshi xotin chiqdi... Xo'sh, bolajon, ahvoling qalay, tuzukmi?

— Rahmat, tuzuk.

— Kaminanikida ham mehmon bo'lg'in! Kelgin, bosh ustiga, gaplashamiz.

Stepan «yo'q» dedi, biroq Panteley Prokofyevich o'pkalab, qistab qo'ymagandan keyin, ko'nishga majbur bo'ldi. Chiqib yuvindi, kalta qo'yilgan sochini tepaga qarata taradi va cholning: «Kokilingni nima qilding yoki sotib yedingmi?» degan savoliga kulib qo'ydi-da, shla-

pasini chaqqonlik bilan boshiga ilib, cholning oldiga tushib, qo'raga chiqdi.

Panteley Prokofyevich haddan ziyod shirin gap, xushmuomala edi. Stepan beixtiyor: «Eski achchiq-arazlarni ko'nglidan ko'tarmoqchi...» degan xayolga bordi.

Ilinichna erining ko'z ishoralariga amal qilib, oshxonada yugurib-yelar, Natalya bilan Dunyashkani shoshirar, taomlarni dasturxonga o'zi qo'yardi. Ikonalar tagida o'tirgan xotinlar Stepan tomonga orasira ko'z tashlab, uning pidjagini, g'alati yoqasini soatining kumush zanjirini, antiqa qilib taralgan sochini tomosha qilishar, taajjublanganliklarini yashirolmay, iljayishib, bir-birlariga qarab qo'yishardi. Qo'ra ortidan, loladay qizargan Darya kirib keldi; uyalgansimon kulimsirab, ingichka lablarini etagining uchi bnilan artidi-da, ko'zini suzib tikildi:

— Voy, qo'shni, sizmisiz, tanimabman-a! Kazaklarga sirayam o'xshamay qolibsiz.

Panteley Prokofyevich, paytni qo'ldan bermay, bir shisha qo'lbola aroqni stolga qo'ydi-da, shisha og'ziga tiqib qo'yilgan lattani shartta olib tashladi va chuchmal o'tkir hidini iskab, maqtashga tushdi:

— Mazasini totib ko'r. Qo'lbola sharob. Gugurt chaqsang, ko'm-ko'k bo'lib yonadi, xudo haqi!

Suhbat oldi-qochdi gaplar tevaragida aylanardi. Stepan ko'ngli tortmasdan ichardi, lekin og'ziga tekkandan keyin, tezda kayfi oshib xiyla muloyim bo'ldi.

— Endilikda xotin olishing kerak, qo'shnijon.

— Yo'g'-e! Eskisini nima qilaman?

— Eskisini... Unisi eskirdi endi... Eski xotin qiyotmatgacha qari-maydi deysanmi? Xotin degan narsa — biyaday bir gap: tishi tush-guncha minishing mumkin... Biz senga yoshginasini topib beramiz.

— Hayotimiz notinch... Uylanish ko'ngilga sig'armidi hozir... Bir yarim haftalik ta'tilim bor, undan keyin idoraga yo'liqishim kerak, kim biladi, frontga jo'natishadimi hali, — derdi Stepan, borgan sari kayfi oshib; u endi ajnabiycha chertib gapirishlarini ham unutgan edi.

Sal o'tmay Stepan chiqib ketdi, Darya xumor ko'zlari bilan keti-dan tikilib qoldi. Uy ichidagilar uning to'g'risida har xil gaplar gapirib bahslasha boshladilar.



— Judayam madaniylashib ketibdi, bachchag‘ar! Gaplariga qara! Xuddi o‘lponchiga yoki undanam kattakon amaldorga o‘xshab gapiradi... Borsam, endi turayotganakan, ichki ko‘ylagi ustidan oltin to‘qalik ipak shleyka taqdi deng, o‘lay agar rost! Xuddi otni tang‘iganday, yelkasidan tortib, to beligacha sirib tashladi. Bu nima ekan? Bir balosi bormikin-a? O‘ziyam xuddi olim odamga o‘xshabdi-qopti, — deb zavqlanardi Panteley Prokofyevich; Stepan eski adovatni unutib, uyiga kirganiga va hazar qilmay, osh-nonini yeganiga boshi osmonga yetib suyunardi.

Gaplariga qaraganda, Stepan askarlik xizmatidan qutulgandan keyin qishloqqa qaytib kelish, uy va ro‘zg‘orini tiklash niyatida ekani ma‘lum bo‘ldi. Gap orasida yetarli puli borligini ham qistirib ketdi; pul daragini eshitgan Panteley Prokofyevich xayol daryosiga cho‘mib, beixtiyor uni hurmat qila boshladi.

— Puli borligi aniq, — dedi Panteley Prokofyevich Stepan ketgandan keyin, — dastmoya orttirgandi, muttaham. Boshqa kazaklar asirdan uvadaga o‘ralib qaytishyapti, buning ust-boshiga qara... Yo birovni o‘ldirgan, yo g‘aznani urgan.

Dastlabki kunlari Stepan kamdan kam ko‘chaga chiqar, umrini Anikushkaning uyida ag‘nab o‘tkazardi. Qo‘shnilar undan ko‘z uzmay, har bir harakatini ko‘z ostiga olib yurishardi, hatto, Stepan nima qilmoqchiligini bilgilar kelib, Anikushkaning xotinini gapga solib ham ko‘rishdi. Biroq u labini burib, sir saqlab, «bilmayman» deb qutuldi.

Anikushkaning xotini Melexovlardan ot olib, shanba kuni erta sahar allaqayoqqa jo‘nagandan keyin, qishloqdagi mish-mish gaplar yana avjiga chiqdi. Gap nimadaligini yolg‘iz Panteley Prokofyevich sezdi. Chol oqsoq biyani aravaga qo‘shayotib: «Aksinyani olib kelgani boryapti», — deb Ilinichnaga ko‘z qisib qo‘ydi. Chol adashmadi. Stepan Anikushkaning xotinini «Aksinyaning ko‘nglini bilib kel-chi: o‘tgan ishga salavot qilib, men bilan turgisi bormi yo yo‘qmi?» degan topshiriq bilan Yagodnoyega jo‘natgani rost edi.

Shu kuni Stepan o‘z oromini, sabr-u qarorini butunlay yo‘qotib, kechga dovur qishloqda sang‘ib yurdi, ancha vaqtgacha Moxovlar uyining zinasida Sergey Platonovich va Satsa bilan gaplashib o‘tirdi; Germaniya to‘g‘risida, u yerdagi hayot to‘g‘risida, Fransiya va dengiz

orqali qaytganlarini soʻzlab berdi. Oʻzi gapirar, Moxovning hasratlarini tinglar, lekin dam-badam bezovtalanib soatga qarardi...

Anikushkaning xotini qosh qorayganda Yagodnoyedan qaytdi. Hovlidagi yozgi oʻchoqda kechki ovqat harakatiga tushdi, kutilmagan xabardan Aksinya qoʻrqib ketganini, Stepan toʻgʻrisida koʻp surishtirganini, biroq qaytishdan uzil-kesil bosh tortganini gapirib berdi.

— Qaytish zarur kebdimi unga? Boyvuchchalarday yuribdi. Biram silliq boʻlib yetilibdiki, yuzlari oppoq. Ogʻir yumushga qoʻl urmas ekan. Tagʻin nimasi kam? Shunday yasanibdiki, hayron qolasan. Ish mahalidayam egnida oppoq qorday yubka, qoʻllari top-toza... — derdi u entika-entika, tupuklarini yutib.

Stepanning betlari qizarar, yerga boqqan koʻzlarida gʻazab-u gʻam oʻtlari goh yonib, goh yana soʻnardi. Qoʻllari qaltirab qoshiq bilan idishdan zoʻrgʻa qatiq olardi. Joʻrttaga shoshmasdan savol berar, gapi ogʻzidan tushib ketayotganga oʻxshardi.

— Demak, turmushi yaxshi ekan-da?

— Yaxshiyam gapmi? Bunaqa turmushga hammayam jon der.

— Mendan gap ochdimi?

— Boʻlmasa-chi! Kelganingizni aytishim bilan ranglari boʻzday oqarib ketdi.

Kechki ovqatdan keyin Stepan oʻt bosgan qoʻrasiga kirdi.

Avgustning oqshom payti bir zumda oʻtdi-ketdi. Salqin tunda olisdan shamol mashina parraklarining taqir-tuquri, qichqirgan ovozlari eshitilardi. Xol-xol sargʻish oy shuʻlasida odamlar «boʻl-chi, boʻl» qilib, zoʻr berishar: kun boʻyi yanchilgan gʻallani shamolda sovurishar, qoplab omborga joʻnatishardi. Qishloqni boshdan oyoq, yangi yanchilgan bugʻdoy hidi va chori toʻponi bosib ketgan edi. Maydonning allaqaysi yogʻida ishlayotgan bugʻ molotilkaning dukurlagani, itlarning akillagani eshitilardi. Olisdagi xirmonlardan mungli qoʻshiq ovozlari kelardi. Dondan rutubat koʻtarilgan edi.

Stepan chetanga suyanib, koʻcha yoqdan koʻringan Donning shoʻx oqimiga, oy shuʻlasidan daryo ustiga qiyalamasiga tushgan egri-bugri-yiltiroq chiziqqa tikilganicha qotib qoldi. Suv beti tangaday jimirlashib oʻynar edi. Donning narigi qirgʻogʻidagi teraklar jimjit mudrardi. Stepan sekin-asta gʻam daryosiga gʻarq boʻldi.

Tong mahalida yomg'ir quydi, lekin quyosh chiqqach bulutlar tarqab ketdi, oradan ikki soat o'tmay, hamma yoq quridi; faqat arava g'ildiragiga ilashib, iz chetiga chiqib qolgan quyuq loy palaxsalargina yomg'ir yog'ib o'tganini eslatardi.

Stepan ertalab Yagodnoyega kirib bordi. Hovliqib, otini darvoza yoniga bog'ladi-da, shaxdam qadamlar bilan xizmatkorlar turadigan uy tomon yurdi.

O't bosgan kattakon hovlida hech kim yo'q edi. Otxona oldida tovuqlar go'ng titishardi. Qulagan chetan ustida qarq'aday qopqora xo'roz yurardi. U go'yo chetanda o'rmalagan xonqizilarni terib yeyayotganday, yolg'ondakam cho'qir va ququlab tovuqlarni chaqirardi. Semiz-semiz tozilar izvosh turgan bostirma yonidagi soyada dam olardi. Oltita qorachipor kuchukcha, birinchi marta tuqqan yoshgina qanjiqni chalqanchasiga yotqizib olib, oyoqlarini tirab, nimjon emchaklarini tortib so'rishardi. Pan uyining tunuka tomi, — kunga ters tomoni, — qirovdan yiltirar edi.

Stepan o'ng-so'liga qarab, xizmatkorlar uyiga kirdi va semiz oshpaz xotindan:

— Aksinyani ko'rsam bo'ladimi? — deb so'radi.

— O'zingiz kim bo'lasiz? — dedi qiziqsinib oshpaz xotin cho'tir yuzidagi terni etagiga artib.

— Kimligimning sizga keragi yo'q. Aksinya qayerda?

— Panning yonida. Birpas kutasiz.

Stepan o'tirdi, rosa charchagan bir kayfiyatda, shlapasini tizzasiga qo'ydi. Oshpaz ayol pechga qozonchalarni qo'yar, mehmonga e'tibor qilmay, hadeb otashkurakni taqirlatardi. Oshxona achigan suzma bilan xamirturush hidiga to'lgan edi. Pech zihlarini, devorlarni, un sochilgan stol ustini qoramug'day pashsha bosib ketgandi. Stepan tiq etgan tovushga quloq solib kutardi. Nihoyat, oyoq tovushi keldi, yurishidan Aksinyaligini bilib, joyida sapchib tushdi. O'rnidan turdi, tizzasidagi shlapa dumalab ketdi.

Aksinya bir dasta likoplarni ko'tarib kirib keldi. Yuzida na qon qoldi-yu, na jon, lo'ppi lablarining ikki chetini qaltiroq bosdi. U darmoni qurigan qo'llaridagi likoplarni ko'ksiga bosib, cho'chigan ko'z-

larini Stepandan uzolmay, taxta bo'lib qoldi. Nihoyat bir amallab, joyidan qo'zg'aldi-da, stol yoniga borib likoplarni qo'ydi.

— Salom!

Stepan uyqudagiday bir tekis, shoshmasdan, chuqur-chuqur nafas olar, zo'raki kulimsiraganidan lablari biroz ochilgan edi. U churq etmas, sal-pal bukilib, qo'lini Aksinyaga uzatganicha tek turardi.

— Avval hujraga kiraylik... — deb imo qildi Aksinya.

Stepan yerdan shlapasini og'ir yuk ko'tarayotgan odamday zo'rg'aldi, boshiga qon quyilib ko'zlari qorong'ilashdi. Hujraga kirishib, ikkisi stolning ikki yog'iga o'tirishgani hamon, Aksinya qaqragan lablarini yalab, ingrab savol berdi.

— Qaysi go'rdan paydo bo'lding?

Stepan g'ayritabiiy shodlik bilan, mastlar singari g'alati qo'l siltadi. Sevinch va iztirob aralashgan haligi kulimsirashi hali ham labidan ketmagandi.

— Asirlikdan... Seni yo'qlab keldim, Aksinya...

Stepan jin tekkanday shoshqaloqlab qoldi, o'rnidan irg'ib turdi-da, kichkina bir tugunchani cho'ntagidan chiqardi, o'ralgan lattasini naridan beri ochib, qaltiroq panjalari bilan kumush bilak soat hamda arzonbaho ko'ktosh qadalgan uzuk oldi... Bu ikki narsani terlagan kaftiga solib, Aksinyaga uzatdi, biroq u, o'zini xo'rlab, noiloj iljayib turgan bu sevimsiz kishining basharasidan ko'zini olmay tikilib turaverdi.

— Ol, senga atab asragan edim... Umid bilan bir yostiqqa...

— Boshingga uramanmi buni? Shoshma... — deb shivirlardi Aksinyaning qonsiz lablari.

— Ola qol... ko'nglimni ranjitma... Eski arazlarni yig'ishtirishimiz kerak...

Aksinya qo'lini qalqon qilib, o'rnidan turdi-da, kichikroq so'ri yoniga bordi.

— Seni «o'ldi» deyishgan edi...

— O'lsam, suyunarmiding?

Aksinya javob bermadi; u endi erini bamaylixotir boshdan oyoq qarab chiqdi, yaxshi dazmollangan yubkasining burmasini bekordan bekorga siladi. Qo'lini orqasiga qilib so'radi:

— Anikushkaning xotinini sen yuboruvdingmi?.. Meni chaqirgan-mishsan... uyga qaytsin, debsan...

— Qaytasanmi? — dedi Stepan gapini bo'lib.

— Yo'q, — dedi Aksinya qat'iy qilib. — Yo'q, qaytmayman.

— Nega endi?

— Yolg'izlikka o'rganib qoldim, picha vaqtiyam o'tgan... Vaqti o'tdi.

— Ro'zg'orni tiklasam, degan niyatim bor. Germaniyada yurganimda ham, yo'lda ham shu to'g'rida ko'p o'ylagan edim... Xo'sh, Aksinya, endi nima qilmoqchisan? Grigoriy tashlab ketdi... Yoki boshqasini topib oldingmi? Eshitishimcha, panning o'g'li bilan yurarmishsan.. Rostmi?

— Rost. O'sha bilan topishganman.

— Men yuzingga solayotganim yo'q, — dedi Stepan gapi malol kelishidan qo'rqib. — Bu gapdan og'iz ochganimga boshqa sabab bor: balki boshing aylanib, keti nima bo'lishiga aqling yetmayotganmikin, deyman... Sen unga umrbod kerak bo'lmaysan, ko'ngilxushlik uchun yuribdi, xolos... Ana, ko'zlaring tagiga ajin ham tushibdi... Seni tashlab ketadi, axiri joniga tegasan, haydab yuboradi. Innaykeyin, qayoqqa borasan? Oqsochlik joningga tegmadimi? O'zing o'ylab ko'r... Men pul orttirib qaytdim. Urush tamom bo'ladi, bekam-ko'st yashaymiz. Yana birga bo'lsak, deb o'ylovdim. Eski gaplarni unutmoqchi edim...

— Ilgari nega shuni o'ylamading, aziz do'stim Styopa? — deb Aksinya sevinganidan ko'zi yoshga to'ldi, keyin stol yoniga kelib, betmabet turib oldi.

— Yoshgina jonimni qiynaganingda, umrimni xazon qilganingda, xo'sh, nega shuni o'ylamading? Meni Grishkaga topshirgan sensan... Ko'nglimni muzday sovutgan ham sensan... Meni ne ko'yga solganlaring esingda bormi?

— Men o'tgan ishni yuzingga solgani kelganim yo'q... Sen... Qayoqdan bilasan? Balki men ham, shuning azobini tortgandirman... Balki qilmishim esimga tushib, pushaymon bo'lgandirman... — Stepan stol ustida cho'zilib yotgan o'z qo'llarini tomosha qilar, tili tanglayiga yopishib qolganday, gaplari og'zidan zo'rg'a chiqardi. — Seni o'yladim, xolos... Yuragim qonga to'ldi... Kecha-yu kunduz xayolimdan ketmading... U yoqda men bir beva... nemis xotin bilan turdim...

Hech narsadan kamchiligim yo‘q edi, bahridan o‘tdim... Uyni judayam sog‘indim...

— Tinchgina yashashni ko‘zlab san-da? — deb so‘radi Aksinya burnining kataklari kerilib. — Xo‘jayin bo‘lg ing kelyaptimi? Balki bola ko‘rging ham kelar? Balki kiringni yuvadigan, ovqatingni pishiradigan xotin ham istarsan? — zahrini sochib, xunuk iljaydi. — Bas, endi, xudo ko‘rsatmasin? Men qariganman, ajinlarimga ham ko‘zing tushibdi... Bola tug‘ishni yodimdan chiqarib yuborganman. Boyvachchaning o‘ynashiman, o‘ynashga bola tug‘ish rasmmas... Shunaqasiga hushing bormi?

— Judayam tering yupqa bo‘lib qolibdimi...

— Bo‘lganim shu.

— Demak, yo‘qmi?

— Yo‘q, qaytmayman. Yo‘q.

— Xayr, omon bo‘l! — Stepan o‘rmidan turdi, bilaguzukni qo‘lida bir-ikki aylantirdi-da, yana stol ustiga qo‘ydi. — Shaxtingdan tushsang, menga xabar qilgin.

Aksinya uni darvozagacha kuzatib chiqdi. Anchagacha ketidan tikilib qoldi: g‘ildiraklar ostidan otilib chiqqan chang buluti Stepanning kiftlarini ko‘mib yuborguncha qarab turdi.

Aksinya achchiq ko‘z yoshlari to‘kishdan o‘zini tutib qololmadi. U baxti ochilmay, ro‘shnolik ko‘rmay, o‘tgan umriga achinib, o‘qtin-o‘qtin piqirlab yig‘lar, yana barbod bo‘lgan umri uchun aza tutardi. Yevgeniyga ortiq darkor emasligini bilgandan keyin, eri kelganini eshitib, uyga qaytishga, poymol bo‘lgan baxtini boshqatdan tiklashga qaror qilgan edi... Shuning uchun Stepanni kutgan edi. Biroq uning quldan battar bo‘yin egib kelganini ko‘rishi bilanoq, Yagodnoyeda ortiq bir kun ham turmaslikka qaror qilgan Aksinya yana takabburlikka berilib, oyog‘ini tirab oldi. Alamiga chidolmay, tilini tiyolmay qoldi. Tortgan azoblari, shu odamdan ko‘rgan xo‘rlklari, uning gurziday qo‘llari esiga tushib ketdi. Lekin undan ajralishni istamasa ham, qilayotgan ishiga ichi achishib, nafasi tiqilib, oqibati yomon bo‘lishini bilib tursa ham, tili zahar sochib: «Yo‘q, sen bilan turmayman yo‘q» — deyishini qo‘ymadi.

Uzoqlashib ketayotgan arava ketidan yana bir marta termilib qaradi: Stepan qamchisini o‘ynatib, yo‘l bo‘yidagi nastarin simon shuvoqzor ichida g‘oyib bo‘ldi.

Ertasi kuni Aksinya xizmat haqlarini oldi-da, lash-lushini yig'ishtirdi. Yevgeniy bilan xayrlasharkan, biroz ko'z yoshi qildi:

— Esingizga tushsam, so'kib yurmang, Yevgeniy.

— Qo'y, unday dema, jonginam!.. Sendan ko'p minnatdorman.

Yevgeniy xijolatini yashirmoq uchun sho'x-sho'x gapirardi.

Aksinya ketdi. Kechqurun Tatarsk qishlog'iga kirib bordi.

Stepan darvoza oldida uni kutib oldi.

— Keldingmi? — deb so'radi u iljayib. — Butunlaymi? Yana tashlab ketmasligingga ishonsam bo'ladimi?

— Ketmayman, — dedi jo'ngina qilib Aksinya; u qulay deb qolgan uyini, burgan-u sho'ra bosib ketgan qo'rani yurak-bag'ri ezilib ko'zdan kechirdi.

## VIII

Vyoshenskiy polki Durnov stanitsasi yaqinida chekinayotgan Qizil Armiya qismlari bilan birinchi marta jang qildi.

Grigoriy Melexov boshchiligidagi sotnya tushga yaqin, chorbog'lari qarovsizlikdan chakal akka aylangan kichkina bir qishloqni ishg'ol etdi. Tollar tagidagi zax joyga, qishloq ichidan ariqcha bo'lib oqib o'tgan zovur yonida Grigoriy kazaklarni otdan tushirdi. Bilqildoq qora balchiq tagidan qaynab chiqayotgan buloqlarning chuldurashi eshitilardi. Suv muzday edi; kazaklar furajkalatiga suv olib, entikib simirishar va chanqovlari bosilgandan keyin uni terlagan boshlariga bostirib kiyib olib, rohat qilishardi. Issiqda mudrayotgan qishloqning qoq ustida quyosh tikkaga kelib turib qolgan edi. Jamiki ko'katlar, barglar jazirama oftobda shalpayib qolgan, ammo chashma yonidagi tolzor orasi salqin bo'lib, ko'm-ko'k otquloqqa va zaxkash tuproqda o'sadigan g'alati o'tlarga to'lgan edi; xalqob joylarda o'sgan nilufarlar suv betida qiz boladay kulib turardi; muyulishning orqasida cho'milayotgan o'rdaklarning shatir-shutur qanot qoqishlari eshitilardi. Otlar pishqirib suvga intilishar, shalp-shulp balchiq kechib, ko'ldan chiqib, buloqning o'rtasiga borishar va suvni loyqalatib, tumshuqlari bilan tozaroq joyni qidirishardi. Osilgan lablaridagi olmosday dona-dona tomchilarni issiq

shamol uchirib ketardi. Qo'zg'algan loy-u balchiqdan oltingugurt hidi ko'tarildi, chirigan tol ildizlariga suv sachrab, hamma yoqni chuchmal va xushbo'y is bosib ketdi...

Kazaklar endigina otquloq orasiga yonboshlab, tamaki tortishib, gappa tushgan edilarki, qorovulga chiqqanlar qaytib kelishdi. «Qizillar» degan so'zni eshitishi bilanoq hamma sapchib o'rnidan turdi. Kazaklar otlarning ayilini tortishar, yana buloqqa borib suvdonlarini to'ldirishar va: «Bunday ajoyib, yosh bolaning ko'z yoshiday tip-tiniq suvni yana ko'ramizmi, yo'qmi?..» degan xayolda qayta-qayta ichishardi.

Yo'lga chiqdilar va buloqdan o'tib, to'xtadilar.

Qishloqdan bir chaqirim narida, shuvoq bosgan qumloq do'ng tepasida qizillar razvedkasi ko'rindi. Sakkiz otliq sekin-asta qishloqqa tomon tushib kelaverdi.

— Tutib olamiz! Ruxsat etasanmi? — deb so'radi Mitka Korshunov Grigoriydan.

Mitka yarim vzvod kazaklarni olib, aylanma yo'l bilan qishloq orqasiga o'tdi; biroq razvedka kazaklarni payqab, ketiga qaytdi.

Bir soatdan keyin polkning boshqa sotnyalari ham yetib kelgach, qo'zg'aldilar. Qorovulga chiqqanlar, mingga yaqin qizil askar to'g'ri ular tomonga kelayotganini xabar qildilar. Vyoshenskiylik sotnyalar o'ng tomonda kelayotgan 33-Yelano-Bukanovski polki bilan aloqani yo'qotib qo'yidilar, lekin shunga qaramay, jang qilishga qaror qildilar. Kazaklar do'ngdan oshib, otdan tushdilar. Jilovdorlar, qishloqqa tomon qiya ketgan kattakon jarga otlarini yashirdilar. Allaqayerda, o'ng tomonda razvedkachilar to'qnashib qolib, jang boshlab yubordilar. Qo'l pulemyotning olatasir tarillagani eshitildi.

Sal vaqtdan keyin yoyilib kelayotgan qizillarning siyrak qatorlari ko'rindi. Grigoriy o'z kazaklarini jar tepasiga yoydi. Past-past butalar o'sib yotgan do'ng bag'rida kazaklar pisib yotdilar. Grigoriy pastakina yovvoyi olma tagidan turib, olisdagi dushman seplariga durbin bilan tikilardi. Eng oldinda kelayotgan ikki sep va uning ketida, ekini o'rilib yig'ishtiriqsiz yotgan bug'doy poya ichida qoraygan kolonna-ning yoyilayotgani unga aniq ko'rinardi.

Bo'ydor oq ot mingan odamning, — aftidan komandirga o'xshardi, — birinchi saf oldida kelayotgani Grigoriyni ham, ka-



zaklarni ham taajjublantirdi. Ikkinchi qatorning oldida ham ikki kishi bir-biridan uzoqroq kelishardi. Uchinchi qatorga ham komandir bosh bo'ldi, uning yonginasida hilpillagan bayroq ko'rindi. Sap-sariq bug'doy poya fonida qizil tug' qittay qon tomchisiga o'xshab yiltirardi.

— Oldinda ularning komissarlari kelyapti! — deb vag'illadi kazaklardan biri.

— Qoyil! Botirlik deb mana buni aytadilar! — deb zavq bilan hohlab kuldi Mitka Korshunov.

— Ko'rib ol, yigitlar! Qizillar mana shunaqa bo'ladi!

Deyarli hamma kazaklar gavdalarini ko'tarib, gap sotishardi. Ular kaftlarini soyabon qilib tikilib turishardi. Ovozlar o'chdi. Hamma yoqni ajal hidi bosib, qir-u jar ustini ulug'vor va dahshatli sukunat bulut soyasiday sekin-asta qoplab oldi.

Grigoriy ketiga qaradi. Ko'kmak tolzorning orqa tomonida, qishloqning yonboshida chang buruqsib ko'tarilardi: ikkinchi sotnya kazaklari dushmanga yondan hujum qilish uchun ot qo'ygan edilar. Hozirchalik bular jar panasida pisib kelishar, biroq to'rt chaqirim yurgandan keyin do'ngga chiqib, ko'rinib qolishlari muqarrar edi; Grigoriy oradagi masofani va sotnyaning qizillar biqinidan chiqish vaqtini chalamab ko'rdi.

Grigoriy shartta burildi-da, durbinni g'ilofiga solayotib:

— Yotingla-ar! — deb komanda berdi.

U o'z safining yoniga bordi. Kazaklar chang bosgan, oftobdan qorayib yog'day yiltiragan basharalarini unga o'g'irib qaradilar. Ular ko'z urishtirishib, yota boshladilar. «Tayyor bo'!» komandasidan keyin miltiq zatvorlari sharaqladi. Kazaklar tepasida turgan Grigoriy faqat cho'zilgan oyoqlarni, furajkalarning tepasini chang bosib, terlab yag'iri chiqqan ko'ylaklarining orqasini-yu, do'ppaygan kuraklarni ko'rardi. Kazaklar emaklab pana bo'lish uchun qulay joy qidirishga tushdilar. Ba'zilar qattiq yerni qilich bilan kovlab ham ko'rdi.

Shu asnoda qizillar tomonidan esgan shamol noaniq qo'shiq sadolarini olib keldi...

Qizillar dam o'ngga, dam so'lga buralib, chayqalib saf tortib kelardi. Jazirama issiqda ularning ovozi eshitilardi.

Grigoriy yuragi shig' etib, goho duk-duk ura boshlaganini, goho to'satdan to'xtab qolayotganini sezdi... U ilgari ham bu kuyni eshitgan,

mokrousovlik matroslar Glubokayada, ibodat qilayotganday shapkalarini olib, ko'zlarini chaqnatib ko'tarinki ruh bilan shu qo'shiqni aytganlarini ko'rgan edi. Birdaniga vahima bosgan odamday sarosimalikka tushib qoldi.

Yoshi qaytgan bir kazak xavotirlanib boshi bilan imladi:

— Ular nega bo'kirishyapti?

O'ng tomonda yotgan kazak:

Salavot aytib kelishyapti chog'i, — deb javob berdi unga.

— Salavot-a, iblisga sig'inishyapti! — deb kuldi Andrey Kashulin; u yonida turgan Grigoriyga xo'mrayib qarab: — Sen-ku, Panteleyevich, ularning orasida bo'lgansan, shu topda nechuk qo'shiq aytishlarini, balki bilarsan? Xudo bilsin, o'zing ham qo'shib aytgandirsan?

«...Yerni egallashga!...» — degan shodiyona so'zlar olisdan mavj urib quloqqa bir chalindi-da, dashtni yana jimjitlik bosdi. Kazaklar behuda suyundilar. O'rtada yotgan allakim hoholab kuldi. Mitka Korshunov toqatsizlanib ming'illadi:

— Hoy, eshitdingizmi?! Yerni egallagilari kelib qolibdi!.. — shunday deb u xunuk so'kindi. — Grigoriy Panteleyevich! Ruxsat et, men huv anavi otdagini qulatay! Bitta o'q shundan aylansin!

Roziligini kutmasdan otdi. O'q otligni salgina bezovta qildi, xolos. U otidan tushib, otini birovga topshirdi-da, qilichini yalanglatib, saf oldiga o'tdi.

Kazaklar o'q uza boshladilar. Qizillar yotib olishdi. Grigoriy pulemyotchilarga o't ochishni buyurdi. Pulemyotlardan ikki marta o'qqa tutilgandan so'ng qizillarning birinchi safi turib olg'a yugurdi. O'n sarjin chamasi siljib, yana yotdi. Grigoriy qizil askarlar belkurak bilan yer qazib, o'zlarini panaga olishayotganini durbinda ko'rib turardi. Ularning ustida ko'kish chang ko'tarildi, saf oldida, sug'ur ini oldida tuproq uyumlariga o'xshash kichik-kichik tepaliklar paydo bo'ldi. O'sha yerdan qizillar bab-baravar o't ochdilar. Otishma qizib ketdi. Jang tez tugamaydiganga o'xshab qoldi. Bir soatdan so'ng kazaklar talafot ko'ra boshladilar: bir kishi o'q yeb, til tortmay o'ldi, uchtasi yarador bo'lib, emaklagancha jarga — jilovdorlar yoniga tushib ketdi. Ikkinchi sotnya jon-jahdi bilan, qizillarning yonbosh tomonidan ot qo'ydi. Biroq qizillar pulemyotdan o't ochib hujumni qaytardilar. Kazaklar vahimaga tushib otlarni ketiga burdilar, goh to'planib, goh

yoyilib qochishga tushdilar. Chekinib borib yana saflarini tuzatdilar, qiyqiriqsiz, indamasdan yana ot qo‘ydilar. Lekin bu gal ham pulemyotning shiddatli o‘qidan, shamol barglarni uchirganday har yoqqa to‘zib ketdilar.

Biroq ustma-ust hujumlar qizil askarlarning tinkasini quritdi, oldingi safdagilar aralash-quralash bo‘lib ortga chekindi.

Grigoriy o‘q uzishni to‘xtattirmay kazaklarni turg‘izdi. Ular tik turib, olg‘a yurdilar. Hozirgina vahima bosib, sarosimalikda yotgan odamlar endi o‘ziga kelgan edi. To‘plarning ayni vaqtda yetib kelishi ham ularning ruhini ko‘targandi. Birinchi to‘pchi vzvod o‘t ochish marrasiga o‘mashib olib, o‘t ochdi. Grigoriy otlarni keltirish uchun jilovdorga odam yubordi. U hujumga o‘tishga tayyorlanmoqda edi. Yovvoyi olma ostida uchinchi to‘p peredokdan tushirilmqda edi. Boya Grigoriy shu olma ostida durbin bilan qizillarni kuzatgan edi. Torgina galife shim kiygan ofitser to‘p yoniga yugurib borib ivirsigan odamlarga chinqirar, qamchisi bilan etigining qo‘njiga savalab:

— Sudrasang-chi! Bo‘! Ha, arvoH ursin sanlarni!.. — deb koyir edi.

Nazoratchi bilan starshiy ofitser to‘p turgan joydan yarim chaqirim narida otdan turib, chekinayotgan qizillar qatoriga durbin bilan tikilishardi. Telefonchilar batareya bilan kuzatish punkti orasiga sim torta boshladilar. Batareya komandiri — keksa yasovul yirik-yirik barmoqlari bilan durbin murvatini hovliqib burar edi (barmoqlaridan birida oltin nikoh uzugi yaraqlab ko‘rinardi). U bekordan bekorga birinchi to‘p yonida ivirsib yurardi, o‘q vizillasa, boshini chayqatar va har gal qattiqroq qimirlaganida yonidagi eski sumkasi silkinardi.

Gumburlagan qasira-qusur tovush ketidan Grigoriy, dastlabki to‘p o‘qining borib tushgan joyini ko‘zdan kechirdi-da, burilib qaradi: to‘pchilar kuchanib, xirillashib, zambarakni siljitmoqda edilar. Mo‘ljal uchun otilgan birinchi o‘q, o‘riqsiz yotgan bug‘doypoyani qiyratdi, oppoq bo‘lib buruqsib ko‘tarilgan tutun ko‘m-ko‘k osmonda shamol tarqatib yubormaguncha qalqib turdi.

Payhon qilingan bug‘doyzorning orqa tomonini to‘rtta to‘p galma-gal o‘qqa tutardi, lekin bu to‘pvozlik Grigoriy kutganicha natija bermadi, — qizillar safida sarosimalik tug‘dirmadi, — ular shoshmasdan, tartibli sur‘atda chekinmoqda va tepadan oshib kazaklar ko‘zidan

g'oyib bo'lmoqda edilar. Grigoriy endigi hujumning nafi yo'qligini tushunsa ham, batareya komandiri bilan gaplashib ko'rishga qaror qildi. U, lapanglab komandir oldiga keldi, oftobda kuyib, sarg'ayib ketgan jingalak mo'ylovining uchini chap qo'li bilan silab, do'stona iljaydi:

— Hujum qilsakmikan devdim.

Yasovul hafsalasi pir bo'lgan odamday bosh chayqadi:

— Hujumga balo bormi! — u koziryogi ostidan quyayotgan terni kaftining sirti bilan artib oldi. — Tartib bilan chekinishlarini ko'ryapsizlarmi? Xomtama bo'lmang! Qaytaga kulgi bo'lganimiz qoladi, ularning shu qismlaridagi hamma boshliqlar kadr ofitserlardan. Mening o'rtog'im, askar starshinasi Serov ham o'shalar orasida...

— Qayoqdan bilasiz? — Grigoriy ishonmasdan qoshini chimirdi.

— Qochib o'tganlar aytdi... O't ochish to'xtatilsin! — deb buyurdi yasovul va o'zini oqlamoqchi bo'lganday izoh berdi: — Otishning foydasi yo'q, o'qimiz ham oz... Siz Melexovmisiz? Tanishaylik: Poltavsev. — U terlagan, kurakday dastpanjasini Grigoriyga tutqizdi va darrov, epchillik bilan qo'lini sumkasiga tiqib, papiros oldi: — Marhamat, cheking!

Jilovdorlar otlarni dukurlatib jardan yetaklab chiqdilar. To'plar tagliklarga o'rnatildi. Grigoriy o'z kazaklarini otga mindirib, do'ngdan oshgan qizillar ketidan ketdi.

Qizillar narigi qishloqni ishg'ol etdilar, lekin qarshilik ko'rsatmasdan tashlab ketdilar. Vyoshenskiylik uch yuz kazak va to'pchilar shu qishloqqa joylashdilar. Qishloq aholisi qo'rqqanidan uydan chiqmasdi. Kazaklar ovqat axtarib, qo'rama-qo'ra izg'ib yurishardi, Grigoriy eng chekkadagi yakka qo'rg'on yonida otdan tushdi va hovliga kirib, otini zina oldiga bog'ladi. Uy egasi, keksa-kazak karavotda ingrab yotar, mushtdaygina boshini qo'yarga joy topolmay, kir yostiqa u yoqdan bu yoqqa dumalar edi.

— Tobingiz yo'qmi? — deb kulimsiradi Grigoriy so'rashib bo'lgandan keyin.

— Kasal-al-man...

Chol o'zini kasallikka soldi, lekin ko'zlarining bejo alanglashiga qaraganda kasalligiga hech kim ishonmaganini o'zi ham payqagan edi.

— Kazaklarga ovqat berasizmi? — qat'iy talab etdi Grigoriy.

— Nechchi kishisiz? — kampiri pech yonidan qo'zg'aldi.

— Beshta.

— Mayliga, kiringlar, borini qo'yaman, baham ko'rasiz.

Grigoriy kazaklar bilan ovqatlanib, ko'chaga chiqdi. To'plar jangga tayyor holda quduq oldida turardi. Otlar boshiga ilingan to'rvalarini silkitib yem yeyardi. Jilovdorlar bilan to'pchilar oftobdan qochib, o'q solingan yashiklar soyasida, to'plar yonida o'tirishar, ba'zilari yonboshlab yotishardi. To'pchilardan biri yerga bag'rini berib, oyoqlarini chalishtirib yotar va uyqusida kiftini qoqardi. Oldin u salqinda yotgan bo'lsa kerak, lekin hozir soya ketib, cho'p-uchor yopishgan jingalak sochlari oftobda qolgan edi. Otlarning terisi qayish abzal ostida jiqqa ho'l bo'lib, ko'pirib terlaganidan yiltiyil qilardi. Ofitserlar va jilovdorlar minadigan otlar chetan devorga bog'langanicha, oyoqlarini bukiroq, boshini solintirib turardi. Chang bosgan, terga pishgan kazaklar churq etmay dam olishardi. Batareya komandiri bilan ofitserlar quduq taxtasiga suyanib yerda o'tirishar, papiros chekishardi. Ulardan sal nariroqda, qurigan ajriq ustida olti kazak oyog'ini olti yoqqa qilib, yulduz shaklida yotardi. Ular chelakdan qatiq ichishardi, ahyon-ahyonda bittasi qatiq aralash og'ziga ilashgan arpa donini chetga tupurardi.

Oftob ayamay kuydirardi. Do'nggacha cho'zilgan qishloq ko'chalarida hech kim ko'rinmasdi. Kazaklar omborxonalar soyasida, bostirma tagida, chetan devor yonlarida, otquloq soyasida uxlar edilar. Chetan devorga bog'langan egarlog'liq otlar issiqdan shalpayib mudrashardi. Qamchisini zo'rg'a qimirlatib otliq kazak o'tib ketdi. Ko'cha cho'l-biyobondagi yo'ldek huvullab qoldi, undagi yashil rangga bo'yalgan to'plar, yo'l azobi va kun issig'idan horib-tolib uxlayotgan odamlar mutlaqo keraksiz va tasodifiy narsaga o'xshardi.

Grigoriy o'zini hech yerga sig'dirolmay, endi uyga kirmoqchi bo'lib turganda ko'cha bo'yab kelayotgan uch otliqqa — boshqa sotnyalik kazaklarga ko'zi tushdi. Ular o'nga yaqin qizil askarni haydab kelishardi. To'pchilar hovliqishib, ust-boshlarining changini qoqib, tura boshladilar. Ofitserlar ham turdi. Qo'shni hovli tomonda allakim suyunib qichqirdi:

— Yigitlar, asirlarni obkelishdi!.. Ishonmaysizmi? Xudo ursin!

Kazaklar ko'zlarini ishqalab, shosha-pisha ko'chaga chiqdilar. Asirlar yaqin keldi, bular terlab, bijib ketgan, boshdan oyoq changa belangan sakkizta yosh yigit edi. Kazaklar ularni o'rab olishdi.

Batareya komandiri asirlarga sovuqqina nazar tashlab:

— Bularni qayerda qo‘lga tushirdingiz? — deb so‘radi.

Haydab kelgan kazaklardan biri maqtanib ketdi.

— O‘lgiday shudi yo‘q odamlar ekan! Bularni biz qishloq chetidagi kungaboqar orasidan tutib oldik. Bedana kalxatdan yashiringanday, pi-sib yotishgan ekan. Ot ustidan ko‘rib qolib, rosa quvladik-da! Bittasini o‘ldirdik...

Qizil askarlar qo‘rqib, bir-birlariga suqildilar. Ur kaltakka qo-lish, vahshiyona jazolanishdan qo‘rqayotganlari aniq edi. Ko‘zlari javdirab, kazaklar yuziga tikilardi. Faqat bitta yoshi kattarog‘i, sal-pal g‘ilay qora ko‘zlarini katta ochib, boshlar osha nafrat bilan tikilar va qonagan lablarini chirt yumib turardi. Uning betlarini of-tob urgan, yonoq suyaklari bo‘rtib chiqqandi, egnida sho‘rlab ket-gan gimnastorka, oyog‘ida titilib ketgan o‘rama paytava bor edi. U chorpahildan kelgan, keng yag‘rinli odam edi. Ot yoliday qattiq va tim-qora jingalak sochlari ustida chalpaknusxa yashil furajka, furajkada German urushi vaqtida taqilgan bo‘lsa kerak, kokarda-ning izigina qolgan edi. U erkin turar, tirnoqlarida qon qotib qol-gan yo‘g‘on barmoqlari bilan ichki ko‘ylagining tugmasiz yoqasini va qop-qora jun o‘sgan qirrador lo‘kidonini silardi. Sirdan parvoyi falak odamga o‘xshab ko‘rinsa ham, kerib turgan o‘rama payta-valik oyoqlari sovqotganday sekin-asta qaltirardi. Qolganlarining quti o‘chib turishardi. Yolg‘iz shu odam boshqalardan ajralib tur-rar, kelishgan qaddi-qomati, jasoratli mo‘g‘ulcha yuzi diqqatni jalb etardi. Ehtimol, shuning uchun batareya komandiri unga murojaat qilib savol berdi:

— Sen kim bo‘lasan?

Qizil askarning tim-qora kichkina ko‘zlari chaqnadi, ko‘z ochib yumguncha butunlay o‘ziga kelib oldi.

— Qizil askar. Rusman.

— Qayerliksan?

— Penzalik.

— Ko‘ngillimisan, gazanda?

— Yo‘q. Eski armiyada starshiy unter-ofitser edim. O‘n yettin-chi yilda qizillarga qo‘shilganman, o‘shandan beri to shu damga-cha...

Haydab kelganlardan biri gapga aralashdi:

— Bizga o‘q uzdi, bu gazanda!

— O‘q uzdi? — yasovul yuzlarini bujmaytirdi, ro‘parasida turgan Grigoriy bilan ko‘z urishtirib, asirni imlab ko‘rsatdi: — Buni qara!.. Otdingmi-a? Sen nima, qo‘lga tusharman deb o‘ylamadingmi? Seni ham hozir olib chiqib otsak nima deysan?

— O‘q uzib qutulmoqchi edim... — Kaltakdan yorilgan lablari kechirim so‘raganday iljaydi.

— Dog‘uliligini qara! Unday bo‘lsa, nega qutulmading?

— O‘qim tamom bo‘ldi.

— Ha-a-a... — yasovulning ko‘zlari olaysa ham, soldatni boshdan oyoq zavq bilan tomosha qilib chiqdi. — Xo‘sh, siz qayerliksiz, itvachchalar? — deb so‘radi u qolganlarga sho‘x-sho‘x tikilib va ovozi butunlay o‘zgartirib.

— Biz mobilizatsiya qilinganmiz, janobi oliy, Saratovdan... Bala-shovdan... — deb nolib ketdi ko‘zlarini piri-piratib, novcha, bo‘yni qiltiriy yigit, mallarang patak sochlarini qashlab.

Grigoriy ko‘k forma kiygan yigitlarni, ularning qishloqi bashalarini, piyoda askarga xos xarob ahvolini ichi achishib tomosha qilardi. Yolg‘iz haligi mo‘g‘ulbashara ko‘ngliga yoqmagan edi. Masxara qilib, zahrini sochib, o‘shani gapga soldi:

— Otganimga iqorman degin? Sen hech bo‘lmaganda, qizilarda rotani tebratgandirsan? Komandirmisan? Kommunist? O‘qim tamom bo‘ldi dedingmi? Shu qilmishing uchun biz seni qilich bilan tilimlasak, qalay bo‘larkin?

Qizil askar miltiq qo‘ndog‘i majaqlagan burnini chimirib, dadil javob berdi:

— Maqtanish uchun bo‘ynimga olganim yo‘q. Nimasini yashiraman? Otdim, demak, iqror bo‘lish kerak... To‘g‘rimi, axir? Lozim topsangiz... o‘ldiring. Men sizlardan... — yana kulimsiradi, — yaxshilik kutmayman, chunki sizlarni bekorga kazak degan emas.

Gapi ma‘qul tushib, hamma iljaydi. Grigoriy soldatning bama‘ni mulohazasi va yoqimli ovozidan ta‘sir lanib chetga chiqdi. Asirlar suv ichgani quduq tomonga ketdilar. Vzvod-vzvod bo‘lib saf tortgan piyoda askarlar tor ko‘chadan chiqa boshladi.

Polk keyinchilik ilon izi front yo‘llarida kezib yurganda, uzluksiz jang qilgan paytlarda Grigoriy har gal dushman bilan to‘qnashganida, unga bevosita yaqinlashganida ana shu qizil askarlarga, ana shu ajo-yib rus soldatlariga nisbatan ko‘nglida bo‘lgan zo‘r hissiyotdan, ularning qanday odamligini bilgisi kelaverganidan — ko‘ngli bezovta bo‘lishini aniq sezar va ular bilan nega urushayotganini tushunolmay boshi qotardi. Go‘yo to‘rt yillik urushning birinchi kunlaridagi sodda, laqma xayollaridan hali ham qutulmaganga o‘xshar, xuddi, Leshnyuv yonidagi qo‘rg‘ondan turib birinchi marta avstro-venger askarlarini va aravalarini tomosha qilgan paytidagiday: «Bu qanday odamlar? Kim bular?» — degan savollar unga tinim bermasdi. Go‘yo, umrida hech narsa ko‘rmaganga, hatto Glubokaya yonida Cherensov otryadiga qarshi jang qilganini ham unutganga o‘xshardi. Lekin u vaqtda dushman kimligini, ularning turqi-atvorini Grigoriy yaxshi bilardi, ularning ko‘pchiligi donlik ofitser, kazaklar edi. Ammo bu yerda allaqanday boshqacharoq odamlar bilan — rus soldatlari bilan urushishga to‘g‘ri kelardi, bular yoppasiga ko‘ksini qalqon qilib, Sovet hukumatini himoya qilishar, Grigoriyning nazarida, kazaklarning butun yer-u suvini tortib olishga intilishayotganday tuyulardi.

Grigoriy bir kuni qo‘qqisidan soydan chiqib kelayotgan qizil askarlarga ro‘para kelib qoldi. U bir vzvod kazakni olib, razvedkaga chiqqan edi; soy ikki yoqqa ajralgan joyga yetganda g‘ovur-g‘uvur ruscha gaplar, shitir-shitir oyoq tovushlari birdan qulog‘iga kirdi. Bir necha qizil askar — bittasi xitoy edi — jar tepasiga chopib chiqishdi va kazaklarni ko‘rib anqayganicha qotib qolishdi.

— Kazaklar! — deb bittasi qo‘rquv aralash xirillab baqirdi-yu, quladi.

Xitoy o‘q uzdi. O‘sha zahoti haligi yiqilgan odam labi labiga tegmay entikib, yana chinqira boshladi: — O‘rtoqlar! «Maksimka»ni obchiq! Kazaklar!..

— Bo‘lsang-chi, axir! Kazaklar!..

Mitka Korshunov xitoyini nagan bilan otib qulatdi va otini shartta burib, Grigoriyning otini surib, oldinga o‘tib oldi-da, jilovni siltab, qiyalama jar yoqasi bilan ilon izi qilib ura qochdi. Uning ketidan boshqa



kazaklar ham biri-biridan o'zib, qoch-qochga tushdilar. Pulemyot ortlaridan sayrab qoldi, o'qlari jar yoqasida o'sgan tog'olcha va qorag'at barglarini shipirib ketdi, soy toshlarining titig'ini chiqarib yubordi.

Yana bir necha marta Grigoriy qizillar bilan betma-bet to'qnash keldi, kazaklar o'qidan qizil askarlarning tappa qulashlarini va begona yerlarda jon berishlarini ko'p ko'rdi.

Bora-bora Grigoriyning ko'nglida bolsheviklarga qarshi g'azab uyg'ondi. Chunki u: «Tinch hayotimni shular buzdi, yerimdan, tirik-chiligimdan shular bezdirdi» deb gumon qilardi. Boshqa kazaklar ham shu xayolga muhtalo bo'lganini u bilib turardi. Bu urushning bunchalik cho'zilishini hammasi bolsheviklardan, viloyat tuprog'iga ularning bostirib kirganidan ko'rardi. Mana shu yarmi o'rilib, yarmi o'riqsiz qolib ketgan, ot tuyoqlari tagida toptalib yotgan bug'doyzorlarga qaragan sari, har qaysisi egasiz qolgan o'z xirmonini, o'z ekinzorini eslar va uyda kuyib-pishib, darmoni qurib ishlayotgan xotin-xalajni ko'z oldiga keltirib battar g'azabi qo'zir, yuragi toshga aylanardi. Ba'zan jang paytlarida Grigoriyning nazarida, mana shu tambovlik, ryazanlik, saratovlik mujik dushmanlari ham xuddi shu niyatda yer talashib jang qilayotganga o'xshardi. «Qayliq talashganda ham bunchalik bo'lmas...» — o'ylardi Grigoriy.

Asir olish kamayib ketdi. Asir tushganni vahshiyona o'ldirish rasm bo'ldi. Front bo'ylab talonchilik avjiga chiqdi; bolsheviklarga xayri-xoh deb gumon qilinganlarni, qizil askar oilalarini talashar, asirlarni qip-yalang'och tunab olishardi...

Duch kelgan narsadan qaytishmas: ot-ù aravadan tortib, mutlaqo keragi yo'q buyumlarni ham olaverishardi. Kazaklar ham, ofitserlar ham bir-birlaridan qolishmasdilar. Aravadan istagan narsa topilardi. Kiyim-kechak, samovar, tikuv mashinasi, ot abzali. Ishqilib, ko'zga ilinadigan hamma narsa aravaga ortilgandi. Aravalardagi o'ljalar uylariga yuboriladi. Qavm-qarindoshlari o'q, oziq-ovqat ortib bajon-u dil bu yerga kelishar, talab olingan buyumlarni aravalariga bosib qaytishardi. Xususan, otliq polkdagilar haddan oshgan edilar. Piyoda askarda yolg'iz xaltadan boshqa buyum qo'yadigan joy qayda. Ammo otliq askarning yo'li boshqa, xurjunga, egar qoshiga, bo'ktarmaga joylab olavergandan keyin ostidagi jonivor harbiy otga emas, yuk ortgan ulovga o'xshaydi-qoladi. Shovvozlarda juda bebosh bo'lib ketdi. Kazaklarni

urushga qiziqtirgan, olg'a sudragan eng muhim kuch talonchilik edi. Grigoriy buni o'tgan urushlarda qatnashgan qariyalarning hikoyasidan bilar, o'z tajribasida ham ko'rgan edi. Germaniya bilan urush ketayotgan o'sha kezlarda, polk Prussiya ichkarisida yurgan kunlarda, brigada komandiri, nomi chiqqan general, o'n ikki yuz kazakni saf qilib, qir tagiga joylashgan kichkina shaharchani qamchisi bilan ko'rsatib:

— Olsangiz, ikki soatgacha shaharni o'z'laringga qo'yib beraman. Lekin ikki soatdan keyin kim qo'lga tushsa, otib tashlayman! — degan edi.

Lekin bu koribad Grigoriyning mijoziga to'g'ri kelmasdi. U faqat yeydigan ovqat va otiga yem olardi, xolos. Birovning narsasiga qo'l tekkizishga hazar qilar, olgan odamdan nafratlanar edi. Ayniqsa, u kazaklar kazaklarni talashiga chidolmas: bu o'taketgan sharmandagarchilik, deb tushunardi. O'z kazaklarini u qattiq tergadi. Uning odamlari kamdan kam talonchilik qilishar, qilganda ham buni unga bildirmasdilar. U asir tushganni yechintirishga, otib o'ldirishga yo'l bermasdi. Undagi haddan ziyod rahmdillik kazaklar va polk boshliqlari orasida norozilik tug'ilishiga sabab bo'ldi. Izoh berish uchun uni diviziya shtabiga chaqirtirdilar. Amaldorlardan biri dag'allik bilan unga baqira boshladi:

— Sen nega kazaklarni buzyapsan, xorunjiy? Nega buncha liberrallik qilasan? Har ehtimolga qarshi o'zingni rahmdil qilib tanitmoqchimisan? Eski qilig'ing qo'zib, ikkiyuzlamalikka o'tib oldingmi?.. Nega senga baqirib bo'lmas ekan?.. Bas, gap aralashтира! Intizomni bilmaysanmi? Nima, bo'shatib qo'yaylikmi? Bo'shatamiz ham! Buyuraman, shu bugunoq sotnyani topshir! Ha, judayam haddingdan oshma, uka!..

Oyning oxirida polk yonbosh tomonda kelayotgan 33-Yelan polkining sotnyasi bilan birgalikda Gremyachiy Log qishlog'ini ishg'ol etdi.

Jar tagida tol, sandip, terak aralash uzunasiga ketgan qalin daraxtzor, yonbag'irda o'ttizga yaqin oppoq uy joylashgan, atrofi soy toshi bilan o'ralib, pastak devor olingan. Qishloq ortidagi do'ngda eski shamol tegirmon bor, qayoqdan yel tursa ham ishlayveradi. Tepa orqasidan bostirib kelayotgan oppoq bulutlarning qoramtir qanotlari qiyshaygan but shaklida qotgan-u qolgan. Havo bulut, dam-badam yomg'ir quyardi. Jar ichida shamol o'ynar, sarg'aygan daraxt barglarini shitirlatib

uchirib yurar edi. Sershox qizil tol qip-qizil bo'lib tovlanadi. Xirmonlarda uyilib yotgan somonlar yiltiraydi. Chuchmal hid anqigan yer bethini xazon bosib yotibdi.

Grigoriy ishboshi ko'rsatgan uyga o'z vzvodi bilan joylashdi. Uy egasi qizillarga qo'shilib ketgan edi. To'ladan kelgan kampir bilan bo'yi yetmagan qizi kazaklarga manzur bo'lish uchun yugurib-yelib xizmat qila boshladilar. Grigoriy oshxonadan mehmonxonaga o'tib, uy ichiga nazar tashladi. Bu oilaning o'ziga to'q yashagani ko'rinib turardi: pollari bo'yalgan, stol-stul, toshoyna, devorlarida harbiylarning suratleri, qora ramkada maktabdan berilgan shahodatnoma osig'liq. Grigoriy ivigan chakmonini pech yoniga osib qo'ydi-da, tamaki o'radi.

Proxor Zikov kirdi, miltig'ini karavotga suyab, beparvolik bilan xabar qildi:

- Aravakashlar keldi. Dadangiz ham bor, Grigoriy Panteleyevich.
- Yo'g'-e?! Valdirama!
- Rost. Unikidan boshqa, bizning qishloqdan yana oltitacha arava bor. Chiqib kutib ol!

Grigoriy shinelini yelkasiga tashlab, uydan chiqdi, Panteley Prokofyevich otlarni yetaklab, darvozadan kirib kelaverdi. Arava ustida xonaki chakmonga o'ralib, Darya o'tirardi. Tizgin uning qo'lida edi. Ivigan chakmonining boshlig'i tagidan Daryaning ko'zlari yiltirar, Grigoriyga kulib boqardi.

— Nechuk xudo yarlaqadi, hamqishloq? — deb kuldi otasiga Grigoriy.

— Ha, bolam, tirikmisan? Mehmonga keldik, shuning uchun so'ramasdan kirib kelyapmiz.

Grigoriy bora solib otasini quchoqladi va pastromkalarini yecha boshladi.

- Kutmagan bo'lsang kerak, Grigoriy?
- Yo'q.
- Bizgayam arava solishganakan... Zo'rlab yuborishdi. Sizlarga to'p o'qi olib keldik, ishqilib, urushni bo'shatmanglar.

Otlarni chiqarayotib, ota-bola u yoqdan bu yoqdan gaplashishardi. Darya yegulik ovqatlarini va ot yemini aravadan tushirardi.

- Sen nega kelding? — deb so'radi Grigoriy.

— Otamga qarashib keldim. Tobi yo‘q, Spasdan beri o‘ziga kelolmaydi. Onam meni qo‘shib yubordi: bir gap bo‘lsa, begona yoqlarda yolg‘iz qolib ketmasin deb qo‘rqdi...

Panteley Prokofyevich otlarga ko‘m-ko‘k va xushbo‘y pichan soldi-da, Grigoriyning oldiga bordi, kasallikdan qizargan ko‘zlarini ola-kula qilib, xirillab, shivirlab so‘radi:

— Xo‘sh, ishlar qalay?

— Tuzuk. Urushyapmiz.

— Kazaklar chegaradan nari chiqmaymiz deganmish. To‘g‘rimi shu?

— Quruq gap... — deb mujmal javob berdi Grigoriy.

Chol arazlagansimon chalakam-chatti gapirib ketdi:

— Bu qanday gap, yigitlar? Bu nimasi, a? Qariyalar sizlarga ishonadi... Sizlardan boshqa yurtimiz Donni himoya qiladigan kimimiz bor? Endiki sizlar, xudo ko‘rsatmasin, urushdan bosh tortadigan bo‘lsangiz... Bu qanday ko‘rgilik? Aravakashlaring bo‘lmag‘ur gaplarni tarqatib yurishibdi... G‘alamislik qilishyapti, itvachchalar!

Uyga kirishdi. Kazaklar to‘plandilar. Oldin qishloq yangiliklari atrofida gap bordi. Darya uy bekasi bilan shivirlashib olgandan keyin xaltani yechdi, olib kelgan ovqatlarini dasturxonga qo‘ydi.

Panteley Prokofyevich paxmaygan soqolini muguz taroq bilan tarayotib so‘radi:

— Seni yuzboshilikdan bo‘shatishibdi deb eshitdim, to‘g‘rimi?

— Men hozir vzvod komandiriman.

Grigoriyning beparvolik bilan bergan javobi, chol yuragiga pichoqday sanchildi. Panteley Prokofyevich peshonasini tirishtirib, oqsoqlanib stol yoniga bordi-da, shosha-pisha cho‘qindi va chakmon etagi bilan qoshiqni artib o‘pkalagansimon so‘radi:

— Bunchalik qattiq ketishganining boisi nima? Yoki boshliqlariningni xafa qildingmi?

Kazaklar oldida Grigoriy bu gapdan og‘iz ochgisi kelmay, alamiga chidolmay kiftini qisib qo‘ydi.

— Yangi odam keldi... Ma‘lumotli ekan.

— Sen xizmat nimaligini ularga ko‘rsatib qo‘y, o‘g‘lim! Odaming qadr-qimmatini tezda bilib olishadi! Ho, ma‘lumotligi kerak bo‘lib qolibdi-da! Men Germaniya urushidan shundoq bilimdon

bo'lib qaytganmanki, uncha-muncha ko'zoynaklikni bir cho'qishda qochiraman!

Chol achchiqlanar, Grigoriy bo'lsa yuzlarini burishtirardi, atrof-dagilarga ko'z qirini tashlab: «Kazaklar kulyaptimikin?» deb xijolat bo'lardi.

Amaldan pastlatilgani uchun Grigoriy xafa bo'lgani yo'q. U sotnyani bajon-u dil topshirdi, chunki hamqishloqlarining hayoti uchun javobgarlikdan qutulganini tushunardi. Shunday bo'lsa ham, ko'ngli biroz ranjigan edi, otasi shu to'g'rida gap qo'zg'ab, yarasiga battar tuz sepd.

Uy bekasi oshxonaga chiqib ketdi, Panteley Prokofyevich hamqishlog'i Bogatiryovning kelishidan foydalanib va unga suyanib, yana boyagi gapni qo'zg'adi:

— Demak, rostdanam chegaradan nari chiqmaymiz degan xayoldamisizlar?

Proxor Zikov buzoq ko'zlarini pirpiratib iljayar, churq etmas edi. Mitka Korshunov pech yonida cho'qqayib olib, barmoqlarini kuydirib, tamakisini so'rardi. Qolgan uch kazak so'rida yonboshlab yotar-di. Bogatiryov xafa bo'lib qo'l siltadi-da, yo'g'on ovoz bilan:

— Unday gaplarga baribir bular parvo qilmaydi. Olamni suv bossa, to'pig'iga chiqmas... — dedi.

— Negaradan nari chiqish zarurmi? — deb so'radi yuvoshgina kasalmand kazak Ilin. — Nega kerak-a? Mening xotinim o'lgan, bolalarim yetim qolgan, bekorga o'lib ketaversam bo'lar ekan-da...

— Kazaklar yurtidan dushmani surib chiqaramiz-u, uyuyimizga ketaveramiz! — deb uning gapini tasdiqladi ikkinchi kazak.

Mitka Korshunov ko'zlari bilangina kuldi, ingichka maysa mo'ylovini buradi.

— Menga qolsa, yana besh yil urushaveraman. Ishqibozman!

— Chiqlaring! Otni egarla!.. — degan ovoz keldi hovlidan.

— Ana ko'rdingizmi? — deb alamzadalik bilan xitob qildi Ilin. — Qo'ryapsizmi, otalar! Ust-boshimiz qurimay turib chiqlaring, deyishadi. Yana pozitsiyaga jo'natishadi, chog'i. Siz bo'lsangiz chegara deysiz. Chegarani kim qo'yibdi! Uyga qaytish kerak! Sulh tuzishga harakat qilish kerak, sizni qarang-ku...

Yolgʻondakam trevoga koʻtarilgani maʼlum boʻldi. Grigoriy dargʻazab boʻlib, otini hovliga yetaklab kirdi, bekordan bekorga uning choviga etigi bilan tepdi va koʻzlarini oʻqraytirib baqirdi:

— Jin tegdimi, badbaxt? Oyogʻingga qarab yur! Panteley Prokofyevich eshik oldida tamaki tortar edi. Kazaklar kirib boʻlgandan keyin:

— Nima ekan? — deb soʻradi.

— Trevoga!.. Podadagi sigirlarni qizillar deb gumon qilishibdi.

Grigoriy shinelini yechib, stol qoshiga oʻtirdi. Kazaklar inqillab yechinishar, qilichlarini, miltigʻ-u oʻqdonlarini kursiga tashlashardi.

Hamma yotgandan keyin, Panteley Prokofyevich Grigoriyni hovliga chaqirdi. Ota-bola zinapoyaga oʻtirdilar.

— Sen bilan gaplashmoqchi edim. — Chol Grigoriyning tizzasiga turtib shivirladi. — Oʻtgan hafta Petroning oldiga borgan edim. Ularning yigirma sakkizinchi polki hozir Qalach yonida... Ishqilib, quruq qaytmadim, bolam. Petro — chakki bola emas: roʻzgʻor nimaligini yaxshi biladi! Menga bir qop kiyim-kechak, bitta ot, anchagina qand berdi... Binoyiday ot...

— Shoshmang! — deb shartta gapini boʻldi Grigoriy, otasi nimaga shama qilayotganini fahmlab, — mening oldimga ham shuning uchun keldingizmi?

— Xoʻsh?

— Nima, xoʻsh?

— Hamma olyapti-ku, Grisha...

— Hamma, olyapti emish! — deb takrorlardi Grigoriy gʻazabidan boshqa soʻz topolmay. — Oʻzingizniki kammi? Xah, surbetlar! German frontida bunaqa ish qilgan odamni turgan joyida otib tashlashardi.

— Oʻpkangni bos! — deb toʻxtatdi chol uni sovuqqina. — Sendan hech nima soʻrayotganim yoʻq. Menga hech narsang kerak emas. Bugun tirikman, ertaga yoʻqman... Sen oʻzingni oʻyla, oʻz gʻamingni yegin. Seni qara-yu, rosa boy boʻlib ketibsanmi deyman! Uyda yolgʻiz arava qoldi, xolos, sen boʻlsa... Qizillarga qoʻshilib ketganlarniki-ni olaver-da, andisha qilib oʻtirasanmi?... Olmasang, qaytaga gunoh boʻladi! Roʻzgʻorga yaraydigan narsa boʻlsa qoʻyma!

— Siz bu gaplaringizni menga aytmang! Yoʻqsa, shu topda duminigizni tugib qoʻyaman! Men bunday ish uchun kazaklarning tumshugʻi-

ni yorganman, endi o'z otam kelib, aholini talagin deb o'tirsa! — Grigoriy qaltirab, entikib zo'rg'a nafas olardi.

— Mana shu fe'ling uchun yuzboshilikdan haydashgan-da! — deb uzib oldi chol.

— Kerak emas menga bunaqa amal! Vzvodidan ham kechib yuboraveraman...

— Bo'lmasa-chi! Aqlingga balli, aqlingga...

Ikkisi jimib qolishdi. Gugurt chaqib, tamaki tutatar ekan, xijolat tortgan va arazlagan otasining yuziga Grigoriyning ko'zi tushdi. Otasining bu yerga kelish sababini ham endi tushundi. «Daryani ham ola kelibdi, imonsiz chol! Haromdan orttirgan buyumlarga yo'lda qorovul kerak-da!» — deb o'ylar edi Grigoriy.

— Stepan Astaxov keldi. Eshitingmi? — dedi loqaydlik bilan Panteley Prokofyevich.

— Yo'g'-e! — Grigoriy shoshganidan papirosini tushirib yubordi.

— Rost. Asir tushgan ekan, o'lmagan ekan. O'ziyam rosa bitib ketibdi. Kiyim-kechak, buyum demaganning son-sanog'i yo'q! Ikki aravaga bosib keldi, — deb lof urdi chol, go'yo, Stepan bilan qarindoshday, uni maqtab. — Aksinyani olib keldi, xizmatgayam o'rmashib oldi. Yaxshi vazifaga tayinlashibdi: allaqayerdayam etap komendantimish; Kazanskayada bo'lsa kerak.

Grigoriy gapni boshqa yoqqa burdi:

— Bu yil qancha don oldinglar?

— To'rt yuz chorak.

— Nevaralaringiz qalay?

— Nevaralarim azamat, ko'rsang, havasing keladi! Bolalaringga sovg'a yuborsang bo'lardi.

— Frontda sovg'a nima qilsin! — deb xo'rsindi Grigoriy; uning xayoli Aksinya bilan Stepanda edi.

— Birona miltiq topilmasmikin senda? Ortiqchasi yo'qmi?

— Miltiqni nima qilasiz?

— Uyga kerak-da. Yirtqich hayvon, yomon odam ko'p. Kerakli toshning og'irligi bormi? Bir yashik liq to'la o'q bekitib qo'yibman. Tashiyotganda o'marib qolgan edim.

— Obozdan ola qoling. Bu xil matohdan topiladi, — Grigoriy xunuk iljaydi. — Qani, kirib yoting! Men hali zastavaga borishim kerak.

Ertalab polkning bir qismi qishloqdan jo'nadi. Grigoriy ko'ngli to'q bo'lib: otasiga qattiq tanbeh berganiga va endi uning quruq qaytib ketishiga ishongan edi. Biroq Panteley Prokofyevich kazaklar ketib bo'lgandan keyin, to'g'ri omborxonaga kirdi-da, qoziqdagi xomut-ut ot abzallarni olib chiqib aravasiga bosdi. Uy egasining xotini uning ketidan ko'z yoshi to'kib ergashib baqirar, kiftlariga osilib yalinardi:

— Voy, sho'rim qurisin! Aylanay! Xudodan qo'rqmaysanmi? Yetimlarni nega xo'rlaysan, axir? Xomutni ber! Ber, deyman, xudo haqi, ber!

— Bas-bas, xudoga til tekkizma! — deb chuldirab Melexov xotinni itarib, oqsoqlana-oqsoqlana ketardi. — Sizlarning erlaringiz ham, paytini topsa, bizni talab olardi. Seniki-ku, albatta komissar-a?.. Qoch, deyman! Seniki-meniki yo'q, hammasi xudoniki, jim, ko'p noliyverma!

So'ngra, indamay qarab turgan obozchilar ko'z oldida sandiq qulflarini sindirdi-da, chalvar va mundirlarning yaxshi-yaxshisini tanlab, yoruqqa tutib, g'ijimlab ko'rib ajratdi, bo'xcha-bo'xcha qilib bog'ladi...

Chol peshinga yaqin jo'nadi. Aravaga to'lg'izib bosilgan tugunlar ustida, yupqa lablarini chirt yumib olgan Darya o'tirardi. Arava ketiga kattakon qozon to'ntarilib qo'yilgan edi. Panteley Prokofyevich bu qozonni hammom o'chog'idan buzib olib, arava yoniga zo'r-bazo'r ko'tarib borganda, Darya:

— Hech narsadan qaytmaydigan bo'libsiz, ota! — deb sasib berdi.

— Ovozingni o'chir, mochag'ar! — deb o'dag'ayladi. — Qozonni ularga qoldirib bo'libman! Sen nimani bilarding, Grisha ikkoving sira odam bo'lmaysan! Menga qozon juda asqotadi. Shunday, ha!.. Qani, chu de! Nega labingni cho'chchaytirasani!

Aravani chiqarib, darvozasini berkitayotgan, yuzlari yig'idan shishgan bechora xotin bilan muloyim xayrlashdi:

— Xayr, oyimtilla! Xafa bo'lma! Hali bunaqa buyumdan ko'p to-pasiz!

## X

Kunlar bir-biriga ulangan zanjir halqasiga o'xshab ketma-ket o'tardi. Yo'l yurish, jang qilish, dam olish. Jazirama issiq. Yomg'ir. Terlagan otlarning va qizigan egar charmlarining hidi dimoqqa uri-



ladi. Diqqatpazlikdan, tomirlarga qon emas, qizdirgan simob quyib qo'yganday tuyuladi. Doim uyqu chala bo'lavergandan bosh to'p o'qiday og'irlashib ketadi. Grigoriyning picha dam olgisi, to'yib-to'yib uxlagisi keladi! Undan keyin o'rnidan tursa-yu, yumshoq tuproqni bosib plug ketidan yursa, ho'kizlarga «xo'sh-xo'sh» desa, moviy osmonda uchib o'tayotgan turnalar ovozigiga quloq solsa, yuziga yopishgan mezonni ohista olib tashlasa va haydalgan yerning kuzgi hovurini, sharbatdek hidini iskayversa, iskayversa.

Lekin buning o'rniga ekinzorlarni qilichday kesib o'tgan ilon izi yo'llarda sargardon bo'lib yuribdi. Yo'llarda gala-gala yalang'och, chang bosgan, aft-basharasi qop-qorayib ketgan asirlar... yo'l changitib kazaklar o'tadi, taqalar ostida ekinzor yana payhonlanadi. Qishloqlarda bo'lsa, pashshaxo'rdalikka o'rgangan odamlar, qizillarga qo'shilib ketgan kazaklarning uylarini titishadi, ularning onalarini va xotinlarini qamchilab savashadi...

Kunlar diqqinapaslikda zo'rg'a o'tar edi... Nimalar bo'lgani, qanday hodisalar ro'y bergani eslarida turmas, hatto, eng muhim voqealar ham darhol eslaridan chiqib ketar edi. O'tgan urush paytidagiga qaraganda, hozirgi kunlarning hech qanday qiziqtiradigan joyi yo'qqa o'xshardi, balki bunga hamma narsaning ilgaridan ayonligi, ko'rmagan va bilmagan narsa qolmaganligi sababdir. Ammo ko'pdan beri urushda yurib, o'rganib qolgan kazaklar hozirgi urushni pisand qilmasdilar. Ko'lami jihatidan ham, unda qatnashgan kuchlar va ko'rilgan talafot jihatidan ham — german urushiga solishtirib ko'filsa — hozirgisi o'yinchoqday bir gap edi. Yolg'iz bir narsa Prussiyadagi ahvolni eslartardi. U ham bo'lsa, yuragingni hovuchlab yurishga majbur etgan ajal vahmi edi.

— Shuyam urush bo'libdimi? Anchayin bekinmachoqqa o'xshaydi. German urushida nemis demaganing to'pga tutgandan keyin butun boshliq bir polkni qirib tashlardi. Endi-chi, sotnyada ikki odamga o'q tegsa bas — talafot, deb qichqirishadi! — deb masxara qilishardi front ko'rgan eski kazaklar.

Lekin mana shu bekinmachoq urush ham jonga tekkan edi. Norozilik, charchashlik, alamzadalik tobora ortardi. Kazaklar orasida:

— Don yerlaridan qizillarni surib chiqaramiz-u, bo'ldi qilamiz! Chegaradan nari o'tmaymiz. Rossiya o'z holiga, biz ham o'z

holimizcha yashayveramiz, baribir biz Rossiyada o'z tartibimizni o'rnatolmaymiz, degan qat'iy ovozlari eshitila boshladi.

Filonovning yonida butun kuz bo'yi janglar sust davom etdi. Eng muhim strategik punkt Saritsin bo'lib, oqlar ham, qizillar ham eng yaxshi kuchlarini shu yoqqa tashlagan, ammo shimoliy frontda har ikkala tomonning qo'li baravar; har ikki tomon ham qat'iy hujum boshlash uchun kuch to'plamoqda edi. Kazaklar o'zlarida otliq askarning ko'pligidan foydalanib, murakkab operatsiya usullarini qo'llashar, ikki yonboshdan bostirib kirishar, orqa tomonga o'tib olishardi. Qarshilarida turgan qizil askarlarning aksariyati yaqindagina front atrofidagi qishloqlardan mobilizatsiya qilingan xom va og'machi odamlar bo'lgani uchun, kazaklarning qo'li baland edi. Saratovliklar, tambovliklar ming-minglab asir tushardilar. Ammo qo'mondonlik ishchilar polkini, matroslar otryadi yoki otliq askarni ishga soldi deguncha, ahvol tubdan o'zgarar, tashabbus qo'ldan qo'lga o'tib, goh u tomon, goh bu tomon mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan g'alaba qozonar edi.

Grigoriy urushda qatnashgani bilan, uning qanday ketayotganiga beparvo qarardi. Qishga dovur front tugashiga u qattiq ishongan edi; kazaklarda yarashish kayfiyati kuchli ekanini, urushni uzoqqa cho'zish mumkin emasligini ham bilardi. Polkka ahyon-ahyonda bir marta gazeta kelardi. Grigoriy sap-sariq; o'rov qog'ozga bosilgan «Yuqori Don o'lkasi» gazetasini jirkanib qo'lga olardi-da, naridan beri front svodkalarini qarab chiqar, tishlarini g'ijirlatardi. Agar u lof urib maqtab yozilgan quyidagi satrlarni baland ovoz bilan kazaklarga o'qib berganida, hammasi bab-baravar qotib-qotib kulishardi:

27-sentabrda Filonovo tomonidagi janglarda omad qo'ldan qo'lga o'tib turdi. 26-ga o'tar kechasi shavkatli Vyoshensk polki Podgoruiy qishlog'idan dushmani surib chiqardi va uni izma-iz quvib, Lukyanovskiy qishlog'iga bostirib kirdi. Son-sanoqsiz o'ljalar va juda ko'p asirlar qo'lga olindi. Qizillar tartibsiz chekinmoqda. Kazaklarning ruhi baland, Don askari yangi g'alabalar sari intilmoqda!

— Biz qancha asir olganmishimiz? Juda ko'p debdimi? Vo-oh itvachchalar-ey! Bor-yo'g'i o'ttiz ikkita-ku! Obqochishini qara... ho-ho-ho-ho!.. — deb kulardi Mitka Korshunov, tishlarining oqini ko'rsatib, qo'llari bilan biqinini ushlab.

«Kadetlar»ning Sibirda va Kubanda g'alaba qozonayotgani to'g'risidagi xabarlariga ham kazaklar ishonmasdilar. Chunki «Yuqori Don o'lkasi» gazetasi yolg'on-yashiq gaplarni yozishi hammaga ayon bo'lib qolgan edi. Qo'llari uzun, novcha bo'yli Oxvatkin degan kazak, chexoslovak qo'zg'oloni to'g'risidagi maqolani o'qib chiqqach, Grigoriyning oldida shunday dedi:

— Shoshmay tur, chexlarni bosib olsin, innaykeyin ko'rasan: o'sha yerdagi tamomiy askari bilan bizga qarshi shunday hujum boshlaydiki, sichqonni inini ming tangaga olasan... O'z oti bilan — Raseya! Raseya bilan o'ynashmoqchimisan! — deb tamomladi vahimali qilib.

— Ko'p vahima qilma! Bema'ni gaplarni eshitsam ensam qotadi, — deb qo'l siltadi Proxor Zikov.

Tamaki o'rayotgan Grigoriy o'ylanib turib, qaytaga suyundi va o'zicha: «To'g'ri!» degan qarorga keldi.

O'sha kuni kechqurun Grigoriy ko'ylak yoqalarini ochvorib, enkaygan holda, stol yonida uzoq o'tirib qoldi; ko'ylagi ham, yelkasidagi pogonlari ham oftobdan o'ngib ketgan edi. Oftob olgan qoramag'iz yuzining chuqurchasi va yonoq suyaklari beti shishganlikdan silliq ko'rinardi, qovog'i soliq edi. U hadeb qoraygan go'shtdor bo'ynini qimirlatar, jingalak bo'lib, oftobda sarg'ayib ketgan mo'ylovining uchini burar va qadimgi o'ynoqiligini butunlay yo'qotgan yovuz ko'zlarini bir nuqtaga tikib olganicha xayol surardi. Miyasi zilday og'irlashgan, o'ylab o'yiga yetolmasdi; nihoyat, yotishga hozirlandi va hammaning miyasidagi savolga javob berganday:

— Borarga joy qolmadi! — deb yubordi.

Tuni bilan uxlamadi. Dam-badam chiqib otidan xabar olar va zina-poyada uzoq turib qolardi.

\* \* \*

Xullasi kalom, Grigoriyning yulduzi hali so'nmagan, osmonda lillab turgan ekan; demak, bu yulduzning joyidan ko'chishi, osmon bag'rida sovuq nur sochib uchishi uchun hali vaqt-soati bor ekan. Bir kuzning o'zida Grigoriyning ostida uch ot o'q yeb o'ldi, shineli besh joyidan ilma-teshik bo'ldi. Ajal qora qanoti bilan uni yelpib o'tar, jo'rttaga hazillashganday bo'lardi. Hatto o'q bir kuni qilichining mis

dastasiga kelib tegdi, shokilasi cho'rt uzilib ketdi-da, uchib borib, ot oyog'i tagiga tushdi.

— Birov sening haqingga ko'p duo qilyapti-da, Grigoriy, — dedi Mitka Korshunov, biroq uning xunuk iljayganini ko'rib hayron qoldi.

Front temiryo'ldan nariga o'tib ketgan edi. Har kuni aravalar o'ram-o'ram tikanli sim olib kelar edi. Har kuni telegraf frontga buyruq yog'dirishini qo'ymasdi:

Bugun-erta ittifoqdoshlarimizning askarlari yetib keladi. Madadchilar kelgunga qadar, muzofot chegaralarida mahkam turish, qizillar siquviga bardosh berish, hujumini to'xtatish lozim.

Safarbar etilgan aholi lom va cho'kichlar bilan muzlagan yerni o'yishar, okop qazishar, ularning atrofiga tikanli sim tortishardi. Kechalari kazaklar, okoplarni tashlab, isingani uy-uyga kirib ketishardi, darhol razvedkachi qizillar kelib, qoziqlarni sug'urishar va kazaklarga qarata yozilgan xitobnomalarni zanglagan sim tikanlarga ilib ketishardi. Kazaklar buni, xuddi uydan kelgan xatday talashib o'qirdilar. Ahvolki shu darajaga yetgandan keyin, urushni davom ettirish mumkin emasligi hammaga ma'lum edi. Goh qahraton sovuq turar, goh kun ilib qor yog'ardi. Okoplarni qor bosib qolardi. Okopda bir soat chidab turish amri mahol edi. Kazaklar to'ng'ishar, oyoq-qo'llarini sovuq olar. Piyoda va plastunchi qismlardagilarning ko'pchiligi etiksiz edi. Ba'zilar bo'lsa, molning tagini tozalash uchun chiqqan odamday, yupqa chalvar-u choriq kiyib uydan jo'nayvergan. Ittifoqdoshlarga hech kim ishonmasdi. Bir kuni Andryushka Kashulin alamiga chidolmay: «Toshbaqa minib kelishyapti!» deb masxara qildi. Har gal razyezdlar to'qinish kelganda, qizillar olisdan turib kazaklarni chaqirishardi: «Hoooy! g'arib va miskin bandalar, qo'limizga tusha ko'rmang! Tuyoqlaringni shiqillatib qolinglar, bo'lmasa abjaq qilamiz!» — deb kazaklarga qichqirib, ularning jig'iga tegishardi.

Noyabr oyining o'rtalarida qizillar hujumga o'tdilar. Ular kazak qismlarni temiryo'lga dovur surib borgan bo'lsalar ham, lekin frontda qat'iy burilish payti keyinroq boshlandi. 16-dekabrda qizil suvoriylar, uzoq muddatli jangdan keyin, 33-polkni uloqtirib tashladilar, biroq Vyoshensk polki joylashgan Kolodezyansk qishlog'ining yonida shiddatli qarshilikka duch keldilar. Qor bosgan g'aram chetanlarining orqasiga joylashgan vyoshensklik pulemyotchilar, piyoda saf tortib

hujum boshlagan qizillarga qarshi qirg'in o't ochdi. Karginlik o'tkir mergan Antipovning qo'lidagi o'ng qanotga joylashgan pulemyot si-dirg'asiga o't sochar, chopib o'tgan seplarni qirib turar edi. Kazaklar o'q tutunlari ichida ko'rinmay qoldi. Ikki yuz kazak chap yondan kesib chiqmoqchi bo'lib qo'zg'aldi.

Kechga tomon, hujumni susaytirib yuborgan qizil askar qismlari o'rniga, frontga endigina yetib kelgan matroslar otryadi qo'yildi. Matroslar shovqin-suronsiz tikkasiga pulemyotlar ustiga ro'yirost hujum qildilar.

Grigoriy to'xtovsiz o'q uzardi. Miltiq tutay boshladi. Quvuri qizib, qo'lni kuydirdi. Grigoriy miltiqni sovutib, yana bir oboyma o'q joyladi-da, ko'z qisib turib olisda qorayib turgan odamlarni mo'ljalga oldi.

Matroslar ularni chekinishga majbur etdilar. Kazaklar otlariga minib qochdilar va qishloqdan ham o'tib, tepaga chiqdilar. Grigoriy orqasiga burilib qaradi va beixtiyor jilovni qo'yib yubordi. Tepadan uzoq-uzoqlardagi qor bosib yotgan jimjit dalalar, qor ostidan arang bosh ko'targan burganlar va chetlarini sirensimon kechki soya qoplagan jarlar ko'rinardi. Jar bo'ylab to'rt chaqirim joygacha, pulemyot qirib tashlagan matroslar o'ligi xol-xol bo'lib sochilgan edi. Bushlatli va charm kurtkali matroslar olisdan xuddi qorga qo'ngan zag'chalarga o'xshab qorayib ko'rinardi...

Kech kirganda, qizillar hujumidan to'zib ketgan sotnyalar, Yelansk polki bilan ham, o'ng tomonlaridagi Ust-Medveditsa okrugiga qarashli nomerli polk bilan ham aloqalarini yo'qotib, Buzuluk daryosiga quyiladigan kichkina soy bo'yidagi ikki qishloqda tunash uchun joylashdilar.

Qorong'i tushganda Grigoriy, komandirning buyrug'iga muvofiq, chet-chetga pistirma qo'yib kelayotib, tor ko'chada polk komandiri va polk ad'yutantiga yo'liqib qoldi.

— Uchinchi sotnya qayerda? — deb so'radi komandir ot jilovini tortib.

Grigoriy javob berdi. Ikki otliq qo'zg'aldi.

— Sotnyada talafot kattami? — deb so'radi uzoqlashgan ad'yutant. Javobni eshitolmay, qayta savol berdi: — Qancha?

Lekin Grigoriy javob bermasdan ketaverdi.

uyg'onmoqda edi. Oftob yalayverib qorni ilma-teshik qilib yuboradi, tagidan sekin-asta erib jilg'a bo'lib oqa boshlaydi. Kechasi bug' aralash tuman ko'tariladi — qor betini qoplagan yupqa yaxmalak ertalabdanoq qisirlab cho'kadi, ko'm-ko'k qor suvlari yo'llarda va arava izlarida ko'pirib o'ynaydi, ot tuyoqlari ostidan chor atrofga ho'l qor sachraydi. Havo iliq. Dastavval qumloq do'nglarda qor qolmaydi, hamma yoqni bo'z tuproq va chirindi o't hidlari bosib ketadi. Qoq tushda soy bo'ylari guvullagan, shuvullagan ovozga to'ladi, jar yoqalaridagi qorlarning gumburlab ko'chgani eshitaladi, baxmalsimon qoramtir shudgordan hovur ko'tariladi. Kechga tomon qarsillab muz yoriladi-da, dashtdagi kichkina soy iygan yelin singari to'lib-toshib, lopillab oqa boshlaydi, ana o'shanda, qishning bu qadar tez chiqishini kutmagan yo'lovchi soy bo'yida hayron bo'lib turib qoladi, olazarak bo'lib sayozroq joy qidiradi, terlagan va quloqlarini chimirgan otini suvga tushirmoqchi bo'lib, qamchilaydi. Atrofdan esa, oppoq qor yiltiraydi, hamma yoq sukutga cho'mgan...

Polk kun bo'yi chekindi. Yo'llarda aravalari shitob bilan yelib borar edi. Sal o'ngroqda, kulrang bulut qoplangan ufqning narigi tomonlaridan zambarak tovushlari gumburlab kelib turardi. Kazaklar erib ketgan va go'ngga qorilgan yo'llardan borishar, otlari loy tuyoqlari bilan pilchillagan qor kechib borardi. Yo'l yoqalab ordinarretslar ot choptirib o'tishardi. Yiltiroq, ko'kish patli, kalta dum va beo'xshov quzg'unlar, yayov qolgan suvorilar singari, yo'l bo'yida gerdayib, lapanglab yurar va yonlaridan chekinib o'tayotgan otliq kazaklarni, ust-boshi juldur plastunchilarni hamda gala-gala aravalarni paraddagiday ko'zdan kechirardi.

Bu qadar betartib chekinishni endi hech qanday kuch to'xtata olmasligini Grigoriy tushundi. Qulay payt kelganiga suyunib, kechasi o'z ixtiyoricha polkdan jo'nab qoldi.

Grigoriyning shinel ustidan plash kiyib, qilich va nagan taqayotganiga masxaraomuz qarab turgan Mitka Korshunov:

- Qayoqqa otlanyapsan, Grigor Panteleyev? — deb so'radi.
- Nima ishing bor?
- So'radim-da.

Grigoriyning jahli chiqqanidan betlari qizarib, jag'lari pirpirab tursa ham, vaqtichog'lik bilan ko'z qisib javob berdi:

— Borsa kelmasga. Tushundingmi?

Shunday deb uydan chiqdi.

Oti egarlog'liq, tayyor turgan edi.

Tungi ayozda tuman bosgan yo'llardan tong otguncha tinmay otini choptirdi. «Hozirchalik uyga borib turay, sheriklarim qishloqqa yaqinlashganlarida yana polkka qo'shib olarman» degan xayolda, kechagina janglarda birga bo'lgan hamrohlaridan bezganligini yashirib, o'zini ovutmoqchi bo'lardi.

Ertasi kuni kechga yaqin Grigoriy, ikki yuz chaqirimli yo'l azobidan ikki kun ichida ozib ketgan, madori qurib gindiraklab qolgan otini otasining qo'rasiga yetaklab kirdi.

## XI

Noyabr oyining oxirlarida Novocherkasskka ittifoqdosh davlatlarning harbiy vakillari kelgani ma'lum bo'ldi. Novorossiysk gavanida inglizlarning kuchli eskadrasi langar tashlagani, Salonikdan keltirilgan juda ko'p desant qismlar tushirilayotgani, fransuzlarning afrikalik o'qchi korpusi kemadan tushirilib bo'lgani va yaqin kunlar ichida Ko'ngilli armiya bilan birgalashib hujum boshlashi to'g'risida mish-mish gap shaharga tarqaldi.

Krasnov faxriy qorovul uchun leyb-gvardiya Ataman polkining kazaklarini yuborishga buyruq berdi. Ikki yuz yosh atamanlilarga shosha-pisha baland poshnali etik va oq tasmali shop-shalop kiydirdilar, keyin yonlariga yuzta karnaychi qo'shib, shoshilinch sur'atda Taganrogga jo'natdilar.

Janubiy Rossiyadagi ingliz va fransuz harbiy missiyalari, siyosiy vaziyat qandayligini bilish maqsadida Novocherkasskka bir necha ofitser yuborib ko'rishga qaror qildilar. Ular Dondagi ahvol hamda bolsheviklarga qarshi kurash perspektivalari bilan tanishib chiqishlari kerak edi. Angliya tomonidan kapitan Bond bilan leytenantlardan Blumfeld va Monro, Fransiyadan, kapitan Oshen bilan leytenantlardan Dyupre va For yuborilgan edi. Ittifoqdosh harbiy missiyalarning mana shu kichik amaldorlari, taqdir taqozosi bilan «elchi» darajasiga ko'tarilib, ataman saroyida ancha besaranjomlik tug'ilishiga sabab bo'ldi.

Ko'p izzat-ikromlar bilan «elchilarni» Novocherkasskka olib kel-dilar. Umrida ko'rmagan mulozamat va laganbardorliklardan oddiy ofitserlarning boshi aylanib qoldi, o'zlarini haqiqatan ham «ulug'» fahmlab, nomdor kazak generallarini va soxta respublikaning oliy mansabdorlarini nazarga ilmaydigan bo'lib qoldilar.

Yosh fransuz leytenantlari kazak generallari bilan gaplashganda yuzaki xushmuomala, baodoblik hamda siyqasi chiqqan fransuzcha soxta mehribonlikdan tashqari, manmanlik, dimog'dorlik singari so-vuq qiliqlarini ham ko'rsata boshladilar.

Kechqurun saroyda yuz kishiga ziyofat berildi. Ko'pchiligi tenor-lardan iborat bo'lgan harbiy ashulachilar xori ipakday mayin va ajoyib kazakcha qo'shiqlarni kuylab, zaldagilarni sel qilib yubordi, duxovoy orkestr salobatli jaranglab, ittifoqdoshlar gimnini dam-badam chalib turdi. «Elchilar» o'z qadr-qimmatini yerga urmaslik uchun nihoyatda oliftagarchilik va kamsuqumlik bilan taom yeyishardi. Atamanning mehmonlari mazkur paytning tarixiy ahamiyati borligini sezib, yer ostidan «elchilarga» tikilishardi.

Krasnov nutq boshladi.

— Janoblar, siz hozir tarixiy zalda o'tiribsiz. Bu zalning devorla-ridan ilgarigi xalq urushining, ya'ni bir ming sakkiz yuz o'n ikkin-chi yil qahramonlarining jonsiz ko'zlari sizlarga tikilib turibdi. Platov, Ilovayskiy, Denisovlar obrazi bizga — Parij aholisi o'z xaloskorlarini, ya'ni Don kazaklarini tabrik etgan muqaddas kunlarni, xarobaga ay-langan va yer bilan yakson bo'lgan go'zal Fransiyaning imperator Alek-sandr Birinchi boshqatdan tiklagan kunlarni eslatadi...

«Go'zal Fransiya» vakillari esa, simlyanskiy vinosidan ko'proq ichib qo'yganlari uchun kayflari oshib, ko'zlari mijgon bo'lib qolgan edi, ammo Krasnovning nutqini oxirigacha diqqat bilan tingladilar. «Vahshiy bolsheviklar tomonidan ezilgan rus xalqining» boshiga tush-gan og'ir musibatlarni atroflicha tasvirlab bo'lgandan so'ng, Krasnov hayajon bilan nutqini tamomladi.

— ... Rus xalqining eng yaxshi namoyandalari bolsheviklarning zindonlarida halok bo'lmoqdalar. Ularning ko'zlari sizda, ular sizdan yordam kutadilar, siz ularga qo'l cho'zishingiz, Donga emas faqat shu-larga yordam qilishingiz lozim. Biz faxrlanib ayta olamizki, biz ozod-miz! Ammo butun fikr-u zikrimiz kurashdan, maqsadimiz — ulug'



Rossiyaga qaratilgandirkim, Rossiya o'z ittifoqdoshlariga sodiqlik bilan ularning manfaatlarini himoya etmoqda, ularni deb o'zini qurbon qilmoqda va hozir ularning yordamlariga nihoyatda muhtojdir. Bundan bir yuz to'rt yil muqaddam mart kunlari fransuz xalqi imperator Aleksandr Birinchini va Rossiya gvardiyasini tabriklagan edi. Ana o'sha kundan e'tiboran Fransiya hayotida yangi davr boshlandi va uni birinchi darajadagi mamlakatlar qatoriga ko'tardi. Bundan yuz to'rt yil muqaddam bizning atanimiz graf Platov Londonda mehmon bo'lgan edi. Endi biz, sizni Moskvada kutamiz! Biz sizlar bilan birgalikda tantanali marshlar hamda gimnlarimizning sadolari ostida Kremlga kirish, tinchlik va ozodlik lazzatlaridan birgalikda bahramand bo'lish niyatidamiz!

Krasnov gapini tamomlagach, kapitan Bond o'rnidan turdi. Ziyofatda o'tirganlar inglizcha nutqni jim o'tirib tingladi. Tarjimon ko'tarinki ruh bilan tushuntira boshladi:

— Kapitan Bond o'z nomidan hamda kapitan Oshen nomidan, Donda nimalar bo'layotganini bilmoq uchun ittifoqdosh davlatlar tomonidan rasmiy sur'atda yuborilgan vakil ekanliklarini Don atamaniga ma'lum qiladilar. Bolsheviklar bilan mardona kurashayotgan Donga hamda Ko'ngilli armiyaga ittifoqdosh davlatlar butun kuch va vositalar bilan, kerak bo'lsa, askar bilan yordam berajagiga kapitan Bond ishontiradi.

Tarjimon so'nggi jumlani tamomlamayoq, uch karra takrorlangan yo'g'on «ura» tovushi zal devorlarini larzaga keltirdi. Orkestrning sho'x musiqasiga qadahlarning jarang-jurungi qo'shilib ketdi. «Go'zal Fransiyaning» hamda «qudratli Angliyaning» taraqqiyoti uchun, «bolsheviklar ustidan g'alaba qozonish» uchun ichdilar... Donda tayyorlangan qo'lbola musallaslar, vishillaydigan o'ynoqi eski vinolar, qadimgi maylar qadahlarda ko'pirib, jilvalanib o'ynar, shirin va muattar hid taratardi.

Hamma ittifoqdosh missiya vakillarining og'ziga tikilgan edi, kapitan Bond tarang qilmadi:

— Men ulug' Rossiya uchun qadah ko'taraman, alalxusus men shu yerda sizlarning qadimgi yoqimli gimningizni eshitmoqni istardim. Biz uning so'zlariga u qadar ahamiyat bermaymiz, men faqat musiqasinigina tinglamoqchi edim...

Tarjimon uning gapini tarjima qilib berdi. Krasnovning rangi hayajondan oqarib ketdi, u yuzini mehmonlar tomonga burdi-da, ovozi bo'g'ulguday bo'lib baqirdi:

— Ulug', mustahkam va bo'linmas Rossiya uchun, ura! Orkestrning kuchli va ravon sadolari jaranglab:

«E, bor xudoyo, podshohimizni asra» madhiyasini boshladi. Hamma o'rnidan turib, qadahlarni bo'shatdi. Keksa arxiyepiskop Germogening ko'zlaridan tirqirab yosh oqdi. Kayfi oshib qolgan Bond esa: «Nihoyatda go'zal bir manzara!» — deb zavqlanardi. Allaqanday oliymaqom mehmonlardan bittasi azbaroyi qattiq ta'sirlanganidan o'zini bosib ololmay, ezilgan ikra yopishgan salfetkani soqoliga bosib, bo'taday bo'zlab yubordi.

\* \* \*

O'sha kuni kechasi Azov bo'ylaridan turgan shiddatli bo'ron shaharni alg'oq-dalg'oq qilib chiqdi. Jomening gumbazi birinchi qor ostida sag'anaday bo'zarib, shumshayib qoldi...

O'sha kuni kechasi shahar orqasidagi axlatxonada, sog' tuproq jarlar yonida harbiy sudning hukmi bilan shaxtalik temiryo'lchi bolsheviklarni otib o'ldirdilar. Qo'llarini orqalariga bog'lab ularni ikkitadan jar yoqasiga olib kelishar, yaqindan turib nagan va multiqlardan o't ochib qulatishar, lekin o'q tovushlari muzday shamolda, papiros uchuniday darhol so'nar, eshitilmas edi...

Lekin ataman saroyining eshigi oldida bo'lsa, qahraton ayozda, izg'irin shamolda leyb-gvardiya ataman polklik kazaklar tarashaday qotib, faxriy qorovullik qilishardi. Kazaklar ko'karib ketgan, yalang'och qilich ushlagan qo'llari kesakka aylangan edi, sovuqdan ko'zlari yoshlanar, oyoqlari to'ngardi... Saroy ichkarisida mastlarning qiyqirgani, harbiy orkestrning gumburi hamda lashkar xorining ingichka yig'loqi tovushi tongotargacha tinmadi.

\* \* \*

Oradan bir hafta o'tar-o'tmay eng mudhish hodisa ro'y berdi — frontda boshboshdoqlik boshlandi. Dastlab, Kalachovsk tomon-

da joylashgan 28-polk o'z pozitsiyalarini tashlab ketdi; Petro Melexov ham shu polkda edi.

Kazaklar 15-Inza diviziyasining qo'mondonligi bilan yashirincha til biriktirib, frontdan jo'nashga, qizil askar qismlarini Yuqori Don okrugidan bimalol o'tkazib yuborishga qaror qildilar. Yakov Fomin degan kaltafahm bir kazak bu g'alayonchi polkka bosh bo'ldi, lekin u nomiga boshliq edi-yu, aslida ishni boshqarib turgan, Fominga rahbarlik qiladigan, bolsheviklarga xayrixoh bo'lgan bir guruh kazaklar bor edi.

Polk mitingga to'plandi; ofitserlar jangni davom ettirish zarurligini isbotlamoqchi bo'lsalar ham, biron-tasi shartta otib qo'ymasin deb xavotirlanganlari uchun unchalik jon kuydirmasdilar; lekin kazaklar qattiq turib olib chuldirashar, urush kerak emas, bolsheviklar bilan yarashamiz deb hammaning me'dasiga tegib ketgan gapni aytib, yoppasiga baqirishardi. Mitingning to's-to'poloni chiqib, polk qo'zg'aldi. Bir bekat yo'l bosilgandan keyin Solonki qishlog'i yonida lashkar starshinasi Filippov tun qorong'isida ko'pchilik ofitserlarni ergashtirib, polkdan qochdi va dabdalasi chiqib chekinayotgan graf Molerning brigadasiga tong yorishganda kelib qo'shildi.

28-polkning ketidan 36-polk ham o'z pozitsiyasini tashlab jo'nab qoldi. Bu polk ofitserlari bilan birgalikda bekam-ko'st Kazansk stantsiyasiga kirib keldi. Kazaklarning tovonini yalashdan toymaydigan pak-pakana o'g'riko'z komandir bir gala otliqlarni ergashtirib, etap komendanti joylashgan uyning yoniga kelib otdan tushdi. U qamchisini o'ynatib, g'azab bilan uyga kirdi.

— Kim komendant?

Stepan Astaxov o'rnidan qo'zg'aldi.

— Men komendant muoviniman, — dedi u bo'sh kelmasdan. — Eshikni yopib qo'ying, janob ofitser.

— Men o'ttiz oltinchi polk komandiriman, lashkar starshinasi Naumov bo'laman. E... tanishaylik... Mening polkimga ust-bosh, oyoq kiyimi kerak. Odamlarim yalang'och, yalangoyoq qoldi. Eshityapsizmi?

— Komendant yo'q, usiz men skladdan bir juft piyima ham berolmayman.

— Nima-nima?

— Berolmayman.

— Sen!.. Kim bilan gaplashayotganingni bilasanmi o‘zing? Qamalasan-a, jin urgur! Yerto‘laga sudranglar buni, yigitlar! Bu yerda semirib yotishini-chi buni! Omborxonaning kaliti qani, itvachcha?.. Nima, nima? — Naumov qamchisini stolga urdi-da, jaholatidan rangi quv o‘chib, manjurcha barra papaxini ensasiga bostirib qo‘ydi. — Kalitni chiqar, g‘iring demay beraver!

Yarim soatdan keyin ombor eshiklaridan chang-to‘zon aralash bo‘xcha-bo‘xcha kalta po‘stinlar, bog‘lam-bog‘lam piyma-yu, etiklar chiqaverdi, uchib kelib qor ustiga, uyulishgan kazaklar qo‘liga tushaverdi; xalta-xalta qandlar qo‘lma-qo‘l talash bo‘lib ketdi. Olag‘ovur shodiyona ovozlari anchagacha maydonda eshilib turdi.

Ayni shu mahalda 28-polka kazaklari, polkka komandir bo‘lib olgan vaxmistr Fomin boshchiligida Vyoshenskayaga kirib keldilar. Ularning izidan o‘ttiz chaqirimcha orqaroqda Inza diviziyasining qismlari ham kelardi. O‘sha kuni Dubrovka qishlog‘iga qizillar razvedkasi kelib ketgan edi.

Shundan to‘rt kun burunroq Shimoliy front qo‘mondoni general-mayor Ivanov shtab boshlig‘i general Zambrjitskiy bilan Kargin stanitsasiga qarab shoshilinch sur‘atda qochgan edi. Avtomobili qorga tiqilaverib, Zambrjitskiyning xotini labini tishlayverib, bolalari yig‘layverib rosa qiynalishgandi...

Bir necha kungacha Vyoshenskayada hech qanday hukumat bo‘lmadi. «28-polkka qarshi kurashish uchun Kargin stanitsasida askar to‘planmoqda» degan gaplar tarqaldi. Biroq 22-dekabr kuni Kargin dan Vyoshenskayaga Ivanovning ad‘yutanti kelib, general uyida unutilib qoldirgan oq, yangi jez tamg‘ani, yozlik furajkasini, soch taraydigan cho‘tkasini, ko‘ylak-ishton va shuning singari mayda-chuydalarini kula-kula olib ketdi...

Shimoliy frontda ochilib qolgan yuz kilometrcha oraliqqa 8-Qizil Armiya qismlari bostirib kirdilar. General Savateyev Don tomon jangsiz tislamoqda, general Fitsxalaurovning polklari esa, shoshib-pishib, Tali va Bogucharga chekinmoqda edilar. Shimoliy front bir haftagacha suv quyganday jimjit bo‘lib qoldi. To‘plar ovozi o‘chgan, pulemyotlarning dami chiqmasdi. Shimoliy frontda jang qilayotgan quyi don kazaklari, yuqori donlik polklarning xiyonatkorona jo‘nab qolganlarini eshitib qarshilik ko‘rsatmasdan, jang qilmasdan chekinaverdilar. Qizil-

lar ehtiyotkorlik bilan sekin-asta siljishar, yo‘llarida uchragan har bir qishloqqa razvedka yuborib, miridan-sirigacha tekshirib chiqishardi.

Shimoliy frontda bu qadar zo‘r muvaffaqiyatsizlikka uchragan Don hukumatining motami birdan sevinchga aylandi. 26-dekabrda Novocherkasskka ittifoqdoshlar missiyasi keldi; missiya a‘zolari: Kavkazdagi Britaniya harbiy missiyasining qo‘mondoni general Pul va uning shtab boshlig‘i polkovnik Kiss hamda Fransiya vakillari — general Franshe-d’Espere bilan kapitan Fukedan iborat edi.

Krasnov ittifoqdoshlarni frontga olib bordi. Qahraton dekabr sovuq‘ida, ertalab Chir stansiyasining perronida faxriy qorovul saf tortgan edi. Mo‘ylovi shalpaygan, isqirtlikka o‘rgangan, piyonistabashara general Mamontov bu gal ozoda kiyinib, ixcham bo‘lib, soqoli olingan yuzlarini yiltiratib, bir gala ofitserlar bilan perronda aylanib yurardi. Hamma poyezdni kutardi. Vokzal oldida harbiy orkestrning sozandalari yer tepinishar, ko‘kargan barmoqlariga huhlashardi. Yoshlari va tushlari har xil bo‘lgan quyi stanitsalardan kelgan kazaklar faxriy qorovulda suratday qotib qolgan edilar. Soqoli oppoq keksalar qavatlarda mo‘ylovi chiqmagan yosh-yalang o‘spirinlar turar, ora-sira front ko‘rgan kokildor yigitlar ko‘rinardi. Keksalarning ko‘ksida Lovchi va Plevna janglari uchun olgan oltin va kumush medallari, krestlari yaltirardi, o‘rta yashar kazaklar esa Ko‘ktepa va Sandepaga hamda german urushi vaqtida Peremishl, Varshava, Lvovga qilgan shiddatli hujumlari uchun berilgan krestlarni qator taqib olgandilar. O‘spirinlarning maqtanadigan hech narsasi bo‘lmasa ham, o‘zlarini mardonavor qilib ko‘rsa tishga, kattalardan qolishmaslikka harakat qilishardi.

Oppoq bug‘lar ichida poyezd gulduragancha kelib to‘xtadi. Pulman vagonining eshigi ochilmasdan turib kapelmeyster zarda bilan qo‘llarini qimirlatdi, orkestr Angliya gimnini barala chalib yubordi. Mamontov qilichini avaylab ushlaganicha vagon oldiga yugurdi. Krasnov ochiq chehra bilan mehmonlarni tarashaday qotib qolgan kazaklar yonidan olib o‘tib, vokzal tomonga boshladi.

— Kazaklar, — dedi Krasnov fransuzchasiga, — qizil gvardiyachi o‘g‘rilardan vatanni himoya qilish uchun yoppasiga qo‘zg‘aldilar. Siz bu yerda uch avlodning namoyandalarini ko‘rasiz. Bular Bolqonda, Yaponiyada, Avstro-Vengriya va Prussiyada jang qilganlar, mana endi vatan ozodligi yo‘lida jang qilmoqdalar. — U fransuz tilini suv-

day ichar, nazokat bilan kulimsirar, podshohlar kabi bosh irgʻatib, agʻraygancha qotib qolgan keksalarni koʻrsatardi.

Yuqoridagilarning buyrugʻiga binoan faxriy qorovulga odam tanlash masalasida Mamontovning qattiq kirishgani bejiz emasdi. Bu ancha-muncha taʻsir qoldirdi.

Ittifoqdoshlar frontni borib koʻrdilar, qanoat hosil qilib Novocherkasskka qaytdilar.

Joʻnab ketayotib general Pul Krasnovga:

— Askarlaringizning mardonavor qiyofasini, intizomini hamda ruhi balandligini koʻrib gʻoyat mamnun boʻldim, — dedi. — Men Salonikidan sizga soldatlarimizdan birinchi otryadini darhol yubor-tiraman. Shularga uch ming dona poʻstin bilan issiq etik tayyorlab qoʻyishingizni iltimos qilaman, janobi general. Ishonamanki, bizning yordamimiz bilan siz bolshevizmni butunlay yoʻqota olasiz.

...Oshlangan terilardan shosha-pisha poʻstinlar tikildi, piymalar tayyorlashga kirishildi. Biroq Novorossiyskka keladigan ittifoqdoshlar desantidan darak boʻlmadi. Londonga ketgan Pulning oʻrniga badfeʻl, takabbur Brig tayinlandi. U Londondan ola kelgan yangi yoʻl-yoʻriqqa asoslanib, generalchasiga qatʻiyat bilan:

— Korol hukumati Dondagi Koʻngilli armiyaga keng koʻlamda moddiy yordam koʻrsatadi, lekin bironta ham soldat yubora olmaydi, — deb gapni uzil-kesil qildi.

Masala oydin, hech qanday izohga hojat yoʻq edi.

## XII

Imperialistik urush vaqtlarida ofitserlar bilan kazaklar orasida paydo boʻlgan dushmanlik kayfiyatlari unchalik oshkora tus olgan boʻlmasa ham, 1918-yil kuziga kelib juda avj olib ketdi. 1917-yilning oxirlarida, yaʼni, kazaklar sekin-asta Don tomonga siljiyotgan kezlarda, ofitserlarni oʻldirish yoki tutib berish singari hodisalar kamdan kam uchrardi, lekin oradan bir yil oʻtmay bu narsa oddiy bir ish qatoriga kirib qoldi. Hujum paytida kazaklar oʻz ofitserlarini, qizil komandirlar singari oldinda borishga majbur etishar, soʻngra, koʻzini shamgʻalat qilib, sekingina orqasidan otib oʻldirishardi. Faqat Georgiy ordenli Gundorov polkiga oʻxshagan

qismlardagina ofitserlar bilan kazaklar inoq edilar, biroq Don armiyasida bunday polklar kam qolgandik.

O'z foydasini biladigan mug'ambir, og'irkarvon Petro Melexov, kazaklar bilan murosa qilmasa ajali yetishini allaqachonq tushunib, ko'pdan beri kazaklar bilan ofitserlar orasidagi tafovutni yo'qotishga, o'zini oddiy askarlarga yaqin tutishga astoydil harakat qilardi. U ham kazaklar singari payti kelganda, urushdan hech naf yo'qligini aytardi; aslida tili boshqa, dili boshqa bo'lib, o'lganining kunidan noiloj shunday der, ammo uning riyokorlik qilayotganini hech kim sezmasdi: polkdagilar Fominni saylamochi ekanini sezgan kundan e'tiboran Petro o'zini bolsheviklar tarafdori qilib ko'rsatish, Fominga haddan ziyoda xushomad qilib, unga yaxshi ko'rinish ko'chasiga kirib oldi. Boshqalar qatori u endi boshliqlarni so'kishdan, bironi tunab olishdan tap tortmasdi, asirlarga nisbatan sirdan yaxshi muomala qilsa ham, ichdan g'azab-u nafрати jo'sh urib, tutqanog'i tutganday qaltirab, qo'llari qichib, otib o'ldirgisi kelib zo'rg'a turardi... Petro o'z vazifasida yumshoqtabiat, soddagina bir kazak, go'yo xorunjiy emas, ipakday muloyim bir kimsa! U ustomonlik bilan kazaklar bilan inoq bo'lib olgan, ko'zbo'yamachilik qilib ularni aldab yurardi.

Solonki slobodasi yonida Filippov ofitserlarni ergashtirib ketganda Petro polkda qolaverdi. Yuvoshligini, itoatgo'yiligini tark etmay, paqir kishi panada deganday o'rtamiyona hayot kechirib, polkdan ajramay Vyoshenskayaga yetib oldi. Vyoshenskayada ikki kungina turdi-da, toqati toq bo'lib, shtabga yo'liqmasdan, Fominga qorasini ko'rsatmasdan uyiga jo'nab qoldi. O'sha kuni ertalab Vyoshenskaya stanitsasida, eski cherkov yonidagi maydonda miting chaqirilgan edi. Polk Inza diviziyasidan keladigan delegatlarni kutardi. Shinel kiygan, avralik va avrasiz nimcha po'stin, kurtka kiygan, paxtalik chakmon yopingan kazaklar maydonda gala-gala bo'lib yurishardi. Poyma-poy kiyingan shu olomonni ko'rgan odam, uning harbiy qismligiga, 28-kazaklar polki ekaniga mutlaqo ishona olmasdi. Petro ma'yus bo'lib, bu to'pdan u to'pga o'tar, kazaklarga zimdan nazar solib tikilardi. Frontda yurgan vaqtlarida ularning ust-boshlariga unchalik ahamiyat berilmas, polkning o'zi ham bunchalik gavjum bo'lib bir yerga to'planmasdi. Bu yerda esa, Petro o'sib ketgan oq malla mo'ylovini g'azab bilan tishlar,

qirov yalagan basharalarga tikilar, rang-barang papax, tumog‘, furajka, barra telpak kiygan boshlarni tomosha qilardi, so‘ngra pastga tiki-lib qarar, undan ham g‘alati-g‘alati poyabzallarga, tagi yoyilib ketgan piyma-yu etiklarga, qizil askarlar oyog‘idan yechib olingan botinkalarga, obmotkalarga ko‘zi tushardi.

Petro alamiga chidolmay:

— Yalangoyoqlar! Pastkash mujiklar! Zoti pastlar! — deb so‘kinardi ichida.

Devorlarda Fominning buyruqlari oqarib ko‘rinardi. Ko‘chalarda odam bolasi ko‘rinmas, stanitsa aholisi in-iniga urib ketgandi. Ko‘channing ochiq joylaridan oppoq qor bosgan Donning haybatli manzarasi ko‘rinardi. Donning narigi yog‘idagi o‘rmon qora qalam bilan chizilgan suratga o‘xshardi. Qishloqlardan erini ko‘rgani kelgan xotinlar qo‘qqaygan eski cherkov yoniga bir qo‘ra qo‘yday to‘planib olishgan edi.

Ko‘krak cho‘ntagi keng, serbar barra po‘stin kiygan Petro ofitsercha tikilgan shu dardisar qorako‘l papaxning dastidan (yaqindagina shu papaxni hammaga ko‘z-ko‘z qilib yurgan edi-ya!) boshini ko‘tarolmas, odamlarning ko‘z olaytirib, xo‘mrayib qarayotganini dam-badam sezib turardi. Ular yeb qo‘yadiganday bo‘lib tikilishar, taka-puka bo‘lib turgan yuragiga battar vahima solishardi. Maydon o‘rtasida to‘ntarilib yotgan bochka ustida, qimmatbaho shinel va yap-yangi barra telpak kiygan pakana bo‘yli qizil askarning to‘satdan paydo bo‘lib qolgani Petro es-es bilardi. Qizil askar tivit qo‘lqop kiygan qo‘li bilan bo‘ynidagi havorang, quyon junidan to‘qilgan shokilali kazakcha sharfini tuzatdi-da, atrofiga qaradi.

— O‘rtoq kazaklar! — degan xirilloq bo‘g‘iq ovoz Petroning qu-log‘iga urildi.

Petro u yoq-bu yog‘iga qarab chiqdi: bu xil so‘zni birinchi marta eshitgan kazaklarning qattiq taajjublanganini, bir-birlariga ma‘nodor qilib ko‘z qisganini, hayajonlanib atroflariga qaraganlarini ko‘rdi. Qizil askar Sovet hukumati hamda Qizil Armiya to‘g‘risida, kazaklar bilan aloqa qanday bo‘lishligi to‘g‘risida uzoq gapirdi. Ayniqsa baqirgan ovozlari, notiqning gapini bo‘lib berilgan savollar Petroning esida qolgan edi.

— O‘rtoq, kommuniyang qanaqa o‘zi?



— Bizni kommuniyaga kirasan deb qistamasmikin?

— Kommunicheskaya partiya deganing nima?

Notiq qo‘llarini ko‘ksiga bosar, chor atrofiga burilib, shoshmasdan tushuntirib berardi:

— O‘rtoqlar! Kommunistlar partiyasi — ixtiyoriy bir tashkilot. Kimki ishchi va dehqonlarni kapitalistlar va pomeschchiklar zulmidan ozod etish uchun ulug‘ maqsad yo‘lida kurashmoqchi bo‘lsa, o‘z ixtiyori bilan partiyaga kira oladi.

Birpasdan keyin narigi burchakdan:

— Kommunist nima-yu, komissar nima, shuni tushuntirib berishingizni so‘raymiz, — degan baland ovoz eshitildi.

Qizil askar savollarga javob berar, lekin oradan sal o‘tgach yana allakim yo‘g‘on tovush bilan bo‘kirar edi:

— Kommuniya to‘g‘risidagi gapingga tushunmayapmiz. Mag‘izini chaqib berishingni so‘raymiz. Bizlar omi odamlarmiz. Bizga gapning po‘stkallasini gapir!

So‘ngra Fomin chiqib, uzundan uzoq gapirib hammani bezor qildi; u har gapning birida kerak bo‘lsa bo‘lmasa, «ekuirovatsya» so‘zini qo‘shib ketar va shuning bilan o‘zini bilimdon qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lardi. Petro uning poyma-poy nutqiga quloq solar ekan, 1917-yil fevralida, xuddi Darya kelgan kuni, Petrograd yo‘lidagi bir stansiyada Fomin bilan birinchi marta uchrashganini esladi. Ataman polkli qochoqning xo‘mraygan basharasi, yoshlanib uchib turgan o‘g‘ri ko‘zlari, egnidagi eski shineli-ning uryadniklik pogonidagi sitilib ketgan «52» raqami, ayiqsimon lapanglab yurishlari darhol Petroning ko‘zi oldiga keldi. O‘shanda Petro uning «jonimdan to‘ydim, ukajon!» — deb ming‘illaganini eshitgan edi. «O‘zi qochoq, Xristonyadek bir ahmoq bo‘lsa-yu, tag‘in komandirlik qilsa, men boyoqish haliyam xor-zor...», — Petro ko‘zlarini chaqchaytirib, shu gaplarni xayolidan o‘tkazardi.

Ikki yelkasidan beligacha pulemyot lentasi taqib olgan kazak, Fomindan keyin so‘zga chiqdi.

— Birodarlar! Men Podtelkovning otryadida bo‘lganman, xudo xohlasa, hali kadetlarga qarshi yana jang qilaman degan umidim bor! — deb qo‘llarini paxsa qilib, bo‘g‘ilib baqirardi u.

Petro tez-tez yurib, qo‘shxona tomon ketdi. Otini egarlayotib stantsadan jo‘nayotgan kazaklarning ustma-ust o‘q uzganini eshitdi:

qadimdan qolgan odat bo'yicha harbiy xizmatdagilar uyga qaytganda qishloqlarga xabar berish uchun shunday qilishardi.

### XIII

Osuda kun qisqa bo'lsa ham, kazaklar nazarida kechga borib sara-tondagisidan ham uzayib ketganday tuyula boshladi. Qishloqlar odam oralamagan dasht-biyobonga o'xshab huvullab qoldi. Don atrofiga vabo kelganga, tamomi qishloqlar qirilib ketganga o'xshardi. Shu qadar xunuk bir manzara ko'zga tashlanardiki, go'yo Don atrofini qopqora vahimali bulut qoplab, hamma yoq zulmatga botganday sezilar, hash-pash deguncha shiddatli bo'ron turib, momaqaldiraq guldurab, teraklarni egib yuboradiganga, Donning naryog'idagi oq o'rmonni qiy-ratadiganga, ana undan keyin bo'r tog'idan xarsanglarni qulatib, olamga suron solib, qiyomat boshlaydiganga o'xshardi.

Tatarskda ertalabdan boshlab, hamma yoqni tuman bosgan edi. Tog' guvullar — ayoz turishidan darak berardi. Tushga yaqin oftob quyuyq tuman orasidan mo'ralaganday bo'lardi-yu, biroq havo yorishmasdi. Tuman esa Don atrofidagi tog'lar tepasida suzib yurar, jarlar orasiga kirib ketar, tog' etaklariga yoyilar, so'ngra baxmal o't bosgan bo'r toshlariga, qirrador qorli cho'qqilarga qo'nib, yo'qolib ketardi.

Barglari to'kilib, uchlari nayza singari qaqqayib qolgan daraxtlar orqasidan kechalari cho'g'day qizarib, qonga belangan qalqonga o'xshab oy ko'tarilardi. Oy jimjit qishloqlar ustida urush va yong'in alangalarini aks ettirganday xira nur sochib turardi. Lekin bu shafqatsiz so'nmas chiroqning yorug'i odamlarga vahima solar, mollarni bezovta qilardi. Otlar va ho'kizlar uyqusini yo'qotib, qo'rada daydib tong ottirardi. Itlar uvullar, kechasi xo'rozlar bevaqt qichqirardi. Daraxtlarning ho'l novdalari ertalabgacha muzlab qolardi; bu novdalar shamolda qimirlab bir-birlariga tegib, po'lat uzangiday jaranglar, go'yoki, Donning chap qirg'og'idan, qoraygan o'rmonzor orasidan, qorong'ida yaroq-aslahasini, uzangisini jaranglatib lak-lak otlqliq askar o'tayotganday tuyulardi.

Shimoliy frontdagi tatarsklik kazaklarning deyarli hammasi Don bo'yiga sekin-asta surilib kelayotgan o'z qismlarini tashlab, qishloqqa kelgan edi. Har kuni bitta-yarimtasi qaytib kelardi. Bir xillar otiga uzoq

dam berish, qurol-yarog'ini poxol orasiga yoki bo'g'ot tagiga yashirib qo'yib, qizillarning kelishini kutish maqsadida qaytar, ba'zi birlari qor bosib qolgan eshikni ochib, otini qo'raga yetaklab kirar, xotini bilan bir kechagina yotib, xurjunga qoq non to'lg'azib, er-talay yana yo'lga chiqar, do'ngdan turib, oppoq chodirga o'ralgan Don atroflariga, tug'ilib o'sgan yerlariga tikilib qarar, bu joylarni umrbod tashlab ketayotganday so'nggi marta ko'zdan kechirardi.

Ajalning oldini oladigan inson bormi? Umr jumbog'ini kim yechib bera oladi?.. Qishloqdan chiqqan otning yurishi qiyin. Yurak-bag'ri tilka-pora bo'lgan kazakning o'z jigargo'shalarini unutishi undan ham qiyin. Bo'ron turib, qorlarni yer bag'irlatib uchirib yurgan yo'llarda butun fikr-xayol uyda bo'lardi. Ko'pgina mushkul masalalar ana shunday og'ir yo'llarda boshqatdan o'ylab chiqilardi... O'shanda ko'pgina ko'zlardan sho'rtang yoshlar oqib, egar qoshiga, undan muzday uzangiga, uzangidan taqa izi tushgan yerga qorilgan bo'lsa ham ajab emas. Axir, unday joylarda bahor kezi, judolik nishonasi bo'lgan targ'il lola o'sib chiqadi-ku!

\* \* \*

Petro Vyoshenskayadan kelgach, Melexovlar uyida kechasi oilaviy kengash boshlandi.

— Xo'sh, bahay? — deb so'radi Panteley Prokofyevich Petro ostonadan o'tmay turib. — Urushib bo'ldingmi? Bogoning qayda qoldi? Qani, bor, ukang bilan ko'rish, onangni xursand qil, xotining ham sog'ingan... Balli, balli, Petyasha... Grigoriy! Hoy, Grigor Panteleyevich, pech ustida ho'kizday yotaverasanmi? Baqqa tush!

Grigoriy ko'k chalvarining pocha bog'lari bilan siqib bog'langan paypoqsiz oyoqlarini osiltirib, qop-qora jun bosib ketgan ko'kragini qashlab, Petroning kuchana-kuchana, yelkasidan qilich bog'ini yechishini, tarashaday muzlab qolgan barmoqlari bilan tumoq bandini timirskilashini iljayib tomosha qilardi. Darya churq etmay, kulimsirab, erining ko'zlariga tikilar, po'stin tugmalarini yechar, lekin erining o'ng yonidan hadeb o'zini olib qochardi, chunki o'ng biqinidagi to'pponcha g'ilofi yonida turgan granatadan xavotirda edi.

Dunyashka yugura kelib, akasining qirov bosgan mo'yloviga betini tutib berdi-da, otga qaragani chiqib ketdi. Ilinichna bo'lsa, etagi bilan lablarini artib, «to'ng'ichini» o'pmoqqa tayyorlandi. Natalya pech yonida g'ivirlardi. Go'daklar uning etagiga yopishib pinjiga tiqilishardi. Hammasi Petroning og'ziga tikilar, gap kutardi, lekin u ostonadan turib bo'g'iq ovoz bilan: «Ahvollar qalay?» — dedi-yu, indamay yechinaverdi, etigidagi qorni supurgi bilan anchagacha tozaladi, so'ngra qaddini rostladi, birdaniga lablari qaltirab ketdi; Petro nima qilishini bilmay, karavot panjarasiga suyanib qoldi; uning sovuq chalgan, ko'karib ketgan betlaridan tirqirab yosh oqayotganini endigina ko'rdilar.

Chol qo'rqib ketganini, ovozi o'zgarganini sezdirmaslik uchun hazil-mutoyiba qilib:

— Askar bola! O'zi tinchlikmi? — deb so'radi. — Rasvo bo'ldik, dada!

Petroning og'zi qiyshayib ketdi, oqimtir qoshlarini uchirdi, ko'zlarini olib qochdi-da, tamaki hidi o'tirib qolgan kir dastro'moliga burnini qoqdi.

Grigoriy suykangan mushukni uloqtirib yubordi-da, pechdan irg'ib tushdi. Petroning bitlagan boshidan o'payotgan ona yig'lab yubordi, lekin o'sha zahotiyiq o'zini bosib oldi.

— Bo'tamdan aylanay! Onang aylansin, qatiq solib beraymi! O'tirsang-chi axir, sho'rlik, sho'rvadan ichib ol. Xudo bilsin, qorning ham ochdir?

Petro stol yonida inisining o'g'lini o'ynatib o'tirib, qizishib ketdi: mumkin qadar o'zini bosib, 28-polknning frontni tashlab ketganini, komandirlarning qochganini, Fominning kimligini, Vyoshenskayada o'tkazilgan so'nggi mitingni so'zlab berdi.

Grigoriy sertomir qo'lini qizining boshidan olmay:

— Bu yog'i nima bo'ladi, hech o'ylab ko'rdingmi? — deb so'radi.

— O'ylaydigan joyi qolmadi. Ertaga bir amallab kunni kech qilaman-da, kechasi jo'nab qolaman. Onajon, yo'lga ko'proq oziq pishirib bering, — deb Petro onasiga burildi.

— Demak, qochishni mo'ljallabsan-da, a? Panteley Prokofyevichning qo'li xaltaga suqilganicha qoldi; chol javob kutar, olgan tamakisi barmoqlari orasidan sekin-asta to'kilardi.

Petro o'rnidan turib, tusi o'nggan qoramtir ikonalariga cho'qindi; uning qovog'i soliq, ko'zlari g'amgin edi.

— Xudoga shukur, qornim to'ydi!.. Qochish dedingmi? Boshqa nima iloj qoldi? Qimirlamay o'tiraver, demoqchimisan? Qizillar kallamni olsa maylimi? Sizlar qolsangiz, qolavering, lekin men... Yo'q, tezroq jo'nab qolganim ma'qul! Ofitserlarga ular rahm-shafqat qilishmaydi.

— Uy nima bo'ladi? Tashlab ketaveramizmi? Cholning savoliga Petro kiftini qisib qo'ya qoldi.

Lekin Darya darhol dod-voy ko'tardi:

— Sizlar ketavering, biz uyda qolaveraylik, shundaymi? Balli, sizdaqa erlarga! Mol-mulkingizni biz qo'riqlar ekanmiz-da!.. Uning kasofatiga o'lsang o'laver degin! Menga desa hammasi kuyib kul bo'lmaydimi! Bir zum ham turmayman!

Hatto Natalya ham gapga aralashdi. Uning ovozi Daryaning shang'illashini bosib tushdi:

— Agar butun qishloq bamaslahat qo'zg'aladigan bo'lsa, biz ham qarab turmaymiz! Piyoda bo'lsa ham ketamiz!

— Esi pastlar! — deb baqirdi Panteley Prokofyevich ko'zlarini ola-kula qilib, beixtiyor hassasini qidirarkan. — Xah, onasi baytalar! Ovozlaringni o'chir, badbaxtlar! Erkaklarning ishiga aralashi-shadi, baland kelishadi-ya... Nima, hamma narsani tashlab, boshimiz oqqan tomonga ketaveraylikmi! Mollarni nima qilamiz, xo'sh? Cho'ntagimizga solib olamizmi? Uyni-chi?..

— Hoy kelinlar, ikkovingiz ham esingizni yeb qo'yibsiz? — Ilinichna xafa bo'lib cholining yonini oldi.— Bu dov-dastgohga mehningiz singmagan, ichingiz achimaydi-da. Biz, chol-u kampir kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlab, buni zo'rg'a yiqqanmiz, shuncha narsani ko'z qiyadimi axir? Xudo ko'rsatmasin! — kampir lablarini qimtib, xo'rsinib qo'ydi. — Sizlar keta qolinglar, men joyimdan qo'zg'almayman. Birovlarning devori tagida jon bergandan ko'ra, qaytaga, o'z ostonamda o'q yeb o'lganim yaxshi.

Panteley Prokofyevich pishillab, burnini tortib, lampa piligini pasaytirdi. Hammasi birpas jimib qoldi. Paypoq to'qiyotgan Dunyashka boshini ko'tarib sekingina:

— Molni deb boshimizni baloga qo'yaylikmi... Haydab ketaveraylik-da, — dedi.

Chol yana fig'on bo'lib xuddi boquvdagi ayg'irday, yer tepinib, pech yonida yotgan uloqqa qoqilib yiqilayozdi. Dunyashkaning ro'parasiga kelib baqira boshladi:

— Haydab ketasan-a! Qari sigir tug'ay deb turibdi, — uni nima qilasan? Qayergacha haydab bora olasan? Xah, tilingga kuydirgi chiqqur-ey! Xonabazor! Haromi! Bitliqi! Men shularga qolar deb mol qilsam, joy qilsam-u, oxiri eshitgan gapim shu bo'lsa-ya!.. Qo'ylar nima bo'ladi? Qo'zilarni qayga olib borasan?.. Obbo mochag'ar-e! Senga gapni kim qo'yibdi!

Grigoriy Petroga ko'z qirini tashladi: akasining tim qora jajji ko'zlari bolalik chog'laridagi o'sha sho'xligini, o'sha o'ynoqiligini hali ham yo'qotmaganini, biroq odob saqlab muloyimgina kulib turganini, qadimgi qiligi tutib, mallarang mo'ylovi pirpirab uchayotganini ko'rdi. Petro tezgina ko'z qisib qo'ydi, kulgisi qattiq qistaganidan qaltirab ketdi. So'nggi yillarda kulish nimaligini unutib yuborgan Grigoriy, hozir maza qilib bir kulib oladigan fursat kelganini sezdi-da, qah-qah urib kulib yubordi.

— Gap tamom!.. Judayam haddan oshib ketdinglar... Bas endi! — Chol o'g'liga yeb qo'yguday xo'mrayib qaradi-yu, oppoq qirov bosgan derazaga yuzini o'girib o'tirib oldi.

Faqat yarim kechaga borib bir qarorga kelishdi: erkaklar ketadigan, ayollar uy poylab qoladigan bo'ldi.

Ilinichna tong yorishmasdan turib, pechga o't qaladi, ertalabgacha nonini yopib bo'ldi, ikki xalta non quritdi. Chol qorong'idayoq nonushta qilib oldi-da, tong yorishgach mollarning tagini tozalagani, chanani tayyorlagani chiqib ketdi. U omborxonada uzoq turib qoldi: og'zigacha to'ldirib urug'lik bug'doy solingan xambaga qo'lini tiqdi, panjalari orasidan dona-dona bug'doyning quyilishini tomosha qildi. So'ngra, xuddi o'lik yonidan chiqqan odamday, tashqariga boshyalang chiqdi-da, sariq eshikni ohista yopib qo'ydi...

Chol bostirma tagida, chananing ot to'rvalarini almashtirmoqchi bo'lib, anchagacha ivirsib yurdi, shu vaqt tor ko'chada sigirini sug'organi haydab ketayotgan Anikushkaga ko'zi tushdi. Ikkisi so'rashdi.

— Qochishga tayyormisan, Anikey?

— Bo'lmasam-chi, yig'ishtiradigan narsam bormi: ko'z ochib yumguncha tayyorman-da. Bor budim egnimda, kamini yo'lda o'mararman.

— Qanday yangilik bor?

— Yangilik ko'p, Prokofich!

— Tinchlikmi? — Panteley Prokofyevich hovliqib ketib, boltani chanaga qistirib qo'ydi.

— Qizillar bugun-erta shu yerda bo'ladi. Hozir Vyoshkaga yaqin kelib qolishibdi. Katta Gromkiga borgan bir odam ko'ribdi: «Kelishlari bejo» deydi. Odamni qo'yday bo'g'izlasharmish... Ularda yer yutkur juhud bilan xitoy ko'p! Attangki, bu qiyiq ko'z iblislarni birato'la qirib yubormagan ekanmiz-da!

— Bo'g'izlasharkanmi?

— Yo'q, peshonangni silasharmish! Hammasidanam qarg'ish urgan chigalarniki<sup>1</sup> oshib tushdi!.. — Anikushka boloxonador qilib so'kindi-da, og'zi gapdan bo'shamay, chetan devor tagi bilan yurib ketdi. — Daryoning narigi betida xotinlari musallas solishibdi, izzat qilmasak baloga qolamiz deb, rosa ichirishayotganmish; ular bo'lsa ichib olib mast-alast ikkinchi qishloqni bosisharmish, uni ostin-ustun qilisharmish.

Chol ot to'rvani o'rnatib bo'ldi, qo'radagi hamma binolarni, o'z qo'li bilan qo'ygan ustunlarni, chetan-u tirgovichlarni birma-bir aylanib chiqdi. So'ngra xashak soladigan qanorni olib, yo'lga kerakli pichanni tayyorlab qo'ygani g'aram tomon ketdi. Jo'namoqdan boshqa chorasi yo'qligini hali ham sezmagani chol, pichan orasidan yomonrog'ini — burgan aralashganini changak bilan ola boshladi (sarasini u doim bahorga — qo'sh mahaliga asrar edi) lekin bu niyatidan qaytib, o'zidan o'zi xunob bo'lib, narigi g'aramga o'tdi. Negadir u, bir necha soatdan keyin shu hovli-joyini, qishlog'ini tashlab, notanish janub yoqlarga jo'nashini, balki o'sha tomonlarda o'ligi qolib ketishini xayoliga ham keltirmas edi. Chol kerakli pichanni oldi, eski odati bo'yicha sochilgan xashaklarni to'plamoqchi bo'lib, qo'lini xaskashga uzatdi-yu, biroq o'tdan olib qochganday, qo'lini tortib oldi, telpak ostida terlagan peshonasini artayotib:

---

<sup>1</sup> Chiga yoki chigunya — yuqori donliklarning laqabi.

— Endi ehtiyot qilishning nima keragi bor? — deb yubordi. — Baribir, otlariga solib, oyoqosti qilishadi, bekordan bekorga nes-nobud bo'ladi yoki yoqib yuborishadi.

Chol xaskashni tizzasi bilan bir turtdi-da, tishlarini g'ijirlatib pichan solingan qanorni orqaladi, bukchayib, oyoqlarini sudrab bosib, yurib ketdi.

Uyga kirmay, eshikni qiya ochdi-da:

— Bo'la qolinglar? Hozir chanani qo'shaman. Kech qolmaylik tag'in, — dedi.

Chol allaqachon otlarni qo'shib bo'ldi, chananing ketiga bir qop sulini ham ortdi, biroq o'g'illarining bu qadar ivirsiganiga taajjublanib, uyga yana qaytib keldi.

Uyda bir balo bo'lgan edi: Petro yo'lga atab tayyorlangan bo'xchalarni zarda bilan shartta-shartta yechib, chalvar-u mundirlarni, xotinlarning bayramda kiyadigan kiyim-kechaklarini yerga uloqtirardi.

— O'zi nima gap axir? — deb so'radi Panteley Prokofyevich quloqchinini yechib, hang-mang bo'lib.

— Nima gap bo'lardi?! — Petro bosh barmog'ini kiftidan oshirib, xotinlarni ko'rsatdi. — Yig'lashyapti. Biz ham hech yoqqa bormaymiz! Ketadigan bo'lsak, hammamiz baravar ketamiz, yo'qsa, bittamiz ham qo'zg'almaymiz! Bular yuragini hovuchlab, qizillar qo'lida qolaversin-u, biz bo'lsak mol qayg'usida ketaveraylikmi? O'ldirishadigan bo'lsa, shularning ko'zi oldida o'lgaanimiz yaxshi.

— Yechining, dada! — Grigoriy iljayib, shinel va qilichini yecha boshladi; Natalya yig'isini bosolmay orqadan kelib, uning qo'lidan ushlar, ustma-ust o'pard, loladay qizargan Dunyashka suyunganidan hadeb chapak chalardi.

Chol quloqchinini kiydi, lekin o'sha zahotiyiq yana yechib qo'ydi, so'ngra to'rga o'tib, salmoq bilan qo'llarini qimirlatib cho'qinib oldi. Uch karra sajda qilib, tizzalab yerdan turdi-da, hammaga birma-bir qarab chiqdi.

— Mayli, unday bo'lsa, qolamiz! Yo parvardigori olam, bizlarni o'z panohingda asragaysan! Otlarni chiqarib kelay.

Anikushka yugurib keldi. Melexovlar uyida katta-yu kichik babbaravar kulib turganini ko'rib hayron bo'ldi.

— Nima gap o'zi?



— Bizning kazaklar ketmaydi! — deb hammaning nomidan Darya javob qildi.

— Ana, xolos! Aynidinglarmi?

— Aynidik! — Grigoriy tirjayib, oppoq tishlarini ko'rsatdi-da, ko'z qisib qo'ydi. — Ajalni qidirib ovora bo'lma, jon kerak bo'lsa, shu yerda ola qolsin.

— Ofitserlarki qochmagandan keyin, bizlarga qochishga balo bormi? — Anikushka echkiday tapir-tupur yugurib ayvonga chiqdi-da, o'shanaqasi deraza tagi bilan o'tib ketdi.

#### XIV

Vyoshenskayada hamma devorlarga Fominning buyrug'i yopishirilgan edi. Hademay qizil askarlarning stanitsaga kirib kelishini kutishardi. Vyoshenskayadan o'ttiz besh chaqirim nariroqdagi Kargin stanitsasida Shimoliy front shtabi joylashgan edi. To'rtinchi yanvarga o'tar kechasi chechenlar otryadi kelgandan keyin, lashkar starshinasi Roman Lazarevning jazo otryadi shoshilinch sur'atda, poxod tartibida Ust-Belokalitven stanitsasidan Fomin boshliq isyonchi polkka qarshi yo'lga chiqdi.

Chechenlar beshinchi yanvarda Vyoshenskayaga hujum qilishlari kerak edi. Ularning razvedkasi Belogorskda bo'lgan edi. Biroq hujum barbod bo'ldi: Fomin kazaklaridan qochib o'tgan bir odam Qizil Armiyaning kattakon bir qismi Goroxovka qishlog'ida tunab ketganini, beshinchi yanvarda Vyoshenskayaga yetib borishini gapirib berdi.

Novocherkasskka kelgan ittifoqdoshlar bilan band bo'lgan Krasnov, Fominni yo'lga solish uchun urinib ko'rdi. Novocherkassk bilan Vyoshenskaya orasiga o'rnatilgan dala telegrafiga uni chaqirdi. Apparat: «Vyoshenskaya, Fomin» deb ustma-ust taqillataverib, axiri ikkisini gaplashtirdi:

«Vyoshenskaya Fominga nuqta Uryadnik Fomin vergul sizga buyuraman ikki nuqta ahmoqlik qilmasdan polkingiz bilan pozitsiyaga qayting nuqta Jazo otryadi yubordim nuqta Bo'yintoblik qilsangiz otilasiz nuqta Krasnov».

Fomin kerosin chiroq yorug'ida po'stin barlarini ochib, telegrafchi barmoqlari orasidan ilonday buralib chiqayotgan xoldor qog'oz lenta-

sigga tikilar, telegrafchining tepasida turib olib, muzday nafasi aralash qo'lbola aroq hidini buruqsitar va derdi:

— Nima deb akillayapti o'zi? Ahmoqlik? Gapi tamom bo'ldimi!.. Yoz unga... Nima, nima? Nega mumkin emas? Buyuraman, yoz, yo'qsa kekirdagingni uzib olaman!

Telegraf yana tiqilladi:

«Novocherkassk ataman Krasnovga nuqta Kuchala yegan joyingga borib tirish nuqta Fomin».

Shimoliy frontdagi ahvol shu qadar keskinlashdiki, Krasnov Ukrainaga o'zi borishga va o'sha yerdan turib Fominning adabini berishga, xususan, ruhi tushgan kazaklarning ko'nglini ko'tarib, yo'lga solishga qaror qildi. Shu niyatda u ittifoqdoshlarni front bo'ylab hamsafar bo'lishga taklif etdi.

Hozirgina jang maydonidan chiqqan, Georgiy ordenli Gundorov polki Buturlinovka qishlog'ida ko'rikdan o'tdi. Ko'rik tamom bo'lgach, Krasnov polk bayrog'i yoniga kelib to'xtadi. Ko'ksini o'ng tomonga burib turib:

— Kimki mening qo'l ostimda, Uninchi polkda xizmat etgan bo'lsa, bir qadam olg'a chiqsin! — deb baqirdi.

Gundorovichlarning qariyb yarmi saf oldiga chiqdi. Krasnov papaxini olib, yonginasida turgan yoshi qaytgan, lekin botirsavlat vaxmistrni ustma-ust o'pdi. Vaxmistr shinelining yengi bilan kalta qir qilgan mo'ylovini artdi-da, ko'zlarini chaqchaytirganicha qotib qoldi. Krasnov hamma polkdoshlari bilan o'pishib chiqdi. Ittifoqdoshlar hang-mang bo'lib, pichir-pichir qila boshladilar. Lekin Krasnov ularning oldiga kelib:

— Men shu qahramonlar bilan Nezviskaya yonida nemislarni, Beljets va Komarovda avstriyslarni qirganman, dushman ustidan g'alaba qozonishga yordam qilganman, — deb tushuntirganidan keyingina angrayib turgan ittifoqdoshlarning yuzlari yorishib, tillari kalimaga keldi.

...Oftobning ikki yonida ikki simyog'och, xazina qo'riqlagan posbonlar singari, qotib qolgan edi. Sharqi-shimoldan turgan muzday shamol o'rmonlar ichida hushtak chalar, shitob bilan yopirilib kelib, dala-yu dashtga suron solar, so'rraygan burganlarni alg'oq-dalg'oq qilib barglarini uchirib yurardi. 6-yanvar kechga yaqin Chir ustini g'ira-shira

qorong'ilik qoplagan edi. Krasnov, ingliz ofitserlaridan — Edvars bilan Olkottni, fransuzlardan — kapitan Bartelo bilan leytenant Erlixni o'ziga hamroh qilib, Karginga bordi. Po'stin, quyon terisidan tikilgan paxmoq papax kiyib olgan ittifoqdoshlar, o'ynab-kulib, junjikishib, yer tepishib avtomobildan tushdilar; ulardan sigara va atir hidi anqir edi. Badavlat savdogarlardan bo'lgan Lavochkinning uyida isinishib, choyga to'yanlaridan so'ng ofitserlar, Krasnov hamda Shimoliy front qo'mondoni general-mayor Ivanov bilan birga majlis o'tkaziladigan maktabga bordilar.

Krasnov bir gala kazaklar oldiga chiqib, uzoq nutq so'zladi. Uning gaplarini zo'r e'tibor bilan tingladilar. Lekin u, bolsheviklar egallagan stanitsalarda bo'layotgan «vahshiyliklar» to'g'risida lof urib, og'iz ko'pirtira boshlagan hamon, ko'm-ko'k tamaki tutuni bosib ketgan orqa tomondan allakimning zardasi qaynab:

— Yolg'on! — deb baqirgani gapning beliga tepdi.

Ertalab Krasnov ittifoqdoshlari bilan shosha-pisha Millerovoga jo'nadi.

Shimoliy front shtabi ham darhol jo'nab qoldi. Chechenlar kechgacha stanitsani tintib, chekinishdan bosh tortgan kazaklarni yig'ib oldilar. Kechasi o'q-dori omboriga o't qo'yildi. Go'yo bir g'aram shox-shabba yonayotganday, miltiq o'qlari yarim kechgacha qasira-qusurga olib chiqdi; to'p o'qlarining portlashi tog' qulaganday gumburlardi. Ertasi kuni, chekinish oldidan maydonda ibodat boshlangan mahalda, Kargin tepaligida pulemyot sayrab qoldi. O'q do'lday yog'ib cherkov tomini nog'ora qilib chaldi, hamma odam tumtaraqay dashtga qochdi. Lazarevning otryadi bilan kichik kazak qismlari, chekinayotganlar o'tib olguncha qizillar hamlasini daf qilishga urinib ko'rdi: piyoda askarlar shamol tegirmonining naryog'ida pistirma qilib yotishdi, karginlik yasovul Fyodor Popov boshliq 36-Kargin batareyasi, hujum boshlagan qizillarni pala-partish o'qqa tutib ko'rdi-yu, biroq sal o'tmay juftagini rostlab qoldi. Otliq qizil askarlar Latishev qishlog'i tomondan ot solib kelib, piyoda askarlarni jarga qamab oldi-da, allakim mazax qilib, «pahlavonlar» deb atagan yigirmata karginlik cholni chopib o'ldirdi.

Chekinmaslikka qaror qilingandan keyin Panteley Prokofyevich yana eski «aslga qaytib, battar molparast bo'lib qoldi.

Kechqurun mollarga xashak solgani chiqdi-da, ikkilanmasdan to'ppa-to'g'ri borib, yomon pichandan olaverdi. Qop-qorong'i qo'rada ivirsib, sigirning u yog'idan o'tib, bu yog'idan o'tib qarab, ko'ngli joyiga tushdi va: «Yelini joyida, o'ziyam rosa qorin solibdi. Xudo berib ikkita tug'sa-ya!» degan xayolni ko'nglidan o'tkazdi. Butun mol-u mulk yana avvalgisiday, jondan ham aziz, shakardan ham la-ziz ko'rinib ketdi; xayolan bosh-ko'zdan sadaqa qilib qo'yilgan tamomiy narsa o'z qadr-qimmatiga yana boshqatdan ega bo'ldi. Chol qisqa muddatli oqshom paytida, oxur oldiga kepak to'kkani, tog'oraning muzini ko'chirib tashlamagani uchun Dunyashkani koyib qo'ydi. Stepan Astaxovning to'ng'izi teshgan chetanni ham yamab bo'ldi. Shu orada deraza qopqog'ini berkitmoqchi bo'lib chiqqan Aksinyadan, Stepanning ketish-ketmasligini ham so'rab bildi. Aksinya ro'moliga o'ranib olarkan ohangdor qilib cho'zib gapirardi:

— Be, yo'g'-ey, ketishga majoli yo'q! Pech ustida yotibdi, bezgagi tutyapti chog'i... Peshonasi o'tday yonyapti, ichim og'riyapti deydi. Styopa betob. Ketmaydi...

— Biznikilar ham shu. Biz ham, masalan, ketmaydigan bo'ldik. Oxiri baxayr bo'ladimi-yo'qmi, kim bilsin...

Ilk sahar. Donning naryoqlarida, bo'zargan qoramtir o'rmon ustida, moviy osmon qo'ynida Oltin qoziq charaqlab nur sochadi. Osmonning sharq tomoni qizara boshladi. Tong yorishdi. Baqaterakning tarvaygan shoxlari orasida oy bir parcha siniq o'roqqa o'xshab qotib qolgan edi. Qorlar ustida noaniq soyalar o'rmalashardi. Qor uyumlari qorayib ko'rinardi. Hamma yoq shu qadar jimjit ediki, hatto Donda allakimning lom bilan muz teshayotgani ham Panteley Prokofyevichga eshitalardi; bu Anikushka bo'lsa kerak. Muz parchalari sinib sachrab-sachrab ketar, shishaday jaranglar edi. Qo'rada ho'kizlarning bir maromda kitirlatib pichan kavshagani eshitalardi.

Oshxonada chiroq yoqildi. Derazada Natalyaning soyasi ko'rindi. Issiq uy Panteley Prokofyevichni o'z og'ushiga tortdi. Oila a'zolari jamuljam edi. Dunyashka hozirgina Xristonyaning xotini oldidan kelib,

achitqi solingan idishni bo'shatib turgandi; uning labi labiga tegmas, eshitgan yangiliklarini tezroq gapirib berishga oshiqar edi.

Mehmonxonada esa miltig'ini, to'pponcha va qilichini moylab o'tirgan Grigoriy durbinni sochiqqa o'radi-da, Petroni chaqirdi:

— Sen o'z qurolingni moyladingmi? Olib kel. Ko'mib tashlash kerak.

— Bordi-yu, jon saqlash uchun kerak bo'lib qolsa, nima qilamiz?

— Gapini qara-ya! — deb kuldi Grigoriy. — Ko'zingni och, bola, topib olishsa, tirik qo'yishmaydi.

Ikkisi qo'raga chiqdi. Quollarini, negadir, bo'lak-bo'lak joyga yashirdilar. Grigoriy yap-yangi qora naganni yostiq tagiga tiqib qo'ydi.

Endigina kechki ovqatni yeb bo'lib, gaplar qovushib-qovushmay, yotishga hozirlanganlarida, zanjirdagi ko'ppakning yulqinib, bo'yin ipiga bo'g'ilib, xirillab vovullagani eshitildi. Chol nima gapligini bilgani hovliga chiqib, qosh-ko'zigacha tumog'ini bostirib olgan bir odamni boshlab keldi. Bekam-ko'st qurollangan, belini kamar bilan siqib bog'lagan bu odam kirgan zahoti cho'qinib oldi; oppoq qirov qoplagan «o» harfiga o'xshash og'zidan bug' chiqar edi.

— Meni tanimadinglarmi deyman?

— Iye, bu axir Makar qudamiz-ku! — dedi shang'illab Darya.

Ana shundan keyingina Petro va boshqalar uzoq qarindoshlari bo'lgan Makar Nogaytsevni tanidilar; u tevarak-atrofga nomi ketgan o'tkir ashulachi va aroqxo'r kazak bo'lib, Singin qishlog'idan edi.

— Qaysi shamol uchirdi? — kulib so'radi Petro o'rnidan qo'zg'almasdan.

Nogaytsev mo'yloviga yopishgan yaxlarni yulib-yulib, ostona-ga tashladi, charm qoplangan qo'pol piymalari bilan yer tepindi-da, shoshmasdan yechina boshladi.

— Yakka o'zim chekinaveray desam, zerikadiganga o'xshayman, qani, qudalardan bir xabar olib o'tay-chi, dedim. Ikkovi ham uyda deb eshitdim. Xotininga, Melexovlarnikiga boray-chi, har holda, chakki bo'lmas, dedim.

Makar miltig'ini olib, otashkuraklar yoniga, pechga suyab qo'ydi, buni ko'rib xotinlar kuldilar. O'qdonini pech yonidagi tokcha ostiga tiqdi, lekin qilichi bilan qamchisini karavot ustiga qo'ydi. Bu gal ham uning og'zidan aroq hidi kelar, chaqchaygan

ko'z soqqalari mijgon bo'lib suzilar, ho'l bo'lgan patak soqoli-yu paxmoq mo'ylovlari orasidan chig'anoqqa o'xshash oppoq va tep-tekis tishlari ko'rinardi.

Grigoriy nozik munchoq qadab tikilgan tamaki xaltasini uzatib:

— Singinlik kazaklar jo'namadimi? — deb so'radi. Mehmon xaltani rad etdi.

— Kashanda emasman... Kazaklarmi? Ketadigani ketdi, qolgani sichqonning inini axtarib yuribdi. Xo'sh, jo'naysizmi?

Ilinichna qo'rqib ketdi.

— Biznikilar bormaydi. Avramay qo'ya qol!

— Qoladigan bo'ldingizmi? Sira ishonmayman! Grigoriy, rostmi? Boshlaring ketadi-ya, birodar!

— Peshonamizdan ko'ramiz... — deb xo'rsindi Petro, birdaniga cho'g'day qizarib: — Grigoriy! Sen nima deysan? Ayniganing yo'qmi? Keta qolaylik-a? — deb so'radi.

— Hech-da.

Tamaki tutuni Grigoriyni o'rab oldi, qop-qora jingalak sochlari ustida o'ralashib, anchagacha tarqamadi.

— Otxonani dadam tozalayaptimi? — deb so'radi Petro tomdan tarasha tushganday qilib.

Hamma birdan jimib qoldi, anchagacha churq etgan ovoz chiqmadi. Faqat Dunyashkaning oyog'i ostidagi charx ariday g'ing'illab, uyquni keltirardi.

Nogaytsev aka-uka Melexovlarga Donetsdan o'tib olish kerakligini aytib avrab oppoq tong ottirdi. Kechasi Petro ikki marta otini egarlamochi bo'lib qo'raga chiqdi-yu, biroq Daryaning yeb qo'yguday bo'lib ko'z olaytirganini ko'rib, ikki safar ham egarini olib qo'yishga majbur bo'ldi.

Tong yorishdi, mehmon ham yo'l taraddudiga tushdi. Kiyinib bo'lgandan keyin, eshikning tutqichidan ushlab turib, jo'rttaga to-mog'ini qirib yo'taldi-da, po'pisa qildi:

— Kim biladi, balki yaxshilikkadir, ammo lekin men bir aytdim-qo'ydim, axiri attang deysan. Nasib qilib, o'sha yoqlardan yana qaytib kelsak, qizillarga Don darvozasini kim ochib berganini, kimlar bu yerda qolib ularga xizmat qilganini eslaringga solib qo'yarmiz... — deb po'pisa qildi.

Ertalabdan boshlab guppa-guppa qor tashladi. Grigoriy hovliga chiqib, Donning naryog'iga qaradi: muz ustidan tushgan yo'l tomon kelayotgan bir to'p odamlar qorasini ko'rdi. Otlar buralib bir narsani zo'r-bazo'r sudrashar, g'ovur-g'uvur, otlarni qistab so'kingan ovozlari eshitilardi. Odamlar va otlarning qoralari qor uchqunlari orasidan arang ko'rinardi. Grigoriy to'rttadan ot qo'shilganini ko'rib, nimaligini angladi: «Batareya... Nahotki qizillar?» degan fikrdan yuragi orqasiga tortib ketdi, lekin o'ylanib turib, o'zini bosib oldi.

Odamlar gala-gala bo'lishib, daryoning muzlamagan joylarini olisdan aylanib o'tib, qishloq tomon kelaverdilar. Biroq daryodan chiqaverishda oldingi to'p, qirg'oqqa tutashgan muzni sindirib yubordi-da, bir g'ildiragi botib ketdi. Shamol jilovdorlarning qiyqirig'ini, muzlarning qasir-qusurini, tiyg'ongan ot tuyoqlarining tapir-tupurini olib kelardi. Grigoriy molxona tomonga o'tib, ohista mo'ralab qaradi. Suvorilarning shinellaridagi qor bosgan pogonlarni ko'rdi, ust-boshlariga qarab, bular kazaklar ekanini bildi.

Besh daqiqadan keyin, sag'risi keng, bo'ydor ot mingan keksaroq bir vaxmistr darvoza yoniga kelib otdan tushdi-da, tizginini panjaraga bog'lab, uyga kirdi.

— Uy egasi kim? — deb so'radi u salomlashib.

— Men... — deb javob berib Panteley Prokofyevich, «O'g'illaring nega uyda o'tiribdi?» deb, albatta, surishtirsa kerak degan vahimali xayollar ichida kutib turaverdi.

Biroq vaxmistr qordan oppoq bo'lib, qolgan shopday burama mo'ylovini tuzatib, iltimos qildi:

— Baraka topkurlar! Xudo xayr bersin, to'pimizni chiqarishvo-ringlar. Qirg'oqda chiqaverishda o'qiga dovur cho'kib ketdi... Arqon topiladimi? Bu qaysi qishloq? Adashib qoldik. Yelan stanitsasiga borishimiz kerak edi, qor ham rosa bo'ralab uryapti-da, na yo'lni bilib bo'ladi, na boshqani... yo'l yo'qotib, rosa sarson bo'ldik, sal bo'lmasa, qizillarning qo'liga tushayozuvdik.

— Nima deyishga hayronman, xudo haqi... — deb javob qildi Panteley Prokofyevich nima deyishini bilmay.

— Nimasiga hayron bo'lasiz? Manavi yigitlarga qarang... Bizga odam zarur, qarashvorish kerak.

— Men betobman, — deb bahona qildi chol.

— Hali gap shumi, birodarlar? — Vaxmistr bo‘ynini burmasdan, hammaga birma-bir bo‘riday qarab chiqdi. Ovozi o‘zgarib jaranglab ketdi. — Yoki sizlar kazak emasmi? Shunchalik harbiy aslaha nest-nobud bo‘lsa maylimi? Hamma ofitserlar qochib ketishdi, to‘p komandiri o‘rniga yolg‘iz men qoldim, bir haftadan beri otdan tushganim yo‘q, sovuqqa chalindim, oyoq panjalarim irib tushdi, ammo men o‘limga rozi bo‘larmanki, batareyadan ajralmasman! Sizlar bo‘lsangiz... Balli sizga-ye! Yaxshilikcha ko‘nmasangiz hozir kazaklarimni chaqiraman, ana innaykeyin, — vaxmistr ko‘ziga yosh olib g‘azab bilan baqirdi: — Majbur bo‘lasiz, itdan tug‘ilganlar! Bolsheviklar! Onasi baytallar! Seni-chi, hoy chol, o‘zingni to‘pga qo‘shib sudrataman, bilib qo‘y! Darrov borib odamlarni chaqir, agar chiqmasa, xudo ursin, anavi yoqdan turib to‘pga tutaman, qishlog‘ingni yer bilan yakson qilaman...

Vaxmistr o‘z kuchiga unchalik ishonmaganday bo‘lib gapirardi. Grigoriyning unga rahmi keldi. Shapkasini oldi-da, vag‘illayotgan vaxmistrga e‘tibor qilmay, dag‘allik bilan:

— Ko‘p xunob bo‘laverma. Seni qara-yu! To‘pingni chiqarishvoramiz, u yog‘ini xudodan ko‘r, — dedi.

Ostiga chetanlar to‘shab to‘plarni chiqarib berdilar. Ancha odam yig‘ilgan edi. Anikushka, Xristonya, Ivan Tomilin, Melexovlar hamda o‘n chog‘li ayol, to‘pchilarning yordami bilan to‘plarni va o‘q solingan yashiklarni sudrab chiqardilar, itar-itar qilishib, otlarni do‘ngdan o‘tkazishib yubordilar. Muzlab qolgan g‘ildiraklar aylanmay, chana singari qor chizar edi. Ozib ketgan darmonsiz otlar anchayin bir tepadan ham qiynalib chiqardi. Yarmi qochib, yarmi qolgan to‘pchilar piyoda borishardi. Vaxmistr shapkasini olib ta‘zim qildi, yordamlashgan odamlarga minnatdorchilik bildirdi va egar ustida burilib pastak ovoz bilan:

— Batareya, hayda! — deb buyruq berdi.

Grigoriy ehtirom bilan uning ketidan tikilib qoldi, qanday odam ekaniga tushunolmay hayron bo‘ldi. Yoniga Petro keldi-da, mo‘ylovini yamlab turib:

— Hamma ham shunga o‘xshasa ekan! Tinch Donni mudofaa qilmoqni shundan o‘rganish kerak! — dedi. Petroning gapi Grigoriy tushunolmagan masalaga javobday bo‘lib tushdi.

Qulog‘igacha loy bo‘lgan Xristonya ularning oldiga kelib:



— Haligi mo'ylovni aytasanmi? Vaxmistrnimi? — deb so'radi. — G'ayratini ko'r, bunday odam o'laqolsa ham to'plarini yo'lda qoldirmaydi. Menga qamchi o'qталib qolsa bo'ladimi! Urvorishdanam toymaydi bu bachchag'ar, alamzada-da! Piyman bo'lmasa ham boraverdim. Manga qara, u tentak bu to'plarni boshiga uradimi? Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga deganday, qiynalganiga qaramay, boshiga balo bo'lishini o'ylamay, to'p sudrab yuribdi-ya...

Kazaklar miyig'ida kulishib indamay tarqaldilar.

## XVI

Vaqt peshindan o'tganda Donning narigi yoqlaridan ikkita sidirg'a tarillagan pulemyot ovozi keldi-da, jimib qoldi.

Oradan yarim soat o'tgach, deraza yonida ko'chaga tikilib turgan Grigoriy orqasiga tislandi, ranggi qum o'chib ketdi.

— Ana, qizillar!

Ilinichna «voh» deb deraza yoniga yugurdi. Ko'chada sakkiz otliq yoyilib, ot choptirib kelmoqda edi. Ular otlarini yeldirib kelib, Melexovlar qo'rasi oldida to'xtadilar, daryodan o'tiladigan joyni, Don bilan tog' orasidagi yolg'izoyoq yo'lni ko'zdan kechirib, izlariga qaytdilar. Ostlaridagi semiz otlar cho'ltoq dumlarini likillatib, shataloq otib qoritardi. Qishloqning aroyishini olgani kelgan otliq razvedka ko'zdan g'oyib bo'ldi. Oradan bir soat o'tgach, Tatarsk qishlog'ini g'archg'urch oyoq tovushi, o-olab gaplashgan yot ovozlari, ytlarning akillashi bosib ketdi. Pulemyotlarini chanaga ortgan piyoda polk oboz-u oshxonalarini bilan Dondan o'tib qishloqqa yoyildi.

Dushman askari qishloqqa bostirib kira boshlagan dastlabki daqiqalarda hamma yoqni vahima bosib ketganiga qaramay, qaqa-jon Dunyashka shunday paytda ham qiziqchiligini qo'ymadi: otliq razvedkachilar iziga qaytib ketayotganini ko'rib, piqirlab kulib yubordi-da, oshxonaga chopib chiqdi. Natalya uni ko'rib qo'rqib ketdi.

— Senga nima bo'ldi?

— Voy, Natashenka! Voy, jonginam-ey!.. Anavilarning ot minishini bir ko'rganingda edi! Egarga sirayam qovushmabdi: nari borib, beri keladi, xolos. Qo'llari bo'lsa, tirsagi singanday lapang-lapang qiladi.

O'zlariga qarasang, xuddi lattadan qilingan qo'g'irchoq deysan, chuvalib ketay deb zo'rg'a turibdi!

Dunyashka qizillarning otda ketishini shu qadar o'xshatib taqlid qildiki, Natalya kulgisini arang bosib, yugurgancha borib o'zini karavotga tashladi-da, qaynatasining zardasini qaynatmaslik uchun boshini yostiqa burkab oldi.

Panteley Prokofyevich junjikib, titroq bosib, skameyka ustidagi bigiz-u juvoldizni, mixcho'p solingan qutichani beixtiyor u yoqdan bu yoqqa surar, qisiq ko'zlarini o'qraytirib dam-badam derazaga qarardi.

Xotinlar esa, xuddi jin tekkanday, oshxonani boshiga ko'tarib kullishardi. Yuzi qirmizi Dunyashka, shabnam tushgan charosday namli ko'zlarini yalt-yult o'ynatib, qizil askarlarning egarda o'tirishini be-adabona harakatlar bilan taqlid qilib, Daryani kuldirardi. Daryaning bo'yalgan qop-qora qoshlari kulgining zo'ridan kamonday bukilardi; u hoholab kular, xirillab zo'rg'a gapirardi:

— Bu minishida chalvariga javr, yeyilib ilma-teshik bo'ladi... O'lma, chavandoz! — Egarning qoshini ham sindiradi!..

Hattoki, mehmonxonadan qovog'i osilib chiqqan Petroga ham bu-larning kulgisi ta'sir qildi.

— Otda yurishi g'alatimi? — deb so'radi u. — Ularga baribir, otga achinishmaydi. Bunisi yag'ir bo'lsa, boshqasini tortib olishadi. Mujik-da! — Petro benihoya nafrat bildirib qo'l siltadi. — Umrida ot ko'rmagan bo'lsayam ajabmas: «Ot ko'rmagan ot ko'rsa, mina-mina o'ldirar». Ota-bobolari aravaning g'ijirlaganidan hurkishardi, endi bu-lar chavandoz bo'lmoq-chi!.. He, attang! — U barmoqlarini qisirlatdi-da, mehmonxonaga kirib ketdi.

Qizil askarlar ko'chadan to'dalashib kelishar, to'p-to'p bo'lib qo'ralarga kirishardi. Uchtasi Anikushkaning darvozasi tomon burildi, to'rtta askar bilan bir otliq, Astaxovning uyi oldida qoldi, qolgan besh-tasi chetan devor yoni bilan to'g'ri Melexovlarnikiga qarab kelaverdi. Oldindagisi o'rta bo'yli, yoshi qaytgan, soqoli olingan, burni yapaloq, xushbichim bir qizil askar bo'lib, uning epcilligidan va butun va-johatidan front ko'rgan eski tullak ekani bilinib turardi. Melexovlar qo'rasiga eng oldin o'sha kirdi, zinapoya oldida to'xtab, zanjirdagi sa-riq ko'ppakning jon-jahdi bilan xirillab vovullashiga birpas quloq solib turdi; so'ngra miltig'ini yelkadan oldi. O'q tovushining zarbi tom-da-

gi qirovni to‘zitib yubordi. Grigoriy tomog‘ini bo‘g‘ayotgan yoqasini ochib derazaga qaradi-yu, qor ustida ag‘anab qorni qip-qizil qon qilib, jon azobida to‘lg‘anib goh o‘q tekkan biqinini, goh zanjirini chaynayotgan itini ko‘rdi. Buriilib uydagilarga qaradi: ranglari o‘chib ketgan ayollarga, hang-mang bo‘lib qolgan onaning ko‘zlariga ko‘zi tushdi. U boshyalang holicha dahliz tomon yulqindi.

– Chiqma! — deb baqirdi otasi g‘alati ovoz bilan.

Grigoriy eshikni lang ochdi. Otilgan o‘qning gilzasi ostonaga jaranglab tushdi. Keyin qolgan qizil askarlar ko‘cha eshikdan hovliga kira boshladilar.

Grigoriy ostonadan turib:

– Nega itni o‘ldirding? Senga bir nima qildimi? — deb so‘radi.

Qizil askar burun parraklarini kerib, pishqirib nafas oldi, tap-taqir qirilgan lablarining ikki cheti osilib ketdi. U bir qarab qo‘ydi-da, miltig‘ini qo‘lga oldi.

– Nima ishing bor? Itingga achindingmi? Bir o‘q bilan seniyam joylayman-qo‘yaman, ketgan o‘qimga achinmayman. Qalay, tobing bormi? Qani, kel!

– Hoy-hoy, bas qil, Aleksandr! — dedi mojaro ustiga yetib kelgan mallaqosh, novcha qizil askar kulimsirab. — Salom, xo‘jayin! Qizil-larga ko‘zingiz uchib turuvdimi? Uyingizdan joy berasiz endi. Itingiz-ni shu odam otdimi? Attang-a!.. O‘rtoqlar, kiravering.

Eng keyin Grigoriy kirdi. Qizil askar yigitlar xushchaqchaqlik bilan so‘rashdilar, charmdan tikilgan yaponcha o‘qdoplarini, xaltalarini yelkalaridan olib qo‘ydilar, shinellarini, paxtali kamzul-u shapkalarini karavot ustiga uyib tashladilar. Birpasning orasida butun uy ichini soldatlikning ayrilmas yo‘ldoshi bo‘lgan ter isi, tamaki sassig‘i, arzonbaho sovun bilan miltiq moyining hidi bosib ketdi, bu achigan, bijigan hidlar, bosib o‘tilgan uzoq yo‘llardan xotira edi.

Haligi Aleksandr ismli odam stol yoniga o‘tirib papiros chekdi, so‘ngra, eshikdagi mojaroni yana qo‘zg‘ash niyatida:

– Sen oqlarda bo‘lganmisan? — deb so‘radi Grigoriydan.

– Ha...

– Ana, ko‘rdingmi... Men boyqushni qanot qoqishidan, sendaqalarni mishig‘ini tortishidan darhol ajrataveraman. G‘irt oq! Ofitsersan-a? Oltin pogonlaring bordir?

U ustma-ust burqsitib burnidan tutun chiqarar, kesaki yonida turgan Grigoriyga yeb qo'yguday bo'lib xunuk tikilar, tamakidan qoraygan tirnog'i bilan hadeb papirosini chertardi.

— Ofitserligingni topdimmi? Bo'yningga olaver!

Bichimingdan bilib turibman; o'zim ham german urushida qon kechganlardanman.

— Ofitser bo'lganman, rost, — deb Grigoriy zo'rma-zo'raki iljaydi, lekin Natalyaning kapalagi uchib, javdiragan ko'zlari bilan iltijo qilib boqqanini ko'rdi-da, qovog'ini solib, qoshlarini chimirib oldi. O'z tabassumidan o'zi uyalib ketdi.

— Attang! Itni emas, seni otsam bo'lar ekan... Qizil askar papiros qoldig'ini Grigoriyning oyog'i ostiga tashladi-da, sheriklariga ko'z qisib qo'ydi.

Grigoriy lablari qiyshayib, yana beixtiyor gunohkorona iljaya boshlaganini sezib qoldi-da, o'zining bu qadar irodasizligidan uyalib, qizarib ketdi. «Qilg'ilikni qilib qo'yib, egasiga suykangan itga o'xshadimku», — deb o'ziga-o'zi dashnom berdi u, shunday ko'z o'ngida, otilgan oq to'sh ko'ppakning atlasday qop-qora lablarini yirib, xuddi shu xilda tirjayishi namoyon bo'ldi, chunki ko'ppak ham har doim yoniga Grigoriy kelganda, bersa to'ydiradigan, ursa o'ldiradigan xo'jayin kelganini sezib, darrov chalqancha yotib olib, tishlarini ko'rsatar, momiqday malla dumini tap-tap yerga urardi...

Panteley Prokofyevich yana Grigoriyni xayratda qoldirgan boyagidek boshqacha ovoz bilan:

— Mehmonlar ovqatlanishmasmikan? — deb so'radi. — Istasalar, kampirga buyuray...

Ilinichna mehmonlarning javobini kutmasdan pech yoniga bordi. Qo'lidagi otashkurak qaltiraganidan kampir karam sho'rvali dekchani ko'tara olmasdi. Darya ko'zini yerdan uzmay stol ustiga non qo'ydi. Qizil askar yigitlar cho'qinmasdan o'tira boshladilar. Chol vahimaga tushib, nafrat bilan ularni tomosha qilardi. Nihoyat, chiday olmay:

— Bundan chiqdi, ibodat qilishni ham tark etibsiz-da? — deb so'radi.

Ana shundan keyingina Aleksandrning chiroyi sal-pal ochildi.

— Sizga ham maslahat shu, ota, ibodatni yig'ishtirib qo'ya qoling! Biz allaqachon hamma xudolarning dumini tugib yuborganmiz... Xudo yo'q, lekin ahmoqlar:

«Xudo bor» deb ishonadi, manavi yog‘och butlarga qarab cho‘qinaveradi.

Uning cholga bergan javobiga sheriklari bab-baravar hoholab ku-lishdi.

— Shunday, shunday... Bilimdon kishilarga, albatta, hamma gap ayon-da, — deb qo‘rqqanidan e‘tiroz bildirmadi Panteley Prokofyevich.

Darya har qaysisining oldiga bittadan qoshiq qo‘yib chiqdi, biroq Aleksandr o‘z oldidagi qoshiqni nari itarib:

— Tunuka qoshiq topilmaydimi? — deb so‘radi. — Bir kami yuqumli kasal orttirish qoluvdi. Shuyam qoshiqmi?

Darya tutaqib ketdi.

— Tekin ovqat yegan odam o‘z qoshig‘ini olib yuradi.

— Hoy, og‘zingga qarab gapir, oyimtilla! Boshqasi yo‘qmi? Unday bo‘lsa, toza sochiq keltir, manavini artib olay.

Ilinichna tog‘orachada karam sho‘rva qo‘ydi, lekin Aleksandr:

— Onajon, oldin o‘zing ichib ko‘r-chi! — deb unga ham tiqilinch qildi.

— Nimasini ko‘raman? Yo tuzi sho‘r bo‘libdimi? — deb qo‘rqib ketdi kampir.

— Ichib ko‘r, oldin sen ich! Balki dori-pori solgandirsan...

— Ich, axir! Bo‘l! — deb qat‘iyan buyurdi Panteley Prokofyevich va lablarini chirt yumib oldi. Shundan keyin u qaznoqdan kosiblik asboblarini olib keldi-da, kundani deraza tomon surib qo‘ydi, moychi-roqning piligini tuzatib, eski etikni tizzasiga qo‘yib ishga tushib ketdi. Chol yana qayta gapga aralashmadi.

Petro mehmonxonadan chiqmadi. Natalya ham bolalari bilan o‘sha uyda edi. Dunyashka oldin pechga suyanib, paypoq to‘qiyotgan edi, lekin qizil askarlardan biri uni «jonon» deb, ovqatga taklif etgandan keyin u ham chiqib ketdi. Gap to‘xtab qoldi. Qizil askarlar ovqatdan keyin papiros cheka boshladilar.

— Cheksak mumkinmi? — deb so‘radi malla qoshli bir askar.

— Bizda ham chekuvchilar ko‘p, — deb noxushroq javob berdi Ilinichna.

Grigoriyga papiros tutishgan edi, lekin u olmadi. Uning ichini it tinar, haligi it otgan odamga ko‘zi tushgan sari yuragi orqasiga tortib

ketardi, chunki u hadeb surbetlik qilib, Grigoriyni pisand etmasdi. Af-tidan, u Grigoriyning jig'iga tegish, ta'bini xira qilish uchun bahona topolmay, gap kovlayotganga o'xshardi.

— Qaysi polkda xizmat qilgansiz, janobi oliylari? — deb so'radi u Grigoriydan.

— Turli polklarda.

— Biznikilardan qanchasini o'ldirgansiz?

— Urushda sanab o'tirilmaydi. Sen meni, onadan ofitser bo'lib tug'ilgan deb o'ylamay qo'ya qol, o'rtoq. Men german urushidan ofitser bo'lib qaytdim. Manavi lash-lushlarni jangovar xizmatlarim uchun berishgan...

— O'rtoq dema! Sendek ofitserlarga o'rtoq emasman! Sendaqalar-ni otib tashlash kerak. Men ham gunohdan pok emasman, nechtasini o'z qo'lim bilan otib o'ldirganman.

— Senga ikki og'iz gap bor, o'rtoq... Judayam haddan oshib ket-yapsan: qishloqni jang bilan olgan bo'lsangiz ham mayli edi. O'zimiz frontni tashlab, sizga yo'l ochib berdik, sen bo'lsang qon to'kib shahar olgan odamga o'xshaysan... It o'ldirish hammaning qo'lidan keladi, qurolsiz kishini masxara qilish, otib tashlash ham qiyin emas...

— Sen menga korchalonlik qilma! Bilamiz sizlarni! «Frontni tash-lagan» emish-a! Adabingizni bermasak, do'ppi tor kelmaganda, tash-lamasdingiz. Men sen bilan hali boshqacharoq gaplashishim mumkin.

— Qo'ysang-chi, Aleksandr! Hammani bezor qilding-ku! — deb yalindi mallaqosh.

Biroq Aleksandr burun parraklarini kerib, pishillab nafas olib, Gri-goriyning oldiga borib qolgan edi.

— Sen-chi, ofitser bola, mening jig'imga tegma, oxiri yomon bo'ladi.

— Men sizga tegayotganim yo'q.

— Yo'q, tegyapsan!

Eshik qiya ochilib, Natalya titroq ovoz bilan Grigoriyni chaqirdi. Grigoriy, ro'parasida turgan qizil askardan chetlanib o'tdi, eshik oldi-ga yetganda, mast odamday gandaraklab ketdi. Petro shivirlagan ovoz bilan zahrini sochib, unga yopishib ketdi:

— Sen nima qilyapsan o'zing?.. U kasofat bilan o'chakishib nima qilasan? U bilan nega aytishasan? Hammamizni baloga qo'yasan, axir!

O'tir!.. — Grigoriyni zo'rlab sandiq ustiga o'tirg'izdi-da, o'zi oshxonaga chiqdi.

Grigoriy og'zini kappa-kappa ochib, entikib nafas olardi, qoramtir yonoqlarining qizili tarqala boshladi, xiralashgan ko'zlari asta-sekin yasliga keldi.

— Grisha! Grishenka! Jonginam! Yoniga bora ko'rma! — deb yalinar edi Natasha va qaltirab-titrab, bo'kirib yig'lamoqchi bo'lgan bolalarining og'izlarini qo'li bilan yopardi.

— Nega ketavermadim-a? — dedi Grigoriy, g'am to'la ko'zlarini Natalyaga tikib. — Janjal qilmayman, yig'lama! Bunga chidab bo'ladimi, axir.

Keyin yana uchta qizil askar keldi. Ko'rinishidan boshliqqa o'xshagan qora papaxli odam:

— Bu uyga necha kishi qo'yildi? — deb so'radi.

— Yetti kishi, — deb hammadan oldin javob berdi mallaqosh.

— Pulemyotchilar shu yerga joylashadi. Surilishib joy beringlar.

Uchovi chiqib ketdi. O'sha zahotiy oq darvoza g'ijirlagani eshitildi. Ikkita arava hovliga kirdi. Pulemyotning birini dahlizga qo'ydilar. Al-lakim qorong'ida gugurt chaqib, o'zidan o'zi qattiq so'kinar edi. Bos-tirma tagida papiros chekib, pichan olib g'aram yonida o't yoqishsa hamki, uy egalaridan birontasi chiqib xabar olmadi.

Ilinichna erining oldidan o'tayotib:

— Otlarga qarab kelsang bo'lardi, — deb shivirladi.

Chol kiftini qisdi, lekin joyidan qo'zg'almadi. Tuni bilan eshik ochilib, yopilaverib bezor qildi. Oppoq bug' shiftga urib, devorlar-ga o'tirib qolardi. Qizil askarlar uchun mehmonxonaga, yerga joy qilishdi. Grigoriy sholcha keltirib ostlariga to'shab berdi, boshlariga po'stinlarini qo'yishdi.

— Men ham armiyada bo'lganman, xizmat nimaligini bila-man, — dedi Grigoriy haligi odam bilan yarashish niyatida kulimsi-rab.

Lekin qizil askarning katta-katta burun kataklari kerilib, Grigoriy-ga o'qrayib qarab qo'ydi.

Grigoriy bilan Natalya o'sha uyda karavotda yotdilar. Qizil askar-lar miltiqlarini boshlariga qo'yib, sholcha ustiga yumalasha ketdilar. Natalya chiroqni o'chirmoqchi bo'lgan edi, birdaniga:

— Senga birov chiroqni o‘chir dedimi? — degan xunuk ovoz eshitildi. — Tegma! Piligini pasaytirib qo‘y, tong otguncha yonib tursin.

Natalya bolalarini oyoq tomonga yotqizdi, o‘zi yechinmasdan devor tagiga yotdi. Grigoriy qo‘llarini boshiga qo‘yib olib, churq etmay yotar edi.

«Agar chekinganimizdami... — yuragini hovuchlab xayol surardi Grigoriy tishini tishiga qo‘yib. — Yaxshiki ketmadik, xuddi mana shu karavot ustida Natashkaning oyoq-qo‘llarini bog‘lashib, Polshadagi Franyaga o‘xshatib, rasvo qilishardi...»

Qizil askarlardan bittasi hikoya boshlagan edi, biroq tanish ovoz aralashib gapning beliga tepdi, g‘ira-shira qorong‘ida aljishga tushdi:

— Uh, xotinsiz qiyin ekan-da! Tish-tirnog‘im bilan yopishardim... Biroq xo‘jayin, ofitser ekan... Ular bizdaqa mishiqlarni... xotinlarining yaqiniga ham yo‘latishmaydi... Eshitdingmi, xo‘jayin?

Qizil askarlardan biri darrov xurрак otishga tushdi, yana bittasi uyqu aralash kuldi. Mallaqoshning do‘q qilib gapirgani eshitildi:

— Hoy, Aleksandr, senga gapira-gapira o‘lib bo‘ldim. Qaysi uyga borsang, janjal boshlaysan, bezorilik qilasan, qizil askarlik nomini bulg‘aysan, xolos. Uyat bo‘ladi, axir! Men hozir komissar yo rota komandiriga borib aytaman. Eshitdingmi? Tanobingni tortib qo‘ymasak, bo‘lmas ekan!

Uy ichi suv quygandek jimib qoldi. Faqat, mallaqoshning pishillab etik kiyayotganigina eshitalardi. Bir daqiqadan keyin u eshikni taraqlatib, chiqib ketdi.

Natalya o‘zini tutolmay qattiq hiqillab yig‘ladi. Grigoriy qaltiragan qo‘li bilan uning boshini, ter bosgan peshonasi-yu, jiqqa ho‘l betlarini silay boshladi; uning o‘ng qo‘li o‘z ko‘ksini timirskilar, barmoqlari esa, beixtiyor qimirlab, ichki ko‘ylagining tugmachalarini goh yechar, goh qayta tugmalar edi.

— Jim, ovozingni chiqarma! — eshitarlar-eshitilmas qilib shivirladi u Natalyaga. Grigoriy shu topda har qanday qiynoqqa bardosh berishga, turli-tuman xo‘rlikni boshidan kechirishga tayyor ekanini aniq bildi, nima bo‘lsayam, ishqilib, o‘z jonini va tug‘ishganlarining hayotini saqlab qolish zarurligini tushundi.

Gugurtning yorug‘i, turib o‘tirgan Aleksandrning yuzini, yapa-loq burnini, papiros so‘rgan og‘zini yoritdi. Uning past ovoz bilan



ping‘illagani, uh tortib kiyina boshlagani xilma-xil xurraklar ichidan eshitilardi.

Grigoriy tashqariga betoqat bo‘lib quloq solar ekan, mallaqosh yigitdan behad minnatdor edi. Birdaniga deraza orqasidan tapirlab kelayotgan, g‘azablanib gapirayotgan ovozlarni eshitib suyunib ketdi.

— Hadeb shilqimlik qiladi... judayam jonga tegdi... nima qilishimni bilmayman... toza balo bo‘ldi, o‘rtoq komissar...

Oyoq tovushlari dahlizdan eshitildi, g‘iyq etib eshik ochildi. Allakim komandirlarga xos qo‘ng‘iroqday ovoz bilan buyurdi:

— Aleksandr Tyurnikov, tez kiyin va bu yerdan darhol chiqib ket. Men turgan uyga borib yotasan, qizil askarlik sha‘niga nomunosib qiliqlaring uchun seni ertaga sud qilamiz.

Eshik oldida mallaqosh bilan yonma-yon turgan qora charm kurtkalik kishining o‘tkir ko‘zlari Grigoriyga do‘stona tikildi. U odam o‘zi yosh bo‘lsa ham, yigitlarga xos qat‘iyligi qiyofasidan ko‘rinib turardi; endigina maysa bosib kelayotgan lablarini g‘ururlik bilan mahkam yumib olgan edi.

— Sizlarni bezovta qildimi, o‘rtoq? — deb so‘radi u sal-pal kulimsirab Grigoriydan. — Yaxshi, endi bemalol uxlayveringlar, ertaga biz uning tanobini tortib qo‘yamiz. Xayrli kech. Ketdik, Tyurnikov!

Ketishdi, Grigoriy ham erkin nafas oldi. Ertalab mallaqosh yotoq va ovqat uchun pul to‘layotib, jo‘rttaga sheriklaridan keyin qoldi-da:

— Sizlardan iltimos, kechagi gaplarga xafa bo‘lib yurmanglar tag‘in, — dedi. — Bizning bu Aleksandrning miyasi biroz aynigan. Onasi bilan singlisini ofitserlar Luganskda, — o‘zi Luganskda tug‘ilgan, — uning ko‘zi oldida otib tashlaganlar. O‘shaning alami... Xayr, rahmat. Sog‘ bo‘linglar. Aytganday, bolalarga hech nima bermabman-ku! — U shunday deb buyum soladigan xaltasidan kir bosgan qand oldi-da, bir chaqmoqdan ulashib, bolalarni haddan ziyoda suyuntirdi.

Panteley Prokofyevich ta‘sirlanganidan nabiralariga javdirab tiki-lar va derdi:

— Ana sizlarga sovg‘a! Biz buni, bu qandni ko‘rmaganimizga bir yarim yildan oshdi... Iloyo, seni xudo asrasin, o‘rtoq! Amakiga qulluq qilingerlar! Polyushka, rahmat desang-chi!.. Qovog‘ingni solib turaverasanmi, bolam?

Qizil askar chiqib ketdi, chol Natalyaga zahrini socha boshladi:

— Nodonligingni qara! Loaqal picha bo‘g‘irsoq ham bermading. Yaxshilik qilgan odamni siylasang o‘lasanmi? Eh!

— Yugur! — deb buyurdi Grigoriy.

Natalya boshiga ro‘molini tashlab yugurganicha, ko‘cha eshikda mallaqoshga yetib oldi va xijolatdan qizarib-bo‘zarib, uning quduqday chuqur cho‘ntagiga bo‘g‘irsoq solib qo‘ydi.

## XVII

Ayni tush payti, qizil bayroq ordenli 6-Msenski polki ayrim kazklarning safga yaroqli otlarini olib, shoshilinch sur‘atda qishloqdan o‘tib ketdi. Do‘ngning naryoqlarida otilayotgan to‘plarining ovozi eng olis joylarga gumburlab borardi.

— Chir bo‘yida jang bo‘lyapti, — deb aniqladi Panteley Prokofyevich.

Kunbotar mahalida Petro ham, Grigoriy ham bir necha martadan qo‘raga chiqib keldilar. Ust-Xopyordan narida, allaqaysi yoqlarda otilayotgan to‘plar sadosi Don atrofiga sekin-asta taralardi, agar muzlagan yerga yotib quloq solinsa bormi, pulemyotlar tarillagani ham eshitalardi.

— U yerdagilar ham tuppa-tuzuk ish ko‘rsatyapti! General Guselshikov bilan gundorovchilar o‘sha yoqda, — dedi Petro tizzasiga va papaxiga yopishgan qorni qoqib. So‘ngra gapni boshqa tomonga burib bunday dedi:

— Otlardan ajraydigan bo‘ldik, Grigoriy, sening oting judayam ko‘zga yaqin, xudo ursin, olib ketishadi!

Biroq chol ulardan ilgariroq chorasini ko‘rib qo‘ygan edi. Kechqurun Grigoriy ikki otni sug‘organi olib chiqdi, eshikdan chiqqanda bunday qarasa, ikkala ot ham oldingi oyog‘ini bosolmaydi. O‘zinikini yetaklab ko‘rdi, butunlay oqsoq; Petroniki ham shu ahvolda.

Shunda akasini chaqirdi:

— Otlar oyoqdan qolibdi, ana ko‘rgilik! Seniki o‘ng oyog‘ini bosolmaydi, meniki chap oyog‘ini. Qoqilgani yo‘q edi-ku... Yo tuyog‘iga qurt tushganmikin.

Binafsharang qorong‘i bosgan qorda, kechki yulduzlarning xira nurida otlar o‘ynoqlashini unutib, bo‘yinlarini egib, jim turishardi. Petro fonusni yoqdi, biroq g‘aram tomondan kelayotgan otasi uni to‘xtatdi:

- Fonusni nima qilasan?
- Otlar oqsab qolibdi, dada. Oyog‘iga yem tushganga o‘xshaydi.
- Yem tushsa, qaytaga yaxshi emasmi? Yoki bironta mujik egarlab olib ketsin deysanmi?
- Bir hisobda oqsagani ma‘qul...
- Grigoriyga borib ayt, o‘zim jo‘rttaga oqsatib qo‘yganman. Bolg‘ani olib, payidan pastroqqa bittadan mix qoqdim, endi to front uzoqlashguncha oqsayveradi.

Petro boshini sarak-sarak qilib, mo‘ylovini tishladi-da, Grigoriyning oldiga bordi.

- Olib kirib oxurga bog‘lab qo‘y. Otam ataylab oqsatgan ekan.
- Qari bilganni pari bilmas... Kechasi qishloqni yana g‘ovur-g‘uvur bosib ketdi. Ko‘chalarda otiqlar olatasir yugurishib qoldi. Batareya o‘nqir-cho‘nqirlardan, o‘pirilgan joylardan shaldiratib o‘tib, maydonga burildi. 13-suvoriylar polki tunash uchun qishloqqa tushdi. Melexovlar uyiga Xristonya kirib keldi-da, cho‘nqayib o‘tirib papiros chekdi.

- Qizillar yo‘qmi? Siznikiga tushishmadimi?
- Hozirchalik xudo asrab turibdi. Bir kelishgan edi, butun uy ichini sasitib jo‘nab ketishdi! — deb po‘ng‘illadi Ilinichna.

Xristonya bo‘shashib, shivirlab zo‘rg‘a tilga keldi:

- Menikiga kirishdi, — dedi-da, ko‘z yoshlarini kattakon kafti bilan artdi. Biroq o‘zini tuta olmaganiga o‘zi xijolat tortganday bo‘lib, xumkalla boshini bir silkitib oldi-da, tomog‘ini qirib yo‘talib qo‘ydi.

Umrida Xristonyaning ko‘z yoshini ko‘rmagan Petroning kulgisini qistab:

- Sizga nima bo‘ldi, Xristonya? — deb so‘radi; uning avzoyini ko‘rib Petroning chehrasi ochilib ketdi.

– Qora to‘riqni olib ketishdi... German urushiga minib borgan otm edi... Og‘ir kunlarda jonimga oro kirgan edi... Ot emas, odamga o‘xshardi, biram aqlli ediki... Tag‘in xo‘jayinlik qiladi: «Egarlab ber, meni yo‘latmayapti», — deydi... «Kerak bo‘lsa, o‘zing egarlab ol, nima, men senga ot egar-

lab beradigan bo'lib, doim ketingda yuramanmi?» — dedim. Egarladi. Durustroq odam bo'lsayam mayliydi... Bo'yi bir qarich! Belimdan keladi, uzangiga oyog'i yetmaydi... Zinapoya oldiga yetaklab kelib mindi... Bo'taday bo'zlavordim... Xotiningma: «Ko'rdingmi, qashlab-siyapab, boqib-boqib, mana ahvol», — deb yig'ladim... Xristonya yana shivirlab gapirishga o'tdi va o'rnidan turdi. — Otxonaga borishga yuragim bezillaydi! Qo'ra ko'zimga baloday ko'rinib qoldi...

— Menikining bahosi yo'q. Uchta otim urushda o'q yeb o'ldi, bu to'rtinchisi, osonlikcha buni... — Grigoriy birdaniga to'xtab, qulog'ini dikkaytirdi. Deraza ortida qor g'archilladi, qilich shaloplangani va birovning astagina: «rrrr-r!» degani eshitildi. — O', bizgayam kelishdi. Yer tagida ilon qimirlasa bilishadi bu iskovichlar! Yoki birov aytdimikin...

Panteley Prokofyevich pitirlab, qo'li ortiqchalik qilib, qayga qo'yishni bilmay qoldi.

— Xo'jayin! Bu yoqqa chiq!

Petro chakmonni yopinib eshikka chiqdi.

— Otlaring qani? Olib chiq!

— Bajon-u dil olib chiqardim, o'rtoqlar, lekin oyoqlariga yem tushgan.

— Yemga balo bormi? Olib chiq! Tekinga olmaymiz, qo'rqma.

O'rniga o'z otlarimizni qoldiramiz.

Petro otlarni bittalab otxonadan yetaklab chiqdi.

— Uchinchisi qoldi-ku. Nega uni olib chiqmaysan? — deb so'radi qizil askarlardan biri otxonaga fonus tutib.

— Unisi biya, bo'g'oz, judayam qari, yuzga borgan chog'i...

— Hoy, egarni olib kel!.. Shoshma-chi, rostdan ham oqsayapti-ku...

— Boshimga uramanmi bu cho'loq otlarni, jin urgur? Joyiga olib kirib qo'y!.. — darg'azab bo'lib baqirdi fonus tutgan qizil askar.

Petro no'xtabog'dan tortib otlarni qaytardi-da, bujmaygan aftini fonusdan teskari o'girib oldi.

— Egarlaring qayerda?

— Bugun ertalab o'rtoqlar olib ketishdi.

— Yolg'on aytasan! Kim oldi?

— Xudo haqi, rost!.. Xudo ursin, olib ketishdi! Msensk polki shu yerdan o'tayotib olib ketdi. Egarlardan tashqari yana ikkita xomut ham olishdi.

Uch otliq, so'kina-so'kina jo'nab ketdi. Petro ter va shaltoq isiga botib uyga kirdi. Lablarini cho'chchaytirib, maqtangisi kelib, Xristonyaning kiftiga qoqib qo'ydi.

— Mana bunday qoyil qilish kerak! Otlar cho'loq, egarlarni olib ketishdi, vassalom... Hey, kallavaram!..

Ilinichna chiroqni o'chirdi-da, qorong'ida timirskilab, mehmonxonaga to'shak sola boshladi.

— Qorong'ida o'tira qolaylik, chiroqni ko'rsa, balo-qazoday kirib kelishar tag'in.

\* \* \*

O'sha kechasi Anikushkanikida o'tirish bo'ldi. Qizil askarlar qo'shni kazaklarni ham chaqirib kelishni iltimos qildilar. Anikushka Melexovlarni chaqirgani bordi.

— Qizillar deysizmi?! Qizil bo'lsa nima qilibdi? Ular ham cho'qingan, xuddi bizday ruslar. O'lay agar. Xoh ishonimg, xoh ishonmang... Shularga rahmim keldi... Yo ular odammasmi? Oralarida bitta juhud bor, u ham odam-da, juhudlarni Polshada rosa qirganmiz... Hm! Ammo, lekin manavisi menga bir stakan aroq tutdi. Juhudlarni yaxshi ko'raman-da!.. Qani, yur, Grigor! Petya! Mendan hazar qilma...

Grigoriy ko'nmadi, biroq Panteley Prokofyevich bormaganiga qo'ymadi:

— Borgin, yo'qsa, bizni nazariga ilmapti, deyishi mumkin. Sen bor, eski gapni ko'nglingga keltirmay boraver.

Hovliga chiqishdi. Tunning iliqligi ob-havoning yaxshi kelishidan darak berardi. Hamma yoqdan tezak tutuni va kul hidi kelardi. Kazaklar birpas to'xtab turishdi-da, yo'lga tushishdi. Ko'cha eshik oldida Darya ularga yetib oldi.

Surma qo'yilgan qalam qoshlari g'ira-shira oy nurida qora duxoba singari yiltirardi.

— Mening xotinimga toza ichirishyapti... Lekin bekorga ovora bo'lgani qoladi. Ikki ko'zim xotinimda... — deb valdirardi Xristonya, biroq samogondan kayfi oshib oyoqda turolmas: goh chetan devorga yiqilar, goh yo'ldan chiqib qorga tiqilar edi.

Ko'kimtir bo'lib tovlangan qumoq qor oyoqlar ostida qanday qir-sillardi. Izg'irin turganidan, osmon doka pardaga burkanib olgandek edi.

Shamol papiros uchqunlarini uchirib, qorlarni to'zitib yurardi. Lochinday uchib borib yulduzlar ostida yurgan barra bulutlarga chang solardi, ana shundan keyin jimib qolgan yer ustiga oppoq patlarga o'xshash laylakqor lopillab yog'a boshlardi, qishlog'-u dashtlarni, bir-birini kesib o'tgan yo'llarni, odam-u hayvon izlarini ko'mib tashlardi...

Anikushkaning uyi dim, odamning dami qaytadi. Havo yetishmaganidan lampasi tutab, shishasidan qop-qora dud ko'tarilmoqda, lekin tamaki tutunidan hech kim buni ko'rmaydi. Garmonchi qizil askar uzun-uzun oyoqlarini kerib olib «Saratovcha» raqsni do'ndirolmay, garmonni quloch baravar cho'zib chalmoqda. Qizil askarlar va qo'shni xotinlar o'rindiqlarda o'tirishibdi. Paxtali shim, katta qo'njli, antiqa shporli etik kiygan devday bir odam Anikushkaning xotinini yoniga olvolib gapga solmoqda. Ko'k barra shapkasini ensasidagi jingalak sochlari ustiga qo'yib olibdi, qoramag'iz yuzi terlab ketgan. Terlagan ho'l qo'li bilan Anikushkaning xotinini pinjiga tortadi.

Juvonning kayfi oshib qolgan: og'zi qiyshayib o'zini eplolmas, qimirlashga majoli yo'q; erini ham ko'ryapti, xotirlarning iljayib kulishganini ham, biroq bu zabardast qo'lni kiftidan olib tashlashga holi kelmaydi. Sharm-u hayoni yo'qotganday mast-alast bo'shshib kuladi, xolos.

Stol ustida og'zi ochiq ko'zachalar turibdi, uy ichini bijigan spirt isi bosib ketgan, dasturxonga qarab bo'lmaydi, uying o'rtasida, polsiz, qoq yerda 13-kavpolkning vzvod komandiri pildiroqday charx urib o'yin tushmoqda. Oyog'ida yengil xrom etik, ofitsercha movutdan tikilgan galife shim. Grigoriy ostonadan turib uning etigiga, shimiga tikildi: «Bironta ofitserdan shilib olingan...» — deb o'yladi ichida. So'ngra uning yuziga qaradi: yuzi qoramag'iz xuddi qora otning sag'risiday ter bosibdi, quloqlarining kungirasi dikkayib qolibdi, lablari qalin, osilib tushgan. «Juhud bo'lsayam balo ekan!» — degan qarorga keldi Grigoriy. Unga va Petroga samogon tutdilar. Grigoriy hushyorlik qilib kam ichdi, lekin Petro tez mast bo'lib qoldi. Oradan bir soat o'tgach, u poshnasi bilan yer tepinib, chang chiqarib, xirillagan ovozi bilan garmonchini: «Tezroq chal, tez!» deb qistab «Kazachok» raqsiga tusha ketdi.

Grigoriy stol yonida qovoq urug'ini chaqib o'tiraverdi. Uning yonida novcha bo'yli sibirlik pulemyotchi o'tirardi. Bu go'dakbashara pulemyotchi yigit kulcha yuzini bujmaytirib, yumshoq qilib gapirar, «b» harfi o'rnida «p» ishlatar: «putun polk», «optop» der edi.

— Kolchakni tor-mor qildik. Krasnovingizni ham adapini peramiz, — vassalom! Ana innaykeyin, uy-uyga. Yer demaganing achip yotipti, porip olaver, haydap ekaver. Yer ham xotinga o'xshash narsa po'ladi: kuchingni ko'rsatmasang, qo'lingga kirmaydi. Kim yo'lingni to'ssa, otip o'ldiraver. Pizga sizlardi yerlaring kerakmas. Hamma paravar po'lsin, pizga shunisi kerak...

Grigoriy uning gapiga qo'shilar, biroq yer tagidan dam-badam qizil askarga qarab qo'yardi. Xavotirlanish uchun asos bo'ladigan hech narsa sezmasdi. Hamma Petroni tomosha qilar, uning davrada charx urib yurishlariga, kelishgan harakatlariga qoyil qolib iljayardi. Oradan bir hushyor odamning: «Mana o'yin! Baraka top!» deb zavqlanib qichqirgan ovozi eshitildi. Birdaniga Grigoriy, jingalak sochli starshining ko'z qisib, qattiq tikilib turganini payqab qoldi-da, sergaklanib ichishni to'xtatdi.

Garmonchi polka raqsini boshladi. Xotinlar talash bo'ldi. Orqasi devorga surkanib oqarib qolgan bir qizil askar, Xristonyaning hamsoyasini — yoshgina juvonnini raqsga taklif qildi, biroq u unamadi, burma etagini qo'liga yig'ib olib, to'g'ri Grigoriyning yoniga bordi.

— Yur, o'yin tushamiz!

— Tushmayman.

— Yur, Grisha! Jonginam, yo'q dema.

— Jinnilikni qo'ysang-chi, tushmayman dedim-ku!

Juvon zo'raki kulib, uning qo'lidan tortib sudradi. Grigoriy qovog'ini solib, oyog'ini tirab joyidan qo'zg'almadi, biroq uning ko'z qisib imlaganini payqab, darhol o'rnidan turdi. Ikki davra aylanib o'yin tushdilar, garmonchi bas pardalarini bosganda, juvon qulay paytni topib, boshini Grigoriyning kiftiga qo'ydi-da, eshitar-eshitilmas qilib:

— Seni o'ldirishmoqchi... Allakim ofitserligingni aytib beribdi... Tez qoch... — deb shivirladi va jo'rttaga baland ovoz bilan:

— Voy, boshim aylanib ketdi! — deb nolidi. Grigoriy chiroyi ochilib stol yoniga bordi, bir krujka qo'lbola aroqni simirib, Daryadan:

— Petro qalay? — deb so'radi.

— Surobi to‘g‘ri bo‘lib qoldi. Oyog‘ida turolmayapti.

— Uyg’a olib bor.

Darya Petroning turtkilayotganiga, gandiraklaganiga qaramay, yetaklab olib ketdi. Ketma-ket Grigoriy ham chiqdi.

— Qayoqqa, qayoqqa? Sen qayoqqa borasan? Yo‘-o‘q! Qurboning bo‘lay, sen ketma! — deb o‘lguday mast Anikushka Grigoriyga osilib oldi.

Grigoriy shunday o‘qrayib qaradiki, Anikushka bardosh berolmay, qo‘llarini kerib, darhol o‘zini chetga oldi.

Grigoriy bo‘sag‘adan turib:

— Dilkash ulfatlarga xayr! — deb shapkasini qimirlatdi.

Jingalak sochli starshina kiftini qisib, kamarini to‘g‘riladi-da, uning ketidan chiqdi. Zinapoyada Grigoriyga yuzma-yuz keldi, o‘ynoqi ko‘zlarini yalt-yult chaqnatib, shivirlab:

— Qayoqqa borasan? — deb so‘radi-da, Grigoriyning shineli yengidan mahkam ushlab oldi.

Grigoriy:

— Uyimga, — dedi-yu, to‘xtamasdan uni sudrab ketaverdi. «Yo‘q, tiriklayin qo‘lga tushib bo‘pman!» — deb qo‘ydi ichida ham suyunib, ham hovliqib.

Jingalak sochli chap qo‘li bilan Grigoriyning tirsagidan ushlab, hansirab entikib, yonma-yon borardi. Darvoza oldida to‘xtashdi. Grigoriy uy eshigi g‘ichirlab ochilganini eshitdi, qizil askar shu zahoti o‘ng qo‘li bilan biqiniga tarmashdi, tirnog‘i to‘pponcha g‘ilofini tirmaladi. Grigoriy shu onda uning baloday tikilib turgan o‘tkir ko‘k ko‘zlarini ko‘rib qolib, bir intilishda to‘pponcha qinining tugmasini yechayotgan qo‘lidan shartta ushladi. «Iiix» deganicha bilagidan mahkam siqimladi-da, bor kuchini yig‘ib turib, qadimdan mashqini olgan usulda og‘ir gavgani o‘ng yelkasidan oshirib yerga otdi, qo‘lini pastga qayirib bosdi, qisirlagan tovushdan tirsak suyaklari sinayotganini sezdi. Qo‘zining kallasiga o‘xshash jingalak sochli boshi qorga sanchilib qoldi.

Grigoriy tor ko‘chadagi chetan devorlar tagi bilan engashib olib Don tomon yugurdi. Dik-dik sakrab chopib daryo bo‘yidagi jarga yaqinlashaverdi... «Ishqilib, posbonga duch kelmay, u yog‘i...» ...Bir lahza to‘xtab orqasiga qaradi. Anikushkaning qo‘rasi ro‘yirost ko‘rinib



turibdi. O‘q otildi. Tepasidan chiyillab o‘tib ketdi, ustma-ust yana otildi. Jarlikdan tushib, qoraygan yo‘ldan muz usti bilan Donning narigi qirg‘og‘iga intildi. Daryoning qoq o‘rtasiga yetganda, o‘q vizillab kelib Grigoriyning yonginasidagi muzni o‘yib titig‘ini chiqardi, sachragan muz parchalari Grigoriyning bo‘ynini achishtirib yubordi. Dondan o‘tib olgach, orqasiga burilib qaradi. Hali ham o‘q tovushlari podachining qamchisiday qars-qurs eshitalardi. Grigoriy xalos bo‘lganiga unchalik sevinmadi. Xavf-xatardan keyin o‘zining parvoyi falakligidan achchiqlandi. Yana to‘xtadi. «Bo‘ri quvgandan battar o‘qqa tushdi! — degan xayol miyasiga bir kelib o‘tdi. — Endi izlab bo‘pti, o‘rmonga kirishga qo‘rqishadi... Avval qo‘lini tuzatib olsin. Xah, badbaxt, kazakni anoyi bilib, qo‘lga tushirmoqchi-ya!»

Grigoriy qishga qoldirilgan g‘aramlar tomon yurdi, biroq xavotir bo‘lib u yerda ham to‘xtamadi, tunda yemish qidirib chiqqan quyonday gir aylanib yuraverdi. Nihoyat, egasiz qolgan bir uyum quruq qiyoq orasiga kirib yotishga jazm qildi. Qiyoqning ustini titib ochdi. Oyog‘i ostidan kalamush chiqib qochdi. Sasigan-bijigan qiyoq orasiga boshigacha kirib ketdi, badani uvushib junjkdi. Miyasiga hech narsa kelmasdi. «Ertaga otimni egarlab frontdan o‘tib olib, o‘zimiznikilarga qo‘shilsammikin?» — degan savol miyasiga bir keldi-yu, lekin javob topa olmay indamay qo‘ya qoldi.

Ertalabga yaqin sovgota boshladi. Boshini chiqarib qaradi. Orombaxsh tong jilvalanib yorishgandi. Tubsiz moviy osmonning qoq tepasi zarvaraqday yallig‘langan, atrofidagi son-sanoqsiz yulduzlar so‘na boshlagan edi.

## XVIII

Front uzoqlashib ketdi. Gumburlagan, qarsillagan jang sadolari ham bosildi. 13-otliq polk pulemyotchilari qishloqdan jo‘nab ketayotib, kattakon ukraincha chanaga Moxovning grammofonini o‘rnatib olib, otlarini choptirib ko‘chama-ko‘cha rosa aylanishdi. Ot tuyoqlaridan sachragan qor grammofon karnayiga tiqilib, ovozi xirillab, big‘illab chiqardi. Sibircha tumoq kiygan pulemyotchi dam-badam karnayini tozalar, xuddi pulemyot murvatini o‘ynayotganday epchillik bilan grammofonning naqsh solingan qulog‘ini burardi. Chana ketidan

bolalar chumchuqday gala-gala bo'lishib yugurishardi; chanaga osilishib: «Amaki, haligisini qo'ying, hushtak chaladigani-chi! Jon amaki, qo'yib bering!» deb chug'urlashardi. Ikki bolaning kuni tug'ib, pulemyotchining tizzasiga o'tirib olgan edi, pulemyotchi bo'lsa, ora-sira grammofondan qo'li bo'shaganda otalarcha g'amxo'rlik qilib, kuyunib, tizzasidagi jinqarchaning sevinchdan oqarib ketgan, sovuq chalgan ho'l burnini qo'lqopi bilan artib qo'yardi.

Keyinroq Ust-Mechetka yonida jang bo'layotgani bemalol eshitila boshladi. Janubiy frontga qarashli 8- va 9-Qizil Armiyalarga oziq-ovqat va o'q-dori tashiyotgan aravalar ahyon-ahyonda Tatarsk qishlog'idan o'tib turardi.

Uchinchi kuni uyma-uy xabarchilar yurib, hamma kazaklarni yig'inga chaqirdi.

Melexovlar qo'rasidan lofchi Avdeichning o'g'li Antip chiqib kelayotib:

— Ataman Krasnovni saylaymiz! — deb lof urdi.

— Biz saylaymizmi yoki tepamizga olib kelib qo'yisharmikin? — deb so'radi Panteley Prokofyevich qiziqsinib.

— U yog'ini borganda ko'ramiz...

Majlisga Grigoriy bilan Petro ham bordi. Yosh kazaklarning hammasi yig'ildi. Qariyalar kelmadi. Chollardan yolg'iz lofchi Avdeich kelgan, u yoniga bir gala hazilkash yigitlarni to'plab olib gap sotar: uyida turgan komissar uni, ya'ni Avdeichni «qizil askarlarga komandir bo'lg'in» deb qistaganini so'zlab, odamlarni kuldirardi.

— «Men sizni eski armiyada vaxmistr bo'lganingizni sira bilmabman, bajon-u dil taklif etamiz, — marhamat, ota, bizga keling, sizga xizmat tayyor... dedi», — deb maqtanardi.

— Qanaqa xizmat ekan? Yugurdaklarning kattakonimi? — deb jig'iga tegdi Mishka Koshevoy.

Piching ustiga piching yog'ilaverdi:

— Komissarning baytaliga boshliq bo'larmish. Dumining tagini tozalab turadigan amaldor desang-chi.

— Undan ham battari!

— Ho-ho-ho!..

— Avdeich! Menga qara! Komissar seni uchinchi darajali obozga qo'ymoqchi, tuzlagan karamga xo'jayin bo'lasan.

— E, hech gapdan xabarlarining yo‘q... Komissar Avdeichni gapga solib turgan paytda komissarning dastyori lip etib kampirining qo‘yniga kirib olgan. Avdeich bo‘lsa, so‘lagini oqizib, gapga quloq solib o‘tiravergan...

Avdeich ko‘zlarini ola-kula qilib yutunib, hammaga bir-bir qarab chiqdi.

— Shu gap kimning og‘zidan chiqdi?

— Mening, — dedi orqa yoqdan birov dangaliga.

— Manavi itvachchaning gapini eshitdinglarmi? — Avdeich alanglanib, yordam so‘raganday atrofdagilarga qaradi.

Uning yonini oluvchi «jonkuyarlar» ko‘p edi.

— Men uni yaxshi bilaman: qip-qizil muttaham!

— Bu avlod hammasi shunaqa odamlar.

— Yoshim shunchaga bormaganda... — Avdeichning betlari sholg‘omday qizarib ketdi. — Yoshroq bo‘lganimda, sen bilan boshqacharoq gaplashardim-a! Butun fe‘l-atvoring xoxolga tortipti! Taganroglik isqirtvachcha! Xoxoldan tarqagan xunasa!..

— Hoy, Avdeich, yoqasidan olib yerga bosmaysanmi? Jimjilog‘ingcha kelmaydi o‘zi.

— Avdeich kuchdan qopti, chog‘i...

— Olishsa kindigiga zo‘r keladi, shunidan xavotir...

Sipogarchilikni boy bermay jo‘nab qolgan Avdeichning ketidan yigitlar hoholashib kuldilar. Maydonda to‘da-to‘da kazaklar ko‘rindi. Grigoriy ko‘pdan beri Mishka Koshevoyni ko‘rmagani uchun uning oldiga bordi.

— Horma, polkdosh!

— Bor bo‘l!

— Qayoqlarda yuribsan? Qaysi bayroq ostida, kimlar tomonda xizmat qilding? — Grigoriy kulimsirab Mishkaning qo‘lini siqdi-da, uning ko‘m-ko‘k ko‘zlariga tikildi.

— E, birodar, men yaylovdayam, Kalachov frontidagi shtraf batalyonidayam bo‘ldim. Bormagan joyim qolmadi. Arang uyimga yetvoldim. Frontda qizil askarlarga qochib o‘tmoqchiyam bo‘ldim-u, biroq ketimda poyloqchilar bor edi: xuddi bo‘yi yetgan qizini poylagan kampirday, bir qadam siljigani qo‘yishmadi. U kuni Ivan Alekseyevich uyimga keldi, egnida kavkazcha chakmon, yarog‘ taqilgan, safar-

ga otlanibdi. «Xayr endi, miltiqni olvolib jo‘nadim», — deydi. Men endigina uyga qaytgandim: «Rostdan chekinmoqchimisani?» — deb so‘radim. U kiftini qisib: «Majburman. Ataman menga odam yuboribdi. Men axir tegirmonda ishlaganman, ular meni ko‘z ostiga olib qo‘yishgan», — deydi. Xayrlashdi-yu, ketaverdi. Men uni rostdan chekinyapti debman. Ertasi kuni Msensk polki ketib bo‘ldi, qarasam, u yuribdi... Ana, o‘ziyam kelyapti! Ivan Alekseyevich!

Ivan Alekseyevich bilan valetschi Davidka ularning oldiga keldi. Davidka oppoq tishlarini ko‘rsatib kuladi, yombi topib olgan odamday hadeb kuladi... Ivan Alekseyevich mashina moyining hidi urib qolgan baquvvat panjalari bilan Grigoriyning qo‘lini siqib ko‘rishdi-da:

— Xo‘sh, Grisha, ketmay, qopsanmi? — deb duduqlandi.

— O‘zingiz-chi?

— Hm, men... Mening yo‘rig‘im boshqa.

— Ofitserligimga shama qilyapsiz, shekilli? Qoldim-da! Tavakkal... Bir o‘limdan qoldim... ketimdan quvlashib o‘q otishganda, ketmaganimga achinganim rost, endi sira achinayotganim yo‘q...

— Kim ekan ular, nega senga tirg‘alishdi? O‘n uchinchi polkdagilarmi?

— Xuddi o‘shalar. Anikushkanikida bazm qilishayotgan ekan. Al-lakim meni ofitser deb chaqibdi. Petroga indashmadi, menga qolganda... Pogon ustida bo‘lgan mashmasha. Shu qochganicha Dondan o‘tib ketibman, bitta jingalaksoch yigitning qo‘li sal-pal mayib bo‘ldi, xolos... Shuning alamiga besh-o‘nta bo‘lib uyga kelishibdi, hamma nar-samni olib ketishibdi. Chalvarlarimniyam, ko‘ylak-ishtonlarimniyam. Egnimdagi kiyimim bilan qolaverdim.

Ivan Alekseyevichning kulib turgan yuzi bujmayib ketdi:

— O‘sha vaqtda qizillarga qo‘shilib ketaverganimizda-ku... esing-dami, Podtelkov otilmasdan burun zap xonasi edi-da... Hozir jonimizni hovuchlab yurmasdik, — dedi-da, papiros cheka boshladi.

Yig‘inga kelayotgan odamning keti tugamasdi. Vyoshenskaya stantsidasidan kelgan podxorunjiy Lapchenkov majlisni ochdi; bu odam Fominning safdoshi edi.

— O‘rtoq kazaklar! Bizning okrugimizda Sovet hokimiyati mustahkam tomir otdi. Yurtni idora qilish uchun ispolkom saylashimiz, unga rais va muovini ko‘rsatishimiz kerak. Bu, birinchi masala.

So'ngra, men sizlarga okrug Sovetining buyrug'ini keltirganman, o'zi qisqagina: hamma miltiq, to'pponcha va qilichlar topshirilsin deyilgan.

— Ana, xolos! — deb yubordi orqa tomondan birov. Shundan keyin hamma yoq suv quyganday jimib qoldi.

— Bunday xolos-poloslar ketmaydi, o'rtoqlar! — Lapchenkov qaddini rostlab, papaxini stol ustiga qo'ydi. — Ma'lumki, qurol-yarog' ro'zg'orda darkor bo'ladigan match emas, shuning uchun topshirilishi shart. Kimki Sovet hokimiyatini himoya qilmoqchi bo'lsa, unga qurol beriladi. Uch kun muhlat: miltiqlaringizni topshiring. Endi saylov masalasiga o'tamiz. Mazkur buyruqni har bir kishiga eshittirishni raisga topshiraman, rais atamandagi muhrni va jamoat pulini darhol o'z qo'liga olishi lozim.

— Bulardan qurol qarzimiz bor ekanmi? Nega birovning quroliga chang solishadi?..

Savol bergan kishining gapi tugamay, hamma bab-baravar o'sha tomonga burilib qaradi. Bu — Zaxar Korolyov edi.

— Qurolni boshingga urasanmi? — deb so'radi Xristonya shunchaki.

— Menga uning keragi yo'q. Biroq Qizil Armiyani okrugimizga kirgizganimizda, bizni qurolsizlantirish xususida shartlashgan emasmiz-ku.

— To'g'ri.

— Fomin mitingda gapirgan!

— Men qilichimni o'z pulchamga olganman!

— Men bu miltig'imni german urushidan olib kelganman. Kelib-kelib endi topshiramanmi?

— Qurollarni topshirib bo'pmiz!

— Kazaklarni tunab olishmoqchi-ya! Qurolsiz qolganimdan keyin meni bir pulga birov olarmikin? Qaysi betim bilan ko'chada bosh ko'tarib yuraman? Miltiqsiz kazak, orqa etagini boshiga yopgan xotinday gap.

— Miltiq o'zimizda qolishi kerak. Mishka Koshevoy sipolik bilan so'z oldi:

— Ruxsat eting, o'rtoqlar! Men boyadan beri shunaqa gaplarni eshitaverib hayron bo'lib qoldim. Axir bizda harbiy holatmi yo yo'qmi?

— Menga qolsa harbiydan battari bo'lsin!

— Modomiki harbiy holat ekan, hech qanday gapga o‘rin yo‘q. Topshirasani — vassalom! Esingizdami, ukrainlar slobodasini bosib olganimizda nimalar qilgan edik.

Lapchenkov papaxini silab, gapning po‘stkallasini aytdi-qo‘ydi:

— Kimki shu uch kun ichida qurolini topshirmas ekan, inqilobiy sudga beriladi va aksilinqilobchi sifatida otiladi.

Birpaslik jimlikdan so‘ng Tomilin yo‘talib:

— Saylovga o‘tilishini so‘raymiz! — deb xirillab taklif qildi.

Nomzodlar ko‘rsatildi. Undan ortiq kishilarning nomini tilga oldilar. Yosh-yalanglardan biri:

— Avdeich saylansin! — deb qichqirdi.

Biroq hazilning payti emasdi. Eng avval Ivan Alekseyevni ovozga qo‘yishdi. Bir ovozdan uning nomzodi saylandi.

— U yog‘ini ovozga qo‘yilmasa ham bo‘ladi, — degan taklif kiritdi Petro Melexov.

Majlis bu taklifga rozi bo‘ldi: rais muovinligiga ovozga qo‘ymasdan Mishka Koshevoyini sayladilar.

Aka-uka Melexovlar bilan Xristonya hali uylariga yetganlaricha yo‘q edi, yarim yo‘lda ularning oldidan Anikushka chiqib qoldi. Anikushka miltig‘ini hamda xotiningin farg‘iga o‘ralgan o‘qlarni qo‘ltiqlab kelayotgan edi. Hamsoyalarni ko‘rib qolib, uyalganidan shartta tor ko‘chaga burildi. Petro Grigoriyga, Grigoriy Xristonyaga qaradi. To‘rtovi kelishib qo‘yganday bab-baravar kulib yubordi.

## XIX

Sharqdan esgan shamol jonajon dashtni alg‘oq-dalg‘oq qilib, jarlarni qorga to‘ldirgan. O‘nqir-cho‘nqir joylarni, yo‘llarni teptekis qilib ketgan. Na yo‘lni bilib bo‘ladi, na so‘qmoqni. Butun tevarak-atrofdan shamol yalab ketgan oppoq qordan o‘zga hech narsa ko‘zga chalinmaydi. Go‘yo dashtga o‘lat kelganmi, deysiz. Ahyon-ahyonda tepadan qarg‘a uchib o‘tadi, lekin u ham mana shu dasht singari oppoq qordan shohona telpak kiygan anavi yo‘l bo‘yidagi do‘ng singari g‘alati ko‘rinadi. Qarg‘a qanotlarini qoqib, havoni vizillatib, qag‘illab nola qila-qila o‘tib ketadi. Shamol uning qag‘illagan tovushini uzoqlarga yetkazadi, so‘ngra bu mung-

li nola, jimjit tunda bexosdan qo‘l tegib ketgan bas toriday anchagacha dasht uzra kezib yuradi.

Lekin qor tagida hayot bermalol qaynayveradi. Oppoq qor qo‘ynida kumushday tovlanib yotgan shudgorlarning kuzda mola bosib qo‘yilgan tuproqlari olisdan muzlab, qotib ketganga o‘xshab ko‘rinsa ham, biroq qor tagida yiqilib qolgan joni qattiq kuzgi bug‘doy tomiri bilan mahkam yer tishlab yotibdi. Yashil ipakday tovlanagan maysalarni ko‘z yoshiday yiltiroq qirov bosib ketgan; ekin sovqotgan sari qora tuproqning pinjiga kiradi, uning hayotbaxsh sharbatini so‘radi; ekin bahorni, quyoshni, kun ilishini kutadi, erib-erib piyoz po‘stlog‘iday bo‘lib qolgan olmosday muz pardani yorib chiqishga payt poylaydi, fursat kelgani hamono qaddini ko‘taradi-yu, may oyiga qolmay barq urib o‘sa boshlaydi. Tokaygacha ekin qor tagida ezilib yotaveradi deysiz, u, albatta, qaddini ko‘tarib oladi, buning vaqt-soati bor. Ekinlar orasida hali bedanalar bitbildiq oti-shi, uning ustida aprel to‘rg‘aylari havoda muallaq turib olib sayrashi muqarrar. O‘shanda ham shu quyosh nurini sochadi, shu shamol uni allalayveradi. Doni to‘lishib, ekinlar pishib, yomg‘ir-u shamol esavergandan keyin hurpaygan boshoqlar yerga salom qilib qoladi, egasining chalg‘i solishiga tan berib sidirg‘asiga qulay boshlaydi, ana o‘shandagina bo‘liq donlarini xirmonga to‘kadi.

Don atrofida hayot so‘nganga o‘xshar, odamlarning yegan-ichgani tatimasdi. Biri-biridan befayz kunlar yaqinlashgan, vahimali hodisalar chegaraga yaqin kelib qolgan edi. Yuqori Don tomondan xunuk gap tarqalib, Chir, Sutskan, Xopyor, Yelanka singari daryo bo‘ylaridagi kazaklar joylashgan katta-yu kichik qishloqlarga yoyildi. Odamlar orasida: «Bekorga vahima qilib yurilgan ekan, front daryodagi to‘lqinday o‘tdi-ketdi, mana hozir Donets tomonga borib yetdi, lekin vahimaning eng kattasi — frontning ketidan keladigan favqulodda komissiyalar bilan tribunallari ekan» — degan gap yurardi. Erta yo indin hamma stanitsaga tribunal kelarmish, Migulin va Kazansk stanitsalariga allaqachonoq kelibdi: oqlarda xizmat etgan kazaklarni naridan beri sud qilib, shartta otib tashlayotganmish. Go‘yoki, Yuqori donliklarning frontni tashlab, qizillarga yo‘l ochib bergani e‘tiborga olinmasmish, lekin yumaloq-yostiqlik sud qilib, birpasda hukm chiqaraverarmish: aybno-ma o‘qilarmish-u, ikki og‘iz savol berilarmish, shu bilan hukm tayyor,

olib chiqib pulemyot bilan otishaverarmish. Go'yoki, Kazansk bilan Shumilinda son-u sanoqsiz kavaklar boshi xashaklar orasida dumalab yotganmish... Front ko'rgan kazaklar bu mishmishlardan kulishardi: «G'irt yolg'on! Ofitserlar tarqatgan ig'vo! Kadetlar doim Qizil Armiyani olabo'ji qilib bizni qo'rqitmoqchi bo'lishadi!»

Bu ovozalarga odamlar goh ishonar, goh ishonmasdi. Bundan avval ham qishloqliklar bu xil yolg'on-yashiq gaplarni ko'p eshitgan. Bir xil yuragida yoli yo'q kazaklar ovozaga ishonib, oqlar bilan chekinishga majbur bo'ldi. Biroq front uzoqlashgandan keyin qishloqda qolganlar orasida kechalari uxlamay tong ottirganlar, yostig'i toshga, to'shagi kesakka aylanib, xotini ko'ziga baloday ko'rinib qolgan odamlar ham yo'q emasdi.

Ba'zilar o'z vaqtida Donning naryog'iga qochib olmaganiga achi-nishdi ham, biroq tuflagan tupukni qayta og'izga olib bo'lmaydi, ke-yingi pushaymondan naf yo'q...

Tatarsklik kazaklar oqshomlari tor ko'chalarga to'planishib, yangi gaplarni bir-birlariga gapirib berishar, so'ngra uyma-uy tentishib sa-mogon ichishardi. Qishloq ahli halovatini yo'qotib shu taxlit achchiq hayot kechirardi. Faqat fevral boshlarida to'y bo'ldi: Mishka Koshe-voy singlisini uzatdi. Shuni ham odamlar ancha gap qilishdi:

— Shu vaqtda to'yinga balo bormi? Judayam tashna ekan-da!

Saylovning ertasi kuni qishloqdagi barcha xonadon qurollari-ni topshirib bo'ldi. Revkom joylashgan Moxovning uyidagi dahliz-u yo'laklar qurolga to'ldi. Petro Melexov ham o'ziniki bilan Grigoriy-ning miltig'ini, ikki nagan va qilichni topshirdi. Ikkita ofitsercha na-ganni aka-uka yashirib qo'yib, german urushidan qolgan yarog'larni-gina topshirdilar.

Petro xotirjam bo'lib uyga qaytdi. Mehmonxonada yengini shima-rib olib, zanglagan ikkita miltiq zatvorini kerosinga solayotgan Grigo-riyni ko'rdi. Miltiqlar karavotga suyab qo'yilgan edi.

— Bu qayoqdan keldi tag'in? — azbaroyi taajjublanganidan Petro-ning mo'ylovi shalpayib tushdi.

— Dadam Filonovoga, oldimga borganda olib kelgandi.

Grigoriyning suzilgan qisq ko'zlari yalt-yult chaqnar edi. U kero-singa bulangan qo'llari bilan biqinini ushlab hoholab kulardi. Birdani-ga kulishni yig'ishtirdi-da, tishlarini takillatib:



— Miltiq ham gapmi?.. Bilasanmi. — Uyda hech kim bo'lmasa ham shivirlab gapirishga o'tdi, — dadam bugun menga sirini aytdi, — Grigoriy yana kulgisini zo'rg'a bosdi, — pulemyoti bor ekan.

— Bekor ga-ap! Qayoqdan oladi? Nima qiladi uni?

— Obozdagi kazaklar bir xalta suzma badaliga berib ketdi, deydi. Menimcha, chol aldayapti! Xuddi o'g'irlab olgan! U bamisoli ochko'z, go'ngqo'ng'iz, nimani ko'rsa, uyga tashiyveradi, kuchi yetmasa ham sudrayveradi. «G'aram ichiga bitta pulemyot yashirib qo'yibman, — deydi qulog'imga. — Prujinasidan qarmoq qilsa bo'ladi, lekin tegmay qo'yib qo'ydim». — «Pulemyotni boshingizga urasizmi?» — deb so'rasam: — «Prujinasiga qiziqdim, judayam g'alati ekan, biror narsaga yarab qolar. Hammasi temir, bahosi yo'q buyum...» — deydi.

Petroning jahli chiqdi, oshxonaga kirib otasi bilan gaplashmoqchi edi, biroq Grigoriy:

— Qo'ysang-chi! Uning nimasidan xafa bo'lasan? Yaxshisi, manavini tozalashib, yig'ishib yubor, — deb qaytardi.

Petro anchagacha pishillab, burnini tortib miltiq tig'ini tozalash bilan ovora bo'ldi, nihoyat o'yga cho'mib:

— Balki, to'g'ri qilgandir... ehtimol kerak bo'lib qolar. Kerakli toshning og'irligi yo'q, — deb qo'ydi.

O'sha kuni Ivan Tomilin: «Kazanskda odamlarni otishayotgan-mish», — degan xabar topib keldi. Pech yonida uchovi tamaki chekishib hangamalashib o'tirishdi. Petro gappga quloq\*solar va o'zicha allanima xususda qattiq o'ylanardi. Azbaroyi xayolini bir joyga to'plamoqchi bo'lib qiynalgani uchun peshonasidan ter chiqib ketgan edi. Tomilin ketgandan keyin u:

— Men hozir Rubejingga jo'nayman, Yashka Fominnikiga boraman, — dedi. Xuddi shu bugun uyida, birovdan eshitdim. U hozir okrug revkomiga xo'jayin emish, ming qilgandayam, qo'liga amal tekkan odam. Biron gap qo'zg'alsa o'zing tinchitib yubor, deb iltimos qilaman.

Panteley Prokofyevich chanaga biyani qo'shdi. Yap-yangi po'stinga o'ralib olgan Darya Ilinichnaning qulog'iga bir nima deb shivirladi. Ikkisi yugurgancha omborxonaga kirib, tugunda bir narsa olib chiqishdi.

— Bu nima? — deb so‘radi chol.

Petro churq etmay turaverdi. Ilinichna shivirlab, bidir-bidir qilib:

— Yig‘ib qo‘ygan sariyog‘im bor edi, shuni tugib berdim. Endigi zamonda bizga sariyog‘ ham tatimayapti, yaxshisi, Darya obora qolsin, Fominning xotiniga sovg‘a qilar, ishqilib, Petyushkamning mushkuli oson bo‘lsin, — dedi-yu, yig‘lab yubordi. — Shuncha xizmat qilib, necha o‘limlardan qolib, kelib-kelib endi pogonning kasriga qolishmasaydi... — Ovozingni o‘chir, mahmadona! — Panteley Prokofyevich jahl bilan qamchini pichan ustiga uloqtirib, Petroning oldiga bordi.

— Bug‘doy keltirib beraman deb va‘da qilgin Fominga.

— Bug‘doyni boshiga uradimi? — deb tutaqib ketdi Petro. — Yaxshisi, Anikushkadan samogon olib keling, dada! Bug‘doy va‘da qil emish!

Panteley Prokofyevich bir xum qo‘lbola aroqni etagi bilan pana qilib olib keldi-da, maqtay boshladi:

— Judayam o‘tkir chiqibdi bu zang‘ar! Mikolaydi arog‘idan qolishmaydi.

— Elburutdan ichib olibsan-ku, chol o‘lgur! — deb Ilinichna uni qarg‘adi; biroq chol eshitsa ham o‘zini eshitmaganga olib, to‘ygan mushukday ko‘zlarini suzib, kekira-kekira, lablarini yangi bilan artib dikanglab uyga kirib ketdi.

Petro chanani haydab ko‘chaga chiqdi va mehmon singari darvozani ochiq qoldirib ketaverdi.

Ilgari birga xizmat qilgan va hozir zo‘r amalga mingan Fominga atab Petro anchagina sovg‘a olgan edi. Chanada samogondan boshqa, bir kostumlik qadimgi sheviot, etik, bir qadoq qimmatbaho xushbo‘y choy bor edi. Bularning hammasini Liski shahrida, 28-polk stansiyani jang bilan ishg‘ol etib, vagon-u sklavlarni talaganda Petro o‘lja qilib olgandi...

O‘shanda u qo‘lga tushgan poyezddan bir savat ayollar ich kiyimini ham o‘margan edi. O‘sha kezi frontga kelgan otasidan shu narzalarni berib yuborgandi. Darya bo‘lsa, Natalya bilan Dunyashkaning havaslarini keltirib, bu antiqa ichki ko‘ylak bilan lozimni ko‘z-ko‘z qilib kiyib yurardi. Shu choqqacha kazaklar ko‘rmagan bu matoh chet elda ishlangan eng nozik, oppoq surpdan bo‘lib, har bittasida ipak bilan tikilgan gerb surati va ikki harf bor edi, lozimlarining pochalariga

jimjimador to‘r tutilgandi. Eri kelgan kuni kechasi Darya shu lozimni kiyib yotdi.

Petro chiroqni o‘chirayotib kesatib kuldi:

— Erkaklar kiyadigan lozimni kiygani uyalmaysanmi?

— Issiq bo‘lar ekan, jonim kirdi, biram chiroyliki, — dedi Darya suzilib. — Nimaligini tushunolmayman: erkaklarniki bo‘lsa, pochasi uzun bo‘lishi kerak. To‘rlari ham bor ekan... Erkaklarni to‘rga xushi bormi?

— Bir xil zoti ulug‘ erkaklar to‘r tutganini kiyadigandir-da. Menga nima? Kiysang kiyaver, — dedi Petro erinib qashlanar ekan.

Bu masalaga Petro unchalik ahamiyat bergan emasdi. Biroq ikkinchi kuni xotining qo‘yniga kirarkan, badani seskanganday bo‘lib, chetroq surilib yotdi; o‘zidan o‘zi bezovtalanib to‘rlarga qarar, unga qo‘l tekkizishga yuragi betlamasdi. Hattoki Daryadan ham yotsiray boshladi. Lozim ko‘ziga baloday ko‘rinib qoldi. Uchinchi kechasi achchiqlanib qattiq turib oldi:

— Ko‘zimdan yo‘qot bu ta‘viya ishtoningni! Xotin kishi kiyadigan narsa emas, sirayam yarashmaydi. Yotishing naq oyimtillarga o‘xshaydi! Shuni kiysang, begonaga o‘xshab qolasan!

Ertalab Daryadan oldin turdi-da, yo‘talib, xo‘mrayib lozimni o‘zi kiyib ko‘rdi. Uning bog‘ichlariga, to‘rlariga, o‘zining jun bosgan ochiq oyog‘iga anchagacha sergaklanib qarab turdi. Ketiga burilib, bexosdan oynada o‘z aksini ko‘rib qoldi: orqasida do‘ppaygan burmalariga ko‘zi tushishi bilan tupurib, so‘kindi-da, darhol lozimni yechishga tutindi. Oyog‘ining boshmaldog‘i to‘r katagiga ilinib qolib sandiq ustiga yiqilib tushayozdi, nihoyat jahliga chiday olmay, bog‘ichlarini uzib-uzib tashladi-da, u dardisardan xalos bo‘ldi. Darya uyqu aralash:

— Nima qilyapsan? — deb so‘radi.

Petro alam qilganidan javob bermadi; u burnini tortib dam-badam tupurardi. Ammo Darya, erkaklarniki desa — erkaklarnikiga, xotinlarniki desa — xotinlarnikiga o‘xshamagan bu antiqa lozimni, o‘sha kuniyoq sandiqqa solib qo‘ydi (bu sandiqda xotinlarning boshini qotirgan shu taxlit noma‘lum buyumlar ko‘p edi). Bu taxlanib yotgan narsalardan keyinchalik yubka tikishning iloji topildi: nihoyatda kalta, qo‘shetaklik yubkani Darya chevarlik bilan yuqorisiga uladi-da, ostki etagi ustki etakdan to‘rt enlik chiqib, to‘rlari ko‘rinib turadigan qilib

oldi. Darya shuni kiyib olib, gollandcha to‘r tutilgan etaklarini yerda sudratib, hammaga ko‘z-ko‘z qilardi.

Mana hozir ham eri bilan mehmonga ketayotib, boyvuchchalar-day yasanib oldi. Doncha suvsar po‘stin tagidan to‘r tutilgan yubka etaklari ko‘rinadi, ustki ko‘ylagi ham yap-yangi, asl jun gazmoldan tikilgan. Shunchalik yasanmasa bo‘ladimi, axir, kelib-kelib, Fomin-ning zoti past xotiniki kenas oyim darajasiga yetibdimi, u Daryaning ham anchayin kazakning xotini emas, ofitserning xotini ekanligini bilib qo‘ysin-da!

Petro qamchisini silkitar, hadeb labini chapillatardi. Qorni osilgan, terisiga shaltoq ilashgan bo‘g‘oz biya Don yoqalab ketgan tekis yo‘l-dan chopqillab borardi. Rubejinga tush mahalida kirib kelishdi. Fomin uyida bo‘ladi degan gap to‘g‘ri chiqdi. U Petroni yaxshi kutib olib, stol-ga taklif etdi. Otasi chiqib Petroning chanasidagi somonga ko‘milgan, qirov bosgan xumni olib kelgach, Fomin ishshayib kulib qo‘ydi.

— Senga nima bo‘ldi, og‘ayni, qorangni ko‘rsatmaysan, — deb gap boshladi Fomin yoqimli ovoz bilan; u cho‘zib gapirar, yer ostidan ko‘k ko‘zlarini o‘ynatib Daryaga tikilar, sipolik bilan mo‘ylovini burardi.

— O‘zingizga ma‘lum, Yakov Yefimovich, qishlog‘imizdan tinmay askar o‘tib turadi, zamona notinch...

— Bu gaping to‘g‘ri, xotin! Bizga tuzlagan bodring, karam, qoq baliq olib kelsang bo‘lardi.

Torgina uy ichi hammomdek issiq. Pech ustida xuddi otasiga o‘xshash bola bilan ko‘zi otasinikiday ko‘kko‘z qizchasi yotar edi.

Petro biroz ichib olib, maqsadga o‘tdi:

— Odamlarni gapiga qaraganda kecha kelganmish, kazaklarni miridan sirigacha tekshirarmish.

— O‘n beshinchi Inza diviziyasining tribunali Vyoshenskayaga ke-lib tushdi. Xo‘sh, kelsa nima qipti? Senga nima aloqasi bor?

— Iye, Yakov Yefimovich, o‘zingiz bilasiz, axir, men ofitser hisob-lanaman. Nomi ulug‘, suprasi quruq ofitser bo‘lganman.

— Xo‘sh, bo‘lsang nima qipti?

Fomin o‘zi bek, o‘zi xon edi. Sal kayfi oshganligi uchun birato‘la gerdayib, maqtanchoq bo‘lib olgandi. Dam-badam mo‘ylovini silab o‘ziga zeb berar, hokimlar singari zimdan xo‘mrayib qarardi.

Petro uning fe'lini payqab, qo'ltig'iga suv purkadi: jo'rttaga o'zini yerga urib, mulozamat bilan xushomadgo'ylik qilib turib, asta-sekin «sizdan» «senga» o'tdi.

— Ikkovimiz birga xizmat qilganmiz. Mendan hech bir yomonlik ko'rgan joying yo'q. Yoki biron marta senga qarshi chiqqanmanmi? Yo'q! Xudo xalloq, men doim kazaklar uchun jon kuydirib kelganman!

— Bilamiz. Sen, Petro Panteleyevich, sira xavotir bo'lma. Biz hamma odamni birma-bir tekshirib chiqqanmiz. Senga hech kim tegmaydi, ammo ba'zi birovlarining tagiga yetamiz. Ba'zilarni giribonidan xippa olamiz. Bu yerda pisib qolgan ablahlar ko'p. Qolishga qolib, endi payt poylashyapti. Yaroqlarini bekitishyapti... Sen miltig'ingni topshirdingmi?

Imillab gapirayotgan Fomin birdaniga tomdan tarasha tushganday qilib shartta savol bergani uchun Petroning tili kalimaga kelmay qoldi, yuziga gup etib qon tepdi.

— Topshirdingmi deyapman senga! Xo'sh, nega indamaysan? — Fomin stoldan osha engashib tobora tiqilinch qilardi.

— Topshirdim, Yakov Yefimovich, topshirdim, xotirjam bo'l... Niyatim xolis.

— Niyatim xolismish. Bilamiz qanaqaligingizni... Men ham shu yerda tug'ilib o'sganman, bilmaydi dema... Fomin mastlik bilan ko'z qisgan bo'ldi, og'zi ochilib, yapaloq tishlari ko'rinib ketdi. — Boy kazaklardan oshnang bo'lsa, qo'lingda oybolta bo'lsin, ehtiyot bo'lmasang solib qoladi... Hammasi itdan battar! Niyati xolis qolmagan. Men ko'pni ko'rganman. Hammasi xoin! Ammo sen, qo'rqma, senga hech kim tegmaydi. Gapim — gap!

Darya ilviradan tamaddi qilar, odob saqlab og'ziga non olmasdi; Fominning xotini unga parvona bo'lib «ol-ol» qilardi.

Ko'ngli joyiga tushgan Petro kechga yaqin kayfi chog' bo'lib uyiga jo'nadi.

\* \* \*

Panteley Prokofyevich Petroni jo'natgach, qudasi Korshunovdan xabar olgani ketdi. Chol qizil askarlar kelishidan oldin qudasinikida bo'lgan edi. O'shanda Lukinichna Mitkani jo'natish taraddudiga tu-

shib, butun uy ichi ivirsib yotganining ustidan chiqqan va bemavrid kelganini sezib, iziga qaytavergan edi.

Bu gal Panteley Prokofyevich qudasining hol-ahvolini bilgani, qolaversa, u yoq-bu yoqdan gaplashib zamonaning nobopligidan hasratlashgani borayotgandi.

Chol qishloqning narigi boshiga oqsoqlanib arang yetdi. Bir qancha tishlari tushib, ancha bukchayib qolgan Grishak bobo hovlida unga duch keldi. Yakshanba kuni bo'lgani uchun bobo cherkovga otlanib chiqqan edi. Panteley Prokofyevich qudasi bo'lmish boboning savlatini ko'rib esankirab qoldi: Turkiya urushida olgan butun medal-u ordenlari oldi ochiq po'stini tagidan ko'rinib turardi, qotirma yoqali eski mundirining qip-qizil bog'ichlari yalt-yult qilar, hoshiyador chalvarining pochalarini oq paypog'i ichiga chiroyli qilib tiqib olgan, kokardalik shapkasini piyoz po'stiday bo'lib qolgan katta quloqlari ustigacha bostirib kiygan edi.

— Sizga nima bo'ldi, qudabuva? Esingiz joyidami o'zi? Hozir kokarda, krest taqadigan zamonmi, axir!

— A? — dedi bobo Grishak kaftini qulog'iga tutib.

— Kokardangizni olib tashlang, deyapman! Krestlarni yo'qoting! Bu savlatingni ko'rishsa, qamab qo'yishadi. Sovet zamonasida mumkin emas, qonun bunga yo'l bermaydi.

— Ey, sadag'ang ketay, men oq poshshoga halol xizmat qilgan odamman. Ammo, lekin bu hukumat xudodan emas. Men uni nazaringa ilmayman. Men faqat Aleksandr poshshoga qasam ichganman, mujiklarga bo'yin egmayman, bildingmi! — Bobo Grishak gezargan lablari bilan tamshanib, ko'kishtob bo'lib oqargan mo'ylovini artdi-da, hasasi bilan uyni ko'rsatib: — Sen Mironni ko'rmoqchimiding? — deb so'radi. — Miron uyda. Mityushkani ham chekinganlarga qo'shib jo'natdik. Ishqilib, Bibi Maryam o'z panohida asrasin!.. Sening bolalaring ketishmadimi! A? G'alati gap... Endigi kazaklarning bo'lgan-turgani shu! Ataman oldida ichgan qasamiga xiyonat qilib, ayni askar yetishmay turgan mahalda xotinlarining pinjidan chiqishmaydi... Natyushkam omon-eson yuribdimi?

— Omon-eson!.. Uyga qaytganda krestlaringizni olib qo'ying, qudabuva! Krest taqadigan zamon emas.

— Yo'lingdan qolma! Menga aql o'rgatishga hali yoshlik qilasan! O'zingni bil!

Grishak bobo Panteley Prokofyevichning ustiga bostirib kelaverdi, biroq chol chetga chiqib unga yo‘l berdi-da, uning ketidan qarab, afsuslangandek bosh chayqab qolaverdi.

— Bizning askar boboni ko‘rdingmi, quda? Bobo emas, naq balo bo‘ldi! Xudoyam tezroq jonini ola qolmaydi. — Miron Grigoryevich qudasini hurmatlab o‘rnidan turdi (shu kunlarda u ancha cho‘kib qolgan edi). — Shop-shaloplarini taqib, kokardalik shapkasini kiyib parvoyi falak yuraveradi. Ming gapir, o‘z bilganini qiladi. Boladan battar bo‘lib qoldi, gapga tushunmaydi.

— Mayli, ozor berma, besh kunligi qoldimi, yo‘qmi... Xo‘sh, uy iching tinchmi? Grishkani anavi xudodan qaytganlar qiynashibdi, deb eshitdik, rostmi? — Lukinichna ikki qudaning yoniga kelib o‘tirdi-da, dard-u alamdan qo‘lini jag‘iga tirab oldi. — Bizni xudo urdi, quda... To‘rtta otimizni olib ketishdi, biya bilan toychani qoldirishdi, xolos. Xonavayron qilishdi bizni!

Miron Grigoryevich miltiq otayotgan odamday bir ko‘zini qisib turib, ichida yig‘ilib yotgan zahrini shartta-shartta socha boshladi:

— Turmushimiz nega bunchalik ostin-ustun bo‘ldi? Kim bunga aybdor? Mana shu dajjollar hukumati! Hamma kasofat shu hukumatda, qudajon! Hammani teng qilarmish... shuyam gap bo‘ptimi? Jonimni olishsa olishsin, lekin bunga rozi bo‘lmayman? Men umr bo‘yi ter to‘kib ishlab, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay, mehnat qilsam-u, ochlikdan boshi chiqmagan o‘sha tanballar bilan teng bo‘lib yashasam-a? Yo‘q, azizim, men anoyi emasmān! Bu hukumat ro‘zg‘orini tebratib turgan odamlarning payini qirqyapti. Shularning kasriga; kim uchun ishlayman-u, orttirganim kimga qolib ketadi, deb qo‘l ham ishga bormay qoldi. Bugun topganingni ertaga zo‘rlik qilib olib ketaverishsa... Qaysi kuni mirixinlik adashim kelib ketdi, ancha gaplashdik... Front hali olislagani yo‘q, ana, Donets bo‘yida turibdi. Rostini aytsam, men ishonchli kishilarni ishga solyapman, Donetsning naryog‘idagi odamlarimizga o‘z tomonimizdan yordam qilishimiz kerakligini tushuntiryapman...

— Qanaqa yordam? — deb hovliqib so‘radi Panteley Prokofyevich negadir, shivirlab.

— Qanaqa deysanmi? Manavi hukumatning dumini tugish kerak, mana yordam! Shunday tugish kerakki, o‘sha Tambov gubernasidan

beri kelmaydigan bo'lsin. O'sha yoqdagi mujiklarni teng qilaversin. Mana shu dushmani yo'qotish uchun nima kerak bo'lsa tayyorman, butun mol-mulkimdan kechishga ham roziman. Shunday, qudajon, buni tushunish kerak, axir, payti keldi hozir! Keyin attang deb yurmaylik... Adashimning gapiga qaraganda mirixinlik kazaklar ham bosh ko'tarayotganmish. Gap bir yoqadan bosh chiqarib, baravar harakat qilishda qoldi! — Miron Grigoryevich shivirlab, entikib gapira boshladi: — Qizil askarlar o'tib ketdi, bu yerda qolgan odami qancha keladi? Juda oz! Har qishloqda bitta rais, bitta muovin bor, xolos... Kallasini shartta olish-qo'yish, bundan osoni yo'q... Vyoshkadan xavotir olma... ko'pchilik bo'lib astoydil yopirilgandan keyin u yerdagilarniyam bir burdadan qilib tashlaymiz. Bizlarni qon-qaqshatib, o'z odamlarimiz ham qarab turmas, ularga qo'shilamiz... Puxta gap shu, quda!

Panteley Prokofyevich o'rnidan turdi. Har bir so'zini o'ylab donadona qilib, xavfsirab ogohlantirmoqchi bo'ldi:

— Ko'zingni och, quda, sal tayg'onsang jahannamga ketasan! Kazaklar ikkilangani bilan oxiri nima bo'lishini, qay tarafga og'ishini bilib bo'lmaydi. Ko'nglingdagini har kimga ochib gapiradigan vaqt emas hozir... Yoshlarning nimaligiga aql yetmay qoldi... Biri u yoqqa ketdi, biri bu yerda qoldi, xuddi bekinmashoq o'ynayotganga o'xshashadi. Bundan og'ir ahvol bo'lmas! Turmush emas, maynavozchilik.

Miron Grigoryevichning ko'ngli ko'tarilib iljaydi:

— Ko'ngling to'q bo'lsin, quda! Gapimda jon bor. Odamzod qo'ymijoz bo'ladi: taka qayga boshlasa, ketidan ergashaveradi. Biz odamlarga yo'l ko'rsatib berishimiz kerak! Ularning ko'zini ochishimiz kerak, toki, bu hukumatning nimaligini ko'rishsin! Bulut bo'lmasa, chaqmoq chaqmaydi. Men kazaklarni qo'zg'olon ko'tarishga chaqiryapman. Yomon gap eshitdik: qizillar, hamma kazak osib o'ldirilsin degan buyruq berishganmish. Bunisiga nima deysan, quda?

Miron Grigoryevichning sepkil toshgan yuzi qizarib ketdi. — Xo'sh, oqibat nima bo'larkan, Prokofich? Odam otishlar boshlandi deyishyapti... Shu ham turmush bo'ldimi? Bir-ikki yil ichida hamma narsaga qirg'in keldi! Lampamoy yo'q, gugurt yo'q, oxiri kelib Moxovning do'konida konfetdan boshqa sotiladigan mol qolmadi... Ekin-tikin-chi? Qadimgiday ko'p ekish qani? Otlardan ajradik. Menikini olishdi, unikini ham, ko'paytiradigan qani? Ilgari bizda, u vaqt-



da men o'spirin bola edim, saksonta otimiz bo'lar edi. Balki esingda bordir? Shunday uchqir otlarimiz bor ediki, qalmoqi otni ham yarim yo'lda qoldirib ketardi! Yulduzqashqa samanimiz bo'lardi. Doim shuni minib quyon quvardim. Egarlab minib olardim-da, dashtga chiqib, burganzordan quyon qochirardim, yuz sarjin ketmay turib otga toptardim. Hozir ham ko'z oldimdan ketmaydi. — Miron Grigoryevichning yuzi cho'g'day lovullab ketdi. — Bir kuni shamol tegirmon tomonga bordim, qarasam, ro'paramdan bir quyon o'qday kelyapti. Darrov otni burib oldidan to'sib chiqdim, birdaniga shartta burildi-yu, tog'ni etaklab qochganicha Dondan o'tib ketdi!

Xuddi maslenitsa kunlari edi, shamol turib Don ustidagi muzni qorga ko'mib tashlagan, tayg'onchoq, deng. Qiziqib ketib quyon ketidan ot soldim, ot muzga tushdi-yu, to'rt oyoqlab toyib ketdi, mukkasiga yiqildi va cho'zilib yotib oldi. O'zimniyam jon-ponim chiqib ketdi. Egarini oldim-da, chopganicha uyga keldim. «Dada, quyon quvaman deb otni o'ldirdim», — desam: — «Ishqilib tutdingmi?» deydi. — «Yo'q», — dedim. — «Qorani egarlab min, tutmasang, ko'zimga ko'rinma, itvachcha!» — deydi. Ajoyib vaqt ekan-da! Turmush emas rohat, kazaklarga kayf-u safo bo'lsa bas edi. Ot o'lsa mayli, quyon qochib qutulmasin. Ot yuz so'm turadi, quyon esa yarim tanga... Eh, nimasini aytasan, quda!

\* \* \*

Panteley Prokofyevich qudasining oldidan battar xunob bo'lib chiqdi, qaytaga vahima bosib, tashvishiga tashvish qo'shilib uyiga qaytdi. Qandaydir unga yot bo'lgan, yetti uxlab tushiga kirmagan usuli idora paydo bo'lganini, turmush boshqacha yo'lga tushib ketayotganini chol endigina mukammal tasavvur etdi. Ilgari o'z xo'jaligini o'zi tebratib, uchqur ot mingan chavandoz singari turmushni ustomonlik bilan o'zi boshqarib kelgan bo'lsa, endi turmush uni quturgan otday olib qochmoqda, istagan ko'yiga solib lo'killatmoqda. Chol faqat yiqilib tushmaslikni, bir amallab eson-omon qolishni ko'zlab, jon-jahdi bilan urinmoqda.

Ertaga nima bo'lishi-yu, nima qo'yishi qorong'i edi. Yaqindagina tevarak-atrofga nomi ketgan eng boy odam — Miron Grigoryevich

emasmidi? So'nggi uch-yil ichida uning davlatiga ham putur yetdi. Xizmatkorlari tarqab, ekin-tikini ham to'qqiz baravar kamayib ketdi; qo'radagi ho'kiz-u, otlar arzon-garovga sotildi. Hech vaqosi qolmadi. Dondagi tumanday, tushdagi xayolday tarqadi-ketdi. Yolg'iz shah-nishin boloxonali, karnizi o'ymakor uyi qoldi, xolos. Korshunovning mallarang soqoli bemahal oqardi, chakka sochlari oppoq oqarib ketdi. Borib-borib asta-sekin peshona ustlariga ham o'ta boshladi. Miron Grigoryevichning tabiatida ham shu xildagi dumijozlik bir-biri bilan kurashar: tomirida qon jo'sh urib uni ekin ekish, qo'rasining shikast-rextiga qarash, asbob-uskunalarni tuzatishga, — ishlashga majbur etsa, — «Nimasiga ishlayman, baribir qo'ldan ketadi!» degan xayolga berilib, ko'pincha ko'z o'ngi qorong'ilarhar, butun dov-dastgohning ahamiyati qolmasdi. Ishlayverib kosovga o'xshab qolgan beso'naqay qo'llari ilgarisiday ishga bormas, bolg'a-yu, arrani ushlagisi kelmas, shalvirab qolgan: egri-bugri kir panjalari arang qimirlardi. Miron Gri-goryevich bevaqt qariganiga afsuslanardi.

Yerlaridan ham ko'ngli sovigan edi. Bahor kezi ko'ngli tort-masa ham har yilgi odati bo'yicha noiloj yer boshiga borardi. Chol endigi topganiga suyunmas, oldirsa qadimgiday qayg'urmasdi... Qizillar otlarini olib ketishdi, chol bo'lsa, olsa olaversin deganday qilib sir boy bermadi. Lekin ikki yil burun bir quchoq pichanni ho'kiz payhonlaganda xotinini urib o'ldirayozgan edi. Qo'shnilari hozir: «Korshunov demaganing yeb-yeb rosa to'ygan, mana endi qusadi-da!» — deyishardi.

Panteley Prokofyevich oqsoqlana-oqsoqlana uyiga yetib kelib, o'zini karavotga tashladi. Qorni ochib, ko'ngli ozib, «ichak uzildiga» yetgan edi. Kechki ovqatdan keyin tuzlagan tarvuzni ko'ngli tusab, kampiriga iltimos qildi. Bir karch yedi-yu, qaltiroq bosib, arang pech yoniga yetib oldi. Shu yotganicha tong otdi. Ertalab chol terlama kasa-lining isitmasida kuyib-yonib, behush alahlab yotar edi. Qontalashgan lablari tars-tars yorilgan, yuzlari sarg'ayib, ko'z atrofi ko'karib ketgan-di. Drozdixa moma nishtar urib, ikki qo'lining yo'g'on tomiridan ikki likopchada qon oldi, biroq bu bilan chol hushiga kelmadi, faqat yuzlari dokaday oqarib ketdi, og'zi kattaroq ochilib qoldi-yu, qop-qora tishlari ko'rinib, xirillab nafas ola boshladi.

Aprel oyining oxirlarida okrug revkomining raisi chaqirtirgani uchun Ivan Alekseyevich Vyoshenskaya stanitsasiga jo'nadi. U kechgacha qaytib kelishi kerak edi, shuning uchun ispolkom binosida uni kutishardi. Mishka Koshevoy Moxovning huvullab qolgan uyida, xo'jayinning qadimgi kabinetida, kattakon yozuv stoli yonida o'tirardi. Vyoshenskayadan kelgan militsioner Olshanov boshqa stol yo'qligi uchun deraza tokchasiga yonboshlab olgandi. U indamay papiros tortib, dam-badam tuflar, tupugi chiroyli mo'ri o'choqning naqshinkor g'ishtiga borib tushardi. Derazadan yulduzlar charaqlagan osmon ko'rinardi. Qahraton sovuqda hamma yoq jimjit edi. Mishka Stepan Astaxovning uyi tintilganligi to'g'risidagi aktga qo'l qo'ymoqda, orasira derazadan oppoq qirov bosgan zarang daraxtining butoqlariga qarab qo'yadi.

Zinadan piymasini shipillatib birov chiqqanday bo'ldi.

— Keldi.

Mishka o'rnidan turdi. Yo'lakda yot kishining yo'talgani, notanish oyoq tovushlari eshitildi. Shineli mahkam tugmalangan, ayozda ko'karib ketgan, qosh-u mo'ylovlarini oppoq qirov bosgan Grigoriy kirib keldi.

— Chiroqni ko'rib kirdim. Yaxshimisan?

— Qani kel, dardingni ayt.

— Dardim yo'q, anchayin chaqchaqlashgim kelib kirdim, aytganday, arava berishdan ozod qilsang devdim. Otlarimiz oqsab qolgan.

— Ho'kizlar-chi? — Mishka bilinar-bilinmas xo'mrayib qo'ydi.

— Ho'kiz yura oladimi? Yer tiyg'onchiq-ku.

Ayozda muzlagan taxta polni taraqlatib, allakim katta-katta qadam tashlab kelaverdi. Kavkazcha chakmon kiygan, tumog'ini xotinchasiga tang'ib olgan Ivan Alekseyevich kirib keldi. Muzday toza havo aralash pichan hidi, tamaki sassig'i uyni bosib ketdi.

— Sovqotdim, muzlab qoldim, yigitlar!.. Grigoriy, salom! Kechasi nima qilib yuribsan?.. Bu chakmonni chiqargan odamning uyi kuysin: ichida bemalol shamol o'ynaydi, g'alvirdan farqi yo'q!

Ivan Alekseyevich yechindi, chakmonni ilmasdanoq gapga tushib ketdi:

— Raisini ham koʻrdim.. — U chiroyi ochilib koʻzlarini charqatib stol yoniga keldi. Tili qichib, tezroq gapirib bergisi kelib sabrsizlanardi: — Kabinetiga kirdim. Men bilan qoʻl berib koʻrishdi. — «Oʻtiring, oʻrtoq», — dedi. Okrugning raisi shunday deydi-ya! Ilgari shundaymidi? General-mayorga teng odam! Uning roʻparasida qanday turilardi? Mana, bizning jonajon hukumatimiz shunaqa! Hamma baravar!

Uning nega bunchalik hayajonlanganini, yuz-u koʻzlari kulib, stol atrofida tipirchilab, nega bunchalik zavqlanib gapirganini Grigoriy tushuna olmay:

— Nega bunchalik suyunasan, Alekseyevich? — deb soʻradi.

— Negasi nimasi? — Ivan Alekseyevichning iyagidagi chuqurchasi pirillab uchdi. — Meni oʻz tengiday koʻrib, qoʻl berib koʻrishdi, menga joy berdi. Meni odam bilib hurmat qildi, tagʻinam suyunmaymi?

— Keyingi vaqtlarda generallar ham qop koʻylak kiya boshladi. — Grigoriy kaftining cheti bilan moʻylovini tuzatib, koʻzlarini suzdi. — Men bittasida gʻalati pogon koʻrdim, koʻk qalam bilan boʻyab olibdi. U ham kazaklar bilan qoʻl berib koʻrishgan edi...

— Generallar noilojlikdan, lekin bizning odamlar chin koʻngildan qoʻl berishadi. Farqini tushundingmi?

— Farqi yoʻq! — deb Grigoriy bosh chayqadi.

— Seningcha, eski hukumat, yangi hukumat baribir ekan-da? Unday boʻlsa, shuncha qon toʻkkanimizning maʼnisi nima boʻldi? Masalan, sen, xoʻsh, sen oʻzing kim uchun qon toʻkkansan? Generallar uchunmi? Tagʻin «farqi yoʻq» deysan-a?

— Men generallar uchun emas, oʻzim uchun urushganman. Chinimni aytsam, senga unisiyam, bunisiyam yoqmaydi.

— Senga kim yoqadi oʻzi?

— Hech kim!

Olshanov uyning bu boshidan turib, u boshiga qarata tupurdi-da, Grigoriyning gapi maʼqul tushib, kulib yubordi. Aftidan, u ham hech kimni yoqtirmaydiganga oʻxshardi.

Mishka ataylab Grigoriyni ranjitish maqsadida:

— Nazarimda, ilgari sen bunchalik keskin fikrda emasing chogʻi, — deb qoʻydi.

Biroq Grigoriy uning gapi ogʻir tushganini sezdirmay:

— Ilgari sen ham, men ham — hammamiz boshqacha fikrda edik, — dedi-da, bezrayib turaverdi.

Ivan Alekseyevich oldin Grigoriyni jo‘natib, qanday borib kelgani-ni, rais bilan bo‘lgan suhbatlarini Mishkaga so‘zlab berishga shoshilayotgan bo‘lsa ham, oradagi qochiriq gaplar unga ham tegib ketdi. Okrugda ko‘rgan narsalar va eshitgan gaplar ta‘siri ostida bu ham shartta tortishuvga aralashdi.

— Boyadan beri bekorga miyamizni achityapsan, Grigoriy! Maqsading nimaligini o‘zing bilmaysan.

— Bilmayman, — deb iqror bo‘ldi Grigoriy.

— Bu hukumatning nimasi senga yoqmaydi, a?

— Sen bu hukumat uchun nega bunchalik jon kuydirasan? Qachondan beri qizil bo‘lib qolding o‘zing?

— Bu bilan ishing bo‘lmasin. Hozirgi gapni gapir, tushundingmi? Hukumatga ko‘p til tekkizaverma, men rais bo‘laman, bu yerda sen bilan g‘idi-bidi qilib o‘tirishga tobim yo‘q.

— Keling endi, bas qilaylik. Uzoq o‘tirib qoldim, keta qolay. Men arava masalasida keluvdim. Nima desang dersan, ammo sening hukumatim — haromxo‘r hukumat. Qani, menga ochig‘ini aytib bergin, shu bilan gapni tamom qilamiz: bizga, biz kazaklarga hukumatim nima beradi?

— Qaysi kazaklarni aytmoqchisan? Kazaklar bir xil emas.

— Hammasiga, ishqilib, kazaklarga.

— Ozodlik, huquq beradi... Jim tur!.. Səbr qil, men senga...

— Buni o‘n yettinchi yilda eshitganman, hozir biror yangiroq gapni o‘ylab topinglar! — deb Ivan Alekseyevichning so‘zini bo‘ldi Grigoriy. — Yer beradimi? Erkinlikmi? Hammani baravar qiladimi?.. O‘z yerlarimizni nima qilishni bilmaymiz. Bundan ortiq erkin bo‘lsak, ko‘cha-ko‘yda bir-birimizni so‘ya boshlaymiz. Ilgari atamanni o‘zimiz saylardik, endi tepamizga olib kelib qo‘yishyapti. O‘sha sen bilan qo‘l berib ko‘rishgan odamni kim saylagan? Bu hukumat kazaklarni xonavayron qilishdan boshqani bilmaydi! Bu mujiklar hukumati, mujikka kerak, xolos. Ammo bizga generallar ham kerakmas. Kommunist nima-yu, general nima, bari bir gap.

— Boy kazaklarga kerakmas, albatta, boshqalarga-chi? Ey, kallavaram! Qishloqda atigi uchta boy bor, qolgan hammasi kambag‘al-ku.

Ishchilarga nima deysan? Yo‘q, uka, bunday fikrlaring bizga ketmaydi! Boy kazaklar o‘zlari oshib-toshib ketavermasin, kambag‘allarga ham picha uzatib qo‘ysin. O‘z ixtiyori bilan berishmasa, zo‘rlab olamiz! Qachongacha to‘qlikka sho‘xlik qilishadi? Hamma yerni tortib olishib...

— Tortib olishgan emas, urushda jon berib yerga ega bo‘lishgan! Bobokalonlarimizning qonlari to‘kilgan, shuning uchun bu yerlar — qora tuproq, hosildorligi ham shundan.

— Baribir, ochlar bilan borini baham ko‘rishi kerak. Hamma teng bo‘ladi — vassalom! Bu yurishingda umring bekorga o‘tadi-ketadi. Tomdagi shamol parrakka o‘xshab, qayoqdan yel tursa shu yoqqa burilasan. Sendaqa odamlar faqat ig‘vo tarqatishga usta!

— Shoshmasang-chi, muncha koyiysan? Men eskidan og‘ayniligimizni ko‘zda tutib gaplashgani, yuragimda yig‘ilib qolgan dardlarimni bo‘shatgani keldim. Sen, hammani teng qilamiz, deysan... Omi xalq bolsheviklarning shu gapiga uchdi, odamlar katta-katta va‘dalarni eshitib, qarmoqdagi chuvalchangga yugurgan baliqday yugurib qolishdi. Qani endi tenglik? Qizil Armiya qishlog‘imizdan o‘tganda ko‘rdim: vzvod komandirlari xrom etik kiyib olishibdi, bechora «Ivanlar» bo‘lsa haliyam obmotkada. Komissarini ko‘rdim: shimiyam charmdan, kurtkasiyam, butun kiyimi charmdan, boshqalar botinkasini yamashga bir parcha charmgga zor. Faqat takonlarining kuni tug‘di. Huzur-huzur o‘shalarniki, qani tenglik deganing?.. Frontdaligimizda: «Hamma teng bo‘ladi, komandirgayam, soldatgayam baravar maosh to‘lanadi», — deyishgan edi... Bekor gap ekan. Modomiki panni yomon deydiyan bo‘lsak, mujikdan chiqqan pan undan ham yomon! Ofitserning yomoni yomon, biroq nodonki ofitser bo‘ldimi — o‘ldim deyaver, bundan ortiq azob dunyoda bo‘lmas! Koshki bunday ofitser kazakdan ko‘ra bilimdon bo‘lsa: ho‘kiz yetaklashdan boshqani bilmagan bir iflos hash-pash deguncha odam qatoriga kirib, amalga minib oladi, ana innaykeyin, ko‘ribsanki, dimog‘i shishgan, amal quturtirgan, har qanday ablahlikni qilaveradi, mansabdan tushmaslik uchun odam o‘ldirishdan ham qaytmaydi.

— Hamma gaplaringdan aksilinqilobchilik hidi keladi! — dedi sovuqonlik bilan Ivan Alekseyevich, lekin Gri-

goriyning yuziga qaramadi. — Meni o‘z yo‘limdan ozdirishga hali sen yoshlik qilasan, senga nasihat qilishdan foyda chiqmaydiganga o‘xshaydi. Seni anchadan beri ko‘rganim yo‘q edi, rostini aytsam, o‘zgarib ketibsan, begona bo‘lib qolibsan. Sen Sovet hukumatiga dushmansan!

— Sendan buni kutganim yo‘q edi... Hukumat to‘g‘risida o‘z fikrimni gapirib, aksilinqilobchi bo‘ldimmi! Kadet demoqchimisani?

Ivan Alekseyevich Olshanovning tamaki xaltasini oldi-da, muloymiroq qilib gapira boshladi:

— Qanday qilib senga gap uqtira olaman endi? Odamlar o‘ylay-o‘ylay, oxiri shu yo‘lni tanlashmoqda. Aqli yetmasa, yurak amriga quloq solishmoqda! Men o‘qimagan, chalasavod odam bo‘lganligim sababidan unchalik gapga ustamasman. O‘zim ham ko‘p masalaga qiy-nala-qiy-nala, arang tushunaman...

— Bas qilinglar! — achchiqlanib baqirdi Mishka.

Ijroqo‘m binosidan birga chiqishdi. Grigoriy indamay turaverdi. Arosatda qolgan Grigoriyning qiliqlari Ivan Alekseyevichga yoqmasdi, chunki u begonalashib ketgan, turmushga ham boshqacha qaraydigan bo‘lib qolgan edi; nihoyat, indamay turaverishlik joniga tegib, xayrlashmoqchi bo‘ldi:

— Minba‘d og‘zingga qarab gapir. Tanishim ekan-u, akasi og‘aynim ekan-u deb rioya qilmayman, tanobingni tortib qo‘yaman, bola! Kazaklar orasida gap qo‘zg‘ama. Bizga xalaqit berib yo‘limizni to‘sma. Majaqlab tashlaymiz! Xayr!

Grigoriy dargohdan quvilgan odamday xomush bo‘lib qaytdi; shu damgacha qorong‘i bo‘lib ko‘ringan masala birdaniga ochiq-oydin ravshan bo‘ldi qoldi. U faqat, shu kunlarda miyasini qotirgan o‘ylarni, anchadan beri ko‘nglida yig‘ilib qolgan gaplarni munozara vaqtida qizishib ketib aytib yubordi, xolos. Ikki oqim bir-biri bilan kurashayotgan paytda ikkisini ham tan olmay arosatda qolgan Grigoriy beixtiyor jirttakilik va o‘jarlik ko‘chasiga kirib olgan edi.

Mishka Ivan Alekseyevich bilan ketdi. Ivan Alekseyevich rais bilan uchrashganini yana boshqatdan so‘zlay boshladi, biroq gapirib turib, gapining qizig‘i, ahamiyati qolmaganini payqadi. U boyagi holatiga qaytmoqchi bo‘lib harchand urinsa ham natija chiqmadi: nazarida, bir narsa yo‘lni to‘sib, baxtli hayot kechirishga, mana shu muzday havoda

erkin nafas olishga xalaqit berayotganday bo'laverdi. Hamma kasofat Grigoriyda, haligi suhbatda edi. Shuni esladi-yu, nafrat bilan:

— Grishkaday odamlar doim oyoq ostida o'ralashib, kurashda xalal beradi. Ablah! Na nari bo'lmaydi, na beri: tezakka o'xshab suv oladigan joyda qalqib turaveradi. Yana oldimga kelsa, haydayman! Odamlar orasida tashviqot yurgizadigan bo'lsa, kamoqqa olamiz... Xo'sh, ahvol qalay, Mishatka! Ishlar tuzukmi?

Xayoli boshqa yoqda bo'lgan Mishka javob berish o'rniga, so'kinib qo'ya qoldi.

Ancha yurganlaridan keyin Koshevoy Ivan Alekseyevichga burilib qaradi, kulimsirab turgan do'rdoq lablari qaltirab ketdi.

— O't bilan o'ynashsa bo'ladi, Ivan Alekseyevich, lekin siyosat masalasi og'ir ekan! Uncha-muncha gap menga pashsha chaqqanchalik ta'sir etmasdi, ammo Grishkaning gaplari etimdan o'tib, suyagimga yetdi... Ikkimiz axir bir ko'rpada katta bo'lgan, bir maktabda o'qigandik, hatto qizlar ketidan birga borib, birga qaytardik, aka-ukaday bo'lib qolgandik... Aljishiga quloq solib turib shunday jig'ibiyron bo'ldim-ki, nafasim tiqilib, yuragim o'ynab qinidan chiqib ketayozdi. Butun vujudimni qaltiroq bosdi! Nazarimda, jondan aziz narsamdan ajralayotganday bo'ldim. Ko'zimga banditdan battar ko'rinib, xuddi meni tunab olayotganga o'xshab ketdi! Bu daraja qon qaynaganda shartta so'yib qo'yish ham hech gapmas... Bu urushda akam edi, ukam edi deb rioya qilish yo'q. Bosgan izingdan qaytma! — Qattiq alam o'tganligidan Mishkaning ovozi titrab o'zgarib ketdi. — Men bilan yurgan qizlarni yo'ldan urgan vaqtlarida ham bunchalik alam qilgan emasdi, lekin hozirgi gaplari judayam menga qattiq botdi. Suyak-suyagimdan o'tib ketdi!

## XXI

Qor yog'ar, lekin yerga tushar-tushmas erib ketardi. Tush payti jarlarda yig'ilib qolgan qor ko'chib, hamma yoqni gumbur-gumbur ovozlari bosib ketardi. Donning narigi betidagi o'rmonning guvullangani eshitilardi. Eman daraxtlari muzdan tushib, po'stlog'i qorayib qolgandi, shoxlaridan tomchilagan suv yer yuzidagi qorni teshib o'tib, chirigan xazon ostida isinib yotgan tuproqqa kirib ketardi. Hamma yoq



shifobaxsh bahorning iliq nafasiga, olcha po'stlog'ining hidiga to'ldi. Muz qirg'oqdan ko'chdi, ko'p joylari yuqqalanib qoldi; suv olish uchun o'yilgan muz o'ralarni ko'm-ko'k suv bosib ketdi.

Don yonidagi askarlarga to'p o'qi tashiyotgan aravalar Tatarsk qishlog'ida almashinishi kerak edi. Ularni qo'riqlab kelayotgan qizil askarlar nihoyatda o'tkir yigitlardan edi. Bularning kattasi hamma yigitlarni arava topib kelgani jo'natib, Ivan Alekseyevichni mahkam ushlab oldi-yu: «Sening yoningda bo'laman, tag'in juftakni rostlab qolmagin!» — deb uni hech yoqqa siljitmay o'tiraverdi. Qo'sh otlig qirg yetti arava topish kerak edi.

Yemelyan, Melexovlarnikiga kirdi.

— Aravani qo'shinglar, to'p o'qi ortib, Bokovskayaga borasiz.

Petro pisand qilmay:

— Otlarimiz oqsab qolgan, biya bo'lsa kecha Vyoshenskayadan qaytdi: yaradorlarni olib bordik, — deb po'ng'illadi.

Yemelyan indamay, otxonaga burildi. Petro boshyalang holda ketidan yugurib uni chaqirdi:

— Qulog'ing bormi o'zi? Shoshma... Qo'y endi, so'rayman!

— Men ham maynabozlikni qo'yishingni so'rayman!

Yemelyan Petroga xo'mrayib qaradi-da, davom etdi:

— Shu topda otingni ko'rsam deyman, nega o'zidan o'zi oqsaydi? Yoki jo'rttaga bolg'a bilan tuyog'iga urib oqsatgan bo'lmagin! Menga ko'zbo'yamachilik qilib bo'psan! Sen ot go'ngidan boshqa nimani bilasan? Men ko'rgan otlarning o'ndan birini ko'rganing yo'q. Qo'sh tezroq! Otingni qo'shasanmi, ho'kizingnimi — menga baribir.

Chanaga Grigoriy mindi. Jo'nash oldidan birrov oshxonaga kirib, bolalarini o'pdi-da, shosha-pisha:

— Sizlarga shirinlik olib kelaman, to'polon qilmang, oyingizning gapidan chiqmang, — deb tayinladi, so'ngra Petroga burildi. — Mendan xavotir olmanglar, olisga bormayman. Bokovskayadan nariga o'tasan deb majbur qilishadigan bo'lsa, ho'kizlarni tashlayman-u kelaveraman. Lekin qishloqqa qaytmayman: to'rt-besh kun Singinda, xolamnida bo'laman... Sen birrov borib mendan xabar olgin, Petro... Bu yerga qaytib kelishga yuragim chopmaydi, — deb iljaydi: — Xayr, yaxshi qolinglar! Natashka, xafa bo'lma!

Oziq-ovqat ombori joylashgan ilgarigi Moxovning do‘koni oldida to‘p o‘qi solingan yashiklarni chanadan chanaga ortib olishib jo‘nadilar. Grigoriy chana ustida yonboshlab, chakmonini boshigacha yopinib, ho‘kizlarning bir me’yorda «tak-tuk» qadam qo‘yishiga monand xayol surardi:

«Bular yomon turmushim yaxshi bo‘lsin, deb urushyapti, biz yaxshi turmushimizga qusur yetmasin deb urushdik. Dunyoda hammabop haqiqat yo‘q ekan! Demak, yenggan yengilganni talab yeyveradi, biri o‘lib, biri qolaveradi... Men ahmoq anoyi haqiqatni qidirib yuribman, o‘zimni o‘tga urib, suvga urib laqillaganim qoldi... Qadim zamonlarda tatarlar Donni talagan, yerlarini tortib olgan, kazaklarni qul qilib sotgan deyishardi. Mana endi Donga Rusiya yopirildi! Yo‘q, men bunga chidab turolmayman! Ruslar menga va jamiki kazaklarga butunlay yot. Kazaklar endi dumi kuygan tovuqday yugurishyapti. Frontni tashlab ketishganiga endi menga o‘xshab oh-voh qilishyapti; endigi pushaymondan naf bormi?»

Yo‘l bo‘yida burganzor, past-baland adirlar uchraydi, buta o‘sgan jarliklar ko‘rinadi, qorga ko‘milgan dalalar chana yurgan sari gir aylanib janubga tomon siljiyotganga o‘xshaydi. Yo‘l kalava ip singari chuvalib sira tugamaydi, tobora yurak siqiladi, uyqu eltadi.

Grigoriy mudroq aralash onda-sonda bir «xo‘sh» deb qo‘yib, arqon bilan bog‘langan yashiklar oldida u yonboshidan, bu yonboshiga ag‘darildi. Papiros chekdi-da, ajoyib iyun kunlarini eslatuvchi xushbo‘y qashqarbeda hidi urib qolgan pichanga boshini tiqib yotib oldi va astagina uyquga ketdi. Tushida Aksinyani ko‘rdi: uning bilan belga uradigan bug‘doyzor ichida aylanib yuribdi. Aksinya bolani ehtiyot qilib ko‘tarib olgan, dam-badam Grigoriyga yonboshdan ko‘z qirida qarab qo‘yardi. Grigoriy o‘z yuragining dukullab urganini, boshloqlarning shivirlab ashula qilganini eshitadi. Uvatlarda rang-barang ochilgan gullarni — firuzaday tovlangan osmonni tomosha qiladi. Uning ham ko‘ngli osmonday musaffo, gulday ochilgan, hissiyotlarga to‘lgandi, u Aksinyani ilgarigiday sevishini; uning ishqida hali ham yonayotganini, a‘zoyi badani titrashidan, har bir yurak urishidan sezib turardi-yu, biroq bu o‘ngi emas, tushi ekaniga, ko‘z ochsa, hech narsa qolmasligiga aqli yetardi; tushligini bilib tursa ham suyunar, shu tushning yana davom etishini istardi. Besh yil ilgari Aksinya qanday bo‘lsa, hozir

ham o'shanday, faqat ilgarigidan siporoq, qilig'i sovuqroq ko'rinardi. Grigoriy shamol hilpiratgan oppoq durrachasining uchlariga, halqa-halqa bo'lib bo'yniga tushib turgan yiltiroq jingalak sochlariga qarab to'ymasdi... Birdaniga arava surinib, vag'ir-vug'ur ovoz eshitildi-yu, Grigoriy uyg'onib ketdi.

Ro'paradan tizilishib kelayotgan chanalar bulardan chetlanib o'ta boshladi.

Grigoriydan oldingi chanada o'tirgan Bodovskov xirillab baqirib:

— Hoy, hamqishloqlar, nima olib kelyapsiz? — deb so'radi.

Chanalarning qo'shqarog'i va ho'kizlarning tuyoqlari ostida qor g'archillardi. Anchagacha hech kim churq etmadi. Nihoyat bittasi:

— O'lganlarni olib kelyapmiz! Terlama kasali ham bor... — deb javob berdi.

Grigoriy boshini ko'tardi. Yonlaridan o'tayotgan chanalarga zich qilib o'lik ortilgan, hammasining egnida shinel, ustidan brezent yopilgan edi. Grigoriyning chanasi qatqaloqdan o'tayotib, ro'paradagi chadan chiqib qolgan qo'lni yonboshi bilan urib yubordi.

Tarashaday qotib qolgan qo'l qisirlab ketdi... Grigoriy pinagini buzmay, teskari o'girilib oldi.

Qashqarbedaning xushbo'y hidi yana uyquga eltdi; Grigoriy shirin xayolga cho'mib, unutilayozgan o'tmishini ko'z oldiga keltira boshladi, o'shanda qalbining bir chekkasi igna sanchganday jizillab ketdi. Grigoriy yuragi achishgan sari orom olib, sarg'ish qashqarbeda barglariga yuzini tekkizib yana yonboshladi. O'tgan xotiralar esiga tushib, yuragi qafasga tushgan qushday talpinar, uxlagani qo'ymasdi.

## XXII

Qishloq revkomining atrofiga birmuncha faol: valsovkachi Davidka, Timofey, Moxovning kучeri Yemelyan hamda cho'tir etikdo'z Filka to'plangan edi. Qishloq aholisi bilan aloqasi kundan kunga yomonlashayotganini sezgan Ivan Alekseyevich o'z ishlarida doim shu odamlarga suyanardi. Kazaklar majlisga bormay qo'ydilar: ularni yig'ish uchun Davidka va boshqalar to'rt-besh martadan uyma-uy kirib chaqirishgandan keyingina noiloj kelishardi. Kelganda ham gapirishmas, nima desa ko'naverishardi. Keladiganlarning ko'pchiligi yoshlar

bo'lib, xayrixohlik bildirishmasdi. Ivan Alekseyevich maydonda majlis o'tkazganda faqat xo'mraygan yov basharalarni, zimdan tikilgan ko'zlarnigina ko'rardi. Shularni ko'rgan sayin, uning yuragi siqilar, ko'zlari javdirab, ovozi bo'shshib, shaxtidan tushib qolardi.

— Qishloq bilan bizlarning oramizga jin oraladi, o'rtoq Kotlyarov! Butun xalq to'nini teskari kiyib oldi. Kecha yarador qizil askarlarni Vyoshenskayaga jo'natish uchun arava yiqqani chiqsam, bittasi ham men bora qolay demaydi. Qo'ydi-chiqdi bo'lgan er-u xotindan battar ahvolga tushdik...

— Ichkilikdan bosh ko'tarmay qolishdi! Itdek ichishadi! — deb gap qo'shdi Yemelyan trubkasini so'rib. — Samogon tayyorlamagan bironta uy yo'q.

Qovog'idan qor yog'ib, dam saqlab o'tirgan Mishka Koshevoy ham axiri chiday olmadi. Kechqurun uyga keta turib Ivan Alekseyevichdan miltiq so'radi.

— Miltiqni nima qilasan?

— Kerak! Qurolsiz yurgani qo'rqib qoldim. Hech narsani payqaysanmi o'zing? Mening fikrimcha, ba'zi birovlarini... Masalan, Grigoriy Melexovni, Boldiryov cholni, Matvey Kashulin, Miron Korshunov singarilarni qamoqqa olishimiz kerak. Bu ablahlar kazaklar orasida ig'vo tarqatishyapti... Donning u yog'idagi o'z odamlarini kutishyapti.

Ivan Alekseyevich xomush bo'lib qo'l siltadi.

— He, uka! Bittalab terib olaman desang, anchasining bahridan o'tish kerak. Ko'pchiligining paytavasiga qurt tushgan... Ba'zi kazaklar bizga xayrixoh, lekin Miron Korshunovdan hayqiqishadi, o'g'li Mitka qaytib kelib, o'ch oladi deb qo'rqishadi.

Turmush masalani keskin qilib qo'ydi. Ertasi kuni Vyoshenskayadan maxsus chopar orqali: badavlat kazaklarga uy boshiga jarima solinsin, degan buyruq keldi. Qishloq bo'yicha qirq ming so'm belgilangan edi. Jarima taqsimlab chiqildi. Oradan bir kun o'tdi. Faqat o'n sakkiz mingdan ortiqroq pul yig'ildi, xolos. Ivan Alekseyevich okrugga xabar qilib, maslahat so'radi.

Okrugdan uchta militsioner keldi: «Jarima to'lamaganlar qamoqqa olinib, soqchilar himoyasida Vyoshenskayaga haydalsin» degan farmoyish olindi. Moxovning qishda olma saqlaydigan yerto'lasiga to'rtta cholni vaqtincha qamab qo'yishdi.

Kazaklar ini buzilgan ariday g'ivirlashib qolishdi. Korshunov qadri tushgan puliga yopishib, «to'lamayman» deb turib oldi. Lekin hadidan oshib ketgan bu boyga ham chora topildi. Okrugdan ikki kishi keldi: biri — mahalliy ishlar bo'yicha tergovchi, ilgari 28-polkda xizmat etgan vyoshenskayalik kazak, ikkinchisi — charm kurtka ustidan po'stin kiygan sochlari olingan, o'rta yashar odam edi. Ular revtribunalidan berilgan mandatlarini ko'rsatib, kabinet eshigini ichkaridan qulflab Ivan Alekseyevich bilan uzoq gaplashdilar. Tergovchining hamrohi jiddiy qiyofada so'zga kirishdi:

— Okrugimiz notinch, g'ovur-g'uvur ko'paymoqda, qishloqlarda qolgan oq gvardiyachilar bosh ko'tarib, mehnatkash kazaklar orasida ig'vo qo'zg'amoqda. Eng ashaddiy dushmanlarni qamoqqa olishimiz kerak. Bizga qarshi jon-jahdi bilan kurashgan hamma ofitserlarning, pan, ataman, jandarma va boylarning ro'yxatini tuzib ber. Tergovchiga yordam qil. O'zi ham ba'zilarni yaxshi biladi.

Ivan Alekseyevich soqol-mo'ylovi olingan bu xotinbashara odamdan ko'zini uzmasdi; qishloqdagi shubhali kishilar orasida Petro Melexovni tilga olganda tergovchi bosh chayqadi:

— Yo'q, u bizning odamimiz, Fomin unga tegmanglar, deb tayinladi. Bolsheviklarga xayrixoh. Men bilan yigirma sakkizinchi polkda xizmat qilgan.

Daftardan yirtib olingan bir varaq qog'ozga Koshevoy qo'li bilan yozilgan ro'yxatni Ivan Alekseyevich stolga qo'ydi.

Oradan bir necha soat o'tganda qamoqqa olingan kazaklarni Moxovning hovlisiga olib kelib tepalariga militsioner qo'yishdi... Ular uyalaridan ovqat, mayda-chuydalar ortilgan chana kelishini kutib, xodalar ustida o'tirishardi. Miron Grigoryevich to'yga boradigan odamday yangi po'stin yangi choriq, top-toza oq paypoq kiyib, boshdan oyoq yasanib, eng chetda — Bogatiryov bobo bilan Matvey Kushulinning yonida o'tirardi. Lofchi Avdeich bo'lsa oyog'i kuygan tovuqday hovlida gir aylanar; goh quduqqa engashib qarar, goh yerda yotgan biron cho'pni olib ko'rardi, olmaday qizarib, terlab ketgan yuzini yengi bilan artib, dam zinapoya, dam darvoza tomonga yugurardi.

Boshqalar boshlarini quyi solib, hassalari bilan qor chizib jim o'tirishardi. Xotinlari halloslab, shosha-pisha hovliga kirishar, qamalgan odamiga tugun yo xaltacha berib shivirlab gaplashardi.

Yig'layverib shishib ketgan Lukinichna erining po'stinini tugmaladi, oppoq durrachasini cholning bo'yniga o'rab bog'ladi-da, xiralashgan nursiz ko'zlariga tikilib, unga tasalli berdi:

— Ko'p kuyinaverma, Grigorich! Balkim, bu ham yaxshilikkadir. Halitdan nega muncha shalvayasan endi? Xudoyo tavba-eeey!.. — Lukinichnaning og'zi qiyshayib ho'ngrab yuborishiga sal qoldi, lekin lablarini yig'ishtirib o'zini bosib oldi: — Holingdan xabar olib turaman... Grishkani ham olib boraman, hammasidan o'shani yaxshi ko'rarding, erkatoying...

Darvozada turgan militsioner:

— Chana keldi! — deb baqirdi. — Bo'xchalarangni chanaga sol, hozir jo'naladi! Ayollar, chetroq tur, ko'z yoshini uyingga borib qilasan!

Lukinichna umrida birinchi marta Miron Grigoryevichning malla jun bosgan qo'lidan o'pib, o'zini chetga oldi.

Ho'kiz qo'shilgan chana maydondan sudralib o'tdi-da, Don tomon burildi. Qamoqqa olingan yetti kishi va ikki militsioner chana ketidan yurdilar. Choriq tasma-sini bog'lamoqchi bo'lib keyin qolgan Avdeich yigitlarday yugurib chanaga yetib oldi.

Matvey Kashulin o'g'li bilan yonma-yon borardi. Maydannikov bilan Korolyov yo'l-yo'lakay papiros tutatishardi, Miron Grigoryevich chananing chetidan ushlab olgan edi. Eng orqada Bogatiryov chol ulug'vorlik bilan, vazminlik bilan lapanglab borardi; beliga tushgan oppoq soqolining uchlari, bo'ynidagi sharfning shokilalari ro'paradan esgan shamolda qishloq bilan xayrlashayotganday, kiftidan osha hilpirab turardi.

Fevral oyining xuddi o'sha havo aynigan kuni yana bir qiziq voqea ro'y berdi.

Keyingi vaqtlarda qishloqdagi hamma odam okrugdan keladigan har xil xizmatchilarni ko'raverib o'rganib qolgan edi. Shuning uchun ham maydondan o'tgan qo'sh otlik chanaga va kucher yonida sovuqdan tumtayib o'tirgan odamga hech kim ahamiyat bermadi. Chana Moxovning uyi oldida to'xtadi. Haligi odam ancha yoshga borgan bo'lib, har bir harakatidan vazminligi ko'rinib turardi. U chanadan tushib, egnidagi kavaleristcha uzun shineli ustidan bog'langan kamarini tuzatdi, qizil avrali kazakcha tumog'ining quloqlarini ko'tarib qo'ydi-da, be-

lidagi mauzerning yog‘och qiniga qo‘lini qo‘yganicha shoshmasdan zinapoyaga chiqdi.

Revkom uyida Ivan Alekseyevich bilan ikki militsioner bor edi, xolos. U eshikni taqillatmasdanoq ichkariga kirdi-da, ostona yonida oq oralagan kalta soqolini silab turib yo‘g‘on ovoz bilan: — Menga rais kerak, — dedi.

Ivan Alekseyevich ko‘zlarini yirib kelgan odamga qattiq tikilib qoldi, o‘rnidan irg‘ib turmoqchi ham bo‘ldi-yu, biroq qo‘zg‘alolmadi; u hadeb barmoqlari bilan o‘tirgan kursisini tirmalar, baliq singari og‘zini kappa-kappa ochardi. Qizil avrali beso‘naqay kazakcha tumoq ostidan unga tikilib turgan odam Shtokman bo‘lib, ancha qarib qolgan edi. Bir juft suzilgan ko‘z Ivan Alekseyevichni taniyolmay uzoq tikilib turdi-da, birdaniga yalt etib chaqnab ketdi, oqargan ikki chakkasi bilan ko‘zlari orasidagi taram-taram ajinlar jimirlashganday bo‘ldi. Shtokman, hali ham o‘rnidan turolmay anqayib qolgan Ivan Alekseyevichning oldiga borib, uni mahkam quchoqladi, qor ilashgan ho‘l soqoli bilan uning yuzlarini qitiqlab o‘pdi.

— Biluvdim! Xuddi o‘zim bilganday! Agar tirik bo‘lsa, Tatarskda shundan boshqa odam rais bo‘lmaydi, devdim!

— Osip Davidich! Tushimmi o‘ngimmi, bu!.. Bir tarsaki ur, ko‘zim tuzukroq ochilsin! Osip Davidich! — deb yig‘lamsirab uyni boshiga ko‘tardi Ivan Alekseyevich.

Ko‘z yoshi uning mardonavor qiyofasiga shu qadar yarashmas ediki, hatto toshyurak militsioner ham yuzini o‘girib oldi.

Shtokman qo‘lini Ivan Alekseyevichning qo‘llaridan ohista sug‘urib oldi-da:

— Tush emas, qo‘rqma! — dedi do‘rillagan ovozda. — O‘tirishga stuling ham yo‘qmi deyman?

— Manavi kursiga o‘tir!.. Qayoqlardan so‘raymiz? Gapirsang-chi.

— Men armiya siyosiy bo‘limidanman. Hali ham tirikligimga ishonmayapsan chog‘i. Voy afandi-ey!

Shtokman Ivan Alekseyevichning tizzasiga qoqib, kulimsirab nari-dan beri tushuntira boshladi:

— Xullasi kalom, voqea shunday, birodar. Meni o‘sha qamoqqa olishganlaricha surgunga yuborishdi, xo‘sh, inqilob boshlanganda men surgunda edim. Bir o‘rtoq bilan Qizil gvardiya otrya-

di tuzib, Dutov hamda Kolchakka qarshi kurashdik. Ha, birodar, shunaqangi janglar bo'ldiki! Hozir biz Kolchakni Uraldan nariga qochirdik, eshitgandirsan? Shunday qilib, sizlarning frontingizga kelib qoldim. Sakkizinchi armiya siyosiy bo'limi mening ilgari shu yerda yashaganimni, mahalliy sharoitni bilganimni nazarda tutib, sizning okrugingizga yubordi. G'izillagancha Vyoshenskayaga kelib, revkomdagi odamlar bilan gaplashdim-da, eng oldin Tatarskdan xabar olishga jazm qildim. Qani, borib besh-o'n kun turib, ishlarini yo'lga solishib, yordamlashib keyin qaytarman dedim-u, kelaverdim. Mana, ko'rdingmi, eski do'st ayrilmas degani to'g'ri chiqdimi? Hoy, bu to'g'rida yana gaplasharmiz, hozir sen menga o'z ahvolingni, bu yerdagi sharoitni so'zlab ber. Atrofingdagi odamlar bilan tanishtirib qo'y. Qishloqda yacheyka bormi? Kimlar tirik qoldi, kimlar bilan ish olib boryapsan? Qani, o'rtoqlar, mumkin bo'lsa... birpas rais bilan ikkimizni xoli qo'ysangiz... Qiziq! Qishloqqa kirishim bilan o'sha kunlar esimga tushib ketdi... Xo'p g'alati vaqtlar ekan-da... Qani, gapir!

Uch soatlardan keyin Mishka Koshevoy bilan Ivan Alekseyevich Shtokmanni eski uyga — g'ilay Lukeshkanikiga boshlab borishdi. Mishka yo'l-yo'lakay Shtokmanni ushlab ko'rar, go'yo u qochib ketadigan yoki ko'zdan g'oyib bo'ladiganday, dam-badam shinelining yengiga tarmashar edi.

Lukeshka eski ijarachini karam sho'rvaga to'yg'azdi, hattoki, sandiqning burchagida allaqachonlardan beri asralib kelgan bir bo'lak qandini ham uning oldiga qo'ydi.

Olcha po'stlog'i solib damlangan choydan so'ng, Shtokman karavotga cho'zilib dam oldi. U Ivan Alekseyevich bilan Mishkaning poyma-poy gaplariga quloq solar, ora-sira savol berar, mundshtugini g'ajirdi; nihoyat tongotarga yaqin papirosi qo'lidan tushib, uxlab qoldi. Ivan Alekseyevich yana o'n minutcha gapirib nimanidir so'radi, biroq javob o'rniga Shtokmanning xurragini eshitib, dami ichiga tushib ketdi; tomog'ini qichitib, qistab kelgan yo'talini arang bosib, oyoq uchida uydan chiqdi.

Zinapoyadan tushar-tushmas Mishka qitig'i kelib kulgan odamday piqirlab:

— O'pkangga qurt tushdimi? — deb mazax qildi uni.



Qamoqqa olinganlarni Vyoshenskayaga haydab borgan militsioner Olshanov, yo'lda uchragan chanaga tushib, yarim kechasi qishloqqa qaytib keldi. U Ivan Alekseyevich yotgan uyning derazasini taqillataverib, uyg'onmaganiga qo'y madi.

Yuzlari salqigan Ivan Alekseyevich eshikni ochdi.

— Nima deysan? Nega kelding? Paket-maket olib keldingmi?

Olshanov qamchisini o'ynab:

— Olib borgan kazaklarimni otib tashlashdi, — dedi.

— Gapirma, yolg'onchi!

— Rost, olib borgan zahotimiz tergov qilishdi, qorong'i tushmasdanoq, qarag'ayzorga haydab qolishdi... O'z ko'zim bilan ko'rdim!

Ivan Alekseyevich hovliqqanidan piymasiga oyog'ini suqolmasdi; kiyinib bo'lar-bo'lmas Shtokmanning oldiga yugurdi.

— Bugun biz yuborgan odamlarni Vyoshkida otib tashlashibdi! Men turmaga qamashar, boshqa hech gap bo'lmas deb o'ylovdim, oxiri pachava bo'lmasaydi... Bu ahvolda biz hech ish qilolmaymiz! Xalqni bezdiramiz, xolos. Osip Davidich!.. Kelishmagan ish bo'libdi. Otishning nima hojati bor? Bu yog'i nima bo'ladi endi?

Ivan Alekseyevich Shtokman ham bu xabarni eshitsa, jig'ibiyron bo'ladi, oqibatini o'ylab qoladi deb kutgan edi; biroq u shoshmasdan ko'ylagini kiyib, boshini yoqasidan chiqardi-da:

— Ko'p baqiraverma, Lukeshkani uyg'otib yuborasan... — deb shaxtini qaytardi qo'ydi.

Shtokman kiyinib bo'lib papiros chekdi, yetti kishini qamoqqa olish sabablarini boshqatdan gapirib berishini iltimos qildi; nihoyat arazlagan qiyofada nasihatga o'tdi:

— Front bizdan yuz ellik chaqirim narida turibdi. Kazaklarning asosiy qismi bizga do'st emas. Mana shuni yaxshi bilishing va doim esingda tutishing lozim! Negakim, sizdagi quloqlar, quloq-kazaklar, ya'ni atamanlar va hokazo yuqori tabaqadagi kazaklar, bular mehnatkash kazaklar orasida alhol katta obro'ga ega. Nega bundayligini o'zing yaxshi tushunsang kerak. Kazaklar boshqacha bir tabaqa, harbiylashgan qabila. Chorizm asrlar bo'yi kazaklarni «komandir-ota» deb gapirishga, amaldorlarni sevishga o'rgatib kelgan... Askariy xiz-

matda aytadigan qo‘shiqlarida ham: «Komandirlar otamiz qayga desa boramiz, qilich bilan chopamiz, nayza bilan sanchamiz» deyiladi. Shundaymidi! Ha, birodar! Ishchilar stachkasini tarqatib yuborishga buyruq beruvchilar xuddi ana shu komandir-otalar edi... Uch yuz yil davomida kazaklar miyasini zaharlab kelganlar! Uch yuz yil, hazilakam gap emas! Mana, natijasi! Chunonchi, Ryazan gubernasidagi quloq bilan Dondagi kazakdan chiqqan quloq orasida juda katta tafovut bor! Ryazanlik quloqqa tegsang, Sovet hokimiyatini qarg‘ashdan nariga bormaydi, chunki u kuchsiz, faqat pastqam joyda xavfli. Xo‘sh, donlik quloq-chi! Bu qurolli quloq. Bu niyati buzuq zaharli ajdaho? Kuchi ko‘p. U qarg‘ab-qarg‘ab qo‘ya qolmaydi, sen aytganday, Korshunov va boshqalar singari bizga qarshi ig‘vo yurgizishdan, obro‘yimizni tushirish maqsadida mishmish gap tarqatishdan tashqari, qurol ko‘tarib bizga qarshi chiqishdan ham toymaydi. Buni bilib qo‘y! Qo‘liga miltiq olib biz bilan otishadi. Sen bilan otishadi! So‘ngra qolgan kazaklarni — o‘rta hol kazaklarni, hatto kambag‘allarni ham o‘ziga ergashtirishga harakat qiladi. Shularni ishga solib, shularning qo‘li bilan bizni bo‘g‘ib o‘ldirishning payida. Endi tushungandirsan! Xo‘sh, masala shundaymi? Shunday! Bizga qarshi harakat qilgani aniqmi? Aniq! Gap tamom — vassalom! Otilishi kerak! Bekorga achinib «tuzuk odam edi-yu, falon edi, piston edi» deb o‘tiradigan vaqt emas...

— Bu nima deganing, men sirayam achinayotganim yo‘q! — deb Ivan Alekseyevich qo‘lini silkitdi. — Men faqat boshqa kazaklar bizdan bezib qolarmikan deb xavotirdaman.

To shu damgacha o‘zini beparvolikka solib kafti bilan oppoq tuk bosgan ko‘ksini ishqalab o‘tirgan Shtokman birdaniga tutaqib ketib, Ivan Alekseyevichning ko‘ylagi yoqasidan mahkam ushlab o‘ziga tortdi-da, yo‘tali qistaganidan xirillab bo‘g‘ilib arang tilga keldi:

— Bezmaydi! Agar ularga sinfiy haqiqatni tushuntirib bera olsak, bizdan bezmaydi! Mehnatkash kazaklarga faqat bizning yo‘limiz to‘g‘ri keladi, quloqlarini emas! Seni qara-yu... Axir quloqlar shularning kuchi bilan tirik! Shularning peshona teri bilan semirishyapti!.. Voy, kallavaram-ey! Nega bo‘shashasan! Sen, bola, aynib qolibsan... Shoshmay tur hali, sen bilan tuzukroq gaplashmasam bo‘lmas ekan! Ishchisan, tog‘ni tolqon qilsang bo‘ladi! Tag‘in so‘lagingni oqizib

noliysan, xolos... Sendan xuddi chillashir eserlarning hidi keladi!  
Ko'zingni kattaroq och, Ivan!

Shtokman yoqasini ochib iljaydi, bosh chayqadi, so'ngra papiros tutunini ichiga tortib, shoshmasdan davom etdi:

— Agar okrugdagi ashaddiy dushmanlarning chorasini ko'rmasak, qo'zg'olon ko'tariladi. Agar shundaqalarni o'z vaqtida qamoqqa olsak, qo'zg'olon bo'lmasligi mumkin. Buning uchun hammasini otaverish shart emas. Faqat eng ashaddiylarini otish lozim, qolganlarini, chunonchi, Rossiyaning uzoq joylariga surgun qilinsa ham bo'ladi. Umuman aytganda dushman masalasida iymanib o'tirishga hech qanday hojat yo'q. Lenin: «Revolusiyani qo'lqop kiyib qilinmaydi» — deb aytgan. Endi mazkur voqeani olib ko'raylik, otishga zarurat bormi? Mening fikrimcha, bor? Balki hammasini otish kerak emasdir, lekin Korshunovni tuzataman deb ovora bo'lish bekorchi ish! Bu aniq! Ammo Melexov hozirchalik qutulib qolibdi. Xuddi o'shani qo'ldan chiqarmaslik kerak edi! Hammasiyam bir, yolg'iz o'ziyam bir, eng xavflisi o'sha. Shunga ehtiyot bo'l. Ijroqo'mda sen bilan gaplashganda aytganlari hazil emas, bunday gap bugunmas-erta dushmanlik ko'chasiga o'tadigan odamning og'zidan chiqadi. Umuman, hozirgi sharoitda kuyinib-achinib o'tirishga aslo hojat yo'q. Ishchilar sinfining eng yaxshi farzandlari frontlarda halok bo'lishyapti. Ming-minglab qurbon berishyapti! Ana shular uchun kuyib-pishaylik, shularga achinaylik! Lekin ularni o'ldirayotgan yoki o'ldirishga qasd qilib, payt poylab yurgan dushmanlar sadqayi achinish ketsin. Faqat ikki yo'l bor: yo ular bizni, yo biz ularni! Uchinchi yo'l yo'q. Masala shunday, azizim Alekseyevich!

## XXIII

Petro molga xashak soldi-da, endigina uyga qaytib kelib, piymasiga ilashgan cho'plarni tozalab turganda dahliz eshigining lo'kidoni sharq etib ketdi.

Qop-qora jun ro'mol o'ragan Lukinichna bo'sag'a hatlab o'tdi-da, hech kim bilan so'rashmasdan to'g'ri oshxonadagi kursi yonida turgan Natalya yoniga borib oyog'iga yiqildi.

Natalyaning nafasi tiqilganidan ovozi o'zgarib:

— Oyijon! Jonginam! Sizga nima bo‘ldi?! — deb baqirdi-yu, shalvirab qolgan onasini turg‘izmoqchi bo‘ldi.

Lukinichna javob berish o‘rniga boshini yerga urib, faryod qilib yig‘lay boshladi:

— Voy, mehriboo-niim! Bizlarni kimga tashlab ket-diiing!

Xotinlar baravariga uv tortib, shu qadar baqirib yig‘lay boshladilarki, Petro toqat qilolmay, tamaki xaltasini tokchadan ola solib, dahlizga qochib chiqdi. Gap nimadaligini u tushungan edi; zinapoyada papiros chekib turaverdi. Nihoyat, yig‘i-sig‘i ovozi o‘chdi, a‘zoyi badani uvushib ta‘bi xiralashgan Petro uyga kirdi, Lukinichna jiqqa ho‘l bo‘lgan ro‘molini ko‘zidan olmay aytib yig‘lar edi.

— Sho‘rlik Miron Grigorichni otishibdi!.. Shunqorim dunyodan o‘tdi!.. Bizlar yetim qoldik endi!.. Endi cho‘p-u xasdan turki yeyaberamiz!.. — Yana uv tortib yubordi: — Ko‘zlari ham yumildi!. Yorug‘ dunyoni ko‘rolmaydi!..

Darya hushidan ketgan Natalyaga suv ichirar, Ilinichna etagi bilan yuzlarini artardi. Kasalmand Panteley Prokofyevich yotgan mehmonxonadan yo‘talgan, xirillab ingragan ovoz eshitilardi.

Lukinichna es-hushini yo‘qotib, Petroning qo‘lini ko‘ksiga bosib yalinar edi:

— Iso hurmati uchun so‘rayman, qudajon! Sadag‘ang ketay, mendan qaytmasa, xudodan qaytsin, Vyoshkiga borgin, o‘ligini bo‘lsayam olib kelgin! Olib kelmasang bo‘lmaydi... Voh, Bibi Maryam! Janozasiz yer tagida chirib yotishiga qanday chidayman, voy-voy! Petro ari talaganday tipirchilab o‘zini chetga oldi:

— Yo‘q, yo‘q, bo‘lmaydi, qudaxola! Uni olib kelishning iloji yo‘q! Mengayam jon kerak, axir! O‘ligini qayerdan topaman!

— Xo‘p deya qol, Petyushka! Xudo xayr bersin! Iso hurmati!..

Petro mo‘ylovini tishlab turib, nihoyat, rozilik berdi. Vyoshenskaya-lik tanish kazakning uyiga borib tushishga va uning yordami bilan Miron Grigoryevichning o‘ligini topib olib kelishga urinib ko‘rmoqchi bo‘ldi. Kechasi chanani qo‘shib yo‘lga tushdi. Qishloqdagi hamma uyda chiroq yoqilgan, hammaning og‘zida: «Kazaklar otilibdi» degan gap.

Petro yangi cherkov yonidagi uyga — dadasi bilan bir polkda xizmat qilgan kazaknikiga tushib, qudaning o‘ligini chuqurdan kav-

lab olishda yordamlashib yuborishini iltimos qildi. U ham bajon-u dil ko'na qoldi.

— Mayli, boramiz. Ko'milgan joyini bilaman. Unchalik chuqur emas. Biroq tanib bo'larmikin? Yolg'iz o'zi ko'milganda boshqa gap edi! Kadetlar hukumati davrida bizning odamlarimizni o'ldirgan o'n ikkita jallodni kuni kecha otishdi. Lekin shartim bor: keyin bir chirpit samogon quyib berasan! Xo'pmi?

Yarim kechasi ikkisi belkurak bilan tappi tashiydigan zambilni olib, stanitsaning bir chekkasidaga qabristondan o'tdi-da, tribunal hukmi ijro etilgan joyga — qarag'ayzor tomonga ketdi. Qor uchqunlab turgan edi. Ustiga qirov tushgan qora tol novdachalari oyoq tagida qisirlardi. Petro tiq etgan ovozga quloq solar, kelganiga pushaymon yeb, o'zini ham, Lukinichnani ham, hatto o'lgan qudasini ham so'kardi. Dastlab uchragan bir to'p yosh qarag'ayzor oldidagi qumtepa yonida yo'l boshlovchi kazak to'xtadi.

— Shu yaqin orada bo'lsa kerak...

Yana yuz qadamcha yurishdi. Bir gala stanitsa itlari irillab, akilla-shib qochishdi. Petro zambilni tashlab, sekingina shivirladi:

— Yur, qaytamiz! Padariga qusur! Qayerga ko'milsa, baribir emasmi? Ke, qo'y, shu yerda yotaversin! Bekorga shu falokat ishga aralashdim... Ko'nmaganimga qo'ydimi yalmog'iz!

— Nimasiga cho'chiyapsan! Yuraver qo'rqmasdan! — deb kuldi kazak.

Nihoyat, o'liklar ko'milgan joyga kelib yetishdi. Sada bo'lib o'sgan kattakon qora tolning tagidagi qor qattiq toptalgan, tuproqda aralashib qolgan edi. Har tomonga qarab ketgan izlardan shu yerda odam yurganligi, itlar yurganligi ko'rinib turardi...

Petro Miron Grigoryevichni malla soqolidan tanidi. Belbog'idan tortib, chuqurdan chiqardi-da, zambilga ortdi. Hamrohi yo'tala-yo'tala, chuqurni ko'mdi, so'ngra, zambil dastasini ushlab, ming'illab noliy boshladi:

— Chana bilan kelaversak bo'lar ekan. Ahmoqligimizni qara-ya! Kelmaganda bu to'ng'iz besh pud keladi. Qorda buni ko'tarib yurish osonmas.

Petro o'likning dunyo kezgan oyoqlarini kerib qo'yib zambil dastasiga yopishdi.

O'sha kechasi Petro tongotargacha kazakning uyida ichkilikdan bosh ko'tarmadi. Sholchaga o'rab qo'yilgan Miron Grigoryevichning o'ligi chanada yotardi. Petro kayf ostida otini shu chanaga bog'lab qo'ygandi; ot oyog'ini tirab, no'xta solingan boshini kuchi boricha orqaga tortar, pishqirib quloq chimirardi. Chanada murda borligini sezib, pichanga qaramay ham qo'ygandi. Tong salpal yorishgan paytda Petro xutorga qaytib keldi. U chanani to'g'ri pichanzor ichidan solib, otga dam bermay haydagan edi. Chana ichida Miron Grigoryevichning boshi taxtaga urilib dukillardi. Petro yo'lda ikki marta to'xtab, bosh ostiga yumshoqqina pichan qo'ydi. Qudabuvani to'g'ri uyiga olib bordi. Xo'jayinning sevimli qizi Gripashka darvozani ochib berdi-yu, hurkkan otday chanadan o'zini opqochib qorga tiqildi. Petro bir qop unni ko'targanday, qudabuvani dast ko'tarib oldi-da, to'g'ri oshxonaga olib kelib, oldindan bo'z choyshab yoyib qo'yilgan stol ustiga sekingina yotqizdi. Yig'layverib ko'zlarida qatra yosh qolmagan Lukinichna erining oppoq paypoq kiygizilgan oyoqlari atrofidan ketmasdi, uning ovozi bo'g'ilgan, sochlari to'zgan edi.

— Voy sho'rlik, o'z oyoqlaring bilan uyga qaytib kelarsan desam, eshikdan o'liging kirib keldi, — deb shivirlagani, hiqillab yig'lagani eshitilar, uzoqdan piqirlab kulayotganga o'xshardi.

Petro Grishak boboni qo'lidan ushlab, mehmonxonadan olib chiqdi. Chol botqoqlikdan o'tayotgan odamday qalt-qalt qilib arang yurardi. Lekin o'lik yotgan stol yoniga dadil yurib keldi-da, bosh tomonida to'xtadi.

— Salom, men keldim, Miron! Shu xilda ko'risharmiz deb o'ylamagandim, o'g'lim... — Chol cho'qindi, o'g'lining sariq loy yopishib qolgan muzday peshonasidan o'pdi. — Mironushka, yaqinda menam yoningga... — Ovozi chiyillab chiqqan bobo Grishak u yog'ini aytishga yuragi bo'lmay, qo'li bilan og'zini to'sdi-da, stol ustiga yiqildi.

Petroning tomog'idan bir narsa xippa bo'g'ib olganday, nafasi tiqilib qoldi. U sekingina hovliga chiqdi-yu, zinapoya yoniga bog'langan otini yecha boshladi.

Don eng chuqur kamarlar yonidan sekinlab o'tib, sayozlikka chiqqach, keng yoyilib ketadi. Sayoz joylarda jimirlashib oqadi, bir marmomda sollanib, asta-asta chayqaladi. Tagi qumloq sayoz joylarga gala-gala qorabag'irlar qo'nib baliq tutib yeyishadi; kechalari bu yerga sterlyadlar kelib dam olishadi, qirg'oq yaqinidagi ko'k balchiqlar orasida zog'orabaliq uyquga ketadi; olabug'a bilan cho'rtanbaliq bo'lsa tillabaliqlarni quvlab kun berishmaydi, laqqabaliq chig'anoqlar orasidan ketmaydi; ahyon-ahyonda ko'm-ko'k suvni ko'pirtirib bir chiqadida, zarvaroq dumini, tilla qanotlarini oydinga yaltiratib yana sho'ng'ib kirib ketadi, suv tagidagi chig'anoqlarni mo'ylovdor, yapaloq boshi bilan yana titkilay boshlaydi, so'ngra, ertalabga yaqin bironta chirigan qora to'nkaning tagiga kirib olib qimir etmay mudraydi.

Agar o'zani tor kelib siqilib qoladigan bo'lsa, Don tagiga qarata kovlay boshlaydi, g'azab bilan pishqirib, suvni ko'pirtirib, to'lqinlatib yuboradi. Daryo burilgan joylarda, kamarlar atrofida girdoblar hosil bo'ladi. Ana o'shanda suvning charx urib aylanib, qaynab oqishini ko'ring: ko'rgan sari ko'rgingiz kelaveradi.

Sayozlikda imillab oqqan suvday jimgina o'tayotgan kunlarga ko'z tegdi; hayot izidan chiqdi. Yuqori Don okrugi g'alayonga keldi. Ikki oqim bir-biri bilan to'qnashib ketdi, kazaklar goh u yoqqa, goh bu yoqqa o'zlarini urib, girdob ichida qoldilar. Yoshlar va kambag'alroq kazaklar ikkilanishar, Sovet hukumatining tinchlik va osoyishtalik o'rnatishini kutib indamay yurishardi, lekin kattalar qarshilik ko'rsatishar, «Qizillar kazaklarni yoppasiga qirmoqchi» deb ochiqdan ochiq ig'vo tarqatishardi.

Ivan Alekseyevich 4-mart kuni Tatarskda majlis chaqirdi. Hech qachon bunchalik odam yig'ilgan emasdi. Shtokman, oqlarga qo'shilib qochib ketgan savdogarlarning buyumlarini majlisda kambag'allarga bo'lib berilsin deb revkomga maslahat bergan edi, balki shuning uchun odam ko'p yig'ilgandir. Majlisdan burun okrugdan kelgan xizmatchi bilan qattiq tortishuv bo'ldi. Musodara qilingan kiyim-kechaklarni olib ketish uchun Vyoshenskayada unga vakolat berilgan edi. Shtokman, bu kiyim-kechaklarni revkomga hozir topshira olmaymiz, chunki kecha shu yerdan aravada o'tgan yarador va bemor qizil askarlarga

o'ttizdan ortiq issiq kiyim berildi, deb tushuntirdi. Kelgan yigit Shtokmanga dag'dag'a qilib baqira boshladi:

— Musodara qilingan narsani birovg'a berishga kim ruxsat etdi?

— Hech kimdan ruxsat so'raganimiz yo'q.

— Xalq mulkini talon-taroj qilishga nima haqing bor?

— Ko'p baqiraverma, o'rtoq, og'zingga qarabroq gapir. Hech kim, hech narsani talon-taroj qilgan emas. Po'stinlarni tilxat bilan aravakashlarga berdik, qizil askarlarni narigi bekatga eltib qo'rganlaridan so'ng qaytarib berishadi. Qizil askarlarning usti yupun, yarim yalang'och ekan, ularni birgina shinelda dildiratib jo'nataverish o'limga yuborish demakdir. Shuni ko'ra-bila turib, omborda bekor yotgan kiyim boshlarni shulardan ayasam, bermasam yaxshi bo'larmidi?

Shtokman o'zini bosib, vazminlik bilan gapirardi; masala bitimga kelishiga sal qolganda yigit yana o'dag'ayladi:

— Sen o'zing kimsan? Revkom raisi? Seni qamaganim bo'lsin! Ishlarni muoviningga topshir! Hozir Vyoshenskayaga jo'nataman seni. Balki ust-boshlarning yarmini o'g'irlab yo'qotgandirsan, men...

— Sen kommunistmisan? — deb so'radi ko'zlari olayib, ranggi oqarib ketgan Shtokman.

— Senga aloqasi yo'q! Militsioner! Hozir manavini Vyoshenskayaga haydab ketasan.

Yigit Shtokmanga boshdan oyoq qarab chiqdi.

— Sen bilan o'sha yerda gaplashaman. Shunday adabingni berayki, minba'd o'zboshimchalik qilmaydigan bo'lg'in!

— Hoy o'rtoq! Sen nima, esingni yedingmi? Nima deganingni o'zing...

— Bas qil! Ovozingni o'chir!

Shu damgacha og'zaki jangga aralashgisi kelib, payt poylab turgan Ivan Alekseyevich Shtokmanning avzoyi buzilib, devorda osig'liq turgan mauzerga qo'l cho'zayotganini ko'rib qoldi. Yigitning kapalagi uchib, ko'zlari qinidan chiqib ketayozdi. Shosha-pisha, orqasi bilan eshikni ochib chiqdi-yu zinadan pastgacha dumalab tushdi va tura solib o'zini chanaga tashladi. Shu qochganicha, chana to maydonning yarmidan o'tib olguncha, aravakashni turtkilayverib



bezor qildi Aftidan u: «quvib yetib olishadi» degan xayolda orqasiga qarab-qarab qo‘yar edi.

Qahqaha sadosidan revkomdagi derazalar larzaga keldi. Qiziqchi Davidka yerga ag‘anab, qotib-qotib kulardi. Ammo Shtokmanning asabi buzilib, shu darajaga yetgan ediki, oradan ancha vaqt o‘tsa ham, qovog‘i uchib, qosh-u ko‘zlari pirillab turdi.

U qaltiragan barmoqlari bilan papiros o‘rayotib, dam-badam:

— Yo‘q, bunday ablahni umrimda ko‘rgan emasman! Voy, ablah-ey, — deb takrorlardi.

Shtokman Ivan Alekseyevich va Koshevoy bilan birga majlisga bordi. Maydon odamga to‘lgan edi. «Bunchalik odamning yig‘ilishi bejiz emas... Butun qishloq maydonga to‘planibdi» — deb o‘yladi u. Ivan Alekseyevichning yuragi shig‘ etib ketdi. Lekin boshidan shapkasi olib, davraga qadam qo‘yishi bilan gumonsirashidan asar qolmadi. Kazaklar darhol ularga yo‘l bo‘shatib berdilar. Hammasining chehrasi ochiq, hatto ba‘zilarining ko‘zi kulib turardi. Shtokman kazaklarga razm solib chiqdi. U kazaklarni gapga solib, oradagi vaziyatni yengillashtirgisi, shular bilan el bo‘lib olgisi kelardi. U ham Ivan Alekseyevichga o‘xshab, qizil avrali quloqchinini qo‘liga oldi-da, baland ovoz bilan:

— O‘rtoq kazaklar! — dedi. — Bu yerda Sovet hokimiyati o‘rnatilganiga mana bir yarim oy bo‘ldi. Biroq hali ham sizlarda revkomga nisbatan qandaydir ishonchsizlik borligini, hattoki bizga dushmanlik ko‘zi bilan yotsirab qarashlar hali ham yo‘qolmaganini sezayotibmiz. Majlisga qatnashmaysiz, orangizda har xil bema‘ni mish-mish gaplar yuribdi: Sovet hukumati kazaklarni tirikchilik qilgani qo‘ymasmish, yoppasiga otishlar boshlanganmish, kabi ovozalar tarqalmoqda. Qachongacha bir-birimizdan yotsirab, tortinib yuramiz, axir? Chin yurakdan ochiq-oydin gaplashadigan, bir-birimiz bilan yaqinroq tanish-bilish bo‘lib oladigan fursat keldi! Siz o‘z revkomingizni o‘zingiz saylagansiz. Kotlyarov bilan Koshevoy o‘z hamqishloq kazaklaring, shuning uchun gaplaring baqamti bo‘lsin, oralaringda anglashilmagan masala qolmasin. Avvalo men qat‘iyan aytamankim, bizning dushmanlarimiz tomonidan tarqatilgan ovozaga, ya‘ni kazaklarni ko‘plab otisharmish degan gapga ishonmanglar, bu quruq tuhmat-bo‘htondan boshqa narsa

emas. Bunday ig'voni tarqatuvchilarning maqsadi bizga ma'lum; kazaklar bilan Sovet hukumatining orasiga raxna solish, sizlarni yana oqlar tomonga o'tishga majbur etishdir.

— Otishlar yo'q demoqchimisan! Unday bo'lsa, yetti kishini nima qilishdi? — degan ovoz keldi orqa tomondan.

— Men, otishlar yo'q demayman, o'rtoqlar. Biz Sovet hukumatining dushmanlarini, pomeschiklar hokimiyatini bizga majburan qabul qildirmoqchi bo'lgan har bir kimsani otganmiz va ayamay otaveramiz. Biz podshoni ag'darib, Germaniya bilan bo'lgan urushga barham berib, xalqni ozod qilganmiz, endilikda dushman kirdikoriga chidab tura olmaymiz. Qani ayting-chi, Germaniya bilan urushib nima orttirdingiz? Ming-minglab kazaklar o'ldi, bolalar yetim, ayollar beva qoldi, xonavayron bo'ldi...

— To'g'ri!

— Mana bu gaping rost!

— ...Biz, urush bo'lmasligiga tarafdormiz, — deb so'zida davom etdi Shtokman. — Biz, xalqlar o'rtasida birodarlik tarafdorimiz! Podsho hukumati davrida pomeschik va kapitalistlar uchun siz qon to'kib, yer olib berardingiz, siz azobini tortardingiz, ammo foydasini, rohatini yana o'sha pomeschig-u kapitalistlar ko'rardi. Masalan, sizlarga qo'shni bo'lgan pomeschik Listnitskiyni olaylik. Uning bobosi sakkiz yuz o'n ikkinchi yilgi urushda ishtirok etgani uchun to'rt ming desatina yer olgan. Xo'sh, sizlarning bobolaringiz nima oldi? Oldi-ya! Ularning boshlari nemis yerlarida qolib ketdi! O'sha yoqlarda qon to'kib qirishdi!

Maydondan ola-g'ovur ko'tarildi. Ovozlar tingandan keyin birdaniga hamma:

— To'g'riiii! — deb baqirdi.

Shtokman sochi to'kila boshlagan boshidagi terni quloqchini bilan artib oldi-da, ovozi boricha baqirib gapini davom ettirdi:

— Kimki ishchi-dehqon hukumatiga qarshi qo'l ko'taradigan bo'lsa, biz uni o'sha zahoti yo'q qilamiz! Revtribunal hukumati bilan otilgan hamqishloqlaringiz bizga dushman edi. Ham-mangiz buni bilasiz. Ammo siz mehnatkashlarga, bizga xayrixoh bo'lgan kazaklarga hech kim tegmaydi, biz sizlar bilan birgalikda, qo'shga qo'shgan bir juft ho'kizday yonma-yon boramiz.

Bir yoqadan bosh chiqarib yangi hayot qurish uchun zamin tayyorlaymiz, birgalikda yer haydaymiz va bu yerlarni molalab tozalaymiz, toki, shudgorda bironta begona o't eski tomir yoki shumg'iya qolmasin; yana qayta tomir otmaydigan bo'lsin! Yangi hayot kurtaklarining avj olishiga zarar yetkazmasin!

Shtokman ola-g'ovur ovozlardan, yorishgan ochiq chehralardan nutqi kazaklarga ta'sir etganligini tushundi: chin yurakdan samimiy suhbat boshlandi.

— Osip Davidovich! Biz seni yaxshi bilamiz, bir vaqtlar qishlog'imizda turgansan, o'zimiznikiday bo'lib qolgansan. Bizdan xavotirlanmasdan to'g'risini aytaver: xo'sh, bu hukumating bizdan nimani istaydi! Albatta, biz unga tarafdormiz, o'g'illarimiz frontni tashlab ketishdi, lekin biz, to'pori odamlarmiz, bu hukumatning nimaligini payqayolmayotibmiz.

Gryaznov chol rosa cho'zdi; u gapni mujmal qilib goh u yoqdan-goh bu yoqdan aylantirib kelar, ilmoqdor so'zlar aralash tirib, ketini xaspo'shlab ketardi, xullas, ochig'ini aytishga og'zi bormayotgani ko'rinib turardi. Qo'li cho'ltoq Alyoshka Shamil indamay turolmadi:

— Mumkinmi gapirsam?

— Bemalol! — deb ruxsat etdi Ivan Alekseyevich majlisning borishidan hayajonlanib.

— O'rtoq Shtokman, rostini ayting-chi, ko'nglimga kelganini gapiraversam, maylimi?

— Mayli.

— Tag'in, qamab qo'ymang. Shtokman kulib, qo'l siltadi.

— Ammo shart qo'yamiz, keyin xafa bo'lish yo'q! Men oddiy bir kishiman, aqlim yetganicha gapiraman.

Ukasi Martin orqasidan kelib, chakmonining bo'sh yengidan tortdi-da, hovliqib shivirladi:

— Qo'ysang-chi, esi past! Qo'y, gapirma, xuddi baloga qolasan-a! Bekorga xatga tushasan, Alyoshka!

Biroq akasi uni siltab tashladi-da, tirtiq yuzini maydonga burib, ko'zlarini pipiratib olomonga tikildi.

— Janobi kazaklar! Men gapiray, gapim to'g'rimi yo adashyapmanmi, u yog'ini sizga havola qilaman. — Alyoshka harbiycha-

siga poshnasida shartta Shtokman tomon burilib, ustma-ust ayyorona ko'z qisdi. — Men gapning ochig'ini yaxshi ko'raman. Gap kelganda, otangni ayama! Men hozir kazaklar nima xayoldaligini, kommunistlardan nima uchun xafa bo'lganini sizga aytib bermoqchiman... Sen, o'rtoq, hozirgina dushmanlik qilmaydigan kazak-dehqonlarga biz qarshi emasmiz deb gapirding. Siz boylarga qarshi, kambag'allar yonini olarkansiz. Qani ayt-chi, unday bo'lsa, hamqishloqlarimizning otilishi to'g'rimi! Men Korshunovni yoqlamayman, u atamanlik qilgan, umr bo'yi birovning qonini so'rib kelgan odam, xo'sh, Avdeich Lofchi nega otildi? Kashulin Matvey? Bogatiryov? Maydannikov? Korolyov-chi? Ular ham xuddi bizga o'xshash ilmsiz, bilimsiz, qo'y og'zidan cho'p olmagan kishilar edi. Onadan tug'ilib kitob ushlashnimas, omoch qulog'ini ushlashni o'rgangan. Ba'zilari alifni ko'rsa, tayoq deydi, og'zing qaysi desa, qulog'ini ko'rsatadi. Mana shunday odamlarning og'zidan mabodo biron chakki so'z chiqib ketsa, shuning uchun otib yuborish shartmi? — Alyoshka nafasini rostlab olib, olg'a intildi. Chakmonining bo'sh yengi bilan ko'ksiga ura boshladi, og'zi qiyshayib ketdi. — Siz, og'ziga kuchi yetmagan bir ahmoqning gapiga ishonib, ularni qamadingiz, otib o'ldirdingiz, ammo savdogarlarga sira tegmaysiz! Savdogarlar pora berib pul bilan jon saqlab qolyapti! Koshki bizdayam pul bo'lsa, biz ham jon saqlashni bilardik, biroq qo'limiz pul ko'rmaydi, bizlarning qo'limiz yer haydashni biladi, xolos. O'sha otilgan kazaklar tirik qolish uchun qo'radagi oxirgi ho'kizini sotib berishdan ham qochmasdi, biroq ulardan jarima talab qilishmadi. Indamay qamoqqa olishdi-yu, otib tashlashdi. Vyoshenskayada nimalar bo'layotganidan hammamiz xabardormiz. U yerdagi hamma savdogar-u poplar eson-omon yurishibdi. Kargindagilargayam hech kim tegmagan bo'lsa kerak. Atrofdan nima gap bo'layotganini eshityapmiz. Yomon gap bo'lsa birpasda olamni olti aylanib chiqadi!

— To'g'ri! — degan yolg'iz tovush keldi orqa tomondan.

G'ovur-g'uvur avjiga chiqib, Alyoshkaning gapini eshittirmay qo'ydi, lekin u, ovozlar jimiguncha kutib turdi-da, Shtok-

mannings qo‘l ko‘targaniga e‘tibor bermay, qichqirib gapiraverdi:

— Ana shundan keyin biz shuni tushunib oldikki, balki Sovet hukumati yaxshidir, ammo mansabga minib olgan kommunistlar bizlarni bir qoshiq suvga zor qilmoqchi! Ular bir ming to‘qqiz yuz beshinchi yilning qasdini olishyapti, biz buni qizil soldatlardan aniq eshitdik. Shundan keyin biz: kommunistlar bizni yo‘qotmoqchi, tag-tugimiz bilan quritmoqchi degan fikrga kelib qoldik. Bundan chiqdi, ular Dondagi kazaklarning tuxumini quritmoqchi ekan! Mana, gap bu yoqda, o‘rtoq! Men mast bo‘lgan odamday, miyamga nima kelsa, o‘shani gapirdim. Ammo shuniyam aytib qo‘yayki, turmushning yaxshiligidan, siz, kommunistlarning siquvlarinigizdan hammamiz ham mast bo‘lganmiz!

Alyoshka po‘stinli odamlar orasiga sho‘ng‘ib kirib ketdi, maydon sukunatga cho‘kdi. Shtokman yana so‘zlamog‘chi bo‘lgan edi, biroq orqa tomondagilar shovqin solib gapirtirmay qo‘ydilar.

— Rost aytadi! Kazaklar xafa! Qishloqlarda to‘qilgan ashulaga bir quloq solib ko‘ring. Gapirgani qo‘rqishadi, biroq ashulaga ayb yo‘q, dardini ashula qilib aytib yurishibdi. Yangi chiqqan «Yallama yorim»ni eshiting:

*Samovarda suv qaynar, baliq qovrilar yoqqa,  
Kadetlar keladi-yu, bizni solar qiynoqqa.*

— Demak, dod deydigan gap o‘tgani rost!

Allakim o‘rinsiz kulib yubordi. Olomon tebrandi. G‘ovur-g‘uvur, shivir-shivir boshlandi...

Shtokman jahl bilan quloqchinini bostirib kiydi-da, Koshevoy yozib bergan ro‘yxatni cho‘ntagidan olib baqirdi:

— Yo‘q, bu to‘g‘ri emas! Revolyusiya tarafdorlaridan xafa bo‘lishga hech qanday asos yo‘q! Sovet hukumatiga dushman bo‘lgan hamqishloqlaringizning otilish sababi mana! Eshiting! — dedi-da, ro‘yxatni dona-dona qilib shoshmasdan o‘qiy boshladi:

*Qamoqqa olinib, 15-Inza diviziyasi qoshidagi revtribunalning  
tergov komissiyasi ixtiyoriga yuborilgan Sovet hokimiyati  
dushmanlarining*

**RO‘YXATI**

<b>Tartib raqami</b>	<b>Ismi, otasining ismi va familiyasi</b>	<b>Nima uchun qamoqqa olindi</b>	<b>Ilova</b>
1	Korshunov Miron Grigoryevich	Sobiq ataman, katta boy, birovning kuchidan foydalanib boyigan	
2	Sinilin Ivan Avdeyevich	Sovet hokimiyatini ag‘darish kerak deb tashviquot yurgizgan	
3	Kashulin Matvey Ivanovich	Bu ham	
4	Maydannikov Semyon Gavrilov	Pogon taqib, ko‘chamako‘cha yurib, hukumatni baqirib haqorat qilgan	
5	Melexov Panteley Prokofyevich	Umumlashkar kengash a‘zosi	
6	Melexov Grigoriy Panteleyevich	Yasovul yordamchisi, kayfiyati buzuq, xavfli odam	
7	Kashulin Andrey Matveyev	Podtelkovning qizil kazaklarini otishda qatnashgan	
8	Bodovskov Fedot Nikiforov	Bu ham	
9	Bogatiryov Arxip Matveyev	Cherkov mutavallisi. Xonaqoda hukumatga qarshi gapirgan. Xalqni qo‘zg‘atgan, aksilinqilobchi	
10	Kopolev Zaxar Leontyev	Qurol topshirishdan bosh tortgan, umuman ishonchli emas	

Ota-bola Melexovlar bilan Bodovskovning familiyalari ro'parasiga — ilova deyilgan joyda quyidagi so'zlar yozilgan bo'lsa ham, Shtokman uni o'qimay o'tib ketgandi:

«Sovet hokimiyatining mazkur dushmanlarini hozirchalik qamoqqa olish mumkin bo'lmadi, negakim, ikkitasi majburiyat bo'yicha Bogovskaya stanitsasiga aravada o'q-dori ortib ketgan. Panteley Melexov bo'lsa terlama kasali bilan og'rib yotibdi. Qaytib kelishi bilan ikkisi darhol qamoqqa olinib, okrugga jo'natiladi. Uchinchisi kasaldan turgach, yuboriladi».

Olomon birpas jimib turib, yana chuvvos ko'tardi:

— Noto'g'ri!

— Bekor aytibsan! To'g'ri! Hukumatga qarshi gapirishgani rost.

— Qilmishiga yarasha jazosini tortsin!

— Qachongacha indamay qo'yib qo'yiladi, axir?

— Yo'q, ular quruq tuhmatga qolishdi.

Shtokman yana so'zlashga majbur bo'ldi. Uning gaplariga zehn qo'yib quloq solgan bo'lishdi, hattoki, ma'qullagan sadolar ham eshitildi, biroq pirovardiga kelib u, oqlar bilan qochganlarning buyumlarini taqsimlash masalasini qo'rganida, kazaklar bezrayib indamay turaverishdi.

— Bu nimasi, og'zingizga suv quyib oldingizmi? — deb so'radi Ivan Alekseyevich o'pkalab.

Olomon podaday yoyilib tarqala boshladi. Qishloqning eng kambag'allaridan bo'lgan Cho'yon laqabli Syomka degan yigit ikkilanib turib, Ivan Alekseyevichning yoniga bormoqqa shaylandi-yu, lekin o'ylanib qolib, qo'l siltadi-da:

— Egalari kelsa, baloga qolasan... — dedi.

Shtokman kazaklarni to'xtatmoqchi bo'lib urinib ko'rdi; ranggi dokaday oqarib ketgan Koshevoy Ivan Alekseyevichning qulog'iga:

— Aytuvdim-ku, olishmaydi deb. Bu buyumlarni ularga bergandan ko'ra, o'tga solib yoqish kerak!.. — shivirladi.

## XXV

Koshevoy boshini quyi solgan, xayolga cho'mgan holda, qamchisini qo'njiga ura-ura Moxovning uyi oldidagi zinadan sekin chiqqa boshladi. Yo'lakdan kiraverishda bir necha egar ko'rindi; hozirgina

birov kelib tushganga o'xshadi: etik bilan shibbalanaverib uzangilar-ning birida qotib qolgan, go'ngdan sarg'ayib ketgan bir dumaloq qor endigina eriy boshlagan, tagida jinday ko'lobcha paydo bo'lgan edi. Koshevoy shularga razm solib, iflos qilib yuborilgan peshayvondan boraverdi. U taxtadan o'yib ishlangan havorang naqshin panjaraga, jimjimador hoshiyaga o'xshab devor tagida yotgan ko'kimtir qirovga ko'z qirini tashladi; nihoyat u, oynasi terlab, parda to'sganday xiralashgan derazaga ham bir qarab qo'ydi. Biroq ko'rgan narsasi ongi-ga borib yetmas, xuddi tutunga o'xshab tutqich bermasdi. Soddadil Mishka Grigoriy Melexovga na achinishini, na nafratlanishini bilmay arosatda qolgan edi...

Revkom dahlizi tamaki tutuniga to'lgandi, bu yerdan eriyotgan qor isi, ot abzalining hidi kelardi. Moxov qochgandan keyin uyda qolgan xizmatkor ayollardan biri gollandcha pechni yoqmoqda, yonboshdagi uyda militsionerlar hoholashib kulishar edi. Koshevoy ularning yonidan o'tarkan, ensasi qotib: «Maza-maza shularniki! Koshki kuladigan vaqt bo'lsa!..» — deb qo'ydi ichida; zardasiga chidolmay so'nggi marta qamchi bilan qo'njiga bir urdi-da, eshik taqillatmasdan burchak-dagi uyga kirib ketdi.

Ivan Alekseyevich paxtali kamzilini tugmalamay, yozuv stoli yonida o'tirgan edi. U qora papaxini oliftachasiga chakkaga qo'yib olgan, terlagan yuzlaridan charchagani va tashvishlangani bilinib turardi. Uning yonida, hali ham o'sha uzun shinelini tashlamagan Shtokman deraza tokchasida o'tirardi. U Koshevoyga kulib qaradi-da, qo'li bilan ishora qilib, yonidan joy ko'rsatdi.

— Xo'sh, ishlar qalay, Mixail? O'tir.

Koshevoy oyog'ini uzatib o'tirdi. Shtokmanning yoqimli, vazmin ovozi unga ta'sir qilib, ta'bi ravshanlashdi.

— Men ishonchli kishidan bir gap eshitdim... Grigoriy Melexov kecha kechqurun uyiga qaytibdi. Lekin men uyiga borganim yo'q, — dedi Koshevoy.

Shtokman tamaki o'rab turib:

— Bu to'g'rida sen nima deysan? — deb Ivan Alekseyevichga savol berdi-da, unga ko'z qirini tashlab, javob kutib o'tiraverdi.

Ivan Alekseyevich ko'zlarini pirpiratib ikkilanib qoldi:

— Olib kelib yerto'laga qamasakmikin-a?



— Revkom raisi — sensan... O‘zing bilasan. Shtokman miyig‘ida kulib, yelkasini qisib qo‘ydi.

U kulib turib odamni yerga kirgizib yuborar edi. Kulgisi qamchidan battar achishtirardi. Ivan Alekseyevichning iyagini marjondek ter bosdi.

Ivan Alekseyevich tishini tishiga qo‘yib, jahl bilan:

— Ha, men raisman, ikkisiniyam: Grishkaniyam, akasiniyam qamayman, Vyoshenskayaga jo‘nataman! — dedi.

— Grigoriy Melexovning akasini qamashga hech qanday ehtiyoj bo‘lmasa kerak. Uning suyangan tog‘i bor. Fomin rozilik bermaydi. Petroni maqtaganini o‘zing eshitgansan-ku.... Ammo Grigoriyni shu bugun, darhol qamoqqa olish kerak! Ertaga biz uni Vyoshenskayaga jo‘natamiz, ustidan to‘plangan hujjatlarni bugundan qoldirmay militsioner bilan revtribunal raisiga yubortir.

— Grigoriyni kechqurun qamoqqa olsak yaxshi bo‘lardi, a, Osip Davidovich?

Shtokmanning yo‘tali tutib qoldi, yo‘talib bo‘lgach soqolini artdi-da:

— Nega kechqurun? — deb so‘radi.

— Shov-shuv gap kamroq bo‘ladi...

— Shu ham vaj bo‘ldimi?.. Qo‘yaver, ahamiyati yo‘q!

— Mixail, ikki kishi bilan borib, hozir Grishkani haydab kel. Uni alohida qamagin. Tushundingmi?

Koshevoy o‘rnidan turib, militsioner yoniga ketdi. Shtokman mayishgan eski piymasini sudrab, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi; Ivan Alekseyevichning oldida to‘xtab:

— Eng keyin yig‘ilgan qurollarni jo‘natdingmi? — deb so‘radi.

— Yo‘q.

— Nega?

— Kecha ulgurolmadim.

— Nega?

— Bugun jo‘natamiz.

Shtokmanning qovog‘i osilib ketdi, lekin u o‘sha zahoti qoshini kerib:

— Melexovlar qancha qurol topshirdi? — deb so‘radi tezgina.

— Ikki miltiq, ikki nagan. Topshirishga-ku topshirishdi, biroq bor-yo‘g‘i shuginamikin?

— Tag'in bormikin?

— Ho! Ular anoyi emas!

— Men ham shu fikrdaman, — dedi Shtokman lablarini qimtib. — Agar sening o'ringda men bo'lsam, qamoqqa olgandan so'ng butun uy ichini yaxshilab tintib ko'rardim. Aytganday, komendantga tayinla, shunday qilishsin. O'ylagan bilan ish bitmaydi, harakat ham qilish kerak.

Yarim soatdan keyin Koshevoy qaytib keldi. U peshayvondan yugurganicha, eshiklarni zarda bilan taraq-turuq ochib kirdi-yu, bo'sag'ada to'xtab nafasini rostlab oldi-da:

— Qochibdi! — deb baqirdi.

— Nimaaa?! — Shtokman ko'zlarini o'qraytirib, tez-tez yurib unga yaqinlashaverdi. Uzun shineli oyoqlari orasida buralib qolar, etaklari piymasiga shapillab tegardi.

Koshevoy uning past ovoz bilan so'raganidanmi, yo boshqa biror narsadanmi, jig'ibiyron bo'lib:

— Judayam ko'zingni olaytiraverma!.. — deb shang'illadi-da, boloxonador qilib so'kinib oldi. — Grishka Singindagi xolasinikiga ket-sa, men gunohkormi? Xo'sh, o'zlaring qayoqdaydilaring? Qo'llaring tegmadimi? Ajab bo'pti! Ikkibirday odam Grishkani qochirib yuborib, endi menga baqirishganini qarang-a! Men kichkina odamman, ayt-sa — qilaman, aytmasa — qarab turaveraman. Nega oldinroq harakat qilmadinglar? — Koshevoy, ustiga bostirib kelayotgan Shtokmandan tislana-tislana, koshinkor pechning qirrasiga taqalib qolib, kulib yubordi. — Bo'ldi endi, Osip Davidovich! Bo'ldi deyman, xuddi solvoraman hozir!

Shtokman uning oldida birpas turib qoldi, so'ngra, barmoqlarini qisirlatib, Mishkaning oppoq tishlariga, beg'araz kulib turgan ko'zlariga tikildi-da:

— Singinga boradigan yo'lni bilasanmi? — deb so'radi.

— Bilaman.

— Billsang, nega qaytib kelding? Voy, lapashang? Tag'in, nemislar bilan jang qilganman deb maqtanasan-a... — deb masxara qilganday, ko'zlarini qisib qaradi.

Yerdan ko'tarilgan hovur ko'kish tumanday, dashtni boshdan oyoq qoplab olgan edi. Don bo'yidagi tepa orqasidan qip-qizil cho'g'day bo'lib oy ko'tarilardi. Uning g'ira-shira yorug'i osmonda chaq nab turgan yulduzlarga ta'sir eta olmasdi.

Singinga bormoq uchun olti kishi otlanib yo'lga chiqqan, otlar yo'rtib borardi. Koshevoy bilan yonma-yon, draguncha egar ustida Shtokman lo'killab kelardi. Ostidagi Don naslli bo'ydor to'riq ot dam-badam o'ynoqilab, uning tizzasidan tishlamoqchi bo'lib chovut qilardi. Shtokman pinagini buzmay, allaqanday bir kulgili voqeani hikoya qilar, Mishka bo'lsa, egar qoshiga yotvolib, yosh boladay qotib-qotib kular-di. Shtokmanning boshlig'i ostidan xo'mrayib turgan mug'ambirona ko'zlariga tikilib qarab-qarab qo'yardi.

Singinni ostin-ustun qilib tintishdi, biroq natija chiqmadi.

## XXVI

Grigoriyni Bokovskayadan Chernishevskayaga borishga majbur qilgan edilar. U bir yarim haftadan keyin uyiga qaytdi. Kelishidan ikki kun oldin otasi qamoqqa olingan edi. Panteley Prokofyevich terlama kasalidan endigina bosh ko'tarib, oyoqqa kirgandi. Uning soch-u soqoli yana ham oqarib, quruq suyagi qolgan edi. Kumushday jingalak sochlari, kuya yeganday to'kilib ketgan, gir aylanasiga sovun ko'pigiday oqargan soqoli paxmayib qolgandi.

Militsioner Panteley Prokofyevichga yig'ishtirinish uchun o'n da-qiqa vaqt berdi-da, keyin oldiga solib haydab ketdi. Vyoshenskayaga jo'natish oldidan uni Moxovning yerto'lasiga qamab qo'ydilar.

Olma hidi urib qolgan bu yerto'lada yana to'qqiz chol va bitta fax-riy sudya ham bor edi.

Grigoriy darvozadan kirmay turib, Petrodan bu xabarni eshitdi, akasi unga:

— Sen, uka, izingga qaytaver... Grigoriy qachon keladi, deb so'rab bezor qilishdi. Uyga kirib isinib ol, bolalaringni ko'rib chiq, men seni Ribniyga eltib qo'yaman, besh-o'n kun ko'rinmay yuratur. Surishtira-digan bo'lsa, Singinga, xolamnikiga ketdi derman. Yetti kishini otishdi,

eshitdingmi? Ishqilib, dadamniyam ajali yetgan bo‘lmasin-da... Ishing judayam chatoq, uka! — dedi.

Grigoriy yarim soatcha oshxonada o‘tirdi, so‘ngra, otini egarladi-da, kechasi Ribniyga jo‘nadi. Melexovlarga uzoq qarindosh bo‘lgan bir xushfe‘l kazak taxlangan tappilar orasiga Grigoriyni yashirdi. Ikki kungacha u shu yerda biqinib yotdi, faqat qorong‘i tushgandagina «ini-dan» chiqar edi.

## XXVII

Singindan qaytgan kunning ertasiga Koshevoy kommunistlar yacheykasining majlisi qachon bo‘lishini bilish uchun Vyoshenskaya-ga jo‘nadi. Mishka, Ivan Alekseyevich, Davidka, Yemelyan hamda Filka o‘zlarining partiya safiga o‘tganliklarini rasmiylashtirib olmoqchi edilar.

Mishka kazaklar topshirgan so‘nggi qurollarni, maktab hovlisidan topilgan pulemyot hamda okrug revkomi raisi nomiga yozilgan Shtokmanning xatini olib yo‘lga chiqqan edi. Vyoshenskayaning yo‘lida soylikdan dam-badam quyon qochirishardi. Urush yillari mobaynida quyonlar bola ochaverib shu qadar ko‘payib ketgandiki, har tup qo‘g‘aning tagida bir necha quyon yotardi. Chananing g‘ijirlaganini eshinishi bilan qorni oq quyon qochib chiqib, uchi qora dumini likillatganicha qo‘riqqa qarab qochardi. Chana haydab kelayotgan Yemelyan tizginni qo‘yvorib:

— Otsang-chi! Tumshug‘idan ot! — deb baqirardi. Mishka chandan irg‘ib tushib, cho‘kkalab turib, quyon ketidan bir oboyma o‘qni bo‘shatardi-da, o‘qlari xato ketib qorni to‘zitib yuborganini afsuslanib tomosha qilar, quyon bo‘lsa, quyunday uchib, burganlar ustidagi qorlarni tushirib, chakalakzorga kirib ketardi.

Revkomda to‘s-to‘polon, hamma shoshilgan. Odamlar hovliqib yugurishar, dam-badam choparlar kelib turishar, ko‘chalar kimsasiz edi. Mishka bu hayajonning sababini tushunolmay hayron bo‘ldi. Shtokmanning xatini rais muovini cho‘ntagiga solib qo‘ydi, Mishka javobini so‘ragan edi, o‘shqirib berdi:

— Yo‘qol-ey, arvoch ursin seni! Shu topda qo‘lim tegadimi?

Qorovul rotaning qizil askarlari maydonda u yoqdan bu yoqqa o'tib turishardi. Dala oshxonasi bug' buruqsitib o'tib ketdi. Maydon mol go'shti bilan dafna bargining hidiga to'ldi.

Koshevoy papiros xumor qilib, revtribunaldagi og'aynilarining oldiga kirdi-da:

— Bu nima to'polon, o'zi tinchlikmi? — deb so'radi.

Mahalliy ishlar tergovchisi Gromov noxushlik bilan unga javob berdi:

— Kazanskka bir gap bo'ldi: yo oqlar bostirib kirgan, yo kazaklar qo'zg'olon ko'targan. Kecha o'sha yerda jang bo'lgan emish. Telefon aloqasi uzildi.

— O'sha yoqqa chopar yuborilmabdi-da.

— Yuborildi. Biroq chopar qaytmadi. Bugun bir rota askar Yelanga ketdi. U yer ham notinch.

Ular deraza oldida papiros chekib o'tirib qoldilar. Tribunal joylashgan savdogar uyining oynasidan qor bo'ralab yog'ayotgani ko'rinardi.

Birdaniga stanitsaning orqasidagi qarag'ayzor yoqdan, Chyornaya tomondan o'q ovozi keldi. Mishkaning ranggi oqarib, qo'lidan papirosi tushib ketdi. Uydagi hamma odam yopirilib hovliga chiqdi. O'q tovushi endi aniq eshitila boshladi. Borgan sari yaqinlashib kelayotgan olatasir o'q ovozlari baravar otilgan zalp sadosi bosib ketdi, o'qlar vizillab darvoza va bo'g'otlarning titig'ini chiqarib yubordi. Hovli-da bir qizil askar yarador bo'ldi. Gromov, yo'l-yo'lakay qog'ozlarini cho'ntakka joylab, chopqillaganicha maydonga chiqdi. Qorovul rotaning askarlari revkom binosi oldida tizila boshladi. Kalta po'stin kiygan komandir qizil askarlar orasida mokiday yugurib yurardi. Rotani to'rttadan saf qilib, Don bo'yidagi qiyalikdan chopqillatgancha olib tushib ketdi. Halokatli sarosimalik boshlandi. Odamlar maydon tomon yugurishib qoldi. Egarlangan egasiz ot bo'ynini gajak qilib, shataloq otganicha o'tib ketdi.

Koshevoy esankiraganidan maydonga qanday kelib qolganini o'zi payqamay qoldi. Kavkazcha qora chakmon kiygan Fominning cherkov orqasidan quyunday uchib chiqqanini ko'rdi. U mingan otning dumiga pulemyot bog'langandi: g'ildirakchalari aylanib ulgurolmagan pulemyot yoni bilan sudralib borar, ot tez chopganligidan u yoqdan bu yoqqa chayqalar edi. Egar qoshiga engashib olgan

Fomin tog' etagiga yetgach, havoga ko'tarilgan oppoq qor to'zoni ichida g'oyib bo'ldi.

«Otlar yoniga borish kerak» degan fikr Mishkaning esiga keldi. U engashib olib chorrahani kesib o'tdi-da, hech yerda to'xtamasdan, yuragi o'ynab entikkaniga qaramasdan, yugurganicha tushgan uyiga keldi. Yemelyan esa otlarni qo'shayotib, qo'rqqanidan shatak qayishlarni ilolmay qoldi.

— Bu nimasi, Mixail? Endi nima bo'ladi? — deb chuldirardi Yemelyan tishlarini takillatib. Otlarni qo'shdi-yu, lekin tizginni yo'qotib qo'ydi. Tizginni to'g'rilaganda, xomut bog'i yechilib ketdi.

Ular tushgan uyning hovlisi dashtga tutashgan edi. Mishka qarag'ayzor tomonga qarab-qarab qo'yar, biroq u yoqdan na saf-saf bo'lib kelayotgan piyoda askardan, na suron solib ot qo'ygan suvoridan darak bor edi. Allaqayoqlardan o'q tovushlari kelar, ko'chalar bo'm-bo'sh, har doimdagiday befayz, hamma yoq huvullab yotardi. Ammo shundayligiga qaramay mudhish hodisa ro'y bergani, qo'zg'olon boshlangani aniq edi.

Yemelyan ivirsib chanani qo'shib bo'lguncha Mishka dashtdan ko'zini uzmedi. Butxonaning orqasidan bir qora paltoli kishining yugurib chiqib, dekabr oyida o't tushib ketgan radiostansiya yonidan chopib o'tganini ko'rdi. Paltoli kishi qo'llarini ko'ksiga bosib, bukchayib olib, jon-jahdi bilan yugurardi. Koshevoy uning paltosiga qarab, tergovchi Gromovligini tanidi. Chetan devor orqasida kelayotgan yana bir otliqning qorasini ko'rdi. Mishka uni ham tanidi. Bu vyoshenskaya-lik ashaddiy oq gvardiyachi kazak Chernichkin edi, uning Gromovga yetib olishiga yuz sarjin chamasi masofa qolgandi. Gromov qochib borayotib, bir-ikki marta ortiga qaradi-da, cho'ntagidan to'pponchasini oldi. Ketma-ket ikki o'q chiqdi! Gromov qumtepa ustiga chiqib naganan o'q uza boshladi. Chernichkin chopib kelayotgan otdan irg'ib tushdi-yu, jilovdan tortib turib, yelkasidan miltig'ini olib, uyilgan qor panasiga yotib oldi. Birinchi o'qdan keyin Gromov shox tashlab borib, chap qo'li bilan buta shoxlarini ushlaganicha gir-gir aylandi-da, mukkasidan qorga yiqildi. «O'ldi!» — Mishkaning a'zoyi badani junjilib ketdi. Chernichkin eng o'tkir mergan edi, german urushidan olib kelgan karabini bilan istagan joyidan istagan mo'ljalni xatosiz urardi. Chana darvozadan chiqqanda Mishka chana ustidan turib, Chernich-

kinning tepa ustiga ot solib kelganini, qorda qiya tushib yotgan qora paltoni qilich bilan chopganini ko'rdi.

Dondan o'tib Bazkiga yetib olish nihoyatda xavfli edi. Oppoq qor bosgan muz ustida otlar ham, odamlar ham mergan uchun eng qulay nishon. Qorovul rotaning qizil askarlaridan ikkitasi o'q yeb muz ustida yotardi.

Shuning uchun Yemelyan chanani ko'l orqali o'rmonga burdi. Muz ustini qor aralash suv bosgandi, ot tuyoqlaridan chilpillab shilta qor sachrar, chana qo'shqarog'i chuqur iz qoldirardi. Qishloq-qacha otlarni savalab haydadilar. Biroq chorrahaga yetgan zahoti Yemelyan otlarni to'xtatib, shamoldan qizarib ketgan betini Koshevoyga burdi.

— Bordi-yu, qishloqda ham ahvol shu bo'lsa-chi? Nima qilish kerak?

Mishkaning ko'zlari javdirab qoldi. Qishloq tomon boqdi. Don yoqasida bo'lgan eng chetdagi ko'chadan ikki otliq chopib o'tdi. Koshevoy bularni militsionerlarga o'xshatdi.

— Qishloqqa haydayver. Boradigan boshqa joyimiz yo'q! — dedi u qat'iy qilib.

Yemelyan oyog'i tortmasa ham noiloj otlarni haydadi. Dondan o'tib, tepaga chiqishdi. Ro'paradan Lofchining o'g'li Antip bilan yuqori tomonlik ikki chol chopib kelaverdi.

Yemelyan Antipning qo'lidagi miltiqni ko'rib:

— Voy, Mishka! — dedi-yu, jilovini tortib, otlarini shartta ketiga burdi.

— To'xta!

O'q uzildi. Yemelyan jilovni ushlab turib, quladi. Otlar surib borib chetan devoriga taqalib qolishdi. Koshevoy chanadan sakrab tushdi. Antip unga yaqinlashganda chorig'i toyib ketdi-yu, to'xtab qoldi, darhol miltiqni yelkaga oldi. Mishka chetan ustiga yiqilarkan, cholning qo'lidagi yarqiroq panshaxaga ko'zi tushdi.

— Ur! — degan ovoz eshitildi.

Koshevoyning yelkasi jaz etib ketdi-yu, yerga yiqildi; tishini tishiga qo'yib, yuzini kaftlari bilan to'sib oldi. Bir odam tepasiga kelib, hansirab, panshaxa bilan turtdi.

— Tur, qanjiq!

U yog'i nima bo'lganini Koshevoy es-es bilardi. Antip bo'kirib, uning yoqasidan bo'g'ib oldi:

— Otamni o'ldirtirgan bu badbaxt... Meni ushlamanglar, baraka topkurlar! Men bundan qasos olmasam, ko'nglim tinchimaydi, qo'yvoringlar meni, axir!

Odamlar Antipni sudrab chetga tortishdi; xaloyiq to'plandi; allakim Antipni tinchitmoqchi bo'lib, do'rillab nasihat qila boshladi:

— Bolani qo'yvoringlar! Xudodan qo'rqasizmi, yo'qmi! Qo'y, Antip! Otang baribir tirilmaydi, bekorga odam o'lgani qoladi... Tarqaling, og'aynilar! Hov anavi omborda qand ulashayapti. Borib olinglar...

Mishka kechqurun ko'zini ochdi. Qarasa, o'sha chetan devor tagida yotgan ekan. Panshaxa sanchilgan biqini lovullab achishardi. Panshaxa tishlari po'stinidan va paxtali kamzuli ustidan o'tib badaniga sal-pal kirgan edi. Yarasi qattiq og'rib, laxta-laxta qoni qotib qolgandi. Mishka oyoqqa turib, tevarak-atrofga quloq soldi. Qishloqda qo'zg'olonchilarning patrullari yurganday bo'ldi. Ahyon-ahyonda o'q otilar, itlar hurardi. Olisdan yaqinlashib kelayotgan g'ovur-g'uvur ovoz eshitilardi. Mishka mollar yuraverib iz solgan so'qmoqdan Don bo'ylab ketdi. Jar tepasiga chiqib oldi-da, chetan devorlar tagidan emaklab usti qotgan qorni qo'llari bilan timirskilab, goh pastga dumalab ketib, goh o'nnglanib olib olg'a siljiyverdi. U qayerdaligini bilmas, tavakkaliga olg'a intilardi. A'zoyi badani qaltirar, qo'llari muzlab ketgan edi. Sovuq suyak-suyaklaridan o'tib ketgach, noiloj ro'para kelgan bir darvozaga kirdi. Mishka shox to'sib qo'yilgan eshikni ochib, mol qo'rasiga chiqdi.

Mishka chap tomondagi somonxonaga endi kirganda oyoq tovushi va yo'talغان ovoz eshitildi.

Allakim piymasini sudrab somonxona tomon kelmoqda edi. Koshevoy taqdirga tan berib: «Kunim bitdi», — deb o'yladi. Birovning qorasi eshik oldiga kelib to'xtadi.

Allakim hadiksirab asta:

— Kim bor bu yerda? — dedi. Mishka devor orqasiga o'zini oldi.

— Kim bu? — deb so'radi bo'sag'adagi odam ovozi bilan dalatib.

Mishka uning ovozidan Stepan Astaxov ekanini tanib, somonxonadan chiqdi.



— Menman, Stepan, Koshevoyman... Xudo xayr bersin, meni yashir! Hech kimga aytmagin, xo'pmi! Holimga rahm qil, jon birodar!

— Iye, Mishka ekan-ku... — yaqindagina terlama kasalidan turgani uchun Stepan sekin gapirar edi. Ozib ketganligidan yuzi cho'zilib qolgan, og'zini katta ochib iljayardi.

— Ha, mayli, bir kechaga ruxsat, lekin kunduz boshqa biror joy topgin. Sen o'zing bu yerga qanday kelib qolding.

Mishka javob bermadi, faqat uning qo'lini qisdi-da, somon orasiga kirib ketdi.

Ertasiga kechqurun, qosh qoraygan mahalda, Mishka tavakkal qilib biqina-biqina uyiga yetib oldi-da, derazani tiqillatdi. Onasi dahliz eshigini ochdi-yu, ho'ngrab yig'lab yubordi. U Mishkani bo'ynidan quchoqlab, kiftlarini silar, boshini ko'ksiga qo'yib piq-piq yig'lar edi.

— Tezroq ket! Iso haqi, bu yerda turma, Mishenka! Bugun ertalab kazaklar kelib, qo'rani boshdan oyoq titishdi, seni qidirishdi. Lofchining o'g'li Antipka qamchi bilan meni solib qoldi, «Bolangni bekitgansan, — deydi. — Attangki, tirik qutuldi!» — deydi.

Mishka o'z sheriklari qayerdaligini bilmas, qishloqda nima bo'layotganidan xabarsiz edi. Onasining qisqacha gapidan Don atrofidagi hamma qishloqlar qo'zg'olon ko'targanini, Shtokman, Ivan Alekseyevich, Davidka hamda militsionerlar qochib qutulishganini, ammo Filka bilan Timofeyni kecha tush payti maydonda otib o'ldirishganini bildi.

— Tezroq keta qol! Bu yerda qolsang topib olishadi...

Onasi yig'lab tursa ham, ovozi ma'yus bo'lsa ham, dadil gapirardi. Ko'p yillardan beri yig'i nimaligini esidan chiqarib yuborgan Mishka o'zini tutolmay, yosh bola singari entika-entika piqirlab, og'zidan ko'pik chiqarib yig'lar edi.

Mishka ilgari yilqichilik qilgan vaqtida minib yurgan biyasini egarlab, g'aram orqasiga yetaklab o'tdi, quluni ketidan ergashdi. Onasi kelib Mishkani otga mindirdi, oq yo'l tilab cho'qintirdi. Biya xiralik qilib arang qo'zg'aldi, ikki marta qulunini chaqirib kishnadi. Har ikkalasida ham Mishkaning yuragi shig'illab, orqasiga tortib ketdi. Haytovur, eson-omon qirga chiqdi-da, Getman yo'liga tushib olib, biyasini sharqqa, Ust-Medveditsa tomon haydab ketdi.

Qochoqlar yuradigan qop-qorong'i tun. Biya qulunidan xavotirlanib dam-badam kishnardi. Koshevoy tishlarini g'ijirlatib jilov tasmasi bilan uning qulog'iga urar, tez-tez to'xtab quloq solib ko'rar: biyaning kishnaganini bironyasi eshitib orqamdan quvib kelayotgan yo oldimdan to'sib chiqayotgan bo'lmasin deb xavotirlanardi. Biroq hamma yoq jimjit, tiq etgan tovush chiqmasdi.

U faqat har gal biya to'xtaganda quluni yelunga tarmashib, chapillatib so'rganini eshitar, ketingi oyoqchalarini qorga tirab olib, tumshug'i bilan turtganini otning orqasi qimirlaganidan sezardi.

## XXVIII

Tappixonani qurigan go'ng isi, mog'orlagan somon bilan nishxo'rd hidi bosib ketgan. Bordon bilan yopgan tomidan kunduzi olachalpoq yorug' tushib turadi. Ba'zan chetan eshikdan, ichkariga quyosh mo'ralaydi. Lekin kechasi bu yer go'rdan ham qorong'i. Sichqonlar chiyillashadi. Sukunat hukm suradi...

Kunda bir mahal, qorong'i tushganda uy bekasi hech kimga bildirmay Grigoriyga ovqat keltirib berardi. Tappilar orasiga bir ko'za suv qo'yilgan edi. Hammasi ham mayli-yu, tamaki tugagani yomon bo'ldi. Birinchi kunlari Grigoriy xo'p qiynaldi, nihoyat ertalab xumoriga chiday olmay, yerda yotgan quruq ot go'ngini emaklab yurib terib oldida, kaftida maydalab chekdi. Kechqurun uy egasi xotini orqali injildan yirtib olingan, mog'orlagan ikki varaq qog'oz, bir quti gugurt hamda bir hovuch chala pishgan «Dyubek» tamaki berib yubordi, tamakiga qurigan yo'ng'ichqa aralashtirilgan edi. Grigoriy suyunganidan xumorbosdi qilib ko'ngli aynaguncha chekdi, so'ngra kelganidan beri birinchi marta g'adir-budur tappilar ustida, qush kallasini qanoti ostiga olib uxlaganday, boshini etagi bilan o'rab, qattiq uxlab qoldi.

Ertalab uy egasi uni uyg'otdi. U tappixonaga chopib kirdi-yu, hiringlab:

— Uxlayapsanmi? Tur! Don qo'zg'aldi!.. — dedi-da, qiqirlab kuldi.

Grigoriy tappilar ustidan sakrab yerga tushdi. Taxlab qo'yilgan tappilar taqir-tuqur qilib qulab ketdi.

— Nima gap?

– Yelan bilan Vyoshenskaya kazaklari qo‘zg‘olon ko‘tarishdi. Fomin bilan butun hukumat Vyoshenskayadan Tokinga qochdi. Kazansk, Shumilin, Migulin ham qo‘zg‘algan bo‘lsa, ajab emas. Tushudingmi, gap qayoqdaligini?

Grigoriyning peshona va bo‘yin tomirlari bo‘rtib, ko‘zlarida o‘t chaqnadi. Sevinchi ichiga sig‘may, ovozi o‘zgarib ketdi, shoshib qolganidan nima qilishini bilmay, qop-qora barmoqlari bilan hadeb shinel bog‘ichlarini timirskilar edi.

– Xo‘sh... Qishlog‘ingizda nima bo‘lyapti? Ahvol qalay? Nima gaplar bor?

– Hech gap yo‘q. Raisni ko‘rdim, kuladi, xolos. «Menga bari-bir, kim boshliq bo‘lsa, men o‘shaning quli, ishqilib, boshliq bo‘lsa bo‘lgani», — deydi. O‘tiraverasanmi iningda, bu yoqqa chiqsang-chi, axir!

Ikkisi uy tomon yurdi. Grigoriy katta-katta qadam qo‘yar, uy egasi uning yonida yurib hikoya qilardi.

– Yelanskaya stanitsasida dastlab Krasnoyarsk qishlog‘i qo‘zg‘aldi. O‘tgan kuni yelanlik kommunistlardan yigirmatasi kazaklarni qamamoqchi bo‘lib Krivsk bilan Pleshakovga borishibdi, krasnoyarsklik kazaklar buni eshitib: «Qachongacha bu ahvolga chidaymiz? Otlarimizni haydab ketishyapti, endi bizlarga navbat keladi. Otlarni egarlanglar, qamalganlarni qutqaramiz», — deb gapni bir joyga qo‘yishibdi.

O‘n beshga yaqin yulduzni benarvon uradigan yigitlar to‘planibdi. Atlanov degan jangari kazak bularga bosh bo‘libdi. Hammasi bo‘lib, ikkitagina multiqlari bor, ba‘zisida qilich, ba‘zisida nayza, ba‘zisida ta-yoqdan boshqa narsa yo‘q ekan. Dondan o‘tib Pleshakovga kirishibdi. Kommunistlar Melnikovning qo‘rasida dam olishayotgan ekan.

Krasnoyarskliklar ot qo‘yib qo‘raga hujum qilishibdi, biroq qo‘raning devori harsang toshdan emasmi, bir ish chiqarolmay qochishibdi. Kommunistlar orqalaridan quvishibdi, bir kazakni otib o‘ldirishibdi, joyi jannatda bo‘lsin, otdan qulab chetan devorga osilganicha qolaveribdi. Pleshakovlik kazaklar uni stanitsa otxonasiga olib kelishibdi. Bechoraning qo‘li qamchisini ushlaganicha qotib qolgan emish.... To‘s-to‘polon boshlandi. Shundan keyin Sovet hukumati ham tugadi!..

Grigoriy uyga kirib nonushtadan qolgan ovqatni paqqos tushirdi, so'ngra uy egasi bilan ko'chaga chiqdi. Tor ko'chalarning muyulishlarida xuddi bayramdagiday, gala-gala odam to'plangan edi.

Grigoriy bilan uy egasi bir to'p kazaklar yoniga kelib qo'shildi. Qazaklar salomga javoban qo'llarini papaxlariga tekkizib, sipolik bilan so'rashishdi: Grigoriydan yotsirab, unga boshdan oyoq tikilishaverdi.

— Begona emas, o'z odamimiz, janobi kazaklar! Bundan xavotir olmang. Tatarsklik Melexovlarni eshitganmisiz? Bu Panteleyning o'g'li Grigoriy. Otilishdan qochib menikida jon saqladi, — dedi uy egasi kibrlanib.

Kazaklardan biri, reshetovlik, dubrovlik va chernovlik kazaklar Fominning Vyoshenskayadan surib chiqarganlarini gapirib berdi, endi suhbat qiziy deganda, qor bosgan toqqa tutashgan ko'chani boshida ikki otliq ko'rindi. Ular ko'cha bo'ylab tez kelishar va har to'p kazaklar yonida otlarini to'xtatib, qo'llarini paxsa qilib allanimalar deb qichqirishardi. Grigoriy betoqat bo'lib, ularning yetib kelishini kutib turdi.

Haligi kazak Vyoshenskayaning olinishi to'g'risidagi hikoyasini to'xtatdi-da, olisga tikilib turib:

— Bular boshqa yoqning odami, ribinlik emas... Chopar bo'lsa kerak, — dedi.

Ikki otliq narigi muyulishda to'xtamasdan, to'g'ri bularning yoniga yetib keldi, oldingisi chakmon kiygan, yuzlari terlab qizarib ketgan, oppoq jingalak sochlari peshonasiga tushgan boshyalang chol chavandozchasiga otini taqqa to'xtatdi-da, gavdasini orqaga tashlab, o'ng qo'lini paxsa qilib:

— Bu nimasi, kazaklar? Xotinchasiga ko'chada to'planishib turaverasizmi? — deb baqirdi yig'lamsirab. O'pkasi to'lib ketganidan ovozi bo'g'ilar, loladay qizargan betlari lip-lip uchar edi.

Ostidagi oqtumshuq, paxmoqdum, qizg'ish tusli, oyoqlari qilichday suluv do'nan biya o'ynoqilab turardi. Hadeb suvlig'ini chaynar, dam-badam ketingi oyoqlarini bukib, irg'ishlab g'oz turib olardi, so'ngra jilovini tortib yulqinar, yana surib ketmoqchi, qulog'ini chimirib, yollarini shamolda o'ynatib chopmoqchi bo'lardi, muzlagan qattiq yerni marmar tuyoqlari bilan yana taraqlatib quyunday uchishga intilardi. Biyaning yupqa terisi ostida urib turgan har bir tomiri, har bir payi ravshan ko'rinardi. Qatlam-qatlam bo'yin etlari larsillab turardi.

Biya yoqut ko'zlarini chaqchaytirib, ola-kula qilib egasiga g'azab bilan qarardi.

— Hoy, Tinch Donning farzandlari, qo'zg'almaysizmi, axir!? — deb chol yana bir karra baqirdi-da, Grigoriydan ko'zini olib, boshqalarga qaradi. — Otalaringizni, bobolaringizni otib o'ldirishyapti, mol-mulklaringizni talashyapti, juhud komissarlar ditingizni masxara qilishyapti, maylimi, pista chaqib, sayilgohda bazm qurib yuraverasizmi? Yoki bo'yingizga sirtmoq solinishini kutyapsizmi? Tokaygacha xotinlar pinjidan chiqmaysiz. Butun Yelan yurti, yetti yoshdan yetmish yoshgacha bab-baravar qo'zg'aldi, qizillarni Vyoshenskayadan haydab chiqarishdi... Sizlar bo'lsa... balli ribinlik kazaklarga! Yoki jonlaringdan to'ydilaringmi? Yoki tomirlaringda kazaklik qoni qolmadimi, qon o'rniga tomingizda mujiklar solgan kvas oqyaptimi? Kazak bo'lsang qo'zg'al! Qurol ko'tarib chiqaver! Krivsklik kazaklar hamma qishloqlarni qo'zg'atish uchun bizlarni yubordi. Kazaklar otlaning, payt qo'ldan ketmasin! — Odamlar orasidan bir cholni tanib unga balo-yu qazoday tikildi-da: — Sen nimani kutyapsan, Semyon Xristaforovich!? — deb ginaxonlik qildi. — Qizillar o'g'lingni Filonovoda chopib o'ldirishdi, o'zing pech ustida yotib jon saqlamoqchimisan?

Grigoriy gapning u yog'ini eshitmasdan chopganicha qo'raga kirdi. Somonxonada ko'pdan beri minilmay turgan otini yeldirib hovliga olib chiqdi, tirnoqlari qonaganiga qaramay tappilar orasini kavlab egarini oldi-da, darvozadan o'qday otilib chiqdi.

Darvoza tomon kelayotgan uy egasiga:

— Men ketdim! Panoyi xudo! — deb baqirganicha egar qoshiga butun gavdasi bilan qapishib olib, ko'chadagi qorlarni to'zitib, otini ayamay qamchilab haydab qoldi. Sovqotgan oyoqlari uzangida tinch turmay, otning biqiniga niqtar, tuyoqlari ostidan ko'tarilgan qor to'zoni yana qaytib yerga cho'kardi. Tuyoqlar pulemyot o'qiday taraqlardi. Grigoriy shodligini ichiga sig'dirolmay hovliqar, nazarida kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shilganga o'xshardi, sevinchidan tomog'ini qirib, o'qtin-o'qtin beixtiyor qiyqirib yuborardi. Shu damgacha ko'ngli qafasida qamalib yotgan hislari endi ozod bo'lib, g'alayonga kelgan edi. Uning nazarida endigi qiladigan ishi, boradigan yo'li o'n to'rt kechalik oyday ravshan bo'lib ko'rinardi.

U tappilar orasiga bo'riday berkinib, sirdan kelgan har bir ovozga, tiq etgan tovushga hadiksirab quloq sola berib tinkasi qurigan kunlari hamma narsani oxirigacha o'ylab chiqqan, hamma ishni hal qilgan edi. Mana endi haqiqat izlab tagiga yetolmagan, adashib qiynalgan, o'zini goh u yoqqa, goh bu yoqqa urgan, o'zi bilan o'zi kurashgan o'sha kunlar butunlay esdan chiqdi.

O'tgan kunlar tushday o'tdi-ketdi; haqiqat axtarib bir qarorga kelolmay o'tkazgan vaqtlari, hozir uning nazarida, quruq ovoragarchilik bilan zoye ketganday tuyulardi. O'ylashning nima keragi bor? Qopqonga tushgan bo'riday nima qilishini bilmay, o'zini har yoqqa urib, ichini it tirnab zir yugurishning nima hojati bor edi? Hayot osongina yo'lini ko'rsatdi qo'ydi. Mana endi Grigoriy, hayotda hammabop haqiqatning yo'qligini va azaldan shundayligini anglaganday bo'ldi, shuning uchun u jahl aralash: «Har kimning o'z bilgani, o'zi tanlab olgan yo'li bor» deb o'ylardi. Odamlar bir burda non, bir parcha yerni deb, yashash huquqidan mahrum bo'lmayin deb azaldan kurashib keladilar, osmonda quyosh nur sohib, tomirlarda qon tepib turar ekan, bu kurashdan to'xtamaydilar. Demak, kimki yashash huquqidan mahrum etmoqchi bo'lsa, u bilan kurashmoq lozim, lekin ikkilanmasdan, bir cho'qib chetga chiqmasdan astoydil jang qilmoq kerak, chunki jang kishini chiniqtiradi, g'azabini qo'zitadi, kishi o'z hislarini jilovlamay, ularni butunlay erkin qo'yib yuborishi lozim, ular ko'pirib toshsin, ana o'shanda ish bitadi.

Kazaklar yo'lini Rusiyaning yersiz mujiklari bilan fabrika ishchilari to'sib qo'ydi. Mana shularga qarshi joni boricha jang qilish kerak. Kazaklar qoni bilan sug'orilgan serhosil Don yerlarini ularga toptatmaslik lozim. Tatarlarni quvganday, bularni ham viloyat tuprog'idan haydab chiqarish lozim! Moskva ustiga yasov tortib borib, sharmandasini chiqarib, sulh tuzishga majbur etish kerak! Olam tor: ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi, bittasini olib tashlash shart. Don yerlariga qizillarning polklarini kirgizib, og'zimiz kuygan. Qilichni qindan sug'uradigan payt keldi endi!

G'azabidan o'tday tutaqishgan Grigoriy mana shu xil o'ylar ichida oppoq qor bosgan Don ustidan ot choptirib borar edi. Bir dam xayolida bir-biriga zid fikrlar o'tdi: «Bu, kazaklar bilan Rusiya orasidagi kurashmas, boylar kambag'allarga qarshi kurashyapti... Mishka Ko-

shevoy bilan Kotlyarov ham kazak, lekin ikkisi ham g'irt qizil-ku...» Lekin u jahl bilan bu fikrni rad etdi.

Tatarsk qishlog'i ko'rindi. Grigoriy jilovni tortib, sovunday ko'pirgan otining chopishini sekinlatdi. Daryodan chiqaverishda yana haydadi-da, darvozani ot ko'ksi bilan ochib qo'raga o'qday uchib kirdi.

## XXIX

Tinkasi qurigan Koshevoy tongotar mahalida Ust-Xopyor stantsasiga qarashli Bolshoy qishlog'iga yetib keldi. 4-Zaamur polkining soqchilari uni to'xtatdilar. Ikki qizil askar uni shtabga olib bordi. Al-laqanday bir shtab xodimi gumonsirab anchagacha so'roq qildi. «Sizda revkom raisi kim edi? Nega hujjating yo'q?» singari savollar berib uni chalg'itmoqchi bo'ldi. Bunday bema'ni savollarga javob beraverib Mishka jonidan to'ydi.

— Meni ko'p qiynama, o'rtoq! Kazaklar meni rosa qiynab ko'rishdi, biroq bekorga ovora bo'lgani qoldi.

U ko'ylagini ko'tarib, panshaxa sanchilgan biqinlarini va qorining pastini ko'rsatdi, endi shtab xodimini boloxonador qilib so'kmoqchi bo'lganda, eshikdan Shtokman kirib qoldi.

— Ana, xolos! Voy, adashgan shayton-ey. — Shtokmanning do'rilagan yo'g'on ovozi birdaniga bo'g'ilib, qo'llari Mishkani quchoqlab oldi. — Buni nega so'roq qilasan, birodar! Axir bu yigit o'zimizga qarashli odam-ku! Judayam ahmoqona ish qilibsang-da! Mengami yo bo'lmasa Kotlyarovga odam yuborsang-ku, masala birpasda hal bo'lardi-qo'yardi... Qani yur, Mixail! Qanday qilib tirik qolding! Menga ayt-chi, qanday tirik qolding o'zing? Biz seni tiriklar ro'yxatidan o'chirib tashlovdik. Qahramonlarcha halok bo'ldi deb o'ylovdik.

Mishka qo'lga tushib asir bo'lgan paytini, chanada qoldirgan miltig'ini, qo'lidan hech narsa kelmaganini ko'z oldiga keltirdi, isitmasi chiqib, lavlagiday qizarib ketdi.

## XXX

Grigoriy Tatarsk qishlog'iga yetib kelgan kuni kazaklardan ikki sotnya askar tuzilgan edi. Qishloq yig'inida: «Qurol ko'tarishga yaray-

digan, o'n olti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan tamomiy erkaklar safarbar qilinsin» deb qaror chiqarildi. Ko'pgina kishilar hozirgi vaziyatdan hech qanday umid yo'qligini sezishardi, chunki bolsheviklar ta'siri ostidagi Voronej guberniyasi bilan bus-butun qizillardan iborat bo'lgan Xopyor okrugi viloyatga chegaradosh edi, janubda bo'lsa, front; mabodo bu front ketiga burilib bir hamla qiladigan bo'lsa bormi, qo'zg'olonchilarni yer bilan yakson qilishi turgan gap. Mana shunisiga ko'zi yetgan ba'zi bir puxta kazaklar qurol olishga rozi bo'lmadilar, biroq ularni majbur qilishdi. Stepan Astaxov urushga borishdan qat'iyan bosh tortdi.

Ertalab uning oldiga Grigoriy, Xristonya va Anikushka kirganlarida:

— Men bormayman. Otimni olinglar, bilganlaringni qilinglar, ammo men qo'limga miltiq olmayman, — deb turib oldi.

— Xo'sh, nega miltiq ko'tarmas ekansan? — deb so'radi Grigoriy burnining kataklarini kerib.

— Qo'limga miltiq olmayman — vassalom!

— Qishloqni qizillar bosib olsa, nima qilasan? Biz bilan ketasanmi yo qishloqda qolaverasanmi?

Grigoriyni yeb qo'ygudek bo'lib tikilib qarab turgan Stepan undan ko'zini olib, Aksinyaga qaradi, birpas jim turib:

— O'shanda ma'lum bo'lar... — dedi.

— Unday bo'lsa, chiq eshikka! Sudra buni, Xristan! Biz seni hozir bir yoqlik qilamiz! — Grigoriy pech yonida shumshayib turgan Aksinyadan ko'zini olib qochib, Stepanning yengidan siltab tortdi. — Qani yur, maynabozchilik ketmaydi!

— Grigoriy, jinnilik qilma... Qo'ysang-chi, axir! — rangi oqarib ketgan Stepan oyog'ini tirab oldi.

Xristonya orqadan kelib uni quchoqlab oldi:

— Niyating buzilganga o'xshaydi, qani, yur bu yoqqa, — deb po'ng'illadi u.

— Birodarlar!..

— Biz senga birodar emas! Yur, deyapman senga!

— Qo'yvor, men sotnyaga yozilishga roziman. Terlamadan keyin darmonim yo'q...

Grigoriy og'zini qiyshaytirib iljaydi-da, Stepanning yengini qo'yib yubordi.



— Mana endi o‘zingga kelding! Borib miltiq ol.

Grigoriy shinelini tugmalab xayrlashmasdan chiqib ketdi. Oradan shuncha gap o‘tgandan keyin Xristonya uyalmay-netmay Stepandan tamaki tilab chekdi-da, hech narsa bo‘lmagandek, anchagacha gaplashib o‘tiraverdi.

Kechga yaqin Vyoshenskayadan ikki aravada sakson to‘rtta miltiq, yuzdan ortiq qilich olib kelishdi. Ko‘pgina kazaklar, yashirib qo‘ygan miltiqlarini olib qurollanishdi. Qishloq ikki yuz o‘n bir askarni shaylab berdi; bulardan yuz elliktasi otliq, qolgani piyoda edi.

Qo‘zg‘olonchilarning yagona bir tashkiloti yo‘q edi. Har qaysi qishloq o‘zicha harakat qilar: o‘z boshiga sotnyalar tuzib, jangda chiniqqan kazaklardan o‘zlariga komandir saylab olishardi, komandir tanlashda uning harbiy unvoniga emas, ko‘rsatgan xizmatiga e‘tibor berishardi; hech qanday hujum operatsiyalari o‘tkazishmasdi, faqat qo‘shni qishloqlar bilan aloqa bog‘lab, otliq razvedka yuborib, tevarak-atrofnı tekshirib turishardi.

Grigoriy Tatarskka kelishdan sal oldin bu yerdagi otliq sotnyaga yana o‘n sakkizinchi yildagiday Petro Melexov komandir qilinib saylangan edi. Piyoda sotnyaning komandirligini Latishev qabul qildi. Ivan Tomilin boshchiligidagi to‘pchilar Bazki qishlog‘iga jo‘nadilar. U yerda qizillar g‘ildiragi siniq, panoramasiz to‘plarnı tashlab ketgan ekanlar, to‘pchilar shuni tuzatgani ketishdi.

Ikki yuz o‘n bir kishiga bir yuz sakkiz miltiq, yuz qirqta qilich va o‘n to‘rtta ov miltig‘i jamlandi. Bu qurol-yaroqlar Vyoshenskayadan olib kelingan va qishloqdan to‘plangan edi. Boshqa chollar qatori Moxov yerto‘lasidan ozodlikka chiqqan Panteley Prokofyevich ko‘mib qo‘ygan pulemyotni ochib oldi. Biroq o‘q lentasi topilmagani uchun sotnyadagilar bu pulemyotni olishmadi.

Ertasi kuni kechga yaqin, qo‘zg‘olonni bostirish uchun Lixachyov qo‘mondonligida Kargindan yetti to‘p, o‘n ikki pulemyot bilan uch yuz qizil askar kelayotgani ma‘lum bo‘ldi. Petro Tokin qishlog‘i tomonga kuchli razvedka yuborishga va bu xabarnı Vyoshenskayaga ma‘lum qilishga qaror qildi.

Razvedka g‘ira-shira qorong‘i tushganda yo‘lga chiqdi. Tatarsklik o‘ttiz ikki kishiga Grigoriy Melexov bosh bo‘ldi. Qishloqdan chiqish-

danoq otlarni Tokinga yetib borguncha qattiq haydashdi. Qishloqqa ikki chaqirimcha qolganda, yo‘l yoqasidagi unchalik chuqur bo‘lmagan bir jar bo‘yida Grigoriy kazaklarni otdan tushirib, jarga joylashtirdi. Jilovdorlar otlarni pastqamroq joyga yetaklab tushishdi. Bu yerni qalin qor bosib qolgan edi. Otlar pastlikka tushayotib qorinlarigacha yumshoq qorga kirib ketishdi. Allakim mingan otning ayg‘irligi qo‘zg‘ab, hadeb kishnar, tepinar edi. Uni tinchitish uchun ataylab bir odam band bo‘ldi.

Grigoriy uch kazakni: Anikushka, Martin Shamil hamda Proxor Zikovni Tokinga jo‘natdi. Ular otlarini sekin haydab ketdilar. Tepalik ostida sharqi-janub tomonga qarab cho‘zilib ketgan qing‘ir-qiyshiq chorbog‘lar olisdan ko‘m-ko‘k bo‘lib ko‘rindi. Qorong‘i tusha boshladi. Dasht ustini quyuq bulut qoplab oldi. Kazaklar churq etmay jarda pisib o‘tirishardi. Grigoriy uch otliqning qorasi tepadan tushganini, bora-bora qorayib ko‘ringan yo‘lga o‘tganini tomosha qilib turdi. Mana endi otlar ko‘rinmay qoldi, faqat otliqlarning boshlari lip-lip etib ko‘rinib turdi, nihoyat ular ham ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Oradan ikki daqiqa o‘tar-o‘tmas o‘sha yoqdan tarillagan pulemyot ovozi eshitildi: so‘ngra, qizigan nog‘oraday taraklab ikkinchi pulemyot ovoz berdi, bunisi qo‘l pulemyoti bo‘lsa kerak. Diskadagi o‘qini tamomladi shekilli, qo‘l pulemyotining ovozi o‘chdi, birinchi pulemyot esa, qittay dam olvolib, yana bir lenta o‘qni sidirg‘asiga otib bo‘shatdi, o‘qlar jar ustidan o‘tib, qorong‘ida allaqayoqlarga uchib ketardi. Ularning chiyillagan tovushi hammani sergaklantirib qo‘ydi. Uch otliq olatasir qochib qoldi.

— Pistirmaga duch keldik! — deb olisdan baqirib kelaverdi Proxor Zikov. Ot tuyoqlarining qattiq tapir-tupuridan uning ovozi eshitilmay qoldi.

— Jilovdorlar, otlarni tayyorla! — deb buyurdi Grigoriy.

U bir irg‘ib jar tepasiga chiqdi-da, qorga sanchilayotgan o‘qlarga parvo qilmasdan, qochib kelayotgan kazaklarni to‘sib chiqdi.

— Hech narsa ko‘rmadinglarmi?

— Tapir-tupur ovozlarni eshitdik. Tovushlariga qaraganda, odam ko‘pga o‘xshadi, — deb entika-entika gapirib berdi Anikushka. U otdan sakrab tushayotganda etigining tumshug‘i uzangiga ilinib qoldi. Anikushka bir oyog‘i bilan irg‘ishlab, so‘kina-so‘kina, oyog‘ini chiqarib oldi.

Grigoriy Anikushkadan so‘rab-surishtirayotgan mahalda sakkiz kazak pastga tushib otlarini mindi-yu, uy-uyiga jo‘nab qoldi. Grigoriy olisdan qochib ketayotgan sheriklarining dupur-dupuriga quloq solib turib:

— Ertaga hammasini otamiz, — dedi sekingina. Qolgan kazaklar yana bir soatcha ovozlari chiqarmasdan, tiq etgan tovushga quloq solib jarda o‘tirishdi. Nihoyat, bittasi ot dupurini eshitganday bo‘ldi.

— Tokin yoqdan kelishyapti...

— Razvedka!

— Bo‘lmagan gap!

Kazaklar shivirlab gaplashar, boshlarini ko‘tarib, qop-qorong‘i zulmat orasidan biror narsani ko‘rmoqchi bo‘lib bekorga urinishardi. Dastlab qiyiq ko‘z Fedot Bodovskov kelayotganlarni ko‘rib:

— Kelishyapti, — dedi, yelkasidan miltig‘ini olib. Fedot doim miltiqni boshqacha taqib yurardi: qayishi bo‘ynida, miltiq ko‘ksida; piyoda bo‘lsa ham, otliq bo‘lsa ham doim ahvol shu edi: xuddi obkash ko‘targan ayollarday, bir qo‘lini miltiq tig‘iga, bir qo‘lini qo‘ndog‘iga qo‘yib olib ketaveradi.

O‘ntacha otliq oldinma-ketin indamay yo‘ldan kelardi. Bir gaz chamasi oldinroqda kelayotgan, issiq kiyingan basavlat odamning qorasi aniq ajralib turardi. Uning ostidagi kalta dum bo‘ydor arg‘umoq bo‘ynini gajak qilib shaxdam qadam tashlardi. Grigoriyga kulrang osmon fonida har bir otning, har bir odamning qorasi, hattoki oldingi otliqning kubancha papaxi ham aniq-tiniq ko‘rinib turardi. Otliqlar jarga o‘n sarjin chamasi yaqin kelib qolishgandi; oraliq shu qadar yaqinlashgan ediki, kazaklarning pishillab nafas olganini, yuraklarining dukillaganini ular bemalol eshitsa kerak, deb gumon qilish mumkin edi.

Grigoriy boya o‘z odamlariga: «Mening buyrug‘imsiz o‘q chiqarmanglar!» deb tayinlagan edi. U, pistirmaga berkinib yotgan ovchiday, hovliqmas, qulay payt poylardi. Mana hozir u nima qilish kerakligini o‘ylab topdi: to‘satdan «kim» deb savol beradi-da, ular esankirab qolib, hammasi bir joyga g‘uj bo‘lishganda, o‘t ochadi...

Otlar bir maromda qorni g‘archillatib tobora yaqin kelaverdi. Tu-yoq ostidan yalt etib o‘t chaq nab ketdi, qor tagidan chiqib qolgan toshga taqa tegib ketgan bo‘lsa kerak.

— Kim bu?

Grigoriy mushukday bir irg'ib jordan chiqdi-da, qaddini rostladi. Uning ketidan kazaklar ham duv yopirilib chiqishdi. Ana shundan keyin Grigoriy mutlaqo kutmagan hodisa ro'y berdi.

— Sizga kim kerak? — deb so'radi xirillagan yo'g'on tovushli bir odam pinagini buzmay, u darhol otini Grigoriy tomon burdi.

Grigoriy joyidan qo'zg'almay:

— Kimsan o'zing? — deb qattiq qichqirib yubordi-da, qo'lidagi naganni unga sezdirmasdan o'q talib turdi.

Yo'g'on ovoz g'azab bilan qattiq shang'illadi:

— Senga kim huquq berdi baqirishga? Bilasanmi, men — jazo ot-ryadining komandiri bo'laman! Sakkizinchi Qizil Armiya topshirig'i bilan qo'zg'olonni bostirish uchun chiqqanman! Komandirlaring kim? Chaqirib kel hozir!

— Komandir men.

— Sen-a? Haaa...

Otliqning baland ko'tarilgan qo'lidagi qop-qora narsani Grigoriy ko'rgani hamon, o'q chiqquncha yerga yotib oldi, o'sha zahotiyog:

— O't och! — deb baqirdi.

Brauning to'pponchani to'mtoq o'qi Grigoriyning boshi ustidan vizillab o'tib ketdi. Har ikki tomondan qasira-qusur o'q chiqqan boshladi. Fedot Bodovskov dovyurak komandir mingan otning jiloviga tarmashdi. Grigoriy Fedotning ustidan oshirib, qilichning o'tmas tomoni bilan kubanka kiygan komandirning boshiga soldi-da, zilday gavdani egardan ag'darib tushirdi. Ikki daqiqa orasida ur-yiqit tamom bo'ldi. Uch nafar qizil askar qochib qutuldi, ikkisi o'ldi, qolganlarini qurolsizlantirdilar.

Grigoriy qo'lga tushgan komandirning og'ziga naganni taqab, qisqacha so'roq qildi:

— Familiyang nima, ablah?

— Lixachyov.

— Nimangga ishonib to'qqiztagina odam bilan yo'lga chiqding? Yoki kazaklarni mensimadingmi, tiz cho'kib turaveradi deb o'yladingmi? Yalinib tavba qiladi deb o'ylovdadingmi?

— Otib tashlamaysanmi!

— Shoshma hali, — dedi Grigoriy yupatganday.

— Hujjatlaring qani?

— Sumkamda. Ol, bandit!.. Ablah!

Grigoriy so‘kishlariga e‘tibor bermasdan Lixachyovning hamma yog‘ini o‘zi tintib chiqdi: po‘stin cho‘ntagidan yana bitta brauning topdi, mauzerini hamda harbiy sumkasini yechib oldi. Yon cho‘ntagidan olachipor charm jildlik kichkina portfel bilan portsigar chiqdi; portfel-da har xil qog‘ozlar bor edi.

Lixachyov to‘xtovsiz so‘kinar va joni og‘riganidan ingrar edi. Uning o‘ng kiftiga o‘q tekkan, buning ustiga, Grigoriyning qilichi boshini qattiq zaxa qilgandi. Bo‘yi baland, Grigoriydan ancha novcha, o‘zi chorpahildan kelgan va avzoyiga qaraganda xiyla baquvvat odamga o‘xshardi. Tim qora va qalin qoshlari qanshari ustida bir-biriga qo‘shilib ketganidan, soqol-u mo‘ylovsiz yuzini shijoatli qilib ko‘rsatardi. Og‘zi katta, iyagi keng edi. Lixachyovning egnida kaltagina belburma po‘stin, boshida qilich zarbidan mijig‘langan qora kubanka; po‘stin tagidan kiygan ko‘k french bilan keng galife shimi qomatiga juda yarashgan edi. Oyoqlari kichik, zaifona oyoqlarday ixcham bo‘lib, amirkon qo‘njlil olifta etak kiyib olgandi.

— Po‘stinni yech, komissar! — deb buyurdi Grigoriy. — Kazaklar nonini yeyaverib judayam semirib ketibsan, uncha-muncha sovuq senga pisandmas!

Asirlarning qo‘llarini belbog‘ va no‘xtalar bilan bog‘lab o‘z otlariga mingizishdi.

Grigoriy jo‘nashga komanda berib:

— Yeldirib hayda ketimdan! — dedi-da, Lixachyovdan olgan mazurni o‘nglab osib qo‘ydi.

Ular Bazkida tunashdi. Pech yonida, poxol to‘shalgan polda Lixachyov o‘zini qayerga qo‘yishini bilmay to‘lg‘anar, tishlarini g‘ijirlatardi. Grigoriy uning o‘q tekkan kiftini chiroq yorug‘ida yuvib, bog‘lab qo‘ydi, shundan keyin qayta so‘roq qilmadi. Stol yoniga o‘tirib olib Lixachyovning hujjatlarini, revtribunal qochgan mahalda Lixachyovga berib ketgan vyoshenskayalik aksilinqilobchi kazaklar ro‘yxatini, xotira daftar va xatlarini, qartaga qalam tegizilgan joylarini anchagacha ko‘rib tekshirib chiqdi. U ahyon-ahyonda Lixachyovga bir qarab qo‘yar, nayza sanchishganday u bilan ko‘z urishtirib olardi. Shu uyga qo‘ngan kazaklar tuni bilan tinmasdan goh otiga qaragani

hovliga, goh tamaki chekkani dahlizga chiqaverib, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir gaplashaverib bezor qilishdi.

Tongotar mahali Grigoriyni uyqu elitdi, biroq sal o‘tmay uyg‘onib ketib, zilday og‘irlashgan boshini stoldan ko‘tardi. Lixachyov poxol ustida o‘tirgan holicha tishi bilan bintni yechib, olib tashlamoqchi bo‘lar edi. U qonga to‘lgan g‘azabnok ko‘zlari bilan Grigoriyga tikildi. Sadafday tishlari qarishib qolgan, nursiz ko‘zlariga hasrat cho‘kkan, mo‘lt-mo‘lt qilib turar edi. Buni ko‘rgan Grigoriyning uyqusi o‘chib ketdi.

— Senga nima bo‘ldi? — deb so‘radi u.

— So‘rab nima qilasan, dayus? O‘ldir meni! — deb baqirib yubordi-da, Lixachyov boshi bilan poxol ustiga quladi.

Tuni bilan u suv ichib chiqdi; tong otguncha ko‘z yummasdi.

Ertalab Grigoriy Lixachyovni tachankaga solib, yonidan chiqqan hamma hujjatlarini, yozgan raportini qo‘shib, Vyoshenskayaga jo‘natdi.

### XXXI

Vyoshenskayadagi sobiq ijroqo‘mning qizil g‘ishtin binosi oldiga ikkita otliq kazak bilan tachanka kelib to‘xtadi. Tachanka ichida Lixachyov yonboshlab yotardi. U qonli latta bilan o‘rog‘liq qo‘lini avaylab o‘rmidan turdi. Kazaklar otdan tushib, uni uyga haydab kirishdi.

Qo‘zg‘olonchilar birlashgan otryadlarining muvaqqat komandiri Suyarovning kabinetida elliktacha kazak to‘planib turardi. Lixachyov qo‘lini avaylab, turtinib-surtinib, stol qoshiga bordi.

Stol yonida jikkakdan kelgan, sap-sariq o‘g‘ri ko‘zlari o‘ynab turgan ko‘rimsiz bir odam o‘tirardi. Bu Suyarov edi. U Lixachyovga ko‘z tashladi-da:

— Kaptar qo‘lga tushibdi-ku! Lixachyov senmisan? — deb so‘radi.

— Menman. Hujjatlarim mana. — Lixachyov portfelni xalta-palatasi bilan stol ustiga tashlab, tap tortmasdan Suyarovga qattiq tikildi. — Men topshiriqni bajara olmaganimga, siz, ablahlarni ilonday yanchib tashlamaganimga achinaman, xolos! Ammo Sovet Rossiyasi sizlarni sog‘ qo‘ymaydi. Iltimos qilaman, meni otib tashlanglar.

Lixachyov o‘q yegan kiftini qimirlatdi, qalin qoshlarini chimirdi.

— Yo‘q, o‘rtoq Lixachyov! Biz o‘zimiz otishga qarshi chiqib qo‘zg‘olon ko‘targanmiz. Sizlarda odam otish bor, bizda unaqangi gap yo‘q. Biz seni davolab tuzatamiz, balki biz uchun foydang tegib qolar hali, — deb muloyimgina gapirardi Suyarov. Biroq uning ko‘zlarida o‘t chaqnab turardi. — Ortiqcha odamlar chiqib tursin-chi. Qani, tezroq uyni bo‘shatinglar!

Uyda faqat Reshetov, Chernov, Ushakov, Dubrov hamda Vyoshenskaya stanitsa sotnyalarining komandirlari qoldi. Hammasi stol atrofiga kelib o‘tirdi. Allakim oyog‘i bilan taburetكاني Lixachyov tomon turtib qo‘ydi, biroq u o‘tirmadi. Devorga suyanib, o‘tirganlarning boshidan osha derazaga qarab turaverdi.

Suyarov sotnya komandirlari bilan ko‘z urishtirib olib gap boshladi:

— Masala bunday, Lixachyov. Bizga ayt-chi, otryadingda qancha odam bor?

— Aytmayman.

— Aytmaysanmi? Aytmasang, kerak emas. Hujjatlaringga qarab, qanchaligini o‘zimiz topib olamiz. Yoki soqchilaringni so‘roq qilsak, aytib berishadi. Sendan yana bir iltimosimiz bor (Suyarov «iltimos» so‘zini chertib gapirdi): otryadingdagilarga xat yozgin, hammasi Vyoshenskayaga kelsin. Siz bilan ota merosi talashadigan joyimiz yo‘q. Biz Sovet hukumatiga qarshi chiqmaymiz, biz kommunaqa, juhudlarga qarshimiz. Otryadingni qurolsizlantiramiz-u, uy-uyingizga keting, deb javob beramiz. Seniyam qo‘yvoramiz. Gapning qisqasi, biz ham sizlar singari mehnatkashmiz, bizdan hadiksiramay kelishaversin, mana shunday deb yozgin, biz Sovetlarga qarshi emasmiz...

Lixachyovning tupugi Suyarovning siyrak cho‘qqi soqoliga borib yopishdi. U yengi bilan soqolini artdi, betlari sholg‘omday qizarib ketdi. Ba‘zi bir komandirlar iljayib qo‘ya qoldi, qo‘mondonlarini himoya qilish uchun birontasi o‘rnidan qo‘zg‘almadi ham.

Suyarov og‘ringan odamday jo‘rttaga gina qila boshladi:

— Bizni haqorat qilyapsan, o‘rtoq Lixachyov! Atamanlar, ofitserlar bizni haqorat qilib betimizga tupurishar edi, kommunist bo‘la turib sen ham tupuryapsan. Tag‘in: «Biz xalq tarafdorimiz» deysiz-a... Hoy, kim bor eshikda? Komissarni olib ketinglar. Seni ertaga Kazanskka jo‘natamiz.

Sotnya komandirlaridan biri:

— O‘ylab ko‘r, rozi bo‘lganing yaxshimasmi, — deb so‘radi.

Lixachyov kiftini bir siltab yelkasiga tashlog‘liq frenchini to‘g‘rilab oldi-da, eshik oldida turgan soqchi yoniga bordi.

Lixachyovni otmadilar. Qo‘zg‘olonchilar «otishga va talon-tarojga qarshi kurashadi» deyilgan emasmi...

Ertasi kuni uni Kazanskka haydashdi. U soqchilar oldiga tushib, qoshlarini chimirib qor kechib borardi... Lekin o‘rmondagi oppoq qayin tagidan o‘tayotib sog‘lom qo‘lini cho‘zdi-da, uning bir novdasini uzib oldi. Mart oyining shirin sharbatini so‘ra boshlagan daraxt kurtak chiqargan edi; undan gulgun bahorning bilinar-bilinmas nozik ifori kelar, quyosh bir aylanib kelganda yil sayin takrorlanuvchi hayotning daragi kelardi. Lixachyov to‘lishgan kurtaklarni og‘ziga solib shimar va ko‘zlariga yosh kelib, uyg‘onib kelayotgan daraxtlarga boqar, labining bir cheti bilan kulimsirdi.

Lixachyov jon berayotganda ochilmagan qora gulbarglar lablari orasida qolgan edi: Vyoshenskayadan yetti chaqirim narida uni soqchilar, befayz qumtepalar orasida vahshiylarcha qiymalab o‘ldirdilar. Tiriklayin ko‘zlarini o‘yib, burun-u quloq, qo‘llarini kesib, betlarini qilich bilan tilimladilar. Hatto qon tizillab oqayotgan qo‘l-oyoqsiz gavdasini tahqirladilar. Nihoyat, soqchilardan bittasi, chalqanchasiga tushib yotgan ojiz tananing titrab turgan ko‘ksiga oyoq qo‘yib turib, qilich bilan shartta boshini uzib tashladi.

## XXXII

Donning narigi yoqlaridan, yuqori Dondan kun sayin qo‘zg‘olonning keng yayilayotgani to‘g‘risida xabar kelib turardi. Qo‘zg‘olon ko‘targan ikki stanitsaga boshqalar ham ergashgan edi. Shumilin, Kazansk, Migulin, Meshkov, Vyoshenskaya, Yelan, Ust-Xopyor bosh ko‘tarib, naridan beri sotnyalar tashkil etib olishgandi: Kargin, Bokov Krasnokutsk stanitsalari ham qo‘zg‘olonchilarga qo‘shilish payida edilar. Yonma-yon qo‘shni bo‘lgan Ust-Medveditsa va Xopyor okruglarida ham qo‘zg‘olon chiqish xavfi tug‘ilgandi. Bukanov, Slashev, Fedoseyev stanitsalarida it egasini tanimay qoldi; Alekseyevsk stanitsasining Vyoshenskayaga tutashgan qishloqlarida g‘alayon boshlan-



di... Vyoshenskaya yirik stanitsa bo'lganligidan qo'zg'olon markaziga aylandi. Ko'pgina talash va tortishuvlardan keyin usuli idora tartibini ilgarigidek qoldirishga qaror qilishdi. Okrug ijroqo'm hay'atiga eng obro'li yosh kazaklar saylandi. Ilgari artilleriya boshqarmasida xizmat qilgan harbiy mansabdor Danilovni rais qilib ko'tarishdi. Stanitsalarda, stanitsa qishloqlarida qishloq soveti tashkil qilishib, hattoki ilgari haqorat hisoblangan «o'rtoq» so'zini hali ham bemalol ishlataverishardi. Ko'z bo'yash maqsadida: «Biz Sovet hukumati tarafdorimiz, lekin kommunaga, talon-taroj va otishlarga qarshimiz» degan qalbaki shior o'rtaga tashlangan edi. Ana shuning uchun qo'zg'olonchilar papaxlaridagi bitta oq bog'ich ustidan ko'ndalangiga yana bitta qizil bog'ich taqib yurishardi...

Qo'zg'olonchilarning birlashgan kuchlari ustidan komandir bo'lgan Suyarov o'mniga, to'rt xil «Georgiy» ordeni bilan mukofotlangan, eshushi butun, gapdon, yigirma sakkiz yashar xorunjiy Pavel Kudinov saylandi. Uning asosiy kamchiligi irodasizligi edi; o'shanday to'polon paytda bu qadar irodasiz kishining qo'zg'olonchi okrugga bosh bo'lishi kelishmagan gap edi, biroq shunga qaramay, kamtarligi va xushmuomalaligi uchun kazaklar uni yaxshi ko'rishardi. Xususan, Kudinovning nasl-nasabi kazaklardan bo'lib, yetti pushtidan tortib taniqli odamlar edi; o'zi bo'lsa, manmanlikni, kazaklardan ko'tarilgan ofiserlar singari o'zini katta olishni bilmasdi. U doim sodda kiyinib, uzun sochlarini gir aylantirib tekis oldirib yurardi. Gavdasi sal-pal bukchaygan, gapirsa, labi labiga tegmas edi. Burni sumakday, aft-basharasanchayin mujiklarnikidan farq qilmasdi.

Ilya Safonov degan yasovul yordamchisini qo'rqoqligi uchungina shtab boshlig'i vazifasiga saylashdi; lekin uning xati chiroyli, o'zi savodxon edi. Yig'indagilar gapning po'stkallasini aytib qo'ya qolishdi:

— Shtabga shuni qo'yish kerak. O'zi safga yaramaydi. Bu komandirlik qiladigan bo'lsa, hamma kazak qiriladi, o'ziyam shikast yeydi. Buni jangchi qilaman deguncha ona suti og'zingga keladi.

Pakana bo'yli, girdig'umdan kelgan Safonov bu xil qochirim gaplardan qaytaga suyunib, miyig'ida iljaydi-da, bu vazifani jon deb qabul qildi.

Lekin hamma ish sotnyalarning ixtiyorida, ular nima desa, Kudinov bilan Safonov shuni qilishga majbur edilar. Rahbarlik masalasi-

da ikkisining qo‘li bog‘liq edi, bog‘lanmagan taqdirda ham baribir bu qadar ulkan harakatni boshqarishga kuchlari, kun sayin avj olayotgan voqealarni tushunishga fahmlari yetmasdi.

4-Zaamur polki, o‘ziga qo‘shilgan ustxopyorlik, yelanlik va qisman vyoshenskayalik bolsheviklar bilan birgalikda ko‘pgina qishloqlarni jang bilan bosib o‘tdi, Yelan stanitsasining chegarasidan oshib, hozir dasht ichi bilan Don yoqalab g‘arb tomon siljimoqda edi.

5-mart kuni chopar Tatarskka xat olib keldi. Yelanliklar shoshilinch sur‘atda yordam so‘ragan edilar. Ular qarshilik ko‘rsatmasdan chekina boshlaganlar, chunki o‘q-dorilari, miltiqlari yo‘q edi. Zaamurliklarga qarshi otilgan pala-partish o‘q pashsha chaqqanchalik ta‘sir etmasdi, ular ikki to‘p va pulemyotlardan o‘t ochib, yelanliklarni ko‘z ochgani qo‘ymadilar. Bunday sharoitda okrugdan yo‘l-yo‘riq so‘rab o‘tirishga vaqt yo‘q edi. Petro Melexov o‘zining ikki sotnya kazaklari bilan yo‘lga chiqishga qaror qildi.

Qo‘shni qishloqlardan kelgan to‘rt sotnyaning komandirligini ham Petro qabul qildi. Saharlab kazaklarni do‘nglikka boshlab olib chiqdi. Oldin razvedkalar to‘qnashib otishma bo‘lib turdi. Anchadan keyin jang boshlandi.

Tatarsk qishlog‘idan sakkiz chaqirim narida bo‘lgan Qizil jarda, — bir vaqtlar Grigoriy Natalya bilan yer haydayotib: «Men seni sevmayman» deb birinchi marta xotining yuziga aytgan joyda, kazak sotnyalari qor bosgan chuqur jar yoqasida otdan tushib, saf-saf bo‘lib yotib oldilar, ot yetaklovchilar otlarni pana joyga yetaklab o‘tishdi. O‘sha kuni havo qovog‘ini solib olgandi; doshqozon shaklidagi katta-kon chuqurlik ichidan qizillar uch qator saf tortib hujumga o‘tishgan, kenggina o‘rlikning ichi chumoliday g‘imirlagan odamga to‘lgan edi. Qizillar safi yoniga aravalar kelib turar, otiqlar u yoqdan bu yoqqa o‘tib turishardi. Qizillar bilan kazaklar orasi ikki chaqirim kelardi. Kazaklar shoshmasdan jangga tayyorlanishmoqda edi.

Yelanlik sotnyalar yoyilib jangga tayyor bo‘lgandan keyin, Petro biroz ter bosgan semiz arg‘umog‘ini choptirib Grigoriyning oldiga bordi. Uning dimog‘i chog‘, g‘ayrati qo‘zigan edi.

— Birodarlar! Patron isrof bo‘lmasin! Men buyruq berganda otasiz... Grigoriy, sen o‘z odamlaringni yuz ellik sarjin chaproqqa olib o‘t. Tezroq qimirla! Jilovdorlar bir joyga to‘planishmasin! — Petro yana

bir qancha so'nggi topshiriqlarni berib bo'lib, durbinga qaradi: — Iye, Matveyev qo'rg'oni ustiga to'p o'rnatishyapti-ku.

— Buni men boya payqadim, durbinsizoz ko'rinib turibdi.

Grigoriy akasining qo'lidan durbinni olib ko'ziga tutdi. Qo'rg'onning narigi tomonida, shamol yalab ketgan taqir cho'qqi ustida g'imirlagan aravalar, qumursqaday o'rmalagan odamlar ko'rinardi.

Suvori kazaklar, «plastunchilar» deb laqab qo'yilgan tatarsklik piyoda askarlar, «to'planilmasin» deb qattiq ogohlantirilganiga qaramay, gala-gala bo'lib to'planib olishar, bir-birlariga patron berishib, tamaki chekishib, gap sotishardi. Otidan ajrab piyoda askarga qo'shilib qolgan Xristonyaning papaxi bo'yi past kazaklardan yarim gaz balandlikda chayqalib yurar, ora-sira Panteley Prokofyevichning qizg'ish quloqchini ham ko'zga chalinib qolardi. Piyoda askarlar orasida chol-u o'spirinlar ko'p edi. Poyasi o'rilmay qolgan kungaboqarlarning o'ng tomonida yelanliklar bir yarim chaqirim joygacha cho'zilib o'rnashib olishgan edi. Ularning to'rtta sotnyalarida olti yuz odam bo'lib, shulardan ikki yuztachasi ot yetaklash bilan ovora edi. Uchdan bir qismi ot yetaklash bahonasi bilan jar tagida pisib yotardi.

— Petro Panteleyevich! — deb chaqirdi piyodalar orasidan allakim. — Ishqilib, jangda bizlarni yolg'iz tashlab qo'ymagin-da!

— Xotirjam bo'linglar! Yolg'iz qo'ymaymiz, — deb iljaydi-da Petro, sekin-asta tepaga chiqib kelayotgan qizillar safiga tikilib turib, asabi qo'ziganidan qamchisini o'ynay boshladi.

— Petro, bu yoqqa kel, — dedi Grigoriy safdan chetroqqa chiqib.

Akasi uning yoniga bordi. Grigoriy yuzini bujmaytirib, noroziligini yashirmasdan:

— Turgan pozitsiyamiz menga yoqmayapti, — dedi. Jordan o'tib joy ishg'ol qilsak bo'lardi. Yon tomondan o'rab olishsa bormi, ko'rasan ko'radiganingni. Nima deding?

Petro jahl bilan qo'l siltadi.

— Nimalar deyapsan? Qanday qilib o'rab olishadi? Har ehtimolga qarshi bir sotnya askarni rezervda qoldirganman, ish pachavaga aylanadigan bo'lsa, jarlar ham ish beradi. Jarning ziyoni yo'q.

— Ishqilib, hushyor bo'l, bola! — deb Grigoriy ogohlantirdi-da, yana bir marta tevarak-atrofga nazar tashladi.

Grigoriy o'z joyiga qaytib, kazaklarni birma-bir ko'zdan kechirib chiqdi. Ko'pchilikning qo'lida qo'lgop yo'q edi, hayajon ichida qizishib yechib tashlagan edilar. Ba'zisi yuragi siqilganidan, goh qilichini tuzatar, goh kamarini siqib bog'lardi.

Fedot Bodovskov lapanglab kelayotgan Petroga ishora qilib:

— Ana, komandirimiz otdan tushdilar, — deb piching aralash kullib qo'ydi.

— Hoy, general Platov! — deb shang'illadi bir qo'li yo'q Alyoshka Shamil. Unda qilichdan bo'lak qurol yo'q edi. — Buyruq ber, kazaklarga bir qadahdan aroq tutsinlar!

— Ovozingni o'chir, aroqxo'r! Qizillar ikkinchi qo'lingniyam kesib tashlashsa, qanday qilib qadah ko'tarasan? Yotib olib jomashovdan ho'playsan.

— Haddingdan oshma!

— Aroqni judayam sog'indim-da! — deb xo'rsindi Stepan Astaxov; u qo'lini qilich dastasidan olib, novvotrang mo'ylovini burab qo'ydi.

Kazaklar hozirgi vaziyatga mutlaqo mos kelmaydigan gaplar bilan o'zlarini ovutar edilar. Matveyev qo'rg'oni tomonidan to'p ovozi kelishi bilan hamma birdaniga jimib qoldi.

To'p og'zidan gumburlab chiqqan tovush dasht ustida yangrab ketdi, so'ngra birdan qarsillagan mudhish ovoz eshitildi. To'p o'qi mo'ljalga yetmasdan kazaklar safidan yarim chaqirim nariroqda yorildi. Qop-qora tutun aralash oppoq qor ko'kka ko'tarilib, sekin-asta shudgor ustiga qaytib qo'ndi-da, yer bag'irlab burganzorga tarqalib ketdi. O'sha zahotiy oq qizillar tomondagi pulemyotlar o't ochib yubordi. Pulemyot o'qlari tungi qorovul shaqildog'iday tinmay tarillardi. Kazaklar qorga, burganlar tagiga, qaqqaygan kungaboqar poyalari orasiga yotib olishdi.

— Tutuni judayam qop-qora-ya! Xuddi nemis o'qiga o'xshaydi! — deb baqirdi Proxor Zikov, Grigoriy tomon burilib. Yonmayon joylashgan yelanliklar sotnyasida qiy-chuv ko'tarildi.

Shamol aralash:

— Mitrofan halok bo'ldi! — degan chinqiriq eshitildi.

O'q yog'ilib turganiga qaramay, rubejinlik mallasoqol yuzboshi Ivanov Petroning oldiga chopib keldi. U peshonasini artar, hansirardi:

— Qor ham deyman, rosa qalin yog‘ibdi-da, oyoqni sug‘urib olol-maysan!

— Nega kelding? — deb o‘dag‘ayladi Petro qoshini chimirib.

— Miyamga bir g‘alati fikr keldi, o‘rtoq Melexov! Bir sotnya odamni safdan olib jarga tushirsak. Ular Don yoqalab pastlikdan to‘g‘ri qishloqqa borishsa-yu, orqa tomondan qizillar ustiga tashlansa. Hoy-nahoy, ular yuk ortilgan aravalarini o‘sha yerda qoldirishgan chiqar... Qorovullarning qo‘lidan nima kelardi? Hech bo‘lmaganda vahima so-lib esankiratib qo‘yamiz-ku.

Petroga bu g‘alati fikr yoqdi. U o‘z kazaklariga o‘t ochishga buyruq berdi-da, qaqqayib turgan Latishevga qo‘l siltab, lapanglaganicha Grigoriy oldiga bordi. Masalani unga tushuntirib, qisqacha buyruq berdi:

— Odamlaringni boshlab olib bor! Orqalaridan ur!

Grigoriy o‘z kazaklarini boshlab ketdi, jar tagiga yetgach, otlarini yo‘rttirib qishloqqa qarab jo‘nashdi.

Kazaklar ikki oboymadan o‘q uzishib qarab turaverdilar. Saf-saf bo‘lib kelayotgan qizillar yotib oldilar. Pulemyotlar goh tarillar, goh dami ichiga tushib ketardi. Martin Shamilning oq tuyoq arg‘umog‘i daydi o‘q tegib, ot yetaklovchining qo‘lidan yulqinib chiqdi-yu, cho‘changlaganicha rubejinlik kazaklar safini yorib o‘tib, qiyalikdan qizillar tomonga ketdi. Do‘ldek yog‘ilayotgan pulemyot o‘qi uni ilma-teshik qilib yubordi, quyunday uchib ketayotgan ot sag‘risini ko‘tarib bir irg‘ishladi-yu, gursillab qorga yiqildi.

Petroning:

— Pulemyotchilarni mo‘ljallab ot! — degan buyrug‘i safdan safga og‘izma-og‘iz takrorlanardi.

Eng usta merganlargina mo‘ljallab ota boshladilar. Hech kim pi-sand qilmaydigan verxnekrivsklik anchayin bir kazak ketma-ket o‘q uzib uchta pulemyotchini nobud qildi; shundan keyin qoplamasida suvi qaynab ketgan «maksim»ning jag‘i tindi. Biroq o‘lgan pulemyot-chilar o‘rniga boshqalari keldi. Pulemyot yana tilga kelib ajal urug‘ini socha boshladi. Qizillar ketma-ket baravariga o‘q uzishar, kazaklar xunob bo‘lib, qorga chuqurroq biqinishardi. Anikushka bo‘lsa, qor tagini kovlab kirib ketgan, lekin gap sotishni qo‘ymasdi. Uning zang bosgan yashil oboymasidagi besh o‘qi nihoyat tamom bo‘ldi; shundan

keyin u o'qtin-o'qtin qordan boshini chiqarib lablarini cho'chchaytirar, cho'chigan sug'urning ovoziga o'xshatib chiyillab qo'yar edi.

Anikushka o'zini jinnilikka solib sug'urday chiyillardi-da, qator yotgan kazaklarga nazar tashlab qo'yardi.

Uning bu qilg'idan o'ng yonidagi Stepan Astaxov qotib-qotib kular, lekin chap yonidagi Lofchining o'g'li Antipka boloxonador qilib so'kardi.

— Bas qil, iflos! Hazilniyam vaqti bor-da! Biroq Anikushka qo'rqib ketgan odamday jo'rttaga ko'zini ola-kula qilib unga qarardi-da, yana chiyillab qo'yardi.

Qizillarda to'p o'qi kamchil bo'lsa kerak: o'ttiztacha o'q otgandan keyin to'plari jimib qoldi. Petro sabrsizlanib hadeb ketiga — do'ng cho'qqisiga qarardi. U ikki kishini qishloqqa jo'natib, qishloqdagi hamma odam pashaxa-yu, tayoq, chalg'i-o'roq ko'tarib do'ngga chiqsin deb tayinlagan edi. Shu tariqa qizillar yuragiga vahima solmoqchi, ularga uch saf odamni ro'para qilmoqchi edi.

Sal orada do'ng ustida odamlar ko'rindi-yu, gala-gala bo'lib tushib kelishaverdi.

— Buni qara, tumonat odam bosib ketdi!

— Butun qishloq qo'zg'alibdi.

— Iye, xotinlar ham bor-ku!

Kazaklar bir-birini chaqirib kulishdi, iljayishdi, o'q otishni to'xtatib qo'yishdi. Qizillar tomonida faqat ikki pulemyotning tarillagani hamda ora-sira baravar otilgan o'qlarning qasira-qusuri eshitalardi.

— Attangki, qizillar zambaragi ishlamay qoldi-da! Bu sochi uzun lashkarga qarata bittagina o'q uzilsa bormi, bo'lardi qiyomat! Etagini ho'l, dumini xoda qilib qochishini ko'rarding! — deb zavqlanardi bir qo'li yo'q Alyoshka Shamil, aftidan, u xotinlar ustiga to'p o'qi tushmaganiga rostdan ham achinayotganday ko'rinardi.

Gala-gala bo'lib kelayotgan olomon tizila boshladi, bo'linib-bo'linib, ikki qator bo'lib saf tortdi.

Petro ularni kazaklar yoniga yaqin keltirmay, olisda qoldirdi. Lekin to'planib kelgan olomonning vahimasi qizillarga ancha ta'sir etdi. Qizillar safi chuqurlik tomon siljib chekina boshladi. Petro o'ng qanot ochilib qolishiga qaramay, ikki saf yelanliklarni otlantirib, Grigoriyga

yordam uchun shimol tomonga, Don bo'yiga jo'natdi. Qiziljarning narigi tomonida qizillar ko'z oldidayoq sotnyalar saf tortib, qiyalikdan to'g'ri Don bo'yiga tushib ketishdi.

Chekinayotgan qizillar safiga qarata yana o'q uzila boshladi.

Shu asnoda xotin-xalaj, o'spirin, qari-qartanglardan tuzilgan «madakor» shovvozlar orasidagi birmuncha shaddod ayollar bilan shumtaka bolalar kazaklar safiga o'tib olishdi. Bular orasida Darya Melexova ham bor edi.

— Petya, miltig'ingni ber, men ham qizillarga qaratib bitta o'q uzay! Miltiq otishga baloday aqlim yetadi.

Darya chindan ham Petroning karabinini oldi-da, erkakchasiga tiz cho'kib, miltiq qo'ndog'ini kiftiga qattiq bosib turib, dadil ustma-ust ikki o'q uzdi.

Ammo «madakorlar» sovqotib, oyoqlarini bir-biriga urar, irg'ishlar, hadeb burunlarini qoqishardi. Ikki qator olomon shamolda tebrangan daraxt bargiday qaltirardi. Xotinlarning lab-lunjlari, aftbasharalari ko'karib ketgan, keng-keng yubka etaklari ostida muzday shamol o'ynar edi. Sharti ketib, parti qolgan chollar to'ngib qolishdi. Ko'pgina qariyalarni, shu jumladan, bobo Grishkani suyashib qishloq tomondagi tepa orqasiga olib o'tishdi. Bu yerda shamol balandlab o'tardi. Do'ng ustida otishma ovozidan va izg'irindan qutulgan chollarga jon kirib qoldi. Ular o'zaro gapga tushib ketib, qadimgi urush va janglardan, hozirgi urushning qusurlaridan, aka-uka bilan, ota o'z bolasi bilan jang qilishga majbur ekanidan hasrat qilishar: «Endigi to'plar olisdan turib bemalol uraveradi, qayerdan otayotganini ko'rib ham bo'lmaydi», — deyishardi.

### XXXIII

Grigoriy o'z qo'l ostidagi yarim sotnya kazaklar bilan zaamurliklarning birinchi daraja obozini majaqladi. Sakkiz qizil askarni qilichdan o'tkazib, patron ortilgan to'rt arava, egarlangan ikki otni qo'lga tushirdi. Kazaklardan bir kishi yengil yarador bo'ldi, bir ot o'ldi, xolos.

Grigoriy o'lja tushgan aravalarni haydab ketdi, g'alaba qozongani, ketidan hech kim quvalamagani uchun suyunib, Don bo'ylab ketayotgan mahalda, jar yoqasidagi do'ngda jang qizib ketdi. Zaamurliklar es-

kadroni jang boshlashdan oldin o'n chaqirim naridan aylanib kelib, kazaklar orqasiga o'tib olgan edi. Eskadron do'ng orqasidan qo'qqisdan hujum qilib, ot ushlab turgan kazaklar ustiga yopirildi. Ot-u odam aralashib ketdi. Ot yetaklovchilar otlarni sudrab Qiziljar yoqasiga qochib chiqa boshladi. Ba'zilari kazaklarga otlarini olib borib berdi, ko'pchiligining boshida zaamurliklar qilichi o'ynadi. Yarog'i yo'q jilovdorlar otlarni tashlab, qochib qolishdi. Piyoda askarlar bo'lsa, o'z odamlariga o'q tegishini o'ylab, miltiq otolmadi, xuddi qopdan to'kilgan no'xatday dumalab jar tagiga yetib olishdi-da, narigi tomonga o'tib tumtaraqay qochib qolishdi. Otlarini tutib ololgan suvoriylar (bundaylar anchagina edi) «keyin qolgan nomard» deb qishloqqa qarab tuyoqlarini shiqillatishdi.

Dastlab Petro qiyqiriq kelgan tomonga burilib qaradi-yu, jilovdorlar ustiga bostirib kelayotgan gala-gala otliqlarni ko'rib:

— Otlaning! Piyodalar! Latishev! Jordan o'tib ol, deb buyruq berdi.

Biroq o'z oti yoniga yetib ololmadi. Uning oti Andryushka Besxlebnov degan yigitning qo'lida edi. U o'ng qo'lida Petro bilan Fedot Bodovskovning otlarini jilovidan sudrab, Petroning oldiga choptirib kelmoqda edi. Biroq yon tomondan sariq po'stin kiygan, tugmalari solinmagan bir qizil askar o'qday uchib chiqdi-yu, Andryushkaga qilich solayotib:

— Voy, sendaqa askarga o'ynab qo'yay!... — deb hayqirdi.

Xayriyatki, Andryushkaning toleyiga miltig'i yelkasida edi. Andryushkaning oq sharf o'ragan bo'yniga qarata solingan qilich miltiqqa tegdi-da, qizil askarning qo'lidan otilib chiqib ketdi. Andryushkaning ostidagi asov ot yulqinib chetga chiqdi-yu, olib qochdi.

Petro bilan Bodovskovning otlari uning ketidan chopib ketdi.

Petro «voh» deb yubordi-yu, birdan anqayib qotib qoldi, rangi quv o'chib ketdi, birpasdan keyin yuziga qon yugurdi. Petro ketiga burilib qaragan edi, o'n chog'li kazaklar chopib kelayotganini ko'rdi.

— O'ldik! — deb baqirardi Bodovskov. Qo'rqqanidan uning aftbasharasi butunlay o'zgarib ketgan edi.

— Jarga sakrab tushinglar! Birodarlar jarga! — Petro eshushini to'plab eng avval jarga qarab chopdi, o'ttiz sarjin keladigan chuqurlikka dumalay-dumalay tushib ketdi. Allanimaga ili-



nib, po'stinining ko'krak cho'ntagidan to etagiga dovur yirtildi; irg'ib o'rnidan turdi-da, it singari bir silkinib oldi.

Kazaklar tepadan do'mbaloq oshib, charxpalak bo'lib jar tagiga qulayverdi. Birpasning ichida o'n bir kishi tushdi; Petro o'n ikkinchisi edi. Yuqorida qasira-qusur o'q tovushlari, qiyqirgan ovozlar, otlarning tapir-tupuri hali ham bosilmasdi. Jarga qulagan kazaklar papaxlariga yopishgan qor-u qumni tentaklardek qoqishar, ba'zilari og'rikan joylarini silashar edi. Martin Shamil miltiq zatvorini ochib, tiqilgan qorni pufladi. Yigitchalardan birining, marhum qishloq atamani Manitskov o'g'lining ko'zlaridan tirqirab yosh oqar, qattiq qo'rqqanligidan ikki yuzi dir-dir titrardi.

— Endi nima qilamiz? Petro, yo'l ko'rsat! Ajal bo'g'zimizdan xip-pa bo'g'ib oldi-ku! Qayoqqa qochamiz? Hammamiz qirilamiz-ku.

Fedot tishlarini takirlatib, soy ichi bilan to'g'ri Donga tomon yugurdi. Boshqalar qo'y singari unga ergashdi.

Petro ularni arang to'xtatdi:

— To'xtanglar! Biror maslahatga kelaylik... Qochma! Otib tashlashadi!

Petro hamma odamni jar yonboshidagi qizil tuproq soy ichiga olib tushdi-da, o'zini vazmin tutishga tirishib, duduqlana-duduqlana, shunday maslahat berdi:

— Pastga qarab yurib bo'lmaydi. Ular hali qochgan odamlarimizni ancha joyga quvib boradi... Shu yerda qolganimiz ma'qul... Ungurlar orasiga bekininglar... Uch kishi mana bu to'monga o'tsin... Bosib kelishadigan bo'lsa, otishib ko'ramiz... Bu yerda jon saqlash mumkin.

Boyadan beri yig'idan bosh ko'tarmagan basharasi sap-sariq Manitskov birdaniga bo'taday bo'zlashga tushdi.

— Hammamiz qirilamiz endi! Aylanay otalar! Baraka topkurlar! Meni qo'yvoringlar!.. Bo'lmaydi!.. O'lishga rozimasman! — deb yalinaradi.

Fedot qiyiq ko'zlarini o'qraytirib, Manitskovning basharasiga musht bilan qulochkashlab turib solib yubordi.

Bolaning burnidan tirqirab qon ketdi, o'zi gandiraklab borib, jar chetiga orqasi bilan urildi-yu, arang turib qoldi, birpasda yig'isi ham to'xtadi.

— Nimani otamiz? — deb so‘radi Shamil Petroning yengidan siltab. — Qancha patroning bor? Patron yo‘q-ku!

— Bitta granata tashlashsa, tutday to‘kilamiz!

— Xo‘sh, bo‘lmasa nima qilaylik? — Petro birdaniga bo‘zarib ketdi, mo‘ylovi qaltirab, lablarida ko‘pik paydo bo‘ldi. — Yot deyman!.. Komandir menmi yo boshqami! Otib tashlayman!

U chindan ham kazaklar boshi ustida nagan o‘ynata boshladi.

Uning g‘ijinib pichirlashi kazaklarni jonlantirganday bo‘ldi. Bodovskov bilan Shamil, yana ikki kazak jarning u betiga chopib o‘tib, chuqurcha ichiga berkinib olishdi, boshqalar Petroning yonida qoldi.

Bahor payti tog‘dan sel kelganda uning loyqa suvi xarsanglarni ko‘chirib, qizil tuproq qatlamlarini yemirib, yerni o‘yib ketadi, jar chetlari o‘pirilib g‘orlar, ungurlar paydo bo‘ladi. Kazaklar shular ichiga joylashib olishdi.

Petroning yonida turgan Lofchining o‘g‘li Antipka miltig‘ini mahkam ushlab olib, tushini suvga aytayotgan odamday, o‘zidan o‘zi shivirlardi:

— Styopka Astaxov otini dumidan tutib minib oldi-yu, qochib qutuldi, urganda meni xudo urdi... Piyodalar ham bizni tashlab ketdi... Qutulishning iloji yo‘q, sob bo‘ldik, o‘ldik!..

Jar tepasida qorni g‘archillatib yugurishgan odamlarning oyoq tovushlari eshitildi. Jar tagiga qor aralash tuproq dumalab tushdi.

— Ana, kelishdi! — deb shivirladi Petro Antipkaning yengidan ushlab; biroq u qo‘lini tortib oldi-da, barmog‘ini tepkiga qo‘yib turib, yuqoriga qaradi.

Hech kim jar yoqasiga yaqin kelmadi.

Yuqoridagilarning gaplashayotgani, otga qichqirgan ovozlari eshiltildi.

«O‘zaro maslahat qilishyapti», — deb o‘yladi Petro, lekin butun a‘zoyi badanini yana ter bosib ketdi, orqasidan, ko‘ksining o‘rtasidagi chuqurchasidan, ikki betidan marjon-marjon bo‘lib ter oqa boshladi...

— Hoy, kazaklar! Chiqaveringlar! Baribir qutulolmaysiz! — degan ovoz keldi tepadan.

Birontasi jar bo‘yiga juda yaqin keldi shekilli, duvullab qor tusha boshladi.

Yuqoridan ikkinchi bir ovoz dangal eshitildi.

— Mana bu yerdan sakrashibdi, mana izi. Sakraganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim!

— Petro Melexov! Qani chiq!

Puch xayol bir lahza Petroni sevintirib yubordi. «Qizillar orasida meni kim tanirdi? Bular, albatta, o‘z odamlarimiz! Demak, hujumni qaytarishibdi!» — deb o‘yladi. Biroq haligi ovoz yana eshitilgach, a‘zoyi badani titrab ketdi:

— Mixail Koshevoy gapiryapti. Yaxshilikcha taslim bo‘linglar. Baribir qutulolmaysiz!

Petro peshonasini artdi, ter aralash qon dog‘lari kaftiga yuqib qoldi.

Petro es-hushidan ajragan odamday, sezish qobiliyatini yo‘qotib qo‘ydi, ko‘ziga hech narsa ko‘rinmay qoldi.

Shuning uchun ham Bodovskovning ovozini eshitib cho‘chib ketdi:

— Xo‘p, agar qo‘yvoradigan bo‘lsangiz, chiqamiz. Yo‘q desangiz, olishaveramiz! Vassalom!

Yuqoridagilar birpas jimib turib.

— Qo‘yvoramiz... — deyishdi.

Petro zo‘rg‘a es-hushini to‘plab oldi. «Qo‘yvoramiz» deb uni laqilatmoqchi bo‘lganini sezdi.

— Qaytinglar! — deb baqirdi Petro bo‘g‘iq ovoz bilan, biroq hech kim unga quloq solmadi.

Chuqur tagiga biqinib olgan Antipkadan boshqa hamma kazak butalarga tarmashib yuqoriga chiqdi.

Petro hammadan keyin chiqdi. Tirik qolish, qutulish umidi ustunlik qilib, hayot amriga bo‘ysundi. Ba‘zi bir mulohazalarga borib miltig‘idagi o‘qlarni olib tashladi-da, qiyalikdan tarmashib chiqqa boshladi. Uning ko‘zlari tinib ketdi, yuragi ko‘ksiga sig‘may qoldi. U xuddi bolalik chog‘ida ko‘rgan tushlariday nafasi bo‘g‘ilib qiynalar edi.

Petro gimnastorkasining yoqa tugmalarini yulib tashladi, ichki kir ko‘ylagining yoqasini chok etdi. Ter quyaverib ko‘zlari xiralashgan, qo‘llari toyg‘anib ketar, jar chetidagi muzday toshlarni ushlay olmas edi. Entikib, xirillab nihoyat jar yoqasidagi qori bosilgan tekis joyga chiqdi-da, miltig‘ini yerga tashlab, ikki qo‘lini ko‘tardi. Undan oldin chiqqan kazaklar g‘uj bo‘lib turishar edi. Bir to‘p piyoda va otliq zaa-

murliklar orasidan Mishka Koshevoy ajrab chiqdi-da, kazaklar tomon yurdi. Ketidan otliq askarlar yetib keldi.

Mishka Petroga betma-bet turib olib, ko'zini yerdan olmasdan sekingina:

— Urushib bo'lgandirsan endi? — deb so'radi, javob kutib biroq jim turdi-da, yana haligiday Petroning oyog'iga tikilib: — Komandiri senmiding? — deb so'radi.

Petroning lablari titray boshladi. Nihoyatda charchagan odamday, qo'lini arang ko'tarib, ter bosgan peshonasini ushladi. Mishkaning qayrilgan uzun kipriklari pirpirab ketdi, uchuq toshgan qalin ustki labi qimirladi. Mishkaning a'zoyi badani shu qadar qaltirab ketdiki, hozir yiqiladi deb o'ylash mumkin edi. Biroq u yalt etib Petroga qaradi-yu, umrida tanimagan yot kishiday uning ko'z qorachig'iga tikilib qoldi.

— Yechin! — dedi Mishka qisqagina qilib.

Petro epchilik bilan po'stinini yechib, yaxshilab taxladi-da, qor ustiga qo'ydi; boshdan papaxini oldi, kamarini, ust ko'ylagini yechdi, so'ngra qorga o'tirib etigini torta boshladi. Lekin rang-ro'yi tobora oqarib borardi.

Ivan Alekseyevich otdan tushib, Petroning yoniga keldi, o'zini tutolmay, yig'lab yuborishdan qo'rqib, tishini tishiga qo'yganicha unga tikilib qoldi.

— Ko'ylak-ishtoningni yechma, — dedi Mishka shivirlab, so'ngra bir seskanib tushdi-yu: — Tezroq bo'l!.. — deb chinqirib yubordi.

Petro tipirchilab qolib, jun paypoqlarini g'ijimlab etik qo'njiga tiqdi-da, qaddini rostlab po'stin ustidan qorga tushdi. Oppoq qor ustida bir juft sap-sariq oyoq bosib turardi.

Petro labini arang qimirlatib Ivan Alekseyevichni chaqirdi:

— Bo'la!

Biroq u Petroning yalang oyoqlari ostida eriy boshlagan qorga tikilganicha churq etmadi.

— Og'ayni, Ivan, sen axir mening bolamni cho'qintirgan eding... Jo'ra, meni o'ldirmanglar! — deb yalindi Petro, biroq Mishkaning nagan o'qtalganini, naq ko'ksini mo'ljalga olganini ko'rib, yorqin bir manzarani ko'rishga tayyorlanganday ko'zlarini katta ochdi, suvga sakramoqchi bo'lgan kishidek bo'ynini qisib oldi.

Petro o'q tovushini eshitmadi ham, kuchli zarb yeganday chalqanchasiga qulab tushdi.

Nazarida Koshevoyning o'qalib turgan qo'li yuragiga changal solganday, butun qonini siqib olganday bo'ldi.

Petro o'z hayotining so'nggi daqiqasida so'nggi marta kuchini to'plab turib, ich ko'ylagining yoqasini yechdi-da, ko'kragi ostidagi o'q kirgan joyni ochib qo'ydi. Oldin jarohat ichidan qittay qon sizib chiqdi-da, o'ziga yo'l ochib olgandan keyin qop-qora qon favvoraday vishillab otila boshladi.

### XXXIV

Qiziljar tomonga yuborilgan razvedka tong mahalida, Yelansk chegarasiga dovur qizillar uchramadi, o'sha yoqda, jar tepasida chopib tashlangan Petro Melexov bilan o'ntacha kazakning o'ligi yotibdi, degan xabar olib keldi.

Grigoriy o'liklarni olib kelish uchun arava yubortirdi-da, o'zi Xristonyanikiga yotgani ketdi. Xotinlarning aza tutib dodlashidan, Daryaning bo'kirib yig'lashidan bezor bo'lib uyida turolmadi. Oppoq tong otguncha u Xristonyaning uyida, pech yonida o'tirib chiqdi. U yutoqib tamaki chekar, miyasiga kelgan xilma-xil xayollarni qochirish, Petrodan ajraganini eslamaslik uchun yana shosha-pisha tamaki xaltasiga yopishardi, so'ngra, achchiq tutunni ustma-ust ichiga yutib, mudrab o'tirgan Xristonya bilan u yoqdan bu yoqdan gaplashib o'zini ovutardi.

Tong otdi. Ertalabdanoq qor eriy boshladi. Soat o'nga borib go'ng bosgan yo'llarda ko'lobchalar paydo bo'ldi. Bo'g'otlardan chakka toma boshladi. Xo'rozlar bahor hidini sezib boshqacha qichqirishar, allaqaysi bir burchakdan yolg'iz tovuqning qaqillagani eshitalardi.

Qo'ralarning kungay tomonida ho'kizlar chetanga suyanishardi. Ko'klam kelganidan to'kila boshlagan qo'ng'ir junlarini shamol uchirib yurardi. Erigan qordan g'alati bir o'tkir hid anqirdi. Xristonyaning darvozasi oldidagi yaydoq olma shoxida ko'krak patlari sap-sariq kichkintoy bir sa'va sayrar edi.

Grigoriy darvoza oldida turib, do'ng tomondan aravalar paydo bo'lishini kutar, bolalik chog'lari esiga tushib, sa'vaning sayrashini o'zicha tarjima qilardi. «Omochingni charxlat! Omochingni charx-

lat!» — deb takrorlardi sa'va kun iliganiga suyunib. Havo sovuq keldigan bo'lsa, sa'vaning sayrashi o'zgarishini ham bilardi: qushcha bidirlab xuddi: «Chorig'ingni kiyib ol! Chorig'ingni kiyib ol!» — deyayotganga o'xshardi.

Grigoriy ko'zini yo'ldan olib, shoxdan shoxga sakrayotgan sa'vaga qaradi. «Omochingni charxlat! Omochingni charxlat!» — deb chirilardi sa'va. Birdaniga Grigoriy yoshligida Petro bilan dashtda kurka tovuq boqib yurgan paytini beixtiyor eslab qoldi. O'sha kezlari Petroning sochlari malla, tanqa burnining po'sti doim ko'chib turar edi. U xuddi kurkaning ovozigga o'xshatib taqlid qilishga nihoyatda usta edi, bundan tashqari, ularning nima deb chuldirayotganini bolalar tili bilan tarjima qilib kuldiraverardi. Arazlagan kurka jo'jasining chiyillashini taqlid etadigan bo'lsa, ingichka tovush bilan: «Hammada choriq, menda yo'q! Hammada choriq, menda yo'q!» — deb chiyillardi. Ana undan keyin ko'zlarini ola-kula qilib, qo'llarini tirsakdan bukib olib, xuddi qari kurka singari yoni bilan yurib: «Xo'p! Xo'p! Xo'p! Bozor kuni choriq oberaman!» deb g'o'ldirardi. O'shanda Grigoriy yayrab-yayrab, rohatlanib kular, kurka tilida yana gapirib berishni so'rardi, kurka bolalari ko'kat orasida biron temirtak yoki bir parcha lattani ko'rib qolganda nimalar deb chuldirashini yana eshitmoqchi bo'lib, akasiga yalinardi.

Ko'chaning boshida oldingi arava ko'rindi. Arava yonida bir kazak piyoda kelmoqda. Birinchi arava ketidan ikkinchi, uning ketidan uchinchisi ko'rindi. Yoshligi esiga tushib, beixtiyor yuzi yorishib ketgan Grigoriy, ko'z yoshini sekingina surtdi-da, shoshib-pishib o'z darvozasi tomon yurdi: og'ir musibatdan adoyi tamom bo'lib, es-hushini yo'qotgan onani dastlabki og'ir daqiqada ushlab qolmoqchi, Petroning o'ligi ortilgan arava yoniga borishdan qaytarmoqchi edi. Oldingi aravaning yonida Alyoshka Shamil boshyalang holda kelardi. Cho'ltoq qo'li bilan papaxini ko'ksiga bosib, o'ng qo'li bilan jundan eshilgan tizginni ushlab kelardi.

Grigoriy Alyoshkadan ko'zini olib, chanaga qaradi. Chana ichiga to'shalgan poxol ustida Martin Shamil chalqanchasiga yotardi. Uning yuzlarida, yashil rang gimnastorkasining ko'kragi bilan qorni ustida laxta-laxta qon muzlab qolgan edi. Ikkinchi chanaga Marnitskovning o'ligi ortilgandi. U qilich bilan kesilgan yuzini poxolga

qo'yib yotardi. U sovqotganday bo'ynini qisgan, gardanini qilich cho'rt kesib tashlagan edi, ochilib qolgan bosh suyagining atrofi-da qonga bulangan qop-qora sochlari shokila-shokila bo'lib osilib yotardi. Grigoriy uchinchi chanaga qaradi, biroq kimning o'ligi ekanini tanimadi, shunday bo'lsa ham oqarib ketgan qo'lga tamakidan sarg'aygan panjalariga razm solib qo'ydi. Qo'l chanadan osilib, o'lar oldida cho'qinishga juftlangan barmoqlari bilan erigan qorni chizib borardi. O'likning oyog'ida etigi, egnida shineli bor edi; hatto shap-kasi ham ko'kragi ustida yotardi. Grigoriy to'rtinchi chananing otini jilovidan tutdi-da, choptirganicha qo'raga yetaklab kirdi. Ketma-ket qo'shnilar, bolalar, xotin-xalaj yugurishib kirdi. Bir gala odam zina-poya oldiga to'plandi.

— Ana sho'rlik, qadrdon Petro Panteleyevichimiz! Bechora dunyo-dan o'tdi, — dedi allakim eshitilar-eshitilmas qilib.

Stepan Astaxov darvozadan boshyalang kirib keldi. Allaqaysi go'rdan bobo Grishak bilan uch chol paydo bo'ldi. Grigoriy sarosima-ga tushib u yoq-bu yog'iga qarab qo'ydi.

— Qani, uyga olib kiraylik...

Aravakash endi o'likning oyog'idan ko'tarmoqchi bo'lganda olo-mon indamay chetga chiqib, zinadan tushib kelayotgan Ilinichnaga yo'l ochib berdi.

Ona chanaga ko'z tashlashi bilan peshonasidan tortib burni, ikki beti, baqbaqasiga dovur o'liknikiday oqarib ketdi. Panteley Prokof-yevich titrab-qaltirab uning ko'ltig'idan tutib qoldi. Avval Dunyashka chinqirib yubordi, unga javoban qishloqning o'n joyidan yig'i ovozlari ko'tarildi. Darya, eshikni taraqlatib, sochlari to'zigan, yuzlari shishgan holda uydan chiqdi-yu, o'zini chanaga tashladi.

— Petyusha! Petyusha, jonim! Tur! Tursang-chi, axir!

Grigoriyning ko'z o'ngi qorong'ilashdi.

— Dashka, qoch, ket bu yerdan! — deb beixtiyor chinqirib yubordi-da, es-hushini yo'qotib, uning ko'ksidan itarib tashladi.

Darya uyilgan qor ustiga yiqildi. Grigoriy darhol Petroning qo'ltig'idan, aravakash — paypoqsiz oyog'idan ko'tardi, biroq Darya erining muzlagan qo'llariga yopishib, o'pib, ketidan emak-lab bordi. Grigoriy uni oyog'i bilan turtar, bu ahvolga ortiq chi-day olishiga ko'zi yetmasdi. Dunyashka Daryaning murdaga tar-

mashgan qo'llarini zo'rg'a ajratdi-da, uning gangib qolgan boshini bag'riga mahkam bosdi.

\* \* \*

Yemaxxonaga qabriston sukunati cho'kkan edi. Petro ilgoriga qaraganda o'zgarib, kichkinagina bo'lib qolgan, polga qapishib yotardi. Uning burni sumakday ingichka, mallarang mo'ylovi qoraygan edi; yuzi esa biroz cho'zilib, chiroyi xiyla ochilgandi. Chalvar pochalaridan jun bosgan yalangoyoqlari chiqib turardi. O'lik sekin-asta erib, yonida pushtirang ko'lobcha hosil bo'lgan edi. Tarashaday qotib qolgan jasad tuni bilan erigan sari uy ichini sho'rtang qon hidi, bo'tako'z isiga o'xshash allaqanday chuchmal murda hidi bosib kelardi.

Panteley Prokofyevich bostirma tagida tobut uchun taxta randalamoqda: ayollar mehmonxonada hali ham o'ziga kelmagan Darya bilan ovora. Ahyon-ahyonda o'sha yoqdan allakimning hiqillab yig'lagani eshitilar, musibat chog'i hamdard bo'lgani kelgan Vasilisa xolaning soy suvidek shaldiragan ovozi chiqardi. Grigoriy Petroning sarg'aygan yuziga, ko'kargan tirnoqlariga tikilganicha ro'paradagi kursida tamaki o'rab o'tirardi. O'lim aka bilan ukani bir-biridan judo qilgan edi. Endi u Petro emas, butunlay begona, bir kunlik mehmon edi; uning bilan vidolashish chog'i yaqin. Ana, hozir u allanimani kutayotganday, betini qoq yerga qo'yib olib bemalol yotibdi, go'yo orom olayotganday, miyig'ida sal-pal iljayadi-yu, biroq sirli tabassumi bug'doyrang mo'ylovi ostida qotib qolibdi. Sho'rlik onasi bilan xotini ertaga uni so'nggi safga jo'natishadi. Onasi kech kirmasdanoq uni yuvгани uch qozon suv isitib berdi, xotini bo'lsa, toza ko'ylak-ishtoni bilan chalvarini hamda mundirini tayyorlab qo'ydi. Petroga vafo etmagan bu qip-yalang'och jasadni endi tug'ishgan uka Grigoriy bilan qarigan ota sho'rlik yuvishadi. So'ngra kiyintirib-yasatib, stol ustiga yotqizib qo'yishadi. Undan keyin Darya yoniga keladi-da, nikoh payti cherkov mehrobi atrofidan aylanganlarida ikkisini yoritgan o'sha shamni, kechagina uni quchoqlab erkalatgan, lekin hozir muzlab qolgan qo'llariga tutqizadi, qarab-sizki, Petro Melexov degan azamat kazak borsa kelmas safariga tayyor.

«Onaning ko'z oldida o'lgandan ko'ra, o'sha Prussiyada, yo biron yoqda halok bo'la qolsang-ku, yaxshi bo'lardi-ya!» — derdi Grigoriy



xayolan akasidan o'pka qilib, shu asnoda u Petroning betida bir tomchi yosh paydo bo'lganini, shalpaygan mo'ylovi tomon oqib tushayotganini ko'rib qolib, birdaniga rangi o'chib ketdi. Grigoriy bexosdan satchib tushdi, biroq tikilib qaradi-yu, ko'ngli joyiga tushib, erkin nafas oldi: bu — yosh emas, jingalak sochlaridan erib tushgan suv peshonasiga tomib, betidan pastga qarab oqayotgan edi.

### XXXV

Yuqori Dondagi birlashgan qo'zg'olonchi kuchlar qo'mondonining buyrug'i bilan Grigoriy Melexov Vyoshenskaya polkining komandiri qilib tayinlangan edi. Grigoriy o'n sotnya kazak askar bilan Kargin sari jo'nadi. Chir bo'yidagi Kargin bilan Bokov stanitsasiga qarashli hamma qishloq aholisini oyoqlantirish maqsadida shtab unga, qanday yo'l bilan bo'lsa ham Lixachyov otryadini tor-mor qilib, okrugdan haydab chiqarish vazifasini topshirgan edi.

Shunday qilib, 7-mart kuni Grigoriy kazaklarga bosh bo'lib yo'lga chiqdi. Qori erib, qora-qura bo'lib qolgan do'ng ustida turib, yonidan o'tayotgan o'n sotnya askarni ko'zdan kechirdi. Katta yo'ldan chet-roqda, egarga qiyshiq o'tirgan holda Grigoriy biroz bukchayib, tipirchilagan asov arg'umoqning jilovidan mahkam tortib kazaklarga tiki-lar, Don atrofidagi Bazki, Belogorki, Olshan, Merkulov, Gromki, Semyonov, Ribin, Vodyan, Lebyajiy, Yerik qishloqlaridan kelgan sotnyalar uning oldidan saf-saf bo'lib o'tib turardi.

Grigoriy qo'lqopi bilan qora mo'ylovini silar, Qirg'iy burniga o'xshash burnini, qush qanotiga o'xshash qoshini chimirib, har bir sotnyani qovog'-u dimog' bilan ko'zdan kechirdi. Loy sachragan sanoqsiz ot tuyoqlari balchiq aralash qor kechardi. Tanish kazaklar yonidan o'tayotib, Grigoriyga iljayib boqishardi. Ularning papaxlari ustida tamaki tutuni suzib yurar, otlardan bug' ko'tarilardi.

Grigoriy so'nggi sotnyaga qo'shib oldi. Uch chaqirimcha yo'l bosganlaridan so'ng razvedkaga chiqqan otliqlarni uchratishdi. Ularning boshlig'i — uryadnik Grigoriyning oldiga ot choptirib keldi-da:

— Qizillar Chukaringa boradigan yo'ldan chekinishyapti, — dedi.

Lixachyov otryadi ro'para kelib jang qilmadi, biroq Grigoriy uch sotnya kazakni uning oldidan to'sib chiqishga yuborib, qolgan sotnya-

lar bilan shunday quvdiki, qizillar aravalarini, o‘q solgan yashiklarini Nukarin ko‘chalariga tashlab qochishga majbur bo‘ldilar. Chukaridan chiqaverishda, eski cherkovcha yonida Lixachyovning to‘plari ariqqa tiqilib qoldi. To‘pchilar shatak qayishlarni kesib, otlarni chiqarib olib chorbog‘ma-chorbog‘ Karginga qochdilar.

Chukarin bilan Kargin orasidagi o‘n besh chaqirimlik yo‘lni kazaklar jangsiz bosib o‘tdilar. Sal o‘ngroqda, Yasenovkaning orqa tomonida aylanib yurgan qizillar Vyoshenskaya razvedkachilarini o‘qqa tutdi. Voqea shu bilan tamom bo‘ldi. Kazaklar: «Bu ahvolda bemalol Novocherkasskka boramiz» deb hazil qilishardi.

Qo‘lga tushgan to‘plar Grigoriyni nihoyatda suyuntirdi. «Loaqal qulfini buzib tashlash ham eslariga kelmabdi-ya» — deb ta‘na qildi ichida. Loyga tiqilib qolgan to‘plarni ho‘kizlar bilan chiqarib olishdi. Birpasda kazaklar orasidan to‘pchilar ham topildi. Har bir to‘pga ikki qator qilib olti juft ot qo‘shilgan ellikta kazak to‘plarni qo‘riqlab borishga tayinlangan edi.

Kech kirganda bir hamla bilan Kargin ham olindi. Lixachyov ot-ryadining bir qismi oxirgi uchta to‘p va to‘qqiz pulemyoti bilan asir tushdi. Qolgan qizil askarlar Kargindagi revkom bilan birga qishloq-ma-qishloq Bokov stanitsasi tomon qochishdi.

Tuni bilan yomg‘ir quydi. Ertalabga yaqin jar va soylar to‘lib-toshib oqa boshladi. Yo‘llarning rasvosi chiqdi: har qadamda o‘ppon, hamma yoq botqoq. Yomg‘ir suvi bilan erigan qor ham cho‘ka boshladi. Otlar loyga botib qolar, odamlar charchab yiqilishardi.

Chekinayotgan qizil askarlar ketidan yuborilgan bazlik xorunjiy Xarlampiy Yermakovning komandirligi ostidagi ikki sotnya kazaklar bir-biriga tutashgan Latishev va Visloguzov qishloqlarida qocholmay qolib ketgan o‘ttiztacha qizil askarni tutib olib, ertalab Karginga haydab kelishdi.

Grigoriy qishloq boylaridan Kargin degan odamning kattakon uyiga joylashgan edi. Asirlarni uning hovlisiga haydab keltirdilar. Yermakov Grigoriyning oldiga kirib salom berdi.

— Qizillardan yigirma yettitasini qo‘lga tushirdim. Vestovoy otingni olib keldi. Nima, hozir jo‘namoqchimisan?

Grigoriy kamarini bog‘ladi, oyna yoniga borib, papaxi ostidan chiqib qolgan sochlarini tarab bo‘lgandan keyin Yermakovga burilib qaradi.

— Jo‘naymiz, hozir otlanish kerak. Maydonda miting o‘tkazamiz-u, yo‘lga chiqamiz.

Yermakov kiftini qisib kuldi:

— Mitingga balo bormi? Odamlar mitingsizoq otlanib bo‘ldi. Ana, qaragin! Iye, bu kelayotganlar vyoshensklikka o‘xshamaydiku!

Grigoriy derazadan qaradi. To‘rttadan saf-saf bo‘lib, tartib bilan kelayotgan sotnyalar ko‘rindi. Kazaklarning sarasi terilgan, otlar xillangan edi.

Grigoriy yo‘l-yo‘lakay qilichini osib yugurganicha:

— Bular kim? Qaysi shamol uchirib keldi bularni?! — dedi su-yunchini ichiga sig‘dirolmay.

Darvoza oldida Yermakov unga yetib oldi.

Birinchi sotnyaning yuzboshisi darvoza yoniga yaqin kelib qolgan edi. U ehtirom bilan chest berib turar, lekin Grigoriy bilan qo‘l berib ko‘rishishga jur‘at etolmasdi.

— O‘rtoq Melexov siz bo‘lasizmi?

— Men. O‘zingiz qayerdan?

— Bizni o‘z qismingizga qabul qilsangiz, sizga qo‘shilmoqchimiz. Bizning sotnyamiz shu bugun kechasi tashkil topgan. Manavilar — Lixovidov qishlog‘idan, anavi ikki sotnya — Grachyov, Arxipovka, Vasilevka qishloqlaridan kelishdi. — Hammasini maydonga boshlab bor. Hozir o‘sha yerda miting bo‘ladi.

Vestovoy Proxor Zikov Grigoriyning o‘tini keltirdi, hatto minib olguncha uzangisidan ushlab turdi. Yermakov bo‘lsa, egar qoshidan, ot yolidan ushlamasdanoq, metinday, qotma gavdasini lip etib egar ustiga oldi-yu, shinelining orqa chokidan ajragan ikki etagini ikki yoqqa yoyib tashlab, Grigoriyning oldiga bordi.

— Asirlarni nima qilamiz?

Grigoriy uning shinel tugmasidan ushladi-da, egar ustidan cho‘zilib qulog‘iga gapirmoqchi bo‘ldi. Ko‘zlaridan o‘t chaqnaq tursa ham lablari miyiq ostidan tirjayib kulib qo‘ydi.

— Vyoshenskayaga haydanglar deb buyur. Tushundingmi? Huv anavi qo‘rg‘ondan nari o‘tishmasin! — Grigoriy stanitsaning ust tomonidagi qumtepani qamchi bilan ko‘rsatdi-da, otini haydadi.

«Petro uchun birinchi qasosim shu», — deb ko'nglidan o'tkazdi-da, otini yeldirib ketdi, so'ngra beqordan bekorga otga qamchi bosib, sag'risida g'urra iz qoldirdi.

### XXXVI

Kargindan Bokovga jo'naganda Grigoriyning qo'l ostidagi askar soni endi uch yarim mingga yetgan edi. Shtab bilan okrijroqo'm choparlar orqali uning ketidan xilma-xil buyruq va qarorlar yuborib turishardi. Shtab a'zolaridan biri shaxsan unga yozgan xatida g'alati iltimos qilgan edi:

«Hurmatli o'rtoq Grigoriy Panteleyevich! Sening xususingda bizga ba'zi bir g'alati xabarlar kelmoqda, go'yoki sen asir tushgan qizil askarlardan qattiq o'ch olayotgan emishsan. Bokov yonida Xarlampiy Yermakov ushlab kelgan o'ttizta qizil askar go'yo sening buyrug'ing bilan o'ldirilgan, ya'ni qilichdan o'tkazilgan emish. Odamlarning gapiga qaraganda, mazkur asirlar orasida bitta komissar ham bor ekan: bu odam bizga nihoyatda kerak edi: qizillar to'g'risida undan ko'p narsani bilib olishimiz mumkin edi. Aziz o'rtoq, sen: «asir olinmasin» degan buyrug'ingni bekor qilishing kerak. Bunday buyruq bizga juda katta ziyon yetkazadi, chunki kazaklar bunday shafqatsizlikdan norozi emish, ular: «Qizillar ham endi bizdan tushgan asirlarni o'ldirishadi, qishloqlarimizni vayron qilishadi» deb xavotir bo'layotgan emish. Komandirlarini ham o'ldirmay, to'g'ri bizga jo'nataver. Biz ularni Vyoshenskayadami, yoki Kazanskdami, sekin-asta o'zimiz bir yoqlik qilamiz. Sen bo'lsa, xuddi yozuvchi Pushkinning tarixiy romanidagi Taras Bulbaga o'xshab, hamma yoqqa o't qo'yib, hammani qilichdan o'tkazib, qaytaga kazaklarni norozi qilyapsan. Biroz vazmin bo'lish kerak axir, asirlarni o'ldirmasdan bizga jo'nataver. Mana shunday qilsak, biz kuchli bo'lamiz. Senga ko'pdan ko'p salom yuborib, sog'-salomatlik va muvaffaqiyat tilaymiz».

Grigoriy xatni o'qib bo'lmasdanoq yirtib, oyog'i tagiga tashladi. Kudinovning:

«Tezdan janub tomonga, Krutenskiy — Astaxovo — Grekovo tomonga hujum boshla. Shtab kadetlar fronti bilan jipslashishni zarur topadi. Aks holda, dushman bizni o'rab olib, tor-mor qila-

jak» — degan buyrug'iga otdan tushmay turib shunday javob yozdi.

«Qochayotgan dushmani quvalab ketyapman, Bokovga hujum qilib, ot qo'rganman. Krutenskiyga bormayman, buyrug'ing bema'ni. Xo'sh, Astaxovoning nimasiga uchib hujum boshlay? U yoqda xoxol bilan shamoldan boshqa hech narsa yo'q».

Shunday qilib qo'zg'olonchilar markazi bilan rasmiy xat aloqasi ham tamom bo'ldi. Ikki polkka ajratilgan sotnyalar Bokov bilan chegaradosh bo'lgan Konkov qishlog'iga yaqinlashdi. Uch kundan beri Grigoriyning omadi o'ngidan kelib, janglarda qo'li baland edi. U jang bilan Bokovni ishg'ol etdi-da, tavakkal qilib Krasnokut tomon askar tortdi. Yo'lini to'sgan kichkina bir otryadni yakson qildi, biroq asirlarini o'ldirmasdan orqa tomonga jo'natdi.

9-mart kuni Grigoriyning polklari Chistyakovka slobodasiga yaqinlashgan edi. Xuddi o'sha kunlarda qizillar qo'mondonligi ichkari yoqdan paydo bo'lgan xavfni sezib, qo'zg'olonchilar ustiga bir necha polk va batareyalarni yubordi. Chistyakovka yonida qizil askar polklari bilan Grigoriyning polklari to'qnashdi. Jang uch soat davom etdi. Grigoriy qurshovga tushishdan qo'rqib, o'z qismlarini Krasnokutskka chekintirdi. Ammo ertalabki jangda xopyorlik qizil kazaklar vyoshenliklarning rosa adabini berdi. Hujum va akshujum mahalida yuqori va quyi donliklar betma-bet bo'lishib, xumordan chiqquncha qilichbozlik qilishdi. Grigoriy otidan ajrab betiga qilich tekkandan keyin o'z polklarini jangdan olib chiqqida, Bokovga dovur chekindi.

Kechqurun asir tushgan xopyorlik qizil askarni tergov qildi. Uning oldida yoshi anchaga borgan Tepkin stanitsalik kazak so'roq berib turardi; uning soch-u soqoli malla, ko'ksi kichkina bo'lib, shineling yoqasiga bir parcha qizil mato taqilgan edi. Berilgan savollarga u bajon-u dil javob qaytarar, labini bir yoqqa qiyshaytirib olib zo'rma-zo'raki iljayardi.

— Kechagi jangda qaysi polklar qatnashdi?

— Stepan Razin nomidagi uchinchi polkimiz qatnashdi. Bu polkdagilarning deyarli hammasi Xopyor okrugidan chiqqan kazaklar, bundan tashqari, Beshinchi Zaamur, O'n ikkinchi kavaleriya, Oltinchi Msensk polklari ham bor edi.

— Polklar ustidan bosh qo‘mondon kim edi? Kikvidze deyishdi, to‘g‘rimi?

— Yo‘q, birlashgan otryad komandiri o‘rtoq Domnich edi.

— O‘q-dorilaring ko‘pmi?

— Qanchaligini kim bilsin!

— To‘plar nechta?

— Sakkiztacha bo‘lsa kerak.

— Polk bu yerga kelishdan oldin qayerdaydi?

— Kamensk stanitsasiga qarashli qishloqlarda edi.

— Qaerga jo‘natayotganliklarini sizga aytishdimi?

Kazak mijg‘ovlanib turib javob berdi. Grigoriy xopyorlik kazaklar qanday kayfiyatda ekanini bilgisi kelib:

— Kazaklar bir-birlari bilan gaplashganda, nima deyishar edi?

— Borgim yo‘q, oyog‘im tortmaydi, deyishardi.

— Biz nega qo‘zg‘olon ko‘targanimizni polkdagilar biladimi?

— Qayoqdan bilsin?

— Oyog‘i tortmaganga sabab nima?

— Sizlar ham kazaksiz-ku, nimasini so‘raysiz? Innaykeyin, urush hammaning joniga tekkan, qizillarga qo‘shilganimizdan beri ahvol shu.

— Bizda xizmat qilishni istamaysanmi? Kazak kiftini qisdi.

— Ixtiyor sizda-ku, lekin ko‘nglim tortmayapti...

— Ha, mayli. Senga javob. Xotining oldiga bora qol...

Sog‘ingandirsan-a?

Grigoriy ko‘zlarini qisib, kazakning ketidan qarab qo‘ydi-da, Proxorni chaqirdi. Anchagacha tamaki tortib, indamay turib qoldi. So‘ngra deraza oldiga keldi-da, Proxorga teskari o‘girilib turib, shundan buyruq berdi:

— Yigitlarga aytgin: hozir men so‘roq qilgan huv anavini hech kimga sezdirmay boqqa olib o‘tishsin... Qizillarga qo‘shilgan kazakni men asir olmayman! — Grigoriy mayishgan poshnasida shartta ketiga burildi: — Bor! Tezroq bir yoqlik qilishsin...

Proxor chiqib ketdi. Grigoriy deraza tokchasidagi yarongulning mo‘rt novdachalarini sindirib, birpas o‘ylanib turdi-da, keyin ildam yurib zinapoyaga chiqdi. Proxor bostirma tagida oftobro‘yada o‘tirgan kazaklar bilan shivirlashayotgan edi.

— Asirni qo'yvoringlar. Borib ayt: unga propusk yozib berish-sin! — dedi Grigoriy kazaklarga qaramasdan; so'ngra qaytib uyga kirdi, to'g'ri borib eski bir oynaning oldida to'xtadi-da, o'z qilig'idan o'zi hayron bo'lib, beixtiyor qo'llarini kerib qo'ydi.

Grigoriy nima uchun uydan chiqqanini, nega asirni qo'yib yuboringlar deganini o'zi tushunolmasdi. Haligina uni laqillatib: «Xotining yoniga bora qol... Senga javob», — deganda, ketidan Proxorga boshqacha buyruq berishini, kazaklar uni bog'ga olib kirib o'ldirishini o'zi oldindan bilgan va o'shandan ko'ngli joyiga tushib suyungan edi-ku!

Qo'lga tushgan dushmanga rahmdillik ko'rsatgani o'ziga biroz nash'a qilardi. Agar rahmi kelib, ko'ngli erimaganda uni qo'yib yuborarmidi? Lekin qilgan ishidan o'zi xursand, ta'bi ravshan edi... Qanday qilib bu qarorga kelganini o'ylab-o'ylab tagiga yetolmasdi. Axir kechagina o'zi kazaklarga: «Mujik — dushman, ammo qizillarga ergashgan kazak — ikki dushmanga teng! Josus kazakka — hukm bitta: Shartta otib, jonini jahannamga jo'natish», degan edi-ku!

Grigoriy o'zi tanlagan yo'lning to'g'riligiga shubhalana boshladi; hislari xuruj qilib, yechilmagan savollar, yurakni ezuvchi qarama-qarshi fikrlar ichida uydan chiqdi. Uning oldiga aft-basharasi nihoyatda ko'rimsiz, novcha atamanliklardan bo'lgan Chir polkining komandiri bilan ikki yuzboshi keldi.

— Yana madadchi askarlar keldi! — og'zi qulog'iga yetib xabar qildi polk komandiri. — Uch ming otliqdan tashqari ikki yuz piyoda askar ham bor; hammasi napolovolik, gusinkalik, yablonovolik yigitlar. Bularni qayga joylaysan, Panteleyevich?

Grigoriy mauzerini, Lixachyovdan qolgan serhasham harbiy sumkaga tiqdi-da, qo'radan chiqdi. Kun iligan edi. Yoz osmoni ko'm-ko'k, yanada balandroqqa o'xshab ko'rinar, oppoq barra bulutlar janub tomon jilib borardi. Grigoriy maslahatlashib olish maqsadida hamma komandirlarni tor ko'chaga to'pladi. O'ttizga yaqin odam yig'ilib, qulab tushgan chetan ustiga qator o'tirib olishdi; allakimning tamaki xaltasi qo'lma-qo'l aylanib chiqdi.

— Qanday plan tuzishimiz kerak? Bizlarni Chistyakovkadan surib chiqargan ana shu qizil polklardan qanday qilib o'ch olishimiz mum-

kin? Xo'sh, innaykeyin, nima qilamiz, bosh oqqan tomonga ketaveramizmi? — deb so'radi-da, Grigoriy gap orasida Kudinovdan kelgan buyruqning mazmunini aytib berdi.

— Qarshimizda qancha askar bor ekan? Asirdan aniqlay oldingmi? — deb so'radi yuzboshilardan biri.

Grigoriy qizillar polklarini nomma-nom aytib berdi, ularda taxminan qancha miltiq, qancha qilich bo'lishi mumkinligini xomcho't qilib chiqdi. Kazaklar jimib qolishdi. Majlisda o'ylamasdan so'zga chiqish ahmoqchilik bo'ladi. Shuning uchun ham grachevlik sotnyaning yuzboshisi:

— Biroz sabr qil, Melexov! U yoq-bu yog'ini o'ylab ko'raylik. Bu axir bo'yoqchining nili emas-ku. Tag'in sharmandamiz chiqmasin, — dedi.

Birinchi bo'lib shu yuzboshi so'zga chiqdi.

Grigoriy hammaning gapini diqqat bilan tingladi. Ko'pchilik, hatto g'alaba qozonilgan taqdirda ham shu atrofdan uzoqlashmaslikni taklif etdi, faqat bitta chirlik yuzboshi qo'zg'olonchilar qo'mondonining buyrug'ini ma'qullab gapirdi:

— Bu yerda ivirsib yuraveramizmi, axir? Melexov bizni Donets tomon boshlasin. Sizlarga nima bo'ldi — eslaring bormi o'zi? Biz bir to'da odammiz, arzimagan kuchimiz bor, ammo qarshimizda butun boshliq Rossiya turibdi-ya! Qanday qilib unga bas kelamiz? Bir hamla qilsa bormi — ko'rasan kuningni! Jang bilan bo'lsa ham dushman halqasini yorib o'tishimiz lozim! Patronimiz oz, lekin ilojini qilamiz. Otlanish kerak! Boshqa gap yo'q.

— Xalqni nima qilamiz. Bola-chaqa, chol-u kampir, xotin-xalaj qolaveradimi?

— Mayli qolaversin!

— Xumday kallang bor-u, ichiga poxol tiqilgan ekan.

Chetanning eng chekkasida o'tirgan komandirlar shu damgacha: bahor yaqinlashib, yer haydash payti kelgani, agar olg'ua siljiydigan bo'lsalar ro'zg'orlari nima bo'lishi to'g'risida o'zaro shivirlashib gaplashayotgan edi, biroq chirlik yuzboshining gapidan keyin hammasi baravar chug'urday boshladi. Majlis allaqanday qishloq yig'iniga o'xshab ketdi, shovqin-suron ko'tarildi. Napolovlik keksa bir kazakning ovozi hammanikini bosib tushdi:



— O‘z qo‘ramiz atrofidan nari ketmaymiz! Aks holda men o‘z sotnyamni olib qishloqqa qaytaman! Jang qiladigan bo‘lsak, o‘z yurtimizda qilaylik. Birovlar uchun qon to‘kadigan ahmoq yo‘q!

— Gapirgani qo‘yasanmi, yo‘qmi? Men maslahat beryapman, sen bo‘lsang kekirdagingni cho‘zasan!

— Nimasini gapirasani!

— Zarur bo‘lsa, Kudinov o‘zi Donetsga borsin! Grigoriy shovqin bosilguncha kutib turdi-da, qat‘iy fikrini aytib, talashlarga xotima berdi.

— Shu yerda turib urushamiz! — dedi. — Agar Krasnokutsk stantsiasi bizga qo‘shilsa, uni ham mudofaa qilamiz. Boradigan joyimiz yo‘q... Kengash tamom. Har kim o‘z sotnyasi yonida bo‘lsin. Hozirdanoq pozitsiyaga jo‘naymiz.

Yarim soatdan keyin hamma ko‘chalar, otliq askarga to‘lib, daryoday oqa boshladi. Grigoriy ularni tomosha qilarkan, terisiga sig‘may suyunar, mag‘rurlanardi, chunki shu damgacha bunchalik katta kuchga komandir bo‘lmagan edi. Lekin shu mag‘rur shodlik bilan birga ko‘nglida og‘ir shubha paydo bo‘lib, ichini it tirnay boshladi: «Bularga bosh bo‘lishga qurbim kelarmikin? Ming-minglab kazakni idora qilib eplay olarmikanman?» — deb o‘ylardi. Uning qo‘l ostida hozir sotnya emas, butun bir diviziya bor edi. «Menday chalasavod bir kimsaga ming-ming kishining tepasida turishlikni, ularning o‘lik-tirigiga javobgar bo‘lishlikni kim qo‘yibdi? Xo‘sh, men bularni kimga qarshi qo‘ymoqchiman? Xalqqa qarshi... Axir kim haq, kim nohaq?»

Grigoriy tishlarini g‘ijirlatib, saf-saf bo‘lib o‘tayotgan sotnyalarini ko‘zdan kechirardi. Haligina o‘zini hovliqtirgan mansabparastlik g‘ururidan asar qolmagan, tog‘day tashvish uni bukchaytirib qo‘ygan edi.

## XXXVII

Bahor kelishi bilan daryolar ayqirib oqa boshladi. Kunlar uzayib, tog‘ jilg‘alari tobora sho‘xroq shildiray boshladi. Kasal kishiday yuzi sariq oftobning rangi qizg‘ish tus oldi. Quyosh tig‘lari nayzaday qadalib, qizdira boshladi. Ship-shiydam bo‘lib qolgan shudgordan bug‘ ko‘tarilar, unda-munda erib yotgan ilma-teshik qor parchalari yiltirab ko‘zni qamashtirardi. Havo dim, hamma yoqdan rutubat hidi anqir edi.

Kazaklar orqasiga o'tob tegib, jonlari kirib isinishardi. Egar ko'rpachalaridan issiq o'tib, qoraygan betlarini yel qitiqlar edi. Ba'zan shamol qor bosgan qirlardan ayozni haydab kelardi, lekin qishning safari qarigan edi. Hatto otlar ham bahor kelgani uchun gijinglab o'ynoqilashar, tullagan junlari to'kilib, achchiq ter burunlarni qichitardi.

Kazaklar otlarining dumlarini allaqachonoq tugib olishgan edi. Tuya junidan to'qilgan boshliqlarini keragi bo'lmasa ham yelkalariga tashlab yurishardi: papaxlar ostida peshonalari terlar, nimchapo'stin va jun chakmonda issiqqa chidab bo'lmasdi.

Grigoriy polkni so'qmoq yo'llardan olib yurdi. Yiroqlarda, shamol tegirmonning orqasida qizillar eskadroni ot qo'yishga tayyorlanib yoyilayotgan edi. Sviridovo qishlog'i yonida jang boshlandi.

Grigoriy jangga chetdan turib rahbarlik qilishni hali bilmasdi. O'zi oldinga tushib, vyoshenlik sotnyalarni jangga olib kirar, eng qo'rqinchli uchastkalarini shular bilan birga mudofaa qilardi. Umumiy rahbarlik bo'lmagani uchun jang o'z holicha davom etaverdi, har qaysi polk oldindan belgilangan rejaga amal qilmay, o'zi bilganicha, sharoitga qarab harakat qilaverdi.

Front yo'q. Front bo'lmaganligi uchun manyovr qilib, istagan tomondan hujum qilish imkoniyati tug'ildi.

Grigoriyning otryadi asosan suvorilardan iborat bo'lganligi uchun qo'li baland edi. Grigoriy urushda shu ustunlikdan foydalanib, «kazakcha» usulda jang qilishga qaror qilgan edi, ya'ni dushmanning ikki qanotini qisib, orqa tomoniga o'tib olib obozlarini yakson qilish, kechalari bostirib borib bezovta qilish, vahima solishni afzal ko'rardi.

Biroq Sviridovo qishlog'i yonida u boshqa usul qo'llashga qaror qildi: hamma sotnyalarni ot choptirib pozitsiyaga olib bordi-da, bitta sotnyani qishloq chetida otdan tushirdi, otlarni jilovdorlarga yetaklatib qishloq chekkalaridagi qo'ralarga jo'natdi-da, kazaklarni chorbog'lar ichiga pistirma qilib qo'ydi: o'zi qolgan ikki sotnya bilan shamol tegirmonidan yarim chaqirim nariroqdagi tepa ustiga chiqib olib, asta-sekin jangga kirishdi.

Uning qarshisida ikki eskadrondan ko'proq qizil suvoriylar bor edi. Grigoriy Durbinga qarab, bular xopyorlik kazaklar emasligini bildi: hamma Don otlariga o'xshamagan, dumi cho'ltoq chayir ot min-

gan edi; kazaklar o'la qolsa ham ot dumini kesib husnini buzmaydi. Demak, 13-suvoriy polk, yo esa, yangi kelgan boshqa qismlar hujum boshlamoqchi.

Grigoriy do'ng ustidan tevarak-atrofni durbin orqali ko'zdan kechirdi. U egar ustida turib uzoqlarni ko'rar, oyog'i uzangida bo'lsa, ko'ngli joyiga tushib o'zini erkin sezardi.

U shu yerdan turib, Chir daryosining qirg'og'i bo'ylab ketayotgan uzundan uzun, uch yarim minglik kazaklar kolonnasini ko'rdi. Kolonna ilonday buralib sekin-asta tog'ga chiqmoqda; o'shanaqasi shimolga — Yelan bilan Xopyor chegarasiga yetib bormoqchi, Ust-Medveditsadan hujum qilgan qizillarga o'sha yerda ro'para bo'lib, kurashda tinkasi qurigan yelanliklarga madad bermoqchi edi.

Hujumga tayyorlangan qizil suvoriylar bilan Grigoriy turgan joyning orasi bir yarim chaqirim kelardi. Grigoriy qadimgi usulni qo'llab, o'z sotnyalarini darhol uzun safga tizdi. Ba'zi kazaklarda nayza bo'lmagani uchun nayzasi borlari oldingi safga o'tib, o'n sarjin chamasini olg'a borib turishdi. Grigoriy otini choptirib kelib birinchi safning oldiga o'tdi-da, qilichini qinidan sug'urdi.

— Asta yeldirib, marsh!

Dastlabki daqiqadayoq qor tagidagi sug'ur iniga ostidagi otining tuyog'i kirib, munkib ketdi. Grigoriy egarda o'zini o'nqlab oldi, rangi o'chdi, jahli chiqib qilichning yon tomoni bilan otini urdi. Bu otni u vyoshenskayalik bir kazakdan olgan edi; o'zi safga o'rgangan asl zot arg'umoq bo'lsa ham, Grigoriy unga negadir ishonmasdi. Ikki kunda ot unga o'rganolmasligini, o'zi ham uning qiliqlarini, fe'l-atvorini bilmasligini yaxshi tushunardi, shuning uchun buni Chistyakovka yonidagi jangda o'lgan o'z otiga o'xshatolmasdi. Birovning oti otlik qilmaydi, jilovni nega asta siltab qo'yganingni baribir tushunmaydi, deb xavotir olar edi. Qilich zarbidan hurkkan ot jilovidan tortganiga qaramay olib qochdi; Grigoriyning a'zoyi badanini muzday ter bosdi, hattoki: «Bu ot sharmandamni chiqarmasaydi!» — degan xayol ichini tirnab ketdi. Lekin ot borgan sari bir tekisda chopar, asta qo'l qimir-latib qo'yganini tushunib, egasining amriga darhol bo'ysunardi. Buni sezgan Grigoriyning ko'ngli joyiga tusha boshladi. U ro'parasidan ot qo'yib kelayotgan gala-gala dushmanidan bir dam ko'zini olib ot boshiga qaradi. Uning jiyron tusli quloqlari qattiq chimirilib ketgan,

bo'yni ilonday cho'zilib, bir me'yorda tebranib borar edi. Grigoriy qaddini rosladi, o'pkasini to'ldirib chuqur nafas oldi, so'ngra, ikki etigini uzangiga mahkam bosib, ketiga qaradi. Ilgari u bir-biriga aralash-quralash bo'lib ketgan ot-u odamlar quyunday ketidan ergashib kelayotganini ko'p ko'rgan bo'lsa ham, lekin har gal allaqanday tushunib bo'lmaydigan hayvoniy zavq butun vujudini qamrab olar, yuragi orqasiga tortib ketardi. U ot jilovini qo'yib yubordi. Dushman oldiga yetib bormasdan, ruhiy ahvoli tubdan o'zgarib ketdi. Qanday qilib ko'z ochib-yumguncha bu qadar o'zgarganini tushunib bo'lmadi. Ana shunday mudhish daqiqada Grigoriy aql-hushini, vazminligini, hisobini yo'qotib, yolg'iz hayvoniy hissiyotga berilib ketardi. Lekin sirtidan qaralsa, har bir harakati jo'yali, har bir ishni tag-tomirigacha o'ylab qilganday tuyulardi. Hujum paytida chetdan turib unga nazar solgan odam, miyasi joyida, nima qilayotganini baloday biladi, deb gumon qilishi mumkin edi.

Hujumga kirgan ikkala tomonning orasidagi masofa har lahza qisqarmoqda. Ular bir-biriga yaqinlashgan sari, odamlar va otlar qorasi kattayganday bo'lib ko'rinadi. Ikkala tomon suvoriylari orasidagi qor bosib yotgan bir bo'lak burganzorga ikki yoqdan gala-gala otliqlar quyunday bostirib kirdilar. O'z eskadronidan uch quloch chamasi oldinda uchib kelayotgan odamga Grigoriyning ko'zi tushdi. Ostidagi bo'ydor qora-to'riq arg'umoq bo'ri singari kalta-kalta sakrab chopardi. Ot qo'ygan chavandoz ofitsercha qilichini havoda o'ynatardi, kumush qini esa, u yoqdan bu yoqqa chayqalib, hadeb uzangiga tegar, oftobni aks ettirib, o'tday chaqnardi. Ko'z ochib yumguncha Grigoriy uni tanib oldi. Bu Donga ko'chib kelgan karginlik kommunistlardan — Pyotr Semiglazov edi. O'n yettinchi yilda hech kim ko'rmagan g'alati obmotkani o'rab, german urushidan dastlab qaytgan soldat shu edi; o'shanda u endi yigirma to'rtga kirgan yoshgina yigitcha bo'lsa ham, frontda chiniqib, bolshevikcha e'tiqod va zo'r g'ayrat bilan kelgan va bolshevikligicha qolgan edi. U Qizil Armiya safida xizmatda bo'lib, isyon boshlanishi oldidan stanitsaga Sovet hokimiyati o'rnatish uchun kelgan edi. Xuddi ana shu Semiglazov hozir dadillik bilan Grigoriyning ustiga ot solib tintuv vaqtida qo'lga tushgan qilichni oliftachasiga o'ynatib kelardikim, bu qilich paraddan boshqa narsaga mutlaqo yaramasdi.

Grigoriy tishlarini irjaytirib, jilovni qimirlatdi, ot o'qday uchib ketdi.

Grigoriyning hujum paytida ishlatadigan, yolg'iz o'ziga xos bir hunari bor edi. Agar raqibining kuchli va chaqqon ekaniga ko'zi yet-sa yoki dushmani bir zarb bilan til tortqizmay o'ldirmoqchi bo'lsa, ana shu hunarini ishlatardi. Grigoriy bolalik chog'ida chapaqay edi. U qoshiqni chap qo'lida ushlar, chap qo'li bilan cho'qinardi. Panteley Prokofyevich buning uchun uni ko'p urardi, hattoki bolalar unga «Grishka – chapaqay» deb laqab qo'ygan edi. Kaltak va so'kishlar yosh bolaga axiri ta'sir qilgan bo'lsa kerakki, Grishka o'nga kirgach, chap qo'l ishlatish odatini tashladi, «chapaqay» degan laqabdan ham qutuldi. Lekin to so'nggi vaqtlargacha o'ng qo'l bilan qilinadigan ishni bemalol chap qo'lda ham qilaverardi. Hattoki, o'ng qo'lga qaraganda chap qo'li kuchliroq edi. Hujum paytida Grigoriy ana shu chapdastli-gidan foydalanar va hamisha muvaffaqiyat qozonardi. Masalan, Gri-goriy biror dushmani ko'z ostiga oladigan bo'lsa, hamma odamlar singari, o'ng tomondan qilich solmoqchi bo'lganday chap tomondan ot qo'yardi; Grigoriy bilan betlashadigan qilichboz ham aynan shu xilda kelaveradi. Nihoyat, ikkisining orasida o'n sarjinch masofa qolganda dushman qilich ko'tarib, sal qiyshaygan paytda, Grigoriy, otini shart-ta buradi-yu, dushmanning o'ng tomoniga o'tib oladi, qilich ham lip etib chap qo'lga o'ta qoladi. Hang-mang bo'lgan dushman burilishga majbur bo'ladi, chunki otning boshidan oshirib o'ngdan chapga qarata qilich solish juda noqulay, oqibat ajal ko'ziga tikilib, qazosi yaqinlash-ganini sezadi-yu, tarvuzi qo'ltig'idan tushadi... Grigoriy qaqshatqich zarb bilan ishini bir yoqli qiladi-qo'yadi.

Kokildor Grigoriyga ta'lim berib, «baklanovcha» qilich solishni o'rgatgandan buyon necha yoz-u, necha qish o'tib ketdi. Ikki urushni ko'rgan Grigoriyning qo'li ancha «pishib» qoldi. Qilichbozlik hunari-ning ko'p sirlarini bilib oldi. Qilich solish — tarasha yorish emas.

Eng zarur va shoshilinch paytlarda qilichni qo'ldan qo'lga olish qulay bo'lishini ko'zda tutib, Grigoriy bilagini hech vaqt qilichbandi-ga taqib qo'yiladigan tasmadan o'tkazib olmas edi. Qilichni noto'g'ri ushlagan bo'lsa, zarb bilan qilich solganda u qo'lidan tushib ketishini, hattoki, dastpanjani mayib qilishi mumkinligini bilardi. Kamdan kam odamga muyassar bo'ladigan qilichbozlik sirlarini: qanday qilib ra-

qibning qo‘lidagi qilichni uchirib yuborishni yoki qilich uchini sal-pal tekkizib, qo‘lini mayib qilishni Grigoriy yaxshi bilardi.

Odamzod qonini to‘kishga o‘rgatadigan qilichbozlik ilmini Grigoriy puxta bilar edi.

Agar qilichbozlik mashqi uchun qadab qo‘yilgan novdani abjirlik bilan qiyalab chopilsa, novda qimir etmay uzilib tushadi, hatto osti tebrangani bilinmaydi ham; novda uchlik tomoni bilan qilich ajratgan tanasining yoniga — qumga asta sanchilib qolaveradi. Aynan shu taxlitda qalmoqbashara ko‘rkam Semiglazov ham — qiyasiga chopilgan ko‘ksini ikki qo‘li bilan changallaganicha egardan sirg‘ilib, oldingi ikki oyog‘ini osmonga ko‘targan otining ostiga tushdi. Atal muzday tili bilan uning vujudini yalab ketdi...

Grigoriy o‘sha zahotiy oq egarda o‘nglanib, oyoqlarini uzangiga tirab turib o‘ng-so‘liga qaradi. Ikkinchi bir odam otini to‘xtatishga ham qurbi kelmay, quyunday uchib kelmoqda edi. Ot ko‘pirgan tumshug‘ini baland ko‘tarib olgani uchun ustidagi odamni to‘sib qolgan edi, biroq qo‘lidagi egri qilichi, uning qoraygan zihlari aniq ko‘rinardi. Grigoriy ot jilovini kuchi boricha siltab tortdi-da, dushman zarbini qaytarib turib, jilovni o‘ng qo‘liga o‘tkazib oldi, uning engashgan, sochi qirilgan qip-qizil bo‘yniga qilich soldi.

Grigoriy aralash-quralash bo‘lib ketgan olomon orasidan eng avval chiqdi. Ko‘z o‘ngida uymalashgan otliqlardan boshqa hech narsa ko‘rinmadi. Asabi qo‘ziganidan kafti qichisha boshladi. Qilichni qiniga solib, mauzerini qo‘lga oldi-da, otini orqaga burib choptirib ketdi. Kazaklar uning ketidan ergashdilar. Sotnyalar keng yoyilib kelmoqda edi. Goh unda, goh bunda papaxlar, ot bo‘yniga yotib olgan kazaklarning oq bog‘ichli quloqchinlari ko‘rinardi. Grigoriyning yonboshida tulki quloqchin, ko‘k nimchapo‘stin kiygan tanish uryadnik ot choptirib borardi. Uning qulog‘i kesilgan, beti baqbaqasigacha shilinib tushgan edi. Ko‘ksi qip-qizil qon, tishlari qarishib qop-qora qonga bo‘yalgan edi.

Vahm bosib, yarmi qocha boshlagan qizil askarlar kazaklarning chekinganini ko‘rib, ruhlari ko‘tarildi, otlarini burib quvishga tushdilar. Keyin qolgan bir kazak ot ustidan chalpakday uchib tushdi-da, ot tuyoqlari ostida qorga qorishib, majaqlanib ketdi. Qishloq olis emasdi, bog‘dagi daraxtlar, do‘ngdagi butxona, uzu-

nasiga ketgan tor ko'cha ko'rina boshladi. Kazaklar sotnyasi pistirmada yotgan bog'channing chetan devorigacha yuz sarjin joy qolgan... Otlarning sag'risi ko'pirib ter aralash qon quyardi. Grigoriy yo'l-yo'lakay mauzer tepkisini jon-jahdi bilan bosib ko'rdi, nihoyat, o'qi ko'ndalang kelib, ishdan chiqqan bu to'pponchani qiniga tiqdi-da, g'azab bilan:

— Bo'lining!!! — deb baqirdi.

G'uj-g'uj bo'lib ot qo'yib kelayotgan sotnyalar qoyaga duch kelgan daryo suviday ikki yoqqa baravar ajralib, ortdan quvib kelayotgan qizil askarlar to'liqiniga yo'l ochib berdi. Pistirmada yotgan kazaklar chetan orqasidan turib baravariga bir yo'la o'q uzishdi, ikkinchi, uchinchi zalp... Qiyqiriq! Bir ot ustidagi odami bilan do'mbaloq oshib quladi. Ikkinchi otning tizzasi bukilib, tushmug'i qulog'igacha qorga tiqilib qoldi. Yana uchtami, to'rtta qizil askarga o'q tegib egardan ag'darilib tushdi. Qolganlari g'uj bo'lib to' otlarini burib qochib olgunlaricha kazaklar bir oboymadan o'q uzib to'xtadilar. Grigoriy xirqiroq ovozi bilan: «Sot-nya-laaar!» deyishi bilanoq, minglarcha ot tuyoqlari qorning changini chiqarib shartta burildi-da, olg'a tashlandi. Biroq kazaklarning ta'qib qilib borishga ra'ylari yo'q edi, otlar charchagani uchun ular bir yarim chaqirim joygacha quvib borib orqalariga qaytishdi. Halok bo'lgan qizil askarlarni tunadilar... o'lgan otlarning egar-jabdug'ini shilib oldilar. Qo'li cho'ltoq Alyoshka Shamil uchta yaradorni chetan devor yoniga qator turg'izib, bir boshdan bittalab qilichdan o'tkazdi. Birpasdan keyin nimtalangan jasadlar tepasiga kazaklar to'planib kelishdi-da, anchagacha papiros chekishib, o'liklarni tomosha qilishdi. Uchovi bir taxlitda yotardi: qilich uchovini ham yelkadan to belga do-vur qiyasiga chopib tashlagan edi.

— Uchtani oltita qildim, — deb maqtanardi Alyoshka ko'zini pir-piratib, betini tirishtirib.

Kazaklar xushomadgo'ylik qilib Alyoshkaga tamaki tutishar, tomoshaqovoqday keladigan mushtumiga, chakmon ostidan do'ppayib chiqib turgan ko'ksiga ehtirom bilan tikilishardi.

Ustiga shinel yopilgan otlar chetan devor yonida muzday terdan qaltirashardi. Kazaklar otlarning ayilini tortishar, tor ko'chadagi quduq oldida suv olgani navbat kutishardi. Ko'plari charchagan, oyog'ini arang sudragan otlarini yetaklab yurishardi.

Grigoriy o'z yoniga Proxor bilan beshta kazakni olib olg'a tomon jo'nadi. O'sha zahotiy oq ko'zi ochilganday bo'lib, yana hujumdan olidingi holatiga qaytdi. Olamga nur sochgan oftobga, poxol g'aramining yonidagi endi eriy boshlagan qorga yana ko'zi tushdi, qishloqda chirqillagan chumchuqlar ovozini yana eshitdi, bahor gashtidan darak beruvchi eng nozik muattar hidlarni yana iskey boshladi. Hozir uning ko'z oldida to'kilgan qonlarni yutaverib munkaygan kekxa hayot emas, balki bir nafaslik sevinchi bilan o'ziga mahliyo qiluvchi soxta hayot gavalangan edi. Qoraygan shudgorda erimay qolgan bir parcha qor olisdan nihoyatda pokiza, juda ham oppoq bo'lib ko'rinadi-da...

### XXXVIII

Qo'zg'olon toshgan daryo singari Don bo'yidagi hamma qishloqlarga, dashtdagi olis yurtlarga, atrofi to'rt yuz chaqirim keladigan joygacha yoyilib ketdi. Ot mingan kazaklar soni yigirma besh mingga yetdi. Yuqori Don okrugidagi qishloqlardan o'n ming piyoda askar keldi.

Urush misli ko'rilmagan tusga kirdi. Oqlarning Don armiyasi hozir Donets daryosi tomonda frontni mahkam ushlab, Novocherkassk shahriga dushmanni o'tkazmay, hal qiluvchi jangga tayyorlanmoqda edi. Unga qarshi turgan 8- va 9-Qizil Armiyalarning orqa tomonidan qo'zg'olon avj olib, Donni ishg'ol etish kabi mushkul vazifani battar mushkullashtirgan edi.

Aprel oyida Respublika Revolyusion Harbiy Soveti, qo'zg'olonchilar armiyasining oqlar fronti bilan qo'shilish xavfi borligini ravshan tushunib qoldi. Shuning uchun qanday yo'l bilan bo'lsa ham qo'zg'olonni bostirish talab etilardi, aks holda qo'zg'olonchilar qizillar frontining bir yog'ini yemirib, Don armiyasiga qo'shilishi muqarrar edi. Qo'zg'olonni bostirish uchun eng yaxshi kuchlar tanlab yuborildi: ekspeditsion askarlar orasiga Boltiq va Qora dengiz matroslari, eng ishonchli polklar, bronepoyezdchilar, eng chapdast suvoriylar qo'shildi. Jangovar buguchar diviziyasining sakkiz ming odamini, besh yuz pulemyot va allaqancha to'plardan iborat besh polkini frontdan butunlay olinib qo'zg'olonchilar ustiga tashlandi. Aprel oyida qo'zg'olonchilar frontining Kazansk uchastkasida Ryazan va Tambov kursantlari jon olib, jon berib jang qilishardi, Shumilin stanitsasining



yonida latish o'qchilari qo'zg'olonchilar bilan bahodirlarcha olishardi: keyinroq VSIK maktabining kursantlari ham kelib qo'shildi.

O'q-dori, yarog' tanqisligidan kazaklarning jonlari halqumiga kelgan edi. Avvalo, miltiq yetishmasdi, keyin o'q tamom bo'ldi. Lekin o'q odamning xuniga baravar edi: hujumga kirib, jondan kechib kechalari bosqin qilib, miltiq, o'q-dori, o'lja olish mumkin. Shundayligiga qaramay, kazaklar o'q topib kelishardi. Aprel oyida qo'zg'olonchilarda yetarli miqdorda miltiq, olti batareya, yuz ellikka yaqin pulemyot bor edi.

Qo'zg'olonning dastlabki kunlari Vyoshenskayadagi omborxonada besh million otilgan bo'sh patron qolgan edi. Okrug soveti eng mohir temirchi, chilangar va miltiqsoz ustalarni safarbar etdi. Vyoshenskayada o'q quyadigan korxonada tashkil qilindi, biroq o'q quyish uchun qo'rg'oshin yo'q edi. Okrug sovetining murojaatiga binoan hamma qishloqlarda qo'rg'oshin va mis to'plashga tushildi. Tegirmonlardagi hamma qo'rg'oshin va babbat zapaslari musodara qilindi. Qishloqlarga qisqacha murojaat yozib chopar jo'natdilar:

«Erlaringiz, o'g'illaringiz, aka-ukalaringiz o'qsiz qoldi.

Ular faqat yovuz dushmandan tortib olgan o'q bilan kun ko'rishyapti. Ro'zg'oringizda o'q bo'lishga yaraydigan nima bo'lsa, hammasini topshiring. Shamol mashinalarning qo'rg'oshindan qilingan elaklarini olib topshiring».

Bir haftadan keyin okrugdagi shamol mashinalarning birontasida ham elak qolmadi.

«Erlaringiz, o'g'illaringiz, aka-ukalaringiz o'qsiz qoldi»... Buni eshitgan xotinlar yaroqli va yaroqsiz buyumlarni qishloq sovetiga ko'tarib kelishaverdi, jang bo'lib o'tgan qishloqlarda bolalar devorga kirib qolgan o'qlarni kavlab olishga, yer timirskilab to'p o'qining parchalarini qidirishga tushishdi. Lekin bu ishda hamma baravar jonbozlik ko'rsatmadi: ro'zg'oridagi so'nggi buyumini ko'zi qiymagan ba'zi kambag'al xotinlarni «qizillarga xayrixohlik qildi» deb qamab, okrugga jo'natdilar. Tatarskda bo'lsa ta'til olib uyiga kelgan Semyon Chugun: «Boylar shamol mashinasini buzib, elagini oborib bera qolsin. Ular xonavayronlikdan ko'ra qizillardan ko'proq qo'rqishadi» — degani uchun qariyalar uni kaltaklab dabdala qilishdi.

To'plangan qo'rg'oshin Vyoshenskayadagi korxonada eritildi, biroq quyilgdn o'qlar nikel qoplanmagani uchun erib ketaverardi... Bu qo'lbola o'q miltiq og'zidan chiqishdanoq mumga o'xshab erib ketar, qo'ng'iz singari g'o'ng'illab uchardi; shuncha vahimasi bilan faqat yuz, yuz yigirma sarjin joyga borardi, xolos. Ammo bu o'q tekkan joyini o'pirib, dabdala qilardi. Qizil askarlar bu sirdan ogoh bo'lib, ba'zan kazaklar oldiga yaqin kelvolib: «O'qlaring qo'ng'izdan yasalgan... Taslim bo'lavinglar, baribir, yengilasiz!» — deb baqirishardi.

O'ttiz besh ming qo'zg'olonchi askardan besh diviziya va oltinchi sonli alohida brigada tuzilgan edi. Meshkov — Sterakov Veje uchastkasida Yegorov qo'l ostidagi 3-diviziya jang qilardi. Kazansk — Donets — Shumilin uchastkasini 4-diviziya egallagan edi. Bu diviziyaning komandiri doim qovog'i soliq podxorunjiy, jang desa jonini beradigan o'tkir qilichboz Kondrat Medvedov edi. 5-diviziya Slashv — Bukanovsk frontida komandir Ushakov qo'l ostida jang olib borardi. Yelan Ust-Xopyor — Gorbatov tomonda vaxmistr Merkulovning 2-diviziyasi jang qilardi, 6-sonli alohida brigada ham o'sha yerda edi. Bu brigadaning komandiri — Maksayevdan chiqqan podxorunjiy unvonli Bogatiryov, ehtiyotkor, oldi-ketini o'ylab ish qiladigan bo'larbo'lmasga tavakkalchilik qilmaydigan kazak edi. Odamlarni bekorga nobud qilmasdi, natijada bu mustahkam jipslashgan brigada kamdan kam talafot ko'rardi. Grigoriy Melexov qo'l ostidagi 1-diviziya Chir bo'ylab joylashgan edi. Uning uchastkasi frontning old tomonida edi, janubdan boshqa frontlardan keltirilgan qizil askarlar to'xtovsiz hujum qilishardi, lekin Grigoriy hujumni daf qilish bilangina qanoatlanmay, yonidagi beburd 2-diviziyaning holi tang bo'lgan mahalda piyoda va otlq askar yuborib madadlashardi.

Qo'zg'olon Xopyor va Ust-Medveditsa okruglarining stani-t-salariga tarqala olmadi. U yoqlarda ham norozi odamlar bor edi; o'sha yerdagi kazaklarni qo'zg'atish uchun Buzulukka va Xopyor daryosining yuqori tomoniga askar yuborilishini so'rab vakillar keldi; biroq qo'zg'olonchilar qo'mondonligi xopyorliklarning aksariyati Sovet hukumati tomonida ekanini bilgani, qurol ko'tarib chiqmasligiga aqli yetgani uchun Yuqori Don okrugining chegara-sidan nari chiqishga rozi bo'lmadi. Bu vakillarning bir narsa chiqishiga ko'zlari yetmasdi; ularning gapiga qaraganda, qishloqlarda

qizillardan norozi bo'lgan odamlar kam ekan, Xopyor okrugining burchak-burchagida qolib ketgan ofitserlar ham allaqaysi go'rlarda biqinib yotar ekanlar, qo'zg'olonga xayrixohlik qiladigan tuzuk-roq kuch tashkil qilish mumkin emasligi ma'lum bo'lgan, chunki frontdan qaytgan erkaklar yo qizillarga qo'shilib ketgan, yoki uylarda, qariyalarning tumshug'iga burov solganlar, qariyalarning ilgarigi kuch va obro'laridan asar ham qolmagan.

Janubda, ukrainlar yashagan volostlarning yoshlari Qizil Armiya safiga olindi; bu yoshlar jangovar Boguchar diviziyasining polklariga qo'shilib, qo'zg'olonchilarga qarshi bajon-u dil jang qila boshladilar. Qo'zg'olon hech yoqqa yoyilmay, Yuqori Don okrugi chegarasi ichida o'ralashib qoldi. O'z yurtlarini uzoq vaqt mudofaa qilishga qurbi yetmasligiga qo'zg'olonchilar qo'mondonligining ko'zi yetib qoldi. — Qizil Armiya Donets tomondan aylanib kelib ertami-indin majaqlab tashlashi muqarrar edi.

18-mart kuni Kudinov Grigoriy Melexovni Vyoshenskayaga majlisga chaqirdi. Grigoriy diviziya komandirligini o'z muovini Ryabchikovga topshirdi-da, ordinaretsi — komandir topshiriqlarini bajaruvchisi bilan erta sahar okrugga jo'nadi.

Grigoriy shtabga kirganda Kudinov Alekseyev stanitsasidan kelgan vakil bilan suhbatlashayotgan edi: Safonov ham shu yerda edi. Kudinov yozuv stoli yonida bukchayib o'tirar, qoramtir qoqshol barmoqlari bilan kavkazcha kamarining uchini o'ynardi, uyqusizlikdan qovog'i shishib, yiringlashib ketgan ko'zlarini yerdan olmay, qarshisida o'tirgan kazakka savol berardi:

— Xo'sh, o'zingiz nima qilmoqchisiz? O'zlaringdan biron maslahat chiqadimi, axir?

— O'zimiz ham, albatta, qarab turmasmiz... Biroq qo'limizdan kelmas deyman... Ko'pchilik ko'nadimi, yo'qmi — xudo biladi. Ularning qanaqaligini bilib bo'lmaydi. Qo'rqishadi. Bir yoqdan nolishadi, bir yoqdan qo'rqishadi...

Kudinov g'azabiga chidolmay, bo'zarib: — «Nolishadi!» «Qo'rqishadi!» — deb baqirib yubordi-da, kursisiga birov cho'g' tashlab qo'yganday, o'rnidan sapchib tushdi. — Hammangiz ham oyimtilla qizlardan qolishmaysiz! «Holva pish, og'zimga tush» — deysiz, xolos. O'sha Alekseyevga borib, qariyalaringga

ayt: to o'zlaring qurol ko'tarib chiqmagunlaringcha sizlarga loaqal bir vzvod askar ham yubormaymiz. Menga desa, qizillar hammangni bittalab osib o'ldirsin!!

Kazak qip-qizil qo'li bilan tulki tumog'ini ensasiga surib qo'ydi. Peshonasidagi ajinlardan jilg'a-jilg'a bo'lib ter quyar, mallarang kalta kipriklari pirpirar, biroq ko'zlari kulimsirab, uzr so'rayotganday termulardi.

— Ixtiyor sizda, albatta... Zorimiz bor, zo'rimiz yo'q, bormasanglar — sadqayisar! Bay ochish puldan ham a'loroq, boshlab bersangiz, u yog'ini eplab ketardik... — Gapga zehn qo'yib quloq solayotgan Grigoriy, eshikni taqillatmasdan to'g'ri kirib kelgan o'rtaboy, qora moylov, oshlangan qo'y terisidan nimchapo'stin kiygan odamga yo'l berib chetroq turdi. U bosh qimirlatib Kudinov bilan salomlashdida, stol yoniga o'tirib oppoq kaftini jag'iga tirab oldi. Grigoriy shtabdagi hamma odamni tanir edi, lekin buni birinchi ko'rishi uchun tikilib qaradi. Bichimi nozikdan kelgan yuzi qoracha bo'lsa ham, na oftob va na shamoldan qoraygan emasdi, oppoq va nozik qo'llariga, intelligentcha qiliq va muomalalariga razm solinsa, uning bu yerlik emasligiga shubha qolmasdi.

Kudinov bu notanish odamni Grigoriyga ko'zi bilan ishora qilib ko'rsatdi.

— Tanishib qo'y, Melexov. Bu kishi — o'rtoq Georgidze bo'ladi. U... — u yog'ini aytolmay to'xtab qoldida, kamarining uchidagi kumush to'qani o'ynay boshladi, so'ngra o'rnidan turib Alekseyev stantsasidan kelgan vakilga: — Senga javob endi, bora qol. Biz hozir ishga tushamiz. Qishlog'ingga qaytib, men aytgan gaplarni lozim topgan odamingga so'zlab bergin, — deb tayinladi.

Kazak o'rnidan turdi. Qip-qizil tulki tumog'ining moyynasi shiftga tegayozdi. Kazak chorpahil gavdasi bilan derazani to'sib turgani uchun kattakon uy kichkina va tor bo'lib qolganga o'xshadi.

Kavkazlik qo'lini siqib ko'rishganiga g'ashi kelgan Grigoriy:

— Madad kerak bo'lib qoldimi? — deb so'radi kazakdan.

— Ha-ha! Madad kerak bo'lib qoldi. Chunonchi, qittay qarashib yuborsa bormi... — Kazak suyunib ketib, dardimga malham bo'larmikin deb Grigoriyning ko'ziga tikildi. Dovdirab qolgan yuzi tumog'ining tusiga o'xshab qizarib ketgan, aft-basharasi shu qadar

terlagan ediki, hatto salqi malla mo'ylovidan tortib soqoligacha munchoqday ter bosgandi.

Kudinov betoqat bo'lib, qimirlab qo'ygan bo'lsa ham, Grigoriy o'zini ko'rmaslikka solib savolini davom ettiraverdi:

— Sovet hukumati sizlargayam yoqmadimi?

— Hozircha noliyotganimiz yo'q, — deb chuldiradi barzangi kazak, — oxiri chatoq bo'lmasa deb xavotirdamiz.

— Sizda ham odam otishlar bo'ldimi?

— Yo'q, xudo saqlasin! Unaqa gapni eshitganimiz yo'q. Lekin otlarimizni, don-dunlarimizni tortib olgan paytlari bo'ldi, masalan, qarshi chiqib gapirgan odamlarni qamoqqa olishdi. Xullasi kalom, halovatimiz buzildi.

— Agar vyoshenskayaliklarni yuborsak, qo'zg'alarmidingiz? Hamma baravar qo'zg'alarmidi?

Quyosh shu'lasida yalt-yult qilib turgan kichkina ko'zlarini kazak mug'ambirona qisib, Grigoriyning ko'zidan olib qochdi-da, bu og'ir savoldan tirishgan peshonasiga tumog'ini surib qo'ydi.

— Hamma uchun javob berolmasman... Ammo ro'zg'orparast kazaklar, albatta, qo'zg'alardi.

— Kambag'allar ro'zg'orparast emaslar-mi?

Shu damgacha Grigoriydan ko'zini olib qochgan kazak, nihoyat, yosh bola singari taajjublanib unga tik qaradi.

— Hm!.. Yalqovlarga zaril qolibdimi qo'zg'olon ko'tarib! Hammasi Sovet hukumatidan minnatdor!

— Menga qara, hoy barzangi, unday bo'lsa nega kelding? — Kudinov qattiq g'azablanganidan o'zini bosolmay baqirib yubordi.

— Bu yerga nega kelding o'zing? Yoki bizni laqma, gapga ucha qoladi deb o'yladingmi? Koshki hammang boy bo'lsang ekan! Hammasi bo'lib uch-to'rt uylik odam qo'zg'alsa, bu qanaqa qo'zg'olon bo'ldi endi? Qani tuyog'ingni shiqirlat! Yo'qol deyapman senga! Hali mo'ychinak bilan junlaringni bitalab yulishgandan keyin madadsizoz qo'zlaring qo'zg'alib qolarsan! Birovning soyasida dam olishga xo'p usta bo'lib olibsiz, itvachchalar. O'z uyim — o'lan to'shagim qilib, pech ustida yotishni bilasiz, xolos... Hozir ko'zimdan yo'qol! Basharangni ko'rsam, ko'nglim ag'dariladi!

Grigoriyning qovog‘i osilib, teskari qarab oldi. Kudinovning qoni betiga tepib, sholg‘omday qizarib ketdi. Georgidze esa, mo‘ylovini burar, yo‘nilgan toshga o‘xshash qirra burnini jiyirardi.

— Bizdan o‘tgan bo‘lsa, uzr so‘radik. Lekin janobi oliy, sen judayam vag‘irlab po‘pisa qilaverma, qars ikki qo‘ldan chiqadi. Qariyalarimizning iltimosini sizga aytdim, sizning javobingizni ham oqizmaytomizmay qariyalarga gapirib beraman; bu yerda baqirishning hojati yo‘q! Tokaygacha pravoslav bandalariga baqirish, do‘q qilish mumkin? Oqlar baqirsa, qizillar baqirsa, mana hozir sen baqiryapsan, kim ko‘ringan xo‘jayinlik qilib, tepamizda tegirmon tosh yurgizaversa, bu nima degan maynavozchilik, axir?.. Hammasi dehqonning sho‘ri; itga, qushga talanib ko‘rgan kunimiz qursin!..

Kazak zarda bilan tumog‘ini bostirib kiydi-da, bir hatlab yo‘lakka chiqdi, eshikni sekingina yopib qo‘ydi; lekin yo‘lakka chiqib olgandan keyin qildi qiladiganini: ko‘cha eshikni shu qadar taraqlatib yopdiki, devor shuvoqlari ko‘chib yerga, deraza tokchalariga duv-duv to‘kildi.

— Endigi odamlardan keladigani shu-da! — deb kulimsirardi Kudinov. U hadeb kamarini o‘ynar, tobora jahlidan tushardi. — O‘n yettinchi yili pashadan sal oldinroq stansiyaga ketyapman deng, ko‘klam kezi, qo‘sh mahali. Ozodlikka erishgan kazaklar birato‘la haddidan oshib, yo‘llarni qo‘shib haydashyapti — boshqa yer qurib ketibdimi, deng! Tokin qishlog‘ining naryog‘ida shunaqa qo‘shchidan bittasini aravamning yoniga chaqirib oldim: «Hoy, badbaxt, yo‘lni nega haydading?» deb do‘q qildim. Qo‘shchi yigitning kapalagi uchib ketdi. «Tavba qildim, endi haydamayman, kechirasiz, — deydi, — hozir tekislab qo‘yishim mumkin». Shu tarzda yana uch-to‘rttasiga po‘pisa qildim. Grachyovning naryog‘ida yana yo‘l haydalgan, qarasam, plug ketidan bir xumpar. «Qani beri kel-chi!» deb chaqirdim. Keldi. «Xo‘sh, yo‘l haydamog‘liqqa nima haqqing bor?» — deb so‘radim. Ko‘zlari ko‘kish; norg‘ildan kelgan g‘alati kazak ekan deng, menga bir qarab qo‘ydi-yu, indamay iziga qaytib, chopganicha ho‘kizlar yoniga bordi. Kela solib bo‘yinturuqning temir tirqishini sug‘urib olib, chopganicha yana yonimga keldi. Tarantasning qanotiga tarmashib bosqichiga oyoq qo‘yyapti deng. «Sen o‘zing kimsan, — deydi — qachongacha qonimizni so‘rasiz, — deydi, — bir urib kallangni ikki palla qilay-

mi? — deydi-ya! Temirni o'xtalib rostdan urmoqchi. «Hoy, Ivan, senga nima bo'ldi, men hazillashyapman» desam: «Men Ivanmas — Ivan Osipichman, sansiramay gapir, xuddi tumshug'ingni dabdala qilaman», — desa bo'ladimi!.. Ishonsang: u deb, bu deb, arang qutuldim. Haligi kazak ham xuddi o'sha toifadan: mo'mintoy bo'lib pishillab o'tirgan odam, pirovardida qilg'ini ko'rsatib ketdi. Xalqda oriyat kuchaygan.

— Oriyat emas, — orsizlik hissi uyg'onib, xalq birato'la rasvo bo'ldi. Orsizlik qonuniy tus oldi, — dedi kavkazlik podpolkovnik, lekin boshqalar og'iz ochmasdan burun u: — Majlisni tezroq boshlaylik; men bugundan qolmay polkka yetib olmoqchi edim, — deb gapini tamomladi.

Kudinov devorni dukillatib:

— Safanov! — deb chaqirdi, so'ngra Grigoriyga o'girilib qaradi: — Sen ham majlisda qolgin, hamjihat bo'lib suhbatlashamiz. «Kengashli to'y tarqalmas», — degan gapni eshitgandirsan. Baxtimizga o'rtoq Georgidze zamonaning zayli bilan Vyoshenskayada qolib ketib, bizga yordamlashyapti. O'zlari — podpolkovnik, bosh akademiyani tamomlaganlar.

Yulduzi yulduziga to'g'ri kelmaganidanmi, negadir, Grigoriy hadiksirab:

— Vyoshenskayada nega qolib ketdingiz? — deb so'radi.

— Tif bilan og'rib qoldim. Shimoliy frontda chekinish boshlanganda kasal bo'lganim uchun meni Dudarev qishlog'ida qoldirishdi.

— Qaysi qismda edingiz?

— Menmi? Men safda emasdim: favqulodda guruhning shtabida edim.

— U qaysi guruh? General Sitnikov guruhimi?

— Yo'q.

Grigoriy yana allanimani so'ramoqchi edi, biroq podpolkovnik Georgidzening yuzi burishganini ko'rib, hadeb savol beraverishni ep ko'rmadi; Grigoriyning gapi og'zida qolib, dami ichiga tushib ketdi.

Birpasdan so'ng shtab boshlig'i Safonov, 4-diviziya komandiri Kondrat Medvedev, betlari qip-qizil, tishlari oppoq podxorunjiy 6-alohida brigadaning komandiri Bogatiryov kirib keldilar. Majlis boshlandi. Kudinov yozma ma'lumotlarga qarab, frontlardagi ahvoldan axbo-

rot berdi. Dastlab podpolkovnik Georgidze so‘z oldi. Uch chaqirimlik xaritani stol ustiga shoshmasdan yqyib, dona-dona qilib, dadillik bilan gapira boshladi. Uning talaffuzida bilanar-bilinmas aksent bor edi.

— Avvalo men, Melexov diviziyasi hamda podxorunjiy Bogatiryov brigadasi joylashgan uchastkaga Uchinchi va To‘rtinchi diviziyalardan ba‘zi bir rezerv qismlarni yuborishni nihoyatda zarur deb hisoblayman. Qo‘limizda bo‘lgan maxfiy ma‘lumotlar hamda asirlar aytib bergan gaplardan shu narsa aniqlandiki, hozir qizillar qo‘mondonligi xuddi Kamenka—Kargin—Bokov uchastkasida bizga kuchli zarba bermoqchi bo‘lib tayyorgarlik ko‘rayotir. Qochib o‘tgan odamlarning hamda asirlarning gapidan ma‘lum bo‘lishicha: To‘qqizinchi Qizil Armiya shtabi O‘n ikkinchi diviziyadan olingan ikki suvoriy polkni, beshta to‘pchi otryadni, uch batareya va pulemyot komandalari bilan Obliv va Morozovsk tomonidan yuborgan. Xomcho‘t hisobga ko‘ra dushmanning bu qo‘shimcha kuchi besh yarim ming askardan iborat. Demak, son jihati-dan dushman bizga qaraganda ancha ko‘p, qurol-yarog‘ini gapirmasak ham bo‘ladi.

Janub tomondan, deraza romining but shaklidagi chaspagidan kun-gaboqar guliday sap-sariq oftob mo‘ralardi. Ko‘m-ko‘k tutun shift tagida bulutday muallaq turib qolgan edi. Qo‘lbola tamakining ach-chiq hidi ivigan etiklarning sassig‘iga aralashib ketgandi. Shiftning bir burchagidan, tamaki tutuni elitgan pashshaning jon-jahdi bilan g‘ing‘illashi eshitilardi. Grigoriy mudroq aralash derazaga tikilar (ikki kechadan beri mijja qoqmagan edi), qovoqlari shishib, tobora zilday og‘irlashardi, pechkasi qizigan uyning issig‘i badaniga o‘tgan sayin uyqu bosar, qattiq charchagani uchun miyasi karaxt bo‘lib tobora irodasi bo‘shashardi. Tashqarida shabada o‘ynar. Ba‘zi tomondan do‘ng ustida erimay qolgan bir parcha qor olisdan yaltirab ko‘rinardi, Donning narigi betidagi teraklar shamolda chayqalar va Grigoriyning quloq‘iga guvullagan tovushi kelayotganga o‘xshardi. Podpolkovnikning ravshan va burro ovozi Grigoriyning diqqatini jalb qila boshladi. U astoydil quloq solib nima deganini tushunishga harakat qilardi; borabora uyqusi o‘chib ko‘zi moshday ochildi.

— ...Birinchi diviziyamiz joylashgan frontda dushman o‘z harakatini susaytirib, Migulin, Meshkov tomonda hujum boshlashga ustma-ust urinishi bizdan hushyorlik talab etadi. Mening fikrimcha... — pod-



polkovnik «o'rtoglar» demoqchi bo'lib duduqlanib qoldi-da, oppoq nozik qo'lini qimirlatib qattiqroq gapira boshladi, — menimcha, qo'mondon Kudinov Safonovning haybarakallachiligi bilan Melexov joylashgan uchastkani zaiflashtirib, kattakon xato qilyapti: qizillarning ko'z chalg'itish maqsadida qilayotgan harakatiga rostdan ishonyapti. Marhamat, janoblar, dushman kuchini chetga tortib, hujum boshlash — strategiya alifbesi.

— Axir Melexovga yordamchi polkning keragi yo'q-ku, — deb gapni bo'ldi Kudinov.

— Keragi bor! Uchinchi diviziyaga qarashli rezervlardan bir qismi ixtiyorimizda bo'lishi lozim, biror o'pirilish ro'y beradigan bo'lsa, bakkor keladi.

Grigoriy, zardasi qaynab gapga aralashdi:

— Chamamda, Kudinov men bilan hisoblashmoqchi emas: hali men unga rezerv beramanmi, yo'qmi? Bermayman. Loaqal bir sotnyaniyam bermayman!

— Judayam qattiq ketma, birodar... — g'udullab iljaydi Safanov, sarg'aygan mo'ylovini silab.

— «Birodar» ketmaydi! Bermayman dedim — vassalom!

— Operativ yo'l bilan...

— Sen menga operativ yo'lingni gapirma. Men o'z uchastkamga, o'z odamlarimga javobgarman.

To'satdan boshlangan bu munozarani podpolkovnik Georgidze to'xtatdi. Uning qo'lidagi qizil qalam eng xavfli uchastkani nuqtalar bilan belgilab chiqdi; majlisdagilarning boshlari xarita ustiga engashgandan so'ng, qizillar tayyorlayotgan zarbani yolg'iz janubiy uchastkadan kutish kerakligi hammaga ayon bo'ldi, chunki bu uchastka Donets daryosiga yaqin va yo'li juda qulay edi.

Bir soatdan so'ng majlis tugadi. Aft-angori odam yovvoyisiga o'xshagan, ayiq singari beso'naqay, alifni bedan arang ajratadigan, doim qovog'i soliq Kondrat Medvedev majlisda churq etmay o'tirib-o'tirib, pirovardida hammaga yer tagidan qarab chiqdi-da, tilga kirdi:

— Melexovga yordam qilishdan qochmaymiz. Ortiqcha odam topiladi. Lekin bir masala miyamni qotiryapti, xolos. Bordi-yu, qizillar to'rt tomondan bostirib keladigan bo'lsa-chi, xo'sh, unda qayga bora-

miz? Hamma yoqdan o‘rab olsa bormi, daryo toshib tortilganda, ajralib qolgan ko‘ldagi baliqlarga o‘xshab, qochar joyimizni topolmay qolarmiz.

— Baliq-ku, suzishni biladi, bizning holimizga maymun yig‘lar! — deb kuldi Bogatiryov.

— Bu to‘g‘rida biz o‘ylab chiqqanmiz, — dedi xomush bo‘lib Kudinov. — Bordi-yu, ahvol tang bo‘lib, do‘ppi tor kelsa, qurol ko‘tarishga yaramaydiganlardan, bola-chaqadan kechamiz-u, jang bilan yo‘l ochib Donetsga yetib olamiz. Kuchimiz oz emas, o‘ttiz ming askarimiz bor, axir.

— Kadetlar bizni qabul qilarmikin? Yuqori donliklarda qasdlari bor.

— Tovuqning tuxumi... tushmay turib, hovliqishingni qara-ya! — Grigoriy shapkasini kiyib yo‘lakka chiqdi. Eshik orqasidan Georgidzening xaritani shildiratib o‘ragani va gapirgan ovozi eshitilardi:

— Vyoshenskayaliklar va umuman hamma qo‘zg‘olonchilar bolsheviklarga qarshi mardonavor kurashgan taqdirdagina — Don bilan Rossiya oldida o‘zlarini oqlab olishlari mumkin...

Grigoriy uning so‘z ohangiga quloq solib turib: «Tili boshqa-yu, dili boshqa: ichida masxara qilyapti bu munofiq!» — deb ko‘nglidan o‘tkazib qo‘ydi. Vyoshenskayada to‘satdan paydo bo‘lgan bu ofitserdan, boya uchrashganda qanday xavotirlangan bo‘lsa, hozir ham xavotirlanib, o‘zidan o‘zi xunob bo‘lib ketdi. Shtab darvozasi yonida Kudinov unga yetib oldi. Ikkisi anchagacha churq etmay boraverdi. Go‘ng bosib ketgan maydonda shamol o‘ynar, ko‘lobchalar jimirlashar edi. Oqshom payti. Xuddi balandlab uchgan oppoq oqquvlar singari pag‘a-pag‘a bulutlar janub yoqdan sekingina suzib o‘tardi. Qori ketgan zax tuproqdan hayotbaxsh o‘tkir hidlar anqirdi, chetan devorlar yonidagi ko‘katlar ko‘m-ko‘k bo‘lib qolgan edi; Donning narigi qirg‘og‘ida to‘lqinday chayqalgan teraklarning qasira-qusurini shamol shu yergacha olib kelardi.

— Yaqinda Donning muzi ko‘chadi, — dedi Kudinov yo‘tala-yo‘tala.

— Ha.

— Ishimiz chatoq... Tamaki... Xumor qilib, o‘lib bo‘lamiz endi. Bir stakan qo‘lbola tamakiga — Kerenskiy puli bilan qirq so‘m to‘lash kerak.

— Oldin sen menga manavini aytib ber-chi, — Grigoriy keta turib shartta burildi-da, — anavi cherkes ofitser bu yerda nima qilib yurib-di? — deb so‘rab qoldi.

— Georgidzemi? Operativ idoraning boshlig‘i. Miyasi butun, shay-tonga dars beradi! Planlarni shu ishlab chiqyapti-da! Strategiya masala-sida hammani mot qiladi.

— U har doim Vyoshenskayadami?

— Yo‘o‘o‘q... Biz uni Chernov polkiga, obozga tayinlaganmiz.

— Unday bo‘lsa ishlardan qanday xabardor bo‘lib turadi.

— Rostini aytсам; tez-tez kelib turadi. Har kun keladi deyish mum-kin.

— Uni Vyoshenskayaga chaqirib ola qolsanglar bo‘lmay-dimi? — deb so‘radi Grigoriy masalaning tagiga yetmoqchi bo‘lib.

Kudinov yo‘tala-yo‘tala, og‘zini kafti bilan to‘sib, xushi kelmay javob berdi:

— Kazaklardan istihola qilamiz. Og‘aynilarning qanaqaligini o‘zing bilasan-ku! «Ofitserlar yelkamizga minib oldi, o‘z tartibini o‘rnatyapti. Yana pogonlar...» va shunga o‘xshash gap qo‘zg‘aladi.

— Bizda yana shunaqa odamlardan bormi?

— Kazanskda ikkitami-uchtasi bor... Sen, Grisha, judayam bur-ningni jiyiraverma. Gapni qayoqqa burayotganingni sezib turib-man. Biz borib-borib oxiri kadetlarga qo‘shilamiz, boshqa iloji-miz yo‘q. Shunday emasmi, birodari aziz? Yoki sen o‘nta stanitsani birlashtirib respublika tuzmoqchimisani? Qo‘shilamiz-u, Krasnovning oldiga bo‘yin egib boraveramiz: «Gunohimizni kechir, Petro Mikola-ich, frontni tashlab ketib xato qildik», — deymiz-da...

— Xato qildikmi? — deb so‘radi Grigoriy.

— Bo‘lmasam-chi! — deb Kudinov chindan taajjulanib javob berdi-da, ehtiyotkorlik bilan ko‘lobchani aylanib o‘tdi.

— Mening fikrim boshqacharoq... — bo‘riqib ketgan Grigoriy zo‘rma-zo‘raki iljaydi. — Menimcha, biz, qo‘zg‘olon ko‘tarib xato qildik... Haligi xopyorlik kazakning gapini eshitdingmi?

Kudinov Grigoriyga zehn solib tikildi-yu, indamay qo‘ya qoldi.

Maydonning naryog‘idagi chorrahada ikkisi ikki yoqqa ajraldi. Ku-dinov maktab yonidan o‘tib uyiga ketdi. Grigoriy shtabga qaytdi-da, or-dinaretsini chaqirib otlarni oldirib keldi. Otga minib, shoshmasdan jilo-

vini qo‘lga oldi-yu, multiq qayishini to‘g‘riladi, lekin shtabda yo‘liqqan polkovnikka nega buncha g‘ashi kelganini, nega xavotirlanganini tushunolmay miyasi qotdi. To‘satdan miyasiga bir fikr kelib seskanib tushdi: «Bordi-yu, qizillarning orqa tomonidan bizlarni qo‘zg‘atish uchun, bizlarga o‘zlari bilganicha rahbarlik qilish uchun kadetlar shunaqa bilimdon ofitserlarni jo‘rttaga oramizga yuborgan bo‘lsa-ya?» Alamzada ko‘ngil gumonlar, dalil-isbotlarni ko‘ndalang qilaverdi. «Qaysi qismdan ekanini aytmadi... mijg‘ovlanib qoldi... Shtab xizmatchisi emish, bu oradan shtab o‘tgani yo‘q... Bir illati bo‘lmasa, Duda-revskday pastqam joyda bu odam nima qiladi? Hm, buning tagida gap ko‘p! Ishni rasvo qilibmiz, attang-attang...» — Grigoriy o‘y lay-o‘y lay, axiri achchiq haqiqatning tagiga yetdi-yu, jig‘ibiyron bo‘lib oxirigacha o‘ylab chiqdi: «Bilimdonlar bizni yo‘ldan ozdirdi... Janoblar bizni laqillatdi! Bizni adashtirishdi, tushovlab, jangga solib, o‘z ishlarini bitirib olishmoqchi... Dunyoda hech kimga ishonib bo‘lmas ekan...»

Grigoriy Dondan o‘tib olib otini ayamay haydadi. Uning orqasidan ordinaretsi egarni g‘archillatib ot yeldirib borardi, bu kazak Olshanskiy qishloqlik yurakli jangchi edi. Grigoriy hamisha «o‘tdan, suvdan toymaydigan», german urushida chiniqqan shunday odamlarni atrofiga to‘plardi. Aslida razvedkachi bo‘lgan bu ordinarets yo‘lga chiqqandan beri churq etmay kelardi, otini choptirib kelayotib kungaboqar kulida toblangan bir tutam xushbo‘y pilikni kaftiga oldi-da, chaqmoq tosh bilan o‘t oldirib shamolda bemalol papirosini tutatdi... Tokin qishlog‘iga yaqinlashganda u Grigoriyga:

— Ishimiz zarur bo‘lmasa, shu yerda tunay qolaylik. Otlargayam javr, picha dam olsin, — deb maslahat berdi.

Ikkisi Chukarinda tunab qolishdi. Qo‘ngan uylari o‘rtasida dahlizi bo‘lgan ikki xonali ko‘hna bir uy bo‘lsa ham muzday shamol va yo‘l azobidan keyin issiqda ancha rohatlanishdi. Yerdan buzoq va echkilarning shiptir isi, pechdan karam bargiga o‘rab pishirilgan nonning kuygan hidi kelardi. Uch o‘g‘lini va cholini qo‘zg‘olonchilar safiga jo‘natgan kampirning savollariga Grigoriy istar-istamas javob berardi. Kampirning ovozi yo‘g‘on edi; u yoshi kattaligini pesh qilib, dabdurustdan Grigoriyni jerkib tashladi:

— Komandir bo‘lsang, kattaligingni esi past kazaklaringga qil, menga xo‘jayinlik qilaman deb ovora bo‘lma, sen hali bo-

lam tengi kelmaysan. Men bilan gerdaymasdan, tuzukroq gaplashgin, yaxshi yigit. Hadeb esnaysan-esnaysan xolos yoki momang bilan gaplashging kelmayaptimi? Unday qilma! Bilasanmi, men sizning urushingizga — xudoyo urushga qirg'in kelsin, — uch bolamni ham, cholimni ham jo'natganman. Sen bo'lsang, hozir ularga komandirlik qilyapsan, lekin onasi menman, men tuqqanman ularni, men emizib, men yegizib, opichib, polizga, dala-yu dashtlarga oborib-obkelib katta qilganman, butun azobini men tortganman. Onaga oson emas! Burningni ko'p jiyiraverma, bola, menga pishqirmasdan, yotig'i bilan javob bergin, qachon yarashasizlar?

— Yaqinda... Uxlasangiz bo'lardi, onajon!

— Yaqinda-ya! Yaqining qachon, axir? Uyqum bilan ishing bo'lmasin, qachon uxlasam ixtiyor o'zimda, bu uyning bekasi — men, sen emas. Hali qo'raga chiqib qo'zi-uloqlarimni olib kelishim kerak. Kechasi uyda asramasak, uvul, hali judayam nimjon... Pashxagacha yarashasizlarmi?

— Qizillarni haydaymiz-u, yarashamiz.

— Koshki, aytganing kelsa! — Kampir, og'ir mehnat va bod kassali azobidan qing'ir bo'lib qolgan dastpanjasini qoqsuyak tizzasiga qo'yib, olcha po'stlog'i singari jigarrang, qaqragan lablari bilan g'amgin tamshanardi. — Qizillar bilan nima ishlaring bor? Ular bilan nima talashib urushasiz, axir? Odamlarga bir balo bo'ldi o'zi... Sizlarga miltiq otish-u, otga minib o'zlaringni ko'z-ko'z qilsalaring bas, ona nima bo'ladi, o'ylaysizmi hech? Onaning aziz farzandlari urushda qirilyapti-ku, yo noto'g'rimi? Urushni chiqarganga ming la'nat-ey...

— Biz nima, biz ona farzandi emasmizmi? Bizni qanjiq tuqqanmi? — bo'g'ilib vag'illay boshladi kampirning gapiga zardasi qaynab tutaqishgan ordinarets. — Birimiz o'lib, birimiz jonimizni hovuchlabarang yuribmiz-ku, siz bo'lsa: «Otgaminib, o'zlaringni ko'z-ko'z qilasan» — deysiz-ya! Onaga qiyin bo'lsa, jon beruvchiga oson fahmlaysanmi? Yoshingizni yashab, oshingizni oshab, sochlaringiz oqarsa ham tilingizni tiyolmaysiz, chuldiraysiz, xolos... Goh bog'dan kelasiz, goh tog'dan, bekorga hammani uyqudan qo'yingiz...

— Uxlarsan, taviya! Buncha o‘qrayasan! Boyadan beri indamay o‘tirib, o‘tirib birdaniga jahli chiqib keta qolganini qarang-a! Ovoziyam xirillab zo‘rg‘a chiqyapti.

— Grigoriy Panteleyevich! Bu kampir uxlagani qo‘ymaydi, — deb ming‘irladi-da, ordinarets papiros chekmoqchi bo‘ldi, lekin alamini chaqmoqtoshdan olib shunday qattiq chaqdiki, uchquni hamma yoqqa uchib tushdi.

Pilik tutab, sasib yonguncha ordinarets kazak sergap kampirning rosa adabini berdi:

— Kampir emas, baloyi azim ekansiz! Mabodo cholingiz jangda o‘ladigan bo‘lsa, jon berayotib: «Xudoga shukur, kampirimdan qutuldim», — deb rosa suyunar, «Umri uzoq, yostig‘i tuproq bo‘lsin», — deb haqingizga duo qilar, deyman.

— Huv, tilingga kuydirgi chiqsin, haromi!

— Onajon, xudo xayr bersin, uxlang. Uch kechadan beri ko‘z yumganimiz yo‘q. Uxlang! Bir chimdim uyquga nima yetsin?

Grigoriy ikkisini arang tinchitdi. Uyquga ketar oldida ustiga yopilgan barra po‘stinning nordon hidi dimog‘iga urildi, uyqu aralash eshik taraqlaganini, oyoqlariga sovuq tekkanini, bug‘ o‘rab olganini sezdi. So‘ngra qulog‘ining tagida ovozining boricha qo‘zi ma‘radi. Uloqlar mayda tuyoqchalarini to‘qillatib yugurishdi, nihoyat, hamma yoqni xushbo‘y toza pichanning, qo‘y sutining hidi, molxonaning isi, ayozning muzday nafasi qoplab oldi...

Yarim kechasi Grigoriyning uyqusi o‘chib ketdi. Anchagacha u ko‘zlarini ochib yotdi. Yero‘choqning ichida, kul tagida cho‘g‘lar yiltirardi. Uchoqning yonginasidagi oxurcha yonida qo‘zilar g‘uj bo‘lib isinib yotishardi. Yarim kecha paytining lazzatli sukunati orasidan qo‘zilarning uyquda tishlarini g‘ijirlatib kavshangani, ora-sira chuchkurgani, pishqirgani eshitalardi. To‘lgan oy balandlardan turib dera-zaga mo‘ralar, chorburchak romdan uy ichiga tushib turgan sarg‘ish shu‘lada tim qora uloq sakrab, o‘ynoqlab yurardi. Yerdan ko‘tarilgan chang qiya tushgan oy nurida sadafday yiltirardi. Uy ichi sarg‘ish nur ichida, kunduzgiday yorug‘. Tokchada bir parcha oynaning shu‘lasi-yilt-yilt qilib o‘ynaydi, faqat to‘rdagi burchakka qo‘yilgan ikonaning kumush rangli romi xira bo‘lgani uchun arang ko‘rinardi... Grigoriy yana boshqatdan Vyoshenskayada o‘tgan majlis, Xopyordan vakil

bo'lib kelgan kazak to'g'risidagi mulohazalarga qaytdi, yana o'sha qilig'i sovuq intelligentnamo podpolkovnik esiga tushib ta'bi xira bo'ldi. Uloqcha Grigoriyning po'stiniga, undan qorniga chiqib oldida, quloqlarini dikkaytirib anchagacha baqrayib tikilib qoldi; xavf yo'qligini sezgandan keyin qo'rqmasdan bir-ikki sakrab ham ko'rdi, nihoyat, chatanog'ini kerib to'xtadi. Jildirab tushgan iliq suv po'stin avrasidan oqib borib, Grigoriyning yonida uxlab yotgan ordinaretsning kaftiga quyildi. Ordinarets so'kinib uyg'ondi. Qo'lini pochasiga artib, xunob bo'lib bosh chayqadi:

— Hamma yoqni ho'l qildi, badbaxt... Ket! — deb uloqning peshonasiga chertib qo'ydi.

Uloqcha chinqirib ma'raganicha po'stindan irg'ib tushdi; birozdan keyin Grigoriyning oldiga borib, issiqqina g'udrasha tili bilan qo'lini yalay boshladi.

### XXXIX

Tatarskdan qochgan Shtokman, Koshevoy, Ivan Alekseyevich hamda militsioner bo'lib xizmat qilgan yana bir nechta kazak 4-Zaamur polkiga borib qo'shildi. Bu polk o'n sakkizinchi yilning boshlarida, german frontidan qaytishdanoq Qizil Armiya otryadlaridan biriga butun tarkibi bilan qo'shilgan bo'lsa ham, grajdan urushi frontlarida bir yarim yildan beri jang qilganiga qaramay, asosiy kadrlarini saqlab qolgan edi. Zaa murliklarning ust-boshi, yarog'-aslahasi but, otlari semiz, yaxshi o'rgatilgan edi. Polk jangovarlik qobiliyati, ma'naviy jihatdan mustahkamligi hamda suvoriy tayyorgarligining puxtaligi bilan boshqa polklardan ajralib turardi.

Qo'zg'olonning dastlabki kunlarida zaamurliklar, Ust-Medveditsaga o'tib olmoq uchun jon-jahdi bilan olg'a intilgan qo'zg'olonchilar qo'shinini deyarli yolg'iz o'zlari to'sib turishdi; bularga faqat Birinchi piyoda Moskva polkigina yordam bera olardi. Keyinchalik madadchi kuchlar kelib qo'shilgach, polk olisga bormasdanoq Krivaya daryosi bo'ylab ketgan Ust-Xopyor uchastkasini egallab turaverdi.

Mart oyining oxirlarida qo'zg'olonchilar Yelan stanitsasiga qarashli qishloqlardan qizillarni surib chiqarib, Ust-Xopyorning

birmuncha qishloqlarini bosib oldilar. Ana shundan keyin har ikkala tomonning kuchi baravarlashganday bo'lib, qariyb ikki oy-gacha front bir joyda turib qoldi. To'plar bilan kuchaytirilgan Moskva polki Ust-Xopyorni g'arb tomondan himoya qilish bilan birga, Don bo'yiga joylashgan Krutov qishlog'ini ishg'ol etdi. Krutovdan janubga qarab ketgan Don bo'yidagi tog'larning etagida qizillar o'z to'plarini g'aram orasiga yashirib qo'ygan edi: bu to'plar Moskva polklariga madad berib, har kuni ertalabdan kechgacha o't ochar, goh o'ng qirg'oqdagi do'ngda to'plana boshlagan qo'zg'olonchilarni, goh daryoning narigi betiga joylashgan Yelan qishlog'ini to'pga tutardi. Bir-biriga tutashgan qo'ralar tepasida shrapnel (dumaloq o'qlar bilan to'ldirilgan artilleriya snaryadi) o'qlari yorilar, goh balandda, goh pastroqda bir parcha tutun paydo bo'lardi-da, darhol tarqalib ketardi. O'q parchalari goh qishloqning tor ko'chalariga tushar, mollar jon halpida chetanlarni qiy-ratib, dumlarini xoda qilib qochishar, odamlar engashib u yoqdan bu yoqqa chopib o'tishar, goh eski mazhabdagilar qabristonidan oshib, shamol tegirmon yonidagi kimsasiz qumtepaga tushib, muzi erimagan qop-qora yerni palaxsa-pyalaxsa qilib ko'chirib tashlardi.

Qo'zg'olon ko'targan stanitsalardan qochib qutulgan kommunistlar va sovet xodimlaridan Ust-Xopyorda drujina tuzilayotganini eshitishib, Shtokman, Mishka Koshevoy va Ivan Alekseyevich o'n beshinchi martda Chebotaryov qishlog'idan Ust-Xopyorga jo'nadilar. Ular eski mazhab tarafdori bo'lgan bir kazakning chanasiga tushib yo'lga chiqdilar. Shtokman aravakashning olmaday qip-qizil va lo'ppi betlariga qarab turib, o'zidan o'zi jilmayib qo'ydi. Kazak o'zi yosh bo'lsa ham soqol qo'ygan edi: novvotrang sochlari jingalak bo'lib, qip-qizil og'zi bir tilim tarvuzga o'xshar, ko'zining tagini tillarang tuk qoplagan, sersoqolligidanmi, yo yuzi qizilligidanmi, negadir ko'm-ko'k ko'zlarining tiniqligiga odam hayron qolardi.

Mishka yo'l-yo'lakay ming'illab ashula aytar, Ivan Alekseyevich miltig'ini tizzasiga qo'yib, chananing ketida junjikib o'tirardi. Shtokman sekin-asta aravakashni gapga soldi.

— Umringda hech kasal bo'lganmisan, o'rtoq? — deb so'radi.



Kuch-quvvati to'lib rosa yetilgan, eski mazhabli bu navqiron aravakash barra po'stinining barlarini ochib jilmaydi.

— Yo'q, hozirchalik gunohimizni xudo kechiryapti. Bizda kasal nima qiladi? Tamaki chekmasak, aroqni evi bilan ichsak, yoshligimizdan beri yeganimiz bug'doy noni bo'lsa, kasal qaydan kelsin?

— Xo'sh, harbiy xizmatda bo'lganmisan?

— Oz-moz bo'lganman, kadetlar majbur qilishgan edi...

— Nima uchun Donetsga qochmading?

— Gaplaring g'alati-ya, o'rtoq! — Aravakash o'rma qil tizginni qo'yvordi, qo'lqopini yechib og'zini artdi-da, o'pkalaganday ko'zlarini qisib, dedi: — Menga zarur kelibdimi? U yoqqa qochib yangi dinga kiranammi? Agar majbur qilishmaganda o'la qolsam ham kadetlarga qo'shilmasdim. Sizning hukumatigingiz odil hukumat, lekin andakkina xato ish qildingiz...

— Nima ish?

Shtokman tamaki o'radi va yondirib chekdi-da, anchagacha javob kutib turdi.

— Bu zaharli giyohni nega tutatasan? — deb yuzini teskari o'girib oldi kazak. — Bir qaragin: hamma yoq pokiza, bahor gul-larining ifori keladi, sen bo'lsang sassiq tutun bilan ko'kragingni chiritasan. Bu yaxshimas! Qanaqa noto'g'ri ishligini gapirib beray endi. Ahmoqlik qilib, kazaklarni qisib qo'ydingiz. Bo'lmasa-ku, Sovet hukumatiga qarshi chiqishga kimning haddi sig'ardi? Miya-si ishlamaydigan odamlaring ko'pakan, shunaqalarning kasriga qo'zg'olon ko'tarildi.

— Ahmoqlik deyapsanmi? Sening gapingga qaraganda ko'pgina noto'g'ri ishlar qilibmiz-da? Shundaymi? Qani ayt-chi, nimani noto'g'ri qilibmiz?

— Men aytmasam ham o'zing yaxshi bilasan... Odam otding-lar. Bugun bittasi otildi, ertaga qarabsanki, ikkinchisi... Kimning o'lgisi keladi deysan? Ho'kizni so'ymoqchi bo'lib yetaklasang boshini chayqab, oyog'ini tirab oladi. Masalan, Bukanov stan-nitsasida... huv anavi, cherkovni ko'ryapsanmi? Bu yoqqa qara, qamchinni uchiga qara, endi ko'rdingmi?... O'sha yerda bir ko-missar otryadi bilan turarmish, familiyasi Malkin. Qani ay-tning-chi, xalqqa shunday muomala qilish mumkinmi? Hozir gapirib

beraman. O'sha Malkin qishloqdagi qariyalarni to'plab chorvoqqa olib kirarkan-da, qip-yalang'och qilib otib o'ldirarkan; qarindoshurug'lariga o'liklarini bermas ekan. Bechora chollarning yolg'iz gunohi — bir vaqtlar faxriy sudya bo'lib saylanib qolganligi, boshqa hech qanday jinoyati yo'q. Biri o'z familiyasini zo'rg'atdan yozadi, ikkinchisi barmog'ini siyohga botirishni biladi, xolos. Bunday sudyalarni ilgari xo'jako'rsinga o'tkazib qo'yar edilar. Uning qadr-u qiymati — uzun soqoli xolos, qariligidan shimining tugmasini ham sololmaydi. Bunday odamlardan nima talab qilish mumkin? Go'dakdanam uvol... Lekin Malkin odamni chumchuq fahmlamaydi, azroilday jonini oladi-qo'yadi. Ittifoqo Linsk degan bir chol, qo'lida yugan, xirmonidagi biyasini olib kelmoqchi bo'lib ko'chada ketayotgan ekan, oldidan bir to'p shumtakalar chiqib: «Seni Malkin chaqiryapti, tez bor!» deyishibdi. Linsk sho'rlik jonini hovuchlab, chulchutchasiga cho'qinib qoladi-yu, — u yerdagilar hammasi yangi mazhabda, shapkasini yo'ldayoq qo'liga olvoladi. Dag'-dag' titrab, Malkinning oldiga kiradi. «Meni chaqirdingizmi? — deydi. Malkin bo'lsa, biqinini ushlab: — O'z oyog'i bilan kelgan mehmon aziz, — deb hoholab kuladi. — Seni hech kim chaqirgani yo'q, lekin umid bilan kelibsan, noumid qaytma. Oboring buni, o'rtoqlar! Qishloqqa ellikboshi qiling...» Mahkam ushlahadi-yu, o'sha zahoti chorboqqa olib kirishadi. Kampiri ana kutadi, mana kutadi, choldan darak yo'q. Chol bo'lsa, yugan-pugani bilan to'g'ri jannatga ravona bo'ladi. Yana bir kuni Malkin Andreyanov qishlog'idan Mitrofan ismli cholni ko'rib qoladi-da, yoniga chaqirib oladi: «Qayerliksan? Familiyang nima? — deb surishtiradi. — Soqolingni qara-yu: xuddi oyimsupurgiga o'xshaydiya, — deb qotib-qotib kuladi. — Soqolingga qaragam: Nikola avliyoning xuddi o'zisan. O'zing ham cho'chqaday semiribsan, yog'ingni eritib sovun qilamiz. Buni ham qishloqqa ellikboshi qilinglar! — deydi. Falokat bosgan cholni soqoli haqiqatdan ham oyimsupurgiday kelarkan. Bechoraning bor-yo'q gunohi soqol qo'ygani-yu, chap tomoni bilan turgan Malkinga ro'para kelib qolgani: bekorga otib tashlashdi. Xalqqa bundan ortiq zulm bo'ladimi?

Chol hikoyasini boshlagandayoq Mishka ashulasini to'xtatgandi, pirovardiga kelib zardasi qaynab ketdi:

— Yolg'onni qoyil qilolmading, amaki!  
— Rostini sen gapirib bera qol! Gapirishdan oldin, rostmi, yolg'onni surishtirgin, innaykeyin karillagin.

— Shuni o'z ko'zing bilan ko'rganmisan?

— Odamlardan eshitdim.

— Odamlar-a! Odamlar anqoning tuxumini maqtashadi, vaholanki anqo degan qushning o'zi yo'q. Mish-mish gaplarga laqqa tushib, xotinar singari saqich qilib chaynab yuribsan!

— Ikkisi ham yuvoshgina odam edi.

— Hooo! Yuvoshgina! — Mishka zardasi qaynab uni mazax qildi. — Qo'zg'olon tayyorlagan xuddi ana shu yuvosh chollaring bo'lmasin tag'in, balki bu yuvosh sudyalarning hovlisidan pulemyot topilgandir? Sen bo'lsang, soqol qo'ygani uchun hazillashib otishdi, deysan... Senda ham soqol bor, xo'sh, seni nega otishmadi? O'z soqolingga qara: bir bog' pichanga o'xshaydi.

— Men nimani eshitgan bo'lsam, o'shani gapirdim, xolos. — Aravakash xijolat tortib chuldiray boshladi: — Kim bilsin, ehtimol odamlar to'qib gapirgandir, bir hisobda, chollar hukumatga qarshi biror ish qilgan bo'lsa ham, ajab emas...

U chanadan sakrab tushdi-da, shilta qorni bilchillatib ancha joygacha piyoda ketdi. Oyoqlari dam-badam toyg'anib erib yotgan ko'kishtob qor ustida arang sudraladi. Dashtning qoq tepasidan quyosh noz-u karashma bilan nur sochadi. Tip-tiniq osmon, tevarak-atrofdagi baland-u past tepalarni, dovonlarni o'zining moviy chodiri ostiga olgan. Sekin-asta esgan shamoldan muattar bahor nafasi keladi. Sharqda, egri-bugri bo'lib ketgan daryo bo'yidagi oppoq tog'larning orqasida, binafsharang osmon qo'ynidagi Ust-Medveditsa tog'ining cho'qqisi ko'rinadi. Ko'z ilg'amas olis ufqlardagi oppoq barra bulutlar yer bag'irlab yurganga o'xshaydi.

Aravakash yana chanaga mindi-da, tumtaygan basharasini Shtokmanga burib, yana gapga tushdi.

— Mening buvam (u hozir ham tirik, hademay bir yuz sakkizga kiradi) yoshligida buvasidan eshitganlarini gapirib yurardi. Podshoh Pyotr Yuqori Don tomonlarga allakimniyam, xah, oting qurg'ur! — yo Dlinnorukov, yo Dolgorukov degan bir knyazni yuborganini buvamning buvasi es-es bilarkan. Ana shu knyaz Voronejdan lash-

kar tortib kelib, munofiq Nikonning mazhabiga kirmagan, podshoga bo'ysunmagan shaharlarni vayron qilibdi. Kazaklarni tutib burunlarini kesibdi, ba'zilarini dorga osib, sol bilan Donga oqizibdi.

— Gapning tagida gap borgan o'xshaydi, nima demoqchisan o'zing? — deb so'radi Mishka qulog'ini dikkaytirib.

— Men shuni demoqchimanki, podsho ming qilganda ham Dlin-norukiy qo'lga bunday huquqlarni tutqizib qo'ya qolmagandir!.. Bukanovdagi komissar ham, masalan o'sha knyazdan qolishmaydi: «Men — deydi, — sen itvachcha kazaklarni shunday adablargni berayki, umrbod eslargdan chiqmaydigan bo'lsin!..» Maydonda shunday deb baqiradi-ya! Stanitsa yig'inida xalqqa shunaqa desa bo'ladimi. Nima, Sovet hukumati unga shunday huquq berib qo'ygan ekanmi? Hech qachon! Hammani qoralab, hammani baravar yomonotliq qilishga qo'lida mandati bo'lmasa kerak. Kazakniyam kazagi bor: hammasi bir xil emas, axir...

Shtokmanning betlari burishib ketdi.

— Men gaplaringga rosa quloq soldim, endi sen menga quloq sol.

— Ehtimol, nodonlik qilib nojo'ya gap qilgandirman, nima bo'lsayam meni kechiringlar, — deb uzr so'radi kazak.

— Shoshma, sabr qil... Gap bunday. Allaqaysi bir komissar to'g'risida sen aytgan gaplarga, to'g'risini aytsam, odam ishongisi kelmaydi. Lekin men buni tekshirib ko'raman. Mabodo gaping rost chiqib, kazaklarga zo'ravonlik qilgani, haddidan oshgani to'g'ri bo'lsa, biz uni kechirmaymiz.

— Qaydam!..

— Qaydaming nimasi, puxta gap shu! O'zing ayt-chi, qishlog'ingda qizillar turgan mahalda, qizil askarlar allaqaysi bir kazak ayolning buyumini o'g'irlagan bir qizil askarni otib tashlaganmidi? Men buni qishlog'ingdagi odamlardan eshitganman.

— To'g'ri, to'g'ri! Perfilevnaning sandig'ini titgan. Bo'lgan gap! Hech yolg'oni yo'q. Har qalay... Unday ishlarga qattiq turishardi. Rost aytasan, g'aramning naryog'ida otib tashlashgan. Qishloq ahli keyin: buni qayga ko'mamiz deb anchagacha bir qarorga kelolmagan edi. Biri, qabristonga desa, ko'pchiligi qabristonni harom qiladi deb ko'nmagan edi. Axiri bechorani g'aram yoniga ko'mib qo'ya qolishgan edi.

— Demak, shunday voqea bo'lgan-a? — Shtokman sabrsizlanib papirosini o'ynardi.

— Bo'lgan, bo'lgan, tonmayman, — deb tasdiqladi kazak qizishib.

— Xo'sh, bordi-yu, komissarning jinoyati tasdiqlansa, nima uchun biz uni jazolamas ekanmiz?

— Hey, birodari aziz! Uni jazolaydigan kattakon amaldor sizlarda balkim topilmas deyman... Anavi anchayin soldat edi, bu bo'lsa, komissar...

— Shuning uchun ham komissarni qattiq tergash kerak! Tushundingmi? Sovet hukumati faqat dushmanlarni jazolaydi, lekin mehnatkash xalqni ranjitgan hukumat vakillarining ta'zirini beradi.

Tush payti edi. Mart quyoshining nuriga cho'milgan dashtda chana qo'shqarog'ining vizillashi bilan ot tuyoqlarining shaloplashidan o'zga tovush eshitilmasdi; to'satdan gumburlagan to'plar ovozi sukunatni buzdi. To'plar yana uch marta muayyan tartibda o'q uzdi. Krutovda joylashgan batareya daryoning chap qirg'og'ini to'pga tuta boshladi.

Aravadagilarning gaplari og'zida qoldi. Zambaraklarning haybatli sadosi, ilk bahor kayfini surib mudrayotgan dashtning fusunkor go'zalligini buzib turardi. Hattoki otlar ham quloqlarini chimirib, yuki yengillashganday, oyoqlarini ildam-ildam qo'ya boshladilar.

Otlar Getman yo'liga o'tgach, chanadagilar ko'z oldida Donning narigi qirg'og'idagi ajoyib keng manzara namoyon bo'ldi: qori erigan qumtepalar, to'p-to'p sandip va zirk daraxtlari o'sgan o'rmonchalar, olachipor chakalakzor-u burunlar ko'rindi.

Ust-Xopyorga yetgach, aravakash revkom binosi oldida otlarni to'xtatdi. Moskva polkining shtabi ham shuning yonida edi.

Shtokman cho'ntagini kovlab, Kerenskiy chiqargan qirg' so'mlikni oldi-da, aravakashga uzatdi. Uning og'iz tanobi qochib, mo'ylovini ostidan sarg'aygan tishlari ko'rinib ketdi. Iymanib:

— Yo'g'e, o'rtoq, xudo saqlasin! Pulni hojati yo'q, — dedi.

— Olaver, otlaringga yem puli qilasan. Sovet hukumatidan ko'nglingni to'q tut. Esingda bo'lsin: biz ishchi-dehqonlar hukumati uchun kurashyapmiz. Sizlarni kulaklar, atamanlar, ofitserlar qo'zg'olon ko'tarishga majbur qildi, bular hammasi bizga dushman. Qo'zg'olonning asosiy sababchisi — shular. Bizga xayrixohlik ko'rsatgan, revolyusiyaga yordam qilayotgan mehnatkash kazakka

odamlarimizdan biron-tasi ozor bergan bo'lsa, unday bezorining tano-bini tortib qo'yish mumkin.

— Bilasanmi, o'rtoq: osmon baland, yer qattiq... sizlarni ustlaring-dan arz qilishga bizga yo'l bo'lsin? «Boy bilan talashma, zo'r bilan kurashma» deyilgan. Sizlar ham zo'r, ham boysiz... — Aravakash mug'ambirona iljayib qo'ydi: — Buni qara, besh so'mlik kira puli o'rniga qirq so'lkovoy beryapsan, xayr, xudo xayringni bersin.

Mishka Koshevoy chanadan sakrab tushdi-da, chalvarini qoqayotib:

— Yo'ldagi gaplaring yoqib ketgani hamda soqoling chiroyli bo'lgani uchun seni siyladi-da, — dedi. — Sen o'zing bilasanmi, an-qov; chanangda kim keldi? Qizil general!

— Be?

— Mana senga «be» O'lguday noshukur odamlarsiz-da!... Oz ber-sang: «Anavi o'rtoqlarni chanada olib kelsam, faqat besh so'm ber-di, falon-u pismadon», deb hammaga jar solasiz, qishi bilan qarg'ab chiqasiz. Ko'p bersa, yana yoqmaydi: «Iye, manavi boyni qara! Qirq so'lkavoy berdi. Pulining son-sanog'i yo'q...» deysiz. Menga qolsa, senga bir pul bermasdim. Xafa bo'lsang, sadqayisar. Baribir senga yoqish qiyin. Qani, ketdik,... Xayr, sersoqol!

Mishkaning achitib-achitib aytgan gaplari hattoki Ivan Alekseye-vichga ham nash'a qildi, u ham qovog'ini ochib iljaydi.

Shtab hovlisidan juni o'siq qalmoqi ot mingan qizil askar o'qday uchib chiqdi-da, otini kalta burib:

— Chana qayerdan? — deb baqirdi.

— Nima ishing bor? — deb so'radi Shtokman.

— Krutovskka patron olib borish kerak. Qaytar chanani!

— Yo'q, o'rtoq, bu chanaga biz javob berib yubordik.

— O'zingiz kim bo'lasiz?

Yoshgina, chiroyli qizil askar yigit otini tikka burib keldi.

— Biz Zaamur polkidan bo'lamiz. Chanani ushlama.

— Ha... Mayli bo'lmasa, ketaversin. Chu deyaver, qariya.

## XL

Surishtirib ko'rishsa, Ust-Xopyorda hech qanday drujina tashkil qilinmagan ekan. Bitta drujina tashkil etilgan ekan, u ham bo'lsa, Ust-

Xopyorda emas, — Bukanovda. Bu drujinani 9-Qizil Armiya shtabi Xopyorning quyi stanitsalariga yuborgan komissar tuzgan ekan, yo'lda eski mazhablik kazak aytgan komissar Malkin shu bo'lib chiqdi. Yelanlik, bukanovlik, slashevlik va kumiljenlik kommunistlar va sovet xodimlari bir yerga to'planganlar, bularga qizil askarlar qo'shilgan, shunday qilib tuppa-tuzuk jangovar bir qism tashkil topgan; bu drujinada ikki yuz miltiq, allaqancha qilich hamda o'ziga yarasha suvoriy razvedka bo'lgan.

Drujina hozirchalik Bukanovda joylashgan bo'lib, Moskva polkingining bir rota soldatlari bilan birgalikda, Yelanka daryosining yuqorisidan hamda Zimovnaya tomondan hujum qilmoqchi bo'lgan qo'zg'olonchilarning yo'lini to'sib turardi.

Shtokman shtab boshlig'i hamda siyosiy komissar bilan maslahatlashib ko'rib, Ust-Xopyordagi 2-batalyonga qo'shilib qo'ya qolishga qaror qildi. Shtab boshlig'i ilgari ofitser o'tgan, qovog'i soliq, asabiy odam, siyosiy komissar esa, Moskvadagi Mixelson zavodidan chiqqan ishchi edi. To'p-to'p obmotka, g'altakka o'ralgan telefon simlari bilan liq to'lgan ozodagina bo'lmada Shtokman siyosiy komissar bilan uzoq suhbatlashdi.

— Bilasanmi, o'rtoq, — deb shoshmasdan gap boshladi apenditsiti qo'zib rang-ro'yi sarg'ayib ketgan pakana bo'yli komissar, — bu juda og'ir masala. Mendagi yigitlarning ko'pchiligi moskvalik bilan ryazanlik, biroz nijegorodliklar ham bor. Hammasi intizomli, aksariyati ishchilar. Ammo o'n to'rtinchi diviziyadan kelgan bir eskadron odamlar orasida beboshlik qiluvchilar bo'ldi. Biz ularni Ust-Medveditsaga qaytarib yuborishga majbur bo'ldik... Sen shu yerda qolgin, ish ko'p. Xalq orasida ishlash, tushuntirish kerak. O'zing ham bilasan, bular hammasi kazak... Hushyor bo'lmasang, ish chatoq.

Shtokman komissarning nasihatlariga quloq solib turdi-da, niho-yat, sarg'aygan ko'zlariga tikilib.

— Bu gaplarning hammasiga meniyam aqlim yetadi, tushuntirishning hojati yo'q, — dedi kulimsirab. — Yaxshisi, sen menga manavi-ni ayt: Bukanovdagi komissar qanaqa odam o'zi?

Komissar kalta qilib qirqilgan kulrang mo'ylovini silab, bo'shashib javob berdi:

— Baʼzan haddan oshirib yuborgan joylari boʻldi. Oʻzi chakki yigit emas, biroq siyosatdan noʻnqroq: vaziyatni tushunmaydi. Nimasini soʻraysan, oʻrtoq, xatosiz odam bormi?... Hozir stanitsalardan erkaklarni terib olib, Rossiyaning ichkariroq joylariga joʻnatyapti... Sen zavxoz (xoʻjalik boʻlimi mudiri)ga uchrashgin, sizlarni ovqatga qoʻshib qoʻyadi, — dedi komissar; u hadeb yuzlarini bujmaytirar, yogʻi chiqqan paxtali shimi ustidan biqinini silardi.

Ertalab trevoga berilishi bilanoq 2-batalyon miltiq ushlab saf tortdi, yoʻqlama boshlandi. Bir soatdan keyin batalyon poxod tartibida Krutov qishlogʻiga joʻnadi.

Toʻrttadan saf tortgan kolonnaning bir qatorida Shtokman, Koshevoy, Ivan Alekseyevich baravar qadam tashlab borishardi.

Krutovdan Donning narigi betiga otlq razvedka yuborildi. Razvedkaning ketidan kolonna ham Dondan oʻtdi. Muzlagan yerlar erib, goʻnglar qorishib balchiqqa aylangan, yoʻllarni halqob suv bosib ketgan, Donni qoplagan muz xiralashib, ilma-teshikka aylangan. Muzi erigan baʼzi joylarning suvi chetan devorlarni bosib ketgan edi. Batareya togʻdan turib, Yelan qishlogʻining narigi tomonidagi terakzorni toʻpga tutardi. 2-batalyon kazaklar tashlab ketgan Yelan qishlogʻiga kirmasdan toʻgʻri Yelan stanitsasiga borish va Bukanov tomonidan kelayotgan 1-batalyonning rotasi bilan aloqa bogʻlab, Antonovo qishlogʻini ishgʻol qilishi kerak edi. Oldindan tuzilgan rejaga muvofiq 2-batalyonning komandiri oʻz odamlarini Bezborodov qishlogʻi tomon boshlab borishi zarur edi. Koʻp oʻtmay, otlq razvedka «Bezborodovda dushman yoʻq, lekin qishloqdan toʻrt chaqirim oʻngroqda tinimsiz otishma ketyapti», — degan xabar topib keldi.

Kolonnadagi qizil askarlar tepasidan toʻp oʻqlari juda-juda balandlab, qaldir-quldur qilib uchib oʻtardi. Oʻq parchalari atrofga tushib yerning titigʻini chiqarardi. Orqa tomonda qarsillab muz yorilardi. Ivan Alekseyevich burilib qaradi:

— Suv koʻpayganga oʻxshab qoldi, — dedi.

— Bunday paytda esini yegan odam Dondan oʻtadi. Hade may, muz koʻchadi, — dedi poʻngʻillab Mishka. U piyoda yurishga oʻrganmaganidan oyogʻini baravar tashlolmay xunob boʻlardi.

Shtokman oldida ketayotgan qizil askarlarning yelkalariga, kammar bilan mahkam tangʻilgan bellariga, miltiq uchiga qadab qoʻyilgan



ko'kish nayzalarning bir maromda tebranishiga qarab borardi; ketiga burilib qarardi: ba'zisi jiddiy, ba'zisi beparvolik bilan ketayotgan qizil askarlarni, biri-biriga o'xshamagan va ayni zamonda birini biridan ajratib bo'lmaydigan chehralarni tomosha qilar, besh qirrali, qizil yulduz taqqan shapkalarining chayqalishiga, xilma-xil eski-tuski, yangi shinelarning qimirlashiga qarab borardi; yuzlab etiklarning baravar chalpchulp qilib og'ir qadam tashlagani, odamlarning shivirlashib gaplashgani, oldinma-keyin yo'talgani, suvdonlarning taraqlagani qulog'idan, ivigan etiklarning sassig'i, charm va tamaki hidi dimog'idan ketmasdi. Ko'zini chala yumib, qadamini adashtirmaslikka harakat qilar, ko'ngli erib, mana shu yonida ketayotgan azamatlarga, unga na jigar, na qarindosh bo'lgan shu notanish yigitchalarga mehri tovlanib, xayol surardi: «Qiziq: bu yigitlar shu topda ko'zimga judayam issiq ko'rinib ketdi, ularga bunchalik rahmim kelib, ixlosim oshganiga sabab nimaykin! Oramizda qanday bog'lanish bo'lishi mumkin? Xo'p, tushunchamizning birligi deylik... Yo'q, masala yolg'iz tushunchada emas, ishimiz ham bitta. Yana-chi? Balki xavf-xatar yaqinligi, ajal hidi kelayotgani ham bunga sababdir. Bular o'z ukalarimga o'xshaydi-ya» — deb turib ko'zi yoshlandi-da. — «Nahotki halitdan qarigan bo'lsam-a? — deb jilmaydi.

Shtokman oldida ketayotgan qizil askarning keng yag'rinini, yoqasi bilan shapkasi orasidan ko'rinib turgan qip-qizil va top-toza bo'ynini otalik mehri bilan tomosha qildi-da, yonidagi odamga burilib qaradi. Qoramag'izdan kelgan bu yigitning soqoli olingan, ikki beti olmaday, og'iz-burni kelishgan, o'zi novcha bo'lsa ham, nihoyatda xushbichim edi; yurganda bo'sh qo'lini qimirlatmas, bir yeri og'riyotganday haddeb ijirg'anaverardi, ko'zlarining ikki chetini, qarimay turib, ajin bosib ketgandi. Shtokmanning u bilan gaplashgisi keldi.

— Qachondan beri armiyadasan, o'rtoq?

Qizil askar quralay ko'zlari bilan Shtokmanga bir qarab qo'ydi-da:

— O'n sakkizinchi yildan beri, — dedi sovuqqina qilib. Uning sipolik bilan javob berishidan Shtokman ranjimadi ham.

— Qayerda tug'ilgansan?

— Hamshaharingni izlab yuribsanmi deyman?

— Hamshaharimni uchratsam jon derdim.

— Moskvalikman.

— Ishchimisan?

— Ha.

Shtokman uning qo‘liga ko‘z qirini tashladi. Yillar o‘tgan bo‘lsa ham temirning izlari qo‘lidan ketmagandi.

— Metallistmisan?

Quralay ko‘zlar Shtokmanning yuziga, oq oralagan soqoliga yana bir karra qarab chiqdi.

— Tokarman. Sen ham tokar bo‘lsang kerak? — quralay ko‘zlari jiddiyligini yo‘qotib jilmaydi.

— Men slesar edim... Nega hadeb ijirg‘anyapsan, o‘rtoq?

— Etigim qotib qolibdi. Kechasi pistirmada ivib ketgan edi.

— Yuraging cho‘chimayaptimi? — o‘smoqchilab so‘radi Shtokman kulib.

— Nimadan cho‘chiydi.

— Hademay jangga kiramiz...

— Men — kommunistman.

— Nima, kommunistlar o‘limdan qo‘rqmasmishmi? Yo ular temirdan yasalganmi? — deb gapga aralashdi Mishka.

Qizil askar epcillik bilan miltig‘ini o‘nglab oldi-da, o‘ylanib turib, Mishkaga qaramasdan javob qaytardi:

— Sen hali, ukajon, bunday ishlarda g‘o‘rlik qilasan. Men qo‘rqmasligim kerak. O‘zimga o‘zim: qo‘rqmaysan! — deb buyurganman, shunga ahd qilganman. Tushundingmi? Qo‘lingni yuvmasdan qo‘ynimga qo‘l solaman deb ovora bo‘lmasin... Kim bilan nima uchun jang qilayotganimni o‘zim bilaman. Biz, albatta, yengamiz, buni ham bilaman. Shunisi kerak bizga. Bundan boshqasining bir pullik ahamiyati yo‘q. — Allaqanday bir narsa esiga tushib, u kulimsiradi-da, Shtokmanga ko‘z qirini tashlab gapida davom etdi: — Bultur men Krasavsev otryadida Ukrainada edim, og‘ir janglar bo‘ldi. Dushman bizni orqaga surib kelaverdi. Talafot ko‘p. Yaradorlar yo‘lda qolib ketdi. Jmerinkaga yaqin joyda dushman bizni qurshovga oldi. Temir yo‘l bo‘ylab chekinishdan boshqa iloj yo‘q, bronepoyezdni o‘tkazmaslik uchun, qanday bo‘lmasin kechasi oqlar orasidan o‘tib, ularning orqa tomonidagi ko‘priknı portlatish kerak edi. Qani talabgor? Talabgor yo‘q. Kommunistlar o‘zaro maslahatlashib: «Chek tashlab ko‘raylik, kimga chiqsa, toleyidan», — deyishdi, biroq bizlar oz edik. Men

o'ylab ko'rib, borishga qaror qildim. Portlatuvchi dori, shnur, gugurt oldim-da, o'rtoqlarim bilan xayrlashib, ketdim. Tun qorong'i, hamma yoq tuman. Yuz sarjinch a yurgandan keyin emaklay boshladim. Oldin o'riqsiz qolgan qora bug'doy orasidan, so'ngra jar ichi bilan emaklab boraverdim. Jordan chiqib kelayotsam, tumshug'im tagidan parillab allaqanday bir parranda uchib chiqsa bo'ladimi! Voy qurg'ur-e! Posbon turgan joydan o'n sarjin nariroqdan o'tdim, emaklaganimcha ko'prikk a yetib oldim. Ko'prikn i pulemyotchilar qo'riqlashayotgan ekan. Ikki soatcha payt poylab yotdim, nihoyat, dorini joyladim-da, etagimni pana qilib gugurt chaqay desam, savil ivib qolibdi, qani yonsa... Bag'rimni yerga berib emaklab kelayotganimda shabnamdan egnim jiqqa ho'l bo'lib, gugurtning dorisi namiqibdi... Ana o'shanda meni vahima bosib qo'rqqanim rost, amaki. Tong o'tay deb qolgan, qo'llarim qaltiraydi, terdan ko'zlarimni ocholmayman. «Ish rasvo bo'ldi... Agar portlatolmasam, o'zimni otib o'ldiraman!» — degan qarorga keldim. Qiynala-qiynala axiri bir amallab yondirdim-u, qochdim. Ko'tarmaning naryog'idagi to'siq tagiga yotib oldim, shu payt ko'prik gumburlab portladi-yu, qiy-chuv, to'polon ko'tarildi. Trevoga. Ikki pulemyotdan baravar o't ochishdi. Yonimdan ketma-ket ancha otliqlar chopib o'tishdi, kechasi qorong'ida meni topib bo'pti! O'rnimdan turdim-u, lip etib bug'doyzorga kirdim. Lekin shu yerda qo'l-oyog'im shol bo'ldi-qoldi, qani qimirlasa! Iloj yo'q, yotdim cho'zilib. Borishda tap tortmay boruvdim, qaytishda... Qaytishda... Ko'nglim lohas bo'lib biram qusdimki, asti qo'yavering! Ichimda hech narsa qolmaganday tuyuladi-yu, bari-bir ko'nglim aynaydi, deng. Ana, xolos!.. Haytovur, bir amallab sheriklarim yoniga yetib oldim. — Qizil askar endi qizishib ketdi, jonlanib quralay ko'zlari chaq nab ketdi, chiroyiga chiroy qo'shildi. — Ertalab jangdan keyin o'rtoqlarga gugurt yonmaganini gapirsam, og'aynim: «Zajigalkang bor edi-yu, Sergey yoki yo'qotganmisan?» — deydi. Ko'krak cho'ntagimni qarasam, turibdi! Olib chaqib ko'rdim, xoh ishoning, xoh ishonmang, lop etib yondi.

Olisdagi terakzordan shamol quvgan ikki qarg'a osmonda o'qday uchib kelardi. Shamol ularni u yoqdan bu yoqqa chayqatar edi. Qarg'alar kolonna tepasiga yetishiga yuz sarjinch a joy qolganda, Krutov tog'ida bir soatdan beri jim yotgan to'p yana gumburladi; to'p o'qining qaldir-

qulduri tobora yaqinlashib avjiga chiqqan paytda, balandroqda uchib kelayotgan qarg'a xuddi shamol uchirgan payraha singari to'satdan havoda charx urib qoldi, jon halpida o'zini o'nqlab olmoqchi bo'lib urinsa ham qanotlari qayrilib, sho'ng'iganicha burala-burala qop-qora bo'lib tushib kelaverdi.

— Ajali yetgan ekan! — deb zavqlandi Shtokmanning ketida kelayotgan qizil askar. — Charxpalak qilib yubordi-ya, qoyilman!

Qora-to'riq biya mingan rota komandiri erigan qorni sachratib kolonnaning bosh tomonidan ot choptirib keldi-da:

— Yoyil! — deb baqirdi.

Pulemyot o'rnatilgan uch chana indamay ketayotgan Ivan Alekseyevichning ust-boshiga qor sachratib, yonidan o'tib ketdi. Keyingi chana o'tirgan pulemyotchilardan biri qiyalikda chanadan uchib tushdi; aravakash so'kina-so'kina, epchillik bilan otlarni qaytarib kelguncha va yiqilgan pulemyotchi chana to'xtamayoq qayta minib olguncha, qizil askarlar rosa maza qilib hoholab kulishdi.

## XLI

Kargin stanitsasi qo'zg'olonchilarning 1-diviziyasi uchun tayanch punkt bo'lib qoldi. Grigoriy Melexov Kargin atrofidagi yerlarning strategiya jihatdan qulayligini yaxshi tushunib, qanday bo'lmasin, uni qo'ldan bermaslikka ahd qilgan edi. Chir daryosining chap qirg'og'i bo'ylab ketgan tog'lardan hamma yoq kaftday ko'rinardi, mudofaa uchun kazaklarga qulaylik berardi. Pastda, Chirning narigi qirg'og'ida Kargin stanitsasi joylashgan, uning narigi yog'i esa necha chaqirimlab joygacha cho'zilgan baland-past dasht, dashtni unda-munda soy va jarlar kesib o'tgan. Grigoriy o'zi tog' orasidan uch to'prik batareya uchun joy tanladi. Uning yonginasida atrofni kuzatib turish uchun qulay joy — to'rt yog'i eman daraxtlari va tepalar bilan o'ralgan, qadimdan qolgan baland qo'rg'oncha bor edi.

Karginning yonida har kun jang borardi. Qizillar har doim ikki tarafdin hujum qilishardi: bir qism janubdan — ukrainlar yashagan Astaxovo slobodasi tomondan, ikkinchi qismi sharqdan — Bokov stanitsasidan Chirning yuqorisiga qarab cho'zilib ketgan qator-qator

qishloqlar ichi bilan bostirib kelaverishardi. Kazaklar Kargindan yuz sarjin chamasi orqaroqda yoyilib yotib olib, onda-sonda o'q uzishar edi. Qizillarning shiddatli o'q yog'dirishiga bardosh berolmay, ular har doim stanitsaga va o'shanaqasi tikka ketgan tor jarlar ichi bilan tog' tomonga chekinishardi. Kazaklarni yana nari surib borish uchun qizillarda yetarli kuch yo'q edi. Olisdan aylanib o'tib ikki qanotdan siqib kelib kazaklarni yanada chekinishga majbur qilish, dushmanni chalg'itib turib, stanitsa yonida bekor yotgan o'z piyoda askarlariga yo'l ochib berish uchun yetarli darajada suvoriy qismlar kerak edi. Qizillarda esa yetarli miqdorda otliq askar yo'q edi, bu narsa qulaylik bermas edi. Piyoda askarlarda tezlik va epchillik bilan harakat qilish qobiliyati bo'lmagani uchun bu xil og'ir operatsiyalarga ularni solib bo'lmadi, chunki kazaklarda suvoriylardan ko'p bo'lib, istagan vaqtda ular piyoda askarlarga hujum qilib, asosiy vazifani bajarishlariga xalal berishi mumkin edi.

Qo'zg'olonchilarning yana bir ustunligi shunda ediki, ular bu atrofni yaxshi bilganlari uchun paytini topib turib, otliq bo'linmalarni jarlar ichi bilan qizillarning ikki qanotiga, orqa tomoniga yuborishar, olg'a siljishga imkon bermay, doim ularga tahlika solib turishardi.

O'sha kezlari Grigoriy qizillarni tor-mor qilish rejasini o'ylab chiqqan edi. U yolg'ondan chekingan bo'lib, qizillarni aldab Karginga kirgizib olmoqchi, Ryabchikov bilan bir polk otliq askarni yuborib, ham g'arb tomondan — Gusin jaridan, ham sharqdan — Grachi jaridan qurshovga olib, qaqshatqich zarba bermoqchi edi. Bu reja puxta ishlab chiqildi. Kechqurun majlisda har bir qism komandiriga kerakli yo'l-yo'riq va buyruq berildi. Grigoriyning fikricha, dushmanga sezdirmaslik uchun tong yorishganda qo'zg'alib, jarlardan o'tib olish kerak edi. Qilinadigan ish aniq va ravshan edi. Grigoriy, yana qanday tasodiflar uchrashini, rejani bajarishga xalaqit berishi mumkinligini yaxshilab o'ylab chiqdi-da, ikki stakan samogonni ichib olib, ho'l shinelining etagini boshiga burkaganicha, yechinmasdan karavotga cho'zildi-yu, qotib qoldi.

Ertasi kuni sahar paytida qizil askarlar Karginga kira boshladi. Kazak piyoda askarlarining bir qismi ko'z chalg'itish uchun jo'rttaga stanitsani tashlab toqqa qochdi; Karginga kiraverishda to'xtab qolgan ikki

tachankadagi pulemyotchilar otlarini shartta burib, ularni pulemyotdan o'qqa tutdilar.

Qizillar stanitsa ko'chalariga asta-sekin kirib kelaverdilar.

Grigoriy qo'rg'onning orqa tomonida, to'plar yonida edi. U qizilarning piyoda askari Karginni egallab, Chir bo'yiga to'plana boshlaganini olisdan ko'rib turardi. Birinchi to'p otilishi bilan tog' etagidagi bog'larda biqinib yotgan ikki yuz kazak hujumga o'tadi. Aynan shu vaqtda jarlar ichidagi Ryabchikovning polki ikki yondan siqib kelaveradi deb kelishib qo'yilgan edi. Batareya komandiri tepadan Karginga qarab o'qday uchib tushayotgan tachankani to'pga tutmoqchi bo'lganda, atrofni kuzatib turgan kazak, uch yarim chaqirim naridagi Nijne-Latishev qishlog'idagi ko'prik ustida to'plar ko'rindi, degan xabarni keltirdi. Qizillar ayni bir vaqtda Bokov tomondan ham hujumga o'tgan edilar.

Grigoriy Seyss durbinidan ko'zini olmay:

— Bularni mortirdan o'qqa tutish kerak, — deb maslahat berdi.

Navodchik batareya komandiri vazifasini bajarayotgan voxmistr bilan ikki og'iz gaplashib oldi-da, tezda mo'ljalni to'g'riladi. To'pchilar tayyor bo'lishdi: kazaklar «To'rt yarim dyumalik» deb nom qo'ygan mortirka gumburlatib o't ochdi-da, tisarilib dumi bilan yerni o'yib yubordi. Birinchi o'q ko'prikning chetiga borib tushdi. Qizillarning ikkinchi to'pi endi ko'prikka qadam qo'ygandi. O'q to'pga qo'shilgan otlarni dabdala qildi, keyinchalik bitta ot tirik qolgani aniqlandi, lekin o'q parchasi bu otni minib kelayotgan to'pchining boshini cho'rt uzib tashlagan edi.

Grigoriy qizillar to'pining oldida lop etib ko'tarilgan sarg'ish-ko'k tutunni ko'rdi, gumburlab portlagan ovozni eshitdi; otlar tutun ichida osmonga sapchidilar-u, ag'darilib tushdilar; yugurishgan, qulagan odamlar ko'rindi. O'q tushgan mahalda to'p oldida kelayotgan otliq qizil askar ot-poti bilan, ko'prik panjarasi bilan qo'shilib muz ustiga ag'darilib tushdi.

To'pchilar o'qning mo'ljalga shu qadar to'g'ri borib tushishini kutmagan edilar. To'p o'rnatilgan qo'rg'on bir lahza sukunatda qoldi; yolg'iz shu yaqinda turgan kuzatuvchi cho'kkalab turib olib, allanima deb baqirar va qo'llarini silkitardi.

O'sha zahoti past tomondan, qalin olchazor va chor-bog'lar orasidan poyma-poy «ura» sadosi, tasira-tusur otilgan o'qlarning ovozi

keldi. Grigoriy o'zini ehtiyot qilishni butunlay unutib, qo'rg'on ustiga chopib chiqdi. Qishloq ko'chalarida qizil askarlar yugurishar, o'sha yoqdan g'ovur-g'uvur sadolar, chinqirib komanda bergan ovozlari kelar, baravariga otilgan o'q tovushlari eshitilardi. Pulemyot tachankalaridan biri do'ngga chopib qochmoqchi bo'ldi-yu, lekin o'sha zahotiyoy qabriston yonidan shartta burildi-da, goh yotib, goh turib chopib kelayotgan qizil askarlarning boshidan oshirib, bog'lardan yopirilib kelayotgan kazaklarni o'qqa tutdi.

Grigoriy ufqqa harchand tikilib qarasa ham, otliq kazaklar ko'rinmasdi. Ryabchikov qo'l ostida bo'lgan suvoriylardan darak yo'q edi. Chap qanotdagi qizil askarlar Kargin bilan Arxipov qishlog'i o'rtasida bo'lgan Zaburunniy jarining ichidan ko'prik tomon chopib kelishardi, lekin o'ng qanotdagilar stanitsa bo'ylab yugurishar va Chir daryosiga yaqin ikki ko'chani egallagan kazaklarning o'qlari ostida dumalashardi.

Nihoyat, do'ng orqasidan Ryabchikovning birinchi sotnyasi ko'rindi, uning ketidan ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi sotnyalar chiqib kelaverdi. Sotnyalar yoyilib borib shartta chapga burildi-da, tog' etagidan Klimovka tomon to'p-to'p bo'lib qochayotgan qizil askarlarning oldidan to'sib chiqdi. Grigoriy qo'lqopini mijig'lar, jangning keti nima bo'lishini bilgisi kelib, hovliqardi. U endi durbinni tashlagandi: Ryabchikovning suvoriylari quyunday uchib Klimovka yo'lga yaqinlashayotganini, qizillar sarosimalikda iziga qaytib, har qaysisi o'z holligacha Arxipov qishlog'ining hovllilarini mo'ljallab qochganini, u yoqdan Chir bo'ylab kelayotgan piyoda kazak askarlarning o'qlariga duch kelib, yana yo'lga qochib chiqayotganini durbinsizyoq ko'rib turardi. Qizil askarlarning juda oz qismi Klimovkaga qochib qutula oldi.

Tepa ustida ajalning bozori qizidi. Ryabchikovning sotnyalari yoyilib borib, Kargin tomonga burildi-da, xazonlarni uchirgan shamolday, qizillarni oldiga solib hayday boshladi. O'ttiztacha qizil askar qurshovda qoldi va qochishga yo'l yo'qligini bilgach, Zaburun ko'prigi yonida o'zlarini himoya qilib otisha boshladi. Ularda stanok pulemyoti va ancha zapas lentalari bor edi. Bog'lar orasiga joylashgan qo'zg'olonchi piyoda kazak askarlarning qorasi ko'rinishi bilan pulemyot darhol tarillab o't ochardi, ba'zi kazaklar qular, ba'zilari emaklab qochishar, omborxonalar orqasiga va xarsang devorlar panasiga o'zlarini olishar-

di. Kazaklarning Kargin bo‘ylab o‘z pulemyotini shosha-pisha sudrab kelayotgani do‘ngdan bemalol ko‘rinib turardi. Arxipovka qishlog‘iga tutashgan eng chetki hovli yonida ular negadir birpas to‘xtab qolishdi, so‘ngra yugurib hovliga kirib ketishdi. Sal o‘tmay o‘sha hovlidagi omborxonadan tomidan tarillagan ovoz chiqdi. Grigoriy durbinga qarab pulemyotchilarni ham ko‘rdi: chalvar pochalari oq paypoq qo‘njiga qistirilgan bir pulemyotchi oyoqlarini kerib yotib olgandi, ikkinchisi — pulemyot lentalarini beliga o‘rab olib, narvondan chiqayotgan edi. To‘pchilar pulemyotchilarga yordamlashishga jazm qilishdi. Bir joyga to‘planib olib qarshilik ko‘rsatayotgan qizillar ustiga shrapnel-dan o‘q yog‘dirishdi. Eng so‘nggi to‘p o‘qi qishloqdan ancha nariga borib yorildi.

Chorak soatdan keyin Zaburun yonidagi qizillar pulemyotining ovozi birdaniga o‘chdi, o‘sha zahotiy oq «ura» sadosi ko‘tarildi. Yaydoq tollar orasidan otliq kazaklar qorasi ko‘rindi.

Jang-u jadal tamomiga yetgan edi.

\* \* \*

Grigoriyning buyrug‘iga binoan chopib o‘ldirilgan bir yuz qirq yettita qizil askarning jasadini Kargin va Arxipovka qishloqlarining aholisi changaklar bilan sudrab Zaburun yonidagi bir chuqurga tashladilar, ustidan naridan beri tuproq tortib qo‘ya qoldilar. Ryabchikov patron ortilgan oltita ikki g‘ildirakli aravani qo‘shilgan otlari va patronlari bilan hamda bitta tachankani qulfsiz pulemyoti bilan qo‘lga tushirdi. Klimovkada harbiy anjom ortilgan qirq ikki arava o‘lja oldi. Kazaklardan to‘rt kishi halok bo‘lgan, o‘n besh kishi yarador bo‘lgan edi.

Shu jangdan keyin bir haftagacha Kargin jimjit bo‘lib qoldi. Qizillar o‘z kuchini qo‘zg‘olonchilarning 2-diviziyasi ustiga tashladi, tez orada uni surib borib, Migulin stanitsasiga qarashli Alekseyev qishlog‘ini, Chernets slobodasini ishg‘ol etib, Yuqori Chir qishlog‘iga yaqinlashdi.

Har kuni erta tong mahalida o‘sha yoqdan gumburlab to‘p ovozlari eshitilar, biroq janglarning borishi to‘g‘risidagi ma’lumot doim kechikib kelganligidan 2-diviziya turgan joydagi ahvolning qandayligini aniq bilib bo‘lmasdi.



Grigoriy o'zini ovutish, miyasiga keladigan har xil vahimali fikrlardan qutulish uchun, o'zi ishtirokchisi bo'lgan hodisalarni o'ylamaslik uchun shu kunlarda jo'rtaga icha boshlagan edi. Bug'doy zapasi mo'lligiga qaramay, qo'zg'olonchilar un masalasida qattiq qiynalishardi (tegirmonlar armiya uchun un tortib ulgurolmas, hattoki kazaklar bug'doy bo'tqasi bilan kun ko'rishardi), lekin samogon nihoyatda serob, oshib-toshib yotardi. Bir kuni dudarevlik kazaklar o'lgudek ichib olib mast-alast holda Donning naryog'ida pulemyotlarga qarshi ot solib hujum qilishgan, yarmi qirilib, yarmi arang qutulgan edi. Mast holda pozitsiyaga borish hodisalari kun sayin uchrardi. Laganbardorlik qilib Grigoriyga samogon topib kelaverishardi. Ayniqsa Proxor Zikov samogon topishda iskovichdan qolishmasdi. Kargindagi jangdan keyin u, Grigoriyning iltimosiga ko'ra, uch xumcha samogon topib keldi, ashulachilarni to'pladi; Grigoriy og'ir xayol-u achchiq haqiqatdan: qutulishiga suyunib, kazaklar bilan kayf-safo qilib oppoq tong ottirdi. Ertalab bosh og'riq qildi; ketidan yana ichdi, kechga yaqin yana ashulachilarni chaqirtirdi: xushchaqchaq qiyqiriqlarni, tapira-tupur o'yin tushishlarni, ishqilib, bir dam bo'lsa ham kayf-safo ichida og'ir va achchiq haqiqatni unutib, bazm qurishni ko'ngli tusab qoldi.

Bora-bora ichkiliksiz turolmaydigan darajaga yetdi. Ertalab ovqat yemoqchi bo'lib dasturxon tepasiga kelib o'tirganda tomog'i taqirlab qolardi. U ko'p ichar va lekin me'yoridan oshirib yubormas, har doim oyog'ini bilib bosardi. Hattoki ertalabga borib ulfatlari o'lguday mast bo'lib, biri u yoqda, biri bu yoqda qusib, shinel-u yopiqqlarga o'ralib dumalab qolgan paytlarda ham Grigoriy kayfi borligini sezdirmasdi, faqat rangi battar oqarib, ko'zlari ichiga tushib ketardi, jingalak sochlarini osiltirib, boshini changallab o'tirardi.

To'rt kun surunkasiga davom etgan bazmdan keyin uning yuzlari salqib, gavdasi bukchayinqirab qoldi; ko'z ostlari ko'karib, xalta-xalta bo'lib osilib tushdi, odamni yeb qo'yguday tikiladigan bo'lib qoldi.

Beshinchi kuni Proxor Zikov tagdor qilib iljayib:

— Lixovidovda bir yaxshi juvon borakan, o'shanikiga bormay-mizmi? — dedi. — Xo'p, deya qol! Lekin bo'sh kelmaysan, Grigoriy Panteleyevich. O'ziyam xotinmisan xotin-da, asaldan shirin! Biroq qitq pati o'lmagan, judayam asov! Bundaylar darrov ko'na qolmaydi, silatganiyam unamas deyman. Lekin samogonini aytmay qo'ya qol.

Chir atrofida unday samogon qiladigan yo‘q. Eri Donets tomonga qochib ketgan ekan, — dedi tagdor qilib Proxor.

Kechga tomon Lixovidovga jō‘nadilar. Grigoriyga Ryabchikov, Xarlampiy Yermakov, qo‘li cho‘ltoq Alyosha Shamil va o‘z uchastkasidan kelgan to‘rtinchi diviziya komandiri Kondrat Medvedev hamroh bo‘lishdi. Proxor Zikov oldinda borardi. Qishloqqa yetgach u otini sekinroq yurgizib, tor ko‘chaga burildi-da, g‘aram darvozasini ochdi. Grigoriy uning ketidan otini «chu» degan edi, darvoza oldida uyulib yotgan yumshoq qordan sakrab o‘tayotib ot oldingi oyoqlari bilan qorga kirib ketdi, so‘ngra pishqira-pishqira o‘rnidan turib, darvoza va ustigacha qorga ko‘milib qolgan chetan devordan o‘tib oldi. Ryabchikov otdan tushib, otini yetaklab olib o‘tdi. Besh daqiqa chamasi Grigoriy bilan Proxor poxol-u pichan g‘aramlari yoni bilan, so‘ngra taraqlagan ship-shiydam olchazor ichi bilan yurib ketdilar. Oltin o‘roqqa o‘xshash yangi oy qiyshayib ko‘m-ko‘k osmondan mo‘ralar, yulduzlar lip-lip etib jimirlashardi, hamma yoq jimjit, faqat olislarda akillagan itlar tovushi bilan ot tuyoqlarining taraqlashi eshitilar, lekin bular sukunatni buzmas, qaytaga kuchaytirardi. Olcha daraxtlari va tarvaqaylagan olma shoxlari orasidan yorug‘ tushib turar, yulduzlar charaqlagan osmon fonida tomiga qamish yopilgan kattakon uyning qorasi ko‘rinardi. Proxor egardan engashib, eshikni g‘ijirlatib ochdi. Zina yonida, muzlab qolgan xalqob suvda oy aksi jimirlashdi. Grigoriy mingan ot tuyog‘i bilan ko‘lobchanning chetidagi muzni sindirib to‘xtadi-da, hansirab nafas oldi. Grigoriy otdan tushdi, tizginni panjaraga bog‘lab, qorong‘i dahlizga kirdi. Tashqarida Ryabchikov bilan kazaklarning tapir-tupur otdan tushgan va xirgoyi qilib ashula boshlagani eshutilardi.

Grigoriy timirskilab eshikni topdi, kenggina yemakxonaga kirdi. Bo‘yi past bo‘lsa ham o‘zi suqsurday, qoramag‘izdan kelgan qoraqosh juvon pechga orqasini o‘girib, turgan joyida paypoq to‘qirdi. Pech ustida o‘n yashar chamasida, novvotrang sochli bir qizcha qo‘llarini ikki yoqqa tashlab uxlab yotardi.

Grigoriy yechinmasdan stol yoniga borib o‘tirdi.

— Arog‘ing bormi?

— So‘rashish lozim emasmi? — dedi juvon Grigoriyga qaramasdan, uning qo‘llari boyagiday sanchiqlarni tez-tez o‘ynatardi.

— Unday bo'lsa — salom! Arog'ing bormi?

Juvon kipriklarini ko'tarib, qop-qora ko'zlari bilan Grigoriyga jilmaydi-da, dahlizdagi tapir-tupur, g'ovur-g'uvur tovushlarga quloq solib turdi.

— Aroq-ku, topiladi... Menga ayt-chi: qancha odam tunamoqchi?

— Butun diviziya..

Qilichi sudralgan Ryabchikov ostonadanoq qo'njiga shapatilab, o'yin tushib kelaverdi. Kazaklar eshik oldiga to'planib olishdi: biri yog'och qoshiqlarni taraqlatib o'yinga monand qilib chala boshladi.

Shinellar karavotga uyildi, miltig'-u qilichlar so'ri ustiga taxlandi. Proxor bekaga qarashib, epchillik bilan dasturxon yozdi; qo'li cho'ltoq Alyosha Shamil tuzlagan karam olib chiqmoqchi bo'lib yerto'лага yugurdi, tushayotib shotisidan dumalab ketdi, nihoyat, bir etak ho'l karam bilan likopning siniqlarini olib keldi.

Yarim kechgacha ikki chelak qo'lbola aroqni ichib, qanchayam karamni yeb bo'lgach, qo'y so'ymoqchi bo'lishdi. Proxor qorong'i qo'yxonada timirskilab-timirskilab, axiri qisir sovliqni ushladi; qilich-bozlikda nom chiqargan Xarlampiy Yermakov bostirma tagida qilich bilan qo'yning kallasini shartta oldi-da, o'sha yerdayoq tarashlab berdi. Uy bekasi pechga o't qaladi, katta qozon osib go'shtni soldi.

Qoshiqlar taraqlab yana raqs kuyini chala boshladi, Ryabchikov oyoqlarini bilanglatib, qo'njiga shapatilab o'yinga tushdi, ingichka, mayin ovoz bilan ashula boshladi:

*Na qoqqanda qoziq qoldi,  
Na osganda — xurmacha,  
Navbat keldi ichmoq uchun  
Ertalabdan kechgacha.*

— Aysh qilgim kelyapti! — deb bo'kirardi Yermakov; u qilich uchi bilan deraza romini turtib, mustahkamligini bilmoqchi bo'lardi.

Yermakovni nihoyatda botirligi va chavandozligi uchun yaxshi ko'rgan Grigoriy mis krujka bilan stolni taqillatib:

— Xarlampiy, jinnilik qilma! — derdi. Xarlampiy darhol itoat etib, qilichini qiniga soldi-da, stakandagi samogonni shimira boshladi.

— Shunaqa bazmdan keyin o'lsang armonsiz ketasan, — derdi Alyoshka Shamil Grigoriyning yoniga o'tirib. — Grigoriy Panteleye-

vich, sen bizning ishongan tog'imizsan. Olamda sen bor — biz bor!  
Qani, yana bittadan ko'taraylik-a?.. Proxor, aroq!

Egari olinmagan otlar g'aramdagi pichanga qo'yib yuborilgandi.  
Navbatma-navbat chiqib xabar olib turishardi.

Tongotar mahalga yaqin Grigoriy kayfi oshib qolganligini sezdi.  
Sheriklarining gapi xuddi olisdan kelayotganday, qulog'iga arang ki-  
rardi, qizargan ko'zlarini arang ochib o'tirar, butun irodasini bir yerga  
to'plab, esini yo'qotmaslikka harakat qilardi.

— Yana tilla pogonliklar yelkamizga minyapti! Hukumatni qo'lga  
olvolishdi! — deb bo'kirdi Yermakov Grigoriyni quchoqlab.

Grigoriy uning qo'lini itarib:

— Qanaqa pogonliklar? — deb so'radi.

— Vyoshkidagilar-chi! Nima, o'zing bilmaysanmi? Kavkaz-  
lik kenas! Polkovnik!.. Uni o'ldiraman! Melexov! Joningni ber de-  
sang — tayyorman, lekin bizlarni oyoqosti qildirma! Kazaklar orasida  
shov-shuv gap... Boshla bizni Vyoshkiga — hammasini qiramiz, kulini  
ko'kka sovuramiz! Ilyushka Kudinovniyam, polkovnikniyam — ham-  
masini o'ldiramiz! Yetar endi shunchalik laqillatishgani! Qizillar bilan  
ham jang qilaylik, kadetlar bilan ham! Mening maqsadim shu!

— Polkovnikni o'ldiramiz. U jo'rttaga shu yerda qolgan... Xarlam-  
piy! Sovet hukumatining oyog'iga yiqilib: tavba qildik, deya qolay-  
lik... — Grigoriy biroz o'ziga kelganday bo'lib tirjayib kuldi. — Men  
hazillashdim, Xarlampiy, ich.

— Nima uchun hazillashasan, Melexov? Hazilni qo'y, masa-  
la jiddiy, — deb aralashdi Medvedev. — Biz hukumatni o'zgar-  
tirmoqchimiz. Hammasini haydaymiz, hukumat tepasiga seni  
o'tqazamiz. Men kazaklar bilan gaplashib ko'rdim: hammasi rozi.  
Kudinovga, yonidagi zolimlarga yaxshilikcha aytib ko'ramiz:  
«Qani, hukumatni topshiringlar, bizga to'g'ri kelmadingiz», deymiz.  
Ko'nsa — yaxshi, ko'nmasa — Vyoshkiga ot solamiz, innaykeyin,  
o'zidan o'pkalayversin!

— Bo'ldi, bas qiling, bu gapni og'zingizga olmang! — deb baqirdi  
Grigoriy qattiq g'azablanib.

Medvedev kiftlarini qisdi-da, stol yonidan uzoqlashdi, ichishni  
yig'ishtirib qo'ydi. Ryabchikov sochlari hurpaygan boshini quyi solib,  
qo'li bilan iflos polni chizib burchakda ming'illab ashula qilib o'tirardi.

*Hoy bechora, sho'rlik bola,  
Boshing ko'tar, menga qara.  
Boshingni bur o'ng yoqqa,  
O'ng yoqqa-da, so'l yoqqa.  
Boshingni ko'ksimga bos,  
Bos shu oppoq quchoqqa.*

Uning xotinlar singari nola qilayotgan ingichka ovozigga Alyoshka Shamilning xirillagan yo'g'on ovozi jo'r bo'lib qo'shildi:

*U ko'ksimga bosh qo'ygach,  
Og'ir-og'ir xo'rsindi.  
Og'ir-og'ir xo'rsindi-yu,  
Menga qayrilib dedi:  
«Alvido, ey avvalgi  
Maza-matrasiz sevgi...»*

Ketidan yana qo'shib ketdi:

*«Meni rasvo etdi devona muhabbatim,  
Alvido, ey zolim, bevafo muhabbatim!..»*

Juvon Grigoriyni mehmonxonaga olib kirayotganda tong yorishib qolgan edi.

U bir qo'li bilan Grigoriyni arang suyab, ikkinchi qo'li bilan, bir krujka samogon ko'tarib ergashib kelayotgan Yermakovni itarardi:

— Bo'ldi-da, hadeb ichiraverasizmi, axir! Qochsang-chi, shilqim! Ahvoliga qara: bo'ganicha bo'pti-ku!

— Uxlaymizmi, endi! — dedi Yermakov ko'z qisib; u har gandi-raklaganda krujkadagi samogon chayqalib to'kildi.

— Ha, ha, uxlaylik, — dedi juvon.

— Sen hozir u bilan yotma, baribir...

— Huvuv tiling kesilsin, uyatsiz! Ko'zingni shira bosib og'zingga qaramay valdiraysan-a!

Juvon Grigoriyni uyga kirgizdi-da, karavotga yotqizdi.

G'ira-shira qorong'ida u goh nafratlanib, goh achinib Grigoriyning murdanikiday oqarib ketgan yuziga, hech narsani ko'rmagan ochiq ko'zlariga tikilib qaradi.

— Sharbat ichasanmi?

– Mayli, olib kel.

Juvon bir stakan muzday olcha sharbati keltirib berdi, so'ngra, karavotning bir chetiga o'tirib, to Grigoriyning ko'zi uyquga ketguncha paxmaygan sochlarini siladi. O'zi pech ustiga joy solib, qizchasi bilan yotdi, biroq Shamil uni uxlatmadi; u boshini tirsagiga qo'yib olib cho'chigan otday pishqirib xurrak otar, so'ngra birdaniga cho'chib uyg'onib, xirildoq ovozi bilan ashula qilishga tushardi:

*... Kazak qaytdi uyi-ga!  
Ko'ksi to'la po-gon-lar,  
Kiftlarida or-den-lar.*

So'ngra boshi shilq etib tushar, birpasdan keyin yana boshini ko'tarib u yoq bu yog'iga alanglab qarardi-da, yana cho'zardi:

*.... Kazak qaytdiii uyiga...*

## XLII

Ertalab, uyg'ongan zahotiy oq Yermakov bilan Medvedevning gaplari Grigoriyning esiga tushdi. Kechasi unchalik qattiq mast emasdi, shuning uchun hukumatni o'zgartirish to'g'risidagi gaplarning hammasi esida qolgan edi. Lixovidovdagi ichkilikbozlik muayyan maqsadda tashkil etilganligi endi unga ravshan bo'ldi: uni hukumatga qarshi chiqishga rozi qilmoqchi edilar. «Donets tomon borishimiz va Don armiyasi bilan qo'shilishimiz kerak» deb ochiqdan ochiq gapirib yurgan Kudinovga qarshi so'l fikrdagi kazaklar fitna qo'zg'atib yurishardi; ular Dondan uzil-kesil ajralib o'z yurtida Sovet hukumatiga o'xshash g'alati bir hukumat tuzishni orzu qilishardikim, bunda kommunistlar bo'lmasligi shart edi. Ular Grigoriyning o'z tomonlariga tortish payida edilar, biroq qo'zg'olonchilar orasida bunday ixtilof boshlanadigan bo'lsa, oqibat nimalarga olib kelishini tushunmasdilar, agar qizillarning Donets tomondagi fronti harakatga keladigan bo'lsa, ikkala tomonni ham birpasda dabdala qilib, «ixtilofni» ko'rsatib qo'yishi muqarrar edi. Grigoriy: «Bu bolalar o'yinidan boshqa gap emas», degan fikrni ko'nglidan o'tkazdi-da, irg'ib o'rmidan turdi. Kiyinib bo'lgach, Yermakov bilan Medvedevni uyg'otdi, mehmonxonaga chaqirib olib, eshikni mahkam yopib qo'ydi.

— Masala bunday, birodarlar: kechagi gaplarni butunlay miyangizdan chiqarib tashlang va minba'd shivir-shivirni yig'ishtiring, bo'lmasa ishlaring rasvo bo'ladi! Gap komandir kimligida emas. Masala Kudinovda ham emas, biz qurshovdamiz, atrofimizni qizillar temir halqaday o'rab olgan. Bugun bo'lmasa ertaga bu halqa bizni siqib, yanchib tashlaydi. Polklarni Vyoshkiga emas, Migulinga, Krasnokutskka boshlash kerak, — deb uqtirdi Grigoriy tumtayib, so'ngra sipolik bilan o'tirgan Medvedevdan ko'zini olmay gapida davom etdi. — Shunday bo'lsin, Kondrat, odamlarni qutquga solmang! Bunday miyani ishlatib ko'ring: agar qo'mondonni yaramaydiga chiqarib, o'zgarish yasayversak, asfalasofilinga ketamiz. Biz yo oqlarga, yo qizillarga qo'shilishimiz kerak. O'rtada qolish mumkin emas, majag'lab tashlashadi.

— Gap shu yerda qolsin, — deb iltimos qildi Yermakov yuzini teskari o'girib.

— Qozon yopig'ligicha qolsin... biroq sharti shuki, kazaklar orasida gap tarqatishni to'xtatingiz. Bilasizmi, Kudinov bilan yonidagi maslahatgo'ylarning holini? Ularda to'la huquq yo'q, men shu damgacha o'z bilganimni qilib kelyapman, ularga quloq solayotganim ham yo'q. Bilaman, hammasi yomon, bunga shubham yo'q, kadetlar bilan bizni yarashtirib qo'yishga ham aqlim yetadi. Xo'sh, endi nima qil deysan? Yurarga yo'limiz, borarga joyimiz qolmadi-ku, axir!

— Bunisi to'g'ri-ya... — deb zo'r-bazo'r uning gapiga qo'shildi Medvedev; suhbat boshlangandan beri u endi boshini ko'tarib, ayiqnikiday xunuk, qonga to'lgan bit ko'zlarini Grigoriyga ko'tarib qaradi.

Shundan keyin Grigoriy yana ikki kecha-yu ikki kunduz, Kargin atrofidagi qishloqlarda surunkasiga ichib, kayf-safo qildi. To'qim-u terliklarigacha samogon hidi urib qoldi. Juvonlar, navqironligini yo'qotgan qizlar bir kechalik ko'ngilxushligi uchun uning qo'yniga kirishga majbur edilar. Biroq tong otar, navbatdagi ayol bilan hirsini qondirgandan so'ng, ko'zlari moshday ochilardi. Grigoriy o'zini o'zi ovutmoqchi bo'lib: «Umrimda ko'p narsalarni boshdan kechirdim. Juvon-u qizlarni armonsiz o'ynadim, eng uchqur otlarni minib dashtma-dasht kezdin. Uh!.. Ko'm-ko'k osmon bag'rida yelday uchdim, farzand ko'rib suyundim, biroq ko'p odamning yostig'ini quritdim, o'zim ham ajal og'ziga kirib chiqdim. Yana qanday yangi hodisalarni ko'rishim

mumkin? Yangilik yo‘q! Endi o‘lsam, mayli. O‘limdan qo‘rqmayman. Urush ham qarta o‘yiniday gap: boy odam yutqazsa puli ketadi, mening jonim ketadi, xolos!» — deb xayol surardi.

Yoshlik xotiralaridan ayrim manzaralar, yashin singari yalt-yult qilib, ko‘z o‘ngidan o‘tib turardi: ana, toshdevor, orasida yo‘rg‘alab yurgan maynalar, oftobda chang to‘zitib ketayotgan Grishkaning oyoqlari, salobat bilan oqib o‘tayotgan Don suvlarida aks etgan qirg‘oqdagi yashil o‘rmonlar, o‘spirin do‘stlarning tanish basharasi, onasining kelishgan qad-qomati... Grigoriy kafti bilan ko‘zlarini to‘sdi, o‘shanda tanish kishilar, ayrim voqealar, ba‘zan negadir, miyasiga qattiq o‘rnashib qolgan eng kichkina hodisalar xayolidan o‘ta boshlardi, zamonlar o‘tib, unutilib ketgan kishilarning ovozi, ayrim gaplarini, hoholab kulishlarini eshitayotganday bo‘lardi. Xayol olib qochib, esida qolmagan va lekin allaqayerdayam ko‘rgan qadimgi bir manzarani yodiga solar, birdaniga Grigoriyning oldida bepoyon dasht, ilon izi yo‘l, arava, ho‘kizlar, otasi, ekini o‘rilgan oltinday bug‘doyzor, qora munchoqday yoyilgan quzg‘unlar paydo bo‘lardi... Grigoriy xayolida chuvalib ketgan xotiralarni yana birma-bir eslab ko‘rardi, nihoyat, hayf ketgan umrining birdan bir esdaligi Aksinyaga kelib to‘xtardi. «Jonginam! Seni unutilib bo‘ladimi?» — derdi-da, yonida yotgan xotindan jirkanganday chetlanib xo‘rsinar, betoqat bo‘lib tong otishini kutardi. Loladek qizargan sharqda quyoshning zarrin nurlari ko‘rinar-ko‘rinmas, Grigoriy irg‘ib o‘rnidan turar, yuvinar, otining oldiga yugurardi.

### XLIII

Qo‘zg‘olon to‘qayga tushgan o‘tday, hamma yoqni qamrab olgan edi. Bo‘ysunmagan stanitsalar qurshov ichida qolgandi. Odamlarning jondan to‘yganligi yuzlaridan bilinib turardi. Kazaklar o‘z hayotlarini qimorga tikkan, biroq ko‘plari jonlarini berib qo‘yar edilar. Yoshlar xotinbozlikdan, kattalar aroqxo‘rlikdan bosh ko‘tarmasdilar, miyasi ayniguncha ichishar, pul va patron tikib qimor o‘ynashar, (lekin patron jami narsadan qimmat yurardi) goho uylariga kelib ketishardi: ularning birpas bo‘lsa ham shu dardisar miltiqni devorga suyab qo‘ygisi, yuraklariga orom berish uchun randani yo boltani qo‘lga olgisi, xushbo‘y tol novdalaridan chetan to‘qigisi yoki aravanimi, molanimi ko‘klamga



tuxt qilgisi kelardi. Ko'pincha kazaklar o'z uyi — o'lan to'shagini ko'rib, maza qilib ichvolib, mast-alast holda o'z qismlariga qaytishardi, kayfi tarqab ko'zlari ochilgandan keyin: «bunday turmushning padariga la'nat», — deb jo'rttaga piyoda saf tortib, pulemyotga qarshi tik borishardi, ba'zilar alam ustida otlarini o'lguday savalab, kechalari bosqinchilikka chiqishar, tutib kelgan asirlarni vahshiyarlarcha qiynab charchaganlaridan keyin, patronni ayab, qilich bilan chopib o'ldirishardi.

O'sha yili bahor yaxshi kelib, hamma yoq rango-rang tusga kirib tovlandi. Havo iligan, osmon shishaday musaffo, ajoyib aprel kunlari boshlangandi. Ko'z ilg'amas moviy osmon qo'ynida gala-gala o'rdaklar, ovozi qo'ng'iroqday turnalar bulutlardan o'zib, shimolga qarab uchib o'tar edi. Ko'kalamzor dasht o'rtasidagi hovuzlar yonida o'tlab yurgan oqquvlar olisdan gilamga sochilgan marvaridday yiltirashardi. Don bo'yidagi chakalakzorda sayragan, chiyillagan parrandalar ovozi olamni tutgan edi. Suv toshgan joylarda, suv chiqmagan do'ng va uvatlarda g'ozlar uchishga shaylanib g'ag'illashar, tolzor ichidan kuyikkan o'rdaklarning to'xtovsiz g'aqillagani eshitilardi. Tollar popuk chiqargan, teraklarning yopishqoq, xushbo'y kurtagi bo'rtgan edi. Endigina ko'kalamzor bo'la boshlagan bu dasht nihoyatda go'zal edi: undan, qori ketgan ko'hna qora tuproq bilan abadiy yosh maysa ko'katning hidi kelar, insonni o'ziga maftun etardi.

Qo'zg'olonga aralashgan har bir kazak o'z uyidan, bola-chaqasidan olisda bo'lmagani uchun bu urush ularga yoqib qo'lgandi.

Mabodo pistirmada yotish, qorovul turish, jar-u qir kezib razvedkada yurish jonga tegsa, kazak yuzboshidan ruxsat olib, uyiga ketaverardi, o'rniga qari bobosini yoki o'spirin o'g'lini otiga mindirib, uyida xotirjam yuraverardi. Doim sotnyalarning soni but, lekin odami o'zgarib turardi. Ba'zilar boshqacha yo'l topib olishgandi: kun botdi deguncha, sotnya turgan joydan otini aymay haydab, qorong'i tushguncha o'ttiz, gohida qirq chaqirim yo'l bosib, uyiga kirib kelardi. Yarim kechagacha xotini bilan, xotini yo'g'i o'ynashi bilan bo'lib, xo'roz ikki chaqirganda otini egarlab yana yo'lga chiqardi-da, yettiqaroqchi yulduz so'nmasdanoq o'z sotnyasiga yetib kelardi.

Ko'pgina sho'x yigitlar urush o'z qishloqlari yonida borayotganiga suyunishardi. Xotinlarining oldiga borib kelishga o'rganib qolgan kazaklar: «Endi o'lging ham kelmaydi!» — deb o'zaro hazillashardi.

Dala ishi boshlansa qochoqlar ko'payish ehtimoli borligidan qo'mondonlik qattiq tashvishga tushgan edi. Shuning uchun Kudinov ataylab qismlarni aylanib yurar, shu damgacha ko'rilmagan qattiq-qo'lligini endi ko'rsatib:

— Yerimiz haydovsiz, ekuvsiz qolsa, qolib ketsinki, lekin bironta kazakka ham javob berishni man etaman: buyrug'im shu! Kimki bunga bo'ysunmasa, kaltaklaymiz, otamiz! — deb tayinladi.

#### XLIV

Grigoriy Klimovkada bo'lgan yana bir jangda ishtirok etdi. Eng chekkadagi qo'ralar yonida tushga yaqin otishma boshlandi. Birpasdan keyin qizillar Klimovkani ikki yoqdan o'rab ola boshladi. Boltiq dengizidagi allaqaysi kemadan kelgan qora bushlatli<sup>1</sup> matroslar chap qanotdan bostirib kelaverdi. Ular mardlarcha olg'a tashlanishdi, shiddatli hujumdan so'ng Kargindagi qo'zg'olonchi polkning ikki sotnyasini qishloqdan surib chiqarishdi-da, jar ichi bilan Vasilyevga dovur quvib borishdi.

Jangning borishini do'ngdan turib kuzatayotgan Grigoriy, qizillarning qo'li baland kela boshlaganini ko'rgan zahoti qo'lqopini silkitib, patron ortilgan ikki g'ildirakli arava yonida uning otini ushlab turgan Proxor Zikovni chaqirdi-da, yugurib kelib otga mindi: otni chuqurdan sakratib haydaganicha tikkasiga Gusinka jariga tushib ketdi. O'sha yerda 2-polkning otliq rezerv sotnyasi chorbog'lar panasiga yashirib yotganini u bilardi. Bog'lar va chetan devorlardan oshib, sotnya turgan joyga yugurdi. Grigoriy olisdan, piyoda kazaklarni, qoziqqa bog'langan otlarni ko'rib, qilichini sug'urdi-da:

— Otlan! — deb baqirdi.

Ikki yuz odam birpasda otlarni yechib oldi. Sotnya komandiri Grigoriyning oldiga ot choptirib keldi.

— Qo'zg'alamizmi?

---

<sup>1</sup> *Matroslar kamzuli* (tarj).

— Boyaroq qo'zg'alishing kerak edi! Anqov! — deb o'shqirdi Grigoriy.

Grigoriy jilovini tortib, otini to'xtatdi-da, egardan tushdi, qorinbog'ini tortaman deb aksiga, hayallab qoldi (sovunday ko'pirib, qizishgan ot ayilini tortgani qo'ymay tipirchilar, quloqlarini chimirib, pishqirib, tishlarini irjaytirar, tepmoqchi bo'lardi). Nihoyat, Grigoriy egar og'maydigan qilib qorinbog'ini mahkamladi-da, tobora kuchaya boshlagan o'q tovushlariga quloq solib turgan yuzboshiga qaramasdan:

— Sotnyani men jangga olib kiraman, — dedi. — Qishloqdan chiqquncha vzvod tartibida, yo'rttirib hayda.

Qishloqdan chiqqach, Grigoriy sotnyani yoyib turib ot qo'ydi; qilichi qindan oson chiqishini sinab ko'rish uchun tortib ko'rdi; sotnyadan o'ttiz sarjin chamasi olg'a o'tib olib, otini savalaganicha, Klimovka tomon ketdi. Bir yog'i Klimovkaga tutashgan do'ng ustiga chiqqach, jilovni tortib atrofga qaradi. Qishloq bo'ylab piyoda va otliq qochayotgan qizil askarlar, o'q ortgan aravalar ko'rindi. Grigoriy sotnyaga qarab:

— Qilichlarni sug'ur! Hujumga! Birodarlar, ketimdan qolma! — deb qilichini shartta sug'urdi-da, dastlab o'zi: — Ur-raaaa! — deb baqirdi, o'sha zahotiy oq a'zoyi badani jimirlashib yengil tortganday bo'ldi, otni qo'yib yubordi... Chap qo'lidagi jilov kamon ipiday tortilib, taranglashganidan dirillar, bosh ustida yalang'och qilich qarshisidan esgan shamolni kesib vizillar edi.

Bahor yeli haydab kelgan tog'day bulut bir lahza quyoshni to'sib qoldi, soyasi Grigoriydan o'zib, do'ng ustidan suzib o'tdi. Grigoriy ro'parasidan tobora yaqinlab kelayotgan qishloq uylaridan ko'zini olib, hali qurimagan qop-qora yer ustida o'rmalagan bulut soyasiga, uning oldiga tushib allaqaylarga qochib borayotgan sarg'ish oftob shu'lasiga qaradi. Beixtiyor yuragi talpinib, ana shu yugurib ketayotgan quyosh nuriga yetib olgisi kelib, otini niqtadi-da, o'qday uchirib boraverdi, borgan sari soya bilan oftob chizig'iga yaqinlashaverdi. Yana bir lahzadan keyin jon-jahdi bilan chopib ketayotgan otning oldinga cho'zilgan tumshug'iga yorug' tushdi. Nihoyat, jiyron tuklari tilladay yarqirab, ko'zni qamashtirib yubordi. Grigoriy bulutning soyasi tushib turgan joydan chiqishi bilan tor ko'cha tomondan o'q tovushi eshitildi. Paq-puq etgan tovushlar tobora yaqinlashib, go'yo shamolga qo'shilib

uchib kelayotganday tuyulardi. Oradan birdam o'tdimi, yo'qmi Grigoriy ketidan kelayotgan sotnyaning dupuri, tuyoq tovushi o'qlarning vizillashini, qulog'ida guvullagan shamol orasidan eshitmay qoldi. Hozirgina qurimagan shudgorni larzaga keltirib izma-iz kelayotgan otlarning olatasiri quloqdan uzoqlashganday bo'lib jimib qoldi. Shu payt ro'paradan baravariga o'q uzildi, go'yo gulxanga quruq shox-shabba tashlanganday bo'ldi; o'qlar Grigoriyning atrofidan vizillab uchib o'ta boshladi. U esankirab, cho'chib ketiga qaradi. G'azab ustiga vahima qo'shilib, afti juda hunuklashib ketdi. Sotnya otini orqasiga burib, uni, Grigoriyning tashlab qochmoqda edi. Sotnya komandiri egar ustida har tarafga jalanglab, nima qilishini bilmay, hadeb qilich o'ynatar, xirillab allanima deb baqirar, yig'lardi. Faqat ikki kazak Grigoriy tomon burildi, xolos, Proxor Zikov ham jilovni burib, sotnya komandiri turgan joyga ot choptirib keldi. Qolganlari qilichni qinga, qamchini ishga solib tumtaraqay qochdilar.

Grigoriy bir lahza jilovni tortinqirab: ketida nima hodisa ro'y berganini, sotnya hech qanday talafot ko'rmay turib, nega to'satdan qochishga tushganini bilmoqchi bo'lib, chopishini sekinlatdi-yu, lekin o'sha zahotiyoy: «Ketingga qarama, qochish kerakmas, olg'a bos!» degan fikr miyasida o'tday chaq nab ketdi. Birdaniga u, tor ko'chada, orasi yuz sarjin keladigan devorning orqasida pulemyot tachankasi yonida o'ralashgan yettitacha qizil askarni ko'rib qoldi. Ular zo'r berib tachankani burmoqchi, pulemyot og'zini hujum qilayotgan kazaklarga to'g'rilamoqchi bo'lib urinishardi, biroq ko'cha torlik qilganidan tachanka burilmas, pulemyotning ham dami chiqmasdi, miltiqlarning jag'i tindi, Grigoriyning qulog'iga o'q tovushlari kamroq eshitila boshladi. Grigoriy tor ko'chaga kirish uchun, chorbog'ning chetida qulab yotgan chetan devordan oshib o'tishni mo'ljallab otini shu yoqqa burdi. Lekin ko'zini chetandan olgach, tachankadan otlarni chiqarayotgan matroslarni ko'rib qoldi, ular xuddi durbinda ko'ringandek, aniq va yaqin ko'rinardi, loy sachragan qop-qora bushlatlarini, bostirib kiyilgan koziryoksiz furajkalarni bemalol ajratish mumkin edi (koziryoksiz furajkalar odamlarning yuzini barkashday qilib ko'rsatardi). Ikki kishi postromkalarni kesish bilan ovora edi, uchinchisi, bo'ynini qisib, pulemyot yonida g'imirlab yurar, qolganlari tik turib, cho'kkalab Grigoriyga o'q uzardi. Grigoriy matroslar

ustiga ot solganda miltiq zatvorlarini shosha-pisha ochib yopgan qo'llariga ko'zi tushdi, tumshug'ining tagida otilgan o'qlarning qar-sillashi qulog'ini qomatga keltirdi. O'qlarning ustma-ust otilishi, miltiq qo'ndoqlarining ko'z ilg'amas tezlikda kift bilan kamar orasi-da borib kelib turishi terlab-pishib ketgan Grigoriyni qaytaga suyun-tirdi: «Tekkizib bo'pti!» — deb qo'ydi ichida.

Chetan devor ot tuyoqlari ostida qisirlab, orqada qolib ketdi. Gri-goriy ko'zlarini qisib, oldingi matrosga qilich o'qtaldi. «Tumshuq tagidan o'q uzishsa bormi... Ot o'mbaloq oshib tushadi... tamom!» degan xayol yuragini uvishtirib yubordi. Ro'paradan ustma-ust ikki o'q chiqdi. «Tiriklayin tutish kerak», degan ovoz qulog'iga olisdan kelganday bo'lib eshitildi. Ro'parasida, taqir bosh, tishlarini irjaytir-gan, furajkasining lentalari hilpillagan, jez gardishidagi xatlar o'ngib ketgan mardona qiyofali matros turardi... Grigoriy uzangiga oyog'ini tirab turib qilich soldi, qilichi xamirday yumshoq badanga botganini sezdi. Chorpahildan kelgan bo'yni yo'g'on ikkinchi matros Grigoriyga o'q uzgan edi, o'q chap kiftining go'shtini teshib ketdi, biroq o'zi ham o'sha zahotiy oq Proxor Zikovning qiya tushgan qilichi zarbidan, boshi ikki palla bo'lib yiqildi. Grigoriy yonida zatvor sharaqlaganini eshi-tib shartta burildi. Tachanka orqasidan o'ziga qarab turgan miltiqning qop-qora og'zini ko'rib, kuchining boricha o'zini chapgga oldi, hattoki egari qo'zg'alib, hurkib, pishqirib turgan ot gandraklab ketdi, shunday qilib, tepasida varanglagan ajaldan o'zini asrab qoldi, oti arava shoti-sidan sakrab o'tishi bilan otgan matrosni chopib o'ldirdi; matrosning qo'li miltiqqa ikkinchi o'qni joylamoqchi bo'lib zatvorga yopishgani-cha qoldi.

Birpasda (keyinchalik bu «birpas» Grigoriyga juda uzoq vaqt bo'lib tuyuldi) to'rt matrosni qilichdan o'tkazdi. Proxor Zikovning hayhayla-ganini eshitmasdan, tor ko'chaning muyulishiga burilib qochgan be-shinchi matrosni quvmoqchi bo'ldi. Lekin sotnya komandiri oldidan to'sib chiqib, ot jilovidan ushlab, Grigoriyni to'xtatdi.

— Qayoqqa? O'lasan! Ombor orqasida yana bitta pulemyot joy-lashgan!

Proxor bilan yana ikki kazak otlaridan tushib, Grigoriyning oldiga chopib kelishdi-da, zo'rlik bilan uni egardan olishdi. Biroq Grigoriy qo'ldan chiqmoqchi bo'lib yulqinar:

— Qo'yvoring meni, nomardlar!.. Matroslarni!.. Hammasini men!.. Burrdalayman!.. — deb baqirardi.

— Grigoriy Panteleyevich! O'rtoq Melexov! Sizga nima bo'ldi axir, ko'zingizni oching! — deb ovutmoqchi bo'lardi Proxor.

Nihoyat, Grigoriy bo'shshib boshqacha ovoz bilan:

— Meni qo'yvoring, jon birodarlar! — deb yalina boshladi.

Uni qo'yib yuborishdi. Sotnya komandiri Proxorning qulog'iga shivirladi:

— Otga mindirib to'g'ri Gusinkaga oborasan, kasal bo'lib qolgan-ga o'xshaydi.

O'zi ot yoniga ketayotib, sotnyaga komanda berdi:

— Ot-gaaa min!

Biroq Grigoriy papaxini qorga uloqtirib, birpas tebranib turdi-da, qo'qqisdan tishlarini g'ijirlatib qattiq ingradi, aft-angori butunlay o'zgarib ketdi, shinel bog'ichlarini shart-shart yulib tashlayverdi. Yuzboshi uning oldiga yetib kelguncha, Grigoriy turgan joyida mukkasiga yiqilib tushdi-da, yalang'och ko'ksini qorga berib yotib oldi. U ho'ngrab qalt-qalt qilib yig'lar, og'zini kappa-kappa ochib, chetan tagida erimay qolgan qorni yutardi. So'ngra, bir lahza o'ziga kelganday bo'lib, o'midan turishga harakat qildi-yu, biroq turolmadi; yig'layverib yuzi jiqqa ho'l bo'lgan, vijdon azobidan vajohati buzilgan edi, u atrof-dagi kazaklarga qaradi-yu, g'alati xunuk ovoz bilan:

— Kimlarni chopib tashladim, a!.. — deb faryod qildi. Umrda birinchi marta tutqanog'i tutib qoldi, og'zi ko'pirib, tufugini sachratib chinqira boshladi: — Gunohim zo'r, kechirim yo'q, birodarlar!.. Meni chopib tashlang... xudo haqi... Bibi Maryam hurmati... O'ldiring... Menga dunyo harom!.. — deb ijirg'andi.

Yuzboshi Grigoriyning tepasiga chopib keldi, vzvod komandiri bilan ikkisi unga tashlanib, belidan kamarini, qilich va sumkasini yechib oldilar, og'zini yopib, oyoqlarini bosib turdilar. Biroq u anchagacha tinchimay, ikkovining tagida buralar, tipirchilab oyoqlari bilan qorni o'yardi; otlarning tuyoqlari ostida poymol bo'lgan, o'zi tug'ilib o'sgan barakali qora tuproq yerga boshini urar, azobi ko'p, rohati kam turmushning achchiq-chuchugini tottirgan yerga bosh urib ingrar edi.

Faqat o't-o'lanlarga yer yuzida issiqqa ham, sovuqqa ham parvo qilmay yerning hayotbaxsh sharbatini so'rib o'saveradi, qattiq

bo'ron tursa ikki bukilib salom beradi, biroq urug'ini shamolga sochib bo'lgach, qurigan cho'p-chorlarini shitirlatib, zahrini sochgan kuzgi quyosh bilan xayrlashadi-da, o'limini qarshi oladi.

## XLV

Ertasi kuni Grigoriy diviziyani polk komandirlaridan biriga topshirib, Proxor Zikovni yoniga olib, Vyoshenskayaga jo'nadi.

Karginning naryog'ida, chuqurlikdagi Rogojin hovuzida, dam olgani qo'ngan bir gala yovvoyi g'oz suzib yurardi. Proxor qamchisi bilan o'sha tomonni ko'rsatib, iljaydi:

— Uh, Grigor Panteleyevich, yovvoyi g'ozdan bittasini qulatganimizda, samogonga bopta tamaddi bo'lardi-da!

— Mayli, yaqinroq boraylik bo'lmasam, karabindan otib ko'raychi. Bir vaqtlar baloday mergan edim.

Ikki chuqurlikka tushishdi. Do'ng orqasida Proxor otlar yonida qoldi. Grigoriy shinelini yechdi, miltiq tepkisini mahkamlab, sayoz jarda, bulturgi burganlar orasida o'rimalab boraverdi. Shu emaklaganicha boshini ko'tarmasdan, xuddi german frontida dushman pistirma qo'ygan joyga pisib borib, Stoxod daryosi yonida nemis posbonini qo'lga tushirgandagiday, pisib boraverdi. Pistoqirang gimnastorkasining rangi o'ngib ketganligi uchun uni ko'kimtir bo'z tuproqdan ajratib bo'lmasdi; suv bo'yida, sal balandroq joyda bir oyoqda poylab turgan erkak g'oz jar tagida kelayotgan Grigoriyni ko'rmasdi. Grigoriy yaqin kelib, boshini sal ko'tardi. Poyloqchi g'oz ilon kallasi-ga o'xshagan kulrang boshini u yoq, bu yoqqa burib, sergaklik bilan atrofga qarardi. Uning orqasidagi suv beti ko'k-qora parrandalarga to'lgan: g'ozlar, ora-sira o'rdak va qashqaldoqlar g'uj bo'lib suzib yurishar edi. G'ag'illagan, qag'illagan tovushlar, suvning shopillagani eshitalardi. Yuragi dukullagan Grigoriy miltiq qo'ndog'ini kiftiga tirab, poyloqchi g'ozni mo'ljalga olarkan, o'zicha: «Pritselni ko'tarmasayam bo'laveradi», — deb qo'ydi.

O'q uzgach, Grigoriy irg'ib o'rnidan turdi, g'ozlarning g'ag'illashi, pat-put qanot tovushidan qulog'i qomatga keldi. Poyloqchi g'oz shoshqaloqlab havoga ko'tarildi, qolganlari hovuz tepasida g'uj bo'lib aylana boshladi. Grigoriy alam qilganidan balandlashgan gala-gala g'ozlar

ketidan ustma-ust ikki o‘q uzdi, birontasi qulamasmikin deb birpas qarab turdi-da, Proxorning yoniga keldi.

— Uni qara, anavini qara!.. — deb baqirib yubordi Proxor; u egar ustida tippa-tik turib olib, ko‘m-ko‘k bepoyon osmonda uzoqlashib ketayotgan g‘ozlarni qamchisi bilan ko‘rsatardi.

Grigoriy burilib qaradi-yu, hayajonidan, suyunchidan seskanib ketdi: turnaqator bo‘lib ketayotgan g‘ozlardan bittasi ajralib, tobora pastlab, o‘qtin-o‘qtin qanotini qimirlatib tushib kelmoqda edi. Grigoriy kaftini peshonasiga qilib, unga tikilganicha oyoq uchida qarab turaverdi. Qiy-chuv ko‘tarib g‘ag‘illashgan sheriklaridan tobora yiroqlashayotgan g‘oz qanot qoqishlari sekinlashib, tobora pastlab, ikki terak bo‘yi joydan birdaniga yerga sho‘ng‘idi, qanotlari ostida oppoq parlari quyosh nurida yarqirab ketdi.

— Otga min!

Og‘zi qulog‘iga yetgan Proxor otlarni choptirib kelib, Grigoriyga jilovni tutqizdi. Ikkisi o‘qday uchib tepaga chiqdi, yana sakson sarjinchacha joyga otlarni yeldirib borishdi.

— Ana!

G‘oz bo‘ynini cho‘zib, qanotlarini yoyib, shu bemehr yer bilan so‘nggi marta vidolashayotganday cho‘zilib yotardi. Grigoriy otdan tushmay, engashib o‘ljasini oldi.

— O‘q qayeridan tegibdi? — deb so‘radi Proxor.

O‘q g‘ozning pastki jag‘idan teshib o‘tib, ko‘zi yonidagi suyakni o‘pirib yuborgan, osmonda ajali yetgach, uchburchak shaklida saf tortib ketayotgan g‘ozlardan ajrab yerga tushgan edi. Proxor g‘ozni bo‘ktargiga tang‘ib oldi. Yana yo‘lga tushishdi.

Otlarni Bazkida qoldirib, o‘zlari Dondan qayiqda o‘tishdi.

Grigoriy Vyoshenskayadagi tanish cholning uyiga tushdi, g‘ozni tezroq qovurib berish uchun uy egasiga topshirib, o‘zi shtabga bormay, Proxorni samogonga jo‘natdi. Kechgacha ichishdi. Uy egasi qizishib olgach, shikoyat qila boshladi:

— Eh, Grigoriy Panteleyevich, Vyoshkidagi boshliqlar zulmini haddan oshirvordi.

— Qanaqa boshliqlar?

— O‘zimizning boshliqlar... Kudinov, uning yonidagi odamlar.

— Xo‘sh?



— Chetdan kelgan kishilarning bola-chaqasini judayam ezib yuborishdi... Eri qizillarga qo‘shilib ketgan bo‘lsa xotinini, qizini, keksa otasini qamoqqa tiqishyapti. O‘g‘limning kasriga kelinimni qamab qo‘yishdi. Bunisi sirayam to‘g‘ri emas! Masalan, agarda siz kadetlarga qo‘shilib, aytaylik, Donetsning naryog‘iga ketgan bo‘lsangiz-u, qizillar kelib dadangiz Panteley Prokofichni qamab qo‘yishsa, sizga alam qilarmidi?

— Albatta!

— Bu yerdagi hukumatimiz orqa-o‘ngini surishtirmay qamayapti. Qizillar hech kimga qo‘l tekkizmovdi, lekin bular bilgan noma‘qulchiligini qilyapti, haddilaridan oshyapti.

Grigoriy o‘rnidan turdi, bir oz gandraklab borib karavot ustidagi shinelini oldi. U shirakayf bo‘lgan edi.

— Proxor! Qilich! Mauzerni ber!

— Qayoqqa bormoqchisiz, Grigor Panteleyevich!

— Ishing bo‘lmasin! Olib kel darrov!

Grigoriy qilich bilan mauzerni taqdi, shinelini tugmalab, kamarini bog‘lab maydon tomonga, to‘g‘ri turmaga ketdi. Darvoza oldida qorovullik qilib turgan safga yaroqsiz kazak uning yo‘lini to‘smoqchi bo‘ldi.

— Ruxsatnomang bormi!?

— Qoch! Yo‘lni bo‘shat, deyapman!

— Ruxsatnomasiz hech kimni kirgizolmayman. Buyruq shunday.

Grigoriy qilichning yarmini qinidan sug‘urmasdanoq, qorovul lip etib o‘zini ichkariga oldi. Grigoriy qilich dastasini ushlaganicha ketma-ket yo‘lakka kirdi.

— Turma boshlig‘ini menga chaqirib kel! — deb baqirdi. Uning rangi oqargan, qirra burni qiyshayib, qoshlari chimirilib ketgan edi.

Allaqanday ko‘rimsiz, nazoratchilik vazifasini bajaruvchi cho‘loq kazak uning oldiga yugurib keldi. Ona suti og‘zidan ketmagan mirzaboshi idora eshigidan mo‘raladi. Sal o‘tmay, uxlayverib qovog‘i shishgan, badqovoq turma boshlig‘i ham paydo bo‘ldi.

— Ruxsatnomasiz kirganing uchun, bilasanmi, nima bo‘ladi? — deb oldin o‘dag‘ayladi-yu, biroq Grigoriyning yuziga tikilib, tanidi, kapalagi uchib:

— E, siz, jano... o‘rtoq Melexovmisiz?.. O‘zi nima gap? — deb chuldirab qoldi.

— Kameralar kaliti!

— Kameralar kaliti?

— Senga qirq marta takrorlashim shartmi? Bo‘l! Kalitni ber deyaman, itvachcha!

Grigoriy bir qadam olg‘a tashlandi, biroq boshliq qat‘iy qilib:

— Kalitni bermayman! Haqingiz yo‘q! — dedi.

— Haq-qing yo‘-yo‘-o‘q?..

Grigoriy tishlarini g‘ijirlatib, qilichini sug‘urdi. Qo‘lida yalang‘ochlangan qilich yo‘lakning pastak shifti ostida charx urib yaltirab ketdi. Mirzaboshi bilan nazoratchi in-inlariga kirib ketishdi, turma boshlig‘i esa, devorga qapishib qoldi, rangi devordan battar oqarib, g‘udrandi.

— Zo‘ravonlikmi? Mana kalitlar... Ustingizdan arz qilaman...

— Arz qilishni ko‘rsatib qo‘yaman! Hammang bu yerda issiqqina joyda bekinib yotasan. Xotin-xalaj, chollarni qamashga kuchingiz yetadi, xolos... Hammangni to‘s-to‘s qilaman hali! Frontga jo‘na, iflos, bo‘lmasa chopib tashlayman!

Grigoriy qilichni qiniga solib, o‘takasi yorilayozgan turma boshlig‘ining bo‘yniga musht bilan tushirdi-da, tizzasi bilan, mushti bilan turtkilab eshikka chiqardi, baqirib:

— Frontga jo‘na!.. Hozir jo‘na! Jo‘na!.. Huv, sendaqa... taxta bitini... — dedi.

Boshliqni surib chiqargach, turmaning ichkari hovlisida g‘ovurg‘uvur ko‘tarilganini eshitib, o‘sha yoqqa yugurdi. Oshxonaga kiriladigan eshik oldida turgan uchta nazoratchini ko‘rdi; biri — qo‘lidagi yapon miltig‘ining zanglab qolgan zatvorini hadeb tortar va labi labiga tegmay bidirlardi:

— ...Turmaga hujum qildi!.. Hujumni qaytarish kerak!.. Eski ustavda nima deyilgan?

Grigoriy mauzerini sug‘urishi bilan nazoratchilar tumtaraqay bo‘lib, oshxonaga qochib kirishdi.

Grigoriy odamga liq-liq to‘lgan kameralar eshigini ochdi-yu, bir bog‘lam kalitni shildiratib:

— Chiqa-veeer! Uy-uyga!.. — deb jar soldi. Qamalganlarning hammasini (yuzga yaqin odamni) ozod qildi. Qo‘rqib, chiqmay turib

olganlarni zo'rlab, itarib ko'chaga chiqardi-da, bo'sh kameralarni qulflab qo'ydi.

Turmaga kiriladigan eshik oldida xaloyiq to'plana boshladi. Qamoqdan ozod bo'lganlar to'p-to'p bo'lib maydonga chiqib kelaverdi; qomati bukchaygan bu bechoralar hadixsirab, alanglab, uylariga jo'nab qolishdi. Shtab tomondan, qorovul vzvodning kazaklari qilichlarini ushlab turma tomon chopib kelaverdi; qoqilib-suqilib kelayotgan Kudinov ham ko'rindi.

Grigoriy huvullab qolgan turmadan hammadan keyin chiqdi. Yo'l bo'shatgan olomon orasidan o'tayotib, biron yangi gap bo'lsa jonlari kiradigan, pichir-pichir qilayotgan xotinlarni boplab so'kdi-da, sekin-asta Kudinov tomon boraverdi. Yugurib kelayotgan qorovul vzvodining kazaklari uni tanib salom berishdi.

— Joylaringga qaytinglar, shovvozlar! Buncha tillaringni bir qarich qilib yugurmasalaring? Marsh! — deb baqirdi ularga Grigoriy.

— Turmada g'alayon boshlanibdi deb o'ylabmiz, o'rtoq Melexov!

— Mirzaboshi yugurib kelib: «Allaqanday bir habash bostirib kirib, qulflarni sindiryapti!» — dedi.

— Bekorchi trevoga ekan-da!

Kazaklar kula-kula, gurunglashib izlariga qaytishdi. Kudinov furajkasi ostidan chiqib qolgan sochlarini yo'l-yo'lakay tuzatib, shoshapisha Grigoriyga yaqin kelaverdi.

— Salom, Melexov. Nima gap?

— Salom, Kudinov! Turmangni ag'dar-to'ntar qilib yubordim.

— Nimaga asoslanib bunday qilding? O'zi tinchlikmi?

— Hammasini ozod qildim — vassalom... Xo'sh, buncha ko'zingni chaqchaytirasan? O'zlaring nimaga asoslanib ayollar-u chollarni qamayapsiz? Bu nimasi tag'in? Ko'zingni och, Kudinov!

— O'zboshimchalik qilmagin. Buni be-bosh-lik deyiladi!

— Beboшлиkni senga ko'rsatib qo'yaymi, to'ng'iz qo'pgur! Agar shu topda Kargin yonidagi polkimni chaqirtirsam bormi, hammang onangni ko'rasan!

Grigoriy Kudinovni kavkazcha kamaridan ushlab oldi-da, silkita boshladi, g'azab bilan shivirlab gapirdi.

— Maylimi, hozir frontni ochib beraymi? Shu tobda joningni sug'urib olaymi? Uh, sendaqa!.. — Grigoriy tishini g'irchillatib, lom-mim deymay iljayib turgan Kudinovni qo'yib yubordi.

— Nega tirjayasan?

Kudinov kamarini tuzatib, Grigoriyning qo‘ltig‘iga kirdi.

— Yur, menikiga boraylik. Odam deganam shunchalik qizishadimi? Rang-ro‘yingga bir qaragin: dajjolga o‘xshaysan... E, birodar, ko‘pdan beri daraging yo‘q, hammamiz seni sog‘inganmiz. Turmani qo‘yaver — hechqisi yo‘q... Bo‘lar ish bo‘pti, qo‘yvoribsan, shungayam ota go‘ri qozixonami? Men yigitlarga tayinlab qo‘yaman: zinhor bunaqa bemazagarchilikka yo‘l qo‘yishmasin. Eri qizillarga qo‘shilib ketgani uchun xotinini sudrab qamayverish, albatta, to‘g‘ri emas... Lekin sen bizning obro‘yimizni tushirganing to‘g‘rimi? Hoy, Grigoriy! Judayam hovliqmasan! Sekin kelib: «Turmada odam ko‘payib ketibdi, manavi-manavilarni ozod qilish kerak», — deb yotig‘i bilan gapirsang bo‘lmaydimi, axir... O‘zimiz ro‘yxatni tekshirib, ba‘zilarini bo‘shatib yuborardik. Sen bo‘lsang — yoppasiga!.. Yaxshiki, muhim jinoyat bilan qamalganlar alohida saqlanadi, ularni ham chiqarib yuborganingda, nima bo‘lardi? Olovsan! — Kudinov Grigoriyning kiftiga qoqib kuldi: — Qizishgan paytingda senga gap qaytarib bo‘lmaydi, shartta o‘ldirasan-qo‘yasan. Yoki aksiga olsang kazaklarni qo‘zg‘atishdan ham toymaysan...

Grigoriy qo‘lini Kudinovning qo‘ltig‘idan tortib olib, shtab binosi yonida to‘xtadi.

— Bizlar u yoqda ahmoq bo‘lib yuribmiz, bular bu yoqda hammasi botir bo‘lib olishibdi! Yomonning kuchi yapaloqqa yetadi, degandek qari-qartanglarni turmaga qamayverishibdi... Kuching bo‘lsa, pozitsiyaga borib ko‘rsatmaysanmi!

— O‘z vaqtida men ham pozitsiyani xo‘p ko‘rganman, Grisha, senchalik jang qilganman. Hozir ham istasang, sen mening o‘rnimga o‘tir, men sening diviziyangni olay...

— Yo‘-g‘e, qulluq!

— Ha, shuni bilib qo‘y!

— Qo‘y, sen bilan adi-badi aytishishga ortiqcha vaqtim yo‘q. Uyga borib bir haftagacha dam olmoqchiman. Mazam yo‘q, kasalman... Kasalim ustiga, kiftimdan o‘q yeb, biroz yarador ham bo‘lganman.

— Nima kasal?

— Xafagazaklik kasali, — dedi Grigoriy istehzo bilan kulib. — Yuragim siqiladi, xolos...

— Hazilni qo‘y, qayering og‘riydi? Bizda yaxshi bir doktor bor, professor bo‘lsa ham ajab emas. Asir tushgan. Kazaklar uni Shumilinning naryog‘idan tutib kelishdi, matroslar bilan yurgan ekan. Judayam sipo, qora ko‘zoynagi bor. O‘shanga ko‘rsatsang, qalay bo‘larkin?

— Be, qo‘ysang-chi!

— Mayli bo‘lmasam, uyingga borib dam olgin. Diviziyani kimga topshirding?

— Ryabchikovga.

— Birpas tur, buncha shoshasan, axir? U yerdagi ishlardan gapirib bermaysanmi? Rosa qoyil qilibsan, eshitdim. Kecha kechasi allakim telefonda: «Klimovka yonida matroslarni qirib tashladi», — dedi. To‘g‘rimi?

— Xayr!

Grigoriy jo‘nab qoldi, biroq uch-to‘rt qadam yurgach to‘xtadi-da, yarim o‘girilib, Kudinovni chaqirdi:

— Hoy! Agarda yana odam qamaganlaringni eshitsam bormi...

— Yo‘q, yo‘q! Xotirjam bo‘l! Bemalol damingni olaver!

Quyosh ufqqa og‘ib kech kirib qolgan edi. Dondan, suv toshgan daryo bo‘ylaridan shabada turdi. Bir gala churrak Grigoriyning tepasidan chiyillab uchib o‘tdi. Grigoriy cholning hovlisiga kirgan zahoti, qayerdadir, Kazansk tomonida baravariga otilgan to‘plar sadosi Donning yuqorisidan to etagigacha momaqaldiroqday qaldirab ketdi.

Proxor birpasda otlarni egarlab keltirdi-da:

— Juftak uramizmi? Tatarskka, a? — deb so‘radi.

Grigoriy indamay jilovni qo‘lga olib, bosh qimirlatib qo‘ya qoldi.

## XLVI

Erkaklar yo‘qligi uchun Tatarsk huvullab qolgan edi. Tatarskda tuzilgan piyoda askarlar sotnyasi, 5-diviziya polklaridan biriga vaqtincha birlashtirilib Donning chap tomoniga jo‘natilgandi.

Balashov va Povorindan kelgan madadchilar bilan kuchaytirilgan qizillar otryadi bir kuni sharqi-shimoldan qattiq hujum boshlab, Yelan stanitsasiga qarashli birmuncha qishloqlarni ishg‘ol etdi, Yelanning o‘ziga yetib qoldi. Stanitsa bo‘lag‘asida bo‘lgan shiddatli jangda qo‘zg‘olonchilar yengib chiqdi. Ular shuning uchun ham yengdiki,

qizillarning Moskva polki bilan ikki eskadron suvoriylariga bardosh berolmay chekinayotgan Yelan va Bukanov polklariga darhol madad yuborildi, Vyoshenskayadan chiqqan qo'zg'olonchilar 1-diviziyasi-ning 4-polki Donning chap qirg'og'i bilan Yelanga yetib keldi (Tatarsk sotnyasi ham shular orasida edi), bularga qo'shilib uchta zambarak, rezervda turgan ikki sotnya otliq askar keldi. Bundan tashqari, Yelan bilan orasi to'rt-besh chaqirim keladigan Donning bu betidagi Pleshakov va Matveyev qishloqlariga allaqancha kuchni o'ng qirg'oq bo'ylab keltirilgan, Krivsk tepaligiga to'pchi vzvod qo'yilgan edi. To'p o'qini xato ketkizmaydigan, to'pchilikda nomi ketgan krivsklik navodkachi kazak birinchi otishdayoq qizillarning pulemyoti turgan joyni tilka-tilka qildi, so'ngra, ustma-ust shrapnel yog'dirib, tolzor orasida zanjir bo'lib yotgan qizil askarlarni to'zitib yubordi. Jang qo'zg'olonchilar g'alabasi bilan tugadi. Qo'zg'olonchilar chekinayotgan qizillarni ko'z ochgani qo'ymay, Yelanka daryosining narigi betiga o'tishga majbur qilishdi. Ketidan quvgani yana o'n bir sotnya otliq kazaklarni yuborishdi, bular Zotolovsk qishlog'ining yonidagi do'ng ustida yotib olib, bir eskadron qizil askarni batamom qirib tashlashdi.

O'shandan beri tatarsklik piyoda askarlar qayerdadir chap qirg'oq tomondagi qumzorlarda daydib yurishar, loaqal birontasi ta'til olib, uyiga kelib ketmasdi. Lekin pasxa arafasida sotnyadagi kazaklarning qariyb yarmisi, o'zaro til biriktirganday to'satdan qishloqqa kirib keldi. Kazaklar bir kun qishloqda turib, og'izlarini ochishdi, ko'ylak-ishtonlarini almashtirishdi, cho'chqa moyi, qoq non va boshqa yegulik narsalarni g'amlab, mozorga ketayotgan ziyoratchilar singari gala-gala bo'lib, Dondan o'tishdi (bularning ziyoratchilardan farqi shu edi; hasa o'rniga miltiq ko'targan edilar). Yelan tomon yo'l olishdi. Xotinlari, ona va singillari Tatarskdagi tepaga, Don bo'yidagi toqqa chiqib, ketlaridan termilib qolaverdilar. Ayollar hammasi yig'lar, ko'z yoshlarini durrachalari, shol ro'mollarining uchiga artishar, burunlarini etaklariga qoqishardi... Donning narigi betida esa, suv bosgan chakalakzorning naryog'iga qumtepalar orasida bir to'da kazaklar: Xristonya, Anikushka, Panteley Prokofyevich, Stepan Astaxov va boshqalar ketmoqda edilar. Oziq-ovqat solingan bo'z xaltalari miltiq nayzalarining uchida likillab borardi, gap-gapga qovushmas, ma'yus qo'shiqlarini shamol isiriq hididek dasht uzra uchirib yurardi... Ka-

zaklarning oyoqlari tortmasa ham, lekin qorinlari to‘q, ust-boshi toza. Bayram oldidan xotinlari, onalari suv isitib isqirt badanlarini ishqalab tozalagan, qon so‘rib semirgan bitlarini yo‘qotib, yuvib-tarab jo‘natishgan. O‘z uylari — o‘lan to‘shaklarida rohat qilib yotsalar-ku, bo‘lardi-ya! Mana endi o‘z oyoqlari bilan ajalini izlab borish kerak... Endigina qo‘zg‘olonchilar safiga olingan o‘n olti — o‘n yetti yashar o‘spirinlar etik va choriqlarini yechib, issiq qum kechib bormoqdalar. Ularning parvoyi falak, nega suyunganlarini o‘zlari bilmaydi, o‘zaro bemalol chaqchaqlashib endi rasta bo‘lgan ovozlari bilan ashula aytib boradilar. Urush ular uchun — yangilik, bekinmachoqday gap... Dastlabki kunlari tepalaridan vizillab o‘q uchib o‘tsa, okop oldiga uyib qo‘yilgan bo‘z tuproq orqasidan boshlarini ko‘tarib qarayverishardi. «Xomqovoq!» — deb kalaka qilishardi ularni kazaklar; mo‘ychinak ko‘rmagan bu g‘o‘r o‘spirinlarga frontda chiniqqan kazaklar okop qazishni, o‘q otishni, poxodda urush anjomlarini qanday osib yurishni, pana bo‘lish uchun yaxshiroq joy tanlashni, hattoki, ko‘ylakni olovga tutib bitini qoqishni o‘rgatishar, paytava o‘rashni ko‘rsatishar; «Bunday o‘rasang, oyog‘ing etikda rohat qiladi», — deyishardi. Lekin baribir bu «xomqovoqlar» atrofidagi urush manzaralariga qiziqsinib, bo‘taloqdek alanglanib qarayverishar, qizillarni ko‘rishga ko‘zlari uchib, okopdan bosh chiqarishardi, oxiri bir kuni qizil askarning o‘qiga yo‘liqib «ko‘ngillari joyiga» tushardi. Mabodo o‘sha o‘qdan o‘lib qolsa bormi — ana o‘shanda bu «jangchining» yotishini ko‘ring! Hech kim uning yoshi o‘n oltidaligiga ishonmaydi: bo‘yi cho‘zilib ketgan, qo‘llari katta-katta, quloqlari shalpang, ingichka bo‘ynida kichkina kekirdagi turtib chiqqan... Kazaklar o‘likni ortib, tug‘ilib o‘sgan o‘z qishlog‘iga, bobo-yu, bobokalonlari ko‘milgan qabristonga olib ketishadi, onasi oldidan chiqib, qars urib, anchagacha voy bolamlab faryod qiladi, oqargan sochlarini yuladi. Bolasi ko‘miladi ham, go‘ri ustidagi tuproq quriydi ham, biroq bukchayib, adoyi tamom bo‘lgan onaning ko‘z yoshlari qurimaydi, «shahid» ketgan Vanyushka yoki Syomushkasiga aza tutadi, cherkovga borib, arvochini yo‘qlaydi.

Lekin hamma vaqt o‘q yegan odam o‘lavermaydi: ba‘zan Vanyushkanimi yoki Syomushkanimi, o‘q chaqib yarador qiladi, xolos; ana o‘shanda urush o‘yinchoq emasligini bilib, ko‘zi moshday ochiladi. Mayin tuk bosgan lablari qaltirab, qiyshayib ketadi. «Jangchi»

bo'taday bo'zlab: «Oyijon!» — deb chinqiradi, ko'zlaridan tirqirab yosh oqadi. Uni sanitar aravasiga o'rtib o'nqir-cho'nqir joylardan haydab, yarasini battar zo'riqtirishadi. Sotnyaning tajribali feldsheri miltiq o'qi, yoki to'p o'qining parchasi teshib ketgan jarohatni yuvadi, yosh bolani aldaganday:

«Hamma darding kuchukka o'tsin, mushukka o'tsin, yarang tuza-la qolsin», — deb yupatadi. «Jangchi» Vanyushka bo'lsa: «uyga ketaman» deb yig'layveradi, onasini tilga olib, chaqiraveradi. Mabodo jarohati tuzalib, yana sotnyaga qaytib keladigan bo'lsa, bu gal Vanyushka urush nimaligini tushunib oladi. Bir-ikki hafta safda yurgandan keyin, jang-u jadallarni ko'raverib yuragi toshga aylanadi, qarab-sizki, asir tushgan birorta qizil askar oldida oyoqlarini kerib, allaqaysi hayvonsifat berahm vaxmistrga taqlid qilib, chetga tufuradi-da, rasta bo'lgan ovozi bilan so'roq boshlaydi:

— Qalaysan endi, mujik? Qo'lga tushdingmi, bachchag'ar? Hooo! Yer kerak bo'lib qoldimi? Teng huquqli bo'lmoqchimisani? Rostingni ayt, kommuniyakmisan? Bo'yingga olaver, ablah! — deb baqiradi, «kazakligini», «mardligini» isbot qilish uchun bekorga bir odamni otib tashlashdan ham toymaydi, dunyoda minba'd urush bo'lmasin deb, sovet hokimiyati uchun, kommunizm uchun kurashgan bir odam, Don tuprog'ida uning qo'lida nobud bo'ladi.

Natijada bepoyon Sovetlar Rossiyasining Moskva gubernasi yoki Vyatka gubernasidagi qishloqlardan birida yashagan mushtipar ona: «O'g'lingiz mehnatkash xalqni pomeschchik va kapitalistlar zulmidan ozod qilish uchun oq gvardiyachilarga qarshi kurashda halok bo'ldi...» degan qora xatni oladi-yu, zor-zor yig'laydi... Yig'layverib ko'zlarida nur qolmaydi. Farzand dog'ida yuragi qon bo'ladi, to'qqiz oy qornida ko'tarib yurib, azoblar ichida qiynalib tuqqan nuridiyasini, noma'lum Don yurtida dushman qo'lida jon bergan o'g'lini o'la-o'lguncha esidan chiqarolmaydi.

Arafa kunlari frontdan qochgan tatarsklik piyoda sotnyaning odamlari baland-past qumtepalar, qip-qizil novda chiqargan tolzorlar orasidan borishardi. Yoshlarning kayfi chog', olamni suv bossa — to'pig'iga kelmasdi, «pahlavon» laqab qo'yilgan qariyalar esa, hadeb uh tortishar, ko'z yoshlarini yashirishardi; yer haydash, mola bostirish, don sepish payti kelgan, dehqonning patagiga qurt tushib,



kecha-yu kunduz xayoli yerda edi; aksiga xuddi attang oyida urush qilish, begona qishloqlarda o'lib ketaverishga yoki vahima ichida, ochyalang'och, umrini bekordan bekor o'tkazishga majbur edilar. Shuning uchun chollarning ko'zlari yoshlanar, shuning uchun qovoqlaridan qor yog'ardi. Har qaysisi egasiz qolgan ro'zg'orini, asbob-uskunasini, o'z kam-ko'stini, shikast-rextini o'ylardi. Bularni tuzatish uchun erkakning qo'li, erkakning ko'zi kerak; xotinlarning qo'lidan nima kelardi? Yerning nomi qochib, vaqtida ekib olmasang, kelasi yil och qolishing turgan gap. Xalq: «Qari bilganini pari bilmas», — deb bekorga aytmaydi.

Qariyalar churq etmay qum kechib yurishardi. Yoshlardan bittasi quyonga o'q uzgandagina ular jonlanib qolishdi. Bekorga patronni isrof qilgan bolani chollar o'rtaga olib jazolamoqchi bo'lishdi (qo'zg'olonchilar qo'mondonligining buyrug'iga binoan bekorga o'q otish qattiq taqiqlangandi). Hamma alamlarini boladan olishdi.

— Qirq darra! — deb taklif qildi Panteley Prokofyevich.

— Ko'plik qiladi!

— Sotnyaga yetolmay, yo'lda qolib ketmasin!

— O'n ol-ti-ta! — deb chuldirardi Xristonya. Juft son bo'lgani uchun bu taklif hammaga ma'qul tushdi. Aybdorni qumga yotqizib ishtonini tushirishdi. Xristonya xirgoyi qilib qalamtaroshi bilan popuk chiqargan novdalarni kesib berdi. Anikushka savaladi, qolganlar shu yerda tamaki chekib o'tirishdi. Keyin yana yo'lga tushishdi. Kaltaklangan bola ishtonini ko'tarib, ko'z yoshini artib hammadan keyinda sudralib borardi. Qumtepalardan oshib, bo'z tuproq yerga chiqqanlaridan keyin ekin-tikin, tirikchilikdan gap boshlandi.

— Ana bu quling o'rgilsin yer egasini kutib yotibdi! Egasi zang'ar qaysi go'rlarda adashib-uloqib yuribdi, urushdan qo'li bo'shamaydi, — deb xo'rsindi qariyalardan biri nami qochgan bir bo'ltak shudgorni ko'rsatib.

Kazaklar kuzda haydab qo'yilgan shudgor yonidan o'tib borishar, har biri engashib, bahor quyoshida iligan kesakdan bittasini olib kaftida uvalar, uh tortardi.

— Yer yetilibdi!

— Ayni mola bostiradigan vaqti kelibdi.

- Uch kun tursa o‘tib ketadi, keyin ekib bo‘psan.
- Hali bizda, daryoning narigi betida picha vaqt bor.
- Ha-ha, vaqt bor, albatta! Qaragin, huv ana, jarning tepasidagi tog‘ etaklaridan qor ketganicha yo‘q.

Nihoyat, dam olgani o‘tirishdi, ovqatlanishdi, Panteley Prokofyevich xaltasidan suzma olib kaltak yegan bolani siyladi (chol xaltani miltiq uchiga bog‘lab olganidan, yo‘l-yo‘lakay suzmaning zardobi tomchilab kelardi, Anikushka kula-kula: – Prokofich, ho‘kizga o‘xshab zardobingni oqizib ketyapsan-a, seni qidirgan odam bema-lol izingdan topib oladi, – deb askiya qilgan edi). Chol bolaning ko‘nglini ko‘tarmoqchi bo‘lib nasihat qilardi.

– Qariyalardan o‘pkalama, tentak. Kaltak yesang yebsan-da. Odam kaltak bilan pishiydi.

– Sizniyam kaltaklashganda-ku, unday demasdingiz, Panteley buva!

– Men-chi, bolam, bundan battarroq kaltaklarga chidaganman.

– Chidab bo‘psiz!

– Ha-da, chidaganman. Qadimgi kaltakning oldida hozirgisi holva-ku! Ilgari ayamasi edilar.

– Ayashmasdi-ya!

– Ha-da, ayashmasdi. Meni-chi, bolam, dadam so‘yil bilan yelkama tushirgan – arang o‘zimga kelganman.

– Suyilminam-a!

– So‘yilminam dedim, ishonaver-e! Hey nodon! Suzmani yesang-chi, buncha og‘zimga tikilasan? Qoshig‘ing savil ham bedasta ekan, sindirganmisan deyman? Lapashang! Haliyam sen itvachcha, oson qu-tulding!

Tushlik ovqatdan so‘ng sharobday mast qiluvchi bahor havosida qittay mudrab olmoqchi bo‘lib cho‘zilishdi, orqalarini oftobga berib, birpasgina xurрак otib olishdi. So‘ngra yana o‘rinlaridan turib yo‘lga tushishdi, yo‘lni qo‘yib, bo‘z dashtdan, bulturgi bug‘doypoyalardan tikkasiga kesib chiqishdi. Ba‘zilari kurtka, shinel, ba‘zilari chakmon, oshlangan kalta po‘stin kiyib olgan, oyoqlarida etik yo choriq, chalvar pochalari oq paypoq qo‘njiga qistirilgan, ba‘zilari yalangoyoq holda qadam tashlab ketishardi; ovqat solingan xaltalari nayza uchida tebranib borardi.

O'z sotnyasiga qaytib kelayotgan kazaklarning qiyofalariga qarab hech kim ularni askar deb o'ylamasdi, hattoki moviy osmon qo'ynida sayrayotgan to'rg'aylar ham kazaklarni pisand qilmay, yo'l bo'yidagi ko'kalmazorga bemalol qo'naverishardi.

\* \* \*

Grigoriy Melexov Tatarskda bironta kazakni topolmadi. Ertalab o'g'ilchasi Mishatkani oyog'idan olib otiga mindirdi-da, Donga olib tushib sug'orib kelgani jo'natdi; o'zi Natalya bilan Grishak boboni ko'rgani ketdi.

Lukinichna kuyovi bilan yig'lab-siqtab ko'rishdi:

— Grishenka, aylanay bolam! Joyi jannatda bo'lgur Miron Grigoryevichdan ayrilib, kafangado bo'ladiganga o'xshaymiz endi... Yerlarimizni kim ishlab beradi endi? Omborxonaga to'la don, biroq ekadigan odam yo'q. Voy, peshonamning sho'ri qursin! Yetim qoldik bolam, hech kimga kerak bo'lmay qoldik, hamma bizdan yuz o'girdi!.. Ro'zg'orimizning ahvoliga bir qaragin, xarob bo'lgan. Qo'limiz ishga bormaydi, nima qilishimizni bilmaymiz...

Korshunovlarning xo'jaligi rostdan ham vayron bo'lgan edi: ho'kizlar qo'ra atrofidagi chetanlarni ag'darib tashlagan, ba'zi qoziq va tirgovichlari og'ib ketgandi; bahor yog'ingarchiligida ostidan zax urib, saroyning kesak devorlari qulagan, g'aram atrofida g'ovlar yiqilib tushgan, hovli iflos edi; bostirma tagida zanglagan o'roq mashina, uning yonida o'radigan chalg'isi sinib yotardi... Hamma yoq vayrona, xarobaga aylanishiga sal qolgan edi.

Grigoriy Korshunovning qo'ralarini aylanib chiqib, beparvolik bilan: «Egasiz qolgandan keyin sal o'tmasdan ro'zg'ori nurab qolibdi», deb o'yladi, keyin uyga qaytib kirdi.

Natalya onasiga allanimani shivirlab gapirayotgan edi, Grigoriyni ko'rib to'xtab qoldi-da, xushomad qilib jilmaydi.

— Oyim sendan iltimos qilmoqchi, Grisha... Sen dalaga chiqmoqchi eding, shekilli... Bulargayam biror desyatina don sochib bera olasanni?

— Don ekib nima qilasiz, onajon? — deb so'radi Grigoriy. — Omborxonaga to'la bug'doyingiz bo'lsa...

Lukinichna qars urib:

— Voy, Grishenka! — dedi. — Shuncha yer ekinsiz qolib ketaveradimi axir? Cholim bechora kuzakda uch taxta yerni shudgor qilib qo‘ygan-a!

— Ekinsiz qolsa yerga bir gap bo‘ladimi? Jin urmaydi! O‘lmasak — kelasi yili ekarmiz.

— Iye, yer bekor yotaversa — maylimi?

— Front biroz tinchisin, innaykeyin ekaverasiz, — deb qaynanasini ko‘ndirmoqchi bo‘ldi Grigoriy.

Biroq kampir o‘z gapida qattiq turib oldi, hattoki kuyovidan arazlaganday, labini burib:

— Nimayam deyin endi, balkim qo‘ling tegmas, yoki bizga qarashging kelmayotgandir... — dedi.

— Xo‘p, roziman! Ertaga dalaga chiqib urug‘ sochaman, o‘shanaqasi sizgayam ikki desyatina ekib beraman. Sizlarga shuyam kifoya... Grishak buvam tirikmi?

— Voy, baraka topkur-ey! — deb Lukinichna suyunib ketdi. — Gripashkaga hali tayinlayman: urug‘lik bug‘doyni dalaga yetkazib beradi... Buvangmi? Xudoyim uni tezroq ola qolmayapti. Tiriklikka tirik, miyasi sal-pal aynigan, xolos. Kecha-yu kunduz tinmay tilovat qiladi. Gohida bir nimalar deb chuldirab ketadi, nima deganini tushunib bo‘lmaydi, cherkov tilida gapiradi chog‘i... Oldiga kirib ko‘rib chiqsang bo‘lardi, bolam, hujrada o‘tiribdi.

Natalyaning lo‘ppi yuzidan bir tomchi ko‘z yoshi oqib tushdi. U yosh aralash jilmaydi.

— Men hozir oldiga kirsam: «Ha, mug‘ambir! Bir kelib, buvangdan nega xabar olmaysan? — deb gina qildi. — Vaqt-soatim yaqin qoldi, jigarim... Jon taslim qilib, xudo dargohiga borganimda haqingga duo qilaman. Qora yerga kirgim keladi, Natalyushka... Meni yer chorlayapti. Vaqt-soatim yaqin», — deydi bechora buvam.

Grigoriy hujraga kirdi. Buho‘r hidi, mog‘orlagan va chirigan narsalarning sassig‘i, keksa irkit odamning isi gup etib dimog‘iga urildi. Grishak bobo hali ham o‘sha qizil bog‘ichli kulrang harbiy mundirida; so‘ri taxta ustida o‘tirardi. Oyog‘idagi keng chalvari, jun paypog‘i tepchilgan, yamalgan edi. Bobo hozir butunlay Gripashkaning qaramog‘ida edi; opasi Natalya qizlik mahalida bobosiga qanday mehribon,

qanchalik jonkuyar bo'lsa, u ham o'shanday, boboning osh-suvidan xabar olib turardi.

Grishak bobo tavrotni tizzasining ustiga qo'yib olgan edi. U gardi-shining misi ko'karib ketgan ko'zoynak ustidan Grigoriyga qaradi-da, oppoq tishlarini ko'rsatib iljaydi.

— Ha, askar bola! Haliyam tirikmisan? Daydi o'qlardan xudo asrapti-da! Xudoga shukur. Qani, o'tir.

— O'zingiz bardammisiz, buvajon?

— A?

— Sog'ligingiz qalay? — deyapman.

— Tentak! O'lay agar, tentaksan! Shuncha yoshga kirgan odamda sog'lik nima qilsin? U yog'ini so'rasang, yuzga borib qoldim. Ha, yuzga... Hech narsa ko'rmagandayman. Kechagina soch qo'yib, olifta bo'lib yurgan baquvvat yigit edim. Ko'z yumib ochguncha qartayib qolibman... Umr yoz shamolidek g'ir etib o'tdi-ketdi... Kuch-quvvatdan ayrildim. Tobutim ancha yildan beri omborxonada tayyor turibdi, biroq xudoyim meni unutdi, shekilli... Bir xil paytlari noshukurchilik qilib xudoga yolvoraman «Parvardigor, menday osiy bandaning holiga rahm qil! Yer mendan bezor bo'ldi, men yerdan. Ol omonatingni!..» — deyman.

— Hali ko'p yashaysiz, bobo. Og'zingiz to'la tish.

— A?

— Tishlaringiz butun, deyapman.

— Tishmi? Hey, ahmoq!.. — Boboning jahli o'hiqdi. — Joning og'zingdan chiqayotganda tishlaring ushlab qololmaydi. .. Xo'sh, haliyam jang qilayapsanmi, shovvoz?

— Ha.

— Mityushkamiz ham o'sha ketganicha haliyam daragi yo'q. Falokat bossa, daydi o'q tegib o'lishi hech gapmas.

— Hech gapmas.

— Menam shunisiga dog'man. Nimani talashib urushyapsiz? Nimaligini o'zingizam bilmaysiz! Har bir ish xudoning xohishi bilan bo'ladi. Mironim nima sababdan o'lib ketdi, bilasanmi? Xudoning xohishiga qarshi chiqdi: xalqni hukumatga qarshi qo'zg'atdi. Har bir hukumatni xudo yuboradi, tepangda dajjol bo'lsa ham xudodan ko'raver. O'shanda men unga aytdim-a: «Miron! Sen kazaklarni yo'ldan ozdir-

ma, hukumatga qarshi qo'zg'atma, hammang gunohkor bo'lasan, balog'a qolasan!», dedim. Lekin u: «Yo'q, dada, chidab turolmayman! Qo'zg'olon ko'tarish kerak, bu hukumatni yo'qotish kerak, yo'qsa hammamizni kafangado qiladi. Odamgarchilikdan chiqib tilanchi bo'lishga tobim yo'q», — deb aytganida turib oldi. Ana o'jarlikning oqibati. «Qilich ko'targan — qilichdan halok bo'ladi» — deyilgani haqrost chiqdi... Odamlar seni, generallik mansabiga mindi, diviziya komandiri bo'ldi, deyishadi. Rostmi, Grishka?

— Rost.

— Komandirmisan?

— Ha, komandirman.

— Pogonlaring qani?

— Pogon taqishni bekor qilganmiz.

— Voy, isqirtlar-ey! Bekor qilganmish! Sendan tuzukroq general chiqarmikin? Sho'ring qursin! Qadimda generalni ko'rsang, hayron qolarding: semiz, qorni katta, savlatli bo'lardi. Ahvolingga qaragin... Seni general degan kishining o'zi ahmoq! Egningdagi shinelning dog'-dog' bo'lib, yag'iri chiqib ketibdi, na kiftida pogon bor, na ko'ksingda oq lenta. Lekin choklari to'la g'uj-g'uj bit bo'lsa kerak.

Grigoriy hoholab kulib yubordi. Biroq Grishak bobo battar qizishib gapida davom etdi:

— Kulmagin, haromi! Odamlarni hukumatga qarshi qo'zg'atib, ajal sari boshlab yuribsan. Boshdan oyoq gunohga botib, tag'in tishingning oqini ko'rsatib kulasan-a! Xo'sh?.. Shuni yaxshi bilib qo'y... baribir hammang asfalasofilinga ketasan, sizlarga qo'shilib biz ham ketamiz. Xudo xudoligini qilsa — o'z qudratini sizlarga ko'rsatib qo'yar hali. Tavrotida keltirilgan suralarda hozirgi notinch zamonamiz to'g'risida bashorat qilingan bo'lsa, nima deysan? Qani, quloq sol, men senga Zikriyo payg'ambar aytgan gaplarni o'qib beray...

Chol sarg'aygan barmoqlari bilan tavrotning sarg'aygan sahifalarini varaqladi; har bir so'zni dona-dona qilib, shoshmasdan o'qiy boshladi:

— «Bashorat bo'ldi deb olamga jar solinglar, tamomiy xalqlarga yashirmay aytinglarkim: qal'ayi Bobil zabt etilgay, Vil sharmisor bo'lib, Marduk yengilgay, qasrlari vayron, butlari zer-zabun bo'lg'ay. Andoq kim shimol tarafdan sohibqiron qabila anga qarshi bosh

ko'targusidir; ul qabila buning yerlarini cho'l-biyobonga aylantirgay va andin na inson, na hayvon omon topmay qochg'aylar...» Tushundingmi, Grishka? Shimoldan xalqlar keladi, sizdaqa bobilliklarning dumlarini tugib qo'yadi. U yog'ini eshit: «O'sha zamon-u o'shal soatda Bani Isroil avlodlari ila Yahudo avlodlari cho'l-u biyobonlar kezib zor-zor yig'lagaylar, nihoyat, o'z parvardigorini topgaylar. Parvardigor anda degaykim: bandalarim qo'ydin ham yuvosh erdi, cho'ponlar alarni yo'ldan ozdirdilar, o'z yurtlaridan ayirib tog'-u toshlar orasida sargardon qildilar».

— Buning ma'nisi nima? Bu nima degani? — deb so'radi cherkovslavyan tilini yaxshi tushunmaydigan Grigoriy.

— Ma'nisi shuki, sizlar ham tog'ma-tog' sargardon bo'lasiz hali, juvonmarg fitnachilar! Sizlar kazaklarga serka bo'lolmaysiz, chunki o'zingiz qo'ydan battarsiz, nima qilayotganingizni o'zingiz bilmaysiz... U yog'ini eshit: «O'z yurtidin judo bo'lganlarni kimiki topsa bitdek taladi». Bunisi haqrost! Hozir bitga talanayotganlaring yo'qmi?

— Bitdan o'lib bo'ldik, — deb iqror bo'ldi Grigoriy.

— Mana endi hammasi rost chiqyapti. U yog'ini eshit: «Dushmanlar aytur edilar: alarg'a amon cho'qdur, zeroki, alar parvardigor qoshida osiy erurlar. Parvardigor aytdikim: Bobildin qochinglar, kaldoniy tuprog'idan olisg'a ketinglar; qo'ylarg'a bamisli serka yanglig' bosh bo'linglar. Shimol taraflardin ulug' xalqlarni qo'zg'atg'aymen va alarni Bobil ustiga kelturgaymen. Alar tig' tortib kelurlar, otgan o'qlari xato ketmagay, shu vajdin, Bobilni zabt etgaylar. Kaldoniylar yurti xarobazorga aylangay, ani g'animlar talon-toroj qilg'aylar. Ammo siz ko'mamaklar mening bor-u yo'g'imni yag'mo ayladingiz, to'y-u tamoshodin, aysh-ishratdin bosh ko'tarmadingiz...»

— Grishak buva! Hech nima tushunmayapman, menga ma'nisini ruscha qilib gapirib bera qolsangiz bo'lardi, — deb cholning so'zini bo'ldi Grigoriy.

Biroq chol tamshandi, ifodasiz ko'zlarini unga tikdi.

— Hozir tamomlayman, oxirini eshit, dedi: — «...Buzoqlar singari irg'ishlab, ho'kizlar singari suzishib yuraverdingiz... Onalaringiz sizlarni tuqqanlariga pushaymon bo'lg'aylar, sharmisorlikdan sochlarin yulgaylar, el taqdiri shu zayl kechgay, ekinzorlar qaqrab cho'l-u bi-

yobonga aylangay. Parvardigor qahr-u g'azabidan ul yerlarda tirik jon qolmag'ay; Bobildin o'tgan har kimsa aning xarobalarin ko'rib hayratga tushgay, hayhot deya faryod etgay».

— Bu gaplarning ma'nisi nima? — deb qayta savol berdi Grigoriy, tushunolmaganiga alam qilib.

Grishak bobo javob bermasdan Tavrotni yopdi-da, karavotiga yotdi.

Grigoriy hujradan chiqib ketayotib o'ylandi: «Azaldan odamzodning ahvoli shu: yoshligida o'lguday sho'xlik qiladi, aroq ichadi, har qanday gunoh ishlardan qaytmaydi, yoshligida qancha ko'p gunoh qilsa, qariganda shunchalik xudojo'y bo'lib qoladi. Masalan, Grishak boboni olaylik, tishlari but-butun, yoshligida o'lguday bezori edi, deyishadi: askarlikdan qaytganda qishloqdagi xotinlarning dodini bergan ekan; to'g'risiniyam, egrisiniyam qo'lga tushirgan ekan. Mana hozir bo'lsa... Mabodo meniyam umrim uzoq bo'lsa, qariganimda men bu safsatani o'qimaganim bo'lsin! Tavrot-u Injilga mening tobim yo'q».

Grigoriy qaynanasinikidan qaytarkan, Grishak boboning gaplari, tavrotida yozilgan sirli va dudmal «hikmatli» so'zlar ustida bosh qotirar edi. Natalya ham churq etmasdan kelardi. Aftidan, Grigoriyning Kargin atrofida qishloqma-qishloq aysh-ishratga berilib, xotinbozlik qilib yurgani uning qulog'iga yetgan edi; shuning uchun u bu gal erini qovog'-u dimog' bilan kutib olgandi. Natalya eri qaytgan kuni kechasi uning joyini mehmonxonadagi karavotga solib bergan, o'zi sandiq ustida po'stin yopinib yotavergan edi, undan bir og'iz gap ham so'ramagan, eshitganlarini yuziga solib, ginaxonlik ham qilmagandi. Grigoriy, xotini nega bunday sovuq muomala qilayotganini surishtirib o'tirishning foydasizligini tushunib, indamay qo'ya qoldi...

Huvullagan kimsasiz ko'chada ikkisi bir-birini tanimagan begona kishilar singari churq etmay kelishardi. Janubdan iliqqina, mayin shabada esar, g'arbda quyuyq parcha-parcha oq bulutlar osmonni qoplab olgan edi. Bulutlarning ustki tomoni qor singari ko'kish tusga kirib tovlanar, asta suzib, shaklini o'zgartirib, ko'm-ko'k o't qoplagan tog'ning ustiga to'planishardi. Birinchi momaqaldiraq ovozi keldi, qori ketgan qora tuproq bilan kurtak chiqargan daraxtlarning hayotbaxsh hidlari qishloqqa yoyildi. Ko'm-ko'k Don sathida oppoq to'lqinlar yugurishib yurar, pastdan turgan shamol ajoyib rutubat hidini, ivigan yog'ochlarning, chirigan barglarning hidini olib keldi. Tepaning etagi-



da g'ijim baxmal singari qorayib yotgan bir bo'ltak shudgordan bug' ko'tarilar, Don bo'yidagi tog'larga tutashgan adirlar ustini ko'kish tuman qoplagan, yo'lning qoq tepasida to'rg'ay mast bo'lib sayrar, sug'urlar chiyillashib yo'lni kesib o'tishardi. Ana shu hayotbaxsh ajoyib olamni, mo'l-ko'l hosildan va to'qchilikdan darak beruvchi bahor manzarasini quyosh mag'rurlanib olisdan tomosha qilardi.

Qishloqning o'rtasiga yetganlarida Natalya jar ariqning ko'prigi yonida to'xtadi; tog'da erigan qor suvi shu ariqdan shildirab oqib o'tib Donga quyilardi. U chorig'ining ipini bog'lab olish bahonasi bilan jo'rttaga engashdi, haqiqatda esa yuzini Grigoriydan yashirish uchun shunday qilgan edi.

— Nega gapirmaysan? — deb so'radi Grigoriydan.

— Nimani gapiray?

— Nimani emish! Karginda aroqxo'rlik qilganingni gapir, vaqtichog'lik qilganingni gapir.

— Bu gaplar qulog'ingga yetdimi? — Grigoriy xaltachasini olib tamaki o'radi. Qashqarbeda aralashgan qo'lbola tamakining xushbo'y hidi gurkirab ketdi. Grigoriy yutinib chekdi-da, qayta so'radi: — Demak, eshitibsan-da? Kim aytdi?

— Hech kim aytmasayam bilaman. Butun qishloqning og'zida shu gap, tag'inam eshitmaymi?

— Eshitgan bo'lsang, nimasini so'raysan?

Grigoriy qadamini katta-katta qo'yib yurib ketdi. Jimjit bahor suknatida ko'prik taxtalari uning salmoqdor yurishidan bir me'yorda dukullar, shosha-pisha izma-iz kelayotgan Natalyaning oyoqlari ko'prikni taraqlatardi. Ko'prikdan o'tgach, Natalya anchagacha indamay, dam-badam ko'z yoshlarini artib kelaverdi, nihoyat, yig'lamsirab tutila-tutila:

— Yana eski qilg'ingni qilyapsanmi? — deb so'radi.

— Qo'ysang-chi, Natalya?

— Haliyam to'ymasingmi, ko'ppak? Qachongacha meni qiynaysan, axir?

— Sen ham yolg'on-yashiq gapga quloq solaverma-da...

— O'zing bo'yningga olding-ku!

— Ignaday narsani senga tuyaday qilib gapirib berishganga o'xshaydi. To'g'ri, qittay yo'ldan ozgan bo'lsam — bordir... Og'ir

turmush odamni shu yo'lga soladi. Natashka... Doim ajal ketingdan quvib yurgandan keyin, ba'zan boshing aylanib yo'ldan ozganingni bilmay qolasan...

— Bolalaring katta bo'lib qoldi! Ularga qarashga beting qanday chidaydi? Insofing bormi, axir?

— Insof emish, — Grigoriy tishlarining oqini ko'rsatib kuldi. — Insof degan narsani men butunlay unutganman. Turmushning rasvosi chiqib ketdi-yu, insof qoldimi endi?.. Odam o'ldirib, qon kechib yuribmiz... Bu falokat ishga qanday aralashib qolganimga hayronman... Senga qanday tushuntirsam ekan?.. Baribir tushunmaysan! Shu topda rashking qo'zigan, qulog'ingga gap kirmaydi, ahvolim qandayligini, ichimni it tirnab, nega qon yutayotganimni tushunolmaysan. Mana men aroqxo'rlikka ruju qildim. Anavi kuni birdan tutqanoq tutib, yuragim birdan to'xtab qoldi, a'zoyi badanim muzlab ketdi... — Grigoriyning yuzlari bo'zarib, tomog'iga bir narsa tiqilganday, arang gapirardi: — Ahvolim og'ir, Natashka, boshim qotgan, shuning uchun alamimni aroqdanmi, xotindanmi olyapman... Shoshmasang-chi! Sabr qil, dardimni aytay: yuragimga bir narsa xanjarday qadaladi, xolos... Hayotimiz noto'g'ri yo'lga tushib ketdi. Balki o'zim ham bunga sababdirman... To'g'risi, hozir qizillar bilan yarashib, kadetlar ustiga ot solish kerak edi. Biroq buni qanday qilish mumkin? Bizni Sovet hukumati bilan kim yarashtiradi? Oramizdagi shunchalik gina-kuduratlarni kim o'rtadan ko'tarib tashlaydi? Kazaklarning yarmi Donetsning naryog'ida qochib yuribdi, bu yerda qolganlari — vahshiylashib ketgan, ko'zlariga qon to'lgan... Kallam g'ovlab qolgan, Natashka... Hali buvang ham Tavrotdan dalil keltirib: «Noto'g'ri qildilaring, qo'zg'olon ko'tarish kerak emasdi», — dedi. Dadangni koyidi.

— Buvam — miyasini yeb qo'ygan odam, navbat endi senga keldi.

— Sendan faqat shuni eshitish mumkin. Bundan narisiga aqling yetmaydi...

— Qo'y-e, yaxshisi sen mening tilimni qichitmagin. Qilg'ilikni qilib-qilib, endi hamma aybni urushga to'nkamoqchi bo'lasan. Hammang bir go'rsan! Seni deb tortgan azoblarim kamlik qildimi, takasaltang? Bu kunimdan ko'ra o'shanda o'lib ketaverganim yaxshimasmidi...

— Endi sen bilan gaplashadigan gap qolmadi. Alamingga chidolmasang — dodlagin, yig‘lagin, xotin kishi biroz ko‘z yoshi qilib olsa, darrov ovunadi. Men bo‘lsam, baribir, seni ovutolmayman. Qon kechib yuraverib, menda rahm degan narsadan asar qolmadi. Hatto bolalarim ko‘zimga ko‘rinmaydi, o‘zimni-ku, gapirmasam ham bo‘ladi. O‘zimni o‘ylasam, yuragim orqasiga tortib ketadi: o‘zimdan o‘zim qo‘rqaman... Urush dilimni vayron qildi. Ko‘nglim qurigan quduqday qorong‘i, chi-roq yoqsang, yorishmaydi...

O‘tkinchi kulrang bulut orasidan qiyalamasiga shatirlatib yomg‘ir quyganda Grigoriy bilan Natalya uyga yetay deb qolgan edi. Yomg‘ir yo‘ldagi oftob hidi urgan yumshoq tuproqni shibbalab, tomlarga shatirlatib yog‘a boshladi, ajab xushbo‘y, mayin shabada esdi. Grigoriy shinel tugmalarini yechib, ho‘ngrab yig‘layotgan Natalyaning ustiga bir etagini yopdi-da, quchoqladi. Ikkisi bir shinel yopinib, bir-birining pinjiga kirib, sovur yomg‘iri ostida qo‘raga kirishdi.

Kechqurun Grigoriy hovliga chiqib, sixmolani tuzatishga, seyal-kaning don tushadigan novlarini to‘g‘rilashga kirishdi. Semyon Chugunning o‘n besh yashar o‘g‘li Melexovlarning eski plugiga bir amallab yangi tish qo‘yib berdi, u temirchilik hunarini o‘rganib olgan va qo‘zg‘olon boshlangandan beri Tatarskda yagona temirchi bo‘lib qolgan edi. Ko‘klamgi dala ishlariga kerakli hamma narsa taxt qilindi. Ho‘kizlar qishda etini oldirmadi: Panteley Prokofyevich g‘amlagan pichan bemalol yetib ortdi.

Grigoriy ertalab dashtga jo‘namoqchi edi. Ilinichna bilan Dunyashka qo‘shchining ovqatini ertaroq pishirib berish harakatiga tushishib, kechqurundanoq pechga o‘t qaladilar. Grigoriy dalada to‘rt-besh kun ishlab, o‘zi va qaynanasining yerlariga don sepmoqchi edi; bundan tashqari, kungaboqar va poliz ekinlari uchun besh desyatinacha yer haydamoqchi va bu yerlarni ekib olish uchun sotnyada yurgan dadasini chaqirtirmoqchi edi.

Mo‘ridan binafsharang tutun buruqsib chiqib turar, bo‘yi yetib qolgan Dunyashka qo‘rada aylanib yurib tutantiriq uchun cho‘pchak terardi. Grigoriy singlisining qaddi-qomatiga, to‘lishgan ko‘ksiga qarab, g‘amgin o‘ylardi: «Qizmisan qiz bo‘lib yetilibdi! Umr — ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketyapti. Yaqindagina Dunyashka mishig‘ini oqizib yurardi; yugursa — sochi sichqon dumiga o‘xshab yelkasida lip-lip o‘ynardi, ana endi

qarang, haddi kamolga yetgan qayliq. Mening bo'lsa sochimga oq oraladi, yoshligim o'tdi-ketdi... Grishak boboning: «Umr yoz shamolidek g'ir etib o'tdi» — degani haqrost. Odamzodning umri o'zi kalta-yu, shu kalta umrning oxiriga yetmay o'lib ketsang, alam qiladi-da... Ming la'nat bunday umrga! O'ldirishadigan bo'lsa, tezroq o'ldirishgani yaxshi».

Shu payt Darya Grigoriyning yoniga keldi. Petro o'lgandan keyin Darya sal oradayoq boshiga tushgan musibatni unutilib yuborgan edi. Dastlabki kunlari erining motamida somunday sarg'ayib, rang-ro'yi ketgan, munkayib qolayozgan edi. Biroq bahor shabadasi esib, sal-pal kun ilishi bilan, Daryaning dard-u g'amlari ham ko'nglidan ko'tarildi. Cho'zinchoq yuzi gulday ochilib, nursizlangan ko'zlari yana o'tday chaqnay boshlagan, avvalgiday jilva qilib yuradigan bo'lib qolgan edi... Eski odatini qilib, ingichka kamon qoshlarini qoraga bo'yar, yuzlariga yog'upa surtib pardozi qilardi; ko'ngli hazilni qo'msab o'ynashgisi, uyat gaplar bilan Natalyaning jig'iga tekkisi kelardi; allanimani kutayotganday, o'zidan o'zi ko'zini suzib, labini burib dam-badam jilmayaverardi... Hayot g'oliblik qilgan edi.

Darya Grigoriyning yoniga kelib, jilmayib turaverdi. Uning chiroyli yuzidan o'tkir yog'upa hidi kelardi.

— Senga qarashgani keldim, Grishenka!

— Qarashadigan ish yo'q.

— Voy-ey, Grigoriy Panteleyevich! Menday bechora, beva xotinga buncha zarda qilasisiz axir? Bir kulib boqmaysiz, bormisan, yo'qmisan demaysiz.

— Mahmadonalik qilguncha, borib ovqatni pishirsang-chi!

— Ho, menga zaril kelibdi-da!

— Hech bo'lmasa, Natalyaga qarashgin. Mishatkaning ahvolini ko'r: aftiga odam qarab bo'lmaydi.

— Bir kamim shu edi! Tug'adigan u-ku, men kir-chirini yuvaymi? Dadasiga balli! Natalyang bola tug'ishda quyonna qochiradi. Hali qarab tur, senga o'ntasini tug'ib beradi. Bularni yuvadigan bo'lsam, qo'limda qo'l qolmas.

— Bo'ldi, bas qil! Uyga kir!

— Grigor Panteleyevich! Qishloqda erkak zotiga qirg'in keldi: yolg'iz siz borsiz. Ket demang, olisdan bo'lsayam birpas xushmo'yovlaringizni tomosha qilib to'yay.

Grigoriy kulib yubordi, terlagan peshonasiga osilib tushgan sochlarini orqasiga tashladi.

— Obbo dog‘uli-ye! Petro sen bilan qanday yashadi-ya? Shaytonni yo‘ldan urarsan deyman.

— Bo‘lmasa-chi! — deb kerilib gapirdi Darya; so‘ngra cho‘chigandek, uy tomonga javdirab qaradi-da, Grigoriyga noz-karashma bilan ko‘z qisdi: — Voy, Natalya chiqib qoldimi, debman-a... Xotinchang biram qizg‘anchiqki, asti qo‘yaver! Boya tushlik ovqat mahalida senga bir qarab qo‘yganimga jon-poni chiqib ketdi. Qishloqdagi yosh-yosh juvonlar kecha menga: «Bu qanday gap? Kazaklar qorasini ko‘rsatmasa, ozib-yozib, uyiga bir kelgan Grishka xotinidan bir qarich siljimasa, xo‘sh, biz nima qilaylik, dodimizni kimga aytaylik? — deyishdi. — Hamma yog‘i dabdala bo‘lib, sharti ketib, parti qolgan bo‘lsa-da, ulfatchilik qilsak — armondan chiqardik. O‘ziga tayinlab qo‘ygin: kechalari qishloqda yolg‘iz yurmasin, tutib olsak bilganimizni qilamiz», — deyishdi. Men ularga: «Yo‘q, ovsinlar, Grishamiz begona qishloqlardagina sayoq yursa-da, uyga kelganda Natalyaning etagini sira qo‘yvormaydi. Grishamiz yaqindan beri avliyo bo‘lib qoldi...» dedim.

— Obbo manjalaqi-ye! — deb beg‘araz kuldi Grigoriy. — Tag‘in ham tilingga kuydirgi chiqmaydi!

— Biz gapirsak, darrov achishadi-da. Lekin ko‘z ochib ko‘rgan oyimtilla Natashkang kecha seni rosa bopladi-kul! Ajab bo‘ldi! Sayoq yursang — tayoq yeysan!

— Hoy, haddingdan oshma... Bor, Dashka, uyga kir. Er-u xotin orasiga tushma.

— Men o‘rtalaringga tushayotganim yo‘q. Natalyangning esi pastligiga dog‘man. Eri kelibdi-yu, xotin o‘lgur noz qilib, sandiq ustiga joy solib yotibdi... Qani, shu topda bironta kazak ro‘para kelib qolsa, jon derdim!.. Sendaqa botirlarniyam birpasda mulla qilardim-qo‘yardim!

Darya tishlarini g‘ijirlatib hoholab kuldi-da, xijolat chekib iljaygan Grigoriyga qaray-qaray, oltin isirg‘asini yiltiratib uyga kirib ketdi.

«Esing borida o‘lib olgan ekansan, Petro aka... — deb ichdan kulardi Grigoriy. — Bu Darya emas, yuho! Bu xotin seni bir kunmas, bir kun baribir go‘rga tiqardi».

## XLVII

Baxmutkin qishlog'ida so'nggi chiroqlar so'ndi. Sovuq turib, ko'lobchalar betini yupqa muz qopladi. Qishloqning naryog'idagi yaylovga, bulturgi bug'doypoyaga bir gala turna tunagani qo'ngan edi. Sharqi-shimoldan esgan yel holdan toygan turnalar tovushini qishloqqa olib kelardi. Turnalarning qurqurashi aprel tunining orombaxsh sukunatiga husn bag'ishlardi. Bog'lar ko'lankada mudrashardi; allaqaylarda sigir ma'rardi; so'ngra hamma yoq jimidi, yarim soatgacha tiq etgan ovoz chiqmadi; faqat kechasi loyxo'raklarning g'amgin chiyillashi bilan uchib o'tgan sonsiz o'rdaklar qanotining shuvullagani sukunatni buzardi; o'rdaklar gala-gala bo'lib, Don suvi toshgan keng soyliklarga qarab tez-tez uchib o'tishardi... Nihoyat, eng chekkadagi ko'chadan bir to'p odamning ovozi chiqdi, papiros cho'g'lari yiltillab ko'rindi, otning pishqirgani, qatqaloq bo'lib qolgan loyning ot tuyoqlari ostida to'qillashi eshitildi. Qo'zg'olonchilarning 6-alohida brigadasiga qarashli ikkita sotnya kazaklar joylashgan bu qishloqqa razvedkachilar qaytib keldi. Qazaklar gurunglashib, eng chetki qo'raga tushishdi, hovlining o'rtasida yotgan chanaga otlarini bog'lab, pichan solishdi. Kimdir qo'shiqni raqs kuyiga solib, so'zlarini dona-dona qilib, yo'g'on ovoz bilan xirgoyi qila boshladi.

*Asta-asta qadam tashlab bordim men,  
Jazmanimga luqma tashlab qoldim men.  
O'tgan eski muhabbatdan so'z ochib,  
Ermak uchun qizni o'pib oldim men.*

O'sha zahoti qo'ng'iroqday ingichka sho'x ovoz undan oshirib sayray ketdi.

*U hazilni bilmadi-yu, so'zimga  
Xafa bo'ldi, solib qoldi yuzimga.  
Bu xo'rlikka chidolmadi yuragim,  
Butun dunyo tor ko'rindi ko'zimga.*

Yana bir necha yo'g'on ovozlari unga jo'r bo'ldi, ashula o'ynoqi tus oldi, ingichka ovoz avjiga chiqib, jaranglay boshladi, qo'shiqqa jon kirib, barala osmonga ko'tarildi:

*O'ng qo'limni tirsakkacha shimarib oldim,  
Qulog'ining tag-tagiga tushirib qoldim,  
Quloq tagi lavlagidek qip-qizardi-yu,  
Ne qilishin bilolmasdan turib qoldi u.  
Ho'ngrab dedi; ko'zidan yosh oqiza turib,  
Yetti qizni laqillatib yo'ldan urib,  
Bu ham ozdek sakkizinchi bir tul xotinni,  
To'qqizinchi o'z xotining, o'ninchi meni  
Aldab yurding, e vafoni bilarmiding sen.  
Kelib-kelib menga vafo qilarmiding sen.*

Haydovsiz qolgan ekinzorda yurgan turnalar ovozini ham, kazaklar qo'shig'ini ham, zim-ziyo qorong'ilikda uchib o'tgan o'rdaklar qanotining shovullashini ham shamol tegirmon orqasidagi pistirmada yotgan kazaklar bemalol eshitishardi. Ular kechasi ayozda muzlagan zax yerga bag'rini berib yotishdan bezor bo'lgandilar. Papiros chekish, gaplashish mumkin emas, u yoq-bu yoqqa yurib oyoqning chigilini yozish yoki bir-birlari bilan turtishib qizishib olishning iloji yo'q. Miq etmay yotish kerak: bulturdan qolgan kungaboqar poyalari orasida qop-qorong'i dashtga tikilib, tiq etgan tovushga quloq solib yotaverish kerak. Shu qadar qorong'iki, o'n qadam joydagi narsani ko'rib bo'lmaydi; aprel tunida xilma-xil sharpa-yu shitirlagan tovushlar eshiti-laverdi; qorong'ilik ichidan goho shunday shubhali ovozlar keladiki, kazakni vahm bosadi: «Qizillar razvedkasi sekin-asta biqinib kelyap-timikin?» — deb o'ylaydi. Nazarida, go'yo olisda burgan qisirlab sin-ganday, qulog'iga pishillagan ovoz kelganday bo'ladi... Yoshgina ka-zak Vipryajkin, qorong'iga tikilaverganidan ko'zlariga chiqqan yoshni qo'lqopi bilan artadi-da, yonidagi kazakni tirsagi bilan turtadi. Lekin u charm to'rasini boshi ostiga qo'yib, ikki buklanib yotgan joyida mud-raydi, yaponcha o'qdoni biqiniga botsa ham, o'nglanib yotib olishga erinadi. Mahkam o'ranib olgan shinelining etaklari ostidan muzdek shamol kiritmaslik uchun qimirlagisi kelmaydi. Burganlarning shitir-lashi tobora yaqinlashadi, birdaniga Vipryajkin yonginasida bir narsa pishillaganini eshitadi. U tirsagini yerga tirab, boshini ko'taradi-da, hayron bo'lib, burgan poyalari orasiga tikiladi-yu, kattakon tipratikan-ning qorasini ko'radi. Tipratikan cho'chqanikiga o'xshash tumshug'i

bilan yer iskab, tikanlari bilan qurigan burgan shoxlarini shitirlatib, sichqon izidan pishillab boraveradi. Birdaniga u bir necha qadam narida qandaydir yov borligini sezib shartta to'xtaydi, boshini ko'tarib u yoq-bu yog'iga qaraydi-yu, o'ziga tikilib yotgan kazakni ko'radi. Kazak yengillanib erkin nafas oladi-da:

— Xah, palakat-ey! Jon-ponim chiqib ketdi-ya! — deb pichirlaydi...

Tipratikan darrov boshini yashirib, oyoqlarini yig'ishtirib oladi-da, tikanlarini hurpaytirib, dum-dumaloq bo'lib yotadi, birpasdan keyin asta-sekin boshini chiqarib, oyoqlarini muzday yerga qo'yadi-yu, kungaboqar poyalariga turtinib, qurigan cho'p-chorlarni shitirlatib koptokday pildirab jo'nab qoladi. Dashtni yana sukunat qoplaydi. Aprel tuni etakday go'zal...

Qishloqda xo'rozlar ikki chaqirdi. Osmon yorishdi. Siyrak bulutlar orasidan bitta-yarimta yulduz ko'rindi. So'ngra, shamol turib bulutlarni to'zitib yuborgandan keyin, osmon beaded oltin yulduzlari ila yerni tomosha qila boshladi.

Shu choq Vipryajkin, ro'paradan kelayotgan otning tuyuq tovushini, burgan o'tlarining qisirlaganini, yana allaqanday temirdan yasalgan narsaning shaldiraganini, sal o'tmay, egar g'irchillaganini ham aniq-taniq eshitdi. Boshqa kazaklar ham eshitishdi. Hammasi miltiq tepkisi-ga barmog'ini qo'yib poylab turdi.

— Tayyor bo'li! — dedi shivirlab vzvod komandirining muovini.

Charaqlagan osmon fonida xuddi toshdan yo'nib ishlangan haykalday, yolg'iz otliqning qorasi ko'rindi. Allaqanday odam qishloq tomon sekin-asta bormoqda edi.

— To'x-taa!.. Kim u... Parol nima?.. Kazaklar otishga tayyorlanib, o'rinlaridan irg'ib turdilar. Otliq otini to'xtatib, qo'llarini ko'tardi.

— O'rtoqlar, o'q otmang!

— Parol nima?

— O'rtoqlar!..

— Parol nima? Vzvoood...

— To'xtanglar, axir!.. Men yolg'izman. Taslim bo'laman...

— To'xtanglar-chi, birodarlar! Otmanglar! Tiriklayin qo'lga olamiz!..

Vzvod komandirining yordamchisi otliqning yoniga chopib bordi, Vipryajkin esa, ot jilovidan ushladi. Noma'lum odam oyog'ini egardan oshirib yerga tushdi.



— Sen kimsan? Qizillardanmisan? O‘ho‘, birodarlar, naq o‘zi ekan! Papog‘ida yulduzi bor. Qo‘lga tushding-ku, aaa!

Noma‘lum odam oyoqlarining chigilini yozib, pinagini buzmasdan gapirardi:

— Meni boshliqlaring oldiga oboringlar. Men unga juda muhim bir xabarni yetkazishim lozim. Men Serdob polkining komandiri bo‘laman, bu yerga muzokara olib borish uchun keldim.

— Komandi-i-ir?.. Birodarlar, bu iflosni o‘ldirish kerak! Luka bundog‘ tur, men buni hozir...

— O‘rtoqlar! Men qochib ketayotganim yo‘q, oldin keltirgan xabarimni boshliqlaringga aytay, keyin o‘ldiravermaysizmi... Takror aytaman: bu nihoyatda muhim masala. Agar meni qochadi deb qo‘rqsalaring, marhamat, qurolimni olinglar...

Komandir portupeylarini yecha boshladi.

— Yech! Tezroq yech! — deb shoshiltirdi kazaklardan biri.

Uning nagani bilan qilichi vzvod komandiri yordamchisi qo‘liga o‘tdi.

— Qani, serdoblik komandirni tintib ko‘ringlar-chi! — deb buyurdi u komandirning otiga minib.

Uni tintib chiqdilar. Vzvod komandiri yordamchisi bilan Vipryajkin uni oldilariga solib qishloqqa piyoda haydadilar. Vipryajkin avstritscha karabinni o‘qtalib, uning yonida borardi og‘zi-qulog‘iga yetgan vzvod komandiri yordamchisi otda ularning ketidan kelardi.

O‘n daqiqa chamasi indamay borishdi. Qo‘lga tushgan komandir dam-badam to‘xtab, shamolga etagini pana qilib gugurt chaqar, papiros chekardi. Xushbo‘y papiros hidi dimog‘iga uraverib, axiri Vipryajkin chidab turolmay:

— Mengayam ber, — deb so‘radi.

— Marhamat!

Vipryajkin papiros to‘ldirilgan charm portsigarni olib, bitta papiros chiqardi, so‘ngra portsigarni o‘z cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Komandir indamadi; biroz yurib, qishloqqa yetganlaridan keyin:

— Meni qayerga olib bormoqchisiz? — deb so‘radi.

— Borganda ko‘rasan.

— Aytib bo‘lmaydimi?

— Sotnya komandiriga.

- Meni brigada komandiri Bogatiryov yoniga boshlab boring.
- Bu yerda unaqa odam yo‘q.
- Nuchuk yo‘q? Kecha u o‘z shtabi bilan Baxmutkinga kelgan, men bilaman: u hozir shu yerda.
- Bizga ma‘lum emas.
- E, bo‘lmagan gap, o‘rtoqlar! Menga ma‘lum-ku, sizga ma‘lum emasmi?.. Bu gap dushmanlaringizga ma‘lum bo‘lgandan so‘ng, uni harbiy sir deb yashirmay qo‘ya qoling.
- Yur! Yur!
- Ketyapman-u, lekin meni Bogatiryov bilan uchrashtirasiz.
- Ovozingni o‘chir! Xizmat qoidasi bo‘yicha sen bilan gaplashishimiz sira mumkin emas.
- Xizmat qoidasi bo‘yicha birovning portsigarini tortib olish mumkinmi?

– Olsam olibman-da... Tilingni tiyib, indamay yuraver, yo‘qsa, shu topda shinelingniyam shilib olaman. Sendaqa arazchini qara-yu!

Yuzboshini arang uyg‘otishdi. U anchagacha ko‘zlarini ishqalab, yuzlarini tirishtirib esnayverdi, biroq sevinchidan og‘zi qulog‘iga yetgan vzvod komandiri yordamchisining nima deganini anglay olmadi.

– Kim deding? Serdob polkining komandiri? Rost aytyapsanmi o‘zing? Hujjatlarini ber.

Bir necha daqiqadan keyin yuzboshi komandirni brigada qo‘mondoni Bogatiryov turgan uyga boshlab keldi. «Serdob polkining komandiri qo‘lga tushib shu yerga keltirildi» degan xabarni eshitgach, Bogatiryov o‘rnidan irg‘ib turdi. Darrov chalvarining tugmalarini solib, yelkabog‘larini kiftlaridan o‘tkazdi, beshinchi lampani yoqdi-da, eshik oldida qo‘llarini ikki yonga qilib qotib turgan odamdan:

- Serdob polkining komandiri sizmisiz? — deb so‘radi.
- Ha, men Serdob polkining komandiri Voronovskiy bo‘laman.
- O‘tiring.
- Qulluq.
- Sizni... Sizni qanday qilib qo‘lga tushirishdi?
- Men o‘zim sizning oldingizga kelayotuvdim. Siz bilan xoli gaplashmog‘im kerak. Buyuring, boshqalar chiqib tursin.

Bogatiryov qo‘li bilan ishora qildi, qizil komandirni boshlab kelgan yuzboshi bilan og‘zini ochib, anqayib turgan uy egasi — eski

mazhabli chol chiqib ketishdi. Bogatiryov sochi taqir qilib olingan dum-dumaloq qora tarvuzga o'xshash boshini silab, kir bosgan ichki ko'ylakda stol yonida o'tirardi. Salqigan lunji, noqulay yotib qolgani-dan iz tushgan yuzidan masalani tezroq bilgisi kelgani ko'rinib turardi.

To'ladan kelgan, ixcham va kelishgan shinel kiygan, ikki kiftidan ofitsercha qayish o'tkazilgan o'rta bo'yli Voronovskiy erkinroq o'tirib oldi; kalta qilib qo'yilgan qora mo'ylovi ostidagi lablariga tabassum yugurdi.

— Yanglishmasam, janoblari ham ofitser bo'lsalar kerak? Avvalo, o'z to'g'rimda ikki og'iz gapirib o'tishga ruxsat etasiz, so'ngra bu yerga nima maqsadda kelganimni sizga ma'lum qilayin... Mening asli nasabim dvoryanlardan bo'lib, podsho armiyasida shtabs-kapitan edim. German urushi vaqtida Yuz o'n yettinchi Lyubomir o'qchi polkida xizmat etganman. Bir ming to'qqiz yuz o'n sakkizinchi yili Sovet hukumatining dekretiga binoan, kadr ofitseri bo'lganligim uchun meni armiyaga olishdi. Hozirgi vaqtda, o'zingizga ma'lum, Qizil Armiyaning Serdob polkiga komandirlik qilmoqdaman. O'zim Qizil Armiya safida bo'lsam ham, bolsheviklarga qarshi kurashayotganlar tomoniga o'tishni orzu qilib, ko'pdan beri payt poylab yurar edim...

— Payt poylagan odam buncha uzoq yurmaydi: janobi shtabs-kapitan...

— Men Rossiya oldida o'zimni oqlab olmoqchi edim; bir o'zim allaqachon qochib o'tishim mumkin edi, ammo men o'zim bilan birga qizil askarlarning sog'lom qismini ham olib o'tmoqchi edim, chunki bular, kommunistlarning tashviqotiga uchib, o'z aka-ukalariga qarshi noiloj urushmoqdalar.

Sobiq shtabs-kapitan Voronovskiy kulrang o'g'ri ko'zlari bilan Bogatiryovga qaradi-yu, uning gumonsirab iljayganini ko'rib, qiz boladay qizarib-bo'zarib, shoshqaloqlab qoldi:

— Albatta, janobi Bogatiryov, mendan gumonsirashingiz tabiiy, aytgan gaplarimga bovar qilmasligingiz mumkin... Sizning o'rningizda men bo'lsam, albatta, men ham shunday xayollarga borgan bo'lardim. Ruxsat etsangiz, kimligimni hujjatlar bilan isbot etaman... Rad qilib bo'lmaydigan dalillar ko'rsatib...

Shinel etagini qayirib, ko'k shimining cho'ntagidan qalamtarosh oldi-da, bukchayib (shunday egildiki, hatto yelkasidagi qayish tasma-

lar g'irchillab ketdi), shinel yoqasining chokini so'ka boshladi. Bir daqiqa o'tar-o'tmay so'kilgan yoqaning ichidan sarg'aygan qog'ozlar bilan kichkina fotosuratni oldi.

Bogatiryov hujjatlarni zo'r e'tibor bilan o'qib chiqdi. Qog'ozlarning birida: «Ushbu guvohnomani ko'rsatguvchi haqiqatda 117-Lyubomir o'qchi polkining poruchigi Voronovskiydir, u gospitalda davolangandan so'ng o'z yurti Smolensk gubernasiga borish uchun unga ikki haftalik ta'til berildi», — deb yozilgan edi. Bu guvohnomada 14-Sibir o'qchi diviziyasiga qarashli 8-dala gospitali bosh vrachining imzosi va muhri bor edi. Qolgan hujjatlar ham Voronovskiyning haqiqatan ofitser ekanligini yaqqol tasdiqlar, fotosuratdan esa, o'g'ri ko'zli yoshgina podporuchik Voronovskiy Bogatiryovga kulib qarab turardi. Serhasham ko'k frenchining ko'ksida «Georgiy» medali yiltirab turar, oppoq pogonlari esa, podporuchikning qoramag'iz yuzini, mo'ylovlarini chiroyli qilib ko'rsatardi.

— Qani gapiring, xo'sh?

— Bu yerga kelganimning ma'nisi: men o'z yordamchim — sobiq poruchik Volkov bilan birgalikda tashviqot qilib qizil askarlarni ko'ndirganmiz, hozir Serdob polki butunlayin, — albatta, kommunistlar bundan mustasno, — siz tomon o'tishga tayyor. Qizil askarlarning deyarli hammasi Saratov va Samara gubernalaridan chiqqan dehqonlar. Ular bolsheviklarga qarshi jang qilishga rozi. Hozirning o'zidayoq polkni topshirish shartlarini gaplashib olishimiz lozim. Shu topda polk Ust-Xopyorda turadi, unda bir ming ikki yuzga yaqin jangchi bor, yacheykada — o'ttiz sakkiz kommunist, bundan tashqari, mahalliy kommunistlardan tuzilgan o'ttiz kishilik vzvod bor, xolos. Polkdagi hamma to'plarni qo'lga olamiz, lekin to'pchilarni o'ldirishga to'g'ri keladi, chunki aksariyati kommunistlar. Mening qo'l ostimdagi qizil askarlar orasida norozilik kuchaygan, otalarining g'alla solig'idan ezilganligini eshitib hammasi alamzada. Biz ana shu bahonadan foydalanib, kazaklar tomonga... ya'ni sizlarga qo'shilishga ularni ko'ndirdik. Ko'pgina soldatlar polkni topshirishda kazaklar bizga zug'um qilmasmikan, deb cho'chishadi. Mana shu masala to'g'risida men, — unchalik ahamiyati bo'lmasa ham, — siz bilan gaplashib olishim kerak.

— Qanday zug'um qilishlari mumkin?

— Masalan, o'ldirish, talash...

— Yo‘q, biz bunga yo‘l qo‘ymaymiz!

— Yana bir masala: soldatlar: «Biz bir yoqadan bosh chiqarib, bolsheviklarga qarshi jang qilaveramiz, lekin Serdob polki hozirgi tarkibini yo‘qotmasin, o‘zi alohida harbiy qism bo‘lib kazaklar orasida yuraversin», — deb talab etishmoqda.

— Buni men sizga va‘da qilol...

— Bilaman! Bilaman! Siz oldin oliy qo‘mondoningiz bilan maslahatlashib, natijasini keyin bizga ma‘lum qilmoqchisiz.

— Ha, men Vyoshkiga xabar berishim kerak.

— Kechirasiz, vaqtim juda ziq, mabodo bir soat kechikadigan bo‘lsam, mening yo‘qligimni polk komissari bilib qolishi mumkin. Menimcha, polkni topshirish shartlarini o‘zaro kelisharmiz. Qo‘mondonligingiz nima qarorga kelganligini menga tezroq bildiring. Polkni to‘satdan Donets tomon jo‘natishadigan yoki unga yangi jangchilarni qo‘shadigan bo‘lishsa, oqibati...

— To‘g‘ri aytasiz, men hoziroq Vyoshkiga chopar jo‘nataman.

— Yana bir masala: kazaklaringizga buyuring, qurolimni qaytarib berishsin. Qurolimdan tashqari mening... — Voronovskiy gapini yo‘qotib qo‘yib, xijolat bo‘lganday iljaydi, — mening... portsigarimni ham tortib olishdi. O‘zi arzimagan narsa bo‘lsa ham, bu portsigar otabobolarimizdan qolgan yodgorlik edi...

— Hammasi qo‘lingizga qaytariladi. Vyoshkidan javob olsam, sizga qanday ma‘lum qilay?

— Ikki kundan keyin Baxmutkinga, sizning oldingizga Ust-Xopyordan bir xotin keladi. Paroli, chunonchi... — «birlik» — bo‘laqolsin. O‘sha xotinga aytasiz. Lekin hamma gap og‘zaki bo‘lishi shart...

\* \* \*

Oradan yarim soat o‘tar-o‘tmas, Maksayev sotnyasidan bo‘lgan bir kazak g‘arbga, Vyoshenskayaga tomon ot choptirib ketdi.

Ertasi kuni Kudinovning shaxsiy ordenaretsi Baxmutkinga kelib, brigada komandiri turgan uyni so‘roqlab topdi-da, otini bog‘lashga ham sabri chidamay, to‘g‘ri Grigoriy Bogatiryovning oldiga kirdi. Ustiga: «Nihoyatda shoshilinch. Mutlaqo maxfiy» deb yozilgan pa-

ketni unga topshirdi. Bogatiryov muhrlangan so'rg'ichni naridan beri sindirib, sabrsizlik bilan paketni ochdi. Yuqori Don okrug sovetining blanka — qog'oziga Kudinov o'z qo'li bilan quyidagi so'zlarni yozgan edi:

«Senga ko'pdan ko'p salom, Bogatiryov! Yangi xabarni eshitib nihoyatda quvondim. Serdobliklar bilan muzokara olib borishga seni vakil qilaman, qanday yo'l bilan bo'lsa-da, ularni taslim bo'lishga ko'ndirishing lozim. Ularning talablariga rozi bo'laver, «polkni yop-pasiga qabul qilamiz, qurolsizlantirmaymiz» deb va'da, beraver. Polk-dagi kommunistlarni, polk komissarini, xususan, vyoshenskayalik, yelanlik va ust-xopyorlik kommunistlarni bizga tutib berishlikni ular oldiga asosiy shart qilib qo'y. To'plarni, obozlarni, asbob-uskunalarni ham, albatta, o'zlari bilan ola kelsinlar. Bu ishni sen iloji boricha tez-latgin! Polk keladigan joyga sen oldindan ko'proq kuch to'plab qo'y, sezdirmasdan qurshab olib, darhol hammasini qurolsizlantir. Mabodo qarshilik ko'rsatishadigan bo'lsa, birontasini ham tirik qo'ymay qirib tashla. Bu ishda ehtiyot bo'lishing, qat'iylik ko'rsatishing lozim. Polkni qurolsizlantirgan zahoti, barini to'g'ri Vyoshenskayaga haydat. Daryoning o'ng tomoni bilan haydab borishsin, chunki bu yoq nihoyatda qulay, frontdan olis, hamma yoq qup-quruq dasht — hech kim qocholmaydi, qochsa ham qutulolmaydi. Ikki sotnya otliq askarga topshirib qo'y, Donning usti bilan, qishloqma-qishloq haydab borilsin. Bu yerda biz ularni ikkitadan, uchtadan ajratib sotnyalarga qo'shib qo'yamiz. Ko'raylik-chi, ular o'z og'aynilariga qarshi qanday jang qilisharkin. Biz Donetsning naryog'idagi o'z odamlarimiz bilan qo'shilgandan keyin bir gap bo'lar: istasa ular bularni pishirib yeyishsin, — shunga ham bosh og'ritib o'tiramizmi? Menga qolsa hammasini osib o'ldirishsin. Parvoyimga ham kelmaydi. Senga muvaffaqiyat tilayman. Har kun chopar orqali menga xabar qilib tur».

**Kudinov.**

Xatga quyidagi so'zlar ilova qilingan edi:

«Mabodo serdobliklar bizning mahalliy kommunistlarni ushlab berishsa, ularni kuchli nazorat ostida qishloqma-qishloq haydatib, Vyoshkiga jo'natgin. Lekin oldin serdobliklar jo'natilsin. Posbonlikka ishonchli kazaklardan tanlab olinishiga diqqat qil (eng ashaddiylari va

yoshi qaytganlari kerak), ularni haydash bilan birga, oldindan jar solib: «Shu yerdan kommunistlar haydab o‘tiladi», — deb xalqni xabardor qilib qo‘yishsin. Agarda xalq orasida yaxshilab tashviqot yurgizilsa, ularni xotinlarning o‘ziyoq so‘yil-u panshaxa bilan biryoqlik qiladi-qo‘yadi, bu ishga biz aralashib yomonotliq bo‘lmaylik. Tushundingmi? Biz uchun shu siyosat ma‘qul, yo‘qsa, ularni biz otadigan bo‘lsak, qizillar orasida «asirlarni otishyapti» degan ovoza tarqalib, sirimiz ochiladi; yaxshisi xalqni g‘azablantirib, gij-gijlab qarab turaverish kerak, bundan qulayi yo‘q. Olomon toshbo‘ron qiladi — vassalom. Keyin javobgarni topib olishsin-chi!»

### XLVIII

12-aprel kuni 1-Moskva polki Yelan stanitsasiga qarashli Antonovo qishlog‘i yonida qo‘zg‘olonchilar bilan jang qilib qattiq shikast yegan edi.

Bu yerlarning baland-pastini yaxshi bilmagan qizil askarlar saf-saf bo‘lib, jang bilan qishloqqa kirdilar. Yakkam-dukkam qo‘ralar xuddi oroldagi uylarga o‘xshash, har yer-har yerda qumloq tepalar ustiga qurilgan edi; qishloqning hamma ko‘cha va so‘qmoqlari sizot bo‘lgani uchun oyoq ostiga shox-u shabba tashlab qo‘yilgandi. Hamma yog‘ini olxa daraxti bosib chakalakka aylangan bu qishloqning atrofi botqoqlik edi. Qishloqning bir chekkasida suvi sayoz, lekin balchig‘i odamni yutadigan Yelanka soyi bor.

1-Moskva polkining jangchilari sep bo‘lib yoyilgan holda qishloqqa kira boshladilar, biroq eng chetki qo‘ralar yonidan o‘tib, chakalakzorga endi qadam qo‘yganlarida bu yerdan saf tortib o‘tishning iloji yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi. 2-batalyon komandiri — bir qaysar latish — botqoqqa tiqilib qolgan otini arang chiqarib olgan rota komandirining maslahatiga quloq solmasdan: «Olg‘a!» — deb komanda berdi-da, lopillab turgan botqoqqa birinchi bo‘lib ot soldi. Nima qilishini bilmay, ikkilanib turgan qizil askarlar pulemyotlarni qo‘llariga olib unga ergashdilar. Ellik sarjin yo‘l bosgandan keyin tizza bo‘yi balchiqqa kirib ketishdi; ana shu paytda seping o‘ng tomonidan: «Kazaklar kelyapti!», «O‘rab olishdi!» — degan ovozlari eshitildi.

Qo‘zg‘olonchi kazaklardan ikki sotnyasi qizillarning orqa tomoniga o‘tib olib hujum boshlagan edi.

Chakalakzor ichida qizillarning 1- va 2-batalyoni uchdan bir odamidan ayrilib, orqaga chekindi.

Shu jangda qo'zg'olonchilarning yasama o'qi tegib Ivan Alekseyevich yarador bo'lgan, oyog'idan o'q yegan edi. Mishka Koshevoy uni qo'lida ko'tarib chiqdi, daryo bo'yidagi ko'tarma ustida ot choptirib kelayotgan aravakash qizil arkarni hay-haylab, arang to'xtatdi-da (sal bo'lmasa, uni otib qo'yardi), patron tashiydigan ikki g'ildirakli aravaga yarador Ivan Alekseyevichni solib olishga uni majbur qildi.

Polk parokanda bo'lib, Yelan qishlog'iga chekingan edi. Bunday mag'lubiyat — Donning chap qirg'og'i bo'ylab hujum boshlagan hamma qizil askar qismlariga katta zarar yetkazdi. Malkin o'z drujinasi bilan Bukanov qishlog'idan yigirma chaqirim nariga — shimol tomondagi Slashyov stanitsasiga chekinishga majbur bo'ldi; lekin qo'zg'olonchilar ustma-ust shiddatli hujumni davom ettiraverdi, ular son jihatidan ham drujinaga qaraganda bir necha marta ko'p edi; Malkin drujinasi bilan chekina-chekina, nihoyat, Xopyor daryosining muzi ko'chishidan bir kun oldin narigi qirg'oqqa o'tib olib, Kumiljen stanitsasi tomon jo'nadi; daryodan o'tishda bir qancha otlar muz tagiga kirib ketdi.

Muz ko'chgandan keyin daryodan o'tolmay, Xopyorning Donga quyiladigan joyida qolib ketgan Moskva polki, pirovardida bir amallab Donning o'ng tomoniga o'tib oldi-da, Ust-Xopyor stanitsasida to'xtab, madad kuchlarining yetib kelishini kutdi. Ko'p o'tmay, Serdob polki ham shu yerga keldi. Bu polk jangchilarining doimiy tarkibi 1-Moskva polkinikiga qaraganda tamoman boshqacha edi. Moskva polkining jangchilari — Moskva, Tula, Nijegorod ishchilaridan iborat edi; bular jon-jahdi bilan mardonavor jangga kirishar, ko'pincha qo'zg'olonchilar bilan betma-bet bo'lib nayzabozlik qilishar, har kuni o'nlab odam qurbon berishar, o'nlab odam yarador bo'lib safdan chiqardi. Faqat Antonovo qishlog'ida ro'y bergan falokat natijasida bu polk vaqtincha safdan chiqqan bo'lsa ham, eng og'ir sharoitda chekinganiga qaramay, bironta aravasini, biron yashik o'qini dushmanga qoldirmadi. Serdobliklar rotasi bo'lsa, Yagodin qishlog'i yonidagi birinchi jangdayoq qo'zg'olonchilarning hujumiga bardosh berolmagan, ot qo'yib kelayotgan kazaklarni ko'rishi bilan okoplarini tashlab qochish-



gan edi; agar o‘shanda pulemyotchi kommunistlar yoppasiga pulemyotlaridan o‘t ochib hujumni qaytarmaganlarida, serdobliklarning batamom qirilishi muqarrar edi.

Serdob polki Serdob shahrida shoshilinch tarzda tuzilgandi. Ak-sariyati yoshi ulg‘aygan saratovlik dehqonlardan tashkil topgan bu polkda hukm surgan kayfiyatlar qizil askarlarning jangovar ruhini ko‘tarishga xalaqit berardi. Rotadagilarning deyarli hammasi g‘irt savodsiz bo‘lib, bular orasida qishloq kulaklari va o‘ziga to‘q dehqonlar oilasidan chiqqan kishilar ko‘p edi. Polkdagi komandirlar tarkibining yarmisi eski ofitserlar; komissar esa, lapashang, irodasiz bir odam bo‘lganidan qizil askarlar orasida e‘tibori yo‘q edi; polk komandiri, shtab boshlig‘i va rota komandirlaridan ikkitasi xoinlik ko‘chasiga kirib, polkni dushmanga taslim etishga ahd qilishgandi; bular hech narsani ko‘rmagan yacheykaning ko‘z oldida xoinona ish yurgizishar, polkka kirib qolgan aksilinqilobchi kulaklar orqali ustomonlik bilan kommunistlarga qarshi tashviqot yurgizib: «Qo‘zg‘olonni bostirish mumkin emas, baribir kurashdan naf yo‘q», — degan gaplar bilan qizil askarlar ommasida ishonchsizlik tug‘dirib, ularning ruhini tushirishga harakat qilishar, polkni taslim etish uchun tayyorgarlik ko‘rishardi.

Uchta serdoblik qizil askar bilan bir uyda istiqomat qilgan Shtokman bu yigitlarning fe‘l-atvorini ko‘rib xavotirlana boshladi; bir kuni ular bilan san-u manga borib, qattiq tortishib qoldi va shu voqeadan keyin polk jiddiy xavf ostida qolganligini aniq tushundi.

27-aprel kuni govgum bo‘lgan mahalda ikkinchi rotali serdobliklardan ikki jangchi uning uyiga kirib keldi. Ulardan bittasi, Gorigasov degani, so‘rashmay-netmay tirjayib, surbetlarcha Shtokmanni va karavotda yotgan Ivan Alekseyevichni boshdan oyoq ko‘zdan kechirib:

— Urushib bo‘ldik! Uyimizdagi don-dunlarimizni tortib olishyapti, biz bo‘lsak, bu yerda nima uchun jang qilayotganimizni bilmaymiz... — dedi.

— Sen bilmaysanmi, nima uchun urushayotganingni? — deb so‘radi Shtokman zarda bilan.

— Ha, bilmayman! Kazaklar ham hammasi bizday dehqon! Ular nega qo‘zg‘olon ko‘targanini bilamiz! Bilamiz...

— Sen, ablah, kimning tilidan gapirayotganingni bilasanmi o‘zing? Oq gvardiyachilarning gapini qilyapsan, ablah! — o‘zini doim vazmin tutadigan Shtokman tutaqib ketdi.

— Hadeb «ablah-ablah» deyaverma ko‘p! Bo‘lmasa qulog‘ing tagida shavla qaynaydi!.. Gapini eshitdinglarmi! Judayam haddidan oshib ketibdi-ku!

— Sekinroq! Ko‘p hovliqma, sersoqol! Biz sendek azamatlarni ko‘p ko‘rganmiz! — deb gapga aralashdi to‘nkaga o‘xshash, g‘o‘labir pak-pakana sherigi. — Kommunist bo‘ldim deb hammani oyoqosti qilaverasanmi? Ko‘zingni och, sersoqol, popildirig‘ingni pasaytirib qo‘yamiz.

U nimjon Gorigasovni o‘z gavdasi bilan to‘sib, kaltabaqa zabardast qo‘llarini orqasiga qilib, ko‘zlarini o‘ynatib, Shtokmanning ustiga bostirib kelaverdi.

— Sizga nima bo‘ldi, axir?.. Oqlarning tashviqotiga uchdingizmi? — nafasi bo‘g‘ilib so‘radi Shtokman va ustiga bostirib kelayotgan qizil askarni jon-jahdi bilan itarib yubordi.

U gandraklab ketdi, o‘tday tutaqib Shtokmanning qo‘lidan ushla-moqchi bo‘lganda Gorigasov:

— Qo‘ysang-chi, shu bilan baravar bo‘lasanmi? — deb uni ushlab qoldi.

— Bu hammasi — aksilinqilobiy gaplar. Sovet hokimiyatiga nisbatan xoinlik qilyapsiz, sizlarni sudga beramiz!

— Butun polkni tribunalga berib bo‘psan! — dedi Shtokman bilan bir uyda turgan qizil askarlardan biri.

Uning gapini ma‘qullab:

— Kommunistlarga qand ham beriladi, papiros ham, biz sho‘rlik-ka — hech balo yo‘q! — dedi yana bittasi.

— Bekor aytibsan! — deb baqirdi Ivan Alekseyevich karavotdan gavdasini ko‘tarib. — Sizlarga nima berilsa, biz ham shuni olyapmiz, xolos!..

Shtokman indamay kiyindi-yu, chiqib ketdi. Hech kim uning yo‘lini to‘smadi, biroq ketidan masxara qilib, qiyqirishib qolaverdilar.

Shtokman polk komissarini shtabdan topdi. Komissarni u boshqa xonaga chaqirib oldi-da, bo‘lgan voqeani jig‘ibiyroni chiqib so‘zlab berdi, o‘sha yigitlarni qamoqqa olishni taklif etdi. Komissar qo‘ng‘ir

soqolini qashib turib, uning gaplarini oxirigacha tingladi-da, qora mo'giz gardishli ko'zoynagini sekin to'g'rilab qo'ydi.

— Ertaga yacheyka majlisini chaqirib, bu masalani muhokama qilamiz. Lekin hozirgi sharoitda bu yigitlarni qamoqqa olishni men noto'g'ri deb bilaman.

— Nega? — deb zarda bilan so'radi Shtokman.

— Bilasizmi, o'rtoq Shtokman... Polkimizda ahvol chatoqligini men ham fahmlab yuribman, — bu yerda allaqanday bir aksilinqilobiy tashkilot borgan o'xshaydi, lekin ustalik qilib sezdirmay ish bitiryapti. Polkdagi jangchilarning ko'pchiligi hozir shu tashkilotning ta'siriga berilgan. Hammasi omi dehqon bo'lgandan keyin ahvol shu-da! Men qizil askarlar qanday kayfiyatda ekanini yuqoriga xabar qildim, polkni bir chetga olib chiqib, qaytadan tuzish kerakligini taklif etdim.

— Nega siz: «hozir ularni qamoqqa olish to'g'ri emas» deysiz? Ular oq gvardiyachilarning agenti, darhol qamoqqa olib diviziya revtribunali ixtiyoriga jo'natish kerak. Bunday gaplarni tarqatish — xoinlikning aynan o'zginasi!

— To'g'ri-yu, biroq shunday qiladigan bo'lsak, oqibati chatoq bo'lishi, hattoki qo'zg'olon chiqishi mumkin.

— Shundaymi hali? Xo'sh, siz nima qilib o'tiribsiz axir, ko'pchilikning kayfiyati buzuqligini ko'ra-bila turib, shu choqqacha siyosiy bo'limga nega xabar qilmaysiz?

— Men sizga aytdim-ku xabar qilganman deb, Ust-Medveditsadagilarga nima bo'ldi o'zi, bir og'iz javob berishmaydi, hayronman. Polkni bu yerdan chaqirib olishgan zahoti, intizomni buzgan hamma qizil askarlarni, ayniqsa sen aytgan yigitlarni qattiq jazolaymiz... — Komissar qovog'ini solib, shivirlab gapirishga o'tdi: — Men Voronovskiy bilan... shtab boshlig'i Volkovdan shubhalanib qoldim. Ertaga yacheyka majlisini o'tkazaman-u, Ust-Medveditsaga jo'nayman. Bu xavfning oldini olmoq uchun tezroq chorasini ko'rish lozim. Sizdan iltimos: gap shu yerda qolsin.

— Xo'sh, hozir kommunistlarni yig'ib majlis qilsak bo'lmaydimi? Hozir har bir daqiqa g'animat!

— Tushunyapman. Lekin hozir mumkin emas, chunki ak-sariyat kommunistlar mening talabim bilan pistirmada yotibdi, posbonlikda yuribdi, chunki hozirgiday og'ir sharoitda partiya-

siz kishilarga ishonish qiyin. Ayniqsa to'plarni ayting: hammasi ishonchli odamlar qo'lida, ko'pchiligi kommunist, bugun tunda Krutovo qishlog'idan yetib kelishadi. Polkda g'ovur-g'uvur gap ko'paygandan keyin, men ularni chaqirib olishga majbur bo'ldim.

Shtokman shtabdan qaytib, Ivan Alekseyevichga va Mishka Koshevoyga polk komissari bilan bo'lgan gapning qisqacha mazmunini so'zlab berdi.

— Hali-beri yurolmassan deyman? — deb so'radi Ivan Alekseyevichdan.

— Haliyam oqsayman. Shu damgacha jarohati zo'riqmasin, deb qimirlatmasdim; ahvolki shunday bo'lgandan keyin, yurmaslikni iloji yo'q.

Kechasi Shtokman polkdagi ahvol to'g'risida batafsil ma'lumot yozdi-da, yarim kechada Koshevoyni uyg'otdi. Paketni uning qo'yniga solayotib:

— Darrov chiqib ot topgin-da, Ust-Medveditsaga jo'na. Manavi xatni, qanday qilib bo'lsa ham, o'n to'rtinchi diviziya siyosiy bo'limiga topshir. Otni ayamay haydagin, o'lganiga qaramagin... — deb tayinlandi. — Necha soatda yetib borasan! Otni qayerdan olasan-a?

Mishka qovjirab qolgan sariq etiklarini inqillab kiyarkan, tutilib-tutilib javob qildi:

— Razvedkachilardan birontasining... otini o'maraman... Ust-Medveditsagacha... ko'p yursam... ikki soatda yetaman... Razvedkada yurgan otlarning mazasi yo'q... ot yaxshi bo'lsa... bir yarim soatda yetardim! Yilqiboqarlik qilganman...

Otning tuyog'ini yerga tekkizmay uchirishni... bilaman axir.

Mishka paketni qo'ynidan olib, shinelining cho'ntagiga soldi.

— Nega unday qilding? — deb so'radi Shtokman.

— Serdobliklar qo'lga tushadigan bo'lsam, olishga qulayroq bo'ladi.

Shtokman hali ham tushunmasdan:

— Nuchuk? — deb yana so'radi.

— Shuniyam tushunmadingmi? Qo'lga tushsam shartta olaman-u, yutib yuboraman.

— Baraka top! — Shtokman bilinar-bilinmas jilmayib, Mishkaning yoniga keldi-da, ko'ngli bir narsani sezganday, uni mahkam qu-

choqladi, qaltiragan muzdek lablari bilan peshonasidan o'pdi. — Oq yo'l, — dedi.

Mishka hovliga chiqib, razvedkachilarning oxurda turgan otlaridan eng yaxshisini tanlab, yechib oldi-da, qorovullar yonidan omon-eson yetaklab o'tdi va o'shanaqasi pastqam joylardan yurib katta yo'lga chiqib oldi. U katta yo'lga tushib olguncha ko'rsatkich barmog'ini yap-yangi karabin tepkisidan olmagan edi. Katta yo'lga chiqqach, karabin qayishini yelkasidan o'tkazib olib, umrida bunday tez chopmagan saratovlik kalta dum otni ayamay savalab, o'qday uchib ketdi.

## XLIX

Tongotar mahalda maydalab yomg'ir yog'a boshladi. Shamol turdi. Sharq tomondan qop-qora bulut bosib kelaverdi. Shtokman va Ivan Alekseyevich bilan hamxona bo'lgan serdoblklar tong yorishganda o'rinlaridan turib, uydan chiqib ketishdi. Oradan yarim soat o'tgach, yelanlik kommunist Tolkachyov chopib keldi. Bu yigit ham, Shtokman singari, o'z sheriklari bilan Serdob polkiga kelib qo'shilgan edi. U eshikni ochdi-da:

— Shtokman, Koshevoy, uydamisiz! Chiqinglar? — deb baqirdi nafasi tiqilib.

— Nima gap? Ichkari kirsang-chi! — Shtokman shinelini yo'l-yo'lakay kiyib, dahlizga chiqdi. — Bu yoqqa kir!

Tolkachyov Shtokmanning ketidan ergashib ikkinchi xonaga kirarkan:

— Ish rasvo! — deb shivirladi. — Hozir stanitsa yonida... Kru-tovdan qaytgan to'pchilarni stanitsa yonida... piyoda askarlar qurol-sizlantirmoqchi bo'lishdi. Orada otishma bo'ldi... To'pchilar hujumni qaytarishdi, to'plarning qulfini chiqarib olib, daryoning narigi betiga qochib o'tishdi...

Ivan Alekseyevich yarador oyog'ini etikka arang suqayotib:

— Xo'sh, gapir, gapir! — deb uni qistar va dam-badam ingrardi.

— Hozir cherkov oldida miting bo'lyapti... Butun polk to'plangan...

Shtokman Ivan Alekseyevichga:

— Tezroq bo'l! — deb buyurdi-da, Tolkachyovning po'stin yengidan ushlab: — Komissar qayerda! Kommunistlar qayoqda yurib-di? — deb so'radi.

— Bilmayman... Ba'zilar qochishdi, men to'g'ri sizning oldingizga chopib keldim. Telegraf qo'ldan ketdi, hech kimni yo'latishmayapti... Qochish kerak! Biroq qanday qilib qocha olamiz? — Tol-kachyov bo'shshib sandiq ustiga o'tirib qoldi, qo'llari ikki tizza orasiga shilq etib tushdi.

Shu payt zinapoya tomondan dukur-dukur oyoq tovushi eshitildi, oltitacha serdoblik qizil askar uyga kirib keldi. Ularning yuzlari bo'riqib ketgan, vajohatlari buzuq edi.

— Kommunistlar, mitingga chiqinglar! Darrov! Shtokman, Ivan Alekseyevich bilan ko'z urishtirib oldi-da, lablarini qimtib:

— Ketdik! — dedi. Serdobliklardan biri:

— Qurollarni uyda qoldiring, jangga ketayotganingiz yo'q-ku! — dedi. — Lekin Shtokman o'zini eshitmaganga solib, miltiqni yelkasiga osib oldi-da, birinchi bo'lib uydan chiqdi.

Bir ming bir yuz odam maydonni boshiga ko'tarib, xilma-xil ovozda bo'kirardi. Ust-Xopyor stanitsasining aholisidan birontasi maydonda ko'rinmas, hammasi in-iniga urib ketgandi. Bir kun oldin stanitsada: «polk qo'zg'olonchilarga qo'shilarmish, kommunistlar bilan stanitsa ko'chalarida jang bo'larmish» degan mish-mishlarni eshitib, uy-uyiga bekinib olgan edilar.

G'ovur-g'uvur qilib gaplashayotgan bir to'p serdobliklar yoniga dastlab Shtokman kelib to'xtadi-da, polkdagi komandirlardan birontasini ko'rgisi kelib, u yoq-bu yoqqa ko'z yugurtirib chiqdi. Polk komissarini ikki kishi ikki qo'lidan ushlab olgan edi, uni yelkasidan turturta, Shtokmanning yonidan olib o'tishdi. Rang-ro'yi dokaday oqarib ketgan komissar tartibsiz holda turgan qizil askarlar orasiga kirib, bir lahza Shtokmanning ko'ziga ko'rinmay qoldi-da, keyin olomonning qoq o'rtasida allakimning uyidan olib chiqilgan stol ustida paydo bo'ldi. Shtokman ketiga burilib qaradi: uning orqasida miltig'iga suyangan oqsoq Ivan Alekseyevich bilan mitingga chaqirib kelgan haligi qizil askar turar edi.

— O'rtoq qizil askarlar! — Komissarning ovozi arang chiqdi. — Ro'paramizda dushman tursa-yu, biz bu yerda miting qilib o'tirsak... O'rtoqlar!

Biroq uni gapirgani qo'ymadilar. Stol atrofida turgan qizil askarlarning kulrang papaxlari dengizdagi to'lqinday lopillab, ko'kish nay-

zalari tebranib ketdi, odamlar stol tomon qo'llarini cho'zib, musht ko'rsatar, bo'g'ilib baqirar edilar:

- Endi o'rtoq bo'p qoldikmi?
- Charm kamzulni yechib qo'y!
- Aldoqchi!
- Bizni kim bilan urushtirmoqchisizlar?
- Oyog'idan sudra buni!
- Ur!
- Nayza sanch!
- Komissarlik qilib bo'ldi!

Devga o'xshash o'rta yashar bir qizil askarning stol ustiga chiqib, komissarning kalta qilib dukatlangan malla soqolidan ushlaganini Shtokman ko'rib qoldi. Stol lopillab ketdi, qizil askar bilan komissar stol atrofida qo'llarini cho'zib turgan odamlar ustiga ag'darilib tushdi. Haligina stol turgan joyda hozir bir-biri ustiga to'ng'irilgan kulrang shinellardan boshqa hech narsa ko'rinmasdi; vag'ir-vug'ur ovozlari orasidan komissarning jon achchig'idan chinqirgani eshitildi.

Shtokman darhol o'sha yoqqa yugurdi. Kulrang shinelli odamlarni ayamay itarib, turtkilab, tepib, komissar nutq so'zlagan joyga yetib oldi. Uni hech kim to'xtatmadi ham, lekin bora-borgunicha miltiq qo'ndohlari bilan rosa turtkiladilar, bo'yni-yu kiftlariga ayamay musht tushirdilar, yelkasidan miltig'ini, boshidagi qizil avralik kazakcha tumog'ini yulib oldilar.

– Buncha hovliqmasang, shayton?.. – deb zahrini sochib po'ng'illadi bir qizil askar: Shtokman uning oyog'ini qattiq bosib olgan edi.

Ag'darilib yotgan stol yonida girdig'umdan kelgan vzvod komandiri Shtokmanning yo'lini to'sdi. Uning papaxi qiyshayib ketgan, shinelining barlari ochilib qolgandi; qip-qizil betlaridan ter quyar, qon to'lgan ko'zlari qahr-u g'azabdan g'ilaylashib ketgan edi.

– Qayoqqa borasaaan?

Shtokman arang nafasini rostlab, xirillab gapirdi:

– So'z beringlar! Oddiy jangchiga so'z beringlar!.. – dedi-yu, lip etkizib stolni to'g'rilab qo'ydi. Hatto uni stol ustiga chiqarib qo'yishdi. Lekin xaloyiq tinchimadi: odamlar hamon jon-jahdi

bilan qichqirishar, bo'kirishardi; nihoyat, Shtokman ovozi bori-cha: — Chug'urlashmaaang! — deb qichqirib yubordi; sal o'tmay, g'ovur-g'uvur bosildi. Shtokman yo'tala-yo'tala, xirildoq ovoz bilan gapira boshladi: — Qizil askarlar! Siz qizil askarlik nomiga dog' tushiryapsiz! Eng og'ir paytda siz xalq hukumatiga xiyonat etyapsiz! Dushmanning giribonidan xippa bo'g'ib oladigan vaqt kelganda siz beburdlik qilyapsiz! Sovet mamlakati dushmanlar qurshovi ichida qolib, og'ir kunlarni boshidan kechirayotgan bo'lsa-yu, siz bu yerda mitingbozlik qilib o'tirsangiz! Siz hozir to'g'ridan to'g'ri xoinlik yo'liga o'tish oldida turibsiz! Sabab. Sababi shuki, xoin komandirlaringiz sizlarni kazak generallariga sotgan! Ilgari ofitser bo'lgan, komandirlaringiz Sovet hukumatini aldashdi, sizlarning nodonligingizdan foydalanib, polkni kazaklarga topshirmoqchi! Ko'zingizni oching, haliyam vaqt g'animat! Bular sizlarni ishga solib, ishchi-dehqon hukumatini ag'darishmoqchi!

Stolga yaqinroq joyda turgan 2-rotaning komandiri sobiq praporshchik Veystminster miltiq o'qtalmoqchi bo'lgandi, Shtokman uning harakatini sezib qolib:

— To'xta! — deb baqirdi. — Meni har vaqt o'ldirishing mumkin! Jangchi, kommunistning so'zini bo'lma! Biz — kommunistlar, butun hayotimizni... qatra-qatra qonimizni... jonimizni... — Shtokman nihoyatda qattiq hayajonlanganidan ovozi ingichkalashib jaranglay boshladi, yuzlari bujmayib, murdaday oqarib ketdi, — ishchilar sinfiga... ezilgan dehqonlarga bag'ishlaganmiz. Biz o'limdan qo'rqmaslikka o'rganganmiz! Meni o'ldirishlaring mumkin...

— Bu gaplarni ko'p eshitganmiz!

— Gapni qisqa qil!

— Mayli gapirsin.

— Ovozingni o'chir!

— ...Meni o'ldirish oson, lekin yana qayta aytamanki: ko'zingizni oching! Hozir mitingbozlik vaqti emas, oqlarga qarshi jang qilish kerak! — Shtokman ko'zlarini qisib, jimib qolgan qizil askarlarga bir boshdan qarab chiqdi, birdaniga sal nariroqda turgan polk komandiri Voronozskiyni ko'rib qoldi. U allaqanday bir qizil askar bilan yonma-yon turib, qulog'iga allanima deb shivirlab gapirar, zo'rma-zo'raki iljayardi. — ...Sizning polk komandiringiz...



Shtokman qo'lini bigiz qilib Voronovskiyni ko'rsatdi, biroq u kafti bilan og'zini pana qilib, yonidagi qizil askarga shosha-pisha bir nima deb shivirlardi; Shtokman gapini tamomlaguncha bo'lmay, sovur oyining yomg'irida namiqqan havoda birdaniga «paq» etgan o'q tovushi eshitildi. Miltiqdan o'q uzilgan bo'lsa ham shu qadar sekin eshitildiki, bironta aravakash qamchisini qarsillatganga o'xshab tuyuldi, biroq Shtokman ko'ksini changallaganicha cho'kkalab qoldi, sochlari oqargan boshi shilq etib tushdi... Ammo u o'sha zahotiy oq bir to'lg'andi-yu, irg'ib o'rnidan turdi.

Ivan Alekseyevich Shtokmanning o'rnidan irg'ib turganini ko'rib:

— Osip Davidovich! — deb ingradi-yu, unga qarab talpindi, biroq yonidagilar tirsagidan mahkam ushlab qulog'iga shivirladilar:

— Ovozingni chiqarma! Qimirlasang dabdala qilamiz! Miltiqni ber bu yoqqa, ablaaah!

Ivan Alekseyevichni qurolsizlantirishdi, cho'ntaklarini kavlab ko'rishdi, so'ngra maydon tomon olib ketishdi. Maydonning har yog'ida kommunistlarni tutib, qurolsizlantira boshladilar. Tor ko'cha tomonda, bir savdogarning hashamatli imorati yonidan besh-olti marta o'q chiqdi: Lyuis pulemyotini topshirmagan kommunist pulemyotchini xoinlar otib o'ldirishdi. Ayni shu vaqtda lablarida qon aralash nimrang ko'pik paydo bo'lgan Shtokman, hiqichog'i tutib, titrab-qaqshaganiga qaramay, rang-ro'yi murdaday oqargan holda birpas stol ustida gandaraklab turdi-da, so'nggi kuchini, so'nggi irodasini to'plab, so'nggi gaplarini aytib ulgurdi:

— ...Bular sizni yo'ldan ozdirdi!.. Bu xoinlar!.. bular hali tovon yalab, o'zlarini oqlab olishadi, yangidan ofitserlik mansabiga ega bo'lishadi... Ammo kommunizm o'lmaydi, u abadiy barhayot!.. O'rtoqlar!.. Ko'zingizni oching!..

Voronovskiyning yonida turgan qizil askar yana miltig'ini olib o'qtaldi. Ikkinchi o'qdan Shtokman mukyasi bilan stoldan ag'darilib, qizil askarlar oyog'i ostiga tushdi. Endi, stol ustiga og'zi o'raday, tishlari so'yloq, cho'tir serdoblik chiqib karillay boshladi.

— Biz bunaqa va'dalarni ko'p eshitganmiz, aziz o'rtoqlar, ammo bu gaplar hammasi yolg'on, quruq do'qdan boshqa hech narsamas. Mana, haligi sersoqol notiq asfalasofilinga ketdi, yomonning jazosi shu! Mehnatkash dehqonning dushmani bo'lgan kommunistlarga

o'lim! Men sizga aytsam, aziz o'rtoqlar, endi ko'zimiz ochildi. Kimlarga qarshi kurashish lozimligini endi aniq bilamiz!

Masalan, bizning Volsk uyezdida nimalar va'da qilingan edi! «Tenglik bo'ladi, xalqlar birodar bo'ladi» deyilgan edi! Yolg'onchi kommunistlar shunday deyishgan edi... Oxiri nima bo'lib chiqdi! Men dadamdan xat oldim, yig'lab-yig'lab yozibdi: «Kuppa-kunduzi bosqinchilik qilib, hammani tunab olishyapti», deydi. Dadamning don-dunini bitta qo'ymay opketishibdi, tegirmonini tortib olishibdi, qani ayting-chi, dekretida: mehnatkash dehqonni talash kerak, deyilganmi? Bechora dadam o'z peshona teri bilan orttirgan tegirmonidan ajralib qolaversa — bu, axir, kommunistlarning bosqinchiligi emasmi! Qonlarini to'kish kerak ularning!

Notiq gapini tamom qilolmadi. G'arb yoqdan ikki sotnya qo'zg'olonchi kazak otlarini yo'rttirib, Ust-Xopyor stanitsasiga bostirib kirdi, Don bo'yidagi tog'larning kun yurish tomonidan allaqancha piyoda kazak askarlar tushib kelaverdi, 6-qo'zg'olonchi favqulodda brigadaning komandiri — xorunjiy Bogatiryov bilan uning shtabi elliktacha qo'riqchi kazak himoyasida yetib keldi.

Kun chiqish tomondan qora bulut bostirib keldi-da, shitirlatib yomg'ir quyib berdi, qayerdadir Donning naryog'ida Xopyor ustida momaqaldiroq sadosi gumburlab ketdi.

Serdob polki naridan beri saf tortib, ikkitadan qator bo'ldi. Tog'dan Bogatiryov shtab gruppasining qorasi ko'ringan hamon, sobiq shtabkapitan Voronovskiy, shu damgacha qizil askarlar eshitmagan g'alati ovoz bilan xirillab komanda berdi:

– Pooolk! Smirrr-naaaa!..

## L

Grigoriy Melexov Tatarskda besh kun turib, shu davr ichida o'z oilasi va qaynanasi uchun bir necha botmon yerga don ekib berdi-da, uy-ro'zg'orlarini sog'inganidan ozib-to'zib, bitlab ketgan dadasi Panteley Prokofyevich uyga qaytgandan keyin, hamon Chir bo'yida turgan o'z qismiga jo'nash taraddudiga tushdi. Kudinov maxfiy xat orqali Serdob polking komandirlari bilan muzokara boshlaganini bildirib, tezroq qaytib kelishini va diviziyaga komandir bo'lishini iltimos qilgan edi.

O'sha kuni Grigoriy Karginga jo'nash taraddudiga tushdi, ketishdan oldin otini sug'ormoqchi bo'lib choshgohda Don bo'yiga yetakladi. Suv toshib polizlarning marzasiga chiqqan edi. Tushaverishda Grigoriy Aksinyani ko'rib qoldi. Nazarida, Aksinya uni ko'rib, jo'rttaga imillab suv olayotganga o'xshadi; Grigoriy beixtiyor yurishini tezlatdi. Lekin uning oldiga yetib borgunicha qadimgi porloq, hazin xotiralar ko'z o'ngidan birma-bir o'tdi...

Aksinya oyoq tovushi kelgan tomonga burilib qaradi, go'yo uni bexosdan ko'rib qolgan o'xshab, yolg'ondaka cho'chigan bo'ldi-yu, biroq yuragida to'planib qolgan dardini, diydor ko'rishganidan suyunganligini yashira olmadi. U qattiq sarosimaga tushib, shu qadar ayancli jilmaydiki, uning mag'rur chehrasiga bu jilmayish mutlaqo yarashmasdi. Grigoriy uning avzoyini ko'rib, rahmi kelib ketdi. U bilan birga kechirgan kunlari esiga tushib, yurak-bag'ri ezildi, ot jilovini tortib:

— Salom, azizim Aksinya, — dedi.

Xilma-xil hislar ta'sirida qolgan Aksinya eshitar-eshitilmas qilib:

— Salom, — dedi. Uning bu qadar g'amgin ovozi hayrat, qayg'u alam, mehr-muhabbat ohangi eshitarladi.

— Gaplasmaganimizgayam ancha vaqt bo'ldi, — dedi Grigoriy.

— Ha, ancha vaqt bo'ldi.

— Ovozingniyam unutayozibman.

— Darrov-a!

— Ancha vaqt o'tib ketdi-ku!

Grigoriy hadeb yulqinavergan otning jilovidan mahkam ushlab turardi. Aksinya bo'lsa, engashib olib, obkashning ilgagini chelak bandiga ilmoqchi bo'lib harchand urinsa ham, ilolmasdi. Ikkisi birdam indamay turib qoldi. Ularning tepasidan o'qday vizillab yovvoyi o'rdak uchib o'tdi. To'lqin o'zini jar yoqasiga urar, ko'kimtir bo'r palaxsalarini yalab-yemirardi. Suv bosib ketgan daraxtzor orasida to'lqinlar sovunday ko'pirib mavjlanardi. Shamol dengiz tomon oqayotgan bahaybat Donni chayqatib, mayda-mayda suv zarrachalarini uchirib yurar, tevarak-atrofga yoqimli hidini tarqatardi.

Grigoriy ko'zini Aksinyadan olib, Donga qaradi. Suv toshgan joylardagi hali barg yoymagan oq teraklarning ship-shiydam shoxlari shamolda chayqalar, gulga kirgan tollar esa, qizlarning sochpopugisi

ga o'xshash jingalak novdalarini egib, suvga salom qilishar va olisdan nihoyatda ajoyib bo'lib ko'rinardi. Grigoriy xafa bo'lgan, o'pkalagan kishidek:

— Bu nimasi?.. Oramizda gaplashadigan gap ham qolmaganmi deyman? Nega indamaysan? — dedi.

Endi Aksinya o'zini tutib olgan edi; javob qaytarayotganida rang-ro'yi o'zgarmadi ham:

— Gaplashadiganimizni gaplashib bo'lganmiz...

— Yo'g'-e!

— Ha, shunday bo'lishi kerak! Daraxt yilda bir marta gullaydi, xolos...

— Bundan chiqdi, bizning daraxtimiz ham gullab bo'pti-da, a?

— Bo'lmasa-chi!

— Gaplaring judayam g'alati... — Grigoriy otini suv ichgani qo'yvordi-da, Aksinyaga tikilib turib, g'amgin jilmaydi. — Lekin men, Ksyusha, seni haliyam dilimda saqlayman, aslo unutilmayman. Mana hozir bolalarim katta-katta bo'lib qolishdi, sochlarimga oq kirdi, ko'rishmaganimizga yillar o'tdi. — Lekin haliyam seni o'ylayman. Ko'pincha tushlarimda ko'raman, shu damgacha ishqing o'tida yonaman. Ba'zan seni o'ylasam, Listnitskiyniki-da birga turganimiz... bir-birimizga qanchalik muhabbat qo'yganimiz ko'z oldimdan o'ta boshlaydi... Shularni eslab turib... Ba'zan o'tgan umrimga nazar tashlasam, behudaga o'tganga o'xshaydi.

— Men ham xuddi senday... Men keta qolay... Gapimiz cho'zilib ketdi.

Aksinya shartta burilib chelaklarni ko'tardi-da, bahor oftobida qoraygan qo'llarini obkashning ikki tomoniga qo'yib oldi; tepaga ko'tarilayotgan joyida birdaniga ketiga burilib, Grigoriyga qaradi, betlariga bilinar-bilinmas rang yugurganday bo'ldi

— Aytganday, ikkimiz xuddi shu yerda, mana shu pristan yonida bir-birimizga muhabbat qo'ygan edik-a. Esingdami, Grigoriy? Xuddi o'sha kuni kazaklar lagerga jo'nayotgan edi, — deb jilmaydi Aksinya: bu gal uning tili burro, o'zi qadimgisiday quvnoq edi.

— Hammasi esimda! — dedi Grigoriy. Grigoriy otini qo'raga olib kirib, oxurga bog'ladi. Ertalab dalaga chiqib mola bostirish niyatida

bo'lgan Panteley Prokofyevich, Grigoriyni kuzatmoqchi bo'lib uyda qolgan edi. Chol bostirma tagidan chiqa solib:

— Tezroq jo'naysanmi o'zing? Otingga yem beraymi? — deb so'radi.

— Qayoqqa jo'nayman? — Grigoriy dovdirab otasiga qaradi.

— Ana, xolos! Axir Karginga jo'namoqchi eding-ku!

— Bugun jo'namayman.

— Nega?

— Shunday... aynidim... — Grigoriy yurak haroratidan qaqragan lablarini yalab osmonga qaradi. — Hamma yoqni bulut bosib kel-yapti, yomg'ir quyadiganga o'xshaydi, yomg'irda ivib menga zaril keptimi?

— Zarilligi yo'q, albatta... — deb ko'na qoldi chol, biroq o'g'lining gapiga ishonmadi, chunki haligina u Grigoriy bilan Aksinyaning pristan yonida gaplashib turganlarini molxonadan turib ko'rgan edi. Chol tashvish tortib: «Yana jigarso'xtalik qila boshladi. Natalya bilan yana orasi buzilmasaydi... Tug'may onasi o'lsin! Kimga tortib bunaqa xotinboz bo'ldikin, bu kasofat? Nahotki menga tortgan bo'lsa? — deb o'ylardi. Bolta bilan qarag'ay yo'nib, aravaga belyog'och yasayotgan Panteley Prokofyevich, ishni yig'ishtirib qo'ydi-da, bukchayibroq ketayotgan Grigoriyning orqasidan qarab qoldi, yoshlik chog'ini eslay boshladi, nihoyat: — Xuddi menga tortibdi, shayton! Xotinbozlikda otasidanam o'tib ketibdi, bu zang'ar! — degan qarorga keldi. — Yaxshilab adabini bermasam, yana Aksinyaning boshini aylantirib, oilani notinch qilishi turgan gap. Biroq unga qo'l ko'tarib bo'ladimi?»

Agar Panteley Prokofyevich ilgarigi vaqtlarida Grigoriy bilan Aksinyaning odamlardan xoli joyga chiqib olib, gaplashib turganini ko'rib qolsa — qo'liga nima to'g'ri kelsa, shu bilan dabdurustdan o'g'lining yag'riniga solib qolishi turgan gap edi, lekin hozir chol hech narsa deya olmadi, hattoki Grigoriyning nega bugun jo'namaganini bilib tursa ham, o'zini bilmaslikka soldi. Buning sababi shuki, o'g'li hozir qadimgi «Grishka» emas, anchayin kazak ham emas, diviziya komandiri, pogoni bo'lmasa ham «general» edi, unga ming-ming kazak itoat qilar va hamma unga «Grigoriy Panteleyevich» deb murojaat etardi. Bor-yo'g'i uryadnik unvoniga erishgan Panteley Prokofyevich, gar-

chi otasi bo'lsa ham generalga qo'l ko'tarishi mumkinmi, axir? Harbiy itoatgo'ylik bunga yo'l qo'ya olmas, shu sababdan ham o'g'liga nisbatan o'zini ojiz va begona sezardi. Hamma kasofat, Grigoriyning birdan ko'tarilib ketganligida! Hattoki o'tgan kuni dalada yer haydayotib: «Hoy, muncha anqayasiz? Plugni bu yoqdan soling!.. — deb baqirganida ham Panteley Prokofyevich g'iring deyolmay labini tishlab qolavergan edi... So'nggi vaqtlarda Grigoriy ota o'rnini bosgan edi: keksayib qolgan dadasiga u hadeb o'shqiraverardi, bechora chol bo'lsa, komanda berishga o'rgangan o'g'lining xirildoq ovozi eshitgan hamonoq, dovdirab qolar, lat yegan oyog'ini likanglatib, u yoqdan bu yoqqa yugura boshlardi...

«Yomg'irdan qo'rqibdi-da! Osmonda bir parcha bulut suzib yuribdi, kun chiqish yoqdan yel turdi, hammani qo'yib endi yomg'ir yog'armidi! Natalyaga aytammikin?»

Panteley Prokofyevich shu fikrga kelib, uyga kirishga chog'landi-yu, lekin shaxtidan qaytdi: er-u xotin orasida janjal chiqishidan qo'rqib, chala qolgan ishiga borib yopishdi...

Aksinya uyga qaytgach, chelaklardagi suvni bo'shatdi-da, pechga qo'shib suvalgan oyna oldiga borib, biroz so'linqiragan, lekin haliyam chiroyli yuzlariga hayajon bilan uzoq tikilib qoldi. Husni haliyam ilgariyiday kuydirmajon va jozibador edi, biroq umri xazon bo'lishga yaqinlashgani uchun betlari sarg'ayib, qovoqlari salqigan, qora sochlariga oq oralab, ko'zlari kirtayib qolgandi. Horg'in ko'zlar oynadan g'amgin qarab turardi.

Aksinya turib-turib, keyin o'zini karavotga tappa tashladi-yu, xumori bosilguncha to'yib-to'yib yig'ladi; ko'pdan beri bunday yig'lamagan edi.

Qish payti. Don bo'yida qad ko'targan tik tog'larning sirtida, qubbasimon cho'qqilarning ustida shamol charx urib aylanib yuradi, bo'riday xunuk ovoz bilan uvullaydi. Xarsangtosh bilan qoplangan qoyalar ustidan qorlarni uchirib kelib biron joyga qavat-qavat qilib, uyub tashlaydi. Jar yoqasida to'planib qolgan qor oftobda olisdan qandga o'xshab yiltiraydi, qosh qorayganda havorang tusda, ertalab ko'kish, kunchiqar mahalida qizg'ish rangda tovlanadi. Bu qadar bahaybat qor uyumi to havo ilib ostidan eriy boshlaguncha, yoki yonboshdan turgan kuchli shamol to'liqini uni qo'zg'atmaguncha, jar te-

pasida osilib yotaveradi. Nihoyat, bu ulkan ko'chki, yo'lida uchragan pastak yovvoyi tog'olchalarni, tog' bag'riga tarmashgan mayda-chuyda qorag'at butalarini qiyratib, osmon baravar qor to'zonini ketidan ergashtirib, quyun singari pastga qarab shuvullaganicha ketadi...

Ko'pyillardan beri Aksinyaning ko'nglida qor singari uyulib qolgan dardlarning qo'zg'alishi uchun ham kichik bir sabab kerak edi. Grigoriy bilan uchrashgani, uning «Salom, azizim Aksinya!» degan yoqimli ovozi butun hissiyotlarini qo'zg'atib yubordi. Axir Grigoriy ham uning uchun aziz emasmi? Yil o'n ikki oy, tun-u kun uni o'ylagan, uni deb qon yutgan Aksinya emasmi? O'zi qayerda bo'lmasin, nima ish qilayotgan bo'lmasin, baribir, xayoli Grigoriyda edi, ko'zi bog'liq juvoz-kash ot ham xuddi shunday, juvoz atrofida gir aylanaveradi...

Aksinya kechgacha karavotda yotdi, nihoyat, o'rnidan turib, yig'idan shishgan yuzini yuvdi, sochlarini taradi, xuddi sovchiga ko'rinish beradigan qizlar singari, shosha-pisha yasana boshladi. Toza ko'ylagini, to'q qizil jun yubkasini kiydi-yu, ro'molini o'radi, naridan beri oynaga qarab, uydan chiqdi.

Tatarsk qishlog'ini g'ira-shira qorong'ilik bosgan. Qayerdadir, suv toshgan yerlarda yovvoyi g'ozlar bezovtalanib g'ag'illashardi. Don bo'yidagi terakzor orqasidan bo'zarib oy ko'tarilmoqda. Uning suv betidagi ko'kimtir shu'lasini uzunasi ketgan yo'lga o'xshab jimirlar edi. Podadagi mollar kun botmasdanoq qaytgan edi. Endigina ko'kargan maysaga yolchib to'ymagan sigirlar qo'ralarda ma'rashardi. Aksinya sigirini sog'madi ham. Og'ilxonada turgan oqtumshuq buzoqni yechib sigirga qo'yib yubordi; buzoq onasining bo'sh yeliniga tumshug'ini tirab, orqa oyoqlarini kerib, dumini likil-lata-likillata ema boshladi.

Hozirgina sigirini sog'ib chelak bilan suzgich ko'tarib uyga tomon kelayotgan Darya Melexovani chetan devor orqasidan birov chaqirdi:

- Dasha!
- Kim u?
- Menman, Aksinyaman... Birpas mening oldimga kirib chiq!
- Menga qanaqa ishing tushib qoldi?
- Judayam zarur ish! Kirgin! Xudo haqi so'rayman!
- Sutni suzib bo'lay, innaykeyin kiraman.
- Men seni molxona yonida kutaman.

— Mayli.

Birozdan keyin Darya uyidan chiqdi. Aksinya uni ko'cha eshigi oldida kutib turardi. Daryadan yangi sog'ilgan sut hidi, molxona isi kelardi. Aksinyani ish kiyimida emas, yasangan-tusangan holda ko'rib, hayron bo'ldi.

— Darrov ishlaringdan qutulib oldingmi, qo'shni?

— Stepan uyda bo'lmasa, menga ish cho't emas. Tashvishim bita sigir, qozonam osmayman. Issiqmi, sovuqmi, menga bo'laveradi, o'rganib qolganman...

— Meni nega chaqirding?

— Oldin uyga kiraylik, aytaman. Senda ishim bor...

Aksinyaniig ovozi qaltirab ketdi. Darya gap nimadaligini sezib turardi, lekin indamay unga ergashdi.

Aksinya chiroqni ham yoqmasdan, uyga kirgan hamonoq sandiqni ochib ichini titkiladi-da, isitmasi chiqib turgan qo'llari bilan Daryaning qo'lidan mahkam ushlab, shosha-pisha uning barmog'iga uzuk taqdi.

— Nima qilyapsan o'zing! Bu nima, uzukmi? Menga beryapsanmi?

— Senga! Senga. Mendan senga... yodgor...

Darya deraza oldiga borib, barmog'idagi uzukni xira oy nuriga solib ko'rdi-da, jiddiylik bilan:

— Tillomi? — deb so'radi.

— Tillo. Senga buyursin!

— Rahmat, xudodan qaytsin!.. Xo'sh, nima gap, nima uchun uzuk beryapsan?

— Gapim shuki... menga Grigoriyni chaqirib bersang.

— Yana boshlandimi? — Darya masalaga tushungan kishiday iljayib qo'ydi.

— Yo'q, yo'q! Aslo unday xayolga borma! — Aksinya qo'rqib ketdi, qizarib ko'zlaridan yosh chiqdi. — Men u bilan Stepan to'g'risida gaplashmoqchi edim... Erimga besh-o'n kunlik ta'til berishning ilojini toparmikin devdim...

— Biznikiga o'zing kira qolsang bo'lmaydimi? 1-ishi tushgan odam o'zi bilan gaplashadi qo'yadi, — deb makkorlik bilan gap aylantirdi Darya.

— Yo'g'-ey... Natalya boshqacha o'ylashi mumkin... Yuzim chidamaydi...

— Ha mayli, chaqirib beraman.



Grigoriy kechki ovqatini yeb bo'ldi. U endigina qoshiqni qo'yib, sho'rva yuqqan mo'ylovini yalab, kafti bilan artayotganida, stol tagidan allakim oyog'ini bosganday bo'ldi; u atrofidagilarga ko'z yugurtirib chiqib, Daryaning sekin-asta imlaganini ko'rdi.

Anchadan beri kelinoyisining zo'r berib mulozamat qilishidan joni chiqib yurgan Grigoriy darg'azab bo'lib:

«Agarda akamning arvohini chirqillatib menga shilqimlik qiladigan bo'lsa, uraman! G'aram orqasiga olib o'taman-u, yubkasini boshiga qaytarib qo'yib, itday savalayman!» — degan qarorga keldi. O'rnidan turib, tamaki chekdi-da, shoshmasdan eshik tomon yurdi. Ketma-ket Darya ham dahlizga chiqdi.

Dahlizda Grigoriyning yonidan o'tarkan, o'zini uning pinjiga oldi, ko'ksi bilan unga yopishib:

— Xah, niyati buzuq! Tezroq bor... Seni chaqiryapti, — dedi Grigoriyning qulog'iga...

— Kim? — shivirlab so'radi Grigoriy.

— Anavi...

Natalya bolalari bilan uyquga ketib, oradan bir soatcha o'tgandan keyin, shineliga o'ranib olgan Grigoriy bilan Aksinya Astaxovning qo'rasidan chiqishdi. Qop-qorong'i tor ko'chada ikkisi birpas indamay turishdi-da, barra ko'katlarning kayf beradigan xushbo'yiligi, jimjitligi va qorong'iligi bilan kishini qo'yniga chorlagan dasht tomon indamay ketaverishdi. Grigoriy shinelining barini ochib, Aksinyani pinjiga tortdi, uning qalt-qalt titraganini, kofta ostida yuragi qinidan chiqquday bo'lib talpanganini sezdi...

## LI

Ertasi kuni Grigoriy jo'nash oldida xotini bilan qisqacha gaplashib oldi. Natalya uni bir chetga chaqirib olib, sekingina so'radi:

— Kechasi qayoqqa bording? Nega buncha kech qaytding?

— Judayam kech qaytganim yo'q-ku!

— Bo'lmagan gapni gapirma! Xo'roz bir chaqirganda uyg'onib qarasam, joyingda yo'qsan...

— Kudinov kelgan ekan. Ba'zi bir harbiy ishlar to'g'risida maslahatlashgani oldiga boruvdim. Gapirganim bilan baribir sening aqling yetmaydi.

— Kudinov kelgan bo'lsa, nega biznikiga kirib tunab qolmadi?

— Vyoshkiga shoshib jo'nab ketdi.

— Kimnikiga tushdi?

— Aboshenkovlarnikiga. Ular Kudinovga chatishgan bo'lsa kerak.

Natalya boshqa hech gap so'ramadi. Avzoyidan biroz gumonsiranganga o'xshar, ko'zlarining ajinasi yilt-yilt qilardi; xotinini ishontira oldimi yo yo'qmi, Grigoriy butunlay tushunmadi.

Grigoriy naridan beri nonushta qilib oldi. Panteley Prokofyevich ot egarlagani chiqib ketdi. Ilinichna o'g'lini cho'qintirdi-da, o'pib nasihat qila boshladi:

— Avvalo xudoni bil... xudoni unutmagin, bolam! Eshitishimga qaraganda, allaqanday matroslarni chopib o'ldirganmishsan. Xudoyo tavba! Grishenka, ko'zingni och! O'zingni ham bolalaring o'sib katta bo'lyapti, sen o'ldirgan o'sha bechoralarniyam ehtimol bola-chaqasi bordir, hammasi yetim qoldi-da... Bu qanday gap, axir? Kichikligingda biram muloyim, biram yoqimtoy eding, endi bo'lsa, qovog'ingdan qor yog'adi, xolos. Yuraging ham toshga aylanib ketganga o'xshaydi... Onangni gapini u qulog'ing bilan ham, bu qulog'ing bilan ham eshit, Grishenka! Senga duo ketgan emas, bolam: bir kunmas bir kun birorta qilichboz seniyam kallangni olishi turgan gap...

Grigoriy g'amgin iljayib, onaning qoqshol qo'lidan o'pdi-da, Natalyaning oldiga bordi. Xotini uni sovuqqina bag'riga bosdi-yu, yuzini teskari o'girib oldi; Grigoriy uning qup-quruq ko'zlariga tikilib, bir qatra ham yosh topolmadi, lekin butun alami va g'azabini yashirib turganini sezdi... Bolalari bilan xayrlashdi-yu, uydan chiqdi.

Bir oyog'ini uzangiga qo'ydi-da, tikanday ot yolidan tutamlab, negadir, o'ylanib qoldi: «Turmush yana boshqacha izga tushadigan bo'ldi, biroq ko'nglim haliyam g'ash, dilim vayron... Endi Aksinya yoqqan chiroq ham ko'nglimni yoritmaydiganga o'xshaydi...»

Grigoriy, darvoza oldiga to'plangan ota-ona, bola-chaqalariga ham qaramasdan, otini sekin-asta yurgizib ko'chaga chiqdi, As-taxovlar uyi yonidan o'tayotib, derazalarga tikildi va eng chetki

derazadan qarab turgan Aksinyani ko'rdi. U jilmayib boqdi-da, kashtali dastro'molini qimirlatib xayrlashdi va o'sha zahotiyiq uni g'ijimlab og'ziga bosdi, kechasi uyqudan qolib osti qoraygan ko'zlarini arttdi...

Grigoriy otini tasirlatib haydab ketdi. Shu haydaganicha tepalikka chiqdi va o'sha yerda yozgi yo'l bo'ylab kelayotgan ikki otliq bilan bir aravani ko'rib qoldi. Otliqning biri — Lofchining o'g'li Antip, ikkinchisi, qishloqning yuqori mahallasida turuvchi qorachadan kelgan sho'x yigit — Stremyannikov edi. Grigoriy ho'kiz qo'shilgan aravaga qarab: «O'lganlarni ortib kelishyapti», — deb o'yladi. Kazaklar oldiga yetib bormasdan burun:

- Aravadagilar kim? — deb so'radi u.
- Alyoshka Shamil, Ivan Tomilin, Yakov Taqachi.
- Tirigi bormi
- Hammasi o'lgan!
- Qachon?
- Kecha kunbotar mahalda.
- To'plar butunmi?

— Butun. Faqat to'pchilarimizdan ajraldik: qizillar Kalinovoda uydan bosib olib ketishdi. Shamiling bekorga qurbon bo'ldi... ahmoqligi boshiga yetdi!

Grigoriy papaxini olib, otdan tushdi. Yoshi qaytgan chirlik aravakash xotin ho'kizlarni to'xtatdi. Kazaklarning murdasi aravada yonmayon yotardi. Grigoriy arava oldiga yaqinlashmasdan, shamol aralash chuchmal murda hidi uning dimog'iga urildi. Alyoshka Shamilning o'ligi o'rtada edi. Eskirgan ko'k chakmonining barlari ochiq, bir yengi bosh ostida, kir latta bilan o'ralgan, doim likillab turadigan cho'ltoq qo'li keng ko'ksi ustida yotibdi. Jon talvasasida oppoq tishlari irjayib qolgan og'zi qahr-g'azabdan qarishib qotib qolibdi, ammo chaqchaygan nursiz ko'zlari moviy osmonga tikilganicha, dasht uzra suzib o'tayotgan bir parcha bulutni og'ir xayollarga cho'mib tomosha qilayotganga o'xshaydi...

Tomilinni mutlaqo tanib bo'lmasdi; qiyalab tushgan qilich yuzini shilib yuborgan, aft-basharasi dabdala bo'lib, qip-qizil qondan bo'lak narsani ko'rib bo'lmas edi. Yonboshiga yotqizilgan Yakov Taqachi esa, somunday sarg'ayib ketgan, kallasi kesilib, uzilib tushishiga sal

qolganidan, bo‘yni qiyshiqqa o‘xshab ko‘rinardi. Ko‘k gimnastorkasi-ning ochiq yoqasi ostidan cho‘rt singan oppoq o‘mrov suyagi dikkayib chiqib turardi, qoshining ustrog‘i, peshonasini o‘q teshib o‘tgan, o‘q tekkan joy qop-qora qon bo‘lib qotib qolgan edi. Aftidan, Yakovning jon azobida qiynalishini birorta qizil askar ko‘rgan-u, rahmi kelib, otib qo‘ya qolgan bo‘lsa kerak, negaki, yuzlarini o‘q yolqini yalab ketgan, betlarida xol-xol porox dog‘lari qolgan edi.

— Qani, birodarlar, hamqishloqlarimizning xotirasi uchun chekishaylik, arvohlari xushnud bo‘lsin, — deb taklif etdi Grigoriy va bir chetga o‘tib, otining ayilini bo‘shatdi, suvlig‘ini chiqarib, oldingi chap oyog‘ini tizgin bilan tang‘idi-da, endigina maysa bo‘lgan mayin ko‘katga qo‘yib yubordi.

Antip bilan Stremyannikov ham darhol egardan tushishdi, otlarini tushovlab, o‘tlagani qo‘yib yuborishdi. Yonboshlab olib, cheka boshladilar. Junlari osilib qolgan, lekin hali tullab bo‘lmagan ho‘kiz yo‘l yoqasidagi ajriqqa intilib bo‘ynini cho‘zardi; Grigoriy unga tikilib turib:

— Shamil qanday halok bo‘ldi? — deb so‘radi.

— Ishonsang, o‘ziga o‘zi sabab bo‘ldi, ahmoq!

— Nuchuk?

— Bir boshdan gapirib bera qolay, — deb boshladi Stremyannikov. — Kecha biz ayni kun qizig‘ida razvedkaga chiqdik. Platon Ryabchikov bir vaxmistrni bizga boshliq qilib jo‘natdi... Aytganday, kecha biz bilan chiqqan vaxmistrning familiyasi nimaydi, Antip?

— Men qaydan bilay?

— Ha, mayli, hech bokisi yo‘q! O‘zi — notanish, boshqa sotnyadan kelgan odam. Haaa... Shunday qilib, o‘n to‘rt kazak yo‘lga tushdik, oramizda Shamil ham bor. Kecha kuni bilan u judayam xursand edi, ko‘ngli hech narsani sezmagan bo‘lsa kerak-da! Hadeb cho‘ltoq qo‘lini likillatadi, jilovni egar qoshiga ilib qo‘yib gap sotadi: «Eh, Grigoriy Panteleyevichimiz ham tezroq kela qolsaydi! Maza qilib ichishardik, yana birga bo‘lib qo‘shiq aytishardik!» — deydi, xolos. To Latishev do‘ngiga yetgunimizcha ashula aytaverib bezor qildi:

*Chigirtkaday tog‘ oshib,*

*Boradi Don kazagi.*

*Miltiqlardan o‘q uzib,*

*Bosadi Don kazagi.*

Shu zaylda Botqoqsoy yonidagi jarga yetdik; vaxmistr esa: «Yigitlar, hech yerda qizillar ko‘rinmaydi; ular hali Astaxovo slobodasidan chiqmagan bo‘lsalar kerak. Bular erta turib o‘rganmagan dangasa mujiklar, shu mahalgacha tushlik ovqatniyam yeb bo‘lmagandir, hozir hammasi xoxollarning tovug‘ini pishirish, qovurish bilan ovora bo‘lsa kerak. Kelinglar, biz ham picha dam olaylik, otlarimiz terlab ketdi», — deb qoldi. Biz ham: «Ha, mayli», dedik. Hammamiz otdan tushib, ko‘katga cho‘zila ketdik, bir kishini qorovul qilib, do‘ngga chiqarib qo‘ydik. Bir vaqt qarasam, rahmatli Alyoshka otining ayilini bo‘shatyapti. Men unga: «Hoy» Aleksey, ayilni bo‘shatmasang bo‘lardi, xudo ko‘rsatmasin, falokat bosib, darhol jo‘nashga to‘g‘ri kelsa, shoshqaloqda qanday qilib cho‘ltoq qo‘ling bilan ayilni torta olasan?» — desam, menga baland kelib: «Sendan ko‘ra tezroq tortib olaman! Menga o‘rgatishni sen noshudga kim qo‘yibdi!» — dedi-da, ayilni bo‘shatib, ot boshidan yuganni shipirib oldi. Yotibmiz deng, birov tamaki tortyapti, birov mudrayapti, birov hikoya aytyapti. Shu orada qorovulimizni ham mudroq bosib, do‘ngga yonboshlaganicha uyquga ketgan ekan, to‘ng‘iz qo‘pkur! Quloq solsam, olisda ot pishqirganday bo‘ldi. Qo‘zg‘algim kelmasa ham, harqalay, o‘rnimdan turdim-u, jar yonidagi tepa ustiga chiqdim. Bundoq qarasam: biz yotgan joydan yuz sarjin narida qizillar jar ichi bilan kelishyapti. Oldida to‘riq ot mingan komandir. Ostidagi ot emas, arslonga o‘xshaydi. Diskli pulemyotlari ham bor. Men shoshib qolib, dumalay-dumalay, jarga chopib tushdim: «Qizillar kelyapti! Otlaninglar!» — deb baqirdim. Qizillar meni ko‘rib qolgan bo‘lishlari mumkin edi. Birdaniga o‘sha yoqdan komanda ovozi eshitildi. Hammamiz otga tarmashdik, vaxmistr qilichini sug‘urib hujum qilmoqchi bo‘lib ko‘rdi, biroq o‘n to‘rt kishining ellikta odamga qarshi hujumidan nima chiqardi? Tag‘in qo‘llarida pulemyot bor. Otlarga minib olib qochishga tushdik; oldin ular pulemyotdan o‘t ochishdi, lekin biz jar panasida bo‘lganimiz uchun o‘q tegmasligiga ko‘zlari yetib, ketimizdan quvib qoldilar. Otlarimiz ularnikidan uchqurlik qilib yetkazmadi; allaqancha joyga borib olib, tappa-tappa otdan tushdig-u, otisha boshladik. Shu payt oramizda Alyoshka Shamil yo‘qligini payqab qoldik. Qoch-qoch boshlanganda u ot yoniga chopib borgan-u sog‘ qo‘li bilan egar qoshiga tarmashgan, biroq oyog‘ini uzangiga qo‘yishi bilan egar og‘ib, ot qorniga tushgan. Shunday qilib,

bechora Shamil otiga minolmay, yakka o'zi qizillarga ro'para bo'lganda! Oti bizning oldimizga qochib keldi; terlab-pishib ketibdi, egari qorniga osilib qolibdi. Shunday qattiq hurkibdiki, hech kimni yoniga yo'latmaydi, pishqiradi, xolos! Mana, shunday qilib, Alekseydan ajraldik! Ayilni bo'shatmaganda, hech nima bo'lmasdi, gapga kirmasdan o'ziga-o'zi... — Stremyannikov qop-qora mo'ylovlari ostidan jilmayib qo'ydi. — Kecha u yo'l-yo'lakay:

*Ayiqpolvon kela qol,  
Sigirimni yeya qol,  
G'alvadan qutqara qol...*

deb qayta-qayta ashula qilgan edi, axiri boshini yedi... Basharasiga qarasang, tanimaysan! Rosa qon ketibdi, ho'kizni bo'g'izlagandayam bunchalik bo'lmas. Qizillar hujumni qaytargandan keyin o'sha jarga bordik; qarasak, qoniga belanib yotibdi. Hamma yoq qon, ko'lob bo'lib ketibdi...

Aravakash xotin yuzini oftobdan saqlash uchun burkanib o'ragan ro'molini sal ko'tarib sabrsizlik bilan:

— Jo'naymizmi, yo'qmi? — deb so'radi.

— Shoshma! Shoshgan qiz erga yolchimaydi. Hozir jo'naymiz.

— Shoshmay bo'ladimi, axir! Manavi murdalar shunchalik sasib-jib ketibdi-ki, ko'nglim ag'darilyapti.

— Albatta, sasiydi-da! Bular tirikligida go'shtni ko'p yegan, xotinar bilan achomlashgan. Tag'inam sasimasinmi? Kimki shunaqa ishlar bilan shug'ullangan bo'lsa, joni chiqmay turib sasiy boshlaydi. Faqat avliyolargina sasimaydi deyishadi; ular o'lgandan keyin murdalaridan xushbo'y hid tarqalarmish, lekin menimcha bu qip-qizil yolg'on. Qanaqa avliyo bo'lmasin, baribir, tabiat qonuniga qaraganda, o'lgandan keyin badrafdan battar sasishi kerak... Avliyolar ham sen bilan menga o'xshagan odam, ovqat yeydi, qorni bor, xudoyim ungayam el qatori o'ttiz gaz ichak bergan... — deb gapga tushib ketdi Antip.

Biroq Stremyannikov negadir qizishib:

— Qo'ysang-chi, avliyolarni boshingga urasanmi? Topgan gapini qaranglar! Qani jo'nadik! — dedi:

Grigoriy kazaklar bilan xayrlashib, halok bo'lgan hamqishloqlari bilan vidolashish uchun arava yoniga bordi-da, uchala o'likning oyoq-

lari yalangligini, uch juft etik oyoqlari ostiga qistirib qo'yilganini endi payqadi.

— O'liklarning etiklarini nega yechdinglar?

— O'z kazaklarimizning qilgan ishi bu, Grigor Panteleyevich... Uchalasining oyoqlaridagi etiklari yap-yangi ekan, o'zaro maslahatlashib: yaxshisini yechib olib, kimning etigi eskirgan bo'lsa, o'shanga berishga, yomonini o'lik bilan qishloqqa jo'natishga qaror qilishdi. O'zi o'lgan bo'lsa, har holda bola-chaqasi tirik. Bolalari eskisiniyam kiyaveradi... Dabdurustdan Anikushka: «O'lgan odamga etik ham kerak emas, ot ham. Alyoshkaning etigini menga beringlar, tag charmi joyida ekan. Men birona qizil askarning botinkasini yechib olgunimcha oyog'imni sovuq chalib, mayib bo'lishim mumkin», — deb turib oldi.

Grigoriy jo'nab ketdi, biroz uzoqlashgach, kazaklar orasida janjal chiqqanini eshitdi. Stremyannikov ingichka ovoz bilan chinqirardi:

— Bekor aytibsan, yolg'onchi! O'sha Lofchining bolasisanday! Avliyolarning hammasi mujikdan chiqqan. Kazaklarda avliyo bo'lganmas!

— Yo'q, bo'lgan!

— Bo'lganmas, itvachcha!

— Yo'q, bo'lgan!

— Qani ayt: kim?

— Yegorgiy sohibqiron-chi?

— Bal-li-e! Miyangni yeb qopsan, ovsar! O'shani kazak deb yuribsanmi hali?

— Asli Don kazagi, quyi stanitsada tug'ilgan, semikarakorlik bo'lsa kerak.

— Yolg'onniyam qoyil qilding! Avval yaxshilab surishtirib ko'r, innaykeyin gapir. Kazak emas u!

— Kazakmasmi? Bo'lmasa, nega suratda qo'lida nayza ushlab turadi?

U yog'ini Grigoriy eshitmadi. U otini yeldirib, jarga soldi va o'shanaqasi Getman yo'lini kesib o'tayotib, ikki otliq bilan aravaning tog'dan qishloqqa tushayotganini ko'rdi.

Grigoriy Karginga yaqinlashguncha otini yo'rttirib bordi. Yo'lga chiqqandan beri sira terlamagan ot yolini mayin shabada o'ynatardi.

Qo'ng'ir tusli yumronqoziqlar yo'lni kesib o'tishar, bezovtalanib chiyillashardi. Ularning ogohlantiruvchi chiyildoq sadolari dashtda hukm surgan ulug'vor sukunatga, negadir, xalal bermas edi. Do'nglar ustidan, yo'l bo'yidagi baland tepalardan tullak bazg'aldoqlar uchib chiqishardi. Quyoshda patlari qorday yiltiragan oppoq bazg'aldoq qanotlarini tez-tez qoqib, havoga ko'tarilardi-da, rosa balandlab olgandan keyin, gir aylana marjon singari qora pat o'sgan bo'ynini cho'zib, mo'viy osmon qo'ynida suzib ketardi, tobora uzoqlashaverardi. Yuz sarjin chamasi nari borgandan so'ng birdaniga pastga tusha boshlardi, lekin ko'z ilg'amas darajada tez-tez qanot qoqqanligi uchun joyida to'xtab qolganga o'xshab ko'rinardi. Yerga yaqinlashganda oppoq qanot patlari qozondan toshgan sut singari ko'pirib, darhol so'nardi: bazg'aldoq o'tlar orasiga kirib, g'oyib bo'lardi.

Hamma yoqdan mast bo'lgan, makiyonlarini ehtiros bilan chaqirayotgan tullak bazg'aldoqlarning qurqullashi eshitilardi. Grigoriy otdan turib, Chir bo'yidagi do'ngning qoq tepasida, yo'ldan bir necha qadam chetroqda bazg'aldoqlar urishgan joyni ko'rdi. Bir bo'yracha keladigan joyni talashib urishgan bazg'aldoqlar tep-tekis qilib yuborgan, bu yerda hech qanday cho'p-chor ko'rinmasdi; chang betiga mayda-mayda parranda izlari tushib qolgan; tevaragidagi burgan bilan shuvoqning qurigan shoxlariga ilinib qolgan och pushti patlar shamolda qimir-lashardi: bu patlar bir-biri bilan urishgan bazg'aldoqlarning qanot va dumlaridan uzilib tushgan edi. Sal nariroqdan kulrang tusli xunukkina bir makiyon uyasidan tura qochdi. Makiyon kampirlar singari bukchayib, oyoqlarini pildiratib chopqillaganicha, bulturdan qolgan bir tup qashqarbeda tagiga kirib oldi-da, uchishga yuragi chopmay, biqinib yotaverdi.

Hayotdagi jamiki narsa bahordan bahramand bo'lib kuchquvvatga kirgan, dasht yayrab-yashnagan edi: ko'katlar barq urib o'sa boshlagan, dashtning eng pastqam joylarida, odamzodning yomon ko'zidan chetroqda qushlar va hayvonlar o'z juftlari bilan qo'shilgan, ekinlar yerdan bosh ko'tarib, barg yozib, shudgorlar maysaga aylangan edi. Yolg'iz umri xazon bo'lgan bulturgi burgan o'tlar dashtda ko'p uchraydigan qadimgi qo'rg'onlar tagida shumshayib, najot izlaganday yerga salom qilib qolgandi, biroq hayotbaxsh bahor yeli uni ayamas: qurigan ildizi yonidan sindi-



rib, oftobda yashnagan, hayot qaynagan dashtning u yog'idan bu yog'iga dumalatib yurardi.

Grigoriy Melexov kunbotarga yaqin Chir daryosidan kechib o'tib, Karginga yetib keldi. Ryabchikovni qidirib, kazaklar slobodasi yonidagi podaxonadan topdi.

Ertasi kuni ertalab, bir necha qishloqqa joylashgan 1-diviziya komandirligini Ryabchikovdan qabul qilib oldi-da, shtabdan kelgan so'nggi svodkalarini o'qib chiqdi, diviziya shtab boshlig'i Mixail Kopilov bilan maslahatlashib, janub tomondagi Astaxovo slobodasiga hujum boshlashga qaror qildi.

Kazaklarga patron yetishmas, shu sababdan, jang qilib patron topishdan boshqa iloj yo'q edi. Grigoriyning hujum boshlashdan asosiy maqsadi ham patron masalasi edi.

Kechga yaqin uch polk suvoriy bilan bir polk piyoda askarni Karginga to'pladi. Diviziyada mavjud bo'lgan yigirma ikki dona pulemyotdan faqat oltitasini olishga qaror qilindi: qolganlariga na o'q, na lenta yetishmasdi.

Ertalab diviziya hujumga o'tdi. Grigoriy qayerdadir, shtabini qoldirib, 3-suvoriy polk komandirligini o'z qo'liga oldi, ehtiyotdan oldinga otliq razvedkachilar yuborib, poxod tartibida janubga, Ponomaryovka slobodasi tomon yo'l oldi: razvedkachilar keltirgan ma'lumotga qaraganda, qizil askarlarning 101- va 103-piyoda polklari shu yerga to'plangan, bular Karginga hujum qilishga tayyorlanmoqda edilar.

Stanitsadan uch chaqirim nariroqda Grigoriyning ketidan chopar yetib kelib, Kudinovning ushbu xatini topshirdi:

*«Serdob polki bizga taslim bo'ldi! Hamma soldatlari qurolsizlantirildi, g'alva ko'targan yigirmatacha askar narigi dunyoga jo'natildi: Bogatiryovning buyrug'i bilan qilichdan o'tkazildi. Bizga to'rtta to'p topshirishdi (biroq la'nati kommunist to'pchilar qulflarini olib ketishibdi); ikki yuzdan ortiq to'p o'qi, to'qqiz pulemyot qo'lga tushirildi. Bizda zo'r shodlik! Qizil askarlarni bo'lib-bo'lib piyoda sotnyalarimiz orasiga tarqatib yuboramiz, o'z birodarlariga qarshi jang qilishga majbur etamiz. Xo'sh, ishlaring qalay? Ha, aytgandek, sal bo'lsa, esimdan chiqayozibdi: senga hamqishloq bo'lgan kommunistlardan Kotlyarov bilan Koshevoy, yana allaqancha yelanliklar qo'lga tushdi.*

*Hammasi Vyoshkiga haydaladi, yo 'lda asfalosofilinga jo 'natiladi. Mabodo patrondan qiynalayotgan bo 'lsang, xat olib borguvchiga ma 'lum qilgin, 500 dona yuboramiz».*

**Kudinov.**

— Ordinarets! — deb baqirdi Grigoriy. Proxor Zikov darhol ot choptirib keldi-yu, biroq Grigoriyning avzoyi buzuqligini ko'rib, qo'rqqanidan chest berdi.

— Nima buyurasiz?

— Ryabchikovni chaqir! Ryabchikov qayerda?

— Kolonna etagida.

— Tezda chaqirib kel! Darrov!

Platon Ryabchikov otini yo'rg'alatganicha, kolonnani aylanib o'tib, Grigoriyning yoniga yetib keldi. Shamol yalayverib betlari po'st tashlagan, mo'ylov-u qoshlari oftobda kuyib, sarg'ayib ketgan edi. U iljayib kular, otini yo'rttirib kelar ekan, tamaki chekardi. Bahor kezlari ham etini oldirmagan qora to'riq semiz arg'umoq o'mildiriqlarini yaraqlatib yo'rg'alar edi.

— Vyoshkidan xat keldimi? — deb so'radi Ryabchikov, Grigoriyning oldidagi choparni ko'rib.

— Ha, — deb kaltagina javob berdi Grigoriy. — Polk va diviziyaning qabul qilib ol, men jo'nayman.

— Mayli, bo'lmasa, boraver. Judayam zaril ish chiqib qoldimi? Nima deb yozibdi? Kim yozgan, Kudinovmi?

— Serdob polki Ust-Xopyorda taslim bo'пти.

— Yo'-g'eeey? Omadning kelishini qara-ya! Hozir jo'naysanmi?

— Hozir.

— Xayr, oq yo'l. Sen qaytguncha, biz Astaxovoda bo'lamiz!

Grigoriy otini ayamay qamchilab, o'qday uchib do'ngdan tusharkan: «Mishka bilan Ivan Alekseyevichni tiriklayin ko'rishim kerak... Petroni kim o'ldirganini aytmaganiga qo'ymayman.. So'ngra ikkisiniyam o'limdan xalos etaman! Akamning xuniga xun olishim shart bo'lsa ham, xalos etaman... Axir, hammamiz bir odam, begona emasmiz-ku!» — degan xayollar ichida o'tday yonardi.

Qo'zg'olonchi sotnyalar Ust-Xopyorga bostirib kirib, mitingbozlik qilayotgan serdoblaklarni qurshab olgandan keyin, 6-brigada komandiri Bogatiryov, Voronovskiy, Volkov o'zaro maslahatlashib olish uchun o'sha yerdagi bir savdogarning uyiga kirdilar; maslahat uzoq cho'zilmadi. Bogatiryov qo'lidan qamchisini ham olmasdan, Voronovskiy bilan ko'rishib:

— Ishlar joyida, bu xizmatigiz unutilmaydi, — dedi. — Biroq nima uchun to'plarni beshikast asrab qololmadingiz?

— Tasodifan shunday bo'ldi! Tasodifan, janobi xorunjiy! To'pchilar deyarli hammasi kommunistlardan edi, jon-jahdi bilan bizga qarshilik ko'rsatishdi, ularni endi qurolsizlantirayotganimizda ikki kishini o'ldirib, to'p qulflarini olib, qochib qutulishdi.

— Attang! — dedi Bogatiryov. Yaqindagina ofitsercha kokardasi olinib, izi qolgan pistoqirang furajkasini stol ustiga tashladi, kir dastro'moli bilan qirtishlangan boshini, qoramtir yuzidagi terni arta boshladi, bilinar-bilinmas iljayib: — Ha, mayli, bu ham yaxshilikka. Siz hozir chiqib, askarlaringizga ayting... Yaxshilab tushuntiring, tag'in anov edi, manov edi deb o'tirishmasin. Hamma qurollarini topshirishsin, — deb tayinladi.

Kazak ofitserning kattalik qilib, baland kelishidan ranjigan Voronovskiy tutila-tutila savol berdi:

— Hamma qurolnimi?

— Men sizga takrorlab o'tirmayman! Hammasini dedimmi, hammasini!

— Janobi xorunjiy, axir, siz va sizning qo'mondonligingiz, polk qurolsizlantirilmasligi kerak, degan shartimizni qabul qilgan edingizku! Bu nimasi endi?.. Albatta, hamma pulemyot va to'plarni, granatalarni so'zsiz topshirish kerakligini men ham tushunaman, ammo qizil askarlarning qurollarini...

Bogatiryov g'azab bilan boshini ko'tarib:

— Qizil askar degan gap yo'q! — deb baqirdi-da, loy sachragan qo'njiga o'rma qamchi bilan tarsillatib urdi. — Bundan buyon qizil askar yo'q, hammasi soldat, hammasi, Don tuprog'ini mudofaa qiladi. Tushundingmi? Bo'yintoblik qiladigan bo'lishsa, majbur etishdanam qayt-

maymiz! Bekinmashoq o'ynashga tobim yo'q! Yurtimizni payhon qilib, endi allaqanday shart ham qo'ymoqchimisan? Oramizda hech qanday shart yo'q! Tushundingmi?..

Serdob polkining shtab boshlig'i, yoshgina poruchik Volkov ranjidi. Hayajondan uning barmoqlari qora movutdan tikilgan ko'ylagining qotirma yoqasidagi tugmalarni paypaslab, qop-qora jingalak sochlarini changallab zarda bilan so'radi:

— Bundan chiqdi, biz sizga asir bo'libmiz-da? Shundaymi?

— Men senga bunday deganim yo'q, o'zingdan o'zing miyanga kelgan narsani aytib valdirayverma! — deb qo'pollik bilan uni jerkib tashladi brigada komandiri Bogatiryov; u endi hamsuhbatlarining qo'lidan hech narsa kelmasligini, uning izmidan chiqolmasligini ko'rsatish uchun pisand qilmay, sansirab gapirardi.

Uy ichi bir lahza sukunat ichida qoldi. Maydondan g'ovur-g'uvur eshitila boshladi. Voronovskiy bir necha marta u yoqdan bu yoqqa borib keldi, barmoqlarini qirsillatdi, nihoyat, moshrang frenchini batamom tugmalab bo'ldi-da, asabi qo'ziganidan ko'zlarini pirpiratib, Bogatiryovga murojaat qildi:

— Sizning bu muomalangiz bizga haqoratli tuyulyapti, rus ofitserlari sha'niga nomunosib ish qilyapsiz! Men buni betingizga aytib qo'ya qolay. Jig'imizga tegadigan bo'lsangiz, biz ham qarab turmaymiz... ko'ramiz hali, nima qilishimizni o'zimiz bilamiz... Poruchik Volkov! Sizga buyuraman: maydonga borib starshinalarga ayting, kazaklarga hech qanday qurol-yarog' topshirishmasin! Buyuring: polk qurol-yarog'i bilan saf bo'lsin. Men manavi, manavi Bogatiryov janob bilan gapni tamomlayman-u, darhol maydonga chiqaman.

Bogatiryovning g'azabi qo'zib, yuzi bo'riqib ketdi; u yana bir nima demoqchi bo'ldi-yu, biroq haddidan oshirib yuborganini anglab, dami ichiga tushdi, birpasda muomalasi ham butunlay o'zgardi. Furajkasini shartta boshiga ildi-yu, alamidan hali ham qamchi o'ynatib, vazminlik bilan gapira boshladi, ovozi ham to'satdan muloyimlashib, sertakalluf bo'ldi-qoldi:

— Janoblar, siz meni boshqacharoq tushunibsiz. Albatta, men bir xil odamlar singari tuzukroq tarbiya ko'rgan emasman yoki yunkerlar maktabida o'qib ta'lim olgan emasman, shuning uchun gapimda ba'zi bir kamchilik bo'lishi mumkin, balki to'g'ri tushun-

tirolmagandirman, hammayam gapga chechan bo'lavermaydi. Har holda siz bilan biz begona emasmiz! Oramizda hech qanday ginakudurat bo'lmasligi kerak. Men nima dedim? Deganim shuki, qizil askarlaringiz orasidagi ayrim kishilarni... siz va biz uchun xavfli bo'lganlarini darhol qurolsizlantirish kerak dedim... Men shularni aytuvdim, xolos!

— Unday bo'lsa, yotig'i bilan tushuntirishingiz lozim edi, janobi xorunjiy! O'zingiz o'ylab ko'ring, boyadan beri bizga qilayotgan muomalangiz, o'dag'aylab gapirishingiz, har holda... — Voronovskiy kiftlarini qisib qo'ydi-da, biroz shaxtidan qaytib, popugi pasaydi, lekin haliyam o'zini bosib ololmay, gapida davom etdi: — O'zimiz ham ikkilanuvchilarni, aynimachilarni qurolsizlantirmoqchi edik, hammasini qo'lingizga topshirmoqchi edik...

— Ha-ha! Men hali shuni aytuvdim-da!

— Axir, men ham shuni aytyapman, ularni o'zimiz qurolsizlantiramiz deyapman... Lekin asosiy kuchimizni, polkning jangovar himoyasini saqlab qolamiz. Qanday bo'lmasin, baribir saqlab qolamiz! Hozirgina siz poruchik Volkovni tanimay-netmay turib, birinchi ko'rishdan qansirab, behurmat qilishni o'zingizga ep ko'rdingiz... Lekin ikkimiz ana shu jangovar qismning qo'mondonligini qabul qilib olamiz va Qizil Armiya safida yurib orttirgan gunohlarimizni butunlay yuvib tashlab, o'zimizni oqlab olamiz, albatta. Buning uchun bizga imkoniyat bermog'ingiz lozim.

— O'sha asosiy qismda qancha odam bo'ladi?

— Taxminan ikki yuzta.

— Ha, mayli bo'lmasam, — deb rozi bo'ldi Bogatiryov noxushlanib. So'ngra o'rnidan turib, yo'lak eshigini ochdi-da, ovozi boricha: — Beka! — deb chaqirgan edi, eshik oldida tivit ro'mol o'ragan, o'rta yashar bir ayol paydo bo'ldi. — Darrov sut olib kel! Oyog'ingni qo'lingga ol, tez!

— Sutimiz yo'q, kechirasiz, aylanay.

— Qizillarga topilgan sut bizga qolganda qurib qopti-da, a? — deb tirjaydi Bogatiryov.

Allaqanday o'ng'aysizlikdan uy ichi yana jimjit bo'lib qoldi. Poruchik Volkov turib-turib:

— Men ketaveraymi? — deb so'radi.

— Ha, — dedi Voronovskiy og‘ir xo‘rsinib. — Boring, buyuring, ro‘yxatda ko‘rsatilgan odamlar qurolsizlantirilsin. Ro‘yxatlar Gorigassov bilan Veyst-tinsterda.

Ofitserlik sha‘niga qattiq tegilgani uchungina boya Voronovskiy: «Ko‘ramiz, hali, nima qilishimizni o‘zimiz bilamiz», deyishga majbur bo‘lgan edi. Haqiqatda esa, shtabs-kapitan Voronovskiy o‘yinni boy berganini, chekinishning iloji qolmaganini yaxshi bilar edi. Qo‘lidagi ma‘lumotlarga qaraganda, fitnachi Serdob polkini qurolsizlantirish uchun armiya shtabi tomonidan yuborilgan qo‘shin Ust-Medveditsadan chiqqan va hademay shu yerga yetib kelishi kerak edi. Bogatiryov ham Voronovskiyning mutlaqo zarari tegmaydigan, ishonsa bo‘ladigan odam ekanini, endi orqasiga qaytolmasligini tushunib oldi. Brigada komandiri butun mas‘uliyatni o‘z gardaniga olib, polkdagi ishonchli kishilardan alohida jangovar qism tuzishga rozilik berdi. Shu bilan kengash ham tamom bo‘ldi.

Maydondagi qo‘zg‘olonchilar kengash natijasini kutmasdan g‘ayrat bilan serdobliklarni qurolsizlantirishga kirishgan edilar. Ochko‘z kazaklar titib ko‘rmagan bironta arava qolmadi. Qo‘zg‘olonchilar faqat patronlarnigina emas, balki qizil askarlarning tagcharmi qalin sariq botinkalarini, obmotka, guppi, paxtali shim, oziq-ovqat — ishqilib, qo‘lga ilingan narsani olaverishdi. Yigirma chog‘li serdoblik qizil askar kazaklarning beboshligini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgandan keyin qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘lib urinib ko‘rdi. Shulardan bittasi o‘zining yonini titkilagan va hamyonini olib, o‘z cho‘ntagiga solib ketayotgan qo‘zg‘olonchini miltiq qo‘ndog‘i bilan solib qoldi.

— Bosmachi! Nega olasan! Menga ber hamyonimni, bo‘lmasa nayza bilan shu!..

O‘rtoqlari uning yoniga tushdilar. G‘azabnok ovozlari eshitildi.

— O‘rtoqlar, shaylaning!

— Bizni laqillatishipti!

— Miltiqni topshirma!

Qo‘l jangi boshlanib ketdi, qarshilik ko‘rsatayotgan qizil askarlarni surib-surib, devorga taqab qo‘yishdi; 3-sotnya komandirining qutqusi bilan otliq kazaklar ikki daqiqada hammasini qilichdan o‘tkazdi.

Poruchik Volkov maydonga kelishi bilan qurolsizlantirish yana ham tezlab ketdi. Qizil askarlarni saf qilib, jala quyib turganiga qara-

may, yoppasiga tinta boshladilar. Olingan multiqlar, granatalar, polk telefon komandasining anjomlari, patron solingan yashiklar, pulemyot lentalarlari — hammasi saf yonidagi bir joyga ustma-ust uyib tashlandi...

Nihoyat, ot choptirib Bogatiryov ham yetib keldi. O'ynoqilagan arg'umog'ini serdobliklar safi oldida to'xtatib, chor atrofiga qarana-qarana, yo'g'on o'rma qamchini bosh ustiga ko'tarib o'dag'ayladi:

— Menga quloq sool! Hammang bugundan boshlab zolim kommunistlarga hamda ularning askariga qarshi jang qilasan. Kimki bizga bajon-u dil xizmat qilsa, uning gunohidan o'tamiz, ammo bo'yintoblik qilganlarning jazosi ana shunday bo'ladi! — deb qilichdan o'tkazilgan qizil askarlarni qamchisi bilan ko'rsatdi; kazaklar allaqachonq ularning ust-boshini tunab olishgan, tartibsiz ravishda bir joyga uyib tashlangan edi: oppoq gavgalar yomg'irda ivib yotardi.

Qizil askarlar orasida pichir-pichir gap boshlandi, lekin birontasi chiqib ro'yirost norozilik bildirmadi, biron kishi qo'zg'alib qatorni buzmadi...

Chor atrofdagi gala-gala piyoda va otliq kazaklar izg'ib yurishardi. Ular maydonni gir aylantirib o'rab olgan edi. Do'ngdagi cherkov devori yonida, serdobliklarning yashil rangga bo'yalgan pulemyotlari qizil askarlar safiga to'g'rilab qo'yilgandi, har bir pulemyot qoshida yomg'irda ivigan kazak — pulemyotchi o'q uzishga tayyorlanib, tiz cho'kkan edi...

Bir soatdan so'ng Voronovskiy bilan Volkov ro'yxatdagi «ishonchli» odamlarni ajratib olishdi. Biroq hammasi bo'lib bir yuz to'qson to'rt kishi edi. Yangidan tashkil etilgan bu qismga «1-alohida qo'zg'olonchi batalyon» deb nom qo'yishdi. Batalyon o'sha kuniyoq Belavin qishlog'i yonida pozitsiya ishg'ol qildi; Donets tomondan kelgan 23-suvoriy diviziya polklari shu yerdan hujum boshlagan edi. Qo'zg'olonchilar orasida: «Bikadorovning 15-qizil askar polki hamda mashhur Mishka Blinovning 32-polki kelyapti» degan ovoza tarqalgandi. Bu polklar yo'lida uchragan qo'zg'olonchi sotnyalarni tor-mor qilib, olg'a siljishardi. Ust-Xopyor stanitsasiga qarashli allaqaysi qishloqda ro'para bo'lgan bir sotnya kazakni ular tilka-tilka qilishgan edi. Bogatiryov Voronovskiyning ana shu batalyonini Blinovga qarshi qayrab solib, jangda matonatini sinamoqchi bo'ldi...

Qolgan serdobliklarni, sakkiz yuzdan ko‘proq kishini, qo‘zg‘olonchi kuchlar qo‘mondoni Kudinov o‘z xatida Bogatiryovga qanday tayinlagan bo‘lsa, xuddi o‘shanday qilib, Donning ustki yog‘idagi yo‘ldan Vyoshenskayaga piyoda haydashdi. Serdobliklar pulemyoti bilan qurollangan uch sotnya otliq askar ehtiyot-shart uchun Don bo‘yidagi tepa bilan izma-iz jo‘natildi.

Bogatiryov Ust-Xopyordan jo‘nash oldida cherkovga kirib ibodat qildi, «xudojo‘y kazak lashkarga» zafar tilagan popning duosi tugamay turib, ko‘chaga chiqdi. Uning arg‘umog‘ini yetaklab keltirdilar. U otga minib, Ust-Xopyorni to‘sib turish maqsadida qoldirgan sotnyalardan birining komandirini imlab yoniga chaqirdi-da, egardan engashib turib, uning qulog‘iga shivirladi:

– Kommunistlarga ehtiyot bo‘l! Ertaga ertalab ishonchli soqchilar bilan Vyoshenskayaga oborasan. Lekin bugundan qoldirmay qishloqlarga choparlar yuboring; «falonchilarni haydab kelyapmiz» deb oldindan hammaga xabar berilsin. Bularni nima qilish kerakligini xalq o‘zi biladi!..

Shunday deb Bogatiryov jo‘nab ketdi.

### LIII

Vyoshenskaya stanitsasiga qarashli Singin qishlog‘i ustida ayni tush payti aeroplan paydo bo‘ldi. Guldurlagan motor ovozi eshitgan bolalar, xotin-xalaj va chollar uylaridan chopib chiqishdi: boshlarini yuqori ko‘tarib, kaftlarini peshonalariga qilib, bulut bosgan osmon qo‘ynida shox tashlab, kalxatday gir aylanayotgan aeroplarga uzoq tikilib qolishdi. Motor ovozi tobora kuchayib, tarillab eshitila boshladi. Aeroplan qishloqning naryog‘idagi o‘tloqdagi tekis bir maydonchani qo‘nishga mo‘ljallab, pastlab kelaverdi.

– Hozir bomba tashlaydi! Qochaver! – deb baqirdi allaqanday bir bilarmon qariya.

Tor ko‘chaga to‘plangan olomon to‘zib ketishdi. Ayollar chirillab yig‘lagan bolalarini sudrab qolishdi, chollar taka singari chetan devorlardan irg‘ishib, chorboqma-chorboq qochishdi. Tor ko‘chada bittagina kampir qoldi. Oldin u ham qochgan edi-yu, biroq qo‘rqqanidan oyog‘i titrab yurolmay qoldimi yo bo‘lmasa, qatqaloqqa qoqilib yiqil-



dimi, ishqilib, shu yiqilganicha o'rnidan turolmay, qoqshol oyoqlarini sharmandalarcha osmonga qilib:

— Voy, sho'rim qursin! Voy ajalim yetdi! Voy, meni qutqaringlar! — deb chinqirib qolaverdi.

Kampirni qutqaradigan bironta azamat topilmadi. Aeroplan yirtqichday o'kirib, g'uvullaganicha qishloqqa vahima solib, omborxonada ustidan pastlab o'tayotganda, soyasi kampirni birdam qopladi, kampirning qinidan chiqayozgan ko'zlariga olam qorong'i bo'ldi. Nihoyat, aeroplan nam o'tloqqa g'ildiraklari bilan kelib urildi-da, ancha joygacha yugurib borib to'xtadi. Xuddi shu payt kampir bolalik chog'idagi qilig'ini qilib qo'ydi. U nima qilganini sezmas, hech narsani eshitmas: hushidan ketib yotardi. Albatta, temirqanot qushning yerga qo'nganini ham, uning ichidan chiqqan qora charm kamzulli ikki kishining birpas ikkilanib turib, keyin alanglanib qo'ra tomon yurganini ham bechora kampir ko'rolmay qolgan edi.

Ammo chorboqqa qochib, bulturdan qolgan maymunjon butalari orasiga bekingan uning choli yurakliroq edi. Yuragi qafasga tushgan chumchuqday talpinib dukullayotgan bo'lsa ham, chol boshini ko'tarib qarashga jur'at etdi. Qo'raga yaqinlashgan ikki kishining biri — ofitser Pyotr Bogatiryov ekanini tanidi. Pyotr uning o'g'li bilan polkdosh bo'lib, 6-alohida qo'zg'olonchilar brigadasining komandiri Grigoriy Bogatiryovga amakivachcha edi. U oqlarga qo'shilib, Donets daryosining narigi tomoniga chekingandi. Bu odam xuddi o'sha Pyotr Bogatiryovning o'zginasi edi.

Chol quyonday cho'nqayib oldi-da, qo'llariga suyanib, birpas qattiq tikilib turdi: lapanglab kelayotgan odamning soqoli o'sgan bo'lsa ham, haqiqatda o'sha qadimgi ko'kko'z Pyotr Bogatiryov ekaniga qanoat hosil qilgandan keyin o'rnidan turdi-yu, yurolarmikinman deb oyoqlarini qimirlatib ko'rdi. Oyoqlari sal-pal qaltirayotgan bo'lsa-da, mahkam bosib turardi; chol bedana yurish qilib chorbog'dan chiqdi.

U behush yotgan kampirining oldiga bormasdan, tepakal boshidagi rangi o'ngib ketgan kazakcha furajkasini qo'lga olgancha, to'g'ri Pyotr bilan uning hamrohi tomon yurdi. Pyotr Bogatiryov ham uni tanidi: olisdan iljayib, qo'lini qimirlatib salomlashdi. Chol yetib keldi.

— Rost ayting, rostdan ham siz Petro Grigorichmisiz?

— Xuddi o'ziman, buvajon!

— Qarigan chog'imda xudovandkarim uchadigan mashinaga ro'para qilganini qarang! O'takamiz yorilishiga sal qoldi!

— Bu yaqin orada qizillar yo'qmi, buvajon?

— Yo'q, yo'q, bolam! Hammasini Chirning nariyog'iga, xoxollar tomonga quvib yuborishdi.

— Bizning kazaklar ham qo'zg'alishdimi?

— Qo'zg'alishga qo'zg'alishdi-yu, biroq ko'pchiligi keyin qo'zg'almay qoldi.

— Bu nima deganingiz?

— Qirilib bitdi, deganim.

— H-a-a... Mening bola-chaqam, dadam sog'-salomatmi?

— Sog'-salomat. Siz hozir Donetsning naryog'idan kelyapsiz chog'i? O'sha yoqda mening Tixonimni ko'rmadingizmi?

— Ha, o'sha yoqda. Tixonidan salom keltirdik. Siz endi, buvajon, bizning mashinaga poyloqchi bo'lasiz, ishqilib, bolalar tegmasin, men uyga boray... Qani, ketdik!

Pyotr Bogatiryov bilan uning hamrohi ketishdi. Boya aeroplan vahmidan tumtaraqay qochib bekingan xaloyiq chorbog'lardan, bos-tirma taglaridan, yerto'la-yu o'ralardan, burchak-burchaklardan chiqib kelaverdi. Olomon aeroplanni o'rab oldi. Hali sovimagan qaynoq motoridan qoramoy bilan benzin kuyindisining isi kelardi. Kanop surp bilan qoplangan qanotlarini ko'p joyidan o'q teshib ketgan edi. Shu vaqtgacha hech kim ko'rmagan g'alati mashina olisidan chopib kelgan ot singari isitmasi chiqib jimgina turardi.

Pyotr Bogatiryovni dastlab uchratgan bobo kampiri sulayib yotgan tor ko'cha tomon yugurdi, dekabr oyida okrug mahkamasiga qo'shilib chekingan o'g'li — Tixonning sog'-salomatligini aytib, uni suyuntirmoqchi bo'ldi. Biroq kampir tor ko'chada yo'q edi. U allaqachon o'rnidan turib, uyiga yetib olgan, hujraga kirib, egnidagi ko'ylak, yubkasini almashtirayotgan edi. Chol uni arang qidirib shu yerdan topdi.

— Petka Bogatiryov uchib keldi! Tixonidan ko'pdan ko'p salom obkepti! — dedi-yu, uning ko'ylak almashtirayotganini ko'rib, o'tday tutaqib ketdi. — Bu nimasi, shum kampir? Yasanishni senga kim qo'yibdi? Onang o'lsin seni tug'may! It mujigan oshiqdan battarsan, senga kim qarardi? Pardozi qilmay o'l-e!

...Birozdan keyin Bogatiryov cholning uyiga o'g'lini ko'rgani qariyalar kelishdi. Har biri eshikdan kirganda ostonadan o'tmay shapkasini olib, ikonaga qarab cho'qinar va sipolik bilan kirar, has-sasiga suyanib kursiga o'tirardi. Chollar kirgach, suhbat boshlan-di. Pyotr Bogatiryov stakandagi qaymog'i olinmagan muzday sut-ni ho'plab o'tirar ekan, Don hukumatining topshirig'iga muvofiq, qo'zg'olon ko'targan Yuqori Don kazaklari bilan aloqa bog'lash uchun hamda qizillarga qarshi kurashda qo'zg'olonchilarga yor-damlashib, kerakli patron va ofitserlarni samolyotda yetkazib berib turish maqsadida bu yerga uchib kelganini so'zlardi. So'ngra shu yaqin orada Don armiyasi butun front bo'ylab hujumga o'tajagini va qo'zg'olonchilar armiyasi bilan qo'shilajagini gapirib berdi. Gap orasida u, frontni tashlab qizillarga yo'l ochib bergan yosh kazaklarni yo'lga sololmaganliklari uchun qariyalardan ginaxonlik qildi. Pyotr gapini quyidagicha tamomladi:

— ... Modomiki siz esingiz borida etagingizni yopib, stanitsa-lardagi Sovet hukumatini haydab yuboribsiz, Don hukumati buni nazarda tutib, sizlarning gunohingizdan o'tadi.

Chollardan biri ikkilanib turib:

— Bilasizmi, Petro Grigoriy, hozir ham bizda Sovet hukumati bor, faqat kommunistlar yo'q. Bayrog'imiz ham uch ranglimas — qizil bi-lan oq rangli, — dedi.

— Hatto, yoshlarimiz ham gapga kirmay, bir-birini «o'rtoq» deb chaqirishadi! — dedi ikkinchisi.

Pyotr Bogatiryov miyig'ida kuldi, uning chaqchaygan ko'k ko'zlari istehzo bilan jilmaydi.

— Sizlardagi Sovet hukumati — ko'klamdagi yaxday gap. Kun sal-pal ilisa, erib ketadi. Hali qarab turing, Donetsdan qaytganimiz-dan keyin, Kalach yonida frontni tashlab ketishga sabab bo'lgan aza-matlarni o'lguday savalaymiz!

— Savalash kerak, a'zoyi badanini momataloq qilish kerak!

— Savalashdan boshqa chora yo'q!

— Savalash kerak! Savalansin!

— Maydonga olib chiqib, el-yurt oldida rosa savalab tavba qildi-rish kerak! — deb chuvullab qolishdi qariyalar suyunganidan.

Choparlar orqali voqeadan habardor bo'lgan qo'zg'olonchi kuchlar qo'mondoni Kudinov bilan shtab boshlig'i Ilya Safanov uch ot qo'shilgan tarantasda kechga yaqin Singin qishlog'iga quyunday kirib kelishdi.

Pyotr Bogatiryovning uchib kelganidan ikkisi ham benihoya suyunib, brezent plashlariga va etiklariga yopishgan loylarni tozalamasdan oq to'g'ri Bogatiryov cholning uyiga hovliqib kirib kelishdi.

## LIV

Serdoblik xoinlar tutib bergan yigirma beshta kommunistni bir talay soqchi qurshovga olib Ust-Xopyordan haydab chiqdi. Qochib qutulishni xayolga ham keltirib bo'lmasdi. Ivan Alekseyevich asirlarning o'rtasida oqsoqlanib kelarkan, kaltakesakday bezraygan, bemehr soqchi kazaklarning g'azabnok basharlariga nafratlanib tikilar va ma'yuslik bilan: «Bular yostig'imizni quritadi! Sudga berishmasa, ishimiz chatq!» deb xayol surardi.

Soqchilarning ko'pchiligi sersoqollardan bo'lib, ataman polkining voxmistri, eski mazhabli bir chol ularga komandir edi. Ust-Xopyordan chiqilgan zahotiyoyq bu odam asirlarga buyruq qilib, o'zaro gaplashishni, tamaki chekish hamda soqchilarga savol berishni man etdi.

— Yaxshisi kalima o'girib, tilovat qilinglar, xudobezorilar! O'limga ketyapsiz axir, hech bo'lmasa, so'nggi daqiqalaringda o'zlaringni tiysalaring-chi! Haaah, xudodan qaytganlar! Hammang yo'ldan ozib gunohga botgansan! Iblis peshonalaringga tamg'a bosib qo'yibdi — deb o'shqirardi. U goh asirlarga nagan o'qtalar, goh bo'ynidan o'tkazilgan to'pponcha tasma-sini timirskilardi.

Asirlar orasida Serdob polkining komandirlaridan faqat ikki kommunist bor edi, Ivan Alekseyevichdan boshqa kommunistlarning hammasi Yelan stanitsasiga chetdan ko'chib kelgan bo'yodor va sog'lom dehqon bolalar edi; bular stanitsaga sovet askari kelishi bilan partiya safiga kirib, qishloqlarda revkom raisi, militsioner bo'lib xizmat qilishgan va qo'zg'olon ko'tarilgandan keyin Ust-Xopyorga qochib, Serdob polkiga qo'shilgan edilar.

Deyarli hammasi ilgari hunarmand, kosiblar bo'lib: duradgorlik, romsozlik, bochkasozlik, pechkasozlik, suvoqchilik, etikdo'zlik, mashinachilik qilishardi. Eng kattasining yoshi o'ttiz beshdan oshmagan, eng kichigi — yigirma atrofida edi. Hammasining qad-qomati kelishgan, ko'kragi keng, rangi toza va chiroyli edi; jismoniy mehnatda chiniqqan qo'llari baquvvat, mushtlari yangi tug'ilgan bolaning kallasiday kelar, har kiftiga bittadan odam sig'ardi. Bukchaygan soqchi chollarga qaraganda bu yigitlar o'n chandon ortiqlik qilardi.

Ivan Alekseyevichning yonida ketayotgan yelanlik kommunistlardan biri pichirlab:

— Bizni sud qilisharmikan, a? — deb so'radi.

— Sud qilishmas deyman.

— O'ldirisharmikin?

— Shunaqaga o'xshaydi.

— Axir, ularda otish yo'q qilingan-ku! Kazaklar aytgani esingdami?

Ivan Alekseyevich javob bermadi, lekin shamolda yilt etgan uchqun singari ko'nglida umid paydo bo'ldi: «Aytganday, rost-a! Ular bizni otmasligi kerak. Bu ablahlar o'z og'izlari bilan «Bitsin kommuna, bitsin talon-toroj, bitsin otishlar!» deb qichqirishgan edi. Agar rost bo'lsa, ular faqat katorga jazosiga hukm qilisharmish. Bunisi unchalik qo'rqinchli emas! Qishgacha katorgasida yuraveramiz, qish tushib, Don muzlagandan keyin biznikilar yana bularning och biqiniga soladi!..»

Yalt etgan umid, shamol uchirgan uchqunday, birpasda so'ndi qoldi: «Yo'q, tirik qo'yishmaydi! Hammasi alamzada, quturgan itdan battar! Alvido, hayot! Attang, attang, adashgan ekanman! Shularga qarshi kurashib turib, o'zim shularga rahmdillik qildim... Bular sadqayi rahmdillik ketsin! Hammasini qirish, tag-tomiri bilan quritish kerak ekan!»

Ivan Alekseyevich mushtlarini mahkam qisdi, alamiga chidolmay kiftlarini qimirlatib qo'ydi, lekin o'sha on orqa yoqdan boshiga qamchi tushib, birdaniga qoqilib ketdi, yiqilishiga sal qoldi.

— Qo'lingni nega musht qilasan, itdan tarqagan, qo'lingni nega musht qilding, deyapman senga? — deb vag'illay boshladi soqchilar boshlig'i uning ustiga ot solib.

U Ivan Alekseyevichni yana bir marta qamchi bilan urib, yuzini to qoshidan tortib, o'rtasida chuqurchasi bor iyagiga dovur tars yorib yubordi.

Yelanlik duradgor yigitlardan biri olomon ichidan chiqa solib, ko'ksini kerib Ivan Alekseyevichni to'sib oldi-da, titroq ovoz bilan yalinib:

— Shuni urasizmi? Mana meni uring, og'a! Uring meni! O'zi yarador bo'lsa, bekorga uraverasizmi, axir... — dedi.

— Senam quruq qolmaysan! Kazaklar, ur bularni! Ur kommunistlarni!

Qaqshatqich qamchi zarbidan Yelanlikning egnidagi pistoqirang yozli ko'ylagi yelkasidan tars ajralib ketdi, laxtaklari kuygan barg singari eshilib osilib qoldi. Ko'z ochib yumguncha qamchi tekkan joy momataloq bo'lib shishib chiqdi-da, qop-qora qon yirtiq lattalarni ivitib, tirqirab oqa boshladi...

Vaxmistr, azbaroyi jaholati qo'ziganidan nafasi bo'g'ilib, asirlarni bosib-yanchib, olomon orasiga ot solib kirdi-da, duch kelganini aya-may savalayverdi...

Ivan Alekseyevichning boshiga yana bir qamchi zarbi tushdi. Ko'zlaridan o't chaqnab, yer yuzi chayqalib ketdi, nazarida daryoning chap qirg'og'idagi yam-yashil o'rmon qiyshayib, bir yoqqa og'ayotganday bo'ldi.

Ivan Alekseyevich baquvvat qo'llari bilan uzangiga tarmashib qurturgan vaxmistni egardan ag'darmoqchi bo'lganda, soqchilardan biri qilichining orqasi bilan bir urib, uni yerga qulatdi. Ivan Alekseyevichning og'ziga chang-tuproq kirib, nafasi qaytib ketdi, burun va quloqlaridan qaynoq qon otilib chiqa boshladi...

Soqchilar asirlarni qo'tondagi qo'yday bir joyga to'plab olib, o'lasi qilib urdilar. Yo'l ustida mukka tushib yotgan Ivan Alekseyevich atrofidagi dod-voy, qiy-chuvlarni, tapir-tupur oyoq tovushlarini, otlarning pishqirganini go'yo tushida eshitayotganday g'ira-shira eshitar-di. Uning yalang'och boshiga ot og'zidan iliq ko'pik tom-di va o'sha zahoti yonginasida allakim mudhish ovoz bilan yig'lamsirab baqirdi:

— Ablahlar! Qurolsiz kishilarni uraverasizmi, axir! Uuu-v!

Birdaniga Ivan Alekseyevichning mayib oyog'ini ot bosdi, taqa tishlari boldiriga botib ketdi, tepasida, allakimni paxta savaganday

do'pposlashdi. Bir lahza o'tmay, ust-boshi ho'l, chorpahildan kelgan odam Ivan Alekseyevichning yonginasiga ag'darilib tushdi, sho'rtang qon hidi aralash o'tkir ter isi gup etib dimog'iga urildi. Ivan Alekseyevich hali ham hushidan ketmagandi: yiqilgan odamning tomog'iga g'arg'ara kelib, og'zidan varaqlab qon oqa boshlaganini aniq eshitar-di...

Ana shundan so'ng asirlarni podaday haydab Donga tushirishdi-da, qon dog'larini yuvdirtirishdi. Ivan Alekseyevich tizza bo'yi suvga kirib, lovullab achishayotgan jarohatlarini, kaltakdan shishgan joylarini yuwardi, o'z qoni aralashib qizargan suvni kafti bilan taratib, chanqovi bosilmay qolishidan qo'rqqanday, entika-entika ichar edi.

Yo'lga chiqqach, allaqanday bir kazak ketlaridan ot choptirib kelib, o'tib ketdi. Uning ostidagi qora to'riq semizligidan va qattiq terlaganidan yiltirar, qattiq yo'rg'alab borardi. Otliq qishloq ichiga kirib g'oyib bo'ldi; asirlar eng chetki qo'ra yoniga yetib bormasdanoq, qishloqdan gala-gala odam chiqib kelaverdi...

Ivan Alekseyevich ro'parada chopib kelayotgan kazaklarni, xotin-xalajni ko'rgan hamonoq ajali yetganligini tushundi. Boshqalar ham buni anglashdi.

Serdoblik kommunistlardan biri:

— O'rtoqlar! Kelinglar, vidolashib qolaylik! — dedi baland ovoz bilan.

Panshaxa, ketmon, so'yil, arava temirlari ko'targan olomon yaqinlashib kelaverdi...

U yog'i eng og'ir tushdagiday o'tdi. Asirlar bir-biriga tutashgan qishloqlar ichi bilan o'ttiz chaqirim yo'l bosishdi, har bir qishloqda gala-gala zolimlarga duch kelishdi. Qari-qartang, xotin-xalaj, hattoki, o'spirin bolalar ham asir kommunistlarni ayamay urar, qonga belanib, momataloq bo'lgan yuzlariga tupurishar, tosh va kesak otishar, kaltak zarbidan shishib ketgan ko'zlariga tuproq va kul sochishardi. Ay-niqsa, ayollar quturardi: ular azob berishning eng mudhish usullarini o'ylab topishardi. O'limga mahkum bo'lgan yigirma besh asir ikki qator bo'lib turgan olomon orasidan yurib o'taverdi. Lekin oxiriga bormay turib hammasi odam siyoqini yo'qotib, tanib bo'lmaydigan darajaga yetdi: yuzlari momataloq bo'lib shishib, a'zoyi badani dab-dala bo'ldi, jarohatlari qon aralash loyga belandi.

Boshda yigirma besh kishining har biri kaltakdan o'zini asrash uchun soqchilardan naribroq yurishga intilar edi; har kim o'zini safning o'rtasiga urib, tiqilavergandan keyin hammasi bir joyga to'planib qolgandi. Biroq soqchilar ularni turtkilab, dam-badam tarqatib yuborishardi. Kaltakdan saqlanish uchun hech qanday chora qolmagandan so'ng asirlar noiloj tarqoq holda ketaverdilar, lekin hammasi ham birgina umid bilan qimirlar: ishqilib yiqilib qolmaslik uchun harakat qilardi, chunki yiqilgan odam qaytib o'rnidan turolmasdi. Dastavval, asirlar bosh va yuzlarini qo'l bilan pana qilib, jon saqlamoqchi bo'lishgan, uch tishlik temir ayrining yarqiroq uchi yoki yog'och qoziqning oqargan o'tkir uchi bilan ko'zlariga sanchmoqchi bo'lishganda kaftlarini qalqon qilib, ko'zlarini to'sib ham ko'rishgan edi; avval asirlar orasidan bo'kirgan sadolar, rahm-shafqat tilab yolvorgan ovozlar, dod-voy aralash so'kinishlar eshutilib turardi. Biroq tushga bormay hammasi jimib qoldi. Yolg'iz bir yigit, ilgari rotada hammaga yoqqan askiyaboz, eng yosh qizil askargina boshiga kaltak tushganda dodlar edi. U xuddi cho'g' bosgan odam singari tipirchilab yurar, butun vujudi qaltirab, tayoq yeb singan oyog'ini sudrab bosardi.

Ivan Alekseyevich Donda yuvinib olgandan keyin ruhi tetiklangan edi. Ro'paradan chopib kelayotgan kazaklarni, xotin-xalajni ko'rgan zahoti yonidagi o'rtog'i bilan shoshib-pishib vidolashdi-da, ovozi sekin chiqarib:

— Birodarlar, biz jangda sha'nimizga dog' tushirganmasmiz, endi o'lim oldida nomimizni bulg'ab ketmaylik, — dedi. — So'nggi damgacha bir narsani unutmasligimiz kerak. Bular hozir bizni ur-kaltak qilib o'ldirishadi, lekin baribir, Sovet hokimiyatiga bular chivindek ham zarar yetkazolmaydilar! Birodarlar! O'limni shunday kutib olaylikki, dushmanlar qoyil qolsin, birontasi bizni masxara qilib kulmasin!

Yelanliklardan bittasi azobga chiday olmadi: Bobrov qishlog'ida qariyalar uni qiynoqqa solib uravergandan keyin, yosh boladay chin-qirib yubordi, ko'ylak yoqasini chok etib, tumor bandi ter bilan kirdan qorayib ketgan kichkina krestni bo'ynidan olib kazaklarga ko'rsata boshladi.

— O'rtoqlar! Men yaqindagina partiyaga kirganman!.. Rahm qilinglar! Men xudoga ishonaman!.. Ikkita yosh bolam bor!.. Rahm qiling! Sizlardayam bola bor, axir!..



— Biz senga o'rtiqmasmiz! Ovozingni o'chir!

— Bolalaring esingga tushdimi, to'ng'iz qavmida ketkur! Krestni pesh qilmoqchimisan? Endi aqling kirdimi? Bizning yigitlarimizni otib-chopib o'ldirayotganingda nega xudoni eslamading? — o'shqirib so'radi isirg'a taqqan puchuq bir chol; u haligina ustma-ust ikki musht solgan edi. Chol javob kutmasdan asirning boshini mo'ljallab tayoq ko'tardi.

Ivan Alekseyevich atrofida nima bo'layotganini ko'zi bilan ko'rib, qulog'i bilan eshitib tursa ham, pirovardida hech narsaga parvo qilmay qo'ydi, diqqat-e'tiborini hech narsa jalb qilolmadi. Bora-bora metinga aylangan yuragi faqat bir marta jiz etdi, xolos. Ayni tush qizig'ida asirlar Tyukovno qishlog'iga yetib kelib, qarg'ish va kaltaklar ostida olomon orasidan o'tayotganlarida Ivan Alekseyevich ko'z qiri bilan chetga qarab bir bolani ko'rib qoldi; yetti yasharcha bola onasining etagiga yopishib yig'lar, ko'z yoshlari tirqirab, tirishgan ikki betidan duvullab oqardi.

— Oyijon! Uni urmang! Ura ko'rmang, ey!... Rahmim kelyapti, onajon! Hamma yog'i qon!.. — deb jon-jahdi bilan chirillardi.

Yelanliklardan biriga tayoq o'qtalغان xotin birdaniga chinqirib yubordi-da, tayog'ini tashlab, bolaning qo'lidan sudraganicha tor ko'chaga qochdi. Ana shu bolaning chirillab yig'laganidan, bu qadar rahmdilligidan ta'sirlangan Ivan Alekseyevich beixtiyor yig'lab yubordi, sho'rtang ko'z yoshi qovjiragan labiga tomtdi. O'z o'g'li, xotini esiga tushib, o'pkasi to'lib xo'rsindi, chaqmoq kabi yalt etgan bu xotira bilan birga uning ko'nglida: «Nima bo'lsa-bo'lsinki, bola-chaqam ko'z oldida o'ldirishmasin-da! Bo'ladigan ish tezroq bo'lgani yaxshi...» — degan istak uyg'ondi.

Asirlar oyoqlarini arang sudrashar, azbaroyi charchaganidan, oyoqlari zirqirab og'riganidan gandraklab zo'rg'atdan qadam qo'yishardi. Qishloqdan chiqaverishda o'tloqdagi quduqni ko'rgan hamon, asirlar suv ichishga ijozat so'rab, soqchilar boshlig'iga yalina boshlashdi.

— Suv ichishga vaqt yo'q! Haliyam kech qoldik! Hayda! — deb baqirdi vaxmistr.

Lekin soqchilar orasidan bir qariya asirlarning yonini oldi:

— Judayam berahm bo'lma, Akim Sazonich! Axir, bular ham odam-ku!

– Nimasi odam? Kommunistlar odam emas! Sen menga o‘rgatma!  
Men boshliqmi yo senmi!

– Sendaqa boshliqlardan mingini ko‘rganman! Boringlar, yigitlar,  
ichaveringlar!

Chol otdan tushib, quduqdan bir chelak suv tortdi. Asirlar uni o‘rab  
olishdi, yigirma besh juft kosovga o‘xshagan qo‘l baravariga chelakka  
cho‘zildi, shishgan va ko‘kargan ko‘zlar yalt-yult etib, qaqragan to-  
moqlardan xirildoq va bo‘g‘iq ovozlari chiqdi:

– Menga bering, buvajon!

– Bir ho‘plasam bo‘ladi!..

– Bir qultumgina!..

– O‘rtoqlar, hammang baravar yopishma!

Chol chelakni kimga berishini bilmay, shoshib qoldi. Birpas  
o‘ylanib turdi-da, chelakdagi suvni mol sug‘oriladigan yog‘och novga  
ag‘darib, o‘zini chetga oldi:

– Ho‘kizday turtinaver manglar! Navbat bilan ichinglar!

Quyilgan suv ko‘kimtir po‘panak bosib, mog‘orlab ketgan, oftob-  
da qaqragan, chirib yog‘och isi urib qolgan nov ichidan oqib, narigi  
burchagiga yetib bordi. Asirlar jon-jahdlari bilan novga yopishdilar.  
Chol ustma-ust o‘n bir chelak suv tortib novni to‘lg‘azdi: u asirlarni  
ahvoliga achinib, g‘amgin qarab turardi.

Ivan Alekseyevich tiz cho‘kib olib, chanqog‘i bosilguncha ichdi,  
ancha yengil tortib, boshini ko‘tarib atrofga qaradi-yu, ajoyib manza-  
rani ko‘rdi: oppoq ohak changiga belangan Don bo‘yidagi katta yo‘lni,  
afsonaviy qal‘a singari olisda qad ko‘targan bo‘r tog‘ining ko‘kimtir  
sirtini va ularning ustida, mavj urib oqayotgan azim Donning qoq te-  
pasida, bepoyon osmonning moviy qo‘ynida, ko‘z ilg‘amas baland-  
likdagi bir parcha bulutni ko‘rdi. Ust tomoni oppoq bo‘lib yarqiragan  
bu bulutni shamol yelkanday surib, shimol yoqqa uchirib borar, uning  
shaffof soyasi yiroqlarda, daryo burilgan joyda aks etardi.

## LV

Qo‘zg‘olonchi kuchlar oliy qo‘mondonligining maxfiy majlisida  
Don hukumatidan, ya‘ni ataman Bogayevskiydan yordam so‘rash ha-  
qida qaror qabul qilingan edi.

1918-yil oxirida Yuqori donliklar qizillar bilan kelishib, frontni tashlab ketganlari uchun uzr so‘rab, afsuslanib xat yozishni Kudinovga topshirgandi. Kudinov xatni yozdi. U qo‘zg‘olon ko‘targan Yuqori Don kazaklari nomidan, to g‘alaba qozonguncha bolsheviklarga qarshi matonat bilan jang qilishga va‘da berdi, qo‘zg‘olonchi qismlarga rahbarlik qilish uchun aeroplarda kadr ofitserlarini yuborish hamda miltiq o‘qi yetkazib turishni iltimos qildi.

Pyotr Bogatiryov Singinda qoldi, keyin Vyoshenskayaga jo‘nadi. Uchuvchi Kudinovning xatini olib Novocherkasskka uchdi.

O‘sha kundan e‘tiboran Don hukumati bilan qo‘zg‘olonchilar qo‘mondonligi orasida mustahkam aloqa bog‘landi. Deyarli har kuni, Fransiya zavodlaridan chiqqan yap-yangi aeroplanlar uchib kelardi; bular Donetsning naryog‘idan miltiq patroni, uch dyuymalik to‘plar uchun biroz o‘q hamda ofitserlarni tashib turardi. Uchuvchilar Don armiyasiga qo‘shilib chekingan yuqori donlik kazaklardan xat olib kelishar, Vyoshenskayada qolgan ota-onalarining javobini olib Donetsga qaytishardi.

Don armiyasining yangi qo‘mondoni general Sidorin frontdagi ahvolga hamda o‘zining strategik planlariga muvofiq shtabda tuzilgan operatsiya planlarini, buyruq va svodkalarni, qo‘zg‘olonchilar frontiga tashlangan qizil askar qismlari haqidagi ma‘lumotlarni Kudinovga yubora boshladi.

Sidorin bilan bo‘layotgan aloqani Kudinov uch-to‘rtta yaqin kishigagina bildirardi, qolganlardan sir saqlar edi.

## LVI

Kechqurun soat beshga yaqin asirlarni Tatarsk qishlog‘iga haydab kelishdi. Hademay qisqagina bahor kuni tugab, qosh qoraydi, g‘arb tomonda ufqni qoplagan paxmoq bulutga quyosh ham olov barkashining bir cheti bilan qo‘nib, botishga chog‘langan edi.

Ko‘chada, kattakon jamoat omborxonasining soyasida tatarsklik piyoda sotnyaning kazaklari o‘tirishar yoki qaqqayib turishardi. Aslida bularni, qizil suvoriylar hamlasiga arang bardosh berayotgan yelanlik sotnyalarga yordamlashish uchun Donning o‘ng qirg‘og‘iga jo‘natayotgan edilar, lekin tatarskliklar o‘z pozitsiyalariga ketishdan

oldin, bola-chaqalarini ko‘rish, oziq-ovqat g‘amlash uchun yoppasiga qishloqqa kirib kelishdi.

Ular shu bugun jo‘nashlari kerak edi, biroq asir tushgan kommunistlarni Vyoshenskayaga haydab ketishayotganini, ularning orasida Mishka Koshevoy bilan Ivan Alekseyevich borligini, hademay Tatarskka yetib kelishini eshitib, biroz kutishga qaror qilishdi. Ayniqsa, Petro Melexov bilan birga birinchi jangda o‘lgan kazaklarning qarindoshlari Koshevoy bilan Ivan Alekseyevichni ko‘rishga mushtiq edilar.

Kazaklar miltiqlarini omborxonada devoriga suyab qo‘yib, u yoqdan, bu yoqdan gaplashishar, ba‘zisi turib, ba‘zisi o‘tirgan joyida tamaki chekar, semechka chaqardi, ularni xotin-xalaj, bola-chaqa, chollar o‘rab olgan: butun qishloq ko‘chaga chiqqandi; bolalar tomga chiqib olib dashtdan ko‘z uzmay poyloqchilik qilishardi.

Nihoyat, bolalar chug‘urlashib qoldi:

— Ko‘rindi! Haydab kelishyapti!

Kazaklar shosha-pisha o‘rinlaridan turishdi, olomon g‘imirlab qoldi, shov-shuv ovoz ko‘tarildi, asirlar tomon yugurishgan bolalarning dupuri eshitildi. Alyosha Shamilning beva qolgan azador xotini alamiga chidolmay qarg‘ay boshladi. Ovozi yo‘g‘on allaqanday bir chol:

— Dushmanlarni haydab kelishyapti! — deb to‘ng‘illadi.

— Urub o‘ldirish kerak bu badbaxtlarni! Kazaklar, nimaga qarab turibsiz?

— Hammasini sudga tortish kerak!

— Farzandlarimizni shular o‘ldirgan!

— Koshevoyni sherigi bilan qo‘shib toshbo‘ron qilib o‘ldirish kerak!

Anikushkaning xotini bilan yonma-yon turgan Darya Melexova, kaltak yeyaverib dabdalasi chiqqan asirlar orasidan dastlab Ivan Alekseyevichni tanib oldi.

Tobora kuchaya boshlagan g‘azabnok odamlarning g‘ovurg‘uvurlarini, xotinlarning qiy-chuv yig‘ilarini soqchilar boshlig‘ining xirildoq ovozi bosib ketdi:

— Hamqishlog‘ingizni haydab keldik! Ana, tomosha qilinglar! O‘pishib olinglar, itvachcha bilan! Mana o‘zi! — deb ot ustidan qo‘lini bigiz qilib, Ivan Alekseyevichni ko‘rsatdi.

— Sherigi qani? Qani Mishka Koshevoy? — Lofchining o‘g‘li Antip olomon orasidan to‘g‘ri kelaverdi; u yo‘l-yo‘lakay miltiq qayishini yelkasidan chiqarmoqchi bo‘lar, miltiq qo‘ndog‘i va nayza uchi odamlarga tegib ketgani bilan ishi yo‘q edi.

— Sizning qishlog‘ingizdan bitta shu bor, boshqa hech kim yo‘q. Bir burdadan qilsangiz, hammangizga bemalol yetadi... — dedi-da, vaxmistr marjon-marjon bo‘lib terlagan peshonasini qizil dastro‘moli bilan artdi, egar qoshidan zo‘r-ba zo‘r oyog‘ini oshirib oldi.

Xotinlarning qiy-chuv faryodlari tobora kuchayib avjiga chiqdi. Darya surila-surila soqchilar yoniga o‘tib oldi va soqchi ostida terga pishgan otdan bir necha qadam nariroqda kelayotgan Ivan Alekseyevichning kaltak zarbidan dabdala bo‘lgan yuzini ko‘rdi. Uning boshi nog‘oraday shishib ketgan, sochlariga qon yopishib qotib qolgan edi. Peshonasi g‘urra bo‘lib, terisi yorilib ketgan, ikki beti cho‘g‘day yonardi; boshining qoq tepasidagi qon talashgan jarohat ustiga ikkita jun qo‘lqop tashlab qo‘yilgandi. Bu qo‘lqoplarni Ivan Alekseyevich boshidagi jarohatni jazirama oftobdan, pashshalardan, lak-lak chivinlardan ehtiyot qilmoqchi bo‘lib yopgani ko‘rinib turardi. Lekin qo‘lqoplar jarohatga yopishib, boshidan olinmay qolib ketgandi.

Ivan Alekseyevich o‘zini qayga qo‘yishni bilmay, hadeb alanglar, olomon orasiga ko‘z yugurtirib xotini bilan o‘g‘lini qidirar, lekin ularni uchratishdan qo‘rqardi; mabodo shu yerda bo‘lsa, biron kishiga yalinib, ularni bu yerdan olib ketishni iltimos qilmoqchi edi. Tatarskdan nari o‘tmasligini, shu yerda o‘lishi muqarrarligini u endi aniq bilgandi, jon berayotganini xotini yo o‘g‘li ko‘rib qolishidan qo‘rqar edi. U tobora sabrsizlanib tezroq o‘lishni istardi. Bukchaygan holda boshini arang burib, hamqishloqlarining tanish basharalariga birma-bir nazar solib chiqdi, lekin birontasining rahmi kelganini, loaqal achinganini ham ko‘rmadi: erkag-u ayol — hammasi xo‘mraygan, hammasi g‘azabga mingan edi.

Ivan Alekseyevichning egnidagi pistoqirang eski ko‘ylagi qotib, qovjirab ketgan, qimirlagan sari shildirardi. Ko‘ylagi qop-qora qonga belangan, paxtali shimidan tortib, sarpoychang oyoqlarining yassi tovoniyu, egri barmoqlariga dovur qop-qora qon edi.

Darya uning ro‘parasida turardi. U goh rahmi kelib, goh nafrati qo‘zib entikar, tomog‘i xippa bo‘g‘ilganday nafas ololmasdi, shu yer-

da allaqanday mudhish hodisa hademay ro'y berishini yuragi sezib betoqat bo'lib turardi; Darya Ivan Alekseyevichning yuziga tikilardi, biroq Ivan Alekseyevich uni ko'ryaptimi, tanidimi, yo'qmi — anglay olmasdi.

Lekin Ivan Alekseyevich hali ham boyagi tashvish, boyagi vahm ichida atrofga qarar, o'qrayib qolgan sog' ko'zini yirib olomonga tikardi (ikkinchi ko'zi shishib, yumilib qolgandi). To'satdan u, bir necha qadam narida turgan Daryani ko'rib qoldi-da, mast kishidek gandiraklab olg'a intildi. Qon ko'p ketganidan boshi aylanib, esi og'a boshladi, lekin bunday holat uzoq davom etmasa ham, atrofdagi tamomiy narsa tushdagiday noaniq bo'lib, xayol kabi tuyuldi, ko'ngli ag'darilib, boshi aylandi, ko'z tinib, olam qorong'ilashdi; Ivan Alekseyevich hushi og'ib qolishidan xavotirlanib, butun irodasini, bor kuchini ishga solib oyoq ustida bosib turardi.

U Daryani ko'rdi-yu, tanidi, bir qadam bosar-bosmas gandiraklab ketdi. Bir vaqtlar qimtib yuradigan, hozir esa dabdalasi chiqqan lablarida tabassum paydo bo'ldi. Jilmaygandek yuzini burishtirganini ko'rgach, Daryaning yuragi orziqib, duk-duk ura boshladi, nazarida yuragi tomog'iga kelib tiqilib qolgandek bo'ldi:

Darya pishillab tez-tez nafas olar, borgan sari rangi oqarib Ivan Alekseyevichga yaqinlashardi.

— Horma endi, otaxon! — dedi Darya.

Uning qo'ng'iroqday jaranglagan g'azabnok ovozidan olomon jimib qoldi.

Sukunat ichida Ivan Alekseyevichning past ovozda dadil javob bergani eshitildi.

— Bor bo'l, qizim Darya.

— Qani, gapir, aylanay otaxon, o'z... mening erimni... — Darya, nafasi qisilib, ovozi chiqmay qolganidan ikki qo'li bilan ko'ksini chagallab oldi.

Hamma yoq suv quyganday jimjit bo'lib qoldi; ana shu dahshatli sukunat ichida shivirlab gapirgan Daryaning ovozini eng chetdagilar ham aniq eshitdi:

— ...Erim Petro Panteleyevichni o'ldirganingni o'zing gapirib ber!

— Yo'q, Darya, uni men o'ldirganim yo'q!

— Sen o‘ldirganing yo‘qmi? — Daryannng titroq ovozi chiyillab eshitildi.

— Axir, kazaklarni o‘ldirgan Mishka Koshevoy bilan sen emasmi? Yo boshqami?

— Yo‘q, Darya... Biz uni... men uni o‘ldirganim yo‘q.

— Bo‘lmasa kim uning yostig‘ini quritdi? Xo‘sh, kim? Gapir!

— U yerda Zaamur polki...

— Sen! Sen o‘ldirgansan!.. Kazaklar jar tepasida seni ko‘rganligini aytishdi! Oq ot mingan ekansan! Endiyam tonasanmi, badbaxt!

— O‘sha jangda men ham bor edim... — Ivan Alekseyevich chap qo‘lini arang ko‘tarib, boshidagi jarohatga yopishib qolgan qo‘lqopni tuzatdi. U ikkilanib turib bo‘shashib javob qildi: — O‘sha jangda bo‘lganim rost, ammo eringni men emas, Mixail Koshevoy o‘ldirgan. O‘sha otdi.

— Bo‘lmasa ayt-chi, munofiq, hamqishloqlaringdan qaysinisini otding? O‘zing kimni o‘ldirding, kimning bolalarini yetim qoldirding? — deb chinqirdi olomon orasidan turib Yakov Taqachining beva xotini.

Busiz ham keskinlashgan vaziyat battar keskinlashib, hamma yoqni ayollarning qiy-chuvi, yig‘i-sig‘isi bosib ketdi, azadorlar chuvullashib, o‘lganlarni yo‘qlab faryod ko‘tarishdi.

Keyinchalik Darya: «Qanday qilib qo‘limga karabin tushib qolganini, uni menga kim tutqizib qo‘yganini sira bilmayman», — deb gapirib yurdi. Lekin u xotinlar uv tortib yig‘lay boshlagan zahoti, qo‘lida allaqanday bir og‘ir narsa borligini sezdi-da, silab ko‘rib, qaramasdanoq uning miltiq ekanligini bildi. Oldin Ivan Alekseyevichni qo‘ndog‘i bilan urmoqchi bo‘lib, miltiqning quvuridan ushladi, biroq nishon mushkasi kaftiga botib qattiq og‘rigani uchun shartta qayishiga chang solib, miltiqni o‘nglab oldi-da, qo‘ndog‘ini kiftiga tirab, Ivan Alekseyevichning ko‘ksini, ko‘ksining chap tomonini nishonga oldi.

Darya Ivan Alekseyevichning orqasida turgan kazaklarning duvullab qochganini, odamlar to‘sib turgan omborxonaning loysuvoq devori ochilib qolganini ko‘rdi; cho‘chigan ovozlar orasidan: «Voy, esingni yedingmi? Bitta-yarimtaga tegib ketadi, axir! Shoshmay tur, otma!» degan so‘zlarni ham eshitdi. Lekin u slomongning balo-qazoday poy-

lab, tikilib turganidan, eri uchun qasos olish istagi zo'rligidan va qisman to'satdan miyasiga kelgan bema'ni xayolga berilib, hozir, anchayin ayol emasligini ko'rsatib qo'ygisi keldi. Nazarida, atrofdagi kazaklar hayron qolib, hattoki kapalaklari uchib: oxiri nima bo'larkin, deb kutib turganliklarini ko'rdi; o'zini tutolmay, o'zi o'ylamagan va hozirgi sharoitda xayoliga ham keltirishi mumkin bo'lmagan allaqanday mudhish fikr miyasida charx urib aylana boshladi. Darya shoshmasdan ehtiyotkorlik bilan miltiqni tepkisini paypaslab topib, to'satdan qattiq bosib yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

Miltiqning qo'ndog'i turtib yuborganidan Darya gandraklab ketdi, o'q ovoizdan qulog'i bitib qoldi, qisilgan ko'zlari qarshisida turgan Ivan Alekseyevichning seskanib tushganini, aft-basharasi birdaniga burishib, o'zgarib ketganini, dahshatli bir hodisa yuz berganini ko'rdi; Ivan Alekseyevich xuddi baland joydan suvga sho'ng'imoqchi bo'lgan odam singari, qo'llarini kerib, yana qayta qovushtirdi-da, mukkasiga quladi, boshi qalt-qalt titrab, yer changallab qoldi-yu, barmoqlari harakatga kelib, sekin-asta tuproqni tirnay boshladi...

Darya miltiqni tashladi, lekin nima ish qilib qo'yganini hali ham aniq tasavvur etmasdan, yiqilib tushgan odamga orqasini o'girdi-yu, orada hech gap o'tmaganday, boshidagi ro'molini to'g'rilab, to'zg'igan sochlarini tuzatdi.

Kazaklardan biri:

— Haliyam joni chiqmabdi... — dedi-da, yonidan o'tayotgan Daryaga haddan ziyoda iltifot ko'rsatib, yo'l bo'shatdi.

Lekin Darya kim, nima to'g'risida gapirayotganlarini anglamay burilib qaradi, allakimning jigar-bag'ridan chiqarib bir maromda ingrashini, hiqillab jon berayotganini eshitdi. Faqat shundan keyingina u, ingragan odam Ivan Alekseyevich ekanini va uni o'z qo'li bilan otganini angladi. Darya shipillab yurib, omborxonaga yonidan o'tib oldi-da, maydon tomon ketdi, lekin ko'pchilik odam unga burilib qaramadi ham.

Hammaning e'tiborini Lofchining o'g'li o'ziga jalb qilgan edi. Antip uchiga xanjar qadalgan yaponcha miltiqni negadir, orqasiga pana qilib, oyoq uchida Ivan Alekseyevichning tepasiga yugurib keldi. Uning har bir harakati puxta va bexato edi. U cho'kkalab oldi-da, xanjar uchini Ivan Alekseyevichning ko'ksiga qadab:



— To‘ng‘iz qavmida ketding, Kotlyarov? — dedi-yu, xanjar das-tasini jon-jahdi bilan bosdi.

Ivan Alekseyevich qiynalib, anchagacha jon berolmadi. Suyagi yo‘g‘on sog‘lom tanasi hayotdan ayrilgisi kelmasdi. Hattoki, uchinchi marta ko‘ksiga xanjar sanchilgandan keyin ham, og‘zi kappa-kappa ochilib, qonga belanib, qarishib qolgan tishlari orasidan:

— Aaa!... — degan xirildoq ovoz chiqardi.

Soqchilar boshlig‘i vaxmistr:

— Qotil bo‘lmay o‘l, qoch-ey, onasi baytal! — deb Antipni turtib yubordi-da, nagan o‘qtalib, chap ko‘zini qisib turib, Ivan Alekseyevichni nishonaga oldi.

O‘q tovushi signalday yangrab ketdi; asirlarni so‘roq qilayotgan kazaklar ularni do‘pposlab ura boshladilar. Asirlar to‘s-to‘s bo‘lib qochishdi. Qiy-chuv faryodlar ichidan qarsillagan o‘q tovushlari anchagacha eshutilib turdi.

\* \* \*

Bir soatdan so‘ng Grigoriy Melexov Tatarskka ot choptirib kiritib keldi. Ust-Xopyordan chiqishi bilan otini savalab haydadi, oti yo‘lda ikki qishloq orasida zo‘riqib o‘ldi. Grigoriy egarni orqalab, piyoda yurib, yaqin oradagi qishloqqa yetib olgach, o‘sha yerda bir qirchang‘i ot topib yo‘lga tushgandi. Shuning uchun u kech qoldi... Tatarsklik piyoda askarlar allaqachon do‘ngdan oshib, Ust-Xopyor chegarasiga, Ust-Xopyor stanitsasi tomon ketishgan edi. Bu yerda qizillarning otliq diviziyasi bilan qo‘zg‘olonchilar orasida jang bo‘layotgan edi. Qishloq jim-jit, odam bolasi ko‘rinmasdi. Butun qir-u adirlar, Donning narigi betida shitirlagan terag-u tollarni tuning pardasi chulg‘ab olgan edi...

Grigoriy otni hovliga bog‘lab, uyga kirdi. Chiroq yoqilmagan edi. Zim-ziyo qorong‘ilik ichida chivinlarning g‘ing‘illagani eshitilar, to‘rdagi devorga osilgan zarhal ikonalar g‘ira-shira yiltirab ko‘rinardi. Bolalik chog‘idan o‘rganib qolgan o‘z uyining yoqimli hidini hidlab:

— Uyda odam bormi o‘zi? Onajon, Dunyashka! — deb chaqirdi.

— Grisha! Grishamisan? — hujra tomonidan. Dunyashkaning ovozi keldi.

Yalang oyoqlarning shipillagan tovushi eshitildi, eshik tirqishidan Dunyashkaning gavdasi oqarib ko'rindi; u ichki yubkasining bog'ichini shosha-pisha bog'lamoqda edi.

— Nega buncha erta yotdinglar? Onam qani?

— Bu yerda hali...

Dunyashkaning dami ichiga tushib ketdi. Grigoriy uning harsillab tez-tez nafas olayotganini eshitdi.

— Bu yerda nima bo'ldi? Asirlarni qachon olib o'tishdi.

— Hammasini urib o'ldirishdi.

— Nimaaa?..

— Kazaklar toshbo'ron qilishdi... Voy, Grisha? Hammasidanam bu kasofat Daryaning qilgan ishini qara-ya... — G'azabidan Dunyashkaning o'pkasi to'lib, yig'lamsirab gapirdi, — Ivan Alekseyevichni Dasha o'ldirdi... ko'krigidan otdi...

Grigoriy, kapalagi uchib, singlisining sanama gulli ko'ylagi yoqasidan ushladi-da:

— Nima deb valdirayapsan o'zing? — deb baqirdi. Dunyashkaning ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh keldi, ko'zi bir joyga tikilib qolganligidan, gapi rostligini Grigoriy tushundi.

— Mishka Koshevoy-chi? Shtokman-chi?

— Asirlar orasida ular yo'q edi.

Dunyashka tutila-tutila, asirlardan qanday o'ch olganliklarini, Darya nima qilganini qisqacha so'zlab berdi.

— Onam u bilan bir uyda yotishga qo'rqib, qo'shnimiznikiga chiqib ketdi, Dashka bo'lsa, allaqaysi go'rdan itday mast bo'lib keldi. — Hamma yog'i loy. Hozir uxlayapti.

— Qayerda?

— Omborxonada.

Grigoriy omborxonaga kirib, eshikni lang ochib tashladi. Darya etaklarini ochib sharmandalarcha yerda yotardi. Nozik qo'llari ikki yoqqa tashlangan, o'ng betiga oqqan so'lakaylari yilt-yilt etib turar, ochilib qolgan og'zidan sassiq samogon hidi kelardi. Boshi bir yoqqa qiyshayib qolgan, chap betini yerga mahkam bosib, pishillab, og'ir-og'ir nafas olib yotardi.

Grigoriy umrida hech qachon bu qadar g'azab bilan odamning kalasini shartta kesib olgisi kelmagan edi. U Daryaning tepasida ingrab,

chayqalib, tishini tishiga qo'yib birpas turib qoldi, bu yotgan gavgani, naftrat bilan jirkanib tomosha qildi. So'ngra bir qadam olg'a tashlab, qop-qora qoshlari kamonday qayrilgan Daryaning yuziga etigining nag'al poshnasi bilan bosdi-da:

— Ha, gazanda! — deb baqirdi xirildoq ovoz, bilan.

Darya ingrab yubordi, mast-alast holda bir nima deb chuldiradi, lekin Grigoriy boshini changallaganicha, zina bosqichlariga qilich-qinini ura-ura qo'raga chopib chiqdi.

Onasi bilan ko'rishmasdan, o'sha kechasiyoq, u frontga jo'nadi.

## LVII

Shu damgacha Don armiyasining qarshiligini yenga olmagan, ko'klam kelib, daryo toshqini boshlanmasdan oldinroq Donetsdan o'tib ololmagan 8- va 9-Qizil Armiya qismlari ayrim uchastkalarda hujumga o'tishga urunishardi. Lekin bu urunishlar ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tamom bo'lardi. Hozir, Don qo'mondonligining qo'li baland kela boshlagandi.

May oyining yarmi o'tib ketganiga qaramay, Janubiy frontda biron katta o'zgarish yuz bermadi. Lekin shu yaqin kunlarda ahvol o'zgarishi kerak edi. Don armiyasining sobiq bosh qo'mondoni general Denisov va uning shtab boshlig'i general Polyakov ishlab chiqqan rejaga muvofiq, Kamensk bilan Ust-Belokalitven stanitsalari atrofiga «zarbachi grupp» deb atalgan qismlarni to'plash ishi tugallanmoqda edi. Frontning shu uchastkasiga yosh armiyaning ta'lim olgan eng sara kadrlari keltirilgan, ishonchli qismlar quyi donlik Gundorov, Georgiyev polklari va boshqalar yuborilgan edi. Xomcho't qilib hisoblanilsa, bu zarbachi guruhda o'n olti ming otliq va piyoda askar, yigirma to'rtta zambarak va yuz ellik pulemyot bor edi.

General Polyakovning fikricha, bu guruh general Fitsxalaurov qo'l ostidagi qismlar bilan birgalikda Makeyevka slobodasi tomondan bos-tirib borib, 12-Qizil diviziyani uloqtirib tashlashi va qo'zg'olonchilar bilan birlashish uchun 13-Ural diviziyasining biqini va orqa tomoniga o'tib olib jang qilishi, Yuqori Don okrugiga o'tib olishi kerak edi; ana shundan keyin Xopyor okrugiga borib kazaklarni bolshevizm kasalidan «davolamoqchi» edilar.

Donets daryosining yaqinida hujum qilish uchun, frontni yorib o'tish uchun jadal tayyorgarlik ko'rilmogda edi. Zarbachi guruhning qo'mondoni qilib general Sekretov<sup>1</sup> tayinlangandi. Tarozi pallasi bir yoqda og'ib, Don armiyasining qo'li baland keladiganga o'xshab qoldi. Krasnovning yordami bilan amalga mingan, hozir iste'foga chiqqan general Denisov o'rniga tayinlangan yangi bosh qo'mondon — general Sidorin va yangidan saylangan lashkar atamani General Afrikan Bogayevskiy ittifoqchilar tarafdori edilar. Ingliz va fransuz harbiy misiyalari bilan birgalikda Moskva ustiga yurish, butun Rossiyada bolshevizmning tomirini quritish to'g'risida katta rejalar tuzishardi.

Qora dengiz bo'yidagi portlarga qurol-yarog' ortgan paroxodlar tez-tez kelib turardi. Okean paroxodlari ingliz va fransuz aeroplanlaridan tank, zambarak, pulemyot, multiqlardan tashqari xachirlar uchun jabduq, Germaniya bilan sulh tuzilish natijasida narxi tushib ketgan oziq-ovqat, kiyim-kechaklarni ham ortib kelishardi.

Mis tugmasiga sher surati solingan, Angliyadan keltirilgan yashil french va bridjlar Novorossiysk pakgauzlarida<sup>1</sup> toy-toy bo'lib taxlanib yotardi. Amerikadan kelgan un, qand, shokolad va vinolardan omborlar tirband edi. Bolsheviklarning bu qadar joni qattiqligidan vahimaga tushgan kapitalistik Yevropa nemislar ustiga yog'dirib tugatolmagan to'p o'qi va patronlarni endi ko'plab Janubiy Rossiyaga jo'natmogda edi. Butun dunyo reaksiyasi qonga belangan Sovet Rossiyasini bo'g'ib o'ldirishga otlangandi... Kazak ofitserlariga, ko'ngilli armiya ofitserlariga ingliz zambaraklaridan o'q otishni o'rgatish, tank haydash hunarini o'rgatish uchun Donga va Kubanga kelgan ingliz va fransuz instruktor-ofitserlari Moskvaga kirib borish tantanasini ko'z oldilariga keltirib halitdan so'lakaylarini oqizishardi.

Ayni shu payt Donets bo'yida shunday janglar boshlandiki, u Qizil Armiyaning 1919-yilgi hujumining muvaffaqiyat qozonishiga sabab bo'ldi.

Qizil Armiya hujumining shu damgacha muvaffaqiyatsiz chiqayotganiga asosiy sabab, yuqoridonliklarning qo'zg'oloni ekanligiga shubha yo'q edi. Bu qo'zg'olon uch oy mobaynida qizillar frontini orqa tomondan qaqshatar, hamisha ularni askar yuborishga majbur qi-

---

<sup>1</sup> Pakgauz — temiryo'l bo'yidagi ombor. (Tarj.)

lar, frontni o'q-dori, oziq-ovqat bilan muttasil ta'minlashga, yarador va kasallarni mamlakat ichkarisiga jo'natishga doimo xalaqit berardi. Qo'zg'olonni bostirish uchun faqat 8- va 9-Qizil Armiyaning o'zidan yigirma mingga yaqin askar yuborilgan edi.

Respublika revolyusion Harbiy Soveti, qo'zg'olon qanchalik keng tus olinganidan xabari bo'lmaganligi sababli, uni bostirish uchun o'z vaqtida qat'iy choralar ko'rmadi. Oldin qo'zg'olonchilarga qarshi ayrim otryad va otryadchalar, chala to'ldirilgan qismlar, kichkina-kichkina to'siq otryadlarigina yuborildi (masalan, VSIK maktabi ikki yuz kishilik otryad bergan edi, xolos). Kattakon yong'inni cho'michda suv sepib o'chirmoqchi bo'lishgandi. Qo'zg'olonchilar qo'l ostidagi eni bir yuz to'qson kilometr keladigan o'lkani tarqoq qizil askar qismlari qurshovga olib, umumiy operativ reja bilan ish ko'rmasdi, har qaysisi o'z holiga harakat qilardi, shu sababdan qo'zg'olonchilarga qarshi jang qilayotganlarning soni yigirma besh mingga yetganiga qaramay, tuzukroq natijadan darak yo'q edi.

Qo'zg'olon zo'rayib ketmasin uchun ketma-ket o'n to'rtta marsh rotasi, o'nlarcha to'siq otryadlari yuborilgandi; Tambov, Voronej hamda Ryazandan kursantlar otryadlari kelgandi. Lekin qo'zg'olon kengayib, qo'zg'olonchilar qizil askarlardan tortib olgan pulemyot va to'plar bilan qurollanib kuchayganlaridan keyingina 8- va 9-armiyalar o'z sostavidan bittadan Ekspeditsion diviziya hamda shunga yarasha to'p va pulemyot komandalari ajratib berishdi. Qo'zg'olonchilar ko'p talafot ko'rganlariga qaramay, hali ham yengilmagan edi.

Yuqori Don alangasining uchqunlari qo'shni Xopyor okrugiga ham tarqaldi. U yerda ofitserlar rahbarligi ostida ayrim kazak gruppalari bir necha marta hujum qildi. Uryupin stanitsasida qo'shin starshinasi Alimov allaqancha kazaklarni va qochib yurgan ofitserlarni o'z atrofiga to'pladi. Birinchi mayga o'tar kechasi qo'zg'olon ko'tarish mo'ljallangandi, biroq bu fitna o'z vaqtida fosh qilindi. Alimov bilan birmuncha sheriklari Preobrajensk stanitsasiga qarashli qishloqlardan birida qo'lga tushib, revtribunal hukmi bilan otib tashlandi, shunday qilib, rahbarlaridan ajragan fitnachilar qo'zg'olon ko'tarilmadi, natijada Xopyor okrugidagi aksilinqilobchi unsurlar Yuqori Dondagi qo'zg'olonchilar bilan birlasholmay qoldi.

May oyining dastlabki kunlarida VSIK maktabining otryadi Chertkovo stansiyasida poyezddan tushdi; qizillarning bir necha terma polklari ham shu yerda joylashgan edi. Chertkovo sharqi-janubiy temiryo'lining eng so'nggi stansiyasi bo'lib, qo'zg'olonchilar frontining g'arbiy uchastkasi bilan bevosita chegaradosh edi. O'sha kezlari Migulin, Meshkov va Kazansk stanitsalarining suvoriy kazaklari nihoyatda zo'r kuch bilan Kazansk stanitsasining chegarasiga to'planib, hujumga o'tgan qizil askar qismlariga qarshi jang qilmoqda edilar.

Stansiyada «Kazaklar Chertkovoni o'rab olibdi, hademay hujum boshlashadi» degan mish-mish gap yurardi. Bu yerning frontdan ellik chaqirim uzoqligiga qaramay, mabodo kazaklar yorib o'tgan taqdir-da ham, ularni yo'lda to'sadigan va bu to'g'rida xabar beradigan qizil askar qismlari borligiga qaramay, stansiyada sarosimalik boshlandi. Chertkovoning naryog'idan allakimning: «Miltiq-qaaa!» deb baqirgan yo'g'on ovozi eshitildi. Odamlar ko'chama-ko'cha yugurishib, hovliqib qolishdi.

Natijada bekorga vahima qilinganligi ma'lum bo'ldi. Mankovo slobodasi tomondan stanitsaga yaqinlashib kelayotgan qizil askarlar eskadronini kazaklarga o'xshatishgan ekan. Kursantlar hamda ikki terma polk askarlari Kazansk stanitsasi tomon jo'nashdi.

Oradan bir kun o'tgach, yaqindagina frontga kelgan Kronshtadt polkining qariyb hamma matrosalarini kazaklar qirib tashladilar.

Kronshtadtliklar bilan bo'lgan birinchi jangdan keyinoq, kazaklar kechasi shabixun urdilar. Polk qo'zg'olonchilar tashlab ketgan qishloqqa kirishdan xavotirlanib, tevarak-atrofga poyloqchilar qo'ygan, pistirma qurib, dashtda tunagan edi. Yarim kechada bir necha suvoriy kazak sotnyalari polkni o'rab olib shiddatli o't ochdi, allakim o'ylab chiqargan kattakon tartaraklarni ishga solib, dashtni boshlariga ko'tarishdi. Qo'zg'olonchilar uchun bu tartaraklar qorong'i kechada pulemyot o'rnini bosardi: har holda ularning tarillashini pulemyotnikidan unchalik ajratib bo'lmasdi.

Qurshovda qolgan kronshtadtliklar zim-ziyo qorong'ilik ichida tarillagan juda ko'p «pulemyotlarning» ovozini, o'z poyloqchilarining hovliqib o'q uzishini, kazaklarning suronini, yaqinlashib kelayotgan otlarning olatasirini eshitgan hamon dushman orasini yorib, Donga qarab qochishdi, biroq suvoriylar hujumiga bardosh berolmay orqaga

qaytishdi. Natijada butun boshliq polkdan bir necha odamgina bahorda to'lib-toshgan Dondan suzib o'tib qutulgan edi.

May oyida qo'zg'olonchilar frontida jang qilayotgan qizillarga Donnets tomondan ustma-ust madad kuchlari kelib qo'shilaverdi. 33-Kuban diviziyasi kelgandan keyin, Grigoriy Melexov haqiqiy zarba nima ekanligini umrida birinchi marta his etdi. Kubanliklar uning 1-diviziyasini oldilariga solib quvdilar; Grigoriy ketma-ket hamma qishloqlarni bo'shatib shimolga, Don tomonga chekina boshladi. Chir chegarasiga yetgach, Kargin stanitsasi yonida u bir kun to'xtadi, lekin o'zidan kuchli bo'lgan qizillarning hujumiga bardosh berolmay, Karginni taslim etishga va shoshilinch sur'atda madad so'rashga majbur bo'ldi.

Kondrat Medvedev o'z diviziyasidan sakkizta suvoriy sotnyani unga yubordi. Uning kazaklari anjom va kiyim-bosh bilan yaxshi ta'minlangan edi. Ularning patroni mo'l, ust-boshi, oyoq kiyimi bekam-ko'st bo'lib, hammasini asir tushgan qizil askarlardan shilib olishgan edi. Kazansklik kazaklarning ko'pchiligi kun issiqligiga qaramay, charm kurtkalarini ko'z-ko'z qilib yurishardi, deyarli hammasi yo nagan, yo durbin taqib olgandi. Kazanskliklar tikkasiga bostirib kelayotgan 33-Kuban diviziyasining hujumini bir necha vaqtgacha to'xtatib turdi. Grigoriy shu paytdan foydalanib bir kunga Vyoshenskayaga borib-kelishga qaror qildi, chunki Kudinov uni majlisga chaqiraverib bezor qilgan edi.

## LVIII

Grigoriy kallayi saharda Vyoshenskayaga kirib bordi.

Donning toshqin suvi pasaya boshlagan edi. Terak ko'chalalarining yelimday yopishqoq chuchmal hidlari havoda anqib yurardi. Eman daraxtlari to'q-yashil barglarini shildiratib, Don bo'yida mudrashardi. Suv ketib, ochilib qolgan yerlardan bug' ko'tarilardi. Bunday joylarda allaqachon ko'kat unib, naycha bo'lib qolgan edi, lekin pastqam joylarning suvi hali ham tarqamay yiltirab yotar, suv buqalarining bo'kirgan ovozi kelardi. Tong otib oftob ko'tarilganiga qaramay, balchiq hidiga to'lgan zax havoda lak-lak chivinlar qaynar edi.

Shtabda so'log'i chiqqan yozuv mashinka tiqir-tiqir qilar, uy ichi odamga, tamaki tutuniga to'lgan edi.

Kudinov g'alati bir ish bilan band bo'lgan vaqtda, Grigoriy ustiga borib qoldi. Kudinov astagina kirib kelgan Grigoriyga e'tibor bermasdan, astoydil, hafsala bilan kattakon yiltiroq ko'k pashshaning oyoqlarini yular edi. Oyoqlarini uzib tashlab, pashshani kaft orasiga olardi-da, qulog'i tagiga oborib, boshini engashtirar, pashshaning goh g'o'ng'illaganini, goh chivinday g'ing'illaganini tinglardi.

U Grigoriyni ko'rib qoldi-da, jirkanganday, jahl bilan pashshani stol tagiga tashladi, kaftini shimiga artdi-yu, ishqalanaverib yirtilib ketgan kursiga yaslanib oldi.

— O'tir, Grigoriy Panteleyevich.

— Salomatmisan?

— Hey, salomatligim-ku joyida-ya, lekiniga ishning mazasi yo'q. Xo'sh, u yoqda nima gaplar bor? Ahvoling tangmi?

— Tang bo'lganda qandoq!

— Chir bo'yida to'xtab turibsanmi?

— Ha, lekin uzoq vaqtgacha turolmasman. Yaxshiki, kazanskliklar jonimga oro kirishdi.

— Gap bunday, Melexov, — Kudinov xomteridan qilingan kavkazcha kamarining uchini barmog'iga o'rab, uning qoraygan kumush to'qasiga jo'rttaga zehn solib tikilib qoldi. — Bundan ham battar ahvolga tushadiganga o'xshaymiz. Donetsda nima bo'layotganiga sira tushunmayman. Yo biznikilar qizillarni orqaga surib, frontni tilka-tilka qilishyapti, yo bo'lmasa hamma kasofat bizda ekanini qizillar tushunib, endi bizni iskanjaga olishmoqchi.

— Kadetlarda qanday yangilik bor? So'nggi aeroplan bilan biron xabar yuborishibdimi?

— Arziydigan hech gap yo'q. Ular sen bilan mendan muhim sirlarni yashiradilar, birodar. Sidorin — uchiga chiqqan tullak! O'la qolsa ham birovga yorilmaydi. Ularda bir reja bor: qizillar frontini yorib, bizga madad yuborishmoqchi. «Yordam beramiz» deb va'da qilishgan edi. Biroq hamma ham va'daga vafo qilavermaydi. Frontni yorib o'tish ham oson gap emas, bir vaqtlar general Brusilov bilan frontni yorib o'tganmiz, buning nimaligini bilaman. Qizillarning Donetsda qancha kuchi borligini sen bilan men qaydan bilamiz? Balki ular Kolchak frontidan bir necha korpusni olib kelib ishga solishgandir, nima deding? Olamda nima



bo'layotganidan bexabarmiz! Tumshug'imiz tagidan sal nariroq-dagi narsani ko'rolmaymiz!

— Men bilan nima to'g'rida gaplashmoqchi eding? Qanaqa majlis? — deb so'radi Grigoriy zerikkanday, esnab.

Grigoriy qo'zg'olon oqibati uchun unchalik qayg'urmas, bu narsa uni ortiq qiziqtirmasdi. Yil o'n ikki oy shu masala atrofida, xirmonda uvol toshni sudragan ot singari, gir aylanib bosh qotiraverib, axiri: «Sovet hukumati bilan endi bizni hech kim yarashitirmaydi, chunki ikkala yoqdan ham juda ko'p qon to'kildi, kadetlar bo'lsa, hozircha kiftimizga qoqishyapti, lekin oxiri kelib yelkamizga minishi muqarrar. Sadqayi sarimga! Bo'lganicha bo'lar!» deb qo'l siltab qo'ygan edi.

Kudinov xaritani yoydi-da, hali ham Grigoriyga qaramasdan gapirib boshladi:

— Bu yerda biz sen kelmasdan burun o'zaro maslahatlashib, shunday qarorga keldik...

— Kim bilan maslahatlashding, kenas bilanmi? — deb gapni bo'ldi Grigoriy; qish kuni shu uyda bo'lgan majlis va kavkazlik podpolkovnik esiga tushgan edi.

Kudinovning qovog'i osilib, rangi o'zgarib ketdi.

— Hozir u oramizda yo'q.

— Nima deding? — Grigoriy hovliqib ketdi.

— Men senga aytganim yo'qmidi? O'rtoq Georgidzeni o'ldirishdi.

— Sen bilan menga o'rtoq emas edi u... Oshlangan teri po'stin egnidan tushguncha noiloj o'rtoq edi. Bordi-yu, — xudo ko'rsatmasin, tirik qolib kadetlarga qo'shilib olgandami, ertasi kuniyoq mo'ylovini bo'yab, olifta bo'lib olardi-da, qo'l berib ko'rishish o'rniga jimjilog'ining uchini mana bunday uzatardi. — Grigoriy qop-qora kir barmog'ini cho'zib, hoholab kulib yubordi, tishlari yiltirab ketdi.

Kudinovning qovog'i battar osilib ketdi. Uning ranjiganligi, biroz jahli chiqqanligi ko'zlaridan ham, ovozidan ham sezilib turardi:

— Bu yerda kuladigan gap yo'q. O'lgan odamni kulib masxara qilib bo'lmaydi. Sen xuddi Vanyushka tentakka o'xshab qopsan, uka. Birov: «O'ldi», desa, sen «Battar bo'lsin?» deb kulasan.

Kudinovning bu gapidan Grigoriy biroz ranjigan bo'lsa-da, sir boy bermasdan kulgi bilan yengdi.

— Bunday odamlar o'lsa, parvo qilish kerak emas. Bu kabi qo'li oppoq, yuzi oppoq oliftalarga yuragim sira achimaydi.

— Shunday qilib, uni o'ldirib yuborishdi.

— Jangdami?

— Nima desamikin... Judayam g'alati voqea: qanchalik surish-tirsam ham tagiga yetolmadim. Mening buyrug'im bilan u obozga yuborilgan edi. Har holda kazaklar bilan chiqisholmagan bo'lsa kerak. Dudarev stanitsasi yonida jang boshlanganda o'sha oboz jang maydonidan ikki chaqirim chamasi berida ekan. Georgidze arava shotisi ustida o'tirgan ekan (kazaklar menga shunday deb aytilishi), ana o'sha yerda daydi o'q tegib ketganmish. Til tortmay o'libdi. Kazaklar ablahlik qilib, o'zlari o'ldirishgan bo'lsa kerak...

— O'ldirishgan bo'lsa savob ish qilishibdi!

— Bo'ldi-da, endi! Hadeb tishga tegaverasanmi?

— Jahling chiqmasin. Men hazillashyapman.

— Ba'zan hazilniyam suyuqlashtirvorasan... Sen nonko'rlik qilma: tuzini ichib, tuzliqni bulg'agan odamga o'xshaysan. Seningcha, ofitserlarni o'ldiraverish kerakmi? Hamon «yo'qolsin pogon», deb baqiraylikmi? Qachon senga aql kirarkin, Grigoriy? Odam degan har qadamda yanglishavermaydi-da!

— Hovliqmasdan gapiraver!

— Nimasini gapiraman? Bildimki, kazaklar o'ldirgan; o'sha yerga borib kazaklar bilan muloyimgina gaplashdim. «Yana qadimgi kirdikorni boshladinglarmi, itvachchalar? Tag'in hovliqib ofitserlarni otishga tushdinglarmi? Bultur kuzda-ku, hammasini otib qo'yib, qizillar adablaringni bergandan keyin, ofitser qidirib qoluvdinglar. Axir, o'zlaring tiz cho'kib borib: «Bizga komandir bo'l, rahbarlik qil!» deb yalingan edinglar-ku. Eski odatlaringni yana qilyapsanlarmi!» deb koyidim, izza qildim. Hamma bab-baravar: «Xudo ursin, biz uni o'ldirganimiz yo'q» deb tonib turvoldi. Lekin bezraygan o'g'ri ko'zlaridan ko'rib turibmanki, uni shu j...larning o'zi o'ldirgan? Ulardan nima talab qilish mumkin? Boshlaridan siyvorsang, obi rahmat yog'di deb bezrayib turaverishadi. — Kudinov jahl bilan kamarini mijg'iladi, qizarib ketdi. — Bilimdon bir kishini bekordan bekorga o'ldirib yuborishdi, mana endi usiz oyoq-qo'lim bog'liq. Kim plan tuzadi? Kim maslahat beradi? Sen bilan men shunaqa gaplarga

ustamiz-u, strategiya-taktika masalasiga kelganda og'zing qani desa, qulog'imizni ko'rsatamiz. Yaxshiyam Petro Bogatiryov uchib keldi, yo'qsa, maslahatlashadigan odam qolmovdi... Ha, mayli, bu gapni bas qilaylik! Masala bunday: agar biznikilar Donets tomondan qizillar frontini yorib o'tolmasa, biz bu yerda uzoq turolmaymiz. Shuning uchun ilgari gap-gap: o'ttiz minglik armiya bilan frontni yorib o'tib chekinishga qaror qildik. Agar siqib kelishsa, Dongacha chekinib boraver, Ust-Xopyordan to Kazanskka dovur daryoning o'ng qirg'og'ini qizillarga bo'shatib beramiz. Donning ustida transheya qazib, o'rtnashib olamiz-da, o'zimizni o'zimiz mudofaa qilaveramiz.

Eshikni biron qattiq taqillatdi.

— Kim u? Kiraver! — deb shang'illadi Kudinov.

6-brigada komandiri Grigoriy Bogatiryov kirdi. Uning terlab ketgan qip-qizil sog'lom yuzi yiltirar, sarg'ayib ketgan qoshlari chimirilgan edi.

Terdan avrasigacha ho'l bo'lib ketgan furajkasini olmasdan stol yoniga o'tirdi.

Kudinov unga tikilib:

— Nima ish bilan kelding? — deb so'radi kulimsirab.

— Patron berasan.

— Berdim-ku! Patronga to'yasanmi o'zing? Nima, bu yerda mening patron zavodim bormi?

— Axir, qancha patron berding? Odam boshiga bittadanmi? Ular meni pulemyotlardan o'qqa tutishyapti, men bo'lsam, ikki bukilib, biqinib yotibman. Shuyam urush bo'ldimi? Azob-uqubat-ku! Turib-turib yig'lavorging keladi. Mana ahvol!..

— Biroz sabr qil, Bogatiryov, bu yerda muhim gap bor, — biroq Bogatiryov ketmoqchi bo'lib o'rnidan turganini ko'rib: — To'xta, ketmay tur, sendan yashiradigan sirimiz yo'q... — dedi. — Gap shunday, Melexov, agar daryoning bu tomonida qololmasak, frontni yorib o'tishga bel bog'laymiz. Safda bo'lmagan hamma odamni qoldiramiz, obozlardan kechamiz-u, piyoda askarni aravalarga solib, uchta batareyani olib, Donetsga o'tib olishga harakat qilamiz. Sen o'z odamlaring bilan oldinga tushib, yo'l ochib berasan. Qarshimasmisan?

— Menga baribir. Ammo bola-chaqalarimiz nima bo'ladi? Xotinxalaj, chollarimizdan ajraymiz ekan-da.

— Boshqa iloj yo‘q. Hammamiz baravar qirilgandan ko‘ra, shulardan ajraganimiz ma‘qulroq.

Kudinov lablarining ikki chetini osiltirib, anchagacha indamay turdi-da, nihoyat, stol qutisidan gazeta oldi.

— Aytganday, yana bitta yangilik bor: askarlariga rahbarlik qilmoq uchun bosh qo‘mondonning o‘zi kelibdi. Eshitishimga qaraganda, u hozir Millerovoda yo Kantemirovkada bo‘lsa kerak. Ular bizga qattiq tikilgan!

Grigoriy ishonmasdan:

— Aniq gapmi? — deb so‘radi.

— Aniq, aniq gap! Mana, o‘qib ko‘r. Kazanskliklar menga yuborishgan ekan. Kecha ertalab Shumilin razyezdining naryog‘ida bizning odamlar ikki otliqqa duch kelishibdi. Ikkalasi ham qizil kursantlardan ekan. Kazaklar ikkoviniyam chopib o‘ldirishibdi, bittasi o‘rta yasharmish, komissar bo‘lsayam ajabmas, — o‘shaning planshetkasidan shu oyning o‘n ikkinchi kuni chiqqan mana shu «V puti» nomli gazeta topilibdi. Qizillar bizni judayam g‘alati qilib tasvirlashibdi-da! — Kudinov bir cheti tamaki o‘rash uchun yirtib olingan gazetani Melexovga uzatdi.

Grigoriy ostiga ko‘k qalam bilan chizib qo‘yilgan maqola sarlavhasiga naridan beri ko‘z yugurtirib chiqdi-da, o‘qiy boshladi.

### Front orqasidagi qo‘zg‘olon

«Don kazaklarining qo‘zg‘oloni bir necha haftalardan beri davom etmoqda: qo‘zg‘olon Denikin agentlari va aksilinqilobchi ofitserlar tomonidan tashkil qilingan. Kazaklarning kulak tabaqalari unga tayanch bo‘lgan. O‘rtahol kazaklarning anchagina qismini kulaklar o‘z orqasidan ergashtirgan. Har holda Sovet hukumatining ayrim vakillari kazaklarga nisbatan biror adolatsizlik qilgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas. Denikin agentlari ana shu narsalardan foydalanib, qo‘zg‘olon alangasini avj oldirganlar. Oq gvardiyachi ablahlar esa, o‘rtahol kazaklarga yaxshi ko‘rinish uchun qo‘zg‘olon ko‘targan rayonlarda o‘zlarini Sovet hokimiyati tarafdori qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar. Buning natijasida aksilinqilobchilik nayrangi, kulaklar manfaati hamda kazaklar ommasining nodonligi vaqtincha birlashib, Janubiy frontdagi armiya-

mizning orqa tomonida jinoyatkorona fitna chiqishiga sabab bo'ldi. Armiyaning orqa tomonidagi qo'zg'olon yelkaga chiqqan chipqondek gap. Urushmoq uchun sovet mamlakatini mudofaa qilmoq uchun, dekininchi pomeshchik shaykalarini tor-mor etmoq uchun, avvalo ishchi-dehqon armiyasining orqa tomoni tinch, ishonchli va mustahkam bo'lmog'i shart. Shuning uchun hozirgi eng muhim vazifa Donni qo'zg'olonidan va qo'zg'olonchilardan tozalashdir.

Markaziy Sovet hukumati bu masalani eng qisqa muddat ichida hal qilishni buyurdi. Xoin aksilinqilobiy qo'zg'olonga qarshi kurashayotgan ekspeditsion askarlardan eng yaxshi madadchi kuchlar yordamga keldi va kelib qo'shilmogda. Eng o'tkir tashkilotchi xodimlar bu zarur vazifani hal qilmoq uchun o'sha yerga jo'natilmogda.

Qo'zg'olonni tezroq tugatish lozim. Bizning qizil askarlarimiz shu narsani yaxshi tushunib olsinlarki, Vyoshenskaya, Yelan yoki Bukanov stanitsalaridagi isyonchilar Denikin va Kolchak kabi oq gvardiyachi generallarning dastyorlaridir. Qo'zg'olon qanchalik uzoq cho'zilsa, har ikki tomondan shuncha ko'p qon to'kiladi. Xunrezlikka barham bermoq uchun birdan bir yo'l: isyonchilarga tezlik bilan qaqshatqich zarba berishdir.

Isyonni tor-mor qilish lozim. Yelkaga chiqqan chipqonni yorib, qizigan temir bilan kuydirish darkor. Ana o'shanda dushmanga o'lim zarbasini bermoq uchun Janubiy frontimizning qo'li bo'shaydi».

Grigoriy o'qib bo'lib, g'amgin iljaydi. Maqola uning jahlini chiqardi. «Qalamni bir tebratish bilan bizni Denikiniga dastyor qilib qo'yishibdi...»

— Qalay, boplabdimi? Qizigan temir bilan kuydirishmogchi. Ko'ramiz hali, kim kimni kuydirishini! Shundaymi, Melexov? — Kudinov bir lahza javob kutib turdi-da, Bogatiryovga murojaat qildi: — Patron kerakmi? Beramiz! Brigadangdagi har bir otliqqa o'ttiztadan patron beramiz. yetadimi?.. Omborga borib olaver. Sen ta'minot bo'limining boshlig'iga uchrashgin, order yozib beradi. Sen endi, Bogatiryov, qilichni ko'proq ishlat, hiyla-yu nayrangni ishga sol, bundan yaxshi yo'l yo'q!

— Juhuddan juzya! — deb kuldi-da Bogatiryov, xayrlashib chiqib ketdi.

Yaqin orada Donga chekinish masalasida Kudinov bilan bir qarorga kelgandan so'ng Grigoriy Melexov ham qo'zg'aldi. Ketar oldida:

— Agar men butun diviziyamni Bazkiga olib kelsam, daryodan nimada o'tamiz? — deb so'radi.

— Shungayam tashvishmi? O'tliq askar Dondan suzib o'tadi. Biron joyda suvoriy askarning daryodan o'tkazib qo'yilganini ko'rganmisan?

— Menda Don bo'yidagi odamlar juda oz, shuni unutma. Chirlik kazaklar suzishni bilmaydi. Umrini dashtda o'tkazgan, suzishni qaydan bilsin. Ular hammasi cho'kib o'ladi.

— Hechqisi yo'q: ot ustida o'taveradi. Biz manyovrlarda daryodan shunday qilib o'tardik, german urushidayam ko'pincha shunday qilganmiz.

— Men piyoda askar to'g'risida gapiryapman.

— Parom bor. Qayiqlar tayyorlaymiz, xotirjam bo'l.

— Aholi ham qo'shilib o'tadi.

— Bilaman.

— Hamma narsani taxt qilib qo'y, biron ta odam qolib ketmasin tag'in, xuddi kekirdagingni sug'urib olaman-a! Xalqimiz qolib ketsa, yaxshi ish bo'lmaydi.

— Hamma narsani taxt qilib qo'yaman.

— To'plarni nima qilamiz?

— Mortir to'plarni portlatgin, uch dyuymalilarni shu yerga olib kel. Qayiqlarni qo'shoq-qo'shoq qilib, to'plarni narigi qirg'oqqa o'tkazib olamiz.

Grigoriy gazetadagi maqola ta'siri ostida shtabdan chiqdi.

«Kelib-kelib Denikinning dastyori, degan nomga ega bo'ldik... Darvoqe, biz kimmiz? Nafsilamr, dastyorning o'zginasimiz. Achchiq haqiqat gap darrov qattiq botdi...» Grigoriy marhum Yakov Taqachi aytgan gaplarni esladi. Bir kuni u Karginda o'z qo'shonasiga kechasi qaytib kelayotib, maydondagi uylardan biriga joylashgan to'pchilar yoniga kirgan edi; dahlizda etigini supurgiga artayotib, Yakov Taqachining allakim bilan bahslashayotganini eshitib qolgandi: «O'z boshimizga mustaqil bo'lib oldik, dedingmi? Endi o'zimiz xon, o'zimiz bek bo'lamizmi? Balli senga! Kalla deb xom oshqovoqni ko'tarib yuribsan! Gapning ochig'i shuki, biz hozir daydi kuchukka o'xshab qoldik: ba'zi bir it biron noma'qulchilik qilib qo'yib, uydan qocha-

di, xo'sh, qayga bora oladi? Bo'rilarga qo'shilay desa, biladiki, ular vahshiyilar jinsidan, uyga qaytay desa, egasining kaltagidan qo'rqadi. Biz ham shu ahvolga tushganmiz. Shu gap qulog'ingda bo'lsin; bir kunmas bir kun biz dumimizni qisib, kadetlar oyog'iga yiqilamiz-u, tovonlarini yalaymiz. «Jon birodarlar, rahm qiling, gunohimizni kechiring, bizlarni dargohingizga qabul qiling!» — deb yalinamiz. Mana ko'rarsan, xuddi shunday bo'ladi, senga bir aytdim-qo'ydim!» degan edi o'shanda Yakov Taqachi.

Grigoriy o'sha Klimovka yonidagi jangda matroslarni chopib o'ldirganidan beri ko'ngli muzday sovib, hech narsaga qiziqmaydigan bo'lib qolgan edi. Kulish nimaligini, sevinish nimaligini unutgan, boshi xam bo'lgan edi. Ittifoqo, vafot etgan Ivan Alekseyevichga yuragi jaz etib achishganday bo'ldi-yu, sal orada rahmdillik hissi yana ko'nglidan ko'tarildi. Uning uchun dunyoda bittagina narsa qolgan edi (o'zicha shunday gumon qilardi), bu — Aksinyaga nisbatan bo'lgan ehtirosining yana jo'sh urib uyg'onganligi edi. Kuzda qop-qorong'i ayoz kechada adashib yurgan musofirni dashtning bir burchagida yiltiragan gulxan o'ziga qanday jalb qilsa, Aksinya uni o'ziga shunday tortardi.

Mana hozir ham, shtabdan kelayotib, Aksinyani esladi: «Biz-ku, chekinamiz-a, u nima bo'ladi? — deb o'ylandi-da, ikkilanmasdan, bosh qotirmasdan darhol masalani hal qildi-qo'ydi: — Natalya bolalariga bosh bo'lib onam bilan qoladi, Aksinyani o'zim bilan olib ketaman. Ostiga ot beraman, shtabim yonida yuraversin».

Grigoriy Dondan o'tib, Bazkidagi qo'shxonasiga bordi. Yon daf-tarchasidan bir varaq yirtib olib, quyidagi xatni yozdi:

«Ksyusha! Ehtimolki, biz Donning chap qirg'og'iga chekinishga majbur bo'larmiz; hamma narsangdan kechgin-u, to'g'ri Vyoshkiga yetib kelgin. Meni o'sha yerda topasan, ikkimiz birga bo'lamiz».

Xatni suyuq olcha yelimi bilan yopishtirdi-da, Proxor Zikovga berdi. Qizarib-bo'zarib, Proxorga sir boy bermaslik uchun jo'rttaga yuziga qahrli tus berib:

— Tatarskka bor, manavi xatni Aksinya Astaxovaga topshir, — dedi. — Ehtiyot bo'l, xat berganingni hech kim bilmasin, masalan, bizning uydagilardan birontasi ko'rib qolmasin tag'in... Tushundingmi? Yaxshisi, kechasi obkirib ber. Javobi kerakmas. Endi bu-

yog'ini eshit: senga ikki kecha-kunduzga ta'til beraman. Xayr endi, jo'nayver!

Proxor oti oldiga ketayotganda Grigoriyning esiga bir nima tushib, uni qaytardi.

— Bizning uyga kirib onamga yo Natalyaga tayinlagin: kiyim-kechak va boshqa arziydigan buyumlarni barvaqtroq bu tomonga o'tkazib qo'yishsin. Don-dunni o'raga ko'mishsin, mollarni Dondan haydab o'tkazishsin.

## LIX

22-mayda qo'zg'olonchilar askari o'ng qirg'oqni tashlab, chekina boshladi. Qismlar har marrada bir to'xtab, jang bilan chekini-shardi. Dasht tomondagi qishloqlarning aholisi vahimaga tushib, Don bo'yiga qochib kela boshladi. Chollar bilan ayollar ro'zg'orlarida qolgan ot-ulovni qo'shib, sandiqlarni, uy anjomlarini, don-dunni yuklab go'daklarni aravaga o'tqazishgan edi. Har kim o'z sigir va qo'ylarini podadan ajratib olib, hayda-haydaga tushgan edi. Son-sanoqsiz aravalar armiyadan o'zib, Don bo'yidagi qishloqlar tomon kelardi.

Bosh qo'mondon shtabining buyrug'iga muvofiq piyoda askarlar bir kun oldin chekina boshladi. Tatarsklik piyoda kazaklar bilan o'zga yurtlardan ko'chib kelgan kishilardan tuzilgan vyoshenskayalik piyoda drujina 21-may kuni Ust-Xopyor stanitsasiga qarashli Chebotaryov qishlog'idan chiqib, qirg' chaqirimdan ortiqroq yo'l bosganidan keyin Vyoshenskaya stanitsasining Ribniy qishlog'ida tunadi.

22-may kuni ertalabdanoq butun osmonni oppoq parda qoplab oldi. G'ira-shira yorishgan bepoyon osmonda bironta bulut parchasi ko'rinmasdi, faqat janub tomonda, Don bo'yidagi dovon ustida bir parcha qizg'ish-shaffof bulut quyosh ko'tarilishi oldidan paydo bo'ldi. Uning kun chiqishiga o'girilgan tomoni qip-qizil qonga o'xshab yalilig'lanardi. Muzday shabnamga to'ygan chap qirg'oqdagi qumtepalar ortidan quyosh ko'tarilishi bilanoq, bulut ko'zdan g'oyib bo'ldi. Pichanzor orasida qiziloyoqlar chiyillab sayrashar, qanoti ingichka ko'm-ko'k baliqchi qushlar Donning sayoz joylariga sho'ng'ib, kumushday yiltiroq baliqchalarni o'tkir tumshuqlari bilan tishlab, havoga ko'tarilishardi.



Tushga yaqin kun saratondagidek qizib ketdi. Xuddi yomg'ir yog'adiganga o'xshab havo dim edi. Kun chiqmasdan ilgari sharqdan Don bo'ylab kelayotgan qochoqlarning aravalari Vyoshenskayaga yo'l olgan edi. Getman yo'lida arava g'ildiraklarining shaldirashi bir dam tinmasdi. Otlarning kishnashi, ho'kizlarning bo'kirishi va odamlar ovozi tog'dan to soylikkacha eshitalardi.

Ikki yuzga yaqin jangchidan tashkil topgan vyoshenskayalik drujina hali ham Ribniy qishlog'idan qo'zg'almagan edi. Ertalab soat o'nlarda Vyoshenskayadan buyruq keldi, unda: «Drujina Katta Gromki qishlog'iga o'tsin, Getman yo'liga va hamma ko'chalarga odam qo'yilib, xizmat yoshida bo'lgan kazaklarni Vyoshenskayaga o'tkazmay, ushlab qolinsin» deyilgan edi.

Vyoshenskaya tomon qochib kelayotgan odamlarning oldingi aravalari Gromkiga yetdi. Changga belangan, o'tobda qorayib ketgan ayollar mollarini haydashar, otliqlar yo'l yoqasidan kelishardi. G'ijirlagan g'ildiraklar, pishqirgan otlar, ma'ragan sigirlar, qo'ylar, yig'lagan bolalar, ingragan kasallar (tif kasali bilan og'riganlarni ham aravaga solib olishgan edi) ovozlari olchazor ichida jimgina yotgan qishloqni boshiga ko'targan edi. Bir-biriga qo'shilib ketgan bu xilmaxil ovozlari shu qadar vahimali ediki, qishloq itlari akillayverib, ovozlari xippa bo'g'ildi, hozir endi har bir piyoda kishiga ilgarigidek tashlanmas, aravalar ketidan bir chaqirim joygacha ergashib bormas edi.

Proxor Zikov ikki kecha-kunduz uyida mehmon bo'ldi. Grigoriyning xatini Aksinya Astaxovaga topshirib, tayinlagan gaplarini Ilinichna bilan Natalyaga aytib, yigirma ikkinchida yo'lga chiqdi.

U o'z sotnyasiga Bazkida yetib olishni mo'ljallagandi. Lekin to'plarning gumburlashi Don bo'yidan eshutilib turar, xuddi Chirning yonginasida otilayotganday tuyulardi, shuning uchun, jang qizigan tomonga borgisi kelmadi-da, bir amallab Bazkiga borib olishga va Grigoriyning 1-diviziyasi Donga yetib kelguncha, o'sha yerda kutishga jazm qildi.

Proxor Gromki qishlog'iga kelar ekan, qochoqlar tushgan aravalar undan o'zib ketar edilar. U shoshmasdan, otini choptirmasdan sekin-asta kelardi, shoshiladigan ishi ham yo'q edi. Rubejindan chiqqach, yaqinda tashkil topgan Ust-Xopyor polkining shtabiga hamroh bo'lib oldi.

Bu shtab bitta reszorli drojki<sup>1</sup> bilan ikkita jo'n aravaga joylashgan edi. Arava ketlariga shtab xodimlarining oltita egarlog'lik otlari bog'langandi. Bir aravaga telefon apparatlari va allaqanday qog'ozlar ortilgan bo'lib, drojkida yoshi qaytgan yarador kazak bilan yana bitta odam yotardi; cho'pday ozib ketgan, qirra burunli, ofitsercha qorako'l papax kiygan bu odam boshini egar yostiqchasidan ko'tarmasdi. Aftidan, yaqindagina terlama kasalidan o'nqlangani ko'rinib turardi. Og'iz-burnigacha shinelga burkanib, cho'zilib yotardi; oqarib ketgan do'ng peshonasiga, sumakday bo'lib qolgan yiltiroq burniga chang qo'nar, lekin u biror issiq narsa bilan oyoqlarini o'rab qo'yishni dam-badam iltimos qilari, qoqsuyak, paydor qo'li bilan peshona terini artib, so'kinardi:

— Ablahlar! Hayvonlar! Oyog'imga shamol tegyapti, eshitinglarmi? Polikarp, eshitingmi, yo'qmi? Sholcha tashlab qo'yinglar! Sog'ligimda kerak bo'luvdim, endi hammang mendan... — deb kirtaygan so'nik ko'zlarini alanglatib atrofga qaranardi.

Nomi tilga olingan Polikarp esa, novcha bo'yli, norg'ildan kelgan eski mazhabli yigit edi; u dam-badam otdan tushib, arava oldiga borar va:

— Bu ahvolda battar sovuq yeysiz, Samoylo Ivanovich, — derdi.

— Ustimni yop, deyapman senga!

Polikarp «ho'p» deb uning aytganini qilari va joyiga qaytardi.

Proxor ko'zi bilan bemorni ko'rsatib:

— Bu o'zi kim? — deb so'radi Polikarpdan.

— Ustmedveditsalik ofitser. Bizning shtabimizda yurardilar.

Ust-Xopyorga qarashli Tyukovo, Bobrovo, Krutovo, Zimovnoye va boshqa qishloqlardan chiqqan qochoqlar ham shtabga ergashib borar edilar.

Tom baravar qilib balo-yu battar ortilgan arava ustida qo'nqayib o'tirgan bir choldan Proxor:

— Sizga balo bormi, qaysi go'rga oshiqasiz? — deb so'radi.

— Biz ham Vyoshkiga yetib olmoqchimiz.

— Sizlarni birov Vyoshkiga chaqirdimi?

---

<sup>1</sup> To 'rt g'ildirakli yengil arava (Tarj.).

— Chaqirgani-ku yo‘g‘-a, biroq kimni o‘limga tobi bor deysan, bolam? Vahima bosgandan keyin chaqirmasayam boraverasan.

— So‘raganimning sababi bor: Vyoshkidan boshqa joy qurib ketdimi? Yelan yonida daryodan o‘ta qolsalaring-ku, buncha qiynalmasdilaring demoqchiman.

— Nimada o‘tamiz? Odamlar u yerda parom yo‘q deyishdi.

— Xo‘sh, Vyoshkida nimada o‘tasiz? Hammani qo‘yib, sizning lash-lushingizga parom beradi deb o‘ylaysizmi? Askarlarni qirg‘oqda qoldirib, sizni arava-paravangiz bilan o‘tkazib qo‘yishsinmi? Hey, buvajon, ham-mangiz ham esingizni yeb qo‘yibsiz! Orqa-o‘ngini surishtirmay, boshi og‘gan tomonga jo‘nayverish kerak ekan-da. — Proxor arava yoniga yaqinroq bordi-da, ensasi qotib: — Shuncha yukni nega aravaga ortib oldingiz? — deb so‘radi aravadagi tugunlarni qamchisi bilan ko‘rsatib.

— Nima desang, topiladi! Kiyim-kechak ham bor, xomut ham, un ham, ishqilib, kerakli toshning og‘irligi yo‘q deganday, hammasidan bor... Tashlashga ko‘zim qiymadi. Qup-quruq bir uyga kirib borsam, asqotadi. Shuni o‘ylab, bir juft ot bilan uch juft ho‘kiz qo‘shdim-u, aravaga siqqanicha yukladim, ustiga xotinlarni o‘tirg‘izib jo‘nayverdim. Hey, bolam, men bu narsalarni peshona teri bilan, ko‘z yoshi bilan, belimning kuchi bilan qiynalib topganman, tashlab ketaversam uvol bo‘lmaydimi? Ilojini topsam, uyimniyam aravaga ortardim, qizillarga qoldirmasdim. Jin ursin ularni!

— Xo‘sh, manavi qaqir-ququrni olmasangiz, kuningiz o‘tmasmidi? Yoinki, manavi kursilarni ortib, sizga nima zaril keldi? Qizillar bunaqa matoni boshiga uradimi!

— Sen judayam g‘alati ekansan-ku... Qoldirishning iloji bo‘lmadi, axir! Qoldirsam, qizillar yo sindirishadi, yo o‘tga yoqishadi. Yo‘q, men ularga anoyi emasman. Baloga giriftor bo‘lishsin! Uyimda borini aravaga bosdim!

Oyog‘ini arang sudrab kelayotgan semiz otlarga chol qamchi o‘qtaldi-da, ketiga burilib qaradi va orqada kelayotgan uchinchi ho‘kiz aravani qamchi uchi bilan ko‘rsatib:

— Huv anavi ho‘kiz haydab kelayotgan, ro‘mol o‘ragan qiz, mening qizim bo‘ladi, — dedi. — O‘sha aravada bolalagan cho‘chqa bor. O‘zi bo‘g‘oz edi, aravaga ortayotganimizda qorni ezilgan bo‘lsa kerak, kechasi aravada bolalab qo‘ydi. Ana, mechkaylari chiyillash-

yapti, eshityapsanmi? Yo‘q, qizillarga men bitta cho‘p ham qoldirganim yo‘q, arvoH ursin ularni!

— Mabodo parom yonida sizni ko‘rib qolsam-chi, buva! — dedi Proxor g‘azab bilan cholning terlab-pishgan kepchikday basharasiga tikilib. — Parom yonida ko‘zimga ko‘rinsangiz, tamomiy ashqoldashqolingizni cho‘chqalaringiz bilan qo‘shib Donga ag‘daraman!

— Men nima gunoh qildim? — cholning ko‘zlari qinidan chiqib ketayozdi.

— Gunohingiz shuki, odamlar qirilib, bor-yo‘g‘idan ajralib turgan bir mahalda, siz shayton, o‘rgimchakka o‘xshab ilinganini sudrab ketyapsiz! — deb baqirdi, doim sekin gapirib o‘rgangan yuvosh Proxor. — Siz kabi siyoqli gandaxo‘rlarni jinim yoqtirmaydi! Sizdaqalarni ko‘rsam, jonim halqumimga keladi?

— Yo‘lingdan qolma! Ketaver! — chol jahl bilan yuzini teskari o‘girib, burnini tortdi. — Sendaqa amaldorni qara-yu! Birovning mol-mulkini Donga ag‘dararmish... Men uni «yaxshi yigit ekan» deb, ko‘nglim tortib gapirsam... Meniyam o‘g‘lim vaxmistr, hozir bir sotnya askar bilan qizillarni to‘sib turibdi... Ana, katta ko‘cha, marhamat, o‘taver! Birovning mol-mulkiga ko‘z olaytirma! O‘zing ham tuzukroq dunyo orttirsang, ko‘zing bunchalik alanglamasdi!

Proxor ot choptirib ketdi. Jon-jahdi bilan chiyillagan mechkayning ovozi, ona cho‘chqaning bezovta bo‘lib xo‘rillagani eshitalardi. Mechkaylarning qiy-chuvi qulog‘iga bigizday qadalardi.

Drojkada yotgan ofitser iztirob ichida yuzini burishtirib, yig‘lamoqdan beri bo‘lib:

— Bu nima balo? Cho‘chqacha qayoqdan paydo bo‘ldi? Polikarp!.. deb baqirdi.

— Bir mechkay aravadan tushib ketgan ekan, oyog‘ini g‘ildirak bosibdi, — deb javob qildi, otda yetib kelgan Polikarp.

— Egasiga borib aytgin, cho‘chqachani bo‘g‘izlab qo‘ya qolsin. Aravada kasallar bor, degin... O‘zimiz zo‘rg‘a ketayotganimizda, chiyillagani oshib tushdi-ku. Tezroq! Borib ayt!

Proxor drojki yoniga yaqin borib, qirraburun ofitser yuzini bujmaytirganini, ko‘zlarini lo‘q qilib, cho‘chqaning ovozini tinglaganini ko‘rdi. Ofitser qorako‘l papaxini quloqlarigacha bostirib eshitmaslikka harakat qilardi...

Polikarp qaytib keldi.

— Egasi so‘yishga unamadi, Samoylo Ivanovich. O‘zi tuzalib ketadi, tuzalmasa, kechqurun so‘yarmiz, dedi.

Ofitserning rangi oqarib ketdi, zo‘rg‘atdan gavdasini ko‘tarib, oyog‘ini osiltirib o‘tirib oldi.

— To‘pponcham qayerda? Otlarni to‘xtat! Cho‘chqaning egasi qani? Men unga ko‘rsatib qo‘yay... Qaysi aravada o‘zi?

Qurumsoq cholni axiri cho‘chqasini so‘yishga majbur qilishdi.

Proxor kula-kula, otini choptirib, ustxopyorliklar karvonidan o‘zib ketdi. Bir chaqirim chamasi oldinroqda yana boshqa aravalar bilan otliqlar ko‘rindi. Aravalar ikki yuzdan kam emasdi, tarqoq holda ketayotgan otliqlar qirqtacha kelardi.

«Parom tepasida qiyomat bo‘ladi endi!» — deb qo‘ydi ichida Proxor.

U aravalarga yetib oldi. Olg‘a qarab ketayotgai aravalarning bosh tomonidan qora-to‘riq aslzod ot mingan bir ayol unga tomon o‘qday uchib kelaverdi.

Proxor yoniga yetgan zahoti, u jilovni tortdi. Ostidagi otga hashamatli egar urilgan, yugan va o‘mildiriq to‘qalari kumushdan, hatto egar qanotlarigacha yap-yangi edi, qorinbog‘ va egar ko‘rpachalari asl charmdan qilingan bo‘lib, yiltirab turardi. Xotin egar ustida ixcham o‘tirar edi, qizilmag‘iz qo‘li bilan jilovni mahkam ushlab olgandi; biroq bo‘ydor arg‘umoq, ayol kishini yoqtirmaganligidan qon talashgan ko‘zlarini g‘iltillatib, bo‘ynini gajak qilib sap-sariq tişhlarini irjaytirar: yubka ostidan chiqib turgan yumaloq tizzasini tishlamoqchi bo‘lardi.

Ayol yangi yuvilib sinkaga bo‘yalgan ro‘molini ko‘ziga tushirib tang‘ib olgandi. U ro‘molni lablaridan pastroq tushirdi-da:

— Amaki, yaradorlar tushgan aravani uchratganing yo‘qmi? — deb so‘radi.

— Ko‘p uchratdim. Nimaydi?

— Sho‘rim qursin, — deb noliy boshladi juvon, — erimni topolmayapman. Erim lazaret bilan Ust-Xopyordan chiqqan ekan. Oyog‘idan yarador bo‘pti. Hozir yarasi maddalab ketganmish, hamqishloqlaridan «otimni olib kelsin» deb aytirib yuborgan ekan. Manavi o‘shaning oti, — qamchisi bilan otning terlagan bo‘yniga urib qo‘ydi, — men otni egarladim-u, Ust-Xopyorga bordim, lazaret

yo'q, jo'nab ketibdi. U yoqni qidirib ko'rdim, bu yoqni qidirib ko'rdim, hech daragi yo'q.

Proxor kazak xotinning shirmoyday lo'ppi va chiroyli yuziga tiki-lib to'ymas, muloyim va yoqimli ovozidan joni rohatlanardi.

— Uh, sadag'ang ketay! Eringni qidirib nima qilasan? Qo'yaver uni, lazaretdan qolmasin. Shunday oti bo'lgan senday sohibjamolni hammayam jon deb oladi! O'lay agar, men ham yo'q demasdim.

Ayol zo'rma-zo'raki jilmayib qo'ydi-da, butun gavdasi bilan engashib turib, ochilib qolgan tizzasini berkitib oldi.

— Sen menga maynabozchilik qilmasdan javob ber: lazaret uchrat-dingmi, yo'qmi?

— Hov anavi to'dada kasallar ham bor, yaradorlar ham, — dedi Proxor xo'rsinib qo'yib.

Ayol qamchi bosdi, ot oldingi oyoqlarini ko'tarib, keyingi oyoqlari ustida shartta burildi-da, chov oralaridagi ko'piklarni yilt etkizib, shata-loq otdi, lo'killay-lo'killay, nihoyat bir tekis chopib ketdi.

Aravalar imillab borardi. Ho'kizlar har zamonda dumlarini qimir-latib, g'o'ng'illagan so'nalardan o'zlarini qo'rishardi. Kun shu qadar qizib ketgan, havo shu qadar dim ediki, hatto yo'l yoqasidagi o'sib-ummagan yosh kungaboqarlarning barglari so'lib, bujmayib qolar edi.

Proxor yana aravalar qatoriga kirdi. Odamlar orasida yosh-yosh kazaklarning ko'pligi uni hayratda qoldirdi. Bular yo o'z sotnyalarini yo'qotib qo'ygan, yo esa, to'g'ridan to'g'ri dezertirlik qilib, o'z oilalari bilan birgalikda parom tomonga yo'l olishgan edi. Ba'zilari safda minadigan otlarini arava ketiga bog'lab, o'zlari aravada yotishardi, xotini-lari bilan gap sotishib, bolalarini ovutib, vaqt o'tkazishardi. Ba'zilari esa, miltiq, qilichlarini yechmasdanoq ot ustida bemalol kelishardi. Proxor kazaklarning avzoyiga qarab: «O'z qismlarini tashlab qochish-yapti», degan fikrga keldi.

Hamma yoqni ot va ho'kizlarning ter hidi, ro'zg'or anjomlari-ning, qizigan g'ildiraklarning, gupchak moylarining isi bosib ketgan-di. Ho'kizlar boshlarini engashtirib zo'rg'atdan aravani sudrashardi. Osilgan tillari uchidan marjonga o'xshash so'lakaylari changi bilqil-lagan yo'l ustiga oqib tushardi. Aravalar soatiga to'rt-besh chaqirim yo'l bosardi. Hattoki, ot qo'shilgan aravalar ham ho'kizlardan o'zib ketolmasdi. Qayerdandir, yiroqdan, janub tomondan zambarak tovushi

eshitilishi bilan hamma harakatga keldi: ikki otlik va bir otlik aravalar tartibni buzib, turnaqator bo'lib kelayotgan aravalar orasidan chetga chiqib olishdi. Otlar yo'rtib ketdi, qamchilar vizillab: «Chu, harom o'lgur! Chu, jonivor!» degan xilma-xil ovozlari eshitildi. Ho'kizlar sag'risiga xipchin va tayoqlar kelib tusha boshladi, g'ildiraklar shaldiray boshladi. Vahimaga tushgan odamlar tezroq qimirlab qoldi. Yerdan buruqsib ko'tarilgan issiq chang buralib-buralib orqa tomonga suzib ketdi, borib-borib ekinlar va ko'katlar ustiga qo'na boshladi.

Proxorning ostidagi chayir ot yo'l-yo'lakay bo'ynini cho'zib, goh qashqarbedani, goh sariq gulli shumg'iyalarni, goh achchiq o'tni yulib olardi, yulib olardi-yu, quloqlarini qimirlatib chaynay boshlardi, tanglayini qavartirgan suvliqni tili bilan chiqarmoqchi bo'lib urinardi. To'p ovozi eshitgandan keyin Proxor poshnasi bilan uning biqiniga niqtadi, ot jonivor ham o'tlab yuradigan payt emasligini tushunganday, lo'killab ketdi.

To'p ovozlari tobora zo'raya boshladi. Ustma-ust otilgan o'qlarning dahshatli ovozlari bir-biriga qo'shilib, issiq havoni larzaga keltirib, momaqaldiroqday yangradi.

— Xudoyo xudovando, o'zing asra! — deb cho'qindi aravada kelayotgan yoshgina ayol; ko'kragini uxlab qolgan bolasining og'zidan oldi-da, ko'ylak ichiga berkitdi.

— Hoy, askar bola! — deb chaqirdi Proxorni ho'kizlar yonida kelayotgan chol. — Biznikilar otyapkanmikin yo anavilarmi?

— Qizillar otyapti, buva. Biznikilarda to'p o'qi yo'q.

— Yo bibi Maryam, o'z panohingda asra!

Chol arqonni qo'yib yubordi-da, kazakcha eski furajkasini boshidan olib, yurib ketayotgan yo'lida yuzini kunchiqar tomonga o'girib cho'qindi.

Ustini yam-yashil kechki makkajo'xori qoplagan g'arb tomondagi do'ngning orqasida qoramtir siyrak bulut paydo bo'ldi; bora-bora ufqning yarmini egalladi, osmon qora pardaga burkandi.

— Katta yong'in, qaranglar! — deb baqirdi allakim aravadan turib.

— Bu nima bo'lishi mumkin? G'ildiraklarning taraqa-turuqi orasidan:

— Qayerga o't tushibdi? — degan ovozlari eshitildi.

— Chir bo'yiga.

- Qizillar Chir bo‘yidagi qishloqlarga o‘t qo‘yishyapti!
- Xudo ko‘rsatmasin...
- Buni qara, osmonni qop-qora tutun bosib ketdi!
- Bir nechta qishloq baravar yonyapti!
- Kargindan tortib pastki tomon, Chir bo‘yidagi qishloqlar yonyapti, aytganday hozir o‘sha yerda jang bo‘lyapti...
- Qora daryo tomongayam o‘t ketgan bo‘lsa-ya! Chu desang-chi, Ivan!
- Ana yong‘in, mana yong‘in!

Qora tutun keng yoyilib, tobora ko‘proq joyni egallab borardi. To‘plarning gumburlashi tobora avjiga chiqardi. Yarim soatdan keyin janubdan turgan shamol, o‘ttiz besh chaqirim naridagi, Chir bo‘yidagi qishloqlarni ko‘kka sovurayotgan yong‘inning achchiq hidini Getman yo‘liga dovur uchirib keldi.

## LX

Katta Gromki qishlog‘iga boradigan yo‘l ko‘k xarsangtoshdan qilingan devor yonidan o‘tardi, so‘ngra tikka Donga qarab burilardi-yu, suvi qurigan jarga tushardi; bu jar unchalik chuqur bo‘lmasa ham, ustiga yog‘ochdan ko‘prik solingandi.

Quruqchilik vaqtlarda jar ostidagi qum sap-sariq, shag‘ali rang-barang tusda yiltirab yotardi, lekin yozda jala quygandan keyin loyqalangangan yomg‘ir suvlari jilg‘a jilg‘a bo‘lib, qirdan to‘g‘ri jarga quyilardi, jilg‘alar bir-biriga qo‘shilib, jar chetlarini yuvib, toshlarni dumalatib, shovullaganicha Donga oqib tushardi.

Shunday paytlarda ko‘prikni suv bosib ketardi; oradan bir-ikki soat o‘tgach, haligina polizlarni qiyratib, chetanlarni qozig‘i bilan sug‘urib ketgan sel suvi to‘xtardi, jar tagidagi o‘zan ochilib qolar, yuvilib, top-toza bo‘lib qolgan shag‘aldan bo‘r hidi kelardi, o‘zanning ikki chetini sap-sariq loy bosib ketardi.

Jarning ikki betida tol-u terak qalin o‘sgan edi.

Yozning eng issiq kunlarida ham bu yer soya-salqin bo‘lardi.

Vyoshenskayalik drujinaning poyloqchilari salqinga uchib, ana shu ko‘prik yoniga joylashdi. Ular o‘n bir kishi edi. Qochoqlar tushgan aravalar hali bu yerga yetib kelmagani uchun drujinachilar bema-



lol ko'prik tagida yonboshlab qarta o'ynashar, tamaki chekishardi, ba'zilari yalang'och bo'lvolib, ko'ylak-ishtonlarining chokklarini timirskilashar, soldat qonini so'rib semirgan bitlarni o'ldirishardi; ikki kishi vzvod komandiridan ruxsat olib, Donga cho'milgani ketgan edi.

Biroq ularning istirohati uzoqqa bormadi. Ko'p o'tmay qochoqlarining oldingi aravalari ko'prikka yetib keldi. Aravalar ketma-ket tiqilib keldi; jimgina salqin tor ko'cha odamga to'lib, shov-shuv bosib ketdi, aravalar go'yo qir va dashtning issig'i, chang-to'zonni qishloqqa olib kelganday bo'ldi.

Poyloqchilar boshlig'i — qotmadan kelgan, qo'ng'ir soqoli dukatlangan, qulog'i dikkaygan novcha unter-ofitser aslida drujinaning 3-vzvod komandiri edi; u qo'lini naganining titilib ketgan g'ilofiga qo'yib, ko'prik yonida turardi. Yigirma chog'li aravani indamay o'tkazib yubordi, lekin aravalardan birida yigirma besh yashar chamasidagi kazak yigitni ko'rib qoldi-da, qisqacha qilib:

— To'xta! — deb buyurdi.

Kazak tizginni tortib xo'mraydi.

Vzvod ofitseri aravaga yaqinlashib:

— Qaysi qismdansen? — deb so'radi jahl bilan.

— Sizga nima kerak o'zi?

— Qaysi qismdansen, deyapman? A?

— Rubejinlik sotnyadanman. O'zingiz kim bo'lasiz?

— Aravadan tush!

— O'zingiz kimsiz?

— Tush deyappan senga!

Vzvod ofitserining chuchvaranusxa quloqlari qizarib ketdi. U to'pponcha g'ilofini ochdi-da, naganini chiqarib, chap qo'lga oldi. Kazak tizginni xotiniga tutqazib, aravadan irg'ib tushdi.

— Nega o'z sotnyangdan ketib qolding? Qayoqqa ketyapsan? — deb surishtirdi ofitser.

— Kasalman. Bazkiga ketyapman hozir... Oilam bilan yo'lga chiqqandim.

— Kasalliging to'g'risida spravkang bormi?

— Spravkani qaydan olayin? Sotnyamizda feldsher yo'q...

— Ha, yo'qmi?.. Qani, Karpenko, buni maktabga obor-chi!

— Axir, o'zingiz kim bo'lasiz?

— Kimligimizni o‘sha yerga borganda ko‘rasan!  
— Men o‘z sotnyamga borishim kerak! Meni ushlashga haqing yo‘q!

— Biz o‘zimiz seni jo‘natamiz. Quroling yoningdami?

— Miltig‘im bor, xolos...

— Miltig‘ingni olib, tezroq yur, yo‘qsa, ul-bullaringni uloqtirib tashlayman. Yoppa-yosh yigitsan-ku, itvachcha, xotiningning etagi ostiga bekinasan! Nima, seni biz himoya qilishimiz kerakmi? Ha, muttaha! — deb uning ketidan baqirib qoldi ofitser.

Kazak sholcha tagidan miltig‘ini oldi-da, xotiningning qo‘lidan ushladi-yu, biroq el ko‘zida o‘pishga istihola qilib, uning ozg‘in qo‘lini birpas ushlab turdi, qulog‘iga allanimani shivirladi-da, drujinachining oldiga tushib, qishloq maktabi tomon jo‘nadi.

Tor ko‘chada to‘planib qolgan aravalar ko‘prikni taraqlatib yana o‘ta boshladi.

Poyloqchilar bir soatning ichida ellikka yaqin dezertirni ushladi. Bularning ba‘zilari ushlaganlarga qarshilik ko‘rsatishdi; ayniqsa Yelan stanitsasining Nijne-Krivsk qishlog‘idan chiqqan mo‘ylovi shopday, basavlat, o‘rta yashar bir kazak ko‘p to‘polon qildi. Poyloqchilar boshlig‘ining: «aravadan tush» degan buyrug‘iga quloq solmay, otlarini savalab qochmoqchi bo‘ldi, biroq ko‘prikning narigi yog‘ida ikki drujinachi otlarining jilovidan ushlab to‘xtatishdi. Kazak ham o‘ylanib o‘tirmasdan etagi ostidan amerikancha vinchesterni shartta oldi-yu, qo‘ndog‘ini kiftiga tirab o‘qtaldi.

— Yo‘lni bo‘shat! Otib o‘ldiraman, ablah!

— Tush, tush! Kim bo‘ysunmasa otamiz, shunday buyruq bor. Sendan oldin biz joylab qo‘ymaylik tag‘in!

— Mu-jikvach-chalar!.. Kechagina qizillar bilan yuruvdilaring, endi kazaklarga xo‘jayinlik qilasizmi-a?.. Isqirtlar!.. Yo‘lni bo‘shat, xuddi solvoraman!..

Yap-yangi qishlik obmotka o‘ragan drujinachi aravaning oldingi g‘ildiragiga chiqib birpas olishgandan so‘ng kazakning qo‘lidagi vinchesterni tortib oldi. Lekin kazak mushukday buralib engashdi; sholcha tagiga qo‘lini suqib, qilichini qinidan sug‘urib oldi-da, aravaga bog‘lab qo‘yilgan guldor beshik orqasida tizzalab turib drujinachiga qilich soldi; agar u lip etib o‘zini chetga olmaganida, qilich uchi boshiga tegishi aniq edi.

Aft-basharasi xunuk, cho'pday ozib ketgan bir ayol — to'polonchi kazakning xotini:

— Timosha, qo'ysang-chi, Timonyushka! Hoy, Timosha!.. Bo'ldida, endi!.. Bularga bas kelib bo'ladimi? Seni o'ldirishadi!.. — deb yalinib yig'lardi.

Biroq u aravadan g'oz turib olib, ko'kish po'lat qilichini aylantirib, anchagacha drujinachilarni arava yoniga yo'latmadi. U xirillab so'kinar, ko'zlarini o'qraytirib atrofga alanglab qarar: «Qo-och!.. Chopib tashlayman!» deb baqirardi. Qozonning kuyasidek qop-qora yuzlari lip-lip uchib turar, sarg'ish mo'ylovlari ostida og'zi ko'pirib ketgan, chaqir ko'zlari tobora qonga to'lardi. Axiri, zo'r mashaqqat bilan uni qurolsizlantirib yotqizishdi-da, qo'l-oyog'ini bog'lashdi.

Kazakning yuragiga o'g'it solgan narsa nimaligi birpasda aniqlandi: aravani axtarishganda, og'zi ochiq xumda o'tkir qo'lbola samogon topildi...

Tor ko'chada yo'l tirband bo'lib qoldi. Aravalar shu qadar tiqilishib ketgan ediki, ho'kiz-u otlarni chiqarib, aravalarni sudrab ko'prikdan o'tishdan boshqa chora qolmagandi. Arava shotilari, otyog'ochlar qar-sillab sinar, otlar hangillar, so'na talagan ho'kizlar egalarining baqirganiga qaramay, quturganday chetan devorga irg'ishardi. Ko'prik yonida ancha mahalgacha so'kingan va baqirgan odamlarning ovozlari, qamchilarning tarsillashi, xotinlarning qarg'ish va faryodlari eshilib turdi. Orqaroqda kelayotganlar buriladigan joy topishib, aravalarini orqaga qaytarishdi-da, yana katta yo'lga tushib, o'shanaqasi Bazkini mo'ljallab jo'nab qolishdi. Qo'lga tushgan dezertirlarni soqchilar nazorati ostida Bazkiga haydatishdi, biroq hammasida qurol bo'lgani uchun soqchilar ularni ushlab qololmadi. Ko'prikning naryog'iga o'tishlari bilanoq, dezertirlar soqchilar bilan mushtlasha boshladi. Oradan sal vaqt o'tgach, soqchilar qaytib ketishdi, dezertirlar esa, saf tortib, o'zlik-o'zi Vyoshenskayaga jo'nashdi.

Proxor Zikovni ham Gromkida to'xtatishdi. Lekin u Grigoriy Melexov bergan ta'til qog'ozini ko'rsatib, monesiz o'tib ketdi.

U kechga yaqin Bazkiga kirib bordi. Chir bo'yidagi qishloqlardan kelgan minglarcha arava ko'cha va tor ko'chalarga tiqilib ketgandi. Don bo'yidagi ahvolni ta'riflashga qalam ojizlik qilardi. Daryo bo'ylab ikki chaqirim keladigan joyni qochoqlarning aravalari egallab olgan

edi. Ellik ming odam o‘rmonda podaday yoyilib, daryodan o‘tib olish uchun parom kutardi.

Vyoshenskayaning ro‘parasida to‘plarni, shtab va harbiy anjomlarni parom bilan daryodan o‘tkazishmoqda edi. Piyoda askarlarni kichkina qayiqlarda olib o‘tishardi. O‘nlab qayiqlar uchtadan-to‘rttadan odam solib, Donning bu yog‘idan u yog‘iga borib kelib turishardi. Pristan oldida, suvning yonginasida sur-sur, itar-itar boshlandi. Arergardda<sup>1</sup> qoldirilgan suvoriylardan hali ham darak yo‘q edi. Chir tomondan hali ham, boyagiday to‘p ovozlari eshitilar, qo‘lansa kuyundi hidi dimog‘ni achitardi. Tong otguncha daryodan o‘tib turishdi. Kechasi soat o‘n ikki deganda, dastlabki sotnyalar yetib kelishdi. Tong yorishishi bilan ular daryodan kechib o‘tishlari kerak edi.

Proxor Zikov surishtirib ko‘rib, 1-diviziyaning suvoriy qismlari hali bu yerga yetib kelmaganini bilgach, o‘z sotnyasini Bazkida kutmoqchi bo‘ldi. U otini yetaklab, Bazki kasalxonasining devori yonida tiqilib qolgan aravalar ichidan arang o‘tib oldi, egarini olmasdan allakimning aravasi ketiga otini bog‘lab, suvlig‘ini chiqardi-da, o‘zi qochoqlar orasidan tanishlarini qidirib ketdi.

To‘g‘on yonida Aksinya Astaxovani olidan ko‘rib qoldi. U kichkina tugunchani ko‘ksiga bosib, jun koftasini yelkasiga tashlab, Donga tomon tushib kelardi. Uning oyday jamoli daryo bo‘yida to‘p-to‘p bo‘lib turgan piyoda askarlar e‘tiborini o‘ziga tortardi. Ular Aksinyaga chapancha gap otishardi, terlagan, chang bosgan basharalarini tirjaytirib, tishlarining oqini ko‘rsatib, qah-qah urib kulishar, qochirim gap qilib hingillashardi. Ko‘ylak ustidan belbog‘ bog‘lagan, papaxi qiyshayib ketgan novcha bo‘yli malla kazak orqasidan kelib, uni quchoqlab oldi-da, qoramag‘izdan kelgan bo‘ynidan o‘pdi. Proxor Aksinyaning bu kazakni itarib tashlaganini, so‘kinib tishlarini irjaytirganini ko‘rdi.

Aksinya qadamini tezlatib, Proxor yonidan o‘tib ketdi. Uning qalin lablarida nafrat aralash istehzoli kulgi o‘ynardi. Proxor uni chiqirmadi; u ko‘zlari bilan olomon orasidan hamqishloq tanishlarini axtarardi. Shotilari ko‘tarib qo‘yilgan aravalar orasidan asta-sekin o‘tib borar ekan, Proxor mastlarning ovozini, hoholab kulishlarini eshitdi. Arava tagiga solingan sholcha ustida o‘tirgan uch cholni

---

<sup>1</sup> Chekinayotgan askarni ortda qolib himoya qiluvchi kuch (Tarj.).

ko'rdi. Ulardan biri chelakdagi samogonni ikki oyog'ining orasiga qo'yib olgan edi. Kayfi oshib qolgan chollar, to'p o'qining gilzasi-dan qilingan mis krujkani navbatma-navbat chelakka botirib samogon ichishar, qoqi baliqni tamaddi qilishardi. Samogonning o'tkir isi va tuzlangan baliqning sho'rtang hidi qorni och Proxorni to'xtashga majbur etdi.

— Askar bola! Yaxshilarning sog'lig'i uchun biz bilan birga ich! — dedi chollardan biri unga murojaat qilib.

Proxorning joni kirib darhol o'tirdi, cho'qindi, og'zining tanobi qochib, mehmondo'st cholning qo'lidan bir krujka xushbo'y samogonni oldi.

— Ich! Bu dunyoda ichganing qoladi! Manavi baliqni tamaddi qil! Qariyalardan hazar qilish kerakmas. Qari bilganini, pari bilmaydi. Siz, yoshlar hali bizdan ko'p ta'lim olishlaring kerak, qanday umr kechirishni, aroqni qanday ichishni bizdan o'rganishlaring kerak, — deb ming'illardi ustki labi bilan burni o'pirilgan manqa chol.

Proxor burni tushib ketgan cholga qo'rqa-pisa ko'z tashlab turib, samogonni ichdi. Ikkinchi krujkani ham bo'shatib, uchinchisini olganda, sabri chidamay:

— Zahm bo'lganmidingiz, buva? — deb so'radi.

— Yo'o'o'q, azizim! Tumovdan bo'lgan bu. Bolalik chog'imda shamollab ko'p tumov bo'lganman, o'shani illati burunga urgan.

— Sal bo'lsa men: haligidaqa maraz yuqib burni tushib ketganmikin, degan xayolga boruvdim. Ishqilib, shunaqa balolardan xudo asrasin! — deb Proxor xavotirlanganini ochiq aytdi-qo'ydi.

Lekin boboning gapidan ko'ngli tinchib, endi xavotirlanmasdan, krujkadagi samogonni dam olmay ichib tamom qildi.

Samogonning egasi girdig'umdan kelgan sog'lom bir chol:

— Turmushimiz rasvo bo'lyapti! Ichmasa bo'ladimi? — deb baqirardi. — Mana, ikki yuz pud donni ortib keldim, ming pudchasi uyda qoldi. Besh juft ho'kizni haydab kelganman, Dondan olib o'tishning iloji bo'lmagandan keyin, hammasini shu yerga tashlashga to'g'ri keladi-da! Orttirgan mol-mulkim nest-nobud bo'ldi! Ashula xumor qilyapti! O'ynab qol, stanitsalik shovvozlar! — chol qizarib ketdi, ko'zlari yoshlandi.

— Baqirma, Trofim Ivanich. Moskva ko‘z yoshlaringga hech ishonmaydi. O‘lmasak, yana orttiramiz, — deb uni ovutmoqchi bo‘lardi manqa chol.

— Baqirmay turolamanmi, axir! — yuzlari bujmayib, ko‘zlari jiqqa yoshga to‘lgan chol qattiqroq chinqirdi. — Don-u dundan ajrayman! Ho‘kizlar harom o‘ladi! Qizillar uyimga o‘t qo‘yadi! Kuzda o‘g‘limni o‘ldirishdi! Men dod demay, kim dod desin? Bularni kim uchun orttirganman, axir? Bir yozda o‘nta ko‘ylakni to‘zitardim, mana endi yap-yalang‘och, yalangoyoq qoladigan bo‘ldim... Ich!

Proxor patnusday keladigan baliqni gap orasida paqqos tushirdi, yetti krujka samogon ichdi, kayfi nihoyatda oshib ketganligidan, qiynala-qiynala, arang o‘rnidan turdi.

— Askar bola! Himoyachimiz sensan! Otingga yem ola ketasanmi? Qancha beray?

Atrofida nima bulayotganining farqiga bormagan Proxor og‘ziga kelganini aytdi qo‘ydi:

— Bir qop!

Chol chipta qopga to‘lg‘azib urug‘bop suli soldi-da, orqalab yubordi.

— Qopni keltirib ber! Esingdan chiqmasin, baraka topkur — deb Proxorni quchoqlab, ko‘zidan yosh oqizar edi.

Proxorning negadir o‘jarligi tutib:

— Yo‘q, keltirib bermayman. Keltirib bermayman dedimmi, keltirib bermayman... — der edi.

U gendiraklay-gendiraklay arava yonidan ketdi. Qop og‘irlik qilganidan ikki bukilib, gendiraklab borardi. Proxor nazarida, sirg‘anchiq joydan yurayotganga o‘xshardi, u xuddi muz ustida ketayotgan taqasiz ot singari tiyg‘onar, oyoqlari qaltirardi. Gendiraklab yana bir necha qadam qo‘ydi-da, to‘xtadi. Hali bu yoqqa kelganimda boshimda shapkam bormidi, yo‘qmidi, deb o‘ylab o‘yiga yetolmadi. Aravaga bog‘langan oqqashqali to‘riq axta sulining hidini payqadi-da, bo‘ynini cho‘zib qopning burchidan tishladi. Teshilgan joydan suli shuvullab to‘kildi. Yuki yengillashgach, Proxor yana yurib ketdi.

Yo‘lda ishkal chiqmaganda, balki u, qolgan sulini bir amallab otiga olib borib bersa ham ajab emasdi; biroq kattakon bir ho‘kiz, o‘tib ketayotgan Proxorning biqiniga tepib yubordi, Proxor uchib borib, gup-

chakka boshini urib oldi-da, chalpak bo‘lib yerga yiqildi-yu, o‘sha zahotiyoq uyquga ketdi. So‘na-yu chivin talayverib, issiqda qichinaverib bezor bo‘lgan bu ho‘kiz hech kimni yaqiniga yo‘latmas va o‘sha kuni Proxordan boshqa yana bir necha kishini qaqshatgandi.

Proxor yarim kechada uyg‘ondi. Uning qoq tepasida, moviy osmon qo‘ynida pag‘a-pag‘a ko‘kimtir, kulrang bulutlar g‘arb tomon yugurishardi. Bulutlar orasidan, goho yalt etib o‘roq nusxa oy ko‘rinar va o‘sha zahoti osmon bulut pardasiga burkanib, olamni qorong‘ilik bosar, muzday shamol turganga o‘xshab tuyulardi.

Proxor yotgan joydagi aravaning naryog‘idan suvoriylar o‘tmoqda edi. Taqalangan sonsiz ot tuyoqlari zarbidan yer gumburlar edi. Otlar yomg‘ir hidini sezib pishqirishardi; qilichlar uzangiga tegib shiqirlar, papirosalar uchqunlanardi. O‘tayotgan sotnyadan terlagan otlarning sassig‘i, qayish, egar-jabduqlarning sho‘rtang hidi anqirdi.

Askarlikda yurgan boshqa kazaklar qatori Proxor ham urush yillari davomida yolg‘iz suvoriylarga xos bo‘lgan bu hidga o‘rganib qolgandi. Bu hid yo‘lda ham, cho‘lda ham, Prussiya va Bukovinadan tortib Don dashtlariga dovur kazaklarga ilashib kelgan edi; suvoriy qismlarda hamisha uchraydigan bu hidni kazaklar iskaganlarida xud-di o‘z uylarining hidini iskaganday rohatlanishardi.

Proxor burun kataklarini kerib iskandi-da, zilday og‘ir boshini ko‘tardi.

— Bu qaysi qism, birodarlar?

— Otiqlar... — deb hazillashdi qorong‘ilik ichidan yo‘g‘on bir ovoz.

— Kimning qismi bu? Ayta qoling!

— Petlyuraniki... — deb javob berdi yana haligi ovoz.

— Voy ablah-ey! ... — Proxor birpasdan keyin yana so‘radi: — O‘rtoqlar, bu qaysi polk?

— Bokov polki.

Proxor o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi-yu, biroq boshi lo‘qillab ketdi, tomog‘iga bir narsa qadalib ko‘ngli ag‘darildi. Yonboshladi-yu, yana uyquga ketdi. Tong mahalida Dondan rutubat ko‘tarildi, sovuq turdi.

Uyqu aralash qulog‘iga:

— O‘lmayaptimi? — degan ovoz keldi tepasidan.

Allakim qulog‘i ostida shang‘illab:

— Issig‘i bor... o‘lguday ichibdi! — deb javob berdi.

— Sudra, bu harom o‘lgurni! O‘ligini tashlab yotishini qara! Och biqiniga solvorgin, ko‘zi ochilsin!

Otda turgan odam hali o‘ziga kelmagan Proxorning biqiniga nay-zaning orqasi bilan qattiq turti, allakim oyoqlaridan ushlab bir chetga sudrab ketdi.

— Aravalarini chetga tort! Bari dong qotib qopti-ku! Qizillar izma-iz quvib kelyapti-yu, bular uylaridagidek bemalol uxlayapti! Aravalarini bir chetga tort, bu yerdan to‘plar o‘tadi! Tez-roq!.. Yo‘lni to‘sib olishibdi... Odamlarga bir balo bo‘ldi! — deb vag‘illardi bir odam qahr bilan.

Aravalar ustida va ostida uxlayotgan qochoqlar g‘imirlab qolishdi. Proxor irg‘ib o‘rnidan turdi. Uning miltig‘i ham, qilichi ham, o‘ng oyog‘idagi etigi ham yo‘q edi, hammasini u kecha kayfi oshib yo‘qotib qo‘ygandi. Proxor nima bo‘lganini tushunolmay, endi arava tagini axtara boshlaganda, otlardan sakrab tushgan suvoriylar bilan to‘pchilar aravani sandiq-pandig‘i bilan ag‘darib tashlab, to‘plarga yo‘l ochib berishdi.

— Hay-daaa!

Suvoriylar otlariga minishdi. Serbar qayishdan tikilgan postromkalar tortilib taranglashdi. G‘ilofli to‘pning kattakon g‘ildiraklari churqachadan g‘irchillab o‘tdi. To‘p o‘qi solingan yashik arava shotisiga ilinib qolib, uni cho‘rt uzib yubordi.

— Frontni tashlab qochyapsizmi? Xayf-ey, sizdaqa askarlarga! — deb baqirdi, kecha kechqurun Proxor bilan ichishgan manqa chol.

To‘pchilar indamay o‘tishar, paromga yetib olish uchun shoshilardi. Proxor g‘ira-shira tong yorug‘ida anchagacha oti bilan miltig‘ini axtardi. Ming qidirsam ham topolmadi. Qayiq yonida chap oyog‘idagi etigini yechib suvga uloqtirdi-da; tars yorilay deb og‘riyotgan boshidan rosa suv quydi.

Kun chiqqan mahalda otliq askarlar daryodan o‘ta boshladi.

Bir gala piyoda kazaklar 1-sotnyaning yuz ellikta yaydoq otini, Don sharqqa qarab shartta buriladigan joydan sal yuqoriroqdan suvga solishdi. Qirraburun, ko‘rinishdan badjahl, ko‘zlarigacha mallatuk bosib ketgan sotnya komandiri yovvoyi to‘ng‘izning naq o‘zginasi edi. Chap



qo'li qon dog'lari bosgan kir latta bilan bo'yniga tortib qo'yilgan, o'ng qo'li tinmay qamchi o'ynar edi.

U malla mo'ylovi ostidan oppoq oziq tishlarini ko'rsatib, otini suvga olib tushayotgan kazaklarga:

— Otlarga suv ichirma! Hayda! Chu desang-chi! Bu nimasi... suvdan ham qo'rqasanmi? Qand emassanki, erib ketsang! — deb baqirardi.

Otlar tixirlik qilib, muzday suvga tushgilari kelmay oyoqlarini tirashar, kazaklar baqirishar, qamchilab urishardi. Dastlab oq tumshuq, yulduzqashqa qora ot suzib ketdi. Bu ot suzishning mashqini olib qolgan ko'rinardi. Uning sag'risida to'lqin o'ynab, paxmoq dumini oqim bir yoqqa sudrar, bo'yni bilan orqasi suvdan chiqib turardi. Otlar uning ketidan suvni yorib, pishqirib, ko'pirgan daryoda suzib ketishdi. Oltita qayiqqa tushib olgan kazaklar ularning ketidan suzib ketdilar. Haydovchilardan biri ehtiyot shart uchun qo'lida arqon bilan qayiqning uch tomonida kuzatib borardi.

— Oldinga o'tma! Oqimga qiyalab sol! Hushyor bo'l, otlarni suv oqizib ketmasin!

Yuzboshining qo'lidagi qamchi havoda o'ynab, ohak changi o'tirib qolgan etigining qo'njiga tars etib tushdi.

Daryoning oqimi otlarni sudray boshladi. Qora arg'umoq boshqa otlardan to'rt-besh quloch oldinda bemalol suzib borardi. Dastlab chap qirg'oqdagi sayoz qumloq joyga o'sha ot chiqib oldi. O'sha zahoti baqaterakning tarvaqaylagan shoxlari orasidan quyqsh ham ko'rindi, uning qizg'ish shu'lasini qora arg'umoq ustiga tushdi-yu, namdan sip-silliq bo'lgan terisi bir lahza olovday yalt etib tovlanib ketdi.

— Mrixinning biyasiga hushyor bo'! Yordamlashvor!.. Yugani og'zida ekan. Qayiqni hayda! Haydasang-chi tezroq!.. — deb bo'g'ilib baqirardi to'ng'izga o'xshagan yuzboshi.

Otlar eson-omon o'tib olishdi. Daryoning narigi betida ularni kazaklar kutib turishardi. Har kim o'z otini ajratib, yugan sola boshladi. Daryoning bu yog'ida qolgan egarlarni olib o'ta boshladilar.

— Kecha qayerga o't tushdi? — deb so'radi Proxor qayiq yoniga egar tashiyotgan kazakdan.

— Chir bo'ylariga.

— To'p o'qidan yong'in chiqdimi?

— Yo'g'-e! Qizillar o't qo'yishyapti, — deb javob berdi kazak zarda bilan.

— Bir boshdan o't qo'yishyaptimi?

— Yo'o'o'q... Boylarning uyiga o't qo'yishyapti, tunuka tomli yoki qo'rasi yaxshi uylarga, xolos.

— Qaysi qishloqlarga o't qo'yildi?

— Visloguzovdan tortib Grachyovga dovur hamma qishloqlarga.

— Birinchi diviziya shtabi hozir qayerdaligini bilmaysanmi?

— Chukarinda.

Proxor aravalar yoniga qaytib keldi. Daryoning bir yog'ini egallab olgan qochoqlar manzili ustida shox-shabba va tappining achchiq tutunini shamol uchirar, ayollar ovqat tayyorlamoqda edilar.

Kechasi bilan o'ng qirg'oqdagi dasht atroflaridan yana bir necha ming qochoq kelib qo'shildi.

Gulxan yonida, arava ustida o'tirgan odamlar ariday g'o'ng'il-lashardi:

— Bizga navbat kelarmikin, qachon daryodan o'tarkinmiz-a? Kuta-kuta ko'zimiz teshiladi chog'i!

— Xudo ursin, hamma donimni daryoga oqizmasam... Qizillarga qoldirib bo'pman!

— Parom yonida tumonat odam to'planibdi, naq qiyomat!

— Hoy dardisar, sandiqlarni daryo bo'yida qoldirib ketaveramizmi?

— To'plab-to'plab, mana endi... Xudoyo xudovando, o'zing halloqsan!

— O'z qishlog'imiz yonida daryodan o'tishni iloji bo'lganda-ku...

— Bizlarni bu Vyoshkiga shayton boshlab keldi-ya.

— Kalinov Ugol kuyib sob bo'lganmish.

— Paromga yetib olaylik deb, tuxumimiz og'zimizga keldi.

— Bo'lmasa senga rahm qilisharmidi?

— Ularda: yetti yoshdan tortib yetmish yoshgacha hamma kazaklarni o'ldirilsin, degan buyruq bor.

— Hammamiz bu yoqda qolib ketamiz... U yog'i nima bo'ladi?

— Go'shtimiz bir burdadan bo'ladi!.. Tavrichancha naqshinkor arava yonida qaddi-qomati kelishgan, qoshi oqargan bir chol gap sotmoqda; uning aft-angori va o'zini tutishi — qishloq atamani ekanidan,

bandi mis bilan qoplangan atamanlik asosi bir necha yil qo‘lidan tushmaganligidan dalolat berardi:

— ...Men janobi oliylariga: «Bundan chiqdi, xalq daryo bo‘yida qirilib ketar ekan-da? Axir, biz bola-chaqalarimiz bilan qachon narigi tomonga o‘tamiz? Qizillar bizni qirib tashlaydi-ku!» devdim, janobi oliylari menga shunday dedilar: «Sira xavotir bo‘lma, otaxon! Hamma odam o‘tib bo‘lgancha pozitsiyadan siljimagay, mudofaa qilamiz. O‘zimiz qirilsak-qirilamizki, lekin xotin-xalaj, bola-chaqa, qariyalari-mizni qoldirib ketmaymiz».

Qoshlari oqargan atamanni qariyalar va ayollar o‘rab olishib, zo‘r e‘tibor bilan uning gapini tingladi, so‘ngra hamma baravar chug‘urlay boshladi:

- Unday bo‘lsa, to‘plar nega jo‘nab qoldi?
- Odamlarni bosib ketishiga sal qoldi, paromga qarab chopishdi-da!..
- Suvoriylar ham keldi...
- Grigoriy Melexov frontni tashlab ketganmish.
- Shu ham tartib bo‘ldimi? Xalq bu yoqda qolib, o‘zlari...
- Askarlar dumini xoda qilib qochyapti...
- Bizlarni kim himoya qiladi?
- Otliqlar huv ana, suzib o‘tishyapti!..
- Har kimning joni o‘ziga shirin...
- Bo‘lmasa-chi!
- Hammasi bizni sotib ketdi!
- Kunimiz bitdi vassalom!
- Qariyalarni non-tuz bilan qizillar oldiga yuborish kerak. Balki rahm qilishib, bizlarni o‘ldirishmas.

Tor ko‘chaga kiraverishdagi kasalxonaning g‘ishtin imorati yonida otliq odam ko‘rindi. Miltig‘i egar qoshiga ilingan, yashil rangga bo‘yalgan nayzasi yonbosh tomonida sollarib kelmoqda edi.

— Voy o‘lay, bu axir mening Mikishkam-ku! — suyunganidan chinqirib yubordi ro‘moliga burkangan keksa ayol.

Kampir shotidan xatlab, arava va otlar orasidan o‘tib bolasi tomon yugurdi. Otliqni uzangisidan ushlab to‘xtatdilar. Lekin u surg‘uch muhrli ko‘k paketni ko‘rsatib baqirdi:

— Axborot bilan bosh shtabga ketyapman! Qo'yvoringlar!

— Mikisha! Bolaginam! — deb hayajonlanib chaqirardi kampir. Oq oralagan qop-qora sochlari to'zib chaqnagan yuzlarini to'sib qoldi. Ona jon-jahdi bilan terlagan ot biqiniga, uzangiga yopishadi, uning lablari titrab iljaydi:

— Qishlog'imizda bo'ldingmi?

— Bo'ldim. Hozir qishlog'imiz qizillar qo'lida...

— Bizning uy-chi?

— Uyimiz turibdi, lekin Fedotnikiga o't qo'yishdi. Bizning bostirmaga endi o'tganda, o'zlari o'chirishibdi. Fetiska o'sha yoqdan qochib kelib gapirib berdi, qizillarning kattakoni: «Bironta kambag'alning uyiga o't ketmasin, lekin boylarnikining kuli ko'kka sovurilsin», — deganmish.

— Uh, xayriyat, xudoga shukur-ey! Xudoyo o'zing asra! — deb cho'qindi ona.

Badqovoq bir chol g'azablanib so'radi:

— Bu nimasi, oyimtilla? Qo'shning uyiga o't qo'yishsa: «xudoga shukur», deysan?

— Qo'shnimni jin urmaydi! — deb bidirlab ketdi ayol. — U yana boshqa uy solib oladi, agar menikiga o't qo'yishganda, yangidan uy solishga qurbim kelarmidi? Fedotning bir xum tillasi bor, menda-chi... umr-bo'yi birovlarning xizmatidaman, qashshoqlikdan boshim chiqmagan!

— Meni qo'yvoring, onajon! Paketni tezroq olib borib berishim kerak, — deb yalindi yigit otdan engashib.

Ona ot yonida sal yurib bordi-da, o'g'lining oftobda qoraygan qo'lidan o'pib, o'z aravasi tomon chopdi, bolasi esa o'spirincha ingichka ovozi bilan jingilladi:

— Yo'l bo'shat! Qo'mondonga paket obketyapman! Yo'l bo'shat!

Uning ostidagi ot qizishib, o'ynoqilab turardi. Odamlar shoshmasdan yo'l berishdi, otliq bola imillab ketayotganga o'xshasa ham, lekin birpasda aravalar orqasidan, ho'kiz va otlar orasida ko'rinmay ko'zdan g'oyib bo'ldi, yolg'iz uning nayzasi olomon tepasida sollanib Donga tomon yaqinlashib boraverdi.

Bir kun ichida hamma qo'zg'olonchi qismlar va qochoqlar Donning chap tomoniga o'tib olishdi. Grigoriy Melexov qo'l ostidagi 1-diviziyaning Vyoshensk polkiga qarashli otliq sotnyalari eng keyin daryodan o'tdi.

Grigoriy o'n ikkita eng sara sotnyalar bilan qizillarning 38-Kuban diviziyasining hujumini qaytarib turdi. Soat beshlarga yaqin Kudinovdan: «Harbiy qismlar va qochoqlar daryodan o'tib bo'ldi», degan xabar kelgandan keyingina, u chekinish to'g'risida buyruq berdi.

Avvaldan ishlab chiqilgan rejaga ko'ra, Don bo'yida tashkil topgan qo'zg'olonchi sotnyalar daryodan o'tgach, har qaysisi o'z qishlog'i ro'parasiga joylashmog'i kerak edi. Tushga yaqin shtabga sotnyalardan xabar kela boshladi. Ko'pchilik qismlar chap qirg'oqda, o'z qishloqlari qarshisida o'rtnashib olgan edi.

Ana shundan keyin qishloqlar oralig'ida bo'sh qolgan yarlarga dashtlik kazak sotnyalari joylashtirildi. Krujilin, Maksayev – Singin, Kargin, Latishev, Lixovidovo, Grachyovdan chiqqan sotnyalar — Pergaryovka, Vyoshenskaya, Lebyajin, Krasnoyarsk oralig'idagi joylarni ishg'ol qilishdi, qolganlari orqa tomonga, Durovka, Chyorniy, Goroxovka qishloqlariga joylashdi; Safonovning fikriga ko'ra, mabodo qizillar frontni yorib o'tsalar, bularni rezerv kuch sifatida ishga solish ko'zda tutilardi. Kazansk stanitsasiga qarashli eng chekkadagi qishloqlardan tortib Ust-Xopyorga dovur, Donning chap qirg'og'i bo'ylab yuz ellik chaqirimcha keladigan joyni qo'zg'olonchilar fronti enlab yotardi.

Kazaklar daryodan o'tib olib, pozitsion urushga tayyorlanishar: shoshilinch sur'atda transheya qazishar, tol, terak va emanlarni kesib, blindaj qurishar, pulemyotlar uchun pistirma qilishardi. Qochoqlar bisotida bo'lgan hamma bo'sh qoplarni yig'ib, qum to'lg'azib, transheyalar oldiga yotqizishardi.

Kechga yaqin transheya qazish ishi hamma yerda tamomlandi. Vyoshenskayaning orqasidagi qarag'ayzor ichiga qo'zg'olonchilarning 1- va 3-batareyalari yashirib qo'yilgan edi. Sakkiz to'pga faqat beshtagina o'q bor edi. Miltiq o'qlari ham tugay deb qolgandi. Kudinov maxsus chopar orqali buyruq yuborib, o'q otishni qat'iyman

etdi. Buyruqda: «Har bir sotnya bittadan yo ikkitadan eng o'tkir mergan ajratsin va ularni yetarli o'q bilan ta'min etsin, deyilgandi; bu merganlar qizillarning pulemyotchilarini va o'ng qirg'oqdagi qishloq ko'chalarida paydo bo'lgan qizil askarlarni otib o'ldirishi kerak edi. Qolgan kazaklarga faqat qizillar daryodan o'tmoqchi bo'lib harakat qilgandagina o'q uzishga ruxsat etilgan edi.

Grigoriy Melexov Don bo'ylab joylashgan o'z diviziyasining tarqoq qismlarini aylanib chiqquncha qorong'i tushdi, qaytib kelib Vyoshenskayada tunadi.

Yalanglikda olov yoqish taqiqlangandi; Vyoshenskayada ham chiroq ko'rinmasdi. Donning chap qirg'og'i zulmat ichida edi.

Ertalab Bazki tomondagi do'ng ustida qizillarning birinchi razyezdlari ko'rindi. Bir ozdan keyin ular Ust-Xopyor bilan Kazansk orasida bo'lgan o'ng qirg'oqdagi hamma tepalar ustida yugurishib qolishdi. Qizillar fronti qudratli vulqon lavalari singari Donga tomon bostirib kelmoqda edi. So'ngra razyezdlar g'oyib bo'lib, hammayoq suv quyganday og'ir sukunatga cho'mdi.

Shamol chang-to'zon qyunlarini Getman yo'lida uchirib yurardi. Janub tomondan hali ham yong'inning qizg'ish qora tutuni ko'tarilardi. Shamol to'zitgan bulutlar qayta to'planar, do'ng ustiga qush qanoti shaklidagi soya tushib turardi. Yop-yorug' kunduz kuni yalt etib chaqmoq chaqnadi. Ko'm-ko'k bulut parchasining zihlari bir on zarvaraqday yarqirab ketdi, bir uchi olmos nayzaday qorovul tepaning qubbasimon ko'ksiga sanchildi. Momaqaldiroq zarbidan haybatli qora bulutning ko'ksi chok-chok bo'lib, jala quyib yubordi. Shamol uni qiyalatib uchirar, Don bo'yidagi bo'r tog'larining etaklaridan oppoq o'ynoqi sel to'lqinlarini issiqdan so'ligan kungaboqarlar orasiga, shalpayib qolgan ekinzorlar ichiga oqizib kelardi.

Changdan oqarib, so'linqirab qolgan barglarga yomg'ir davo bo'ldi. Bahorgi ekinlar ko'm-ko'k bo'lib yiltiray boshladi, kungaboqarlar sap-sariq yumaloq boshlarini ko'tardilar, polizlar gulga kirgan oshqovoqlarning o'tkir hidiga to'ldi. Chanqog'i qongan tuproqdan ancha vaqtgacha bug' ko'tarilib turdi.

Donning ustki yog'idan to Azov dengizigacha cho'zilgan tog' etaklarida onda-sonda bir uchraydigan qorovultepalar ustida yana qizil askar razyezdlari paydo bo'ldi.

Bu tepalardan Donning naryog'ida o'nlab chaqirim joygacha cho'zilgan yam-yashil chakalakzorlar, do'ppayib turgan sap-sariq qumtepalar yaqqol ko'rinardi. Qizil askar razyezdlari hadiksirab, asta-sekin qishloqlarga kira boshladi. Piyoda askarlar saf-saf bo'lib do'ngdan tusha boshladi. Qadim zamonlarda qipchoqlar va jangovar slavyanlar dushman poylagan qorovultepalar orqasiga qizillarning to'plari joylashdi.

Belogor tog'iga o'mashib olgan batareya Vyoshenskayani to'pga tutdi. Birinchi o'q maydonga tushib portladi, ana shundan keyin to'p o'qi portlashidan hosil bo'lgan ko'kish tutun bilan shrapnellarning shamolda taralib ketuvchi sutday oq tutuni butun stanitsani qoplab oldi. Yana uchta batareya Vyoshenskayani va Don bo'yidagi kazaklar transheyalarini o'qqa tutdi.

Katta Gromkida pulemyotlar tarillab o'q yog'dira boshladi. Ikki «gochkins» kalta-kalta qilib o'q sochar, lekin ovozi yo'g'on «maksim» bo'lsa, sidirg'asiga to'xtovsiz tarillar, Donning naryog'ida to'p-to'p bo'lib, u yerdan bu yerga chopib o'tayotgan qo'zg'olonchi piyoda askarlarni mo'ljalga olar edi. Obozlar do'ng yonlariga keltirila boshlandi. Yovvoyi tog'olcha o'sgan tog' etaklarida okop qazishardi. Getman yo'li bo'ylab ikki g'ildirakli, to'rt g'ildirakli aravalar shaldirab o'tar, ularning ketidan buruqsib chang ko'tarilardi.

Butun front bo'ylab to'plar gumburlardi. Tevarak-atrof kaftday ko'rinadigan Don tog'lari ustiga joylashgan qizillarning to'plari Donning narigi betini qorong'i tushguncha o'qqa tutdi. Lekin Kazansk bilan Ust-Xopyor orasiga transheyalar qazilgan o'ydim-chuqur bo'lib ketgan yalanglikdan sado chiqmasdi. Ot yetaklovchi kazaklar otlar bilan chuqurlikdagi qamish, qiyoq va qo'g'a o'sgan chakalakzor ichiga biqinib olishgan edi. U yerda otlarni chivin talamaydi, daraxtlarni yovvoyi chirmoviq o'rab olganligidan muzday salqin bo'ladi. Daraxtlar otlarni qizil askar poyloqchilarning ko'zidan pinhon tutardi.

Yam-yashil soylikdagi pichanzorda odam bolasi ko'rinmasdi. Ahyon-ahyonda pichanzor orasida Dondan olisroq joyga qochib o'tayotgan birona qochoqning bukchaygan qorasi ko'rinib qolaradi. Qizillar pulemyoti sidirg'asiga bir necha o'q uzardi, o'qlar shuvullab o'tganda qochoqlarning kapalagi uchib, o'zini tappa yerga tashlardi. Shu ahvolda qalin ko'kat orasida yotib-yotib, qorong'i

tushgandan keyin ketiga qaramay yo'rg'alaganicha shimol tomonga, qarag'ay va olxa daraxtlari chakalak bo'lib yotgan o'rmonga qochib o'tardi.

\* \* \*

Ikki kungacha Vyoshenskaya stanitsasi zo'r berib to'pga tutildi. Odamlar yerto'la va o'ralardan chiqmay qo'yishdi. To'p o'qidan o'ydin-chuqur bo'lib ketgan ko'chalarda faqat kechalari odam paydo bo'lardi.

Shtabdagilar: «Bu qadar to'xtovsiz o'qqa tutish — hujum boshlashga, daryodan o'tishga tayyorgarlikdan boshqa narsa bo'lmasa kerak», deb faraz qilishardi. Qizillar avval Vyoshenskayani ishg'ol etish va tikkasiga cho'zilgan frontning o'rtasiga suqilib kirib, uni ikkiga ajratib tashlash maqsadida muqarrar Vyoshenskayaning ro'parasida daryodan o'ta boshlaydi, deb vahima qilishardi; ana undan keyin ular Kalachdan va Ust-Medveditsadan — ikki yoqdan baravar hujum boshlab, qo'zg'olonni tor-mor qilishlari mumkin edi.

Kudinovning buyrug'iga binoan Vyoshenskayaga, Don bo'yiga yigirmadan ortiq pulemyot o'rnatilgan, ular yetarli miqdorda o'q lentallari bilan ta'minlangan edi. Batareya komandirlari, qizillar daryodan o'tishga uringan taqdirdagina qolgan o'qlar otilsin, deb buyruq olishdi. Parom bilan hamma qayiqlarni Vyoshenskayadan yuqoriroqdagi ko'lga eltib, tepasiga bir talay soqchi qo'yildi.

Grigoriy Melexovning nazarida shtabdagilar bekordan bekorga vahima qilayotganday tuyulardi. 24-mayda o'tkazilgan majlisda u Ilya Safonovni hamda uning gapini ma'qullagan kishilarni masxara qilib so'zga chiqdi.

— Qizillar Vyoshkining ro'parasida daryodan nimada o'tishadi? Bir o'ylab ko'ring, axir, shu yerdan o'tib bo'ladimi? Bu yog'i tap-taqir kaftday qirg'oq. Don bo'yi tep-tekis qumloq, na daraxt bor, na buta, qaysi ahmoq shunday joydan o'tarkin, a? Yolg'iz Ilya Safonovgina korchalonlik qilib baloning og'ziga o'zini urishi mumkin... Bunday yalang qirg'oqda pulemyot odamni tutdek to'kadi! Senchi Kudinov, qizillar bizdan ko'ra laqmaroq deb o'ylamay qo'ya qol! Ularning orasida sen bilan menga dars beradiganlar ko'p! Ular tik-



kasiga Vyoshkiga o'tmaydi, biz ularni bu yerdan emas, boshqa yoqdan kutishimiz kerak; ular, albatta sayoz joyni, suvi yoyilgan oson kechuvlarni yoki daryo bo'yini daraxtlar qoplagan, o'nqir-cho'nqir pastqam joylarni mo'ljallashadi. Ana shunday xavfli joylarni, ayniqsa kechalari qattiq nazorat ostiga olishimiz kerak; kazaklarni qattiq ogohlantirish lozim: g'aflatda qolishmasin, ko'zlarini kattaroq ochishsin; qizillar ko'ringan zahoti, ularni darhol daf qilish uchun xavotirli joylarga oldindan rezerv kuchlarni taxt qilib qo'yish lozim.

— Ular Vyoshkiga o'tmaydi, deysanmi? Unday bo'lsa, nega stantsani kechgacha to'pga tutishadi?.. — deb savol berdi Safonovning muovini.

— Sen buni ulardan borib so'ra. Yolg'iz Vyoshkini to'pga tutishyaptimi? Kazanskniyam, Yerinskniyam to'pga tutishyapti, huv anavi Semyonov tog'idan ham to'p otishyapti. Ular hamma yoqni baravar to'pga tutishyapti. Ularda to'p o'qi bizdagidan qittay ko'proq bo'lsa kerak. Bizning o'yinchoq to'plarimizda beshtagina o'q bor xolos, shularniyam o'qdoni yog'ochdan yasalgan.

Kudinov hoholab kuldi:

— Rosa boplading, qiyib yubording!

— Karillab tanqid qilaverma ko'p! — deb o'pkaladi majlisda qatnashgan 3-batareya komandiri. — Bu yerda bo'ladigan gapni gapirish kerak.

— Gapir, kim sening og'zingni bekityapti? — Kudinov qovog'ini solib, kamar uchini o'ynay boshladi. — Siz karquloqlarga: «Bo'larbo'lmasga o'q otmanglar, otadigan payti keladi, o'qni ehtiyot qilinglar», — deb ko'p tayinladik. Quloq solmadinglar, otaverdinglar surishtirmay, hatto obozgayam to'p o'qi sarf bo'ldi. Endi tanqid qilsa, alam qilyaptimi? Yog'ochdan yasalgan to'plaringni Melexov masxara qilgani judayam to'g'ri.

To'plaring masxara qilib kulishdan boshqaga arzimaydi!

Kudinov Grigoriyning yonini oldi, daryodan o'tishga qulay joylarni qattiq qo'riqlash va xavfli uchastkalar yaqiniga rezerv qismlar keltirib qo'yish to'g'risidagi taklifini ma'qulladi. Vyoshenskayada bo'lgan pulemyotlardan bir qanchasini ajratib Belogor, Merkulov va Gromki sotnyalariga berishga qaror qilindi, chunki qizillar shularning uchastkasida daryodan o'tishlari mumkin edi.

Grigoriyning: qizillar Vyoshenskayaning ro'parasida daryodan o'tishga urinmaydi, buning uchun boshqa bir qulay joy qidirib topishadi, degan fikri ertasi kuniyoq tasdiqlandi. Ertalab Gromki sotnyasining komandiri, qizillar daryodan o'tishga tayyorlanayotgani to'g'risida xabar keltirdi. Tuni bilan Donning narigi betida g'ovur-g'uvur ovozlari, bolg'alarning taraqlagani, g'ildiraklarning g'ichirlagani eshitilib turdi. Juda ko'p aravalarda allaqayoqlardan taxta ortib kelib Gromkiga tushirishdi, o'sha zahotiy oq arralarning g'arillagani, bolta va bolg'alarning to'qillagani eshitila boshladi. Mana shularning hammasi qizillar, qandaydir bir narsa qurayotganidan dalolat berardi. Oldin kazaklar: «pontonli ko'prik solishyapti» deb gumon qilishdi. Kechasi ikki dovyurak kazak arra, bolta tovushi chiqqan joydan ikki chaqirim yuqoriroqqa borib, yechinib daryoga tushishdi va boshlarini shoxshabba bilan pana qilib olib, sekin-asta pastga tomon suzib ketishdi. Ular qirg'oq bo'ylab suzib borishardi, sal narida pulemyot pistirmasi yonidagi tollar tagiga joylashgan qizil askarlar o'zaro gaplashib yotishardi; ularning ovozi va qishloq tomonda boltalar taraqlagani aniq eshitalardi-yu, biroq suvda hech narsa ko'rinmasdi. Har holda qizillar ko'prik emas, boshqa bir narsa qurayotgan bo'lishlari mumkin edi.

Gromkilik yuzboshi qizillar jabhasi ustidan nazoratni kuchaytirdi. Tong mahalida durbindan ko'z uzmagan poyloqchilar anchagacha hech narsani ko'ra olmadilar. Lekin sal orada ulardan biri, german urushida «polkning eng o'tkir mergani», deb nom chiqargan kazak g'ira-shira tong qorong'isida, egarlog'lik ikki ot bilan Donga tushib kelayotgan qizil askarni ko'rib qoldi.

Kazak o'rtog'iga:

— Qizil askar suvga tushyapti, — deb pichirladi-da, durbinni bir chetga olib qo'ydi.

Otlar tizza bo'yi suvga kirib, icha boshladi.

Kazak miltiqning uzun qayishini chap tirsagiga o'radi-da, mo'ljal ramasini ko'tarib, astoydil qadalib qoraga oldi.

O'q chiqqan zahoti bir ot sekingina yonboshiga quladi, ikkinchisi toqqqa qarab qochdi. Qizil askar o'lgan otning egarini olmoqchi bo'lib engashdi. Kazak yana o'q uzib, piqirlab kulib yubordi: qizil askar darhol qaddini rostlab, Dondan chopib chiqmoqchi bo'ldi-yu, biroq shartta quladi. Mukkasiga tushganicha qaytib turmadi...

Grigoriy Melexov qizillarning daryodan o'tishga tayyorlanayotgani to'g'risida xabar olgan zahoti otini egarlab, Gromki sotnyasi turgan joyga jo'nadi. Stanitsaning naryog'ida Dondan ajralib chiqqan ensiz ko'ldan ot solib o'tdi-da, o'rmon ichi bilan ketdi. Yo'l pichanzor orasidan o'tardi, biroq pichanzordan yurish xavfli bo'lgani uchun Grigoriy biroz olis bo'lsa ham, o'rmon ichi bilan Rasoxovo ko'lining etagigacha yetib bordi, u yerdan pushtama-pushta, chakalakma-chakalak yurib, Qalmoq kechuvga keldi (bu — pichanzordagi botqoqlardan birini Postoylitsa ko'li bilan birlashtirgan torgina irmoq bo'lib, ichini nilufar, qalampirgul va qamish bosib ketgandi), ana shu botqoqli Qalmoq kechuvdan o'tib olgandan keyingina otini to'xtatib, birpas dam berdi.

Don bo'yigacha ikki chaqirim qolgandi. Pichanzor bilan tikkasiga boradigan bo'lsa, o'qqa duchor bo'lishi muqarrar edi, qosh qorayuncha kutib tursa, tep-tekis pichanzordan bemalol o'tib olardi, biroq Grigoriy kutishni yomon ko'rar, doim: «Olamda eng yomon narsa — kutish va quvib yetish» deb gapirib yurardi, shuning uchun hozir jo'nashga jazm qildi. «Otimning tuyog'ini yerga tekkizmay uchirib haydayman, balki o'qlari xato ketar!» — deb o'yladi Grigoriy butazordan chiqayotib.

Don bo'yidagi o'rmon etagidan nariroqdagi yam-yashil tollarni mo'ljallab, otga qamchi bosdi. Qamchi zarbidan sag'risi lovullab achishgan, egasining vahshiyona qiyqirishidan hurkkan ot quloqlarini chimirdi-yu, tobora chopishini tezlatib, Donga tomon qushday uchib ketdi. Grigoriy ellik sarjin joyga bormay turib, o'ng qirg'oqdagi do'ngdan pulemyot sidirg'asiga o't ochib qoldi. O'qlar «Viyt! Viyt! Viyt! Viyu! Viyu!» etib sug'urchasiga chiyillashardi. Grigoriy oyoqlarini ot biqiniga mahkam tirab, tizginni qo'yib yubordi-da, ichida: «O'qing balandlab ketyapti, amaki!» — deb qo'ydi va boshini engashtirib, ro'paradan kelgan shamol pirillatib uchirgan ot yoliga yuzini qo'yib oldi. Oqargan do'ngning allaqayeridagi stanok pulemyotning yashil qalqoni orqasida yotgan pulemyotchi — qizil askar xuddi uning ko'nglidagini topganday, oldinroqni mo'ljalga oldi-da, pastlatib pulemyotdan sidirg'asiga o't ochdi: o'qlar otning oldingi oyoqlari ostiga tushib, azbaroyi qizib ketganligidan ilonday vishillay boshladi. Toshqin suvning nami hali qurimagan tuproqqa ustma-ust o'q sanchilar, qaynoq loy parchalarini sachratardi. «Chalp! Pshshuu! Chalp!»

Chalp!» etgan tovushlar tinmasdi. Grigoriyning boshi ustidan va oti yonidan o'qlar hushtak chalib o'ta boshladi.

Grigoriy uzangiga oyoqlarini tirab, ot bo'yniga cho'zilib yotib olgandi. Boya mo'ljallangan yashil tollar ro'paradan quyunday uchib kelayotgandek edi. Yarim yo'lga yetganida Semyonov do'ngidan to'p otildi. To'p o'qining vag'illashidan havo larzaga keldi. O'q yaqin joyga tushib portlaganida Grigoriy egar ustida qattiq tebranib ketdi. Hali uning gumburlashi, o'q parchalarining qarsillashi qulog'idan ketmay turib, kuchli havo to'qlinida egilib qolgan yaqin ko'llardagi qamishlar qaddini ko'tarmay turib, tog'da gumburlab yana to'p otildi, vag'illab yaqinlashib kelayotgan o'qning vahimasi Grigoriyni yana engashtirib, egarga qapishtirib qo'ydi.

Grigoriyning nazarida, odamning yurak-bag'rini ezuvchi bu tovush eng baland avjiga chiqib birdam to'xtab qolganday tuyuldi, lekin o'sha onda, uning ko'z oldida osmon barobar qora bulut yerdan otilib chiqdi, shiddatli zarbdan hamma yoq larzaga keldi, otning oldingi oyoqlari yerga kirib ketganday bo'ldi.

Grigoriy otdan ag'darilayotgan paytda ko'zini ochdi. U yerga shu qadar qattiq tushdiki, movut chalvari tizzasidan tars yirtilib, iplari uzilib ketdi. Portlashdan hosil bo'lgan kuchli havo to'qlini uni otdan ancha nariga uchirib yubordi, yiqilgandan keyin yana ancha joygacha sidirilib bordi, kaft-u betlari qirilib ketdi.

Qulog'i bitib qolgan Grigoriy oyoqqa turdi. Osmondan qop-qora bo'lib kesag-u loy, ko'kat ildizlari yog'ilmoqda edi... To'p o'qi portlagan joydan yigirma qadamcha nariroqda oti yotardi. Uning boshi qimirlamas, lekin tuproq bosib qolgan keyingi oyoqlari, terdan jiqqa ho'l bo'lgan sag'risi va dumg'azasi bilinar-bilinmas dirillab titrardi.

Donning narigi betidagi pulemyotning ovozi o'chdi. Besh daqiqagacha hamma yoq jimib qoldi. Ko'lchalar ustida ko'm-ko'k baliqchi qushlar tinmay chiyillashardi. Grigoriy boshi aylanayotganiga qaramay, otga tomon yurdi. Uning zilday og'irlashgan oyoqlari qaltirar, uzoq vaqt noqulay o'tirib qolgan odamga o'xshab arang yurardi, qon to'xtab, oyoqlari uvushib qolgan kishi qadam qo'yganda a'zoyi badani xuddi shunday zirqirab og'riydi...

Grigoriy o'lgan otning egarini shipirib olib, o'q parchalari qiyratgan eng yaqin qamishzorga kirishi bilan yana pulemyot tarillay bosh-

ladi. O'qlarning shuvullashi bu yerdan eshitilmasdi; aftidan, qizillarning do'ngdagi pulemyoti endi boshqa bir narsani mo'ljalga olganga o'xshardi.

Bir soatdan keyin u yuzboshining yerto'lasiga yetib oldi.

— Ustachiligini hozirgina yig'ishtirishdi, — dedi sotnya komandiri, — kechasi, albatta, yana ishga tushishadi. Bizga patron dan qarashib yubormasangiz, ish chatoq: kishi boshiga bitta, ikkita oboymadan o'qimiz qoldi, kimga dod deymiz!

— Kechqurun patron olib kelishadi. Narigi qirg'oqdan ko'z uzma, hushyor bo'!

— Haliyam hushyormiz. Bugun kechasi talabgorlarni ishga solmoqchiman: narigi yoqqa suzib o'tib, nima qilishayotganini bilib kelishsin.

— Nega kechasi yubora qolmading?

— Yubordim, Grigoriy Panteleyevich, ikki kishini yubordim, biroq ular qo'rqib qishloqqa kirisholmabdi. Daryo bo'yi bilan suzib o'tishibdi-yu, lekin qishloqqa kirishga yuraklari chopmabdi... Hozir kimni majbur qilib bo'ladi, axir? Bu ish nihoyatda xatarli: pistirmasiga ro'para kelib qo'lga tushsang, oyog'ingni osmondan keltirishadi. Kazaklar o'z uylari yonida, negadir, uncha botirlik ko'rsatishmayapti... German urushi vaqtida krest olaman deb jon kuydiruvchilarning son-sanog'i yo'q edi, hozir esa, uzoq razvedka u yoqda tursin, anchayin pistirmaga qo'yay desang, odam topilmaydi. Hammasidan ham xotinlar balo bo'ldi: erlarini topib olib shu yerda, okopda tunashyapti, hayday desam, kuchim yetmaydi. Kecha xotinlarni hayday boshlovdim, kazaklar darrov: «Aytib qo'yinglar, o'zini sal bosib olsin, bo'lmasa birpasda tanobini tortib qo'yamiz!» — deb do'q qilishibdi.

Grigoriy yuzboshining yerto'lasidan chiqib, transheyalar yoniga bordi. Dondan yigirma sarjin beriroqdagi qazilgan transheyalar ilon iziga o'xshab, o'rmon orasi bilan cho'zilib ketgandi. Bu yerda o'sgan eman daraxtlari va chakalak bo'lib ketgan mayda teraklar bilan jing'il tuplari brustverlar yonida uyilib yotgan sariq tuproqni qizil askarlar ko'zidan pinhon tutardi. Transheyalardan blindajlarga o'tish uchun xandaqlar qazilgan edi. Kazaklar shu blindajlarda dam olishardi. Yerto'lalar yonida qoqi baliqning yiltiroq po'sti, qo'y ustixonlari,

pista qobig'i, tamaki qoldiqlari, allaqanday latta-puttalar yotardi; daraxt shoxlariga yuvilgan paypoq, bo'z ko'ylak-ishton, paytava, ayollar ko'ylagi va yubkasi ilib qo'yilgan edi.

Birinchi yerto'ladan sochlari paxmaygan, uxlayverib shishib ketgan yoshgina bir ayol boshini chiqardi. U ko'zlarini ishqalab, Grigoriyga beparvo qarab qo'ydi, so'ngra yumronqoziqdek yerto'laga kirib berkindi. Uning yonidagi yerto'ladan ashula ovozi kelardi. Erkaklarga qo'shilib, ingichka va o'tkir ovozli bir ayol xirgoyi qilardi. Uchinchi yerto'laga kiraverishda ozoda kiyingan o'rta yashar bir xotin o'tirgandi. Sochiga oq oralagan bir kazak uning tizzasiga boshini qo'yib yotardi. U yonboshlab olib mudrar, xotini bo'lsa, epchillik bilan bitini boqar, qop-qora soch bitlarini yog'och taroqqa qo'yib o'ldirardi, qariy boshlagan «yori»ning yuziga qo'ngan pashshalarni haydardi. Agar Donning naryog'ida pulemyot tarillamaganda, Mingulindami yo Kazanskdami, allaqaysi yoqlarda otilayotgan to'plarning gumburlagan ovozi suv orqali eshilib turmaganda, Don bo'yiga o'roqchilar ko'chib chiqibdi, deb o'ylash mumkin edi, chunki Gromki sotnyasi frontning oldingi chizig'iga joylashganiga qaramay, mutlaqo harbiy qismga o'xshamay qolgandi.

Besh yillik urush mobaynida Grigoriy bunday g'alati pozitsion urush manzarasini birinchi marta uchratdi. U kulgisini to'xtatolmay, yerto'lalar yonidan o'tib borar va har qadamda ayollarni ko'rardi: ular erlarining yirtiq-yamog'ini tikishar, kirlarini yuvishar, ovqat pishirishar va yengil-yelpi tushlikdan so'ng idish-tovoq yuvishga tushishardi.

Grigoriy yuzboshining yerto'lasiga qaytib kelgach:

— Turmushlaring yomon emas! Shinam... — dedi.

Yuzboshi kuldi:

— Turmush emas — nuqul rohat.

— Judayam haddan oshirvoribsiz! — Grigoriy qovog'ini soldi. — Xotinlarni bu yerdan tezroq yo'qot! Urushdayam shunaqa bo'ladimi?.. Bu yer bozormi, yarmarkami? Bu nimasi, axir? Bu ahvolda qizillar Dondan o'tganini eshitmay qolasiz: xotinlarning qo'yniga kirib olgandan keyin, qizillar esga kelarmidi... Hali qorong'i tushgandan keyin hamma sochi uzunlarni hayda! Ertaga kelganimda bironta yubkalikni ko'rsam, eng avval sening kallangni olaman!

— Rost aytasiz, — deb ko‘na qoldi yuzboshi. — O‘zim ham xotinlardan bezorman, biroq kazaklar ko‘nmasa, nima qilaylik, axir! Intizom susayib ketdi... Xotinlari ham erlarini sog‘ingan, axir uch oydan beri urushdan bo‘shamaymiz!

Yuzboshi sholg‘omday qizarib, supachaga o‘tirdi, supacha ustida yotgan qizil fartukni orqasi bilan to‘smoqchi bo‘ldi, Grigoriyga teskari qarab olib, yerto‘laning burchagiga to‘sib qo‘yilgan sholcha tomon xo‘mrayib tikildi, chunki sholchaning orqasidan uning o‘z xotini qopqora ko‘zlari bilan kulib, mo‘ralab turgan edi.

## LXII

Aksinya Astaxova Vyoshenskayaga kelib, stanitsaning chetida, yangi cherkovdan sal nariroqda istiqomat qiluvchi xolasinikiga tushdi. Birinchi kuni u Grigoriyni izlash bilan o‘tkazdi, biroq Grigoriy hali Vyoshenskayaga kelmagandi, ikkinchi kuni hamma ko‘cha-yu tor ko‘chalarda kechgacha o‘q vizillab, to‘p o‘qlari portlab turganligidan Aksinya uydan bosh suqib chiqqan olmadi.

Aksinya mehmonxonadagi sandiq ustida yotib, so‘lg‘in lablarini tishlab xayol surar: «Birga turaylik, deb meni Vyoshkiga chaqirtirib, o‘zi allaqaysi go‘rlarda yuribdi!» — deb xunob bo‘lardi. Qampir xolasi deraza oldida paypoq to‘qib o‘tirar va har gal to‘p otilganda cho‘qinardi.

— Xudoyo o‘zing asra! Vahimasi qursin-ey! Nega urusharkin bular. Bir-birlari bilan nega qirpichoq bo‘lisharkin?

Ko‘chada, uydan o‘n besh sarjin nariroqda to‘p o‘qi portladi, deraza ko‘zlari jaranglab, chil-chil bo‘ldi.

— Xolajon! Derazadan qoching, axir, sizni otib qo‘yishlari mumkin! — deb yalindi Aksinya.

Kampir ko‘zoynak tagidan unga kulib qaradi, afsuslanib javob qaytardi:

— Ey, Aksyushka! Qarab tursam, haliyam aqling kirmabdi. Men nima, qizillarga dushmanmanmi? Surishtirmay-netmay, meni bekor-dan bekorga nega otishsin, axir?

— Bilmasdan otib qo‘yishadi! O‘qlari qayerga tushganini koshki ular ko‘rsa...

— Meni otib bo‘pti! Ular baloni ko‘radi! Kazaklarga o‘q otishyapti, qizillarning dushmani kazak, men bechora, beva kampirni boshlariga urarmidi? Ular biladi, miltig‘-u to‘plaridan kimni mo‘ljalga olish kerakligini juda yaxshi bilishadi.

Ayni tush payti Grigoriy ot bo‘yniga engashib olganicha, to‘g‘ri, pastki muyulish tomon ot choptirib o‘tdi. Aksinya uni derazadan ko‘rib qolib, yuguranicha, aymoqi tok o‘rab olgan zinapoyaga chiqdida: «Grisha...» deb chaqirdi, biroq Grigoriy muyulish orqasida g‘oyib bo‘ldi, faqat ot tuyoqlari ostidan ko‘tarilgan chang ko‘chaga sekin-sekin qo‘nmoqda edi. Ketidan yugurishning foydasi yo‘q edi. Aksinya zinapoyada birpas turib qoldi, nihoyat, alamiga chidolmay yig‘lab yubordi.

— Chopib o‘tgan Stepan emasmi? Nega buncha hovliqib yugurib chiqding? — deb so‘radi xolasi.

— Yo‘q... Bizning qishloqlik bir odam... — ko‘z yoshi aralash javob berdi Aksinya.

— Bo‘lmasa, nega yig‘lading? — deb gumonsirab tekshiraverdi kampir.

— Sizga nima daxli bor, xola? Aytganim bilan baribir tushunmay-siz!

— Hammani qo‘yib biz tushunmas ekanmiz-da. Aytmasang ham ot choptirib o‘tgan odam suyganing ekanini bilib turibman. Bo‘lmasamchi! Bekordan bekorga baqirib-chaqirmasding... Meniyam boshimdan o‘tgan, bilaman axir!

Kechqurun Proxor Zikov uyga kirib keldi.

— Yaxshi yuribsizmi, onajon? Siznikiga Tatarskdan hech kim kelmadimi?

— Proxor! — suyunganidan chinqirib, mehmonxonadan yugurib chiqdi Aksinya.

— Voy, qiz o‘lmagur, rosa sarson qilding-a! Seni izlab oyog‘imda oyoq qolmadi! Qanaqaligini bilasan-ku! Qaysarligi dadasinikidan oshib tushadi. Hamma yoqda qasir-qusur, tirik jon pisib yotibdi-ku, u bo‘lsa: «Hozir topib kelasan, yo‘qsa, teringni shilib olaman!» deydi, xolos.

Aksinya Proxorning ko‘ylak yengidan ushlab dahlizga sudradi.

— Qayerda u badbaxt?



— Hm... Qayerda bo'lardi? Pozitsiyadan piyoda keldi. Ostidagi oti bugun o'q yeb o'libdi. Xuddi zanjirdagi ko'ppakday quturib qaytdi. «Topdingmi?» — deb so'radi. «Qayerdan topaman, axir? Yerga kirdimi, osmonga uchdimi, qaydan bilay!» dedim. «Odam igna emas, topasan», — deb menga bir o'shqirdiki... Xuddi odam qiyofasidagi bo'rining naq o'zginasi?

— U nima deb tayinladi?

— Mayda-chuydalaringni yig'ishtir, boshqa gap ketmaydi!

Aksinya birpasda tugunini tugdi, xolasi bilan naridan beri xayrlashdi.

— Stepan yuboribdimi?

— Ha, Stepan yuboribdi, xolajon!

— Salom deb qo'ygin. Nega o'zi kela qolmabdi? Sut ichardi, ana, shuncha chuchvara ortib qoldi, yeb olardi...

Aksinya gapning oxirigacha quloq solmay, uydan chopib chiqdi.

Grigoriy turgan hovliga yetguncha halloslab qoldi, rangi oqarib ketdi, shu qadar tez yurdiki, pirovardida Proxor unga yalina boshladi.

— Menga quloq sol! Men ham yoshligimda qizlar ketidan ko'p yugurganman, lekin umrimda hech qachon senchalik shoshgan emasdim. Sabring chidamay, o'lib boryapsanmi o'zing? Yo seni yov quvdimi? Nafasim tiqilib qoldi-ku! Qumloq yerda shunaqa chopib bo'ladimi? Ikkovingning ham qiliqlaring g'alati: biring-biringdan battarsan...

Proxor ichida: «Bular yana topishdi... Endi bularni hech kim ajratolmaydi. Rohatini ikkisi ko'radi-yu, men bu ahmoqni o'q ostida yugurib-yelib qidirib yursam... — deb o'ylanardi. — Xudo ko'rsatmasin, agar Natalya eshitib qolsami, xuddi boshimdan suv quyadi... Korshunovlar avlodini ko'p yaxshi bilamiz. Arar mastlikda falokat bosib ot bilan miltig'imni yo'qotmaganimda, o'la qolsam ham sen taviyani qidirmasdim! O'zlaring iscashgansan, o'zlaring topishaver!»

Deraza qopqoqlari mahkam berkitilgan uyda qora chiroq tutab yonardi. Grigoriy stol yonida o'tirardi. U endigina miltig'ini tozalab olgan edi, mauzer tig'ini artib bo'lmasdan eshik g'irchillab ochildi. Aksinya ostonada to'xtab qoldi. Oppoqqina, ensiz peshonasi terlab suv bo'lib ketgandi, dokaday oqargan yuzlariga, yeb qo'yguday o'qrayib, o'tday chaqnagan g'azabnok ko'zlariga bir qarashdayoq, Grigoriyning yuragi sevinchga to'lib, orziqib ketdi.

— Meni chaqirtirib... o‘zing bo‘lsa... qorangni ko‘rsatmay-san... — harsillab gapirardi Aksinya.

Uning uchun hozir, xuddi qadimdagidek, ishq-muhabbatlarining dastlabki davridagidek, dunyoda Grigoriydan boshqa hech narsa qolmagan edi. Grigoriy bo‘lmasa, olam uning ko‘ziga qorong‘i, agar u qoshida bo‘lsa, olam yorug‘, guliston edi. Aksinya Proxordan uyalmay, chopib borib Grigoriyning bo‘ynidan mahkam quchoqlab oldida, yig‘lab-siqtab, oshig‘ining soqoli tikandek betlaridan, burun-u peshonasidan, lab-u ko‘zlaridan cho‘lpillatib o‘paverdi, o‘ksib-o‘ksib:

— Sarg‘ayib somon bo‘ldim! Adoyi tamom bo‘ldim! Grishenka! Jondan azizim mening! — deb shivirladi.

— Ana... Ana, xolos!.. Shoshmasang-chi, axir!.. Aksinya, qo‘y endi. — Grigoriy xijolat chekib chuldirar, Proxordan ko‘zini olib qochib, yuzini teskari o‘girardi.

U Aksinyani kursiga o‘tirg‘izdi, bo‘yniga tushib ketgan shol ro‘molini olib, hurpaygan sochlarini siladi.

— Judayam g‘alatisan-a...

— Ilgari qanday bo‘lsam, o‘shandayman! Lekin sen...

— Yo‘q, xudo ursin, senga jin tegibdi! Aksinya qo‘lini Grigoriyning kiftiga qo‘yib, ko‘z yoshi aralash kulib, tez-tez gapira boshladi:

— Shuyam ish bo‘ptimi? Meni chaqirtiribsan... Men hamma narsamdan kechib... piyoda kelsam-u... sendan darak bo‘lmasa... Ko‘chadan o‘tib qolding, men uydan chiqa solib chaqirdim, sen muyulishda ko‘rinmay ketding... Seni otib qo‘yishsa nima bo‘lardi? Diydor ko‘rishmay qolaverardim...

U yurakdan chiqarib yana allanimalar der, eng shirin so‘zlar bilan Grigoriyini erkalatib, aylanib-o‘rgilar, qo‘llari uning kiftlarini silashdan to‘xtamas, itoatkor ko‘zlari bilan uning ko‘zlariga tikilib to‘ymasdi.

Aksinyaning boqishlarida qandaydir ojjizlik va ma‘yuslik ifodasi bor edi, lekin ayni zamonda ko‘zlari o‘lim vahmiga tushgan bo‘riniki singari ola-kula bo‘lib turardi, uni ko‘rgan sari Grigoriy o‘ng‘aysizlanib, yurak-bag‘ri ezilardi.

Grigoriy oftobda kuygan kipriklari bilan ko‘zlarini berkitib zo‘rma-zo‘raki iljayar, churq etmasdi, biroq Aksinyaning betlari tobora cho‘g‘day qizarib, lovullab yonar, ko‘z qorachiqlarini ko‘kintir tuman qoplaganday bo‘lardi.

Proxor xayrlashmasdan chiqib ketdi, dahlizda yerga tufladi-da, tu-fugini oyog'i bilan ishqalab tashladi.

— Bosh og'rig'i! — dedi u zinadan tushayotib. zardasi qaynagani-dan jo'rttaga eshikni taraqlatib yopib ketdi.

## LXIII

Ikkisining tong otgani bilan ham, kun botgani bilan ham ishi yo'q edi. Hamma narsani unutib, xuddi tushdagiday, bir yostiqdand ikki kecha-kunduz bosh ko'tarishmadi. Ba'zan Grigoriy kaltagina mast uyqu-dan uyg'onar va g'ira-shira qorong'ilik orasida Aksinyaning astoydil sinchkovlab unga tikilib turganini ko'rardi. Aksinya ko'pincha kaftini jag'iga tirab, yonboshlab yotar va ko'zlarini yummay tikilardi.

— Nega tikilasan? — so'radi Grigoriy.

— Diydingga to'yib olmoqchiman... Seni o'ldirishadi, menga ayon bo'ldi.

— Hay, mayli, ayon bo'lsa, rosa ko'rib ol, — deb kuldi Grigoriy.

Uchinchi kuni u ko'chaga chiqdi. Kudinov ertalabdan beri ustma-ust odam yuboraverib, majlisga chaqirtiraverib bezor qilgandi. «Bor-mayman. Majlisni mensiz o'tkazaversin», — deb choparlarni qaytar-gandi Grigoriy.

Proxor unga shtabdan boshqa bir ot topib keldi, kechasi Gromki-dagi sotnyaga borib, o'sha yerda qolgan egarini keltirdi. Aksinya Gri-goriyning jo'nash taraddudiga tushganini ko'rib, kapalagi uchib ketdi:

— Qayoqqa? — deb so'radi.

— Tatarskka borib qaytaman, biznikilar qishloqni qanday mudofaa qilayotganini ko'rib kelaman, o'shanaqasi oilam qayerdaligini surish-tirib ko'raman.

— Bolalaringni sog'indingmi? — Aksinya sovqotganday, qora-mag'izdan kelgan kiftlarini shol ro'mol bilan o'rab oldi.

— Sog'indim.

— Bormasang bo'lardi, a?

— Yo'q, boraman.

— Bormagin! — deb yalindi Aksinya; uning chuqur tushib ketgan ko'zlari o'tday chaqnaq ketdi. — Demak, mendan ko'ra senga oila aziz ekan-da? Shundaymi? Ko'ngling ham u yoqda, ham bu yoqda

ekan-da? Unday bo'lsa, meni ham yoningga olivol, Natalya bilan bir amallab chiqishib ketarmiz... Ha, mayli! Jo'nayver! Mening oldimga qaytib kela ko'rma! Yonimga yo'latmayman. Bunaqa maynabozchilik-ka tobim yo'q!.. Xohlamayman!

Grigoriy indamay hovliga chiqdi-yu, otga mindi.

\* \* \*

Tatarsklik piyoda sotnya kazaklari transheya qazishdan erinishdi.

— Bu ahmoqlarning topgan ishini ko'ring, — deb po'ng'illardi Kristonya. — Biz nima, german frontidamizmi? O'zimiz bilgan rosmana okopdan qolmaylik, tizza bo'yi qilib okop qaziyyeringlar, birodarlar. Bunday o'ylab ko'ringlar: shunday zarang yermi ikki gaz churur qilib kovlab bo'ladimi? Belkurak u yoqda tursin, bunga metin ham o'tmas...

Kazaklar uning gapiga kirib, chap qirg'oqni tikkasiga kesib tushgan jar tepasidan yotish uchun okoplar qazishdi, o'rmon ichida yer-to'lalar qilib olishdi.

— Mana endi biz ham sug'urchasiga kun kechiraveramiz! — deb askiya qilardi xafagarchilik nimaligini bilmaydigan Anikushka. — Inlarga kirib yashayveramiz, o'tmi, cho'pmi oshayveramiz, doim sizga qaymoqli yupqa, go'sht-yog', sterlyad solingan ugra qayoqda?.. Isma-loqqa tobingiz yo'qmi?

Qizillar tatarskliklarni unchalik bezovta qilishmasdi. Qishloq qarshisiga to'p ham o'rnatilmagandi. Ahyon-ahyonda o'ng qirg'oqdan pulemyot tarillab, okopdan bosh chiqargan poyloqchi kazaklarga qarata kalta-kalta qilib o't ochardi-da, yana hamma yoq anchagacha jimib qolardi.

Qizil askarlarning okoplari tog'da edi. O'sha tomondan ham ba'zan o'q chiqib turardi, lekin qizil askarlar qishloqqa faqat kechalari tushishar va ko'p to'xtamay chiqib ketishardi.

\* \* \*

Grigoriy kechga yaqin o'zi o'ynab-o'sgan joyga yetib keldi.

Bu yerdagi hamma narsa unga tanish edi, har tup daraxt bir xotirani esiga solardi... Yo'l Qizdalaning o'rtasidan o'tardi; kazaklar har yili Pyotr kunida pichanzorni taqsimlab bo'lganlaridan so'ng shu yerga ke-

lib aroq ichishardi. Sayhonlikka suqulib kirgan daraxtzorni «Alyoshka o'rmonchasi» deb atalardi. Qadimgi zamonda, bu nomsiz o'rmonchada tatarsklik Aleksey ismli kazakning sigirini bo'rilar bo'g'ib ketgan ekan. Aleksey o'lib, hammaning esidan chiqib ketgan bo'lsa ham, hatto familiyasini qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lari unutilib yuborgan bo'lsa ham, uning nomiga qo'yilgan o'rmonchada hanuzgacha qayrag'och va eman daraxtlari ko'm-ko'k bo'lib qad ko'tarib turadi. Bu daraxtlarni tatarsklik kazaklar ro'zg'orga kerakli har xil narsaga ishlatish uchun kesib olishadi, lekin ildizi baquvvat to'nkalar ko'klamda yangidan surx novda chiqarib, bir-ikki yilning ichida «Alyoshkaning o'rmonchasi» yana asliga qaytadi: yozda firuzaday yam-yashil bo'lib yashnayveradi, kuz kelsa, tilladan libos kiyib oladi, jimjimador eman barglari ertalabki quyosh shu'lasida zarvaraqday tovlanadi.

Yoz kunlari Alyoshka o'rmonchasida namxush yer betini sertikan maymunjon butalari o'rab oladi, eski patlarini tashlab, yangidan bezanib olgan ko'k qarg'a-yu, zag'izg'onlar kattakon qayrag'ochlar tepasiga uya solishadi, hamma yoqni eman yong'oqlari bilan xazon-barglarning yoqimli va o'tkir hidi bosib ketgan kuz mahalida esa, janubga uchib ketayotgan loyxo'raklar bu o'rmonchaga qo'nib o'tishadi; qishda esa hamma yoqni choyshabdek qoplab olgan qor ustiga qator-qator tulki izlari tushib qoladi. Grigoriy o'spirinlik chog'ida tulkiga qopqon qo'ygali Alyoshka o'rmonchasiga ko'p kelar edi...

Hozir u soya-salqin daraxtzor ichidan, o't bosgan bulturgi arava izi bilan bormoqda edi. Qizdaladan o'tib, Qora jarga yetganida, birdaniga yoshlik xotiralari esiga tushib, yuragi orziqib ketdi. Bir vaqtlar u ana shu uch terakning yonidagi ko'lobchada, hali uchirma bo'lmagan yovvoyi o'rdak jo'jalarini tutmoqchi bo'lib quvlagan, to'garak ko'lda azondan kechgacha baliq ovlagan edi... Sal nariroqda sadaday o'sgan bir tup bodrezak yolg'iz o'zi bir chetda qaqqayib qarimoqda. Bu daraxt Melexovlar qo'rasidan bemalol ko'rinadi. Grigoriy har yili kuzda peshayvonga chiqib, olisdan qip-qizil cho'g'day yallig'langan bu bodrezakni tomosha qilardi. Rahmatli Petro uning nordon va taxir mevasi solingan somsani biram yaxshi ko'rardiki...

Grigoriy bolalik chog'idan o'ziga oshna bo'lgan joylarni ko'zdan kechirar ekan, ma'yuslanardi. Ostidagi ot havoda g'uj-g'uj bo'lib qaynagan pashshalarni, jigarrangli qonxo'r chivinlarni dumi bilan qo'rib,

imillab borardi. Yam-yashil bug'doyiq bilan yovvoyi suli shamolda ohista boshlarini egar, pichanzor ko'm-ko'k suv to'liqiniga o'xshab jimirlashardi.

Grigoriy tatarsklik piyoda kazaklar okopiga yetgach, dadasini chaqirib kelgani odam yubordi. Chap qanotdagi okopning bir burchidan Xristonyaning baqirgan ovozi eshitildi:

— Prokofich! Tezroq bor, Grigoriy kelganga o'xshaydi!..

Grigoriy otdan tushib, tizginni Anikushkaning qo'liga berdi, olisdan oqsab, tez-tez yurib kelayotgan otasini ko'rdi.

— Hormang, xo'jayin!

— Salom, dada.

— Keldingmi?

— Zo'rg'a fursat topib keldim-da! Xo'sh, uydagilar qalay? Onam bilan Natalya qayerda?

Panteley Prokofyevich qo'l siltab, yuzini bujmaytirdi. Qop-qora betidan ko'z yoshi oqib tushdi...

— Ha, nima gap? Ularga bir nima bo'ldimi? — xavotirlanib so'radi Grigoriy.

— O'sha yoqda qolishdi...

— Nega endi?

— Bu yoqqa o'tishimizdan ikki kun ilgari Natalya to'satdan yotib qoldi. Terlama kasaliga yo'liqqan bo'lsa kerak... Onang bo'lsa, uni tashlab ketgisi kelmadi... Ko'p tashvishlanaverma, bolam, u yoq tinchlik, ularga hech kim tegmaydi.

— Bolalar-chi? Mishatka? Polyushka?

— Bolalar ham o'sha yoqda. Ammo Dunyashka bu yoqqa o'tib keldi. U yoqda qolgani qo'rqdi... O'zingga ma'lum, qiz bolaning ishi qiyin. Hozir u Anikushkaning xotini bilan Voloxovga ketdi. Men ikki marta uyda bo'ldim. Kechasi qayiq bilan daryodan sekingina o'tib, xabar olib qaytdim. Natalyaning ahvoli juda og'ir, bolalaring, xudoga shukur, tuppa-tuzuk yurishibdi... Natalyushka o'zini bilmaydi, isitmasi zo'r, lablari qovjirab, qonab ketibdi.

— Nega ularni bu yoqqa olib o'tmadingiz, a? — g'azablanib baqirdi Grigoriy.

Cholning jahli chiqdi, ovozi qaltiraganidan o'g'lining gapi unga alam qilganligi bilinib turardi. U:

— O‘zing qayoqda yuruvding? Birrov uyga kelib, ularni daryodan o‘tkazib qo‘yishga qo‘ling tegmadimi? — deb ginaxonlik qildi.

— Menda diviziya bor! Men diviziyani daryodan o‘tkazishim kerak edi! — deb e‘tiroz bildirdi Grigoriy tajang bo‘lib.

— Eshitdik, Vyoshkida nima qilib yurganingni... Bola-chaqa kerak bo‘lmay qolibdi-da, a? Hoy, Grigoriy, ko‘zingni och! Odamlarni o‘ylaging kelmasa, loaqal, xudoni o‘ylagin... Men boshqa joyda daryodan o‘tdim, shu yerda bo‘lganimda hammasini o‘zim olib o‘tmasmidim? Mening vzvodim Yelanda edi, bu yerga yetib kelgunimcha qizillar qishloqni olib qo‘ygan ekan.

— Men Vyoshkida!.. Buni sizga aloqasi yo‘q... Siz menga... — Grigoriyning ovozi xirillab, bo‘g‘ilib qoldi.

— Men bir nima dedimmi? — chol qo‘rqib ketdi, xijolat tortib, nariroqda to‘planib turgan kazaklarga qarab qo‘ydi. — Men u to‘g‘rida og‘iz ochganim yo‘q... Sekinroq gapir, axir, odamlar eshit-yapti... — Chol pichirlab so‘zlashga o‘tdi. — Yosh bola emassan, o‘zing ham tushunishing kerak. Oila to‘g‘risida ko‘p qayg‘urma. Xudo xohlasa, Natalya tuzalib ketadi, qizillar ularga tegayotgani yo‘q. Ammo bir yashar g‘unajinchani so‘yib yeyishibdi. Mayli, hechqisi yo‘q. Xudo insof berib, bezovta qilayotganlari yo‘q. Qirq chorakcha donimizni olishibdi. Urush ziyon-zahmatsiz bo‘lmaydi, bolam!

— Haliyam bo‘lsa, ularni olib o‘ta qolsakmikin, a?

— Menimcha, hech keragi yo‘q. Avvalo, kasalni qayerga joylash-tirasan? Ikkinchidan, daryodan o‘tish juda xavotirli. Ularga o‘sha yoq tinch. Kampir uy-ro‘zg‘orga qarab turadi, meniyam ko‘nglim to‘q bo‘ladi, axir qishloqda ko‘p uylarga o‘t qo‘yildi.

— Kimlarning uyiga o‘t ketdi?

— Maydon butunlay kuydi, ko‘pchiligi savdogarlarning uylari. Korshunov qudamniki butunlay kuyib bo‘ldi. Qaynanang Lukinichna hozir Andropovoda. Grishak buva bo‘lsa, uy poylagani qolibdi. Onang menga gapirib berdi. Grishak buva «O‘z qo‘ramni tashlab hech qayoqqa bormayman, xudo bezorilar mening oldimga kirib bo‘pti, butdan qo‘rqishadi», — deganmish. Pirovardida miyasi butunlay ayniy bosh-ladi. Ma‘lum bo‘ldiki, qizillar uning butidan qo‘rqmaptilar: uyi-yu, qo‘radagi tamomiy imoratlari alanga ichida qolib ketibdi, biroq chol-

dan darak yo'q... Yoshini yashab, oshini oshab bo'ldi. Vaqt-soati keldi. O'ziga tobut yasatib qo'yaniga yigirma yil bo'ldi-yu, haliyam tirik... Aytganday, qishloqqa o't qo'yayotgan — sening do'sting, xudoyo juvonmarg bo'lsin!

— Kim?

— Mishka Koshevoy, ming la'nat shunday odamga!

— Yo'g'-e?

— Xudo ursin, o'sha! Uyga kiribdi, seni surishtiribdi. «Narigi yoqqa o'tganimizdan keyin birinchi navbatda Grigoriyning bo'yniga sirtmoq solinadi. Eng baland eman daraxtiga osaman, qilichimni unga tegizib, harom qilib o'tirmayman», — debdi onangga. Meni so'rabdi, jahli chiqib: «Cho'loqqa u yoqda pishirib qo'yiymikin? Uyda qolib, pech ustida yotaversa bo'lmasmidi? Qo'limga tushsa, o'ldirmayman-u, ammo qamchi bilan shunday savalaymanki, umrbod esdan chiqmaydigan bo'ladi», — debdi. Do'sting shunaqa rasvoyi jahon chiqdi! Qishloqda ko'chama-ko'cha yurib, savdogarlar bilan poplarning uylariga o't qo'yarmish: «Ivan Alekseyevichning hamda Shtokmanning xuni uchun butun Vyoshkning kulini ko'kka sovuraman!» — dermish. Bununisiga nima deysan?

Grigoriy yarim soatcha otasi bilan gaplashdi-da, otining yoniga ketdi.

Chol Aksinya to'g'risida yana og'iz ochmaganligiga qaramay, baribir, Grigoriyning dili siyoh bo'lgan edi. «Dadamki eshitgandan keyin, demak, bilmagan odam qolmabdi? Kim aytgan bo'lishi mumkin? Proxordan boshqa kim bizni ko'rgan? Nahotki, Stepan ham bilgan bo'lsa?» Grigoriy azbaroyi uyalganidan tishlari g'ijirlab ketdi.

Kazaklar bilan biroz gaplashib turdi. Anikushka, hazillashib, sotnyadagilarga bir necha chelak qo'lbola aroq keltirib berishni iltimos qildi.

— Bizga patron ham kerakmas, faqat aroqijon bo'lsa, bas! — deb hoholardi u ko'zini qisib; u ko'ylagining kir yoqasiga ma'noli qilib chertib qo'ydi.

Grigoriy asrab qo'ygan tamakisi bilan Xristonyani va boshqa hamqishloqlarini siyladi; nihoyat jo'nash oldida Stepan Astaxovni ko'rdi. Stepan yaqin kelib, shoshmasdan so'rashdi, biroq qo'l berib ko'rishmadi.



Grigoriy qo'zg'olon ko'tarilgandan beri unga birinchi marta duch kelgan edi, shuning uchun sinchkov nazar tashlab, bezovtalanib: «Eshitkanmikin?» deb hadiksirab turardi. Lekin Stepanning chiroyli qotma yuzi ilgariqiday beg'ubor, qaytaga xursand ekani ko'rinib turardi; Grigoriyning ko'ngli joyiga tushib: «Yo'q, eshitishmabdi!» deb erkin nafas oldi.

## LXIV

Grigoriy o'z diviziyasi joylashgan yerlarni aylanib chiqib, ikki kundan so'ng qaytib keldi. Qo'mondon shtabi Chyorniy qishlog'iga ko'chib o'tgan edi. Grigoriy Vyoshenskaya yonida otiga yarim soatcha dam berib, sug'ordi-da, stanitsaga kirmasdan, to'g'ri Chyorniya jo'nadi.

Kudinov uni kutib oldi, kulimsirab yuziga tikildi-da, hazil aralash:

— Xo'sh, Grigoriy Panteleyevich, nimalarni ko'rding? Qani, so'zlab ber, — dedi.

— Kazaklarni ko'rdim, do'ngda yurgan qizillarni ko'rdim.

— Ho, ancha narsa ko'ribsan-ku! Bu yerga uchta aeroplan keldi, patron olib keldi, g'alati xatlar bor...

— Ulfating general Sidorin nima deb yozibdi senga?

— Mening jo'ram, — deb so'zida davom etdi Kudinov. — Kuching boricha qattiq turgin, qizillarni daryodan o'tkazmagin, deb yozibdi. Don armiyasi bugun-erta qat'iy hujumga o'tadi, debdi. — U nihoyatda xursand, hali ham boyagiday, hazil aralash gapirardi.

— Shirin gaplar.

Kudinov jiddiylashdi.

— Frontni yorib o'tishga shaylanishi. Yolg'iz senga aytyapman, butunlay maxfiy gap bu! Bir haftadan keyin Sakkizinchi Qizil Armiyaning frontini yorib, o'tishadi. O'shangacha mahkam turib berishimiz kerak.

— Haliyam mahkam turibmiz.

— Gromkida qizillar daryodan o'tishga tayyorgarlik qilishyapti.

— Haliyam taraqqaturlari to'xtamabdimi? — hayron bo'lib so'radi Grigoriy.

— To‘xtamabdi... Qani, ayt-chi, nima ko‘rding? Qayerlarda bo‘lding? Vyoshkida maza qilib dam olding, shekilli? Balki hech yoqqa bormagandirsan? O‘tgan kuni butun stantsani tit-pit qilib, seni rosa qidirtirdim. Axiri yuborgan odamlarimdan biri: «Melexov uyida yo‘q, ichkaridan ko‘zlari shishgan chiroyli bir xotin chiqib: «Grigoriy Panteleyevich jo‘nab ketdi», deb javob berdi, deydi. «O‘ylab turib men ham: «Balki komdivimiz jonon bilan aysh-ishratdan bo‘shamay, bizdan qochib yuribdimi?» degan xayolga bordim.

Grigoriyning qovog‘i osilib ketdi. Kudinovning hazili unga yoqmadi.

— Sen yolg‘onchilarning gapiga kamroq quloq solsang, ordnaretslarning ham tili qisqarog‘ini tanlab olsang yaxshi bo‘lardi. Mabodo mening oldimga tili uzunlarini yuboradigan bo‘lsang, tili-ni qilich bilan kesib olaman... minba‘d yolg‘on-yashiq gapirmaydigan bo‘ladi.

Kudinov hoholab kuldi, Grigoriyning kiftiga qoqib qo‘ydi,

— Ozib-yozib bir hazillashsam shuyam malol keldimi senga? Qo‘y, hazilni bas qilaylik! Senga jiddiy gapim bor. Avvalo, bizga bitta «tilchi» zaril bo‘p qoldi, shuni tutib kelish kerak — bu bir, ikkinchidan, Kazansk chegarasi atrofidagi biron joydan ikki sotnya suvoriyni kechasi daryoning narigi betiga o‘tkazib, qizillarni bezovta qilsak yaxshi bo‘lardi. Balki to‘g‘ri Gromkiga o‘tib, yuraklariga g‘ulg‘ula solsak, a? Sen nima deysan?

Grigoriy o‘ylanib qoldi, nihoyat javob berdi.

— Chakki bo‘lmas, deyman.

— Masalan, sen, — Kudinov «sen» so‘zini chertib gapirdi, — shu sotnyalarga bosh bo‘larmiding?

— Nima uchun men?

— Bunga dovyurak komandir darkor, mana shuning uchun! Nihoyatda o‘tkir komandir bo‘lishi shart, chunki bu hazilakam ishmas... O‘tishga o‘tib olib, hammasi o‘sha yoqda qirilib ketmasin tag‘in!

Grigoriyning boshi osmonga yetib, o‘ylamay-netmay ko‘na qoldi:

— Boraman, albatta!

Kudinov o‘rnidan turib, mehmonxona polini g‘ijirlatib u yoqdan bu yoqqa yurib, qizishib gapira boshladi:

— Bu yerda biz o‘ylab-o‘ylab, shunday reja tuzdik: judayam olislab orqa tomonga o‘tish kerak emas, faqat Don atrofidagi ikki-uch qishloqqa kirib, ularni shunday boplash kerakki, qochgani joy topolmay qolishsin, so‘ngra patron, to‘p o‘qi o‘lja qilib, asirlarni haydab, borgan yo‘ldan yana qaytish kerak. Bir kechada shu ishning hammasini bajarib, tongotar mahalida kechuvda bo‘lish kerak. To‘g‘rimi? Gap shunday, sen buni o‘ylab chiqqin, ertaga istagan kazaklaringni yoningga olgin-u, tavakkal qilib jo‘nayver. Biz: bu ishni yolg‘iz Melexov eplay oladi, degan qarorga kelganmiz. Bajarsang, Don qo‘shini bu xizmatini unutmaydi. O‘zimiznikilar bilan qo‘shilgan zahoti, men bu xususda qo‘shin atamaniga raport yozib yuboraman. Hamma xizmatlaringni birma-bir ko‘rsatib, senga baland darajali...

Kudinov Grigoriyga ko‘z tashladi-yu, gapi og‘zida qoldi: shu damgacha indamay turgan Grigoriyning sokin chehrasi birdan o‘zgarib, g‘azabdan tutaqishgan yuzi tirishib, bo‘riqib ketdi.

— Men senga nima?.. — Grigoriy chaqqonlik bilan qo‘llarini orqaga qilib, shartta o‘rnidan turdi. — Meni mansab uchun o‘lib yuribdi deb o‘yladingmi hali?.. Malay qilib yollamoqchimisan?.. Baland daraja va‘da qilmoqchimisan?.. Bilasanmi, men...

— Shoshmasang-chi, axir!

— ... Mansablaringga tufuraman!

— Shoshmagin! Sen meni noto‘g‘ri...

— ... Tufuraman!

— Meni noto‘g‘ri tushunibsan, Melexov!

— Yaxshi tushundim! — Grigoriy chuqur nafas olib, yana taburetka o‘tirdi. — Boshqa odam top, men kazaklarni Dondan olib o‘tmayman!

— Bekorga qizishyapsan, Grigoriy?

— O‘tmayman, dedim — vassalom! Bu to‘g‘rida endi og‘iz ochma.

— Men seni majbur ham qilmayman, yalinmayman ham. Istasang bor, istamasang, ixtiyor o‘zingda. Ahvolimiz nihoyatda tang bo‘lganligi uchun qizillar yuragiga g‘ulg‘ula solib, daryodan o‘tishga tayyorgarlik ko‘rishlariga xalaqit bermoqchi edik. Darajangni oshirish to‘g‘risidagi gapim — anchayin hazil! Hazil-

niyam bilmaysanmi? Xotin to'g'risidagi boyagi gapim ham hazil edi, qaragam, o'zingdan o'zing xunob bo'lyapsan, qani, yana picha qitig'iga tegay-chi, deb yana hazillashdim-da! Hamma bilmasa ham, seni men bilaman: bolshevik bo'lishingga sal qolgan, darajamansab degan narsani yoqtirmaysan. Sen hali hazilimga chindan ishonib yuribsanmi? — Kudinov o'zini oqlamoqchi bo'lib, shu qadar rostakam kulardiki, hatto Grigoriy bir lahza dudmallanib: «Darvoqe, hazillashib gapirgan bo'lsa ajab emas», degan xayolga ham bordi. — Sen bo'lsang, birodar... ha-ha-ha!.. Bekordan bekorga hovliqib ketding-a! Xudo ursin, hazillashuvdim! Jig'ingga tegmoqchi edim...

— O'lsam ham endi Donning narigi betiga o'tishga unamayman, boyagi fikrimdan qaytdim.

Kudinov kamarining uchini o'ynab, anchagacha indamay turib qoldi, nihoyat:

— Ha, mayli, fikringdan qaytdingmi yo qo'rqib ketdingmi, hech ahamiyati yo'q. Bizning rejamizni buzyapsan, shu yog'i chattoq, xolos! Biz, albatta, boshqa birovni topib yuboramiz. Olamda sendan boshqa odam qurib ketmagandir... Lekin ahvolimiz nihoyatda tangligini o'zing ham ko'rib turibsan. Bugun Kondrat Medvedov Shumilin stanitsasida qo'lga tushgan yangi bir buyruqni menga yuboribdi. Qizillar bizning ustimizga askar yuborishyapti ekan. Mana, buyruq, o'zing o'qib ko'r, yo'qsa, bungayam ishonmassan... — Kudinov harbiy sumkasidan, chetlariga qon tegib qotib qolgan bir varaq sariq qog'ozni olib, unga uzatdi. — Allaqanday internatsional rotaning komissari yonidan chiqibdi. Komissar latish ekan. So'nggi patroni tugaguncha otishibdi, ablah, o'qi tamom bo'lgandan keyin miltig'ining nayzasini to'g'rilab, bir vzvod kazaklar ustiga tashlanibdi. Ulardayam shunaqalar bo'ladi, maslaku uchun jonidan kechvoradi... Komissarni Kondratning o'zi qulatabdi. Uning ko'krak cho'ntagidan manavi buyruqni topib, menga yuboribdi...

Qon sachragan bir varaq sariq qog'ozga mayda qora harflar bilan quyidagi so'zlar bosilgan edi:

## BUYRUQ

*Ekspeditsion askarlarga*

**8 № 100**

*Boguchar*

*5-may 1919-yil.*

*Hamma rotalarda, eskadron, batareya va komandalarda o'qib eshittirilsin.*

Xoin Don qo'zg'olonining kuni bitdi!

So'nggi soati keldi!

Kerakli hamma tayyorgarlik ishlari taxt bo'ldi. Xoinlar va sotqinlar boshiga qiron solish uchun yetarli miqdorda askar shaylab qo'yildi. Bizning Janubiy frontda jang qilayotgan armiyalarimizni ikki oydan beri tinchitmay orqadan turib xanjar solayotgan munofiqarning jazosini berish payti keldi.

Butun ishchi-dehqon Rossiyasi ana shu migulinlik, vyoshenskaya-lik, yelanlik, shumilinlik jirkanch banditlardan nafratlanadi, chunki ular, yolg'ondan qizil bayroq ko'tarib, qora guruh pomeschiklarga: Denikin va Kolchakka yordam bermoqdalar.

Jazo otryadlarining soldatlari, komandir va komissarlari!

Tayyorgarlik ishlari tugallandi. Kerakli kuch va hamma vositalar taxt qilindi. Saflaringiz hujumga tayyor bo'ldi.

Endi, signal berilgan hamon — olg'a!

Vijdonsiz xoinlar va sotqinlar uyasi vayron qilinsin. Munofiqarni qirib tashlansin, qarshilik ko'rsatgan stanitsalarga mutlaqo shafqat yo'q! Faqat o'z ixtiyori bilan quollarini topshirgan va bizning tomonimizga o'tgan kazaklargagina marhamat qilinadi. Kolchak va Denikin yordamchilarining jazosi — faqat o'q, qilich, olov!

O'rtoq soldatlar, Sovet Rossiyasi sizlarga inonadi. Biz bir necha kun ichida Donni bu qora dog'dan tozalashimiz kerak.

Vaqt-soati keldi! Hamma bir jon, bir tan bo'lib — olg'a!

## LXV

O'n to'qqizinchi may kuni, 9-armiya ekspeditsion brigadasi shtabining boshlig'i Gumanovskiy Mishka Koshevoyni shoshilinch paket bilan, 32-polk shtabiga jo'natdi; bu polk Gumanovskiyning qo'lidagi ma'lumotlarga ko'ra, hozir Gorbatovo qishlog'ida bo'lishi kerak edi.

O'sha kuni kechqurun Koshevoy Gorbatovoga yetib bordi, biroq 32-polk shtabini u yerdan topolmadi. Qishloq ko'chalari 23-diviziya-ga qarashli ikkinchi darajali oboz bilan liq-liq to'lgandi. Aravalar ikki rota piyoda askarning himoyasida Donetsdan Ust-Medveditsa tomon-ga jo'namoqda edi.

Mishka bir necha soatgacha qishloqni rosa aylanib, shtabning qa-yerdaligini so'rab surishtirdi. Nihoyat, otliq qizil askarlardan biri, 32-polk shtabini kecha Bokov stanitsasi yonidagi Yevlentyev qishlog'ida ko'rganligini aytdi.

Mishka otini xashaklatib oldi-da, kechasi Yevlentyevga jo'nadi, bi-roq u yerda ham shtab yo'q edi. Yarim kechadan og'gan mahalda Ko-shevoy Gorbatovoga qaytib kelayotib, dashtda qizil askarlar razyezdiga yo'liqdi.

— Kim u? — deb baqirdi birov olisdan.

— Oshna.

— Ko'ray-chi, qanaqa oshna ekansan... — deb po'ng'illadi to-mog'ini sovuq olgan odam yaqinroq kelib; kubancha oq telpak, kav-kazcha ko'k chakmon kiygan bu kishi komandir edi. — Qaysi qism-dansan?

— To'qqizinchi armiyaning ekspeditsion brigadasidan.

— Brigadadan qog'ozing bormi?

Mishka hujjatini ko'rsatdi. Komandir uni oy yorug'iga tutib o'qir ekan, ishonmasdan hadeb savol berardi.

— Brigada komandiri kim?

— O'rtoq Lozovskiy.

— Xo'sh, hozir brigada qayerda?

— Donning naryog'ida. O'zingiz qaysi qismdan bo'lasiz, o'rtoq? O'ttiz ikkinchi polkdan emasmi?

— Yo'q. Biz 33-Kuban diviziyasidan. Sen o'zing qayoqdan kelyap-san?

— Yevlentyevdan.

— Qayg'a ketyapsan?

— Gorbatovoga.

— Ana, xolos! Gorbatovoda hozir kazaklar bor-ku. — Bo'lmagan gap! — Mishka hang-mang bo'lib qoldi.

— Rost aytyapman senga, u yerda qo‘zg‘olonchi kazaklar bor. Biz hozir o‘sha yoqdan kelyapmiz.

— Endi qaysi yo‘l bilan Bobrovskka borsam ekan? — deb so‘radi Mishka sarosimalikka tushib.

— U yog‘ini o‘zing bilasan.

Komandir sag‘risi past, qora otini chu deb haydadi, nariroq bor-gach, egarda ketiga qayrilib:

— Biz bilan yura qol, yo‘qsa, biror kasofat bo‘lib, boshing ketma-sin, tag‘in, — deb maslahat berdi.

Mishka bajon-u dil rozi bo‘lib, ularga qo‘shildi. Qizil askarlar bi-lan birgalikda o‘sha kechasiyoq Krujilin qishlog‘iga yetdi va o‘sha yerdagi 294-Taganrog polkining komandiriga paketni berdi, nima sa-babdan paketni egasiga topshirolmaganini gapirib bo‘lgandan keyin, shu polkda qolib, otliq razvedkachilar qatori xizmat etishga ijozat oldi.

Taman armiyasining qismlaridan va kubanlik ko‘ngillilardan yaqindagina tashkil topgan 33-Kuban diviziyasi Astraxan yonidan olinib, Voronej-Liski rayoniga yuborilgan edi. Taganrog, Derbent va Vasilkov polklaridan iborat bir brigada qo‘zg‘olonchilar ustiga yuborilgan edi. Xuddi ana shu brigada Grigoriyning 1-diviziyasini to‘s-to‘s qilib, Donning narigi qirg‘og‘iga uloqtirib tashlagan edi.

Brigada uzluksiz janglar bilan Donning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab yo‘l yurib, Kazansk yurtidan to Ust-Xopyor stanitsasining janubidagi chek-ka qishloqlarga dovur bordi, Chir bo‘yidagi qishloqlarni o‘ng qano-ti bilan o‘rab olib, Don atrofida ikki hafta chamasi to‘xtab qoldi, ana shundan keyin shartta ketiga burildi.

Mishka Kargin stanitsasini va Chir bo‘yidagi birmuncha qishloq-larni ishg‘ol etishda qatnashdi. 27-kuni ertalab dashtda Nijne-Grushnsk qishlog‘ining naryog‘ida, 294-Taganrog polkining 3-rota komandiri qizil askarlarni yo‘l bo‘yiga tizib, yangi olingan buyruqni o‘qib berdi. O‘sha buyruqdagi: «Vijdotsiz xoinlar va sotqinlar uyasi vayron qilin-sin...» hamda: «Kolchak va Denikin yordamchilarining jazosi — fa-qat o‘q, qilich va olov!» degan so‘zlar Mishkaning miyasiga qattiq o‘rnashib qolgandi.

Shtokman o‘ldirilganligi va buning ustiga Ivan Alekseyevich bi-lan yelanlik kommunistlarning qanday halok bo‘lganligini eshitgandan so‘ng Mishkaning yuragi toshga aylanib, kazaklarga nisbatan qalbida

cheksiz nafrat uyg'ondi. Qo'liga qo'zg'olonchi kazaklar asir tushganda, u endi o'ylanib o'tirmas, rahm-shafqat degan narsani ko'nglidan chiqarib tashlar edi. O'shandan beri bironfa kazak uning qo'lidan tirik qutulmadi. U ko'm-ko'k ko'zlari bilan yeb qo'yguday bo'lib asirga tikilar: «Sovet hukumati bilan kurashib bo'ldingmi?» — deb so'rardi va javobini kutmasdan, uning murdaday oqarib ketgan yuziga qaramay, shartta chopib tashlardi. Butun alamini qilichdan olardi! Bu bilan ham qanoatlanmas, qo'zg'olonchilar tashlab ketgan qishloq uylarining bo'g'otiga o't qo'yardi. Qo'ralar yonib, ho'kiz-u sigirlar alanga vahmidan chetanlarni qiyratib, jon halpida bo'kirib, ko'chalarga qochib chiqqanlarida, Mishka miltiqdan o'q uzib qulataveradi.

Koshevoy kazaklarga qarshi, kazaklarning to'qligiga, munofiq-ligiga qarshi shafqsiz kurashar, basavlat imoratlar ichkarisida asrlardan beri o'zgarayotgan hukm surib kelgan eski hayotning tamomiy an'analariga qarshi jang olib borar edi. Shtokman bilan Ivan Alekseyevichning o'limi yuragidagi adovat o'tini lang'illatar, buyruqning so'zlari esa, Mishkaning ko'nglidagi hislarni ifoda etardi... O'sha kuni u uch o'rtog'ini yoniga olib, Kargin stanitsasida yuz elliktacha uyga o't qo'ydi. Allaqaysi bir savdogarning do'koni omboridan bir idish kerosin topib oldi, bir quti gugurtni qop-qora kaftida mahkam tutamlaganicha maydon bo'ylab ketdi. Uning ketidan qop-qora, achchiq tutun aralash alanga ko'tarilib, poplarning, boy kazaklarning naqshinkor, sirlangan uylari yona boshladi, «Nodon kazaklar ommasini qo'zg'olon ko'tarishga undagan zotlar» mana shu hashamatli uylarning egalari edi.

Qo'zg'olonchilar tashlab ketgan qishloqlarga avvalo otliq razvedkachilar kirardi; piyoda askarlar yetib kelguncha Koshevoy eng boy kazak uylarining kulini ko'kka sovurardi. Qanday qilib bo'lsa ham, u Tatarskka borib olishga va qishloqning yarmiga o't qo'yib, Ivan Alekseyevich bilan yelanlik kommunistlar uchun qasos olishga shoshilardi. U kimlarning uyiga o't qo'yish kerakligini birma-bir xayolidan o'tkazdi, mabodo uning qismi Chirdan chiqib, Vyoshenskayadan chaproq tomonga yuradigan bo'lsa, Mishka, hech kimdan so'ramay, kechasi o'z qishlog'iga borib kelishga ahd qilib qo'ydi.

Mishkaning Tatarskka borgisi kelib, shoshilganligiga yana boshqa sabab ham bor edi. — So'nggi ikki yil ichida u ora-sira Dunyashka Melexova bilan uchrashib turadi; ikkisi bir-biriga ko'ngil qo'ygan



bo'lsa ham, bu to'g'rida og'iz ochishmasdi. Dunyashka qoramtir bar-moqlari bilan rango-rang gul solib tikkan shokilador tamaki xaltani Mishkaga taqdim etgandi, echki tivitidan to'qilgan mayin qo'lqopni ham unga, qishda uydagilardan yashirib, Dunyashka keltirib bergandi. Soldatcha gimnastorkasining ko'krak cho'ntagida ko'z qorachig'iday asrab yurgan mana shu guldor dastro'molcha ham ilgari Dunyashkani-ki edi. Mana, u kichkina dastro'molchani uch oydan beri yonida olib yurar va uning har bir g'ijimidan muattar pichan hidiga o'xshash qiz bolaning ajoyib hidi kelardi; Koshevoy uchun eng qimmatbaho xotira shu edi! Har gal xoli joy topib, bu ro'molchani qo'lga olganida: qu-duq yonidagi oppoq qirov bosgan bir tup terak, bo'zargan osmondan bo'ron aralash yog'ayotgan laylak qor, Dunyashkaning titrab turgan lablari, qayrilma kipriklari ustidagi qor uchqunlarining yilt-yilt qilib erinishi beixtiyor ko'z oldiga kelib, yuragi orziqib ketardi...

Mishka uyga borishga astoydil tayyorlana boshladi. Karginlik savdogarning uyida devorga osib qo'yilgan chiroyli gilamni olib ot yopinchig'i qildi. Bu yopinchiq nihoyatda otiga yarashib, rang-barang gullari, jimjimador hoshiyalari bilan olisdan ko'zni qamashtirardi. Al-laqaysi kazakning sandig'idan yap-yangi hoshiyador chalvar topdi, oltita shol ro'moldan uch juft paytava qildi, ipdan to'qilgan, zayfona qo'lqopni esa, urush bo'lib turgan kunlari bekorga to'zitgisi kelmay, Tatarskka yaqinlashib, do'ngga yetgandagina kiyishni mo'ljallab, to'rvasiga solib qo'ydi.

Qadimgi zamondan qolgan odat bo'yicha xizmatdan qaytgan har bir kazak uyga yasanib-bezanib qaytmog'i shart edi. Kazaklar an'anasi ta'siridan qutulolmagan Mishka, Qizil Armiya jangchisi bo'la turib, haliyam eski rasm-rusmga qattiq rioya etishga harakat qilardi.

Ostidagi qora to'riq, oq tumshuq ot nihoyatda kelishgan bedov edi. Ilgarigi egasi ustxopyorlik kazak edi, Koshevoy uni jangda chopib o'ldirgandan so'ng ot unga o'lja qolgandi. Uning qaddi-bas-tiga, uchqurligiga, safda qadam tashlashiga odamning havasi ke-lardi. Yolg'iz egar masalasi chatoq edi. Egar ko'rpasi qirq yamoq, qorinbog'i xom teridan, uzangilarini zang bosgan, ming ishqalagan bilan zanggi ketmasdi. Yugani ham ko'rimsiz: bironta bezagi yo'q edi. Hech bo'lmaganda yuganini epaqaga keltirish uchun biron cho-ra topmaguncha ko'ngli joyiga tushmasdi. Mishka bu masala ustida

anchagacha bosh qotirdi, o‘ylab-o‘ylab axiri topdi-yu, suyunib ketdi. Savdogar uyining yonginasida yaltiroq nikel karavot turardi, uyga o‘t tushganda, savdogarning xizmatkorlari ularni maydonga chiqarib tashlagandi. Karavotning to‘rt burchagidagi to‘rt soqqasi oftobda yaltirab ko‘z qamashtirardi. Shu soqqalarni burab yo sindirib olinsa-yu, yuganga taqilsa bormi, yugan butunlay boshqacha bo‘lib ko‘rinadi-da. Mishka karavotning ichi kovok soqqalarini burab chiqardi-da, ipak shnurga o‘tkazib, ikkitasini yuganning ikki halqasiga, ikkitasini peshona ipining ikki chakkasiga taqdi, soqqalar ot boshida quyoshday chaq nab turardi. Oftob shu‘lasida ular shu qadar yaraqlar ediki, ot jonivor kunga qarshi yurganda ko‘zlari qamashar, dam-badam qoqilib ketar, hadiksirab oyoqlarini to‘g‘ri bosolmasdi. Lekin soqqalarning yaltiraganidan otning ko‘zlari xiralashganiga, duv-duv yosh oqqaniga qaramay, Mishka bironta soqqani yugandan olib tashlamadi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, yarmi kuyib, hamma yoqni o‘tda kuygan g‘isht bilan kul hidi bosib ketgan Kargin stanitsasidan jo‘nashga to‘g‘ri keldi.

Polk Don bo‘yiga, Vyoshenskaya tomon yurishi kerak edi. Shuning uchun ham razvedka komandiri Mishkaning iltimosini qaytarmasdan, onasini ko‘rib kelishga ruxsat berdi.

Komandir qisqa muddatli ta‘til berish bilan birga, unga yana bir yaxshilik qildi:

– Uylanganmisan? – deb so‘radi u Mishkadan.

– Yo‘q.

– Jazmanlaring ham yo‘qmi?

– Qanaqa jazman?.. U nima deganingiz? – hayron bo‘lib so‘radi Mishka.

– O‘ynashing!

– Ha-a... Unaqasi yo‘q. Lekin suyganim bor, o‘zi pokiza qiz.

– Zanjirli soating bormi?

– Yo‘q, o‘rtoq.

– Voy, seni qara-yu!

Razvedka komandiri aslida stavropollik, muddatidan ortiq xizmat qilgan sobiq unter-ofitserlardan bo‘lib, eski armiyada yurgan vaqtlarida ta‘til bilan uyiga necha marta borib kelgan edi, askarning o‘z qishlog‘iga qup-quruq, so‘rrayib kirib kelishi qanchalik xunuk ekanini

yaxshi bilardi. Shuning uchun u o'zining soati bilan zilday zanjirini ko'ksidan olib Mishkaga uzatdi:

— Sen azamat jangchisan! Ma, uyga borganingda qizlarga ko'z-ko'z qilib taqib yurgin, uchinchi vzvod komandirini esga olgin. Men ham yoshligimda ko'p qizlarni yo'ldan urganman, juvonlar bilan yurganman, bilaman... Zanjiri amerikancha yangi tilladan. Birov so'rasa, shunday deyaver. Mabodo biron shilqim: «Probasini ko'rsat» deb xiralik qiladigan bo'lsa, sol tumshug'iga! Shunaqangi surbet odamlar bor, ularning tumshug'iga tushiraverish kerak. Meniyam ba'zan oshxonada yoinki jamoat orasida, ba'zan j... xonada shunaqa shilqim gumashta va mirzalarga duch kelgan vaqtlarim bo'lgan, odamlar oldida meni sharmanda qilmoqchi bo'lishib: «Manavi zanjirni savlatga osiltirib qorningizga taqib olibsiz, koshki asl tilla bo'lsa... Qani, ko'raylik-chi, probasi bormi o'zi?» deb yonimga kelvolib surishtirishardi. Men unaqalarga sira bo'sh kelganmasman: «Probasimi? Mana proba!» — Mishkaning soddadil komandiri chaqaloqning kallasiday keladigan qoramtir mushti bilan kuchi boricha olg'a hamla qilib, qanday javob qilish kerakligini ko'rsatib berdi.

Mishka soatni taqib, kechasi gulxan yorug'ida soqolini oldi-da, otni egarlab jo'nab qoldi. Tong mahalida u Tatarskka kirib keldi.

Qishloq sira o'zgarmagandi: o'sha g'ishtin cherkovning pastak mezanasi ustidagi rangi o'ngib ketgan zarhal krest hali ham ilgarigiday qaqqayib turar, poplar va savdogarlarning hashamatli imoratlari hali ham qishloq maydonida qad ko'tarib turar, Koshevoyning yarim xaroba kulbasi yonidagi terak haliyam avvalgiday shildirab hasrat qilganday bo'lardi.

Lekin suv quygandak jimjit qishloqning bu qadar og'ir sukutga cho'kkanligi kishini hayratda qoldirardi. Ko'chalarda zog' uchmas, odam bolasi ko'rinmasdi. Uylarning deraza qopqoqlari mixlab tashlangan, ba'zi eshiklarga qulf solingandi, biroq aksari eshiklar lang ochiq yotardi. Go'yo qishloqqa qirg'in kelib, qo'ra-yu, ko'chalarda tirik jon qo'ymay olib ketgan, obod uylarni qabristonday huvullatib, egasiz qoldirgan edi.

Na bironta inson tovushi kelar, na xo'roz qichqirgani va na mol-larning ma'ragani eshitalardi. Yolg'iz chumchuqlargina bostirma

bo'g'otlari tagida, shox-shabba uyilgan joylarda, yomg'ir hidini sezganday, to'xtovsiz chirqillashardi.

Mishka o'z hovlisiga kirdi. Biron kishi chiqib, uni kutib olmadi. Dahliz eshigi lang ochiq edi, ostona yonida: qizil askarlar o'raydigan yirtiq obmotka, qop-qora qonga bo'yalgan, g'ijimlangan bint, tovuq patlari, pashsha talab sasiy boshlagan kallalari yotardi. Bundan bir necha kun ilgari bu uyda qizil askarlar ovqat pishirib yegani ko'rinib turardi: idish-tovoq siniqlari, tozalangan tovuq ustixonlari, papiros qoldiqlari, gazeta parchalari polda sochilib yotardi... Mishka nafasi qaytib yutindi-da, hujraga kirdi. U yerda hamma narsa ilgarigiday, faqat kuzda tarvuz saqlanadigan yerto'la qopqog'ining bir pallasi salgina ochilib qolganday edi.

Mishkaning onasi bolalardan yashirib har doim shu yerga olma qoqi qo'yardi.

Shu narsa esiga tushib, Mishka qopqoq oldiga bordi. «Nahotki oyim meni kutmagan bo'lsa? Biror narsa yashirib qo'yganmikin?» degan xayolda qilichini sug'urib, bor kuchi bilan qopqoqning che-tidan ko'tardi. Qopqoq g'ichirlab ochildi. Yerto'ladan zax aralash mog'or hidi dimog'iga urildi. Mishka tiz cho'kib oldi. Ko'zlari qorong'iga o'rganmagani uchun anchagacha hech nimani ajratolmadi, nihoyat, qo'ra boshladi: eski dasturxon ustiga yarim shisha samogon, mog'orlab qolgan bir tova quymoq, yarmini sichqon yeb ketgan non, og'zi yog'och krujka bilan mahkam yopilgan ko'za qo'yilgandi... Demak, kampir o'g'lini kutgan. Eng aziz mehmonini to'rt ko'zlab kutgan! Mishka yerto'laga tushdi, muhabbat bilan to'lgan qalbi shodlikdan orziqib ketdi. Mana shu top-toza eski dasturxoncha ustiga tartib bilan terib qo'yilgan shu taomlarga mehribon onaning muborak qo'llari kechagina tekkan-ku!.. Yerto'la to'siniga osib qo'yilgan op-poq bo'z xaltaga ko'zi tushdi. Mishka shosha-pisha xaltani olib qaradi: chiroyli qilib yamalgan, yuvilib, yaxshilab taxlangan bir juft eski ko'yлак-ishtonini ko'rdi.

Sichqonlar taomni harom qilib ketgan, lekin qatiq bilan samogonga tegmagandi. Mishka samogonni ichdi, yerto'lada muzday turgan qatiqni ham ichdi-da, ko'yлак-ishtonini olib yerto'ladan chiqdi.

«Onam Donning naryog'ida bo'lsa kerak. Uyda qolishga qo'rqqan, bir hisobda to'g'ri qilgan, kazaklar baribir tirik qo'ymasdi. Haliyam

mening kasrimga bechorani rosa qiynashgan bo'lsa kerak...» — degan xayol ichida hovliga chiqdi. Otini yechdi, biroq Melexovlar uyiga borishga yuragi chopmadi, chunki ularning qo'rasi Donga juda yaqin edi, daryoning narigi betidan bironta ko'zi o'tkir mergan qo'zg'olonchilar yasagan qo'lbola qo'rg'oshin o'q bilan Mishkani osongina joylab qo'yishi mumkin edi. Shuning uchun Mishka hozirchalik Korshunovnikiga borishga, qorong'i tushganda maydonga qaytib kelib, Moxovning, boshqa savdogar va poplarning uyiga o't qo'yishga ahd qildi.

U qo'ralar orti bilan otini haydab, Korshunovning kattakon qo'rasiga bordi, lang ochiq qolgan darvozadan hovliga kirib, otini panjaraga bog'ladi-da, endi uyga kirmoqchi bo'lganda, Grishak bobo ichkaridan chiqib qoldi. Sochlari qorday oqarib ketgan boshi qaltirar, qarilikdan xiralashgan ko'zlarini xuddi shapko'rdek suzib boqardi. Hali ham to'zmagan o'sha qadimgi yag'iri chiqqan yoqali, qizil bog'ichli kazakcha kulrang mundiri ixcham qilib tugmalangandi, biroq chalvari hadeb tushib ketavergani uchun bobo dam-badam uni ko'tarib qo'yardi.

— Salom buva! — Mishka qamchisini o'ynatib zinapoya oldiga kelib to'xtadi.

Grishak bobo indamadi. G'azab va nafratga to'lgan ko'zlari bilan ho'mrayib qarab turaverdi.

— Salomatmisiz, deyapman sizga! — Mishka qattiqroq so'radi bu gal.

— Xudoga shukur, — dedi chol istar-istamas. Bobo gijinib, Mishkaga qattiq tikilib qoldi, biroq Mishka pisand qilmasdan oyoqlarini kerib turaverdi; u hadeb qamchisini o'ynar, qovog'ini osiltirib, qiz bolanikiday do'rdoq lablarini cho'chchaytirardi.

— Siz nega Donning naryog'iga qochib o'tmadingiz, Grishak buva?

— Otim nimaligini sen qaydan bilasan?

— Shu yerda tug'ilganman, shuning uchun bilaman.

— Kimni bolasisan o'zing?

— Koshevoyni.

— Akimni o'g'limisan? Biznikida xizmatkorlik qilgan o'sha Akimni bolasimisan hali?

— Xuddi o'sha.

— Hali o'sha janob men bo'laman, degin! Cho'qintirganda otingni Mishka qo'yishuvdi, shekilli? Balli! Dadangga o'xshaysan! Dadang hamisha yaxshilikka yomonlik qilardi, sen ham albatta, o'shanaqa bo'lsang kerak, a?

Koshevoy qo'lqopini yechdi-da, battar qovog'ini solib oldi.

— Otim nimaligini, qanaqa odamligimni sizga daxli yo'q. Nega Dondan o'tib ketmadingiz, deyapman?

— Xohlamadim, shuning uchun ketmadim. Seniyam xudo uribdi-ku! Dajjolga shogird tushdingmi? Shapkangga qizil yulduz taqib olib-san? Hali sen, itvachcha, haromxo'r, bizning kazaklarga qarshi chiqdingmi? O'z hamqishloqlaringga qarshi-ya?

Grishak bobo gandiraklay-gandiraklay, arang zinapoyadan pastga tushdi. Korshunovlar oilasi Dondan o'tib ketganidan beri ovqatdan qiynalib, mazasi qochganligi ko'rinib turardi. G'amxo'rlaridan ayrilib, cho'pday ozib ketgan, o'zini eplolmay qolgan irkit chol Mishkaning ro'parasiga kelib to'xtadi-da, hayron bo'lib, g'azab bilan uning yuziga tikildi.

— Qarshi chiqdim, — deb javob berdi Mishka. — Hali qarab turing: hammasi asfalasofilinga ketadi!

— Bilasanmi, muqaddas kitobda nima deyilgan? «Birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan» deyilgan. Qalay?

— Siz, buva, muqaddas kitoblaringiz bilan miyamni achitmang, men bu yerga va'zxonlik eshitishga kelganim yo'q. Hoziroq uyni bo'shating! — Mishka tutaqib ketdi.

— Bu nima deganing?

— Shunaqa deganim.

— Senga nima bo'ldi o'zi?

— Hech nima bo'lgani yo'q! Uydan chiqib keting deyapman sizga!..

— Hech qayoqqa ketmayman. Uy meniki, nima qilishni o'zim bilaman... Sen dajjolning malayisan, shapkangda tamg'asi bor! Zikriyo payg'ambar bir hadislarida xuddi sizlarni bayon etganlar: «Alarg'a men shuvoq yedurub, zardob ichirgaymankim, ul nopoklar jasadidin yer yuzi mudor bo'lg'usidur», deganlar. Zamona buzilib, bola-otaga, aka-ukaga qarshi chiqdi...

— Siz meni ko'p chalg'itavermang, buva! Bu yerda gap aka-ukada emas, har bir ishda hisob-kitob darkor: mening dadam to ko'zi

yumilguncha eshigingizda xizmatkorlik qilgan, o‘zim ham urushdan oldin bug‘doyingizni yanchganman, yosh jonimga jabr qilib, mayib bo‘lganimga qaramay, qanorlab donlaringizni tashiganman, mana endi orani ochiq qilib oladigan payt keldi. Uyni bo‘shating, men hozir o‘t qo‘yaman! Yaxshi-yaxshi uylarda xo‘p yashadingiz, endi sizlar ham bizga o‘xshab loysuvoq kulbalarda ham yashab ko‘ring. Tushundirgizmi?!

— Ana aytdim-ku! Xuddi o‘sha gap rost chiqyapti! Iso payg‘ambar hadisda shuni bayon etganlar: «Odamlar chiqib qaragaylar va mendan yuz o‘gurganlarning o‘luklarini ko‘rgaylar, alarning murdalari qurtlab, doim o‘tda yonib yotgaykim, bani-odam nafratlanib, alardin yuz o‘gurgay...»

— Bas endi, siz bilan adi-badi aytishib o‘tirishga vaqtim yo‘q! — dedi xunuk ovoz bilan Mishka tutaqishib. — Uydan chiqasizmi, yo‘qmi?

— Yo‘q! Yo‘qol xudo bezori!

— Sizdaqa xurofotga berilgan johillarning kasriga qolib urush boshlandi-da! Xalqni revolyusiyaga qarshi qo‘zg‘atgan faqat sizsiz!.. — Mishka shosha-pisha yelkasidan karabinini oldi...

O‘q uzilgach, Grishak bobo mukkasiga quladi-yu, dona-dona qilib:

— Illo... o‘z ajalim bilanmas... parvardigor amri ila jon berdim... Yo rab, qulingni o‘z dargohingda qabul qilgaysan... — deb xirilladi, oppoq mo‘ylovi qip-qizil qon bo‘ldi.

— Qabul qilar! Sen qari shaytonni allaqachon o‘sha yoqqa jo‘natish kerak edi!

Mishka zinapoya yonida cho‘zilib yotgan jasaddan hazar qilganday chetlab o‘tdi-da, peshayvonga chopib chiqdi.

Dahlizga shamol uyib tashlagan qup-quruq payraha, xashak lop etib yonib ketdi, daxliz bilan qaznoq orasidagi taxta devor birpasda lovullab yondi, tutuni shipga urdi, u yoqdan kirib, bu yoqdan chiqib ketayotgan shamol hamma xonalarni tutunga to‘ldirdi.

Koshevoy hovliga chiqdi, to bostirma-yu, omborxonalarga o‘t qo‘yib bo‘lgunicha, uyning alangasi eshik-derazalardan chiqib qarag‘ay romlar bilan qopqoqlarini yalab, tomga o‘ta boshladi...

Mishka qorong‘i tushguncha o‘sha atrofdagi chorbog‘da, yovvoyi chirmovuq o‘rab olgan tog‘olcha soyasida uxladi. Egari olinib, tu-

shovlab qo'yib yuborilgan oti ham o'sha yerdagi maysa bug'doyiqni chimdib yurardi. Kechqurun ot chanqab kishnadi-da, egasini uyg'otib yubordi.

Mishka o'rnidan turib, shinelini bo'ktarmaga tang'idi, o'sha chorbog'dagi quduqdan otini sug'ordi, so'ngra egarlab mindi-da, tor ko'chaga chiqdi.

Korshunovning qo'rasi kuyib bo'lgan edi, lekin hali ham qop-qora ko'mirga aylangan so'qalardan tutun burqsab, hamma yoqqa achchiq hidi taralardi. Kattakon imoratdan yolg'iz g'isht poydevor-u, qop-qora mo'risi havoda qaqqayib, qulay deb turgan pechdan bo'lak hech narsa qolmagan edi.

Koshevoy to'g'ri Melexovlar qo'rasi tomon yurdi.

Ilinichna bostirma tagida etagiga payraha terib solayotgan paytda, Mishka otdan tushmasdan ko'cha eshikni ochib, hovliga kirdi.

— Salom xolajon! — deb muloyimgina so'rashdi u kampir bilan.

Lekin kampirning kapalagi uchib, tili kalimaga kelmay qoldi, qo'llari bo'shshib, etagidagi payrahalar to'kilib ketdi...

— Salomatmisiz, xolajon?

— Shukur... xudoga shukur, — bo'shshib javob berdi Ilinichna.

— Eson-omon yuribsizmi?

— Boshim omon bo'lgani bilan sog'ligimning mazasi yo'q.

— Kazaklaringiz qayoqda?

Mishka otdan tushib, bostirma yoniga bordi.

— Donning naryog'ida...

— Kadetlarni kutib yotishibdimi?

— Men ayol kishi bo'lsam... bunday ishlarga aqlim yetarmidi...

— Yevdokiya Panteleyevna uydami?

— U ham o'sha yoqda.

— U yoqda pishirib qo'yibdimikin! — Mishkaning jahli chiqqanidan ovozi o'zgarib ketdi. — Bo'lmasa xolajon, mening gapimni eshitib oling: o'g'lingiz Grigoriy Sovet hukumating eng yovuz dushmani bo'lib chiqdi. Daryodan o'tamiz-u, dastlab o'shaning bo'yniga sirtmoq solamiz. Lekin Panteley Prokofyevich bekorga qochibdi, o'zi qarigan, cho'loq odam, tinchgina uyda o'tirsa bo'lardi...



— Ajalini kutib, a? — zarda bilan so‘radi Ilinichna. U payrahalarni terib yana etagiga sola boshladi.

— Ajaliga hali ancha bor. Biroz kaltaklardik xolos, lekin o‘ldirmasdik uni. Men boshqa bir ish bilan sizning oldingizga keluvdim. — Mishka ko‘kragidagi soat zanjirini tuzatib qo‘ydi-da, boshini quyi soldi. — Men Yevdokiya Panteleyevnani ko‘rgani keluvdim. Chekinganlarga qo‘shilib ketgani menga judayam alam qildi, har holda, siz unga ona bo‘lasiz, arzimni eshiting, xolajon. Gapim shuki, ancha bo‘ldi, qizingizga ko‘ngil berganman, lekin hozirgi vaqtda aksilin qilobchilar bilan jang qilib, ularga shafqatsiz zarba berayotganimiz uchun, qizlarga jigarso‘xtalik qilishga qo‘limiz tegmayapti. Ana o‘shalarni tugatib, butun dunyoda tinchlikparvar Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin men sizga, xolajon, sovchi yuborib, qizingiz Yevdokiyaning so‘rataman.

— Hozir bu gaplarning vaqti emas!

— Bekor aytibsiz, ayni vaqti! — Mishka qovog‘ini solib oldi, ikki qoshining orasi chimirilib ketdi. — Unashadigan vaqt emas, albatta, lekin ayni og‘iz soladigan xonasi. Hozir gaplashib qo‘ymasam, keyin vaqtim yo bo‘ladi, yo yo‘q. Bugun bu yerdaman, balki ertaga meni Donetsning naryog‘iga jo‘natishar. Shuning uchun oldini olib, sizga tayinlab qo‘ymoqchiman: tag‘in falokat bosib Yevdokiyaning biron kishiga berib qo‘ymanglar, keti yomon bo‘ladi: mendan osonlikcha qutulmaysiz. Agarda mening qismimdan: «Mishka halok bo‘ldi» degan xat kelsa, kimga bersangiz beravering, yo‘qsa mumkinmas, chunki ikkimizning oramizda muhabbat bor. Men unga biron sovg‘a olib kelmadim, sovg‘a bo‘larlik narsani hech yerdan topib bo‘lmaydi, mabodo sizga savdogarlar mol-mulkidan biron narsa kerak bo‘lsa, ayting: darrov keltirib berayin.

— Xudo saqlasin! Ko‘z ochib bironing buyumini olganmas-miz!

— Mayli, ixtiyor o‘zingizda. Mabodo Yevdokiya Panteleyevnani mendan oldin siz ko‘rsangiz, mening nomimdan ko‘pdan ko‘p salom deb qo‘ying, endi xayr, xolajon, mening gaplarim, albatta, qulog‘ingizda bo‘lsin.

Ilinichna indamasdan uyga qarab ketdi, Mishka esa, otiga minib maydon tomon jo‘nadi.

Kechasi qizil askarlar tog'dan tushib qishloqqa kirishdi. Ko'cha-ko'yni ularning g'ovur-g'uvuri bosib ketdi. Qo'l pulemyot ko'tarib Don bo'yidagi pistirma tomon kelayotgan uch qizil askar Mishkani to'xtatib, hujjatlarini tekshirdi. Semyon Chugunning uyi ro'parasiga yetganida yana to'rt qizil askarga duch keldi. Ikkitasi aravada sulii ortib kelmoqda edi, ikkitasi Chugunning sil xotini bilan bir qop un hamda oyoq mashina ko'tarib olishgandi.

Xotin Mishkani tanib, salom berdi.

— Nima obkelyapsiz, xola? — deb so'radi Mishka.

Qizil askarlardan biri bidirlab:

— Bir kambag'al ayol ro'zg'orini tiklab olsin, deb manavi mashina bilan unni uyiga oborib bermoqchimiz, burjuynikidan olib chiqdik, — dedi.

Mishka sidirg'asiga yetti uyga: Donetsning naryog'iga qochib ketgan savdogarlardan Moxov bilan Atepin Satsaning, Vissarion pop bilan Pankratiy hazratning va yana uchta boy kazakning uylariga o't qo'yib, ko'ngli joyiga tushgandan keyin otiga minib qishloqdan jo'nadi.

Do'ngga chiqqach, otini burib ketiga qaradi. Pastda, Tatarsk qishlog'ining qoq tepasida qop-qora osmonga, tulki dumiga o'xshash qo'ng'ir olov lovullab ko'tarilardi. Alanga goh kuchayib, uning shu'lasini Don suvlarida jimirlashib aks etar, goh pasayib, kunbotar tomonga og'ib, imoratlarni yamlab yuta boshlardi.

Sharqdan, dashtdan mayin shabada turdi. U alangani puflab tobora lovullatib, qop-qora yiltiroq qurumini olislarga uchirib ketdi...

1928–1931-yillar.





## ESLATMA

Mixail Aleksandrovich Sholoxov «Tinch Don» romanining uchinchi kitobi ustida 1928-yildan 1931-yilgacha, uch yil muttasil ishladi. Bu asarni yaratishda yozuvchi ko'pgina qiyinchiliklarga duch keldi. Asarni badiiy jihatdan ishlashning o'zi g'oyat murakkab bo'lib, undan zo'r ijodiy kuch talab etar edi. Buning ustiga deyarli hech qanday material yo'qligi ishni yanada og'irlashtirdi. Sholoxov Yuqori Don, ya'ni «Vyoshenskaya qo'zg'olonini» deb atalgan oq kazaklar qo'zg'olonini tasvir etishga kirishgan paytda, uning qo'lida qizil askar gazetalarida, varaqalarda onda-sonda uchragan mayda-chuyda xabarlardan boshqa hech narsa yo'q edi. Qolgan hamma materiallarni, asosan, o'sha voqealarning tirik qolgan ishtirokchilari bilan suhbat orqali to'pladi.

1930-yil may oyining oxirlarida, rostovlik kitobxonlar bilan uchrashuv mahalida M.A. Sholoxov, uchinchi kitob ustidagi ishlarining xususiyatlariga to'xtab, shunday degan edi: «Yana bir qiyin tomoni shuki, men bu kitobda, hali hech qayerda yoritilmagan Vyoshenskaya qo'zg'olonini tasvirlamoqchiman» («Na pod'yome» jurnali 1930, № 6, 175 bet.)

Keyinchalik «Tinch Don» romanining uchinchi kitobi matbuotda birinchi marta e'lon qilinganda (jurnal redaksiyasiga — LIX bobga, kitobda — LXII bobga) muallifning quyidagi izohi ilova etilgandi: «Shunisi xarakterliki, fuqarolar urushi tarixi ustida ishlayotgan tarixchilarimiz Yuqori Don qo'zg'olonining haqiqiy ko'lamini hozirgacha ham to'g'ri aniqlab bermadilar. Masalan, N. Kakurin o'zining mufassal va juda foydali kitobida («Revolyusiya qanday kurashdi». Davlat nashriyoti, 1925, tom 1) Yuqori Don qo'zg'olonini shunday ta'riflaydi:

«Qizil armiyaning Velikorossiya va Ural tomonlaridagi frontlari yaqinida ro'y bergan aksilinqilobiy xurujlar ichida eng puxta uyushtirilgani va eng kuchlisi, 1918-yil avgustdagi Ijev-Votkin qo'zg'oloni-yu, 1919-yil mart oyida Don viloyatining shimoliy qismida bosh ko'targan Don kazaklarining qo'zg'oloni edi. Bu qo'zg'olon Janubiy frontdagi To'qqizinchi armiyamizning orqasida, har ikkala tomon butun diqqat-e'tiborini xuddi shu frontga jalb etib turgan nozik paytda yuz berdi:

yuqorida zikr etilgan Ijev-Votkin qo'zg'oloni har ikkala dushman orasidagi frontlar endigina aniqlanib kelayotgan paytda boshlangan bo'lsa, aksincha bu qo'zg'olon, talaygina askar to'plagan, muayyan holga kirgan frontning orqa tomonida, frontning naq yonginasida va qat'iy hujum operatsiyalari boshlanadigan mahalda ro'y berdi; shu sababdan ham uning salbiy ta'siri ancha kuchli bo'ldi, natijada qizillar qo'mondonligi buni bostirish uchun ancha kuch va vaqt sarflashga majbur bo'ldi. Qo'zg'olon markazi Vyoshenskaya stanitsasi edi; qo'zg'olon 10.000 kvadrat kilometr joyni o'z girdobiga olgan bo'lib, Ust-Medveditsa stanitsasidan to Boguchar shahriga davr yoyilgandi; qo'zg'olon ko'targan kazaklar soni 15000 kishiga yetdi, ular bir necha pulemyotga ega edi. Ana shu asosiy qo'zg'olon bo'lgan joylar atrofida. Novoxopyorsk, Buturlinovka va boshqa rayonlarda yana birmuncha mayda-chuyda qo'zg'olonlar ham paydo bo'lganki, ular asosan dezertirlar xurujidan iborat edi. Qo'zg'olon qisqa vaqt ichida bostirilmasa, oq armiyaga qarshi turgan frontning bir uchastkasini ishdan chiqaradiganga o'xshab qoldi, bu narsa frontdagi askarlardan bir talayini shu yoqqa yuborib, frontni zaiflashtirishga majbur etdi. Aprel oyi ichida 8- va 9-Qizil Armiya qo'zg'olonchilariga qarshi kurash uchun bittadan ekspeditsion diviziya ajratib berdi; bu ikki diviziyada 14000 jangchi bo'lib, artilleriya va pulemyotlar bilan ta'minlangandi. Bu kuchlar to'rt yuz kilometrlik qo'zg'olon jabhasi bo'ylab tarqoq holda har qaysisi o'z holicha harakat qilardi. Bu qo'zg'olon ham Ijev qo'zg'oloni singari dastlabki kunlari esercha tus olgandi: qo'zg'olonchilar Sovet hukumatini, lekin kommunistlar aralashmagan Sovet hukumatini saqlab qolishga harakat etishardi. 8-armiyaning sobiq komandiri o'rtoq Xvesinni qo'zg'olonchilarga qarshi jang qilayotgan hamma ekspeditsion kuchlarga qo'mondon qilib tayinlanishi bilanoq, qo'zg'oloni bostirish ishi tezlab ketdi: 1919-yil 24-maydan 1-iyungacha bo'lgan bir haftalik davr ichida Don daryosining o'ng qirg'og'idagi qo'zg'olon bostirildi».

Haqiqatda esa qo'zg'olonchilar soni 15000 emas, 30000-35000 kishiga yetar, aprel, may oylarida ularda «bir necha pulemyot» emas, balki yigirma besh zambarak (bulardan ikkitasi mortir to'pi), yuzga yaqin pulemyot va odam boshiga bittadan miltiq bor edi. Bundan tashqari, Yuqori Don qo'zg'olonining xarakteristikasiga bag'ishlangan bobning oxirida muhim bir nuqson bor: Donning o'ng qirg'og'ida qo'zg'olon Urt Kakurin yozganidek, may oyida bostirilgan emasdi. Ekspeditsion qizil askarlar tomonidan Donning o'ng qirg'og'idagi yerlar qo'zg'olonchilardan tozalangan, xolos. Lekin qo'zg'olonchilarning qurolli kuchlari, hamda butun aholi Donning chap tomoniga chekingandi. Don bo'ylab ikki yuz chaqirim joygacha transhayalar qazilgan, qo'zg'olonchilar transhayalar ichiga berkinib olib, ikki

haftagacha, Don armiyasining asosiy kuchlari bilan birlashgunlariga qadar o'zlarini mudofaa qilganlar (M. Sh.)» («Oktyabr» jurnali, 1932, № 7, 1-bet).

Kulak va oq gvardiyachi unsurlarning ig'vogarlik va qo'poruvchilik tashviqotlari ta'siri ostida Yuqori donlik kazaklarning ko'pgina qismi Sovet hokimiyatiga qarshi chiqdi. Kulak va oq gvardiyachilar: Vatanga muhabbat to'g'risidagi safsatalari bilan xalq ommasini aldagan edilar. Dondagi aksilinqilobiy lager sarkorlarini va «arboblarini» Sholoxov quyidagi so'zlar bilan tasvirlab berdi: «Fuqarolar urushi yillarida ham vatanga muhabbat to'g'risida gapirdilar. Masalan, ataman Krasnov va shu singari siyosatchi muttahamlar shu gapni saqich qilib chaynadilar; bir yoqdan gapirib turib, ikkinchi yoqdan nemis okkupantlarini, so'ngra «ittifoqdosh» deb atalmish ingliz va fransuzlarni Donga taklif etdilar. Vatanga muhabbat to'g'risida gap sotishardi-yu, lekin ayni zamonda kazaklarni ko'tarasiga sotar, Sovet hokimiyatiga, rus xalqiga qarshi kurashmoq uchun ularni yarog'-aslahaga almashtirar edilar. Tarix kishilarga ularning so'ziga qarab emas, ishiga qarab baho beradi. Tarix insonning vatanga muhabbati qanchalik ekanini va bu muhabbatning qadr-qimmatini sinovdan o'tkazadi. Vatanga bo'lgan chin muhabbatni Krasnov va boshqa sotqin ablahlar ro'yirot tahqir etdilar, mehnatkash kazaklarni munofiqlik yo'li bilan aldab, fuqarolar urushi girdobiga tashladilar. («M. Sholoxov. Saylovchilar oldida gapirgan nutqi, «San'at ustalari — SSSR Oliy Soveti deputatlari» nomli to'plam. M. 1938, 40 bet.»)

Sholoxov 1931-yil 6-iyunda Vyoshenskaya stanitsasidan A.M. Gorkiyga yuborgan maktubida: «Yuqori Dondagi kazaklar qo'zg'oloni o'rtahol kazaklarga nisbatan qing'irlikka yo'l qo'yilganligi natijasida ko'tarilgan», — deb ta'kidlaydi. Sholoxov tarixiy haqiqatga sodiq bo'lgan san'atkor sifatida, kazaklarni qo'zg'olon ko'tarishga majbur etgan sabablarni o'z romanida izchillik bilan oxirigacha ochib tashlashga intiladi.

Asar g'oyasining murakkabligi, bu sohada tarixiy materiallarning yo'qligi uchinchi kitob ustidagi ishlarni ancha vaqtgacha to'xtatib qo'ydi. Yozuvchi romanning ikkinchi kitobini tamomlashi bilanoq, 1928-yilda uchinchi kitobni boshlagan edi. (Uchiichi kitobning birinchi bobidan «Kazaklarning «Urush va tinchligi» sarlavhali parcha Rostovda chiqadigan «Molot» gazetasida bosilgan, 28-dekabr, 1928-yil). Ish to'xtab qolishiga qisman yana shu narsa sabab bo'lgan ediki, yozuvchi uchinchi kitob bilan bir vaqtda «Ochilgan qo'riq» romanining birinchi qismini boshlab yuborgan edi.

Yozib tamom qilindi desa bo'ladigan uchinchi kitobning qo'lyozmasini Sholoxov qayta-qayta ishlab tuzatar, bostirishga shoshilmasdi. «Senga shuni ma'lum qilmoqchimanki, — deb yozgan edi u 1929-yil 3-oktabrda rostovlik adabiyotshunos A. Busingga, — men bu yil «Oktyabr» jurnalida «Tinch Don»ni bostirmayman. Sababi shuki, romanning davomini berolmayman,

hali yettinchi qismi tayyor emas, oltinchisining ham ba'zi joylari qayta ishlanmoqda.» (A.M. Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti Institutining arxivi, P. 68, 1051).

1931-yil bahorida «Tinch Don» romanining uchinchi kitobi tamomlanib, «Oktyabr» jurnaliga bosishga topshirildi. Biroq Sholoxov yana kattakon to'siqlarga duch keldi. Jurnalning ba'zi xodimlari bu yangi kitobning asosiy g'oyasini tushunmasdan, uni ancha qisqartirib berishni yozuvchidan talab etishdi.

Sholoxov 1931-yil 6-iyunda A.M. Gorkiyga yozgan maktubida shunday deydi: «Kitobning oltinchi qismida men Sovet hukumati idoralarida ishlagan ba'zi bir farosatsiz korcholonlarning obrazini berganman (mudodara qilingan kiyimlarni olib ketmoq uchun okrugdan kelgan yigit, oqlar tomonidan ranjitilgan luganlik, To'qqizinchi armiyaning komissari Malkin, haqiqatan o'sha davrda bo'lgan odam va uning qiliqlarini men eski mazhabli aravakash tilidan hikoya qildim), bundan maqsad bularni Koshevoyga, Shtokmanga, Ivan Alekseyevichga qarshi qo'yish va bu «qing'ayuchilar» Sovet hokimiyatinnig ideyasini soxtalashtirganlarini ko'rsatish edi».

Rappdagi tanqidchilar va redaktorlar yozuvchi oldida turgan mana shu murakkab vazifani tushuna olmadilar. Sholoxov o'sha xatda shunday deydi: «Ba'zi bir» «Ortodoksal» kishilar, Ragganing «sarkorlari» kitobning oltinchi qismini o'qib chiqib, meni ayblay boshladilar, go'yoki men, Yuqori Dondagi kazaklarni siqish faktlarini ko'rsatishim bilan qo'zg'olonni oqlaganmishman. Shu to'g'rimi? Qo'zg'olondan oldingi ahvol, achchiq haqiqat qanday bo'lsa, men bo'rttirmasdan to'g'risini ko'rsatib berdim...» Xatning ketidan «Menim uchun eng qimmatli bo'lgan ba'zi boblarni ( lirik chekinishlarni, yana birmuncha joylarini) olib tashlangandagina kitob bosiladi, degan shart qo'yishmoqda. Qizig'i shuki, o'n kishi o'n joyini olib tashlashni taklif etadi, agar hammasiga quloq solinsa, kitobning to'rtidan uch qismini olib tashlashga to'g'ri keladi... Zo'r sabrsizlik bilan Sizdan xat yoki telegramma kutaman. Shu bir yarim yil ichida shu kitobning tashvishida yurak-bag'rim ezilib ketdi, bir og'iz gapingizga intizorman: yaxshi desangiz ham, yomon desangiz ham shu dardisar masalani menga ochti qilib bersangiz benixoya xursand bo'laman».

A.M. Gorkiy qo'lyozmani o'qib chiqqach, o'z taassurotini A.A. Fadeyev bilan o'rtoqlashdi. Unga yozgan xatida shunday deydi: «Tinch Don» romanining uchinchi qismi (gap uchinchi kitob ustida — Red.) mening fikrimcha, badiiy jihatdan yuksak darajali asardir, ikkinchi kitobga qaraganda ancha baland turadi, yaxshi yozilgan», «Sholoxov — talantli yozuvchi, kelajakda u eng usta sovet adibi bo'lib yetishishi mumkin...»

Keyinchalik A.M. Gorkiy romanning ahamiyati ustida qayta-qaytu to'xtalib o'tgan edi. Bir qator xatlarda, maqola va nutqlarida romanning ayrim joylarini maqtab gapirgan, unga chuqur mazmunli xarakteristika bergan edi.

Gorkiyning aralashgani tufayli uchinchi kitobning nashri tezlashtirildi. Dastlab u «Oktyabr» jurnalida bosildi (1929-yildagi 1—3 sonlarda va 1932-yildagi 1—8 va 10-sonlarda, 1933-fevral oyida Davlat badiiy adabiyot nashriyatida to'la ravishda bosilib chiqdi, o'sha yili «Roman — gazetada» ham bosildi. Keyin bir necha marta qayta nashr etildi.





## MUNDARIJA

Oltinchi qism.....	3
Eslatma.....	449





*Abadiy-badiiy nashr*

MIXAIL ALEKSANDROVICH SHOLOXOV

**TINCH DON**

TO'RT KITOBLI ROMAN

UCHINCHI KITOB

Tarjimon **Odil Sharopov**

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*  
To'plab, nashrga tayyorlovchi *Sh. Beknazarova*  
Rassom-dizayner *B. Zufarov*  
Muharrir *Sh. Beknazarova*  
Texnik muharrir *T. Xaritonova*  
Musahhah *G. Pattohova*  
Kompyuterda sahifalovchi *B. Dushanova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.  
Bosishga 2021-yil 19-apelda ruxsat etildi.  
Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Ofset qog'oz. «New Roman» garniturasida  
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 28,50.  
Nash tabog'i 26,96. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-119.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.  
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)


**Sholoxov M.A.**

Sh 76 Tinch Don [Matn]: roman, 3-kitob / M.A. Sholoxov. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 456-b.

ISBN 978-9943-7144-1-0

**UO'K 821.161.1-31**  
**KBK 84(2Ros-Rus)**





28407, 30





M. A. SHOLOXOV

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7144-1-0

